

F.R.Qodirova, Sh.K.Tashpulatova

*Maktabgacha ta`lim
muassasasisida (Bolalar
bog`chasida) metodik ishlar*

Darslik

Toshkent 2011

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta`lim vazirligi

F.R.Qodirova, Sh.K.Tashpulatova

Maktabgacha ta`lim muassasasida (Bolalar bog`chasida)metodik ishlar

Ushbu darslikda maktabgacha ta`limning asosiy masalalari, jumladan MTM metodistining faoliyati, unga qo'yiladigan kasbiy va malakaviy talablar, pedagogik jamoaga raxbarlik qilish, MTM ta`lim – tarbiya va metodik ishlarni rejalashtirish, ilg'or tajribalarni o'rganish va tadbiq qilish, turli yosh guruxlarida bolalar hayoti va faoliyatini tashkil etish, maktabgacha ta`limning gigienik asoslari kabilar yoritiladi.

Darslik o'rta maxsus kasb - xunar muassasalari maktabgacha ta`lim va maktabgacha, oilaviy va maxsus ta`lim tarbiyachisi yo'nalishlari o'quvchilari uchun mo'ljallangan. Undan oliv pedagogik ta`lim muassasalari o'qituvchi va talabalari ham foydalanishlari mumkin.

Taqrizchilar:

Nizomiy nomli TDPU “Pedagogik texnologiyalar” kafedra mudiri, pedagogika fanlari doktori Sh.S.Shodmonova

Maktabgacha muassasa hodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish Respublika O'quv metodika Markazi direktori o'rinbosari p.f.n., dots. M.Sh.Rasulova

Kirish

Jamiyatning ma`naviy takomili unda amalga oshiriladigan ta`lim – tarbiya ishlarining mazmuni, shakl mohiyatiga bog'liqdir.

Shu boisdan ham Respublikamizda bosqichma – bosqich amalga oshirilayotgan ta`lim tizimini pedagogik tahlil qilish, bu jarayonni samarali kechishini ta`minlash zarurati yuzaga keladi. O'zbekiston Respublikasining "Ta`lim to'g'risida" gi Qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" da – ta`lim tizimida kadrlar salohiyatini tubdan yaxshilash, tarbiyachi, o'qituvchi, muallim va ilmiy xodimning kasbiy nufuzini oshirish vazifalari belgilab berilgan.

Bu vazifalarni to`laqonli hal etishda o'qituvchi – pedagogning intellektual salohiyati va kasbiy mahorati muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda Oliy va o'rta maxsus ta`limini isloh qilishning asosiy yo'nalishlari o'z mutaxassisligi bo'yicha malakali kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, nazariy bilimlarni amaliy tayyorgarlik bilan qo'shib olib borish zarurligi ko'rsatib o'tilgan.

Bu talablar pedagogika kollejlarining maktabgacha ta`lim yo'nalishida tarbiyachi uslubiyotchilar tayyorlashga ham taaluqli bo'lib, ularda maktabgacha ta`lim muassasalarida metodik ishlar fani ixtisos beradigan o'quv fani hisoblanadi.

O'quvchi – talabalarga maktabgacha ta`lim muassasalarida olib boriladigan ta`lim – tarbiyaviy, metodik ishlarga umumiyligi nazariy yondashish masalalarini ochib berar ekan, maktabgacha ta`lim muassasalarida amalga oshiriladigan barcha metodik va ta`lim – tarbiya berish ishining mazmuni, ularni tashkil etish, shakl va metodlarini tanlash qonunuiyatlarini belgilovchi asosiy fan sifatida namoyon bo'ladi. Bu masalalarni hal etishda u "Maktabgacha ta`lim pedagogikasi", "Oila pedagogikasi" fanlarining umumiyligi - nazariy asoslari, uning metodologiyasiga, ta`lim – tarbiya nazariyasiga tayanadi.

Maktabgacha ta`lim muassasalarida metodik ishlar pedagogika fanining muhim sohasi bo'lib, uslubchi tomonidan metodik ishlarni tashkil etish bilan bog'liq bo'lgan jihatlarni yoritib beradi. U ijtimoiy pedagogika va maxsus metodikalar bilan umumiyligi nazariy asoslarga ega.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash va rivojlantirishning aniq qoidalari mazkur muammolarga taaluqli maktabgacha pedagogika fanining umumiyligi nazariy qoidalarga tayanadi.

Bu xol asosiy ixtisos beradigan kursning zaruriy g'oyaviy – nazariy darajasini ta`minlashga uning mazmunini maktabgacha pedagogika fani tomonidan ishlab chiqilgan asosiy metodologiya va nazariy qoidalari negizida yoritishga imkon beradi.

Maktabgacha ta`lim muassasalarida metodik ishlar fanining asosiy qonunuiyatlarini quyidagilar:

1. Maktabgacha ta`limning Davlat xarakteri, uning ta`lim tizimidagi tutgan o'rni, maktabgacha ta`lim muassasasi uslubchisining ma`naviy – madaniy va umumkasbiy darajasi, uning liderlik va boshqaruv jihatlari, tamoyillari va xususiyatlari to'g'risida tasavvur va bilimga ega bo'lish.

2. Maktabgacha ta`lim muassasasi ishini rejalashtirishning nazariy asoslari, ta`lim – tarbiyaning maqsadi, mazmuni, shaxsni barkamollikka etaklovchi omillar, jamoada sog'lom muhitni yaratish.

3. Maktabgacha ta`lim muassasasida bolalar hayotining turli qirralarini tashkil etishda tarbiyachi va uslubchi tomonidan qo'llaniladigan metod va usullar, nazorat shakllari va uni o'tkazish metodikasi.

4. O'quv faoliyatini tashkil etish, nazorat va raxbarlikning o'ziga xos xususiyatlari.

5. Metodik ishlarning turlari – shakllari, pedagogik, innovatsion texnolgiyalar asosida tashkil etishning qonuniyatları, imkoniyatlari.

6. Maktbgacha ta`lim muassasasining ota – onalar va jamoatchilik bilan xamkorlik ishidagi maktabgacha ta`lim muassasasining bola tarbiyasidagi majburiyatları, tarbiya va rivojlanish muammolariga uzlusiz yondashish, bolalarga ta`lim - tarbiya berish, ularni rivojlantirish jarayonlarning birligi o'zaro bog'liqligini amalga oshirish, oilaning ijtimoiy, ma'naviy, iqtisodiy, demografik, amaliy vazifalari, ota-onalar savodxonligini oshirish bilan bog'liq bo'lgan ish shakllarini tanlash imkonini beradi.

Boblarning izchilligi. Maktabgacha ta`lim muassasasida metodik ishlar kursining o'quvchi-talabalarni kasbiy tayyorlash tizimidagi axamiyati bilan va malakalarini o'zlashtirish vaqtida bolalarni tarbiyalash masalalari ochib beriladi, shuningdek fanlar o'rtasida va fanlar ichida aloqalar o'rnatishga imkon beradi. Darslikda o'quvchi - talabarning bilimlarni o'zlashtirish va mustahkamlash maqsadida nazorat savollari, tayanch iboralar va test savollari, boblarga tavsiya qilingan adabiyotlar ro'yxati kiritilgan.

Ushbu darslikning yaratilishida mustaqillik yillarda shu soha bo'yicha shug'ullanib kelgan olimlar va etakchi mutaxassislar tomonidan chop etilgan ilmiy manbalardan foydalanildi.

Xulosa o'rnida, maktabgacha ta`lim muassasalarida metodik ishlarni tashkil etish masalalarini qarab chiqishga yaxlit psixologik – pedagogik nuqtai nazardan yondashish talab etiladi, bu esa maktabgacha ta`lim tizimida amalga oshiriladigan metodik ishlarni ilmiy asoslarini kengaytiradi.

I BOB. Maktabgacha ta`lim muassasasi uslubchisining pedagoglar jamoasi faoliyatidagi o'rni.

Reja:

1. Maktabgacha ta`limning Davlat xarakteri, uning xalq ta`limi tizimida tutgan o'rni.
2. Maktabgacha ta`lim muassasasi uslubchisi, uning huquqi, vazifalari va unga qo'yiladigan talablar.
3. Uslubchining liderlik va boshqaruv jihatlari.
4. Liderlikka oid nazariyalarining paydo bo'lishi.

II. Mavzuning maqsadi.

Maktabgacha ta`limni tashkil etishning maqsad vazifalari, ta`lim sohasidagi qonun xujjatlarida maktabgacha ta`limning yoritilishi, maktabgacha ta`lim muassasasi uslubchisi lavozimi, uning ish faoliyati, unga qo'yiladigan asosiy kasbiy talablar, uslubchi tomonidan jamoani boshqarish va liderlik jihatlari to'g'risida nazariy bilimlar berish.

III. Mavzuning vazifalari.

O'quvchilarga maktabgacha ta`lim muassasalarini tashkil etilishi haqida, maktabgacha ta`lim muassasasi uslubchisi ishi bilan tanishishtirish, uslubchining liderlik etakchiligi jamoani boshqara olish jihatlarining pedagogik – psixologik qirralarini o'rganish.

IV. Tayanch iboralar: Ijtimoiy – davlat tomonidan tashkil etiladigan muassasalar
“Lider” – “peshqadam - etakchi”.
XTB – Xalq ta`limi bo'limi.
simpatiya – yoqtirish
antipatiya – yoqtirmaslik
destruktiv – buzg'unchi hulqqa ega
xarizmatik nazariyasi – liderlik sifatlari nazariyasi

1.1. Maktabgacha ta`limning Davlat harakteri, uning xalq ta`limi tizimida tutgan o'rni

Maktabgacha ta`lim uzliksiz ta`lim tizimining boshlang'ich turi hisoblanadi hamda O'zbekistan Respublikasini Ta`lim to'g'risida va «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» to'g'risidagi qonunlari talablari asosida tashkil etildi.

Maktabgacha ta`lim sog'lom, har tomonlama etuk bolalarni tarbiyalash uchun zarur tashkiliy, uslubiy, psixologiq pedagogik shart - sharoitlar yaratadi, bolalarni maktabda muntazam ravishda ta`lim olishga tayyorlashda ota - onalarga yordam

beradi. Maktabgacha ta`lim bola 6 - 7 yoshga etguncha oilada, hamda davlat va nodavlat maktabgacha bolalar muassasalarida amalga oshiriladi.

Maktabgacha ta`lim, bola shaxsini maktabgacha yoshdagি bolalar ta`lim - tarbiyasiga qo'llaydigan Davlat talablariga muvofiq sog'lom va etuk mакtabda o'qishga tayyorlangan tarzda shakllantirish maqsadini ko'zlaydi.

Maktabgacha ta`limning vazifalari:

- Bolalarning hayotini muhofaza qilish va sog'lig'ini mustahkamlash;
- Bola shaxsi asoslarini shakllantirish, uning bilimga qiziqishlarini rivojlanishini;
- Bolaning intellektual, shaxsiy va jismoniy rivojlanishini ta`minlash;
- Bolaning rivojlanishidagi nuqsonlarni zarur tarzda tuzatish;
- Bolalarni milliy madaniyat va umuminsoniy qadriyatlar bilan tanishtirish;
- Bolalarni mакtabda o'qishga tayyorlash.

Maktabgacha ta`lim uzlusiz ta`limning hamma turlari bilan mustahkam aloqada olib boriladi.

«O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida – oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir, hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lisch huquqiga ega» deyilgan. Shuningdek, voyaga etmaganlar - davlat himoyasidadir - deb uqtiriladi.

Maktabgacha ta`lim muassasasi oila va jamiyatning bolalarga g'amxo'rlik qilish, milliy va mintaqal xususiyatlarini hisobga olgan holda har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash va rivojlanishga bo'lgan ehtiyojini qondirish maqsadida tashkil etiladi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyada onalik va bolalikni Davlat tomonidan muhofaza qilinadi deb, uqtiriladi.

Ijtimoiy maktabgacha ta`lim - bu Davlat tomonidan tashkil etiladigan Davlat muassasalari bo'lib, unda maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga ta`lim va tarbiya beriladi. Ijtimoiy maktabgacha ta`limning vujudga kelishi asosan 1917-1918 yillardan keyingi davrlarga to'g'ri keladi. Bunda xalq komissarligining maktabgacha tarbiya bo'yicha 1917 yil 20 noyabrdagi deklaratsiyasi «Bolalar himoyasi Kengashining tuzilishi mamlakatda Davlat tomonidan maktabgacha ta`lim muassasalarini ko'plab ochilishi maktabgacha tarbiya bo'yicha xodimlarni tayyorlash vazifalarini qo'yadi. Xotin-qizlarni mamlakatimizning xo'jalik va siyosiy hayotiga etish ishlari maktabgacha ta`lim muassasilarini tarmoqlarini kengaytirish va qishloqda dastlabki maktabgacha ta`lim muassasalarini tashkil etishda qadam qo'ydi. 1918 yilda Turkiston Xalq komissarligi qoshida maktabgacha tarbiya bo'limi tashkil etiladi. Bu bo'limning vazifasi joylarda katta tashkiliy ishlarni – maktabgacha ta`lim muassasilarini uchun joy qidirish va ularni kerakli jihozlar bilan ta`minlash, tarbiyachilar tanlash va ota-onalar o'rtasida pedagogik tashviqot qilishdan iborat edi.

Kadrlar tayyorlash milliy Dasturida maktabgacha ta`limning vazifalari quyidagicha izohlanadi:

Maktabgacha ta`lim bola sog'lom, har tomonlama kamol topib shakllanishini ta`minlaydi, unda o'qishga intilish hissini uyg'otadi, uni mutazam ta`lim olishga tayyorlaydi. Maktabgacha ta`lim bola 6-7 yoshga etgunicha davlat va nodavlat

maktabgacha ta`lim muassasalarida hamda oilalarda amalga oshiriladi. Maktabgacha ta`lim maqsadi va vazifalarini ro`yobga chiqarishda mahallalar, jamoat va xayriya tashkilotlari, xalqaro fondlar faol ishtirok etadi.

Maktabgacha tarbiyani rivojlantirish uchun quyidagilarni amalga oshirish lozim bo'ladi:

- Malakali tarbiyachi va pedagog kadrlarni ustivor ravishda tayyorlash;
- Maktabgacha ta`limni samarali psixologik - pedagogik uslublarini izlash va joriy etish;
- Bolalarni oilada tarbiyalashni tashkiliy, psixologik, pedagogik va uslubiy jihatdan ta`minlash;
- Zamonaviy o'kuv - uslubiy qo'llanmalar, texnik vositalar, o'yinchoqlar va o'yinlar yaratish hamda ularni ishlab chiqarish;
- Maktabgacha yoshdagi bolalarni xalqning boy madaniy - tarixiy merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida ma`naviy - axloqiy jihatdan tarbiyalash uchun shart - sharoitlar yaratish;
- Maktabgacha ta`lim muassasalarining har xil turlari uchun turli variantlardagi ta`lim dasturlarini tanlab olish, maktabgacha tarbiyaning barcha masalalari bo'yicha malakali maslahat xizmati ko'rsatish imkoniyatini yaratish;
- Maktabgacha tarbiya va sog'lomlashtirish muassasalari tarmog'ini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish mexanizmini ishlab chiqish.

Maktabgacha ta`lim muassasasining ta`lim-tarbiyaviy ishlar sohasidagi huquq va burchlari.

Maktabgacha ta`lim muassasasida bolalar, ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar va pedagog xodimlar ta`lim jarayonining qatnashchilari hisoblanadi.

Maktabgacha ta`lim muassasasida vasiylik kengashlari tashkil etiladi, ularni saylash tartibi va ularning vakolatlari maktabgacha ta`lim muassasasining ustavlarida belgilanadi. Vasiylik kengashlarining faoliyati belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Xalq ta`limi vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan kengashi to'g'risidagi namunaviy nizom asosida amalga oshiriladi.

Bolalarni qabul qilishda maktabgacha ta`lim muassasasi ota-onalari yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslarni muassasaning ustavi va uning faoliyatini tartibga soladigan boshqa hujjatlar bilan tanishtirilishi shart.

Maktabgacha ta`lim muassasasi bilan ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar shartnomaga bilan tartibga solinadi. Shartnomaga o'qitish, tarbiyalash, qarab turish va parvarish qilish jarayonida paydo bo'ladigan tomonlarning huquqlari, majburiyatlari va javobgarligini o'z ichiga oladi.

Ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar:

- O'z bolalar uchun o'qitish va tarbiyalashning shakllarini, maktabgacha ta`lim muassasalari tipini va ta`lim berish tilini tanlash;
- Maktabgacha ta`lim muassasasi ma'muriyatidan maktabgacha ta`lim

muassasasining ustaviga muvofiq bo'lgan zarur shart-sharoitlar ta`minlanishini talab qilish;

- Bolaning shaxsiga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo'lismeni talab qilish;
- Bolalarning bolalar maktabgacha ta`lim muassasidagi hayot kechirishini tashkil etishda faol ishtirok etish;
- Rejim doirasida ular uchun qulay bo'lgan istalgan vaqtda bolalarni maktabgacha ta`lim muassasasiga olib kelish va undan olib ketish huquqiga ega;
- Ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar qonun hujjalariiga va shartnomaga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishlari mumkin.

Ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar quyidagilarga majbur:

- Bolalarning jismoniy va psixik sog'lig'i uchun g'amxo'rlik qilish;
- Bolaning qadr-qimmatiga hurmat bilan munosabatda bo'lish, unda mehnatsevarlik, ezgulik, mehr-shavqat fazilatlarini, o'zidan kata yoshdagilarga hurmat bilan munosabatda bo'lish tuyg'ularini tarbiyalash;
- Belgilangan me`yorlarga muvofiq bolalar bog'chasida bolaning ta`minotiga to'loymi o'z vaqtida to'lash;
- Bolalarni oilada tarbiyalash uchun zarur shartsharoitlarni ta`minlash;
- Bolalarning to'laqonli ovqatlanishini, ularda shaxsiy gigiena ko'nikmalarini shakllantirilishini qat'iy kuzatib borish, bolani maktabgacha ta`lim muassasasiga ozoda kiyingan xolda olib kelish.
- Ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar qonun hujjalariiga va shartnomaga muvofiq boshqa majburiyatlar ham olishlari mumkin.

Maktabgacha ta`lim muassasasi tarbiyanuvchisi va xodimlari o'rtasidagi munosabatlar o'zaro hamkorlik, bolaning shaxsini hurmat qilish va unga shaxsiy xususiyatlariga muvofiq rivojlanishi uchun erkinlik berish asosida olib boriladi.

Maktabgacha ta`lim muassasasi jamoasini butlashtartibi namunaviy shtat jadvaliga muvofiq belgilanadi.

Tegishli pedagogik ma'lumotiga, kasbiy tayyorgarlikka va yuksak axloqiy sifatlarga ega bo'lgan shaxslar pedagogik faoliyat bilan shugullanish huquqiga ega.

Sud xukmi yoki tibbiy xulosaga muvofiq pedagogik faoliyat bilan shug'ullanishi taqiqlangan shaxslarni ushbu faoliyat bilan shug'ullanishiga yo'l qo'yilmaydi.

1.2. Maktabgacha ta`lim muassasasi uslubchisi, uning huquqi, vazifalari va unga qo'yilgan talablar.

Ta`lim to'g'risidagi qonunning «Ta`lim tizimi boshqarish» nomli 4 bo'limi, 25 moddasida shunlay deyiladi: Ta`lim soxasida yagona davlat tizimini amalga oshirish Davlat boshqaruv organlariga rahbarlik qilish ta`limni rivojlantiruvchi dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish har bir rahbarning bosh vazifalaridan biridir. Maktabgacha ta`lim to'g'risidagi Nizomda ham maktabgacha ta`lim muassasalarini boshqarish va kadrlar tayyorlash ishlarini amalga oshirish,

rahbarning huquq doirasi kafolatlari belgilab berilgan. Maktabgacha ta`lim muassasasi ustavida har bir bolalar muassasasi tomonidan qabul qilingan ustaviga binoan uslubchining ish jarayonida huquq va vazifalari aniqlab belgilab beriladi, ya`ni uslubchi, birinchidan, oliy yoki o`rta maxsus ma`lumotiga bo`lgan etakchi metodik jihatdan kuchli ma`naviy, siyosiy ongi, dunyoqarashi keng tadbirkor, kamida bitta xorijiy tilni biluvchi pedagoglardan tayinlanadi. Shuningdek, uslubchi quyidagilarni bilishi lozim:

- maktabgacha bolalar muassasasidagi ta`lim - tarbiyaviy ishga metodik rahbarlikni amalga oshiradi;
- «Uchinchi ming yillikning bolasi» Dasto`rining bajarilishini ta`minlaydi va nazorat qiladi, ta`lim - tarbiyaviy ishning to`g`ri uyushtirilishi uchun javobgar;
- ilg`or pedagogik tajribani o`rganadi, umumlashtiradi va tarqatadi, pedagogik kengashda ko`rib chiqish uchun zarur materiallarni tayyorlaydi;
- maktabgacha bolalar muassasasidagi metodik kabinetning ishini tashkil qiladi; bolalarnnng yoshlariga muvofiq pedagogik qo'llanmalar va o`yinchoqlarni tanlaydi;
- ota-onalar o`rtasida pedagogik bilimlarni tashviqot qilish, turli guruh tarbiyachilari, shuningdek, maktabgacha bolalar muassasasi va maktab ishida ketma ketlilikni ta`minlash bo`yicha ishni uyushtiradi.

Uslubchi oliy pedagogik ma`lumotga (maktabgacha ta`lim bo`limi) ega bo`lgan yoki o`rta pedagogik (maktabgacha bo`limi) ma`lumotiga va kamida 3 yil pedagogik stajiga ega bo`lgan eng yaxshi tarbiyachilardan tayinlanadi.

O`z hamkasblarining hurmatini qozonishi va ularga o`z vazifalarini muvaffaqiyatli bajarishlarida yordam berish uchun uslubchi qanday rahbarlik sifatlariga ega bo`lishi kerak?

Uslubchi faqat yaxshi nazariy tayyorgarlikkagina emas, balki bilimlarni amalda qo'llash ko`nikmasiga ham ega bo`lishi zarur.

Tajribali uslubchining tashabbuskorligi va ishga ijodiy yondoshishi: g`oyalarini umumlashtira bilish, maqsadga muvofiq ishslash, har bir tarbiyachining imkoniyat va qobiliyatlarini hisobga olishiga qarab farqlanadi.

Uslubchi talablarni qo`yishda talabchan va qatiy bo`lishi kerak. Rahbarning o`ziga buysinuvchilar bilan muloqotning emotsiyal - irodaviy tomonini ifodolovchi bu sifatlar rahbarlik uslubining muhim xislatini, talabchanlikni hosil qiladi. Yuksak talabchanlikni sezgirlik, xayrioxlik, odamlarga hurmat bilan birga olib borish zarur. Talabchanlik - bu qattiqko`llik degan gap emas. Buyruqlar, qattiq tanbehtar, xayfsanlarning foydasidan ko`ra zarari ko`proq va bu odatda rahbarning kuchliligidan emas, balki zaifligidan dalolat beradi.

Maktabgacha ta`lim muassasasi uslubchisining ta`lim - tarbiyaviy faoliyatining samaradorligi uning obro`si ko`p jihatdan pedagoglar jamoaning jipslashganligiga, eng avvalo butun maktabgacha ta`lim muassasa rahbar yadrosida birlik va o`zaro tushunishning mavjudligiga bog`liq bo`ladi.

Tarbiyachilarning aniq intizomi va ishda uyushqoqligini ta`minlash; jamoada jamoatchilik fikrini, tarbiyachilarning bir - birlarining kamchiliklariga tanqidiy munosabatini shakllantirish, mehnat faolligi va ijodiy ishslash ehtiyojini

rag'batlantirish; qabul qilingan qarorlar echimini ta`minlash kabi ijtimoiy - psixologik masalalarini hal qilish uslubchi uchun birmuncha murakkablik qiladi.

Har bir yosh mutaxassis ishini endi boshlayotgan yosh tarbiyachi maslahatlar olib turishi uchun unga tajribaliroq murabbiy va obro'liroq tarbiyachini biriktirish lozim.

Yosh mutaxassisning kasb mahoratini egallab olishi osonlik bilan bo'lmaydi. Mana shuning uchun ham yosh pedagog ishining ilg'or metodlari va usullarini egallahsga, o'z bilimlarini doimo to'ldirib borishga, erishilganlar bilan cheklanmay, tarbiya asoslarini egallahsh ishtiyokini singdirishga yo'llash uslubchining vazifasi hisoblanadi.

Uslubchining doimiy hujjatlari qatoriga guruhlardagi ta`lim - tarbiyaviy va sog'lomlashtirish ishlarini nazorat qilish daftari (jurnali) ham kiradi. Unda uslubchi o'zining guruhlarda bolalarning o'quv, o'yin, mehnat faoliyatlarini o'rganishga doir ishini; tarbiyachilar ishining sifatini; bolalarning dasto'rining turli bo'limlari bo'yicha egallagan bilim, ko'nikma va malakalarining tahlili; bolalarning xulq - atvor madaniyati, ma`naviy- irodaviy sifatlarini, jamoada yashash ko'nikmalarini egallaganlik darajalari va shu kabilarni aks ettiradi. Uslubchi tarbiyachilar ishidagi ijobiy jarayonlarni va kamchiliklarni qayd etadi, ularning qiyinchiliklari va muvaffaqiyatsizliklari sabablarini tahlil qiladi hamda ishni yaxshilashning aniq yo'llarini ko'rsatadi.

Maktabgacha ta`lim muassasasi (yasli - maktabgacha ta`lim muassasasi) tarbiyachi – uslubiyotchisi lavozimining malaka tavsiflari

Maktabgacha ta`lim muassasasi (yasli - maktabgacha ta`lim muassasasi) tarbiyachi – uslubiyotchisi lavozimining majburiyatlariga quyidagilar kiradi:

a) maktabgacha ta`lim muassasasi (yasli - maktabgacha ta`lim muassasasi) jamoasi o'quv - tarbiyaviy faoliyatiga metodik uslubchilik qiladi, barcha yosh guruxlarida bolalarni tarbiyalash va o'qitish dasturlarining bajarilishini ta`minlaydi va nazorat qiladi, bevosita bolalar bilan ishlovchi tarbiyachilarga va tibbiy xamshiralarga zarur metodik yordam ko'rsatadi.

b) maktabgacha ta`lim muassasasida metodik kabinet ishini tashkil qiladi, bolalarmi tarbiyalash va o'qitish bo'yicha yo'riqnomalar - metodik materiallarni umumlashtiradi, ilg'or tarbiyani o'rganadi va umumlashtiradi, tarbiyachilar va tibbiy xamshiralalar orasida tajriba almashish ishlarini tashkil qiladi tarbiyachilar uchun ularga amaliy yordam berish maqsadida maslahatlar o'tkazadi;

v) bolalar tarbiyachisining dolzarb masalalarini pedagogik kengashning muhokamasiga qo'yadi, pedagogik kengashlarga materiallar tayyorlash va unda tarbiyachilarning faol ishtirokini ta`minlaydi, qabul qilingan qarorlarning bajarilishini nazorat qiladi, ota - onalar orasida pedagogik bilimlarning tashviqoti bo'yicha, maktabgacha ta`lim muassasasilar va maktablardagi turli yosh guruxlari bo'yicha tarbiyachilar ishida izchillikni ta`minlash bo'yicha ishni tashkil qiladi.

Maktabgacha ta`lim muassasasi (yasli - maktabgacha ta`lim muassasasi) tarbiyachi - uslubiyotchisi quyidagilarni bilishi kerak:

a) "Ta`lim to'g'risida"gi, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi qonunlarini, maktabgacha ta`limga qo'yilgan davlat talablarining mazmunini, xukumatning tegishli qarorlari, Xalq ta`limi vazirligining buyruqlari,

farmoyishlari, buyruqnomalari, metodik va me`yoriy xujjatlarini, bolalarni maktab ta`limiga tayyorlash dasturi va tarbiyaviy ishlar kontseptsiyasini;

b) maktabgacha pedagogika va psixologiyani, maktabgacha yoshdag'i bolalarni o'qitish va tarbiyalash shakl va metodlarini, maktabgacha ta`limga davlat talablarini nazorat qilish shakllari va metodlarini, bolalar hayoti va sog'lig'inu muhofaza qilish qoidalarini;

v) pedagogik fan va aialiyotda ishlab chiqilgan me`yoriy - metodik xujjatlarni, o'quv va tarbiya jarayonida o'qitish texnikaviy vositalardan foydalanish amaliyotini.

Maktabgacha ta`lim muassasasi (yasli - maktabgacha ta`lim muassasasi) tarbiyachi - uslubiyotchisi lavozimiga quyidagi malaka talalari qo'yiladi:

- a) Oliy yoki o'rta maxsus pedagogik (maktabgacha) ma'lumot;
- b) uch yildan kam bo'lмаган pedagogik ish staji.

1.3. Uslubchining liderlik va boshqaruv jihatlari

Uslubchi jamoani boshqarishda o'zi shaxsiy namuna bo'lishi lozim, ya`ni u barcha ishlarni oldida, boshida bo'lib etakchilik qiladi. Umuman olganda ko'p adabiyotlarda «lider» so'zini «etakchi» atamasi bilan almashtirish hollari ko'p uchraydi. O'ylashimizcha, «etakchi» atamasi «lider»ga xos bo'lgan psixologik tavsifni to'la ifodalay olmaydi. «Etakchi» so'zi guruhga munosabat sifatida, uning a`zolariga ta`sir o'tkazuvchi va maqsadga etaklovchi shaxsga nisbatan ishlatiladi. Etakchilik guruh tarkibini, undagi munosabatlar tizimini tahlil etish orqali aniqlanadigan shaxs holatidir. Lekin liderga xos bo'lgan fazilatni ifodalovchi yana qator jihatlar borki, ularni munosabatlar tizimi doirasidagina tahlil etolmaymiz. Bunday talqinda liderga xos bo'lgan asosiy jihatlardan yana biri – shaxsning vaziyatga muvofiq ravishda harakat qilish qobiliyatini hisobga olish zarurati tug'iladi. Biron - bir muammoli vaziyatda paydo bo'lgan qiyinchilikni bartaraf etishdagi tashabbus, topqirlik va mohirlik liderga xos fazilatlardir. Muammoni echish bilan bog'liq qiyin vaziyatda lider boshqalarga nisbatan o'zining ilg'orligi, peshqadamligi bilan ajralib turadi. Fikrimizcha, o'zbek tilida aynan shu ikki ibora - «peshqadam» va «etakchi» so'zleri majmuasi lider mohiyatini to'la ifodalashi mumkin.

Nazarimizda, «Etakchi» so'zi shaxsning guruhni etaklashga, boshchilik qilishga bo'lgan ishtiyoqi mavjudligidan kelib chiqadi. «Peshqadam» iborasi esa ma'lum fazilatlarga ega bo'lgan shaxs ketidan guruhning ergashishini, jamoaning o'z ixtiyoriga ko'ra o'zi ishongan odam borayotgan yo'lni tanlashini anglatadi. Aynan shu xolat «lider» iborasiga nisbatan ham ishlatilishi zarur. Liderning bu xususiyati uning hissiy jozibadorligida, o'zgalarni o'ziga jalb etish fazilatida namoyon bo'ladi.

Shunday qilib, «lider» so'zini faqat «etakchi» atamasi bilan almashtirish liderlik holatining psixologik talqinini tor doiraga kiritib qo'yadi. Ushbu mulohazadan kelib chiqqan holda qo'llanmamiz matnida «lider» so'zidan foydalanishni ma`qul deb hisoblaymiz. Bundan tashqari, «lider» so'zidagi izohiy ma`noni anglab olish o'zbek kitobxoni uchun tanish holdir.

Liderlik va rahbarlik. Mehnat jamoasidagi har bir xodim guruhda o'zining mavqeiga ega. Bu mavqe rasmiy yoki norasmiy tarzda qo'lga kiritilgan bo'lishi mumkin. Rasmiy mavqe xodimning mansab pog'onasidagi o'rni va uning lavozimidan kelib chiquvchi vakolatlari bilan ifodalanadi. Har qanday xodim o'z hamkasabali bilan o'zaro munosabatda bo'lar ekan, turli omillar ta'sirida bu munosabatlar hissiy rang ola boshlaydi.

Hissiyotga asoslangan munosabatlar ikki ko'rinishda - yoqtirish (simpatiya) va yoqtirmaslik (antipatiya) sifatida shakllanadi. Shunday xodimlar ham borki, ular o'zining ma'lum xislatlari bilan jamoaning ko'pchilik a`zolarida simpatiya uyg'ota oladilar va ular guruhning norasmiy tizimida yuqori mavqeni egallaydilar. Psixologik talqin bo'yicha, jamoaning rasmiy tizimida yuqori mavqeni egallovchi xodim rahbar bo'lib hisoblansa, norasmiy tizimda yuqori mavqeni egallovchi shaxs esa – liderdir.

Liderlik holati, odatda, guruhning norasmiy munosabatlar tizimida amalga oshadi. Biron-bir shaxsning lider darajasida tan olinishi unga hissiy yaqinlikni, uning ish bilan bog'liq bo'lган qator fazilatlarini yuqori baholashni va ushbu shaxsning guruh manfaatlariga e'tiborliligini anglatadi. Lider - guruhning hamma a`zolari tomonidan tan olingan shaxs. Liderning qadriyatlar tizimidagi asosiy jihat - guruh manfaatini har narsadan ustun qo'yish, doimo guruh oldiga qo'yilgan vazifani echishga sidqidildan kirishish va bu jarayonda jamoani safarbar eta olishidir.

Mehnat jamoasidagi lider avvalambor o'zining ishchanlik xususiyatlari bilan farqlanib turadi, chunki, u aynan mehnat faoliyati tufayli boshqalardan ajralib ko'zga tashlana boshlaydi. Bundan tashqari, lider, guruh manfaatini himoya etar ekan, kezi kelganda rasmiy munosabatlar tizimiga va rasmiy doiralar manfaatiga ham zid chiqo oladi. Natijada, jamoada rasmiy rahbar va norasmiy lider o'rtasida ziddiyat paydo bo'lishi mumkin. Korxona manfaatidan kelib chiqsak, jamoadagi rasmiy rahbar va norasmiy tizimda shakllanuvchi lider bir shaxs orqali ifodalanishi eng maqbul holdir.

Zamonaviy psixologiya fani, o'z yutuqlari orqali, liderga xos fazilatlar tabiatini va unga erishish yo'l-yo'riqlari haqida etarlicha ma'lumot bera oladi. Shu munosabat bilan liderga xos bo'lган jihatlarni uch toifaga kiritishimiz mumkin: 1) jamoa manfaatlariga yo'nalganliq 2) kasbiy mohirlilik, har qanday muammoli vaziyatda qiyinchilikni o'z bo'yniga olish va ishni oxirigacha hal etishda tashabbuskor bo'lish; 3) emotSIONAL, hissiy jalb etuvchanlik xislatlari. YUqorida sanab o'tilgan xislatlar majmuasining ketma-ketligi ham o'z mantiqiga ega.

Tadqiqotlar orqali aniqlanishicha, hissiy jalb etuvchanlik odatda lider shaxsda juda yorqin ko'zga tashlanishi shart emas ekan. Shaxsda bu ko'rsatkichning o'rtta me'yorda mavjudligi, uni liderlik darajasida tan olinishi uchun etarlidir. Lekin insonga xos hissiy jozibadorlik ko'rsatkichi pastligi ish yuzasidan o'tadigan muloqot va muzokaralarga salbiy ta'sir etishi mumkin. Rahbarning muloqot sirlarini yaxshi bilishi orqali atrofdagilarda o'zi haqida ijobiy taassurot uyg'ota olishi ushbu ko'rsatkichni oshirishdagi asosiy vositadir .

Rahbarlik tayinlanuvchi lavozimdir, liderlik esa hamfikrlar tomonidan ko'tarilgan shaxs mavqeidir. Agar rahbar va lider o'rtasidagi farqga e'tibor

beradigan bo'lsak, ko'pgina jihatlarni sanab o'tishimiz mumkin. Masalan, rahbar xodimlarga ega bo'lsa, liderning hamfikr tarafidoshlari mavjud, rahbar tayinlansa, lider jamoa a'zolari orasidan ajralib chiqadi, rahbar o'z hokimiyatiga asoslansa, lider esa obro'siga tayanadi. Rahbar o'z majburiyati bo'yicha tashkilot manfaatini birinchi o'ringa qo'yadi va shu xususiyat unga rasmiy tus berib, jamoa oldida liderga nisbatan uni bir muncha «zaif» holatga qo'yadi.

Hayotda ko'pgina jamoalar uchraydiki, ularda rasmiy rahbar va lider alohida shaxslardan iboratdir. Bunday jamoa hayotidagi ko'p vaziyatlarda guruh a'zolari rahbardan ko'ra norasmiy lider tomonida bo'lishlari ehtimoli kuzatiladi. Jamoadagi rasmiy rahbar va norasmiy liderning o'zaro munosabati doimo qiyin masalalar doirasiga kiradi. Bunday vaziyatda odatda ko'pchilik rahbarlar liderni siqib chiqarishga, undan qutulishga intilishlari kuzatilsa, boshqa bir rahbar bu liderdan foydalanishga, uni guruh maqsadiga tezroq erishish yo'liga safarbar etishi mumkin. Rahbarning lider bilan o'zaro til topishi, hamfikr bo'la olishi albatta bo'lajak muvaffaqiyatlar garovidir. Buning uchun rahbardan ham topqirlik, sabr-toqat va o'z shaxsiy manfaatidan ustun tura olish qobiliyati ko'tiladi.

Rasmiy rahbar va guruh lideri turli shaxslardan iborat bo'lsa, ular o'rtasidagi kelishmovchilik ko'pgina xodimlar tomonidan ijtimoiy adolatning buzilishi sifatida idrok etiladi. Lider bilan munosabatni rivojlantirish esa aksincha, guruhdagi kuchlarni tan olish, oqillik yo'lini tanlash deb baholanadi. Rahbar sezgir shaxs sifatida nafaqat liderga, balki bunday xislatga ega bo'lgan har bir guruh a'zosiga alohida diqqat ajrata olishi lozim. Alohida olingan lider bilan mavjud munosabatni rivojlantirish orqali guruhning boshqa a'zolari bilan o'zaro ijobiy hislarni shakllantirish imkoniyati tug'iladi. SHu ma'noda tahlil etilganda, guruhda norasmiy liderning mavjudligi rasmiy rahbar uchun guruh a'zolari bilan iliq munosabatni qurishdagi qo'shimcha ko'prikdir. Lekin hayotda hamma narsa ham o'ylanganday silliq ketavermaydi va rasmiy rahbar bilan norasmiy lider manfaatining zidligi, rahbarning iltifotli qadamiga qaramay norasmiy liderning qaysarligi to'qnash kelishi mumkin. Bu esa jamoadagi nizo bilan ifodalananadi va bunday hollarni hal etish yo'l-yo'riqlari haqida jamoadagi nizolar mavzusida batafsil gapirib o'tiladi.

Liderga xos bo'lgan fazilatlarni shakllantirish bo'yicha psixologiya faniqa qator amaliy tadbirlar mavjud bo'lib, bu xil dasturlar interfaol ta'lim uslubiga asoslangan amaliy mashg'ulotlarda o'z aksini topadi. SHaxsning liderlik jihatlarini rivojlantiruvchi psixologik tadbirlarning metodologik asoslari bir muncha bahsli bo'lib, bu mavzuning puxta ishlab chiqilishi ushbu mashg'ulotlardan olinajak natija samarasini belgilaydi. YAqin paytgacha psixologiya faniqa shaxsning liderlik xislatlarini shakllantirish bo'yicha «Xislatlar nazariyasi» degan ta'limot etakchi bo'lib kelgan. Bu ta'limotga binoan liderlikni ifodalovchi bir necha xislatlar mavjud va ushbu xislatlar majmuasi shaxsning o'zgalarga ta'sir etish qobiliyatini belgilaydi. Ammo, aniqlanishicha, xislatlarning shunchaki majmuasi shaxsni lider darajasiga ko'tara olmaydi va bu xislatlar soni bir necha o'ntalikdan iborat bo'lishi mumkin. Bu xislatlarni shakllantirish, ularni shaxs tuzilmasidagi boshqa tarkibiy jihatlar bilan muvofiqlashtirish va insonning ichki mazmun-mohiyatiga aylantirish o'ta murakkab masaladir. Ko'p yillik psixologik tadbirlar

bunday yo'lning kammahsul ekanligini ko'rsatdi.

SHaxsnинг liderlik imkoniyatini rivojlantirishning zamonaviy yondoshuvlaridan biri, insonda shakllangan qobiliyatga suyanishni va shu qobiliyatni imkon bergen vaziyatda namoyon etilishini taqozo etadi. Bunday yondoshuv «situativ liderlik» deb atalib, unda lider deb, tan olingan shaxsnинг umumiy maqsadga erishish yo'lida muammoli vaziyatda o'z qobiliyatini namoyon eta olishi tushuniladi. Bu nazariyaga binoan guruh doimo bir necha liderga ega bo'lishi mumkin va kezi kelganda har bir jamoa a'zosi muammoli vaziyatni hal etish borasida o'z qobiliyat va imkoniyatini namoyish eta oladi. Fikrimizcha, samarali foliyat olib boruvchi rahbar o'z jamoasida aynan shunday muhitni yaratishi kerakki, har bir xodim zarur vaziyatda o'z imkoniyatini ishga solish orqali muammoli vaziyatni hal etishda qatnashishi va boshqaruv jarayonida ishtirok etayotganini his qila olsin. Buning uchun jamoa, har qanday vaziyatni hal etishda chuqur mas'uliyat his etuvchi va o'z ishining ustalari bo'lган professional xodimlarga ega bo'lishi lozim. Shu bilan birga, guruhda doimo shunday xodimlar topiladiki, ular paydo bo'luvchi ko'pgina muammoli vaziyatlarni hal eta oluvchi universal qobiliyatga ega. Shu nuqtai nazardan qaraganda, liderlik ko'p jihatdan shaxs tug'ma qobiliyalarining etarli darajada shakllanganligi bilan xarakterlanadi.

Yuqorida aytganimizdek, liderlikning asosiy jihatlaridan biri – guruh manfaati haqida g'amxo'rlikdir. Shuning uchun ham liderlik ta`rifidagi asosiy ma`no kasb etuvchi tomonlar bu – shaxsnинг ushbu vaziyatni muvaffaqiyatli hal eta olish qobiliyati va guruh manfaati yo'lidagi jonbozligi deb tushunilishi mumkin.

Shaxsnинг liderlik imkoniyatini namoyon ettiruvchi yana bir asosiy tomon – jamoaning talab va istagiga mos kela olishidir. Turli mehnat jamoalari o'z mas`uliyat darajasidan kelib chiqqan holda turlichayt tashklarni namoyon etadi va hatto, ba`zida jamiyat manfaatiga to'la mos kelmaslik hollari ham kuzatiladi. Bunday jamoalarda esa, tabiiyki destruktiv, ya`ni buzg'unchi xulqqa mos keluvchi liderlar ajralib chiqadi va ular guruhning yashirin motivlarini namoyon etuvchi o'ziga xos kuchga aylanadi.

Lider va rasmiy rahbarning turli shaxslardan iboratligi va ular o'rtasidagi ziddiyat haqida yuqorida to'xtalib o'tdik. Shunday holat ham yuz beradiki, tashkilot manfaatiga zid yo'l tutgan lider atrofida o'zi kabi hamtovoqlarni to'plashi va o'zining og'uvchi xulqi bilan nafaqat tashkilot maqsadi, balki rahbarning obro'siga ham putur etkazadi. Bunday liderni darhol ishdan bo'shatish lozim, degan an'anaviy fikr bir qaraganda to'g'ri bo'lsa-da, lekin ushbu vaziyatdan tarbiyaviy maqsadlarda foydalanish rahbarning mohir tashkilotchiligidan dalolat beradi. Rahbar o'z tashkilotidagi mavjud imkoniyatlarni qo'llagan holda norasmiy liderni nafaqat guruhdan ajratishi, balki unga ma'qul keluvchi va uning qobiliyatlariga mos keluvchi vazifalarni ham topib berishi mumkin. Umuman olganda, rahbar uning manfaatlariga zid bo'lган har qanday kuchni o'z tomoniga og'dira olishi uning obro'siga obro' qo'shuvchi va jamoa oldida uning nufuzini yanada oshiruvchi eng samarali imkoniyatdir.

1.4. Liderlikka oid nazariyalarning paydo bo'lishi.

Liderlik hodisasi to'g'risida gap ketar ekan, liderlik nazariyalari haqida ham qisqacha to'xtalib o'tish o'rinni-dir. Hozirgi kunga qadar boshqaruv psixologiyasi faniqa liderlik to'g'risida asosan uchta nazariya mavjud.

Birinchisi – “*liderlik sifatlari nazariyasi*”dir yoki xarizmatik nazariya. Uning mohiyati shuki, hamma ham lider bo'la olmaydi, ayrim shaxslarda shunday sifatlar yig'indisi tug'ma mavjud bo'lib, bu sifatlar majmui uning guruhda lider bo'lishini ta`minlaydi. Masalan 1940 yilda amerikalik **K.Berd** 79 sifatdan iborat bo'lган liderlik qirralari ro'yxatini tuzdi. Bu ro'yxatda, jumladan, tashabbuskorlik, muloqotga kirisha olish, humor hissi, o'ziga ishonch, tez va aniq qarorlar qabul qila olish, tashkilotchilik kabi sifatlar bor edi. Lekin bu nazariyaning xatoligi shunda ediki, **birinchidan**, u yuqorida sifatlar qanday qilib namoyon bo'ladi-yu, qanday shakllanishi tushuntirib bera olmadi, **ikkinchidan**, so'roqlar mobaynida birorta sifat ham mutlaq ko'p marta qayd etilmadi. Tadqiqot nihoyasida o'sha boshida taklif etilgan sifatlarning atigi 5% igin aksariyat respondentlar javobida qayd etildi. Bu liderlik modelini yaratish oson emasligi to'g'risida xulosaga kelishni taqozo etdi.

Ikkinci nazariya – *liderlikning vaziyatga bog'liqligi nazariyasidir*. Bu erdag'i asosiy g'oya – lider vaziyatning mahsuli degan g'oyadir. Har bir ohamda liderlik sifatlari bor, lekin ba'zi vaziyatlar ayrim shaxslarning o'zlarini ko'rsatishlari, lider bo'lishlari uchun qulay muhit bo'lib xizmat qiladi.

Yuqorida ikki nazariyani tanqid qilish natijasida paydo bo'lган **uchinchini** nazariya – *liderlikning sintetik nazariyasidir*. Bu nazariya lider guruhiy munosabatlarning bevosita mahsuli, deb hisoblaydi hamda uning ro'yobga chiqishida guruhning birlamchi rolini ilgari suradi.

Oxirgi yillarda ko'plab olimlar, jumladan, psixologlar M.G.Davletshin, E.G'ozieva, M.Vohidov, Z.R.Qodirova, R.I.Sunnatova, M.Sh.Rasulovalarning faoliyat kontseptsiyasiga tayangan holda, liderlikni faoliyat mahsuli, guruhning ushbu faoliyatga munosabati va guruhda qabul qilingan me`yorlar hamda ijtimoiy kutilmalarga kim ko'proq darajada javob berishiga qarab liderni aniqlash mumkin, deb hisoblashmoqda. Bundan tashqari, ijtimoiy kutilmalar nazariyasi hozirda ko'pchilik tomonidan ma'qul yondashishlardan biri deb qabul qilinmoqda.

Shuni alohida ta`kidlash joizki, butun dunyoda ishlab chiqarish va uni boshqarish borasida modernizatsiya siyosatining tan olinishi, barcha davlatlarning o'ziga xos demokratiya tamoyillari asosida jamiyatni, xususan, mehnat jamoalarini boshqarish siyosatiga o'tishi munosabati bilan boshqaruv masalalariga ham munosabat o'zgardi. Jumladan, mustaqil O'zbekistonda ham erkin fuqarolik jamiyat qurish tamoyillarining yangidan belgilanganligi, Prezident **I.A.Karimov** tomonidan barcha jabhalarda, xususan, ijtimoiy sohalarda insonparvarlik siyosatining keng singdirilishi munosabati bilan rahbar va lider shaxslarga nisbatan ijtimoiy fikrda ham muayyan o'zgarishlar ro'y berdi. Bugun O'zbekiston sharoitida bunyodkorlik sifatlariga ega bo'lган, o'z oilasi, mahallasi, shaxsan o'zi va jamiyat mafnaatini o'ylab mehnat qilayotgan fuqaro jamiyat tomonidan ijtimoiy himoyada bo'lib, uning faoliyatini muvofiqlashtirish, unga etarli darajada ish

sharoitlarini yaratishga mas`ul bo`lgan rahbar, eng avvalo, unga g`amxo'r bir inson sifatida qarashi, mehnatdan manfaatdorlik psixologiyasini uning ongiga singdira bilishi shart. Xalqqa yaqin bo'lib, uning dardi bilan yashash, har bir ishning istiqbolini yaqqol tasavvur qila olish – zamonaviy rahbar-liderga xos fazilatlardir.

Zamonaviy psixologiya fani tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, boshqaruvsda, ayniqsa, uning uslublarini tanlashda sintetik tanloving bo`lishi ko'proq ahamiyat kasb etadi.

Nazorat savollari:

1. Maktabgacha ta`limning maqsad va vazifalarini yoriting.
2. Maktabgacha ta`lim muassasasi uslubchisiga qanday talablar qo'yilgan?
3. Jamoani boshqarishda uslubchining liderlik etakchilik faoliyatini qanday izohlash mumkin?
4. Ta`lim - tarbiyaviy ishlarga raxbarlik qilishda uslubchi tomonidan qanday usullar qo'llaniladi? Ularni yoritib bering.

Testlar:

1. Kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish omillari qaysi qonunda belgilab berilgan

- A. Ta`lim to'g'risidagi Qonunda
B. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida
V. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida
G. Maktabgacha ta`lim to'g'risidagi Nizomda

2. O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta`lim to'g'risidagi Nizomning maqsadi qaysi banddan to'g'ri keltirilgan

- A. Bola shaxsini maktabgacha yoshdagи bolalar ta`lim tarbiyasiga qo'yiladigan davlat talablariga muvofiq sog'lom va etuk, mакtabda o'qishga tayyorlangan tarzda shakllantirish
B. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni jismoniy va aqliy jihatdan sog'lom va etuk qilib tarbiyalash
V. 6-7 yoshli bolalarini komil inson qilib, mакtab ta`limiga tayyorlash aqliy-ahloqiy etuk inson qilib tarbiyalash
G. Maktabgacha yoshdagи bolalarni mакtab ta`limiga tayyorlash

3. Xalq talimi xodimlari asosiy vazifalarining malaka tavsiflari qaysi vazirlik ro'yxatidan o'tkaziladi

- A) O'zbekiston Xalq talim vazirligi;
V) O'zbekiston Sog'liqni saqlash Vazirligini;
S) O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi ;
D) O'zbekiston mexnat va axloqiy,ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi
4. Maktabgacha ta`limning vazifalari qaysi qonunda yoritilgan?

- A. 3 ta – Kadrlar tayyorlash Milliy dasturda.
- B. 6 ta – Maktabgacha ta`lim muassasasi xaqidagi Nizomda
- V. 4 ta – Ta`lim to`g’risidagi qonunda.
- G. 5 ta - Maktabgacha ta`lim muassasasi Ustavida.
- D. 7 ta – Bolalr huquqini himoya qilish Konventsiyasida.

5. Uslubchining asosiy vazifasi bu - ?

- A. Maktabgacha ta`lim muassasasida ta`lim – tarbiyaviy va metodik ishlarni tashkil etishda raxbarlik qilish va nazorat qilish.
- B. Jamoada ishchan kayfiyatni hosil qilish va liderlik qilish.
- V. Maktabgacha ta`lim muassasasi pedagogik xodimlari ishlarini xar tomonlama nazoratdan o’tkazish, ularni malaka oshirish kurslarida o’qitish.
- G. Ota – onalar va jamoatchilik bilan ishlarni tashkil etish.
- D. Maktabgacha ta`lim muassasasining moliyaviy – xo’jalik ishlarini tashkil etishga raxbarligi.

Adabiyotlar:

1. I.A.Karimov “YUksak ma`naviyat engilmas kuch” Toshkent “Ma`naviyat”. 2008 y.
2. Otamurodov S va boshqalar. “Ma`naviyat asoslari”. Toshkent 2002 y.
3. O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent 1992 y
4. Ta`lim to`g’risidagi qonun. Toshkent 1997 y.
5. Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi. Toshkent. 1997 y.
6. Maktabgacha ta`lim muassasasi to`g’risidagi Nizom. Toshkent 2007 y.
7. O.U.Xasanboeva, M.X. Tadjieva, Sh.K.Tashpulatova va boshqalar “Maktabgacha ta`lim pedagogikasi” “Ilm Ziyo”. T.: 2006 y.
8. S.S.G’ulomov. “Menejment asoslari” T.: 2000.
9. Sh.K.Tashpulatova “Maktabgacha ta`lim muassasalar ishini tashkil etish va boshqarish usullari” TDPU.T.: 2001 y.
10. Kadrlar bilan ishslash yo’riqnomasi. “Xalq ta`limi xodimlari asosiy mavzularini malaka tavsiflari”. Toshkent 2007 y.

II. BOB. Maktabgacha ta`lim muassasasi yosh tarbiyachilariga metodik yordam.

Reja:

1. Maktabgacha ta`lim muassasasi uslubchisining g'oyaviy ma`naviy etukligi, umumiy madaniyati.
2. Uslubchi tomonidan boshqaruv tamoyillari.
3. Jamoada yosh tarbiyachilar ishlarini tashkil etishda – uslubchining pedagogik mahorati.
4. Yosh mutaxassislar bilan yakkama – yakka ishlarni tashkil etishning usul va uslublari.

II. Mavzuning maqsadi.

Maktabgacha ta`lim muassasasi uslubchisining ma`naviy - madaniy, g'oyaviy etukligi, yosh mutaxassislar bilan ishlarni tashkil etishda uslubchining pedagogik mahorati uning ish usullari haqida tushuncha berish.

III. Mavzuning vazifalari.

O'quvchi talabalarni uslubchining boshqaruv tamoyillari, asosiy vazifalari, uslubchi tomonidan yosh kadrlarga metodik yordam berishning usul va uslublari bilan tanishtirish.

Tayanch tushunchalar:

Stil – boshqarish uslubi - shaxsni psixologik harakteri orqali boshqarish.

Metod – boshqarish usuli.

XTB – Xalq ta`limi bo`limlari (tuman, shahar, viloyat).

MIT – mehnatni ilmiy asosda tashkil etish.

Kollejial – jamoaviy

Printsip – tamoyil

Demokratik – xalqparvarlik

Differentsial – farq qilmoq

2.1. Maktabgacha ta`lim muassasasi uslubchisining g'ayaviy ma`naviy etukligi, umumiy madaniyati.

Raxbarlik odobi yuksak ma`naviy, madaniy, ahlokiy me`yor, talab va tamoyillar bo`lgan erkinlikka asoslanadi. Rexbar nafakat o`zi erkin bo`lishi, balki sheringining, o`zi ishlayotgan jamoa a`zolarining xam erkinligini xurmat qilishi lozim.

Rexbar faoliyatiga hech kim konunsiz aralashuvi mumkin emas. Shu bilan birga rexbar xam o`zi rexbarlik kilayotgan a`zolarining mexnat faoliyatiga konunsiz xalaqit bermasligi zarur.

Raxbar bo'ysunuvchi xodimlarining mayda - chuyda kamchiliklariga bardoshli bo'lishi, ularga o'ziga ishonganday ishonishi lozim. O'zaro kelishmovchiliklarga yo'l ko'ymaslik raxbarlik odobining muhim tamoyilidir.

O'zaro munosabatlarda ba`zan xar xil kelishmovchiliklar, fikrlar xar xilligi, karashlarning tula bo'lмагan moslig xam bo'lib turadi. Shuning uchun odob raxbarga juda zarur bo'lган eng muxim fazilatlardandir. Raxbarlik odobi ayni paytda o'zaro tenglik va odillikka asoslanadi. Bu narsa tomonlarning o'z faoliyatini ob`ektiv baholashiga yordam beradi. Ma`lumki, raxbarlik umuminsoniy qadriyat hisoblanadi.

Butun dunyo ishbilarmon raxbarlariga xos tadbirkorlar odobining yana bir ma`naviy, ma`rifiyxususiyati - va`dagavafo qilish, uni so'zsiz bajarishdir. Unga ko'ra, ikki tomon bir narsaga ahslashgan shartnomani, shartnomaiy majburiyatni bajarish shart. Bordiyu, ulardan biri bu majburiyatni buzsa, nafaqat majburiyat olgan tadbirkor yoki raxbar, balki boshqa barcha tadbirkorlar xam u bilan munosabatini uzishlari, boshqa munosabat o'rnatmasliklari mumkin. Zamon, davr talabi shunaqa bo'lib bormoqda.

Yana bir muhim holat rahbarlik faoliyatida milliy g'oya negizlaridan foydalanish yo'llarini aniq bilish bilan bog'liq. Bu rahbar faoliyatining sohasi bilan uzviy aloqador. Inson jamiyatda yashar ekan, albatta ma`lum milliy qadriyatlar, an`analar, tafakkur tarzi tizimida kamol topali. Butungi rahbar kadrlar yangicha ishlashiga, yangicha o'ilashiga to'g'ri kelmokda. Mamlakatimiz istiqlolga erishgach, oldimizga qo'yilgan maqsadlarga erishish, eski mafko'raviy asoratlardan xalos bo'lish, g'oyaviy bo'shliq paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslik, har tomonlama barkamol avlodni tarbiyalash, voyaga etkazishda milliy g'oya negizlaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Rahbarlik faoliyatida milliy g'oya to'g'risida fikr yuritilganda uning O'zbekiston jamiyatni, o'zbek xalqi hayoti, turmush tarzi, tarixi, madaniyati, milliy - madaniy merosi va qadriyatlari bilan bog'-liq bo'lган hamda milliy g'oyada aks etadigan, o'ziga xos qonuniyatlar ham mavjud.

Rahbarlik faoliyatida milliy qadriyatlarga sodiqdik milliy g'oyaning tayanch negizlaridan biridir. O'tmishtdan qolgan buyuk madaniy merosimiz, mumtoz qadriyatlarimizni hurmat qilish, ularni ijodiy jihatdan o'rganish bu tamoyilning asosiy jihatidir. Fikr erkinligi va xilma - xilligi tamoyili milliy g'oya uchun muqim o'rinn tutadi, jamiyat taraqqiyotini rivojlantiruvchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Fikr erkinligi va fikrlar, g'oyalar xilma- xilligiga asoslanish taraqqiyotni ta`minlab turuvchi, rahbarning salohiyatini oshirib turuvchi noyob imkoniyatdir. Rahbarlik faoliyatida milliy g'oyaga asoslanish yot, zararli, begona g'oyalarning ta`siridan saqlaydi, g'oyaviy immunitetni oshiradi.

Prezidentimiz aytganiqek, "fikrga qarshi fikr bilan, g'oyaga qarshi g'oya bilan, jaholatga qarshi ma`rifat bilan" ko'rashishni talab etadi. Chunki o'zining fikri, g'oyasi bo'lмаган odam yoki rahbar yot va begona, yovuz g'oyalarga qarshi ko'rasha olmaydi.

Rahbarlik faoliyatida milliy g'oyaga tayanish orqali inson turli xil g'oyaviy ta`sirlarning maqsad va muddaoalarini bir - biridan farqlay oladi. Jamoada milliy - ma`naviy qadriyatlarga bo'lган sog'lom muhitni shakllantiradi va uni hurmat qilishga asos yaratadi.

Ma`lumki, har qanday jamiyatning istiqboli, uning rivojlanishi mamlakatning akdiy intellektual salohiyati bilan bog'liq. Jamiyatda ta`lim - tarbiya shaklini, uning amal qilish uslubini, hayotdagi o'rni va ahamiyatini, mohiyatini tushunmasdan turib, yosh avlod ongini shakllantirish mushkul. Shu sababli mamlakatimizda jahon andozalariga har tomonlama javob bera oladigan, qalbida Vatan va millat g'uro'rini ardoqlagan, yuksak va mustahkam e`tiqodiga ega bo'lgan yoshlarni tarbiyalashga katta ahamiyat berilmoqda.

Qo'yidagilar umumiyligi axloqiy sifatlardir:

- o'z Vataniga sadoqat;
- o'z hulqning eng yaxshi an`analariga amal qilish va ularni ko'paytirish;
- shaxs erkinligini va uning qadri - kimmati daxlsizligini tan olish;
- insondagi yaxshi xislatlar tugamasligiga ishonch;
- kishilar shaxsiy - ishbilarmonlik sifatlari va ular faoliyatini ob`ektiv baholash, ular individualligini tan olish;
- muomalada ochiq ko'ngillilik va o'ziga tanqidiy yondashish;
- tabiatdan tejab tergab foydalanish. Qo'yidagilar muayyan axloqiy sifatlar hisoblanadi:
- fukaroviylar vijdon - shaxsiy javobgarlikni kuchli xis etish;
- axdoqiy iroda - kishilar xurmatini qozona bilish;
- halollik - ishga astoydil kirishish, ishda talabchanlik va to'g'ri fikrlay bilish;
- O'zini tuta bilish - shaxsiy ko'ngilsizlik va ishdagi muvaffakiyatsizlikni engil kechirish;
- subutlilik - o'z axloqiy nuktai nazarida sobit turish;
- jamoaviylik - ijtimoiy uyushganlik xissiyoti.

Bu sifatlar rahbar axloqiy qiyofasini belgilaydi. Qo'yidagilar o'ziga xos axloqiy sifatlar xisoblanadi:

- mexnatsevarlik - jismoniy quvvatni va aqliy qobiliyatni to'liq, o'z ishiga baxsh etish;
- kamtarlik - xokimiyatdan oqilona foydalanish, o'z yutuq va kamchiliklariga tanqidiy munosabatda bo'lismi;
- mas`ullikishda "tavakkal" qilishdan cho'chimaslik, so'z bilan ish birligi;
- ochiq ko'ngillilik - kishilarga beg'araz yordam ko'rsatish, ular kamchiliklariga toqat qila bilish va ranjitganlarga kechirimli bo'lismi. Yuqorida keltirilgan sifatlarning uch guruxi bir - biri bilan bog'liq, va rahbar ahloqiy qiyofasi modulini tashkil etadi.

Boshqarish samaradorligini ta`minlay olish.

1. Boshqarishni kollegial tarzda tashkil qila olish qobiliyati;
2. Ish haqida qisqa va aniq gapirish qobiliyati;
3. Ishga oid xatlar, buyruqlar, farmoyishlar yoza bilish;
4. Turli manbalardan ish uchun zarur axborotlarni olish qobiliyati;
2. Rahbarlarni va qo'l ostidagilarni tinglay bilish qobiliyati;
3. Asoslangan qarorlarni mustaqil va tez qabul qila bilish qobiliyati;
4. Rejalarni bajarishdan xodimlarning moddiy va ma`naviy manfaatdorligini ta`minlash qobiliyati;
5. Boshqaruvi organi qarorlari bajarish ustidan nazoratni ta`minlay bilish;

6. Boshqarish strukturasini takomillashtirib berish qobiliyati va hokazo.

Rahbarning o'ziga nisbatan madaniyatliligi

- so'z bilan ishning birligi;
- o'z kasbiy mahoratini, iqtidoriy - ma`naviy komilligini o'stirish ustida qayg'urish;
- oqilona turmush tarzi, jismoniy sog'lomligini saqlash;
- o'z - o'zini tanqid asosida o'z kamchiliklarini bo'yniga olmoq;
- o'zini intizomga bo'ysundirish;
- o'z malakasini oshirishga bo'lgan intilish va uning uddasidan chiqa olish;
- harakatning maqsadga qaratilganligi va qat`iyligi;
- o'ziga va mehnat faoliyatiga bo'lgan talabchanliq
- axloqning quyidagi alifbolariga qat`iy rioya qilish:
 - a) kamtarinlik
 - б) haqgo'ylik
 - в) halollik
 - г) o'zini tuta bilishlik
 - д) oddiylik
 - е) to'g'rilik, vijdonlik.

Rahbarning jamoaga nisbatan madaniyatliligi

- Xalqparvarligi, ya`ni:
 - а) kishilarga e`tibor va hurmat;
 - б) kishilarga xayrxoq va iltifotli bo'lish;
 - в) oljanoblik va beg'arazlik, xolisliq
 - г) kishilarning qadr - qimmatiga etish kabilar.
- Fuqarolik va kasbiy burchini bajarish;
- Odamlarga ishonch, kishilarning o'z kuchiga, qobiliyatiga bo'lgan ishonchini qo'llab - quvvatlay olish, uni shaxsiy kamchiliklarini bartaraf qilishga yo'naltira bilish;
 - Yuqori nutq madaniyatigi ega bo'lish va tashqi ko'rinishdagi ozodaligi;
 - Salbiy fazilatlari ega bo'lgan, qonun - qoidalarga rioya qilmaydigan, adabsiz kishilarga, shu jumladan, qavm - qarindosh va yaqin - tanish, bilishlarga nisbatan toqati yo'q;
 - O'zaro munosabatdagi quyidagi oddiy etiket qoidalariga rioya qilish:
 - а) xushmuomala;
 - б) sipoliq
 - в) kamsuqumliq
 - г) andishali;
 - д) vazminlik.
- Mehnat va do'stlikdagi sherikchilikda:
 - а) o'zaro yordam va quvvatlash;
 - б) hozirjavoblik va majburiylik, so'zsiz bajarishliq
 - в) printsipliallik va ishonch;
 - г) talabchanlik.

Uslubchining jamiyatga nisbatan madaniyatliligi

- Yuqori darajadagi fuqarolik, vatanparvarlik va baynalminalliq
- Jamiyat baxt - saodati yo'lida halol mehnat qilish, jamiyat boyligini ko'paytirish haqida g'amxo'rlik qilish;
- Qonunlarga, huquqiy akt va bitimlarga, davlat intizomiga qat'iy rioda qilish;
- Ijtimoiy burchni yuksak darajada anglash, jamiyat manfaatlarini buzilishlariga nisbatan shavqatsiz bo'lism;
- Huquqiy, moddiy va ma`naviy javobgarlikni tan olish va rioda qilish;
- Ko'pfikirlikka ochiqko'ngillik bo'lism va uni hurmat qilish.

Har qanday holatda ham rahbar qaysi bo'g'inda rahbar bo'lishidan qat'iy nazar o'zining asosiy majburiyati, ya'ni qo'l ostidagilarni o'zining misolida tarbiyalashni unutmasligi kerak.

Uslubchining tashkiliy - pedagogik ishlarga rahbarligi.

Uslubchining o'ziga nisbatan madaniyatliligi

- so'z bilan ishning birligi;
- o'z kasbiy mahoratini, iqtidoriy - ma`naviy komilligini o'stirish ustida qayg'urish;
- Oqilona turmush tarzi, jismoniy sog'lomligini saqlash;
- o'z - o'zini tanqid asosida o'z kamchiliklarini bo'yniga olmoq;
- o'zini intizomga bo'ysundirish;
- o'z malakasini oshirishga bo'lgan intilish va uning uddasidan chiqqa olish;
- harakatning maqsadga qaratilganligi va qat`iyligi;
- o'ziga va mehnat faoliyatiga bo'lgan talabchanliq
- axloqning quyidagi alifbolariga qat'iy rioda qilish;
- kamtarinliq
- halolliq
- o'zini tuta bilihliq
- oddiyliq
- to'g'rilik, vijdonlik.
 1. Ma`naviy etukliq
 2. Siyosiy etukliq
 3. Huquqiy etukliq
 4. Axlohiy etukliq
 5. Yuqori saviya va ongqliq
 6. Ma`rifatchiliq
 7. Madaniyatchiliq
 8. Xodimlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda qodirliq
 9. Topshirilgan ish uchun shaxsiy javobgarlikni his qilish, halollik, vijdonliliq
 10. Shaxsiy manfaatlarni jamoat manfaatlariga bo'ysindirishga qodirliq
 11. Kishilarga nisbatan mehribon va e'tiborli bo'lism;
 12. Tashabbus va ilg'orlikni qo'llab-quvatlash qobiliyati;
 13. Printsiplialliq

14. Tanqidga chidamli bo'lish, o'z - o'ziga tanqid qila bilish.

Intizom va mehnatga bo'lgan munosabati

1. Mehnatsevarlik;
2. Jamoa o'rtasida intizomni yo'lga qo'ya bilish;
3. Atrofdagilarga mehnatsevarlikni tarbiyalay bilish;
4. Ishni rejali olib bera bilish, rejasiz ishlagan rahbar xodimlar jamoasi oldiga qo'yilgan vazifalarni muvafaqqiyatlil bajara ololmaydi.

Bilim darajasi

1. Iqtisodiyotni bilishi;
2. Texnika va texnologiyani bilishi;
3. Boshqarish ilmini, funktsiyalari va strukturasini bilish;
4. Istiqbolni bilimga qodirligi va hokazo.

Rahbar aniq, chuqur va keng bilimga ega bo'lishi, uni doimo to'ldirib va yangilab borish kerak. Aks holda u obro' qozona olmaydi, xodimlarning ishonchiga sazovor bo'laolmaydi

Tashkilotchilik qobiliyati

1. Xodimlarni tanlay bilish va ularidan samarali foydalanishni ta`minlay olishligi;
2. Qo'l ostidagilarni mehnatga o'rgatish va tarbiyalashni bilish;
3. Jipsalashgan jamoani vujudga keltira olish;
4. Maqsad sari intiluvchanliq
5. Kutilmagan vaziyatlarda boshqarish qobiliyatini yo'qotmaslik.

2.2. Uslubchi tomonidan boshqaruv tamoyillari

Hap bir sohani boshqarishda avvalambor, printsip - tamoyil, metod - usul, odil boshqarish uslublarini bilishimiz kerak.

Printsip - ya`ni tamoyil - bu biror bir yangi nazariya yoki ta`limiy fanining asosiy natijasidir.

Boshqarish usuli - bu boshqarish g'oyasi va biriktirish yo'li bo'lib, ishlarni bajarish va ishlarning talabaga qarab shakllantirishga tushuniladi.

Boshqarish uslubi - bu shaxsning mustahkam psixologik harakteriga ega bo'lgan diqqat, tafakkur, idrok, sezgi, ong va boshqalar orqali boshqarishdir.

Bu tushunchalar, ya`ni printsip, metod o'zaro bir - birlari bilan uzviy bog'liq bo'lib, bo'larning hammasi kishilar o'rtaсидagi munosabatlarda ko'rindi.

Keyingi yillarda nazariya bilan amaliy boshqarish faoliyatida bir muncha klassifikatsion qarashlar yuzaga keldi. Boshqarish usulining eng muhim belgilaridan biri bu ilmiylik xususiyatidir. Faqat ilmiy nazariya bilan qarashgina boshqaruvchi shaxsga o'zining rahbarlik mehnatiga ko'p qirrali va mazmunli ish uslubini ko'rsata bilishi zarur.

Boshqaruvchi shaxs avvalo boshqarishdan oldin, albatta, kerakli ilmni egallagan bo'lishi lozimdir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida, «Har kimga ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi, madaniy yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi» deyiladi.

Ilmiylik - nazariya va amaliyot bilan bir tushunchadir. Nazariya - amaliyot bilan chambarchas bog'liqidir. Amaliyotsiz nazariya ko'r odamni eslatadi. Amaliyot - nazariya oldida yangi vazifa va savollarni qo'yadi.

Nazariya bilan amaliyotni birlashtirish natijasida ilmiy asoslangan xulosalar, ta`lim - tarbiyaviy ishlarni echish, tarbiya metodikasini qayta ishlab chiqishda, metodik tadbirlar tashkil etish, mакtabgacha ta`limni yanada yaxshilash ishiga qaraladi.

Kadrlar tanlash va ularni yanada o'stirish - bu boshqarishning tashkiliy asosidir. «Kadrlar tanlashda - vatanparvarlik, xalqparvarlik tuyg'usi bugun juda katta ahamiyatga egadir» - deyiladi Prezidentimiz I.A.Karimovning «Buyuk maqsad yo'lidan og'ishmaylik» asarida.

Kadrlarni to'g'ri tanlashda:

- sofdillik nuqtai nazari bilan;
- siyosiy-ma`naviy darajasiga;
- ishga aqliy yondoshish nuqtai nazari bilan;
- ma`muriy qobiliyatlari nuqtai nazari bilan.

Kadrlarni ilgari surish va ularni to'g'ri taqsimlashning mohiyati muhimdir. Kadrlarni tanlash va ularni tarbiya etish umum davlat harakterga ega bo'lib, bu vazifalarni xal etishni ilmiy asosda olib borish kerak.

Ta`lim sohasida Davlat siyosatining asosiy printsiiлari quydagilar:

1. Ta`lim va tarbiyaning insonparvar demokratik harakterda ekanligi;
2. Ta`limning usluksizligi va izchilligi;
3. O'rta maxsus, kasb-hunar ta`lim yo'nalishini akademik litseyda yoki kasb-hunar kollejida o'qishni tanlashning ixtiyoriyligi;
4. Ta`lim tizimining dunyoviy harakterda ekanligi;
5. Davlat ta`lim standartlari doirasida ta`lim olishning hamma uchun ochiqligi;
6. Ta`lim dasto'rini tanlashga yagona va tabaqalashtirilgan yondashuv;
7. Bilimli bo'lish va iste'dodni rag'batlantirish;
8. Ta`lim tizimida davlat va jamoa boshqaruvini uyg'unlashtirish.

Bu ustuvor printsiplarga tayangan holda mакtabgacha talimni boshqarishda:

1. Demokratik xalqparvarlik asosida, bunda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi Xalq ta`limi buyruqlari asosida ishlarni tashkil etish;
2. Yakka boshchilik printsipi 1 maqsadga qaratilgan ish usuli bo'lib, mакtabgacha ta`lim muassasalari yillik ish rejasini to'liq bajarishga qaratilgan ish usulidir;
3. Hamkorlik printsipi: jamoa bilan birgalikda muammolarni xal etishdir. Mutloq hamkorlik bekorga vaqt o'tkazmaslik, tezkorlik, uddaburonlik, fikrlashuv natijalardir.
4. Aniqlik printsipi: pedagogik, metodik va xo'jalik ishlarini maqsadga qaratilgan xolda aniq, puxta tashkil etish, kuzatish va tahlil qilishdir;
5. Xo'jalikni boshqarish printsipi: bu smetadagi mablag'larni to'g'ri taqsimlash, ish yuritishni to'g'ri tashkil etish va uning ustidan nazoratni tashkil etishdan iboratdir;
6. Tanqid va o'z-o'zini tanqid. Bu printsipda rahbar o'z ishiga nisbatan

talabchan, intizomli, mehnat va ishlab chiqarish intizomiga rioya qilish, bajaradigan ishlarga tanqidiy yondashuvi ko'zda to'tiladi;

7. Differentsial farq qilmoq printsipi. Ishdagi ijobiy va salbiy tomonlarni ko'ra olish, ilg'or ish tajribalarni ko'ra olishdir;

8. Yangilikni xis qila olish printsipi. Ta'lim sohasidagi o'zgarishlarni, yangiliklarni o'z ish faoliyatida qo'llay olish.

Maktabgacha ta`limni tashkil etish va unga rahbarlik qilish sohasining metodologik asosini: O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun, Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturi, Maktabgacha ta`lim to'g'risidagi Kontseptsiya va Nizomda ko'rsatib berilgan maqsad va vazifalarni tashkil etadi. Maktabgacha ta`lim muassasasi mustaqil ravishda, o'z tashabbusi bilan o'z faoliyatiga taalluqli, agar ular qonunchilikka va pedagogik printsiplarga monelik qilmasa, har qanday qaror qabul qilishga xaqlidir.

Makgabgacha tarbiya muassasasi ta`lim - tarbiyaviy ishlar sifati, bolalar va ota-onalar huquqiga, jamiyat va davlat manfaatlariga rioya qilish uchun ma'suldir.

Makgabgacha tarbiya muassasasi mehnat jamoasi xalqchilik asosida o'z-o'zini boshqarish prinpiga muvofiq uning faoliyati bilan bogliq barcha masalalarni hal qiladi.

Maktabgacha ta`lim muassasasining faoliyati boshqa muassasalar, korxonalar, tashkilotlarning qulay ish sharoitlarini buzmasligi, fuqarolar hayotini qiyinlashtirmasligi va yomonlashtirmasligi zarur.

Uzluksiz ta`lim tizimi va kadrlar tayyorlashning davlat va nodavlat ta`lim muassasalarini tarkibiy jihatdan o'zgartirish va ularni izchil rivojlantirish davlat yo'li bilan boshqarib boriladi. Barcha darajadagi ta`lim boshqaruв organlarining vakolat doiralari «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunga muvofiq belgilanadi. Ta`limning me'yoriy-huquq bazasi rivojlantiriladi. Moliya-xo'jalik faoliyati olib borish hamda ta`lim jarayonini tashkil etishda o'quv yurtlarining huquqlari kengayadi va mustaqilligi ta`minlanadi.

Ta`lim muassasalarini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda attestatsiyadan o'tkaziladi hamda akreditatsiyalanadi. Akkreditatsiya yakunlariga ko'ra ta`lim sohasida faoliyat ko'rsatish huquqi beriladi.

Muassis tashkilotlarning, mahalliy hokimiyat organlarining, savdo-sanoat doiralarining, jamoat tashkilotlarining, fondlarning va xomiylarning vakillarini o'z ichiga oluvchi vasiylik va kuzatuv kengashlari tuzish orqali ta`lim muassasalarining samarali jamoat boshqaruvi tizimi joriy etiladi.

2.3. Jamoada yosh tarbiyachilar ishlarini tashkil etishda – uslubchining pedagogik mahorati.

Uslubchi:

maktabgacha bolalar muassasidagi ta`lim - tarbiyaviy ishga metodik rahbarlikni amalga oshiradi;

«Maktabgacha ta`lim muassasasida ta`lim - tarbiya dasturi»-ning bajarilishini ta`minlaydi va nazorat qiladi, ta`lim - tarbiyaviy ishning to'g'ri uyushtirilishi uchun javobgar;

ilg'or pedagogik tajribani o'rganadi, umumlashtiradi va tarqatadi, pedagogik kengashda ko'rib chiqish uchun zarur materiallarni tayyorlaydi; maktabgacha bolalar muassasasidagi metodik xonaning ishini tashkil qiladi; bolalarning yoshlariga muvofiq pedagogik qo'llanmalar va o'yinchoqlarni tanlaydi.

Ota-onalar o'rtasida pedagogik bilimlarni tashviqot qilish, turli yosh guruxlari tarbiyachilari, shuningdek maktabgacha bolalar muassasasi va maktab ishida ketma-ketlilikni ta'minlash bo'yicha ishni yushtiradi.

O'z kasblarining xurmatini qozonish va ularga o'z vazifalarini muvaffaqiyatlari bajarishlarida yordam berish uchun uslubchi qanday uslubchilik sifatlariga ega bo'lisi kerak? Uslubchi faqat yaxshi nazariy tayyorgarlikkagina emas, balki bilimlarni amalda qo'llash ko'nikmasiga ham ega bo'lisi zarur.

Tajribali uslubchining tashabbuskorligi va ishga ijodiy yondoshishi: g'oyalarini umumlashtira bilish, maqsadga muvofiq ishslash, har bir tarbiyachining imkoniyat va mahoratlarini hisobga olishga qarab, farqlanadi.

Uslubchi talablarni qo'yishda talabchan va qat'iy bo'lisi kerak. Rahbarning o'ziga bo'ysinuvchilar bilan muloqotining emotsiyal - irodaviy tomonini ifodalovchi bu sifatlar rahbarlik uslubining muhim xislati - talabchanlikni hosil qiladi. Yuksak talabchanlikni sezgirlik, hayrixohlik, odamlarga hurmat bilan birga qo'shib olib borish zarur. Talabchanlik - bu qattiqko'llik degan gap emas. Buyruqlar, qattiq tanbehtar, xayfsanlarning foydasidan ko'ra zarari ko'proq va bu odatda rahbarning kuchliligidan emas, balki zaifligidan dalolat beradi. Maktabgacha ta'lim muassasa ta'lim - tarbiyaviy faoliyatining samaradorligi, uning obro'si ko'p jihatdan pedagoglar jamoasining jipslashganligiga, eng avvalo butun maktabgacha ta'lim muassasa rahbar yadrosida birlik va o'zaro tushunishning mavjudligiga bog'liq bo'ladi.

Tarbiyachilarning aniq intizomi va ishda uyushqoqligini ta'minlash; jamoada jamoatchilik fikrini, tarbiyachilarning bir - birlarining kamchiliklariga tanqidiy munosabatini shakllantirish, mehnat faolligi va ijodiy ishslash ehtiyojini rag'batlantirish; qabul qilingan qarorlar echimini ta'minlash kabi ijtimoiy - psixologik masalalarni hal qilish uslubchi uchun birmuncha murakkablik qiladi.

2.4 Yosh mutaxassislar bilan yakkama-yakka ishlarni tashkil etish usul va uslublari

Bolalarda ularning yangi tarbiyachilari qanday ilk taassurot uyg'otishi ham katta ahamiyatga egadir. Agarda u ikkilansa, qat'iyatsizlik ko'rsatsa, kichkintoylar oldida muvaffaqiyatsizlikka duch kelishidan cho'chisa, bolalar buni tezda anglab oladilar va ularni boshqarish oson bo'lmaydi. «Guruxni eplolmaydi» deyishadi, bunday tarbiyachi haqida. Yosh mutaxassis o'z muvaffaqiyatsizliklaridan chuqur tashvishga tushadi, hatto o'zining kasbga yaroqliligiga gumonsiraydi.

Yosh tarbiyachilarga yordamni qanday yushtirish kerak? Eng avvalo uni tajribali, bilimdon, bolalarni va o'z ishini sevadigan pedagog ishlaydigan guruxga yo'llash kerak. Eng yaxshi yordam pedagogga bolalar bilan qanday ishslash kerakligini ko'rsatishdir. Hech qanday maslahat, gapirib berish, tushuntirishlar ko'rsatishdek yordam berolmaydi.

Mana yosh tarbiyachi bolalarning mustaqil faoliyatlarini uyshtira bilmayapti. Bolalar nima bilan shug'ullanishini bilmaydilar, pedagog esa guruxda intizomni, tartibni o'rnatolmaydi. Uslubchi yoki maktabgacha ta`lim muassasasining mudiri bolalarning bunday xatti-harakatlari sababini aniqlaydi: agarda bolalar bekorchilikdan to'polon qilayotgan bo'lsalar, unda darhol ularga ma`qul keladigan mashg'ulotlarni topish kerak bo'ladi. Bunday vaziyatlarda uslubchi tarbiyachiga bolalarning xilma - xil faoliyatlariga mos keluvchi sharoitlarni qanday tashkil qilishni, ularni o'yinlar, mashg'ulotlarga jalb qilishni ko'rsatadi. Ustalik bilan, ularning fikrlarini buzmay, bolalarga individual yondoshuvni amalga oshirishga yordam beradi, qiynalayotgan va ishni yarim yo'lida tashlab ketmoqchi bo'lganlarga maslahatlar beradi, tushuntiradi, ko'maklashadi, bolalarga o'z faoliyatlarini hamma narsani oldindan tayyorlab qo'yib uyshtirishni o'rgatadi; o'yin uchun sherik topishda yorhamdashadi... Bunday ko'rtazmali misol tarbiyachiga bolalarning faoliyatlaripi to'g'ri uyshtirishda yordam beradi.

Har bir yosh mutaxassis - ishni endi boshlayotgan yosh tarbiyachi maslahatlar olib turishi uchun unga murabbiy - tajribaliroq va obro'liroq tarbiyachini biriktirish lozim.

Yosh mutaxassisning kasb mahoratini egallab olishi osonlik bilan bo'lmaydi. Mana shuning uchun ham yosh pedagogni ishning ilg'or metodlari va usullarini egallahsga, o'z bilimlarini doimo to'ldirib borishga, erishilganlar bilan cheklanmay, tarbiya sirlarini egallah ishtiyoqini singdirishga yo'llash uslubchining iazifikasi hisoblanadi.

Dastlabki kundan boshlab uslubchi yosh pedagogga bolalarni diqqat bilai kuzatishni, ularning fikrlariga qulq solishni, xatti-harakatlarini o'rganishni o'rgatadi. Har bir bolaning kimligini (qandayligini), uni nimalar qpziqtirishini, nimalar bilan yashashi, nimalar quvontirishi, tengqurlarining unga qanday munosabatda bo'lishini bilgan taqdirdagina har bir bolaning qalbiga yo'l topish mumkinligi hammaga ma'lum. Pedagogning, unda kasb mahoratining shakllanishi tarbiyachi bolani, uning xususiyatlarini, xatti-harakatlarning sabablarini tushuna bilganda, har bir bolaga e'tiborli va sezgir bo'lganda, xayrixohlik bildirib, ko'nglini ko'tarib, erkalata olganda, guruxda bolalar o'zlarini uylaridagidek his qiladigan vaziyatni yarata olishidan boshlanadi.

Yosh mutaxassisni iliqlik bilan kutib olish va o'z jamoasiga qabul qilish, unga kasbga «kirishishida» va unga mehr qo'yishida yorhamdashish muhimdir. Ayrim yosh tarbiyachilarning ishdan hafsalasi pir bo'lishi va qoniqmasliklari haqidagi mavjud faktlarga ba`zan to'liq darajada ma'muriyat va birinchi navbatda uslubchi sababchi bo'ladi.

Tarbiyachi, ayniqsa yosh tarbiyachi mehnatining o'z vaqtida,adolatli baholanishiga ehtiyoj sezadi. Biz ko'pincha tarbiyachining ishini faqat tashqi belgilariga ko'ra baholaymiz. Guruxda osoyishtalikmi - demak hammasi joyida. Buning ortida nima bor? Asosiy maqsad tashvi intizom emas, balki pedagog bolalarni xushmuomala qilib tarbiyalay olgan-

olmaganligi, atrofdagilarga hurmat bilan munosabatda bo'lishni o'rgatgan-o'rgatmaganligi, bolalarning yordamga muhtoj o'rtoqlariga o'z vaqtida yordam ko'rsatishni bilish - bilmasliklarida emasmi?

Maqtov kayfiyatni ko'taradi, faoliyatni rag'batlantiradi, ishonch tug'diradi, ishga qiziqishni oshiradi.

Tarbiyachi shaxsidagi ijobiliyikka tayanish unga qo'yiladigan yuksak talabchanlik bilan birgalikda amalga oshiriladigan jamoalarda yaxshi an`analar, yuksak mas`uliyat ruhi, do'stona o'zaro yordam, ijodiy tashabbuskorlik yashaydi. Bunday sharoitlarda ishni endi boshlayotgan tarbiyachi pedagoglar jamoasiga tez va osonlik bilan singib ketadi.

Kasbga oid sifatlar ko'p jihatdan tarbiyachining o'ziga xosligi, xarakteri va temperamentining xususiyatlariga bog'liq bo'ladi. Pedagoglik faoliyatiga ma'lum irsiy moyilliklari bo'lgan mohoratlari kishigina chinakam va omilkor tarbiyachi bo'lishi mumkin degan fikrlar mavjud. Bu fikrga asoslangan ayrim olimlar pedagogika oliv o'quv yurtlariga abiturientlarni teatr-san`at o'quv yurtlariga tanlagandek tanlab olish kerak, deb hisoblaydilar. Boshqalari bunday ommaviy tarqalgan kasb alohida iste`dodlilar imtiyozi bo'lolmaydi, deyishadi. Barcha odamlar (ayrim istisnolardan tashqari) tabiatan tarbiyachilik sifatlariga egadirlar. Masalan pedagoglik mahoratini o'rgatishdadir.

Nazorat savollari:

1. Uslubchining g'oyaviy-ma`naviy etuklik va umummadaniyati darajasini yoritib bering.
2. Uslubchi qanday tamoyillar asosida jamoani boshqaradi va ularning mohiyatini tushuntiring.
3. Uslubchining pedagogik nazorati deganda nimani tushunasiz va uni izohlab bering.
4. YOsh mutaxassislar bilan ishslashda uslubchining ish usul va uslublari qanday?

Adabiyotlar:

1. I.A.Karimov. "Yuksak ma`naviyat – engilmas kuch" T. "Ma`naviyat" 2008 y.
2. A.I.Vasileva, L.A. Baxturina, I.I.Kobitina. "Bolalar bog'chasining katta tarbiyachisi" T.: "O'qituvchi" 1991 y.
3. Sh.K.Tashpulatova Maktabgacha ta`lim muassasalarini tashkil etish va uni boshqarish usullari T.: Ma`ruza matni 2001 y.
4. O.U.Xasanboeva, M.X. Tadjieva, Sh.K. Tashpulatova "Maktabgacha ta`lim pedagogika" T.: Ilm Ziyo 2006 y.
5. Maktabgacha ta`lim tizimiga doir xuquqiy me`yoriy xujjatlar to'plami. "Lider Press" nashriyoti. T.: 2009 y.

6. Spravochnik “Rukovoditelya doshkolnogo orazovatelnogo uchrejdeniya” “Ilm Ziyo”. T.: 2006 y.

Testlar

1. Uslubchi tomonidan kadrlar bilan ish usullari, bu...

- A. Yakkama-yakka suhbatlashish, yosh mutaxassislar bilan ishlash ochiq mashg'ulotlar
- B. Kadrlarni mutaxassislik ish tajribalarni o'rghanish, tahlil qilish
- V. Ota-onalar bilan olib boradigan ishlarini puxta o'rghanish, tahlil qilish
- G. Guruhlarga kirish, kuzatish, rag'batlantirish, nazorat qilish

2. Boshqaruvda pedagogik texnologiyalarning shakllarni aniqlang

- A. Pedagogik, innovatsion, axborot texnologiyalari
- B. Innovatsion, M.Montessori, axborot texnologiyalari
- V. Axborot, triz, innovatsion
- G. Triz, interfaol, axborot texnologiyalari

3. Uslubchining kasbiy sifatlari qaysi bandda to'g'ri ko'rsatilgan

- A. Aniqlilik, hamkorlik, demokratik
- B. Yakkaboshchilik, tabiiy-genetik, sofdis
- V. Ma`naviy-irodali, tashkilotchilik, pedagogik sifatlar
- G. Kadrlarni ilgari surish

4. Maktabgacha ta`lim muassasasi uslubchisini tomonidan olib boriladigan ish mazmuni qaysi bandda yoritilgan

- A. Uslubchining tashkiliy, metodik va ta`lim tarbiyaviy ishlarga;
- B. Ota-onalar maktabi, jamoatchilik, mahalla bilan ish faoliyat;
- V. Yosh mutaxassislar, xizmat ko'rsatuvchi xodimlar bilan, mahalla tashkilot bilan;
- G. Ta`lim - tarbiyaviy, mehnat bilan, moliyaviy xo'jalik faoliyat

5. Uslubchisining boshqaruv tamoyillari qaysi bandda to'g'ri yoritilgan?

- A. Hamkorlik, aniqlik, ish yuritishni boo'qarish, nazorat qilish
- B. Demokratik, liberal, avtoritar
- V. Avtoritar, ishbilarmon, tadbirkor
- G. Demokratik, yakkaboshchilik, aniqlilik, yangilikni his etish, xo'jalikni boshqarish, tanqid va o'z-o'zini tanqid, farq qilmoq

III BOB. Pedagoglar jamoasiga muvaffaqqiyatli raxbarlik qilishda yordam beradigan maslahatlar (amaliy)

Reja:

1. Uslubchisining g'ayaviy ma`naviy etukligi, umumiy madaniyatatlilik va ishbilarmonlik jadvalini tuzish.
2. Maktabgacha ta`lim muassasasi uslubchisiga metodik maslahatlar.

II. Mavzuning maqsadi.

O'quvchilar mustaqil ravishda mактабгача та`lim muassasasi uslubchisining ish faoliyatini yoritib berishlari, pedagoglar jamoasiga to'laqonli raxbarlik qilish bo'yicha olgan nazariy bilimlarini amaliyotga qo'llash bo'yicha malakalar egallashlari, uslubchining pedagogik jamoaga raxbarlik qilish usul – uslublarini amaliy jihatdan ishlab chiqishlari lozim.

III. Mavzuning vazifalari.

1. O'quvchi talabalarni maktabgacha ta`lim uslubchisining vazifaviy faoliyat jarayonini tuzish.
2. Uslubchining yosh tarbiyachilar bilan ishlash jarayonini ishlab chiqish.
3. Taalbalarda uslubchi vazifasi to'g'risida to'laqonlai amaliy malakalar hosil qilish.



3.1. Uslubchisining g'ayaviy ma`naviy etukligi, umumiy madaniyatatlilik va ishbilarmonlik jadvalini tuzish.


Rahbarga qo'yiladigan talablar

Nº	Talabalar	Izoh
1.	Ma`naviy etuklik	<ul style="list-style-type: none">• siyosiy etukliq• huquqiy etukliq• axlohiy etukliq• yuqori saviya va ongqliq• ma`rifatchiliq• madaniyatchiliq• xodimlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda qodirliq

		<ul style="list-style-type: none"> • topshirilgan ish uchun shaxsiy javobgarlikni his qilish, halollik, vijdonliliq • shaxsiy manfaatlarni jamoat manfaatlariga bo'ysindirishga qodirliq • kishilarga nisbatan mehribon va e'tiborli bo'lism; • tashabbus va ilg'orlikni qullab - quvatlash qobiliyati; • printsipialliq • tanqidga chidamli bo'lism, o'z-o'zigi tanqid qila bilish.
2	Intizom va mehnatga bo'lgan munosabati	<ul style="list-style-type: none"> • mehnatsevarliq • jamoa o'rtasida intizomni yo'lga qo'ya bilish; • atrofdagilarga mehnatsevarlikni tarbiyalay bilish;
		Bir noshud rahbarning beg'amligi yuzlab, minglab kishilar taqdirining bedaxl qirralariga ta'sir etishi mumkin. Boqibeg'am bu toifa rahbarlarning shu uslubi bilan murosa qilib bo'lmaydi.
		<ul style="list-style-type: none"> • ishni rejali olib bera bilish, rejasiz ishlagan rahbar xodimlar jamoasi oldiga qo'yilgan vazifalarni muvafaqqiyatli bajara ololmaydi.
3	Bilim darajasi	<ul style="list-style-type: none"> • iqtisodiyotni bilishi; • texnika va texnologiyani bilishi; • boshqarish ilmini, funktsiyalari va strukturasini bilish; • istiqbolni bilimga qodirligi va h.k. <div style="border: 1px solid black; padding: 5px; margin-top: 10px;"> <p>Raxbar aniq chuqur va keng bilimga ega bo'lishi, uni doimo to'ldirib va yangilab borishi kerak. Aks holda u obro' qozona olmaydi, xodimlarning ishonchiga sazovor bo'la olmaydi</p> </div>
4	Tashkilotchilik qobiliyati	<ul style="list-style-type: none"> • xodimlarni tanlay bilish va ulardan samarali foydalanishni ta`minlay olishligi; • qo'l ostidagilarni mehnatga o'rgatish va tarbiyalashni bilish; • jiipsalashgan jamoani vujudga keltiraolish; • maqsad sari intiluvchanliq kutilmagan vaziyatlarda boshqarish qobiliyatini yo'qotmasliq

		<p>«yomon korxona yoki tashkilot yo'q, lekin yomon rahbarlar bor». Bu ibora shuni bildiradiki, yomon ishlab to'rgan korxonaga jamoani yaxshi boshqaradigan, <u>tashkilotchilik qobiliyati</u> yuqori, mehnatsevar, talabchan, bilimdon rahbar qo'yilsa, u korxona tezda yaxshi korxona sarfiga qo'shiladi.</p> <p>Agar yaxshi ishlab to'rgan korxonaga tasodifan tashkilotchillik qobiliyati past rahbar kelib qolsa, aksincha, u korxona asta-sekin yomon ishlaydigan korxonaga aylanadi.</p>
5	Boshqarish samaradorligini ta`minlay olish.	<ul style="list-style-type: none"> • boshqarishni kollegial tarzda tashkil qilaolish qobiliyati; • ish haqida qisqa va aniq gapirish qobiliyati; • ishga oid xatlar, buyruqlar, farmoyshlar yoza bilish; • turli manbaalardan ish uchun zarur axborotlarni olish qobiliyati; • rahbarlarni va qo'l ostidagilarni tinglay bilish qobiliyati; • asoslangan qarorlarni mustaqil va tez qabul qila bilish qobiliyati; • rejalarini bajarishdan xodimlarning moddiy va ma`naviy manfaatdorligini ta`minlash qobiliyati; • boshqaruv organi qarorlari bajarish ustidan nazoratni ta`minlay bilish; • boshqarish strukturasini takomil-lashtirib berish qobiliyati va h.k.





3.2. Uslubchiga metodik maslahatlar

Bu masalani yoritishda quyidagi metodik maslahatlarga amal qilish joizdir:

1. Maktabgacha ta`lim muassasasi ishini demokratik – xalqparvarlik tamoyillari asosida tashkil eting.
2. Jamoa ishini tashkil etishda insonparvarlik g'oyalarini ustuvor tarzda o'z ishingizda qo'llang.
3. O'z ish faoliyatingizda – pedagogika va psixologiya fani yutuqlarini amaliyatga tadbiq etish yo'llari, usullarini ishlab chiqing jamoaga etkazing.
4. Rahbarlik san`atini yoshingiz va tajribangizdan qat`iy iazar muntazam o'rganing. O'z ish uslubingizni muntazam tarzda takomillashtiring, tahlilqiling va nuqsonlarini yo'qoting; pedagoglar jamoasiga rahbarlikning yangi, samaraliroq shakl va metodlarini izlang.
5. Uslubchining obro'si eng avvalo uning, g'oyaviy - ma`naviy etukligi, tadbirkorligi va ishbilarmonligi, umumiy madaniyati, uning etakchilik – liderlik jihatlarini o'z o'rnila qo'llay olish.
6. Jamoa ishining hozirgi kundagi eng faol aniq maqsad va vazifalari ifodalanadigan qarorlarni o'z vaqtida qabul qilishni o'rganing. Bu qarorlarning safarbar etuvchi kuchi ularning ta`lim - tarbiya jarayonini takomillashtirishga qay darajada yo'nalganligida, tarbiyachilarning fikr va hissiyotlarini, ularning tajribalarini qanchalik aks ettirishidadir. Ishda yuzaki

natijalarga erishishga yo'llangan qarorlar jamoaning ko'nglini sovitadi va uni jipslashtirishga to'sqinlik qiladi.

Qarorni hech qachon hayajonlangan, qizishgan hollarda, shoshmashtoshsharlikda qabul qilib bo'lmaydi. Bu keyinchalik tuzatish qiyin bo'lgan xatolarga olib kelishi mumkin.

7. Odamlarni o'zingizga jalb qilish mahoratini rivojlantiring, shakllantiring. Odamlarni bola psixologiyasini chuqur nazariy va amaliybilish, odamlarga xayrihoh, xurmat bilan, bir maromda vaadolatli munosabatda bo'lish, ularga ishlarida yordam bera bilish orqali jalb qilish mumkin.

Agarda tarbiyachi ayrim masalada ancha ustunroq bo'lsa, bundan cho'chimang, bunday tayanchdan xursand bo'ling va unga ko'maklashing. Tarbiyachilarining yaxshi obro' - e'tibori bu rahbarga maqtov va uning xizmati deb tushuniladi.

Tarbiyachilarining tashabbuslari va ishdagi yutuqlarini o'z vaqtida qayd etishni unutmang, ularga yaxshi ishlari uchun boshqa xodimlar borligida minnadtorchilik bildiring. Xarakatlarni ijobiy baholash kishini ruhlantiradi va yutuqlarini sezmasalar, xafa bo'ladi.

8. Topshiriq va vazifalarni tarbiyachilar o'rtasida ularning tajribasi, qobiliyatlarini va intilishlariga ko'ra taqsimlang, Pedagogning imkoniyatlaridan yuqoriligi sezilib to'rgan tolshiriqlarni berib bo'lmaydi. Topshiriq etarli darajada qiyin, ammo bajara oladigai bo'lishi kerak. Topshiriqnini berishda tarbiyachi ongli harakat qila olishi va tashabbusni namoyon qilish uchun uning maqsadi va mazmunini tushuntiring.

9. Uslubchining me'yordagi talabchanligi bu MTM butun pedagoglar jamoasi ishidagi ongli intizom, aniq tashkil qilinganlik, o'zaro uyg'unlik zaminidir. Vazifalarni taqsimlashni, buyruq berish va nazorat qilishni, rag'batlantirish va jazolashni, jamoaning jamoatchilik fikriga tayanishini o'rganing.

Talabchanlik muntazam bo'lishi kerak. U ishning past sifatiga murosasizlikda, tirishqoqlik va qat'iyatda namoyon bo'ladi. Talabchanlikning davriyligi nizolarga olib keladi va kutilgan natijalarni bermaydi.

10. Ko'rsatmalarni tarbiyachilarga o'z hukmingizni ta'kidlamay topshiriq va iltimoslar shaklida bering. Ular o'ta aniq, tushunarli bo'lishi kerak. Ishning sifati, uning hajmi va bajarilishi muddatiga qo'yiladigan talablarni bayon qiling. Talablarining jamoada qo'llab-quvvatlanishiga harakat qiling. Bu tarbiyachilarda o'zaro talabchanlik va intizomni tarbiyalashning muhim shartidir.

11. Tarbiyachilar ishlarining sifatiga ularning imkoniyatlarini hisobga olib talablar qo'ying. Qurbi etmaydigan talablar qarshilik uyg'otadi, kyshilarining kayfiyatini buzadi. Intizomiy talablar barchaga barobar bo'lishi kerak. Buning uchun tarbiyachilarni, ularning kuchli va kuchsiz tomonlarini yaxshi bilish kerak. Eng avvalo ularning fazilatlariga tayaning. Jamoatchilik topshiriqlari jamoa a'zolari o'rtasida bir tekisda taqsimlanishini kuzating.

12. Tarbiyachini bilishning asosiy yo'li uning faoliyatini kuzatish va tahlil qilishdir. Odamlarni faqat ularning ishlariga ko'ra baholang. Tekshirilmagan mish-mishlarga ishonib, kishi haqida mulohaza yuritish mumkin emas.

Xar bir, xatto eng bo'sh tarbiyachi ishida ijobiy tomonlarni ko'rishga harakat qiling. Ma`qullash, iliq so'z pedagoglarning mehnat iitilishlarini safarbar qilsha, ularning ijobiy kayfiyatlarini qo'llab-quvvatlashning eng amaliy vositasidir.

Tarbiyachining muvaffaqiyatlarini hamkasb-lari ishtirokida qayd eting, fikr - mulohazalarni, odatda, yolg'iz qolganda bildirgan ma`qul. Kamchiliklarni ommaviy tanqid qilish tarbiyachi maslahatlarga quloq solmagan va o'z xatolarini tan olishni istamagan hollarda o'rinnlidir.

13. Doimo o'zingizni tutishga harakat qiling. G'azab ifodalarini tarbiyachiga uning faoliyatini osoyishta, xushmuomalalik bilan tahlil qilishdan ko'ra kamroq ta`sir ko'rsatadi. Chidamsizlik, baqiroqlik - rahbar madaniyatining pastligidan dalolat beradi, bu uning kuchliligi emas, balki zaifligining belgisidir.

14. MTM da tetik, xushchaqchaq muhitning yaratilishi eng avvalo sizga, sizning xatti - harakatingizga bog'liq. Tarbiyachining kayfiyati ishining muvaffaqiyatli bo'lishiga, jamoadagi iliq muomala va o'zaro yordamga bog'liq bo'ladi. Jamoaning barcha a`zolari bilan bir xilda muomalada bo'lish uni jipslashtirishning muhim shartlaridan biridir. "Erkatoylar", imtiyozlilar va ta`qib qilinuvchilarning bo'lishi rahbarning jamoani o'z ketidan ergashtirishga qodir emasligining belgisidir.

Optimist bo'ling va qiyin vaziyatlarda ruhingiz tushmasin: bu tarbiyachilarda ishda muvaffaqiyatga erishish ishonchini uyg'otadi.

15. Tanqidga to'g'ri fikr bildirishni o'rganing. O'zingiz haqingizda nomaqbul gaplarni eshitsangiz, ularni sabrli bo'lib ish bilan, faqat ish bilan inkor eting, ana shunda kishilar haqiqat qaerda, yolg'on qaerdaligini o'zлari osonlikcha farqlab oladilar. Tanqidiy fikrdagi kashilarni obro'sizlantirishga intilish muhitni keskinlashtiradi va rahbarning jamoadagi obro'siga putur etkazadi, xolos.

Tarbiyachining mulohazalari va har qanday takliflarini, hatto muhim bo'lmasada, diqqat hamda xayrixohlik bilan tinglang. Bo'lmasa, boshqa holatda jiddiy masala yuzasidan ham u hech narsa demaydi. Adolatli tanqidiy, mulohazalarni mensimaydigan rahbar muqarrar tarzda o'zini jamoaga qarshi qo'yadi va nihoyat oqibatda samarali boshqarish imkoniyatidan mahrum bo'ladi.

16. O'z mehnatingizni ratsional tashkil qiling, ishni rejorashtiring, o'zingizni va o'zgalarni belgilangan kun tartibiga rioya qilishga odatlantiring. Majlislar o'tkazish, har qanday «qog'ozbozlikni», afsuski bu hozir ham tarbiyachilar ishida uchrab turadi, mumkin qadar qisqartiring.

Hech qachon va hech qaerga kechikmang va buni qo'l ostingizdagilardan ham talab qiling.

17. Topshiriq, vazifa, qabul qilingan qarorlarning bajarilishini nazorat qiling: nazoratning yo'qligi tarbiyachilarda bajarilayotgan ishning keraksizligi haqidagi fikrni keltirib chiqarishi mumkin; shu bilan birga yo'l- yo'riq ko'rsataverishlardan o'zingizni tiying. Agarda jamoangizda bitta bo'lsa-da noinsof xodim bo'lsa, uni ishlashga majbur qiladigan barcha choralarни ko'ring, aks holda u butun jamoadagi intizomni buzishi mumkin.

Nazorat savollari:

1. Maktabgacha ta`lim muassasasi uslubchisining liderlik jihatlarini siz qanday izohlaysiz?
2. Uslubchi jamoani birlashtirishda qaysi usullardan foydalanish mumkin va bu qanday usullar?
3. Uslubchining yosh tarbiyachiga ko'rsatadigan metodik maslahatlar mazmunida nima yotadi?
4. Uslubchining mutaxassislik vazifalari jadvalini tuzib ko'rsating.

Adabiyotlar:

1. I.A.Karimov "Yuksak ma`naviyat engilmas kuch" Toshkent "Ma`naviyat". 2008 y.
2. Otamurodov S va boshqalar. "Ma`naviyat asoslari". Toshkent 2002 y.
3. A. I.Vasileva, L.A. Baxturina, I.I.Kobitina "Bolalar bog'chasing katta tarbiyachisi" T.: "O'qituvchi"1991 y.
4. Maktabgacha ta`lim tizimiga doir xuquqiy me`yoriy xujjatlar to'plami. "Lider Press" nashriyoti.T.: 2009 y.
5. Maktabgacha ta`lim muassasasi to'g'risidagi Nizom. Toshkent 2007 y.
6. J.G'.Yo'ldoshev. Ta`lim yangilanish yo'lida. Toshkent "O'qituvchi" 2000y.

IV Mavzu: Maktabgacha ta`lim muassasasi ishini rejalashtirish va ma`yoriy xujjatlar.

Reja:

1. Maktabgacha ta`lim muassasasi ishini rejalashtirishning nazariy asoslari.
2. Ta`lim tarbiyaviy ishlarni istiqbol rejalashtirish vazifalari va unga qo'yiladigan talablar.
3. Guruxning xafkalik kalendar ish rejasi va unga qo'yiladiga talablar.
4. Maktabgacha ta`lim muassasasining yillik ish rejasi, uning mazmuni va mohiyati.

Mustaqil ish. Metod xonada foydalanish uchun zarur bo'lgan ijtimoiy-siyosiy, metodik, badiiy adabiyotlar bilografiyasini tuzish.

Tayanch iboralar.

- istiqbol – bu ishni ma`lum muddatlar asosida rejalashtirish
- kalendar reja – guruxning bir xaftaga mo'ljallab tuzilgan ta`lim – tarbiyaviy ish rejasi.
- atributlar – kerakli jihozlar, qurollar.
- Ochiq ko'rik – ma`lum jarayonning jamoa tarzida kuzatish va tahlil qilish.
- Metodik kabinet - maktabgacha ta`lim muassasasidagi ta`lim-tarbiyaviy va metodik ishlarning markazi
- Istiqbol reja – ta`lim-tarbiyaviy ishlarning avvaldan ishlab chiqilgan loyihasi.

4.1. Maktabgacha ta`lim muassasasi ishini rejalashtirishning nazariy asoslari.

Maktabgacha ta`lim muassasasida ta`limiy - tarbiyaviy ishni rejalashtirish pedagoglar: tarbiyachi, uslubchi, mudira faoliyatining muxim turlaridan biridir. Rejalashtirish ta`lim - tarbiyaviy ishining zarur sharoit, foydalaniladigan vosita, ish usul va metodlarini ko'rsatib, ta`lim - tarbiyaviy ish dasto'rini amalga oshirish tartibi, izchilligini oldindan aniqlashdir.

Maktabgacha pedagogika fani maktabgacha ta`lim muassasasi ishini rejalashtirish mumkinligi va zarurligini ta`kidlab, bunda u inson shaxsini shakllanishida ijtimoiy omillar - muhit va tarbiyaning muhim ahamiyatga egaligi haqidagi asosiy qoi-dalarga tayanadi. Rivojlanishning asosiy omili bo'lgan tarbiya jarayonida bilim, aqliy va amaliy malakalar hamda harakat usullari, ma`naviy va estetik baxolarda va shu kabilar shaklida berilgan ijtimoiy - tarixiy tajribani bola tomonidan egallanilishi amalga oshiriladi. Tarbiyaning mazmunini uning maqsadi belgilaydi, demak u dastur tabiatini kasb etadi va rejalashtirishi xam mumkin.

Tarbiyada etakchi o'rinni katta yoshli - o'qituvchiga, tarbiyachiga tegishlidir. U bolalarning xilma - xil faoliyatlarini tashkil etadi va yo'lga soladi, o'qitish jarayonini amalga oshiradi. Faoliyatni rejalashtirishda pedagog bolalar rivoji va tarbiyasining umumiyligi qonuniyatlarini hamda tarbiyalanuvchnlarning o'ziga xos xususiyatlarini bilishga tayanadi. Bolani tarbiyalash va rivojlantirish qonunlari

ob`ektivdir, ular bolalar bilan olib boriladigan ta`lim - tarbiyaviy ish mazmunini xam izchilligini xam aniqlashda asos xizmatini o'taydi.

Maktabgacha ta`lim muassasasisi ta`lim - tarbiyaviy ishini rejalashtirish mamlakat va maktabgacha pedagogikaning muhim yutug' idir. XIX asr o'rtalarida rus pedagogikasining mashhur namoyandasini E. N. Vodovozova bolalar bilan tabiat xodisalari va qishloq mehnatkashlari mehnatini kuzatishlar mazmuniga ko'ra izchil, murakkablashib va kengayib boradigan tizimini ishlab chiqdi. Bu kuzatishlar turli yoshdagi bolalar uchun ishlab chiqilgan bo'lib, ularning izchilligi tabiat, mexnat va kishilar turmushidagi mavsumiy o'zgarishlar bilan bog'langan.

Bolalar bilan ishslashni rejalashtirish mazmun va shakllarini izlash, uning asoslarini aniqlash mamlakatimizda ijtimoiy maktabgacha tarbiyaning butun shakllanish davrida davom etdi. E. I. Tixeeva metodi asosida ishlovchi maktabgacha ta`lim muassasasisida pedagoglar jamoasi reja dastur ishlab chiqadi. Unda bolalar bilan ishning asosiy yo'naliishlari, ularning birikmalarini beriladi, har bir yo'naliish ichidagi izchillik belgilanadi.

Maktabgacha pedagogikada pedagogik jarayon asosiy tushuncha sifatida A. P. Usova hamda N. B. Mchedlidze asarlarida ko'rib chiqilgan. A. P. Usova maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni o'qitish muammolarini ishlab chiqar ekan, maktabgacha ta`lim muassasasisidagi pedagogik jarayonning asosiy tarkibiy qismlarini tilga oladi. Ular o'yin, mexnat va o'quv faoliyatidir¹.

Maktabgacha ta`lim muassasasisidagi pedagogik jarayonda o'yinning o'rnini ta`riflar ekan, N. B. Mchedlidze pedagogik jarayon yaxlit, dialektik va rivojlanuvchi xodisadir deydi. Uning rivojlanishi jarayonida asosiy tashkil qiluvchi qismlari: tarbiya va o'qitish, bolalarning uyuşhtirilgan va mustaqil faoliyatlar, ayrim faoliyat turlari (o'yin, o'quv, mehnat) o'rtasidagi nisbat o'zgaradi².

Pedagogik jarayonda tadqiqotchilar maqsad va mazmunni, vosita va metodlarni, pedagog va bolalarning o'zaro aloqasini. natijani ajratib ko'rsatadilar (YU. K. Babanskiy, V. I. Loginova, F.R.Qodirova).

Pedagogik jarayonning xususiyati uning mazmuni, tuzilishi va shakllari rivojida namoyon bo'lувчи о'згарувчанликdir. *Maktabgacha ta`lima muassasasisidagi pedagogik jarayon maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni har tomonlama tarbiyalash va rivojlantirish ularni jismoniy, akliy, ma`naviy va estetik rivojlantirish masalalarini amalga oshirishga yo'llangan*. Bu vazifalarni ro'yobga chiqarish pedagogik jarayonda bolalar faoliyatining xilma - xil turlari - o'yin, turmush, mehnat, o'quv, oddiy badiiy va xakazo faoliyatlarini orqali ta`minlanadi. Ular maktabgacha tarbiya yoshidagi bola shaxsini shakllantiruvchi vosita xizmatini o'taydi va ayni bir vaqtida bolalar egallaydigan mazmun ham xisoblanadi.

Pedagogik jarayonning tashkil etilishi ilk maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar uchun xos bo'lgan umumiyl rivojlanishning yuqori sur`atlarini hisobga

¹ Usova A. P. Obuchenie v detskom sadu //Pod. red. A.V. Zaporojtsa. M., 1981.

² Mchedlidze N. B. Mesto igri v pedagogicheskem protsesse detskogo sada // Psixologiya i pedagogika igri doshkolnika / Pod. red. A. V. Zaporojtsa i A. P. Usovoy.— M., 1966.

olishi kerak. U har bir yosh guruhidagi shuningdek, butun mактабгача та`лим muassasasisidagi pedagogik jarayonni o'zgaruvchanligini ham belgilaydi.

Mактабгача та`лим muassasasisidagi pedagogik jarayon bolalar hayotini tashkil etishning o'ziga xosligi bilan farqlanadi. Bolalarni uyuştirishning umumiyligi va yakka shakllari o'zgaruvchanligi va xilma - xil birikmalari bilan ifodalanadi.

Bundan mактабгача та`лим muassasasisidagi pedagogik jarayonni bir butun sifatida va har bir yosh guruhida rejalashtirish lozim degan xulosa kelib chiqadi.

4.2. Ta`lim tarbiyaviy ishlarni istiqbol rejalashtirish vazifalari va unga qo'yiladigan talablar.

Rejalashtirish mактабгача та`лим muassasani boshqarishni uning barcha bo'limmalarida rejali, muntazam, ratsional hamda samarali ishlashini ta`minlovchi muhim funktsiyasidir.

Xozirgi kunda ta`lim tizimi o'quv rejalarini, dasturlarini, rejalashtirishlarni ilmiy - texnika taraqqiyotining talablari, bolalarning xususiyatlari va imkoniyatlariga muvofiqlashtirishni talab qiladi. Bugungi kunda mактабгача yoshdagi bolalarni o'qitish va tarbiyalashga kompleks yondashishni hamda butun pedagoglar jamoasining intilishlarini koordinatsiyalashni muvofiqlashtirishni ta`minlovchi rejalashtirishning yagona talablarini ishlab chiqish zarur va mumkin. Mактабгача та`лим muassasalar ishidagi sezilarli yutuq, muvaffaqiyatlar bilan birga ularning haqiqiy zaif tomonlari rejalashtirish masalalari hisoblanadi.

Pedagogik jarayon andozalarga, daqqiliklarga toqat qilolmaydi, bu o'rinda pedagog jonli mushohadasining doimiy ishi, uning tashabbusi, ijodiyoti talab qilinadi. Ta`lim to'g'risidagi Qonunda belgilangan va bizni to'g'ridan - to'g'ri mana shunga yo'llaydi. Shuning uchun pedagogik jarayonning metodik jihozlanganligi aniqroq ta`minlanadigan bosh yo'naliш va yo'l - yo'riqlarni beradigan, qolganlarini tarbiyachining o'zi hal qiladigan, tadbiq etadigan, ijod qiladigan rejalashtirish zarur.

Rejalashtirishdan oldin mактабгача та`лим muassasadagi ta`lim-tarbiyaviy ishlar holati har tomonlama va chuqur tahlil qilinadi, uning kuchli va zaif tomonlari aniqlanadi, keljak davr uchun dolzarb vazifalar belgilanadi. Mактабгача та`лим muassasa ishini aniq rejalashtirish jamoaga asosiy vazifalarni doimo diqqat markazida tutish imkonini beradi.

Mактабгача та`лим muassasa ishida istiqbol, yillik va joriy rejalashtirishdan foydalaniлади.

Istiqbol rejalashtirish

Mактабгача та`лим muassasa ishining istiqbol rejasiga bolalarning mактабгача та`лим muassasasini uzoq muddatda xalq xo'jaligini rivojlantirishning rejalariga muvofiq rivojlantirishning eng asosiy yo'naliшlarini aniqlash maqsadida besh yilga tuziladi. Unda davlat va idoralarning mактабгача та`лим muassasa ishining yangi sifat darajasini

ta`minlovchi xalq ta`limi va MTM tartibda o'qitish va tarbiyalash masalalari haqidagi ko'rsatmalar kiritilishi lozim.

Istiqbol rejalahstirish jadvali

I. Maktabgacha ta`lim muassasaning muhim vazifalari va unirovjlantirishning tashkiliy - pedagogik muammolari.

II. Kadrlar bilan ishlash.

III. Ta`lim - tarbiyaviy ishlarni takomillashtirish, unga rahbarlik va uninazorat qilish muammolari.

IV. MTM ning oila, mакtab, jamoatchilik bilan hamkorlikdagi ishi.

V. Maktabgacha ta`lim muassasaning o'quv - moddiy bazasini mustahkamlash.

Bu bo'limgarning taxminiy mazmunini yoritib o'tamiz.

I. Maktabgacha ta`lim muassasaning muhim vazifalari va unirovjlantirishning tashkiliy - pedagogik muammolari:

maktabgacha yoshdagi bolalarning MTM va oiladagi mehnat tarbiyasining yo'lga qo'yilishini yaxshilash, ularda mehnatsevarlik va mehnat ahllariga hurmatni tarbiyalash;

jamoaning bolalarni tarbiyalashda oilaga yordamini kuchaytirish va bolalar tarbiyasi uchun uning ma`suliyatini oshirish bo'yicha ishi, oila va MTM kelishilgan holdagi harakatlarini ta`minlash, pedagogik umumiy ta`lim tizimini ishlab chiqish;

tarbiyachilarining doimiy mustaqil o'qishlari va kasb mahoratlarini o'stirish uchun zaruriy sharoitlarni yaratish va ularning siyosiy ong - bilim doiralarini kengaytirish.

II. Kadrlar bilan ishlash:

ilg'or tajriba maktablari, seminar, to'garak, anjumanlar ishlarida qatnashadirish, malaka oshirish kurslarida o'qitish orqali tarbiyachilarining dunyoqarashlarini rivojlanirish hamda kasb mahoratini takomillashtirish;

tarbiyachilarining mehnat va turmush sharoitlarini yaxshilash, ularning ishlarini ma`naviy va moddiy rag'batlantirishni takomillashtirish bo'yicha tadbirlar;

ilg'or pedagogik tajribani o'rganish, umumlashtirish va joriy etishga doir ish.

III. Ta`lim - tarbiyaviy ishlarni takomillashtirish, unga rahbarlik va uninazorat qilish muammolari:

maktabgacha yoshdaga bolalarni o'qitish va tarbiyalashda MTM va maktab ishi mazmuni, shakl va metodlaridagi izchillikni ta`minlash;

maktabgacha ta`lim muassasasining ta`lim - tarbiyaviy ishiga maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy, axloqiy, mehnat, aqliy, estetik tarbiyalash birligini ta`minlovchi kompleks yondashuvni amalga oshirishga doir ish;

maktabgacha yoshdagi bolalarni o'qitish va tarbiyalash shakl, metod va vositalarini takomillashtirishga doir ish;

mashg'ulotlarda o'quv materialini tushuntirishning yuksak g'oyaviyligi: va ilmiylici, tushunarligi va ko'rgazmaliligi, aniqligi, ravshanligi va jonliligini ta`minlashga doir ish;

maktabgacha yoshdagi bolalarni axloqiy tarbiyalash ishini takomillashtirish;

maktabgacha yoshdagi bolalarni badiiy - estetik jihatdan tarbiyalashni yaxshilash: ularda go'zallikni his qilishni, tabiat va jamiyatdagi go'zallikni tushunish va qadrlash ko'nikmasini, estetik did va badiiy ijod mahoratlarini tarbiyalash.

IV. Maktabgacha ta`lim muassasasining oila, maktab, jamoatchilik bilan .hamkorlikdagi ishi;

pedagogik umumiyligi ta`limni ta`minlashga doir (ota - onalar maktablari, universitetlar, anjumanlar, to'garaklar va shu kabilar);

maktablar, jamoatchilik tashkilotlarining maktabgacha ta`lim muassasalar ustidan otalig'i;

V. Maktabgacha ta`lim muassasaning o'quv - moddiy bazasini mustahkamlash: jihozlar o'yin, o'quv, sport, xo'jalik) ni olish va ta`mirlash qilish; o'yin, mehnat, o'quv faoliyatini uchun qo'llanma, atributlarni tayyorlash;

metodika kabinetini ijtimoiy - siyosiy, metodik, badiiy adabiyoti bilan to'ldirish;

maktabgacha ta`lim muassasasi binosini va territoriyasini obodonlashtirish, ko'kalamzorlashtirish.

4.3. Guruxning xaftalik kalendar ish rejasi va unga qo'yiladiga talablar

Turli yoshdagi bolalar guruxidagi ish rejasi umumiyligi talab va chizma bo'yicha tashkil qilinadi. Ammo uning turli yoshdagi bolalarni birgalikda tarbiyalash xususiyatlaridan kelib chiquvchi ayrim o'ziga xosliklari bor. Bolalar faoliyatining har xil turlarini tashkil etish alohida e'tiborni talab qiladi, chunki bolalarining yosh imkoniyatlari aynan faoliyatda yorqin namoyon bo'ladi: turli yoshdagi bolalar turli bilim hajmiga, zarur ko'nikma, malakalarga egadir, ularning mustaqillik va uyushganlik, ishlash qobiliyatları, chidamliliklari va shu kabilalar turlichadir.

Bolalarining bu xususiyatlari kundalik hayotini qaror toptirishda hisobga olinadi. Ular bolalar faoliyatining mazmuni, tashkil etish shakllari, bolalar bilan bo'ladigan barcha tarbiyaviy ishlarni tashkil etish shakllarini belgilaydi. Turli yosh guruhlarda ta`lim - tarbiyaviy ishning xilma - xil shakllari: yalpisiga kichik guruxlar bilan (yoshlarga oid) va yakka tartibdagi shakllardan foydalilanadi.

Ish yalpisiga tashkil etilganda faoliyatning barcha uchun yagona bo'lgan tur aniqlanadi, ammo uning aniq mazmuni, bolalarga tushadigan yuklama, raxbarlik usullari yosh guruxlariga tabbiqan tabaqlananadi. Bunda turli yoshdagi bolalarining o'zaro munosabatlariga katta e'tibor beriladi.

Ish kichik guruhlar bilan tashkil etilganda guruxlar turli yoshdagi yoki bir xil yoshdagi bolalardan tuzilishi mumkin. Birinchi holatda bolalar faoliyatiga ishni yalpisiga tashkil etishga qo'yiladigan talablar bilan bir xil talablar qo'yiladi. Ikkinci holatda bolalarning faoliyatları yagona mazmunda tashkil etiladi va unga rahbarlik umumiy talablardan kelib chiqadi.

Yakka tartibdagi ish yoshidan qat'iy nazar tashkil etiladi. Uning mazmuni, metodi va usullari bolalarning o'ziga xos xususiyatlari, ularning bilim, malaka va ko'nikmalarini egallash darajalaridan kelib chiqib aniqlanadi.

Bolalar faoliyatini tashkil etishning xilma - xil shakllaridan foydalanish tarbiyaviy ishda bolalarning yosh imkoniyatlari va xususiyatlarini to'liqroq xisobga olishni, ularni tarbiyalash va rivojlantirishni qulaylashtirishni ta'minlaydi.

Turli yosh guruxlaridagi ishning kalendor rejasi bolalar bilan vaqtning asosiy bo'laklarida olib boriladigan ta'lim - tarbiyaviy ish mazmuni, shakl va metodlarini qamrab oladi.

Ertalab. Ertalabki gimnastika rejalashtiriladi (10 - 12 kunga bir marta). Muayyan sharoitlarga ko'ra u har bir yosh guruhi yoki barcha bolalar bilan bir xil bo'lishi nazarda to'tiladi. Birinchi holatda har bir kichik yosh guruhi uchun alohida mashqlar majmui tuziladi. Ikkinci holatda mashqlar majmui umumiy bo'lishi mumkin, ammo ayrim mashqlarni har bir yosh guruhi takrorlash miqdori aytib o'tiladi. Kichkintoylar uchun mashqlar ro'yxati ham qisqartirilishi mumkin. Bundan tashqari, katta bolalar uchun mashqlarni murakkablashtirish va yuklamani oshirish maqsadlarida gimnastika tayoqchalari, obruch, jismoniy tarbiya jihozlaridan foydalanish nazarda to'tiladi.

Ertalabki vaqt bo'lagida bolalar bilan yakka tartibda bo'ladigan, shuningdek, bir yoshdagi kichik guruhdagi bolalar bilan ishlash (dasto'rning turli bo'limlari bo'yicha: nutqni o'stirish, matematik tasavvurlarni shakllantirish va boshqalar) rejalashtiriladi. Ertalab tabiat burchagida yashovchilarni yakka tartibda va kichik guruxlar bo'lib kuzatish o'tkaziladi. Navbatchilar ishiga (katta bolalar) rahbarligi rejalashtiriladi. Ayni shu bilan birga katta bolalarga yordam berish yoki ularning mehnatini kuzatishga kichkintoylardan qaysi birini jalb qilish ko'rsatiladi. Xo'jalik - turmush ishlari ham xuddi shunday tashkil etiladi.

Ertalab bolalarga didaktik o'yinlarni taklif etish mumkin. Tarbiyachi rejada bolalarni u yoki bu o'yinlarga jalb qilish usullarini, o'yinlarni boyitish usullarini ko'rsatadi (kichkintoylar uchun didaktik o'yinchoqlar bilan o'ynashning yangi usullarini ko'rsatish, katta yoshdagi bolalarni stol - bosma o'yining yangi turi bilan tanishtirish va shu kabilar).

Mashg'ulotlarni rejalashtirish: Rejada mashg'ulotni o'tkazish shakli ko'rsatiladi. Yalpisiga shaklidan dasto'rning ayni bir bo'limidagi mashg'ulotlarni rejalashtirishda foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bunda dastur mazmuni yosh guruhlari asosida tabaqlashtiriladi. Agarda mashg'ulot boshi yoki yakunida kichik bolalar ishtirok etmasalar, bu rejada ko'rsatib o'tiladi (masalan, rasm tahliliga faqat katta bolalar jalb qilinadi). U yoki bu kichik guruhlarga nisbatan qo'llaniladigan asosiy metod va usullar ko'rsatib o'tiladi. Masalan, jonivorlarni kuzatishda tadqiqotchilik xarakatlariga ko'proq kichik bolalar jalb qilinadi, kattaroq bolalar uni ko'rib ancha tushunadigan bo'lib qolgan bo'ladi. Kichkintoylarga idrokni

aniqlashtirishga kattalariga qiyoslash va umumlashtirishga yo'llangan savollar beriladi. Rejada mashg'ulotlarning turlicha davomiyligi nazarda to'tiladi; Katta yoshdagi bolalar uchun zaruriyat bo'lsa, beriladigan ish oldindan nazarda to'tiladi (masalan, suxbat oldidan kuzatish yoki tasviriy faoliyat oldidan).

Alovida kichik guruhlarga o'tkaziladigan mashg'ulotlar odatdagidek rejalashtiriladi. Shningdek, topshiriqlar izchilligi va mashg'ulotlarni yakunlash ko'rsatib o'tilishi kerak.

Sayr jarayonini rejalashtirish: Bu jarayonda sayrlarda tabiat va ijtimoiy hayot hodisalari kuzatiladi. Rejada ularning mazmuni va asosiy usullari qisqacha bayon kilinadi. Ko'pincha ular mazmuni tabaqlashtirilgan yalpi kuzatishlar tarzida rejalashtiriladi. Ayrim kichik yosh guruhlari bilan kuzatishlar qo'shimcha rejalashtirilishi mumkin. Maktabgacha ta`lim muassasalarida bolalar mehnatini tashkil etishda sayr jarayonidan unumli foydalanish lozim. Chunki bunda bolalar maydonchalari va gulzorlarda jamoa mehnatni (tozalash, gul va ko'chatlar ekish, parvarishlar kabilar) tashkil etadi.

Tarbiyachi harakatli o'yinlarni mavsumga, ob - havoga qarab, oldingi mashg'ulotlardan kelib chiqib tanlaydi va ish rejasiga kiritadi. Sayrlarning davomiyligi harakatli o'yinlarni turli yosh guruhlaridagi bolalar bilan alovida o'tkazish imkonini beradi, bu ularning harakatlarini rivojlantirishda muhimdir. Ammo ba`zan birgalikdagi harakatli o'yinlarni ham rejalashtirish kerak: ular bolalarni birlashtirishga, do'stlik his - tuyg'ularini tarbiyalashga yordam beradi. Ayniqsa xalq milliy o'yinlaridan keng foydalaniladi.

Rejada bolalarning mustaqil o'yinlari, ayniqsa tabiiy materiallar bilan o'ynaladigan o'yinlariga rahbarlik nazarda to'tiladi. Sayrlar vaqtida dasto'rning barcha bo'limlariga doir bolalar bilan yakka tartibda ishslash albatta rejalashtiriladi. Harakatlarni rivojlantirishga doir yakka tartibdagi ishga alovida e'tibor beriladi. Uni har kuni (turli bolalar bilan o'tkazish) nazarda to'tiladi.

4.4. Maktabgacha ta`lim muassasasining yillik ish rejasi, uning mazmuni va mohiyati.

Maktabgacha ta`lim muassasasining o'quv yili uchun yillik ish rejasi istiqbol reja Davlatimiz tomonidan barcha sohalar bo'yicha qabul qilingan qonun xujjatlari, Xalq ta`limi bo'yicha me`yoriy hujjatlari, "Bolajon" dasturi "Davlat talablari", "Maktabgacha ta`lim kontsepsiysi" shuningdek maktabgacha ta`lim muassasaning o'tgan yildagi ishining tahlili asosida ishlab chiqiladi.

Yillik reja aniq, maktabgacha ta`lim muassasasining butun hayotini qamrab oladigan, barcha ta`lim - tarbiyaviy ishlarining uzviyligi va izchilligini nazarda tutadigan, pedagoglar jamoasining o'tgan yildagi faoliyati natijalarini hisobga oladigan bo'lishi kerak.

Rejaning mazmuni, asosiy bo'limlari, uni tuzilishi va metodikasi haqidagi metodik adabiyot va yo'l - yo'riq xujjatlarida tavsiyalar berilgan. Ular maktabgacha ta`lim muassasa tashabbusini qandaydir andoza doirasida bo'g'ib qo'ymaydi. Barcha uchun shart bo'lgan ilmiy asoslangan talablar

bilan birga ijodiy variantlash uchun ham o'rin qoldirilgan. Yillik rejani tuzishda kasaba qo'mita tashkiloti va vrach, tibbiyot hamshiras, tarbiyachilarining qatnashishlari muhimdir. Shundagina u maktabgacha ta`lim muassasasi xodimlari jamoa, ijodiy fikrining natijasi bo'ladi.

Yillik ish rejasi o'quv yilining boshlanishidan oldin avgust oyi pedagogik kengashida muhokama qilinadi va tasdiqlanadi. Yillik reja o'quv yilining boshlanishiga tuman (shahar) pedagogik kabinetining maktabgacha tarbiya uslubchisi tomonidan tasdiqlangan bo'lishi kerak.

Maktabgacha ta`lim muassasasining yillik ish rejasi bolalar muassasasining barcha ishlarini qamrab oladi. Unda ma`muriy-xo'jalik vazifalar, kadrlar bilan ishslash, bolalar bilan bo'ladigan ta`lim - tarbiyaviy ishga rahbarlik va boshqalar rejashtiriladi.

Yillik ish rejaning asosiy bo'limlaridan biri - bolalar bilan bo'ladigan ta`lim - tarbiyaviy ishni rejashtirishdir. Muassasaning oldingi yildagi ishning holatini tahlil qilish asosida muassasannng umuman va har bir guruxning alohida tarbiyaviy ish vazifalari aniqlanadi. Maktabgacha ta`lim muassasasisidagi ta`lim - tarbiyaviy ishning vazifalari bajarilishi shart bo'lgan «Maktabgacha ta`lim muassasasi ta`lim - tarbiya dasturi»da belgilab berilgan, shuning uchun yillik ish rejaga faqat pedagoglar jamoasining alohida e'tiborini talab qiladigan umumiy masalalar kiritiladi. Bunda tarbiyachilarining tajriba va malakalari, bolalar tarkibining xususiyatlari xisobga olinadi. Masalan, oz miqdorda zaif bolalar bo'lsa, sog'lomlashtirish ishi rejashtiriladi; boshqa hollarda aqliy va ma`naviy tarbiya masalalarini, bolalarning nutqinn rivojlantirish masalalarini hal qilish va shu kabilarga alohida e'tibor beriladi.

Yillik ish rejasida ta`lim va tarbiyaning u yoki bu bo'limiga doir mazkur muassasada mavjud bo'lgan tajribani umumlashtirishga yo'llangan ish aks ettirilishi mumkin.

Mo'ljallangan ta`lim - tarbiyaviy ish munosabati bilan yillik rejada tarbiyachilar bilan metodik ishning mazmun va shakllari, pedagoglar kengashi, maslahatlar mavzusi nazarda to'tiladi, uskunalarni to'ldirish mo'ljallanadi, ota-onalar bilan ish mazmuni aniqlanadi.

Yillik ish rejasini maktabgacha ta`lim muassasasisining mudirasi, metodist va tibbiyot xodimlari bilan hamkorlikda ishlab chiqadi va u xodimlarning umumiy majlisida tasdiqlanadi.

Maktabgacha ta`lim muassasasisining yillik ish rejasida nazarda tutilgan vazifalar tarbiyachilarining muayyan ish rejalarida aks ettiriladi.

Nazorat savollari:

1. Maktabgacha ta`lim muassasasida ta`lim - tarbiyaviy ishlar qaysi didaktik tamoyillar asosida rejashtiriladi? Ularni izohlang.
2. Istiqbol reja tuzishga qo'yiladigan talablar qaysilar va uni yoritib bering.
3. Gurux tarbiyachisining xaftalik ish rejasi bo'limlarini so'zlab bering.

4. Maktabgacha ta`lim muassasasining yillik ish rejasи va uni rejalashtirishga qo'yiladigan asosiy talablarni tushintiring.

Testlar

1. Maktabgacha ta`lim muassasalar ishini rejalashtirish g'oyalari nechanchi asrlarda paydo bo'lgan?

- A. XVIII asr o'rtalarida.
- B. XIX asr o'rtalarida.
- V. XX asr boshlarida.
- G. XIX asr boshlarida.

2. Ta`lim tarbiyaviy jarayonni rejalashtirishni ilmiy asosda talqin qilgan pedagoglar olimlar qaysi bandda to'g'ri yoritilgan?

- A. E.N.Vodovozova, A.P.Usova, N.B.Mchedlizze, V.I.Loginova.
- B. Yu.K.Babanskiy, V.I.Loginova, P.YUsupova, F.Qodirova.
- V. F.Qodirova, Z.R.Qodirova, V.I.Loginova, Yu.K.Babanskiy
- G. I.A.Orlenskaya, S.I.Xusanxodjaeva, P.YUsupova.

3. Rejalashtirish turlarini aniqlang.

- A. Joriy, xaftalik, istiqbol.
- B. Istiqbol, bir kunlik, oylik.
- V. Yillik, oylik, xaftalik.
- G. Xaftalik, joriy, oraliq.

4. MTM ning yillik ish rejasiga qanday vazifalar qo'yiladi?

- A. Bola tarbiyasiga oid dolzarb masalalar, pedagogik va psixologiya fani yutuqlari, malaka oshirish masalalari.
- B. Pedagogik va psixologiya fani yutuqlari, MTM Nizomi ota-oanlar bilan ishlar.
- V. Makatbgacha yoshdagi bolalarni xar tomonlama tarbiyalash va ularga ta`lim berish masalalari, ta`lim sohasi, ilm-fan, erishilgan yutuqlarini amaliyatga joriy etish, bolalarni muktab ta`limiga tayyorlash masalalari.
- G. Ota-onalar qo'mitasi bilan ishlashdagi hamkorlik, muktab bilan aloqa, tadbirkorlik masalalari.

5. Maktabgacha ta`lim muassasasining yillik ish rejasи kim va qaysi bo'lim tomonidan tasdiqlanadi?

- A. XTB uslubchisi tomonidan.
- B. XTB nazoratchisi tomonidan
- V. Maktabgacha ta`lim muassasasi mudirasi tomonidan
- G. Ota-onalar qo'mitasi raisi tomonidan

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent 1992 y
2. Ta`lim to`g'risidagi qonun. Toshkent 1997 y.
3. Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi. Toshkent. 1997 y.
4. O.U.Xasanboeva, M.X. Tadjieva, SH.K.Tashpulatova va boshqalar “Maktabgacha ta`lim pedagogikasi” “Ilm Ziyo”. T.: 2006 y.
5. B.Ziyomuhamedov, Sh.Abdullaeva “Pedagogika” “O'zbekiston Milliy entsiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti”. T.: 2000 y.
6. Sh.K.Tashpulatova “Maktabgacha ta`lim muassasalar ishini tashkil etish va boshqarish usullari” TDPU.T.: 2001 y.
7. Maktabgacha ta`lim muassasasi to`g'risidagi Nizom. Toshkent 2007 y.
8. Maktabgacha yoshdagi bolalar ta`lim-tarbiyasiga qo'yiladigan davlat talablari. Toshkent 2008 y.
9. J.G'. Yo'ldoshev. Ta`lim yangilanish yo'lida. Toshkent “O'qituvchi” 2000y.
10. Maktabgacha ta`lim kontseptsiyasi. Toshkent 2008 y.

V BOB. Maktabgacha ta`lim muassasasining yillik ish rejasini (amaliy)

Reja:

1. Maktabgacha ta`lim muassasasi yillik ish rejasini tuzish.

II. Mavzuning maqsadi: Maktabgacha ta`lim muassasasi yillik ish rejasini mustaqil tuzishga o'rgatish.

Mavzuning vazifalari: mustaqil ravishda maktabgacha ta`lim muassasasi yillik ish rejasini tuzish bo'yicha o'quvchilarda amaliy malakalar hosil qilish.

5.1. Maktabgacha ta`lim muassasasi yillik ish rejasini tuzish

Kirish qismi.

- I. Maktabgacha ta`lim muassasa ishining asosiy vazifalari.
- II. Tashkiliy - pedagogik ish.
- III. Kadrlar bilan ishlash.
- IV. Ta`lim - tarbiyaviy ishga rahbarlik va uni nazorat qilish.
- V. Ota - onalar bilan ishlash.
- VI. Ma`muriy - xo'jalik ishi.

Rejaning har bir bo'limi mazmunini ko'rib chiqamiz.

Kirish qismida maktabgacha ta`lim muassasaning o'tgan davr - dagi ishining quyidagi yo'nalishlari bo'yicha qisqacha, ammo har tomonlama tahlili beriladi;

bolalarning hayotini saqlash va sog'lig'ini mustahkamlash bo'yicha ishning samaradorligi;

Ta`lim - tarbiya jarayonining va natijalarining umuman va yosh guruxlari bo'yicha darajasi hamda samaradorligi, bolalarning maktabga tayyorlanganlik, darajasi;

Ota - onalar bilan ishlash darajasi va samaradorligi;

metodik bo'linmalar: pedagogik kengashlar, seminarlar, pedagogik maslahatlar, ochiq ko'riklar va shu kabi faoliyatining samaradorligi;

maktabgacha ta`lim muassasa o'quv - moddiy bazasining holati;

maktabgacha ta`lim muassasani kadrlar, bolalar bilan komplektlashda yuz bergen o'zgarishlar;

pedagoglar jamoasi ishida qanday qiyinchiliklar qayd etilgan, qanday kamchiliklar aniqlangan.

Maktabgacha ta`lim muassasasining o'tgan davrdagi fabliyatini mana shunday har tomonlama tahlil qilishgina keyingi o'quv yili uchun mazmunliroq kompleks reja tuzish va shu orqali butun ish samaradorligini oshirish imkonini beradi.

1. Maktabgacha ta`lim muassasasi ishining asosiy vazifalari. Tarbiyalash va o'qitishning asosiy vazifalarini aniqlashda tarbiyachilarning pedagoglik mahorati darajasini, maktabgacha ta`lim muassasa tipini, undagi ta`lim - tarbiyaviy ishning holatini hisobga olish zarur.

Bir yilga 3—5 vazifani mo'ljallash tavsija etiladi: vazifalardan 1-2 tasi yangi, maktabgacha ta`lim muassasaning o'sish istiqbollarini aks ettiradigan, 2—3 tasi oldingi o'quv yilida boshlangan ishni davom ettiruvchi vazifa bo'lishi mumkin. Mo'ljallangan vazifalar yillik reja bo'limlarida aniq tadbirlar bilan tasdiqlanishi kerak.

Masalan:

1. Pedagoglar jamoasining g'oyaviy - siyosiy va ilmiy - metodik darajasini davlatimiz tomonidan jamiyatning iqtisodiy va siyosiy sohalarida qabul qilingan materialar, psixologiya pedagogika fani va amaliyotining eng yangi yutuqlari, ta`lim tarbiya sohasida qo'llanilayotgan pedagogik va innovatsion texnologiyalar, maktabgacha ta`lim sohasi bo'yicha ishlab chiqilgan va amaliyotga tadbiq etilgan barcha qonun xujjalarni o'rganish asosida amalga oshirish.

2. Maktabgacha yoshdagi bolalarning maktabgacha ta`lim muassasasida va oilada yangi dastur talablariga muvofiq mehnat tarbiyasini yaxshilash.

2. Oilaga yordamni ko'chaytirish, oila va maktabgacha ta`lim muassasasisining kelishib harakat qilishini ta`minlash.

3. Ilk yoshdagi bolalar guruxlarida jismoniy tarbiya bo'yicha ish shakllarini takomillashtirish, bolalarning kasallanishlarini kamaytirishga erishish.

4. YOsh tarbiyachilarga murabbiylar tizimi orqali metodik yordam ko'rsatish.

II. Tashkiliy - pedagogik ish.

Bu bo'lim pedagogik kengash, nazariy seminarlar, seminar-mashg'ulotlar, maslahatlar, pedagogik jarayonlarni, ilg'or tajribani o'rganish va umumlashtirish bo'yicha pedagogik kabinetining ishlarini jamoa bo'lib ko'rish va hokazolarni qamrab oladi.

a) Pedagogik kengash ikki oyda bir marta o'tkaziladi. Pedagogik kengashlarda partiya - hukumat hujjatlari: Xalq ta`limi Davlat qo'mitasi va respublika Xalq ta`limi Vazirligi, xalq ta`lim bo'limlarining buyruq va ko'rsatmalari, buyruqlari, yo'l – yo'riq xujjalarni o'rganish va bajarish masalalari muhokama qilish uchun qo'yiladi;

bolalarnint hzyotini saqlash va sog'lig'ini mustahkamlash, ularni jismoniy rivojlantirish va takomillashtirish masalalari;

«Maktabgacha ta`lim muassasasida ta`lim - tarbiya dastursi» ning faoliyat turlari, bolalar bilan olib boriladigan o'quv ishlari bo'limlari bo'yicha bajarilishi;

ilg'or pedagogik tajribani umumlashtirish va bolalar maktabgacha ta`lim muassasasi amaliyotiga joriy qilinishi;

psixologik - pedagogik adabiyotda va vaqtli nashrlarda e`lon qilingan maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash va o'qitish masalalariga doir dolzarb ilmiy - nazariy va metodik muammolarni muhokama qilish;

ilmiy - amaliy anjumanlar, yig'ilishlar materiallarini ularda qabul qilingan tavsiyalarni. bajarish bo'yicha tadbirlarni ishlab chiqib muhokama qilish;

tarbiyachilar tomonidan bolalar maktabgacha ta`lim muassasasi ichida foydalanish va metodik birlashmalar, anjumanlar, pedagogik o'qishlar va shu kabilarda, chiqish uchun tayyorlangan metodik materiallar va ma`ruzalarni muhokama qilish;

b) seminarlar, seminar - mashg'ulotlar. Nazariy muammoli seminarlar tarbiyachilarning maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash va o'qitishning psixologik - pedagogik muammolari. bo'yicha ilmiy - nazariy darajalarini oshirish maqsadlarada o'tkaziladi. Seminarlarni o'tkazishga pedagogik kabinetlari, o'qituvchilar malakasini oshirish institutlari yuqori malakali mutaxassislar, pedagogika ilmiy tekshirish institutining ilmiy xodimlari, pedagogika institatlarning o'qituvchilari jalg qilinadi.

v) maslahatlar barcha tarbiyachilar uchun ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash va o'qitishning ayrim masalalari bo'yicha, yosh mutaxassislar, ayrim pedagoglar uchun ularning tayyorgarliklariga, xodimlar toifalariga ko'ra - (tarbiyachilar, muzika rahbarlari, logopedlar) rejalashtarilishi mumkin.

g) pedagogik jarayon (mashg'ulotlar, kun tartibi, sayrlar, o'yin va mehnat faoliyati va shu kabilalar) ni jamoa bo'lib ko'rish. Ularning tematikasi pedagogik kengashlar, seminarlarda muhokama qilinadigan masalalar, pedagogik tajribani o'rganish va joriy qilishga bog'liq tarzda yuzaga keladigan vazifalarga ko'ra aniqlanadi. Ochiq ko'riklar uchun pedagogik jarayonning eng murakkab masalalarini tanlash, faqat mashg'ulotlarni emas, bolalar faoliyatining barcha turlarini, bo'sh vaqtlar, sport ko'ngil ochishlarini kuzatish va tahlil qilish maqsadga muvofiqdir;

d) ilg'or tajribani o'rganish, umumlashtirish, tarqatish va joriy qilish. Bu o'rinda tarbiyachilar, muzika rahbarlari va shu kabilar tajribasini o'rganish rejalashtiriladi. Bu maqsadda ko'riklar, ayrim masala, bir - birlarining mashg'ulotlarga kirishlar amalga oshiriladi;

e) pedagogik kabinetining jihozlanishi - maktabgacha ta`lim muassasasisidagi metodik ishni rejalashtirishning eng muhim qismidir. Rejada bolalarni tarbiyalash va o'qitishning ayrim masalalari bo'yicha metodik ishlanmalarni, rejalar, ishlanmalar, ma`ruzalar, tematik ko'rgazmalar, o'quv - ko'rgazmali qo'llanmalar, atributlarni tayyorlash va jihozlash nazarda tutilishi mumkin.

III. Kadrlar bilan ishslash.

Quyidagilar rejalashtiriladi:

a) kadrlarni tanlash va joylash;

b) xodimlarning g'oyaviy - siyosiy darajasini oshirish;

v) yashga doir malakani oshirish.

Pedagog va texnik xodimlardan iborat kadrlarni tanlash hamda joylashtirish ularning kasb tayyorgarliklari, ish tajribalari, ishchanligi, individual - psixologik hususiyatlari, qiziqishlar va mahoratlariga ko'ra amalga oshiriladi. Shuningdek xodimlarning psixologik bir - birlariga mosliklarini ham hisobga olish kerak (psixologik bir - biriga mos kelmaslik faktlarini etarlicha baholamaslik jamoada nizolarning kelib chiqishiga, ma`naviy - psixologik muhitning buzilishiga olib keladi).

Rejada boshqaruv apparati (mudira, uslubchi, katta meditsina hamshirasi, xo'jalik ishlari mudiri va boshqalar) ning vazifalari aniq ko'rsatilgan va faoliyatlari koordinatsiya qilingan bo'lishi kerak.

Xodimlarning g'oyaviy - siyosiy saviyasini oshirish. Bu bo'limda maktabgacha ta`lim muassasasi har bir xodimining siyosiy o'qishi, qaysi to'garak, seminarlarda qatnashishi rejashtiriladi. Pedagoglarning siyosiy o'qishlarida asosiy o'rnini I.A.Karimov asarlarini, Davlatimizning barcha sohalarda qabul qilgan materiallarini, xalqimiz va boshqa mamlakatlar xalqlari hayotidagi yorqin siyosiy hodiralarni-o'rganish egallashi kerak. Bo'lar milliy istiqlol g'oyasini chuqurroq egallashga va maktabgacha ta`lim muassasasidagi barkamol qilib tarbiyalash masalalarini muvaffaqiyatliroq hal etishda foydalanish imkonini beradi. Xuddi shu bo'limda texnik xodimlar bilan o'tkaziladigan siyosiy o'qish: suhbat, ma'ruza, gazetalarni o'qish, siyosiy hodisalarini muhokama qilish rejashtiriladi.

Ish malakasini oshirish. maktabgacha ta`lim muassasalarida bunday ishning shakllari xilma - xildir: seminarlar, pedagogik kengashlar, ochiq ko'riklar, maslahatlar, shuningdek tarbiyalash va o'qitishning eng yaxshi tajribasini o'rganish;

maktabgacha ta`lim muassasadan tashqari o'qituvchilar malakasini oshirish kurslari orqali pedagoglarning malakalarini oshirish shakllari, metodik birlashmalar, ilg'or tajriba maktablari, muammoli ijodiy seminarlarda qatnashish;

IV. Ta`lim - tarbiyaviy ishga rahbarlik va uni nazorat qilish.

Mazkur bo'lim rejasida maktabgacha ta`lim muassasasi pedagoglari faoliyatini nazorat qilishning har xil turlari: frontal, tematik, qiyosiy, ogohlantiruvchi turlarini amalga oshirish mo'ljallanadi. Tarbiyachilar ishini o'rganish va uni nazorat qilishning asosiy maqsadi pedagoglarga yordam berish, xatolarning oldini olish va to'g'rakash, ilg'or tajribani umumlashtirish va tarqatnshdir. Rejada nazoratning asosiy yo'nalishlari, mazmuni va turlari belgilanadi, yakunlarni chiqarish muddat va shakllari ko'rsatiladi.

Quyidagilarga rahbarlik va nazorat qilishda alohida e'tibor berish lozim:

XTV va XTB ning maktabgacha ta`lim masalalariga doir qarorlarining bajarilishi;

Xalq ta`limi Davlat qo'mitasi va respublika Xalq ta`limi Vazirligi, xalq ta`lim bo'limlarining buyruq va ko'rsatmalarining bajarilishi;

maktabgacha ta`lim muassasasi va bola bilan to'ldirish bo'yicha xalq xo'jalik rejasning bajarilishi;

inspektorlik tekshiruvlarining takliflari, pedagogik kengashlar, ishlab chiqarish majlislarining qarorlari, maktabgacha ta`lim muassasasi bo'yicha buyruq va ko'rsatmalarning bajarilishi;

«Maktabgacha ta`lim muassasasida ta`lim - tarbiya dastursi» ning bajarilishi;

guruxlarda bolalar hayoti va ularni tarbiyalash uchun sharoitning yaratilishi.

kadrlar bilan metodik ishning va ularning malakasini oshirishning tashkil etilishi va uning mazmuni;

hujjatlar, o'quv - ko'rgazmali qo'llanmalar va o'yin materiallarining holatini;

ota - onalar, maktab, korxona bilan ishlash;

Xavfsizlik texnikasi va mehnatni muhofaza qilish, bolalar-travmatizmi va ular uchrashi mumkin bo'ladigan baxtsiz hodisalarining oldini olish ishining holati.

Rejada har bir yosh guruxsidagi ishni frontal tekshirish nazarda tutilgan bo'lishi kerak. Frontal tekshirishlarning yakunlari pedagoglar kengashi va ishlab chiqarish majlisi muhokamasiga qo'yiladi.

Har oyda pedagogik ishning alohida bo'limlarini tematik nazorat qilish rejalashtiriladi. Tematik nazoratni ilg'or tajribani o'rganish, tarqatish bilan birga qo'shib olib borvsh maqsadga muvofiqdir. Rejada xoh bir, xoh bir varakayiga bolalar byg'chasidagi bir necha yosh guruxlarida tematik nazoratdan foydalanishi belgilanishi mumkin.

Nazoratning qiyosiy va ogohlantiruvchi turlari ishni endi boshlayotgan yosh pedagoglar ishida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan xatolarni oldini olish maqsadida rejalashtiriladi.

Amaliyot ko'rsatishicha, maktabgacha ta`lim muassasasi ichidagi nazoratni kompleks rejalashtirish juda yaxshi samara beradi. U jadval ko'rinishiga ega bo'lib, unda kim, qachon, kimning pedagogik jarayoni holatini, qaysi faoliyat turlarida o'rganishi, nazoratning qaysi turi, metodlari, axborot to'plashning qaysi usullari (kuzatish, kalendar rejalarining, bolalar faoliyatlari natijalarining tahlili va shu kabilar) ko'rsatiladi.

VI.Ota - onalar bilan ishlash.

Bu bo'limda:

ota - onalarning pedagogik madaniyatlarini oshirish, pedagogik umumiyligi ta`lim (maslahatlar, pedagogik bilimlar universitetlari, oiladagi tarbiya bo'yicha tajriba almashish anjumanlari, savol va javob kechalari, pedagogik mavzulardagi disputlar, munozaralar) ni ta`minlash;

keng ota - onalar faoliyatini maktabgacha ta`lim muassasa ishlarida qatnashishiga, umumiy va guruxiy ota - onalar majlislarini o'tkazishga jalgilish;

turli yosh ona, ota, buvi, buvalar to'garak va maktablarning faoliyati;

oilaviy tarbiya tajribasini o'rganish, nobob oilalar bilan ishlash;

oilaviy tarbiyaning dolzarb masalalari bo'yicha ota-onalar uchun maslahat;

ko'rgazmali propaganda oilaviy tarbiyaning dolzarb tematikasi, oiladagi tarbiyaning eng yaxshi tajribasini propaganda qilish bo'yicha ko'rgazmalarni bezash;

pedagog va ota - onalarning mahalliy matbuot, radio, va televideniya orqali chiqishlari;

otaliqqa olgan korxonalarga, ota - onalarga pedagogik bilim berishda yordam ko'rsatish (maslahatlarni tashkil qilish va ma'ruzalar o'qish) rejalashtiriladi.

VI. Ma`muriy - xo`jalik ishi.

Bu bo`limda:

maktabgacha yoshdagi bolalar hayotini, ularni tarbiyalash va o'qitish uchun eng yaxshi sharoitlarni yaratishga (xonalarni ta`mirlash, mebellar olish, maydoncha va boshqa joylarni jihozlashga) yo'llangan byudjet mablag'laridan ratsionalroq foydalanish tadbirlarini;

xona va maydonchadagi sport zonalarini jihozlash;

maktabgacha ta`lim muassasasi territoriyasini obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish;

maktabgacha ta`lim muassasasining - yoritish, isitish va havo iqlimini, yong'in xavfsizligiki yaxshilashta doir tadbirlarni nazarda tutish lozim.

Yillik reja barcha bo`limlarining mazmuniga qo'yiladigan muhim talab bu ularning aniqligidir. Faqat ana shundagina u mudir, uslubchi va butun pedagoglar jamoasining amaliy ishida foydali qo'llanma bo'lishi mumkin.

Shu bilan birga reja juda katta va o'ta mufassallashtirilgan bo'lmasligi kerak. Rejaga o'z - o'zidan tushunarli bo'lgan kundalik ishlarni yozmaslik kerak. Bu uning hajmini oshirib yuboradi va undan asosiyni aniqlashni qiyinlashtiradi.

Yillik rejaga qo'yiladigan eng muhim talablardan biri uni barcha bo`lim va bandlarining to'liq muvofiqlashganligi va bir - birini to`ldirishidir. Tabiiyki, maktabgacha ta`lim muassasaning o'ta mufassal tuzilgan yillik rejasi ham maktabgacha ta`lim muassasasi faoliyatining butun xilma - xilligini qamrab ololmaydi, hayotning taqozosi yuzaga keltiruvchi ob`ektiv sabablar tufayli bo'lishi mumkin o'zgarishlarni nazarda tutolmaydi.

Yillik rejaning dastlabki qoralamasini mudira va uslubchi maktabgacha ta`lim muassasasining o'tgan yilga ishini tahlil qilish asosida tuzadi. So'ngra yillik rejaning mazmunini jamoa bilan ishlab chiqarish majlisida, pedagogik kengashda va individual; suhbatlarda keng muhokama qilada. Shunday qilib, yillik rejani tuzishga butun jamoa jalb qilinadi: yangi o'quv yilida qanday pedagogik masalalarни muhokama qilish lozimligin hal qiladi, qo'shimchalar, o'zgartirishlar kiritadi. Bu yillik rejaning realligi va amaliyligini ta`minlaydi. Shundan so'ng yillik reja o'quv yili boshlanishidan oldingi pedagogik kengashlarning birida batafsil muhokama qilinadi va tasdiqlanadi.

Yillik reja xodimlar uchun qulay joyda, masalan, pedagogik kabinetda saqlanishi kerak, bu mo'ljallangan - tadbirlarni amalga oshirish uchun mas`ul bo'lgan har - bir kishi kerak bo'lganiqa uni olib ko'rishini ta`minlaydi.

Nazorat savollari:

1. Maktabgacha ta`lim muassasining yillik ish rejasining kirish qismiga qanday masalalar rejalahtiriladi?
2. Yillik ish rejasining metodik ishlar bo`limida qaysi masalalar rejalahtiriladi?
3. Maktabgacha ta`lim muassasasida qanday to`garaklar faoliyat ko`rsatadi va bo`lar qaysilar?
4. Yillik rejadagi vazifalarini bajarilishini nazorati kim tomondan olib boriladi?

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent 1992 y
2. Ta`lim to'g'risidagi qonun. Toshkent 1997 y.
3. Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi. Toshkent. 1997 y.
4. O.U.Xasanboeva, M.X. Tadjieva, SH.K.Tashpulatova va boshqalar “Maktabgacha ta`lim pedagogikasi” “Ilm Ziyo”. T.: 2006 y.
5. B.Ziyomuhamedov, Sh.Abdullaeva “Pedagogika” “O'zbekiston Milliy entsiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti”. T.: 2000 y.
6. Sh.K.Tashpulatova “Maktabgacha ta`lim muassasalar ishini tashkil etish va boshqarish usullari” TDPU.T.: 2001 y.
7. A. I.Vasileva, L.A. Baxturina, I.I.Kobitina “Bolalar bog'chasing katta tarbiyachisi” T.: “O'qituvchi”1991 y.
8. Maktabgacha ta`lim kontseptsiyasi. Toshkent 2008 y.
9. Maktabgacha ta`lim muassasasi to'g'risidagi Nizom. Toshkent 2007 y.
10. Maktabgacha yoshdagi bolalar ta`lim-tarbiyasiga qo'yiladigan davlat talablari. Toshkent 2008 y.
11. J.G'. Yo'ldoshev. Ta`lim yangilanish yo'lida. Toshkent “O'qituvchi” 2000y.

VI BOB. Maktabgacha ta`lim muassasasi yosh guruxlarida ta`lim - tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish mazmuni.

Reja:

1. Ta`lim tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish mazmuni.
2. Yosh guruxlar bo'yicha bolalarda hulq-atvor va madaniy-gigienik malakalarni tarbiyalash ishini rejalashtirish.
3. Bolalar o'yinlarini rejalashtirish.
4. Bolalarni mehnat faoliyatlarini rejalashtirish.

Mavzuning maqsadi: Maktabgacha ta`lim muassasasiga ta`lim - tarbiyaviy ishlarni, bolalarda hulq-atvor, o'yin, mehnat va madaniy – gigienik malakalaini rejalashtirish bo'yicha bilim va tushuncha berish.

Mavzuning vazifalari:

1. Yosh guruxlar bo'yicha tarbiyachi tomonidan ta`lim tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish.
2. Bolalarni hulq-atvor, madaniy-gigienik malakalarni tarbiyalash ishlarini rejalashtirish, o'yin, mehnat faoliyatlarini rejalashtirish bo'yicha malakalarni shakllantirish.

Tayanch iborolar:

- syujetli – rolli – mazmunli – rolli.
- bilvosita ta`sir ko'rsatish – bilimlar tizimi orqali ta`sir ko'rsatish.
- bevosita ta`sir ko'rsatish – pedagogik jarayonlarda ta`sir ko'rsatish.

6.1. Ta`lim tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish mazmuni

Maktabgacha ta`lim muassasasi ishini umuman va har bir yosh guruvida rejalashtirishning bevosita asosini ta`lim - tarbiya vazifalari aniqlanib, bolalar faoliyatining har bir asosiy turiga doir ta`lim - tarbiyaviy ish mazmuni ochib berilgan «Uchinchi mingyllikning bolasi dasturi» tashkil kiladi. Rejalashtirishda bu vazifa va mazmunlar yanada aniqlashtiriladi, ularni amalga oshirish vaqt va izchilligi belgilanadi.

Ta`limiy ishning mazmuni, metodi va usullari hamda uni tashkil etish turlari, bolalar xulq - atvorini tarbiyalash mazmuni, metodi va usullari, ularda madaniy - gigienik malakalarni shakllantirish, bolalar mehnati va o'yinlariga raxbarlik usullari, bolalarning bo'sh vaqt va ko'ngil ochishlarini tashkil etish, shuningdek ota - onalar bilan ishslash turlari va tabiatи rejalashtirilishi lozim.

Maktabgacha ta`lim muassasasida ta`limiy ishni tashkil etishning asosiy shakli mashg'ulotdir. Bunda o'qitish ta`limiy ish masalalari, voqelikning turli sohalari haqidagi bilimlarni, aqliy va amaliy malakalar va ko'nikmalarni, o'quv

faoliyati, bolalar nutqini o'stirishning oddiy asoslari va shu kabilarni hal etishning asosiy vositasi hisoblanadi.

Bu mazmun dasto'rning tevarak - atrof bilan tanishtirish va nutqni o'stirish, oddiy matematik tasavvurlarni rivojlantirish, rasm solish, loy va plastilindan narsalar yasash, applikatsiya, qurish - yasash, musiqa ta'limi, jismoniy tarbiya singari asosiy bo'limlarida berilgan. Tegishli yo'naliш metodikalarida ishlab chiqilgan mashg'ulotlar tizimi maktabgacha ta'lim muassasasi va yosh guruxidagi muayyan ish sharoitlarini, bolalarning ilgarilash daraja va sur`atlarini, ularni u yoki bu mazmunni egallashlarini xisobga olib rejalashtirishda foydalaniladi. Masalan, bolalarni tabiat bilan tanishtirishga doir mashg'ulotlar tizimi qishloq joy yoki katta shahar markazida, shimoliy va markaziy mintaqada va boshqa respublikalarda joylashgan maktabgacha ta'lim muassasasisida turlicha bo'ladi.

O'qitishning har bir bo'limiga doir mashg'ulotlarni rejalashtirishda bilimlarni egallashning asosiy bosqichlari (boshlang'ich idrok, bilim va ko'nikmalarni kengaytirish va umumlashtirish, ulardan hayotda foydalanish bilimlarni yangi sharoitlarga ko'chirish) xisobga olinadi. Rejada bilimlar mazmunining takrorlanishi va ularni asta - sekin murakkablashtirilishi nazarda to'tiladi. Istalgan bo'limga doir mashg'ulotlarni rejalashtirishda mazkur bo'lim bilan bog'langan asosiy ta'lim - tarbiyaviy masalalardan tashqari dasto'rning boshqa bo'limlaridan ayrim masalalarni xam kiritish kerak. Mashg'ulotlarni bunday yaxlitlash ularning rivojlantiruvchi samarasini ancha oshiradi. Ammo rejalashtirishda ta'limiy ishni qisman birlashtirish ishning butun mazmunini jamlovchi yagona mavzu tusini olmasligi kerak. Maktabgacha ta'lim muassasasi tarixida o'rin tutgan mavzuviy rejalashtirish, «tashkiliy momentlar» ga oid rejalashtirish bilimlarning tizimliligi va bolalarning aqliy rivojlantirishni talab darajasida ta'minlamagan edi.

Bolalarni atrofdagi hayot va tabiat bilan tanishtirish mashg'ulotlarini bolalarga nutq o'stirish mashg'ulotlari bilan, shuningdek tasviriy faoliyat mashg'ulotlari bilan aloqasini o'rnatish ayniqsa muhimdir.

Ta'limiy ish mashg'ulotdan tashqarida: kundalik turmush, o'yin, mehnatda ham davom ettiriladi. Kunning turli vaqtlarida (ertalab, sayrda) tarbiyachi tabiat va ijtimoiy hayotning turli xrdisalarini kuzatishni tashkil etadi.

Bu kuzatishlar xam rejalashtiriladi. Ular butun guruh bolalari bilan yalpisiga, bolalarning, kichik guruhlari bilan va yakka tartibda o'tkaziladi.

Tarbiyachi mashg'ulotlardan tashqari bilimning u yoki bu bo'limlariga doir ayrim bolalar yoki bolalarning kichik guruhlari bilan ta'limiy ishni rejalashtiradi va tashkil qiladi. Bu maqsadda didaktik o'yinlar, didaktik materialli mashqlar (masalan, nutqning tovush madaniyatiga doir, matematik tasavvurlarini rivojlantirishga oid ish va boshqalar) dan foydalaniladi.

Shunday qilib, rejada bolalar bilan ta'limiy ishning mazmuni ham, uni tashkil qilish shakllari xam aks etadi.

Shaxsning ma`naviy fazilatlarini tarbiyalash ta'lim - tarbiyaviy ish jarayonida: mashg'ulotlar, o'yinlar, mexnat va shu kabilarda hal qilinadi. Shuning uchun ma`naviy tarbiya ishining mustaqil bo'limi sifatida

rejalashtirilmaydi. Bu ishning vazifa, mazmun va metodlari bolalarning asosiy faoliyat turlariga rahbarlikni rejalahtirishda olib beriladi. Ammo xulq-atvor malakala-rini shakllantirish (masalan, atrofdagi kishilarga muloyim va g'amxo'r munosabat, narsalarga tartibli va tejamkorlik munosabati, madaniy-gigienik malakalar, o'yin, kitob bur-chaklarida tozalik va tartibni saqlash malakalari, o'ziga-o'zi xizmat ko'rsatish malakalari va shu kabilar) bolalarning ma'lum harakat usullarini egallab olishlarini nazarda tu-tadi. Malakalarni tarbiyalash bevosita ta'sir usullari: ha-rakat usullarini ko'rsatish, mashq qilishlar, ya`ni o'rgatish, odatlantirish orqalts amalga oshiriladi, shuning uchun madaniy - gigienik malaka va madaniy xulq-atvor malakalarini rejalahtirish mumkin va lozim. Malakalar hajmi, ularni shakllantirish izchilligi shuningdek, tarbiyachi foydalanadigan o'rgatish usullari rejalahtiriladi.

Malakalarni shakllantirish - uzoq davom etadigan jarayon. SHunga ko'ra ayni bir vazifalar ko'p karra takrorlanishi mumkin. Madaniy xulq - atvor malakalarini egallahsha bolalar jiddiy o'ziga xos alohida farqlarni namoyon qiladilar, shuning uchun rejada bolalar bilan yakka tartibda ish-lash xam nazarda to'tiladi.

6.2. *Yosh guruxlar bo'yicha bolalarda hulq-atvor va madaniy-gigienik malakalarni tarbiyalash ishini rejalahtirish.*

Bolalarda madaniy gigienik malakalar tarbiyalash. Bolaning bir yarim yoshga to'lishi davomida unda o'zi mustaqil suratda stulda o'tirish, piyolada mustaqil suratda ichish malakasini mustahkamlab borish lozim. 1 yosh - u 2 oy - 1 yosh - u 3 oydan boshlab, bolalarda qoshiqdan foydalanish, suyuq ovqatni non bilan eyish malakasini tarbiyalash, turli xil ovqatlarni mustaqil suratda eyishga, ovqatni yaxshilab chaynashga odatlantirish; ovqat eb bo'lgandan so'ng stulini surib qo'yishga; echinishda ishtirot qilishga (paypog'ini, oyoq kiyimini), yuvinishda qatnashuvga (qo'lini oqib tushayotgan suvga tutishga) o'rgatish lozim.

1 yosh - u 6 oylikdan boshlab, bolalarni qo'lini o'zi yuvishga, ovqatni mustaqil suratda eyishga. Ovqatlanish vaqtida ozodalikka rioya qilishga, salfetkadan (sochiqdan) foydalanishga odatlantirish lozim. Bola kattalar bog'ichini chiqarib va ipini echib qo'ygan kiyimlarini (paypog'ini, botinkasini) echib ola bilishi, qaysi kiyimning nimaga xizmat qilishini tushunishi, u kiyim nomini aytishi kerak. Bola 2 yoshga to'lganiqa stol yonidagi o'z o'rnini, sochig'i bilan kiyimi qaerda osig'liq turishini shkafchada (turg'ichda), uyqu xonasida, stol atrofida o'zini tinch tuta bilishi zarur.

Bolalarga tanish buyumlarning eng xarakterli xususiyatlari bilan ularni tanishtirish kerak.

Kattalarning talabini e'tibor bilan tinglashga va ularni bajarishga o'rgatish zarur.

Bolalarda gigienik malakalari va mustaqillik tarbiyalash.

Ilgari egallangan ko'nikma va malakalarni mustahkamlash; yangilarini tizimli suratda tarkib toptirish; tartibli ovqatlanish, ovqatni yaxshilab chaynash, qoshiqni o'ng qo'lda ushslash, ovqatlanib bo'lgandan keyingina o'rindan turish,

kattalarning eslatishi va yordamida ovqatlanishdan. Kir bo'lganiqa yuz- qo'lni yuvish, qo'lni sochiq bilan artish, o'zining sochig'idan, salfetkasidan, dastro'molchasidan foydalanish. Bolalarni ma`lum tartibda kiyinish va echinishga, tugmachalarni taqish va echishga, botinka ipini bog'lashga, kiyimlarni taxlab qo'yishga, kiyimdagi betartiblikni sezishga, kattalar yordamida tartibga keltirishga o'rgatish.

Bolalarni kattalar tomonidan berilgan oddiy topshiriqlarni bajarishga o'rgatish: o'yinchoqlarni maydonchaga olib chiqishda tarbiyachiga yordamlashish, mashg'ulot uchun kerakli materialni olib kelish va yig'ishtirib qo'yish, poldagi qog'ozlarni yoki maydonchadagi barglarni yig'ish, ovqatlanish oldidan stulchalarni stol atrofiga, non atrofiga, non solingan tarelkalarni stol ustiga qo'yishda enagaga yordamlashish.

Bolalarni mustaqil ravishda va tartib bilan ovqat eyishga, ovqatni shoshmasdan, og'izni ochmay yaxshilab chaynashga, qoshiqni, vilkani to'g'ri ushlay bilishga, uvoq to'kmaslikka, eslatmasdan salfetkadan foydalanishga, lab va barmoqlarni artishga odatlantirish kerak. Stol yonidan turib ketayotganda stulni sekingina surib qo'yishlari, tashakkur bildirishlari lozim.

Bolalarni engchalarini shimirib qo'ya olishga, qo'llarini, betlarini mustaqil suratda, suvni sachratmasdan yuvishga, kiyim - boshlarini ho'l qilmaslikka,sovundan foydalanishga o'rgatish zarur. Bolalar sochiq bilan yaxshilab artina bilishlari, uni muayyan joyiga, eslatmasdan osib qo'yishlari, faqat o'z sochiqlari, salfetkalari, ro'molchalaridangina foydalanishlari lozim.

Tarbiyachining yoki boshqa bolalarning salgina yordami bilan mustaqil suratda, muayyan tartibda kiyinish va echishlari keraq kiyim - kechaklarini tartib bilan taxlash va osishlari zarur; kostyumlarida biron nuqson sazsalar, uni tuzatishga harakat qilishlari, zarur hollarda esa kattalarga murojat qilishlari lozim.

Xonaga kirishga oyoqlarni artish yoki boshqa oyoq kiyimi kiyib olish zarur.

Bolalarda gurux xonasi va maydonda (hovlida) tartib saqlashda ishtirot etish, stolga kattalar bilan birga dasturxon yoyish, mashg'ulot uchun kerakli materiallarni (qalamlar solib qo'yilgan qalamdon, mo'yqalam, loy yoki plastilindan buyumlar yasash uchun taxtacha va boshqa shu kabilarni) tayyorlab qo'yish istagini tarbiyalash.

Uyda va maktabgacha ta`lim muassasasida o'yinchoqlar, kitoblar, qurilish materiallarini yig'ishtirib, joy - joyiga qo'yishga odatlantirish zarur.

Yil oxirida oshxonada navbatchilik qilish joriy etiladi: navbatchilik, enagaga yordamlashib, qoshiqlarni, salfetkalarni va non idishlarini qo'yib chiqadilar, ovqatdan keyin choynak - piyolalarni xo'jalik stoliga yig'ishtirib qo'yadilar, narsalarni ehtiyyot qilishga, tartib va ozodalikka rioya qilishga odatlantiriladilar.

Bolalarni kattalarni topshiriqlarini bajarishga: tarbiyachining yordamida baliq, qush va quyonlarga ovqat berish, gullarga suv quyish, gulning katta barglaridagi changlarni artish, gullarning yirik urug'larni sepishga, sabzavotlarni yig'ib olish, qorni supurib tashlashga o'rgatish lozim.

4 - 5 yashar bolalar hayotining bundan oldingi davrlariga qaraganda o'ziga o'zi xizmat qilishga ko'proq o'rgatiladi (ular o'zlari echina va kiyina olishlari, tugmachalarni taqa bilishlari, botinkalari ipini o'zlari taqib va bog'lab olishni

bilishlari kerak). Bu yoshdagi bolalarni kiyimlaridagi biron betartiblikni sezishga, uni mustaqil ravishda yoki kattalar yordami bilan bartaraf qilishga, ust kiyim va oyoq kiyimlarini ehtiyyot qilib tutishga, yuvinish ovqatlanish vaqtida kiyimlarini ho'l va iflos qilmaslikka, kiyimlarini taxlash va o'z joyiga ilib qo'yishga o'rgatish lozim.

Bolalarni ertalab va uslash, ovqatlanish oldidan va kir bo'lgan vaqtlarida bet - qo'llarini yaxshilab yuvishga, ovqatlanib bo'lgandan keyin og'izlarini chayqashga, uslash oldidan tishlarini tozalashga, sochlarini tarashga, boshqalarning eslatuvisiz, mustaqil suratda burunni o'z vaqtida dastro'mol bilan artishga, dastro'molcha bilan og'izni berkitib va yuzni chetga o'girib turib yo'talish va aksa urishga odatlantirish kerak.

Ular ovqatlanishni mustaqil ravishda eya bilishlari: taomni og'zilariga ozginadan olishlari, og'izni ochmay yaxshilab chaynashlari; ovqatlanish asboblari (qoshiq va vilka) dan, salfetkalardan to'g'ri foydalanishlari lozim. Ovqatlanib o'rindan turgach, o'tirgan stullarini yana o'z joyiga sekin surib qo'yishlari, ovqat uchun rahmat aytishlari kerak.

Bolalarni uyqu xonasida gaplashmaslikka, o'rtoqlarining uyqusiga halavit bermaslikka, o'rnini mustaqil ravishda tuzatishga o'rgatish kerak.

Ularni xushmuomalali bo'lishga, katta yoshdagi kishilar hamda o'rtoqlari bilan salomlashish va xayrlashishga, o'zlaridan katta kishilarning gaplariga aralashmaslikka, boshqalarning gapini bo'lmaslikka, kattalarga yordamlashishga odatlantirish lozim.

Bolalarni bir - birlariga, o'zlaridan kichiklarga g'amxo'rlik qilish, ularga biror yo'l bilan shodlik keltirishga intilish ruhida tarbiyalash kerak.

Bolalarda mehnat malakalari va g'ayrat bilan mehnat qilish odatlarini vujudga keltirish muhim vazifadir. Bolalar yilning dastlabki oylarida tarbiyachining nazorati ostida, yil oxirida esa o'zлari mustaqil holda gurux xonasi va uchaskada tartibni saqlaydilar, gurux xonasi va uchastkani supurib – sidirishda ishtirok etadilar: stullarni, qurilish materiallarini ho'l latta bilan artadilar, o'yinchoqlarni yuvadilar, qo'g'irchoqlarning kiyimlarini yuvib tozalaydilar, o'simliklarning katta barglarini artib, ularning kir va changini ketkazadilar, tarbiyachiga kitoblarning yirtilgan va to'zib ketgan joylarini tuzatishda yordam beradilar. Bolalar o'yinchoqlarning qaerda va qanday tartibda saqlanishini bilishlari, o'yinchoqlarni o'ynab bo'lgandan so'ng o'z joyiga eltib qo'yishlari kerak.

Yil boshidan guruxda navbatchilik joriy qilinadi. Har bir stolga bolalardan bitta navbatchi tayindanadi, u stol ustiga tarelka, qoshiq va piyolani keltirib qo'yadi.

Yilning ikkinchi yarmidan boshlab esa bolalar mashg'ulotga tayyorlanish yuzasidan navbatchilik qilishga jalb etiladilar.

Bu guruxda mehnat topshiriqlari keng qo'llaniladi: bolalar gullarni sug'oradilar, erni yumshatadilar, hayvonlarni boqib parvarish qiladila, ularning suvini yangilab turadilar va hakozo.

Butun yil bo'yi bolalarga enaganing toza salfetkalarni stollarga qo'yib chiqishiga va sochiqlarni ilib qo'yishiga yordamlashish topshirig'i ham beriladi.

Kuzda bolalar er maydonchadagi xazonlarni kattalar bilan birgalikda to'playdilar, sabzavotlarni yig'ishtirib oladilar, qishda yo'lchalarni qordan tozalaydilar, qor tepachalar yasashda, uchastkada bezatishda qatnashadilar. Bahorda poliz - gulzorni chopib yumshatib vaqtida uni har xil tosh va cho'p - xaslardan tozalaydilar. YOzda jo'yaklarga, gulpushtalarga muntazam ravishda suv berib turadilar, erni yumshatadilar.

Bolalar katta yoshli kishilarning mehnatini xurmat qilishga o'rgatib borish rejalashtiriladi.

6.3. Bolalar o'yinlarini rejalashtirish

Bolalarning ijodiy syujetli - rolli o'yinlariga rahbarlikni to'g'ri rejalashtirish uchun tarbiyachi bolalarning yaxshi ko'rgan o'yinlarini, ularning mazmunini, bolalarning o'yinda qanday birlashishlarni (kim kimga qo'shiladi va qanday o'yinlarni o'ynaydi), bolalarning o'yinda qanchalik mustaqilliklarini, qanday o'yinchoqlarni afzal ko'rishlarini, yoshdan - yoshga bolalarning o'yinlari qanday rivojlanishini (mazmuni qanday o'zgarishi va boyishi, o'yinda bolalar xulq - atvorining murakkablashishi, ularning mustaqilligining ortishini) bilishi kerak. Mazkur guruh bolalarining o'yinlarini har tomonlama o'rganish juda muhim, chunki bolalarning o'yin faoliyatları emas, balki tarbiyachining unga rahbarlik qilishiga oid pedagoglik faoliyati rejalashtirilishi lozim. Tarbiyachi o'zining o'yinlarga rahbarligini rejalashtirar ekan, o'yinda bola mustaqilligini saqlash va rivojlantirishga harakat qilishi kerak. Ijodiy syujetli - rolli va qurish - yasash o'yinlariga rahbarlikni rejalashtirishda pedagoglik ta'sirning muayyan vazifalari: mazmunni boyitish, bolalarda o'yinchoqlar bilan o'ynash ko'nikmasini, o'yin jarayonida bir - birlari bilan to'g'ri munosabat o'rnata bilishni shakllantirish, bolalarga yangi o'yin harakatlarini o'rgatish, syujetni tuza bilish, o'yin yuzasidan kelisha bilish zarur o'yin muhitini yaratish va shu kabilalar qo'yiladi. Bunda tarbiyachi faqat jamoa bo'lib o'ynashga emas, bolalarning yakka tartibda o'ynashlariga ham e'tibor beradi.

Rejada bolalarning xulq - atvorlarini: bir - birlarnga xayrixoh munosabatni, bir - birlarining o'yinga qiziqishlari bilan hisoblashishni, o'yinchoqlarni o'rtoqlashish, yuzaga keluvchi nnzolarni haqgo'ylik bilan hal qilish va shu kabilarni tarbiyalash vazifalari ham nazarda to'tiladi. Bu vazifalar uzoq muddatga mo'ljallanadi, shuning uchun rejada ko'p karra takrorlanadi.

Ijodiy o'yinlar mazmunini boyntish - rahbarlikning asosiy vazifalaridan biridir. Ish rejasida u turlicha aks ettiriladi: muayyan mavzu ko'rsatilmay o'yin mazmunini boyitish masalasi qo'yilishi mumkin (masalan: bunda bolalar o'yinida qatnashish. Ularga o'yinchoqlarni tanlashda yordam berish, ular bilan o'ynashni ko'rsatish). Ko'p hollarda bunday vazifalar maktabgacha ta`lim muassasasining kichik guruhalrida nazarda to'tiladi. O'rta va katta tarbiya yoshidagi bolalar o'yinlariga rahbarlikni rivojlantirishda tarbiyachi o'z guruxidagi bolalarning qaysi o'yinlarini va qanday o'ynashlarini yaxshi bilganligi uchun muayyan mavzudagi o'yinlar mazmunini boyitishni maqsad qilib olishi, bunda o'z ta'sir usullarini ko'rsatishi xam mumkin.

Rejaga o'yinda bolalarning o'zaro munosabatlari va xulq - atvorlarin tarbiyalash vazifasini kiritib, tarbiyachi bolalar o'ninlarining mazmunini va ularning o'ynash ko'nikmalarini hisobga oladi.

Rejada bolalarning ijodiy o'yinlariga rahbarlikning asosiy usullari xam nazarda tutilishi kerak. Eng avvalo bolalar o'yinlariga bilvosita ta'sir ko'rsatish usullari: bolalarning o'yin mazmuniga aloqador bilimlarini kengaytirish, o'yin materialini kiritish ba'zan esa uni bolalar bilan tayyorlashni rejalashtirilishi mumkin. Bolalarning atrofdagi hayot haqidagi bilimlarini kengaytirish, bilimlar tizimi orqali amalga oshiriladi. Ammo buning uchun tarbiyachida mashg'ulotdan boshqa paytda ham imkoniyat bor: sayrlar va o'yin chog'ida hamda bo'sh vaqtarda. O'yin xonasidagi o'yinchoqlardan bolalar mustaqil foydalanadilar. Yangi o'yinchoqlarni ko'pincha ular o'yin mazmunini boyitish mumkin bo'lgan hollarda kiritadilar.

Bevosita rahbarlik usullarini ham (o'yinda, kelishuvda qatnashganda, o'yin harakati, o'yinchoqdan foydalanish usulini ko'rsatishganda, maslahat, ko'rsatma va shu kabilar) da rejalashtirish mumkin, buning uchun tarbiyachi o'z guruhi bolalarining o'yinlarini yaxshi bilishi kerak (masalan, u o'yinlar-da bolalarning muayyan guruhining qatnashishnni rejalashtirish mumkin). Agarda bolalarning o'yinga kiziqishlari boyitilmagan bo'lsa, tarbiyachi xilma - xil usullar (o'yin muhiti yoki uning tarkibini yaratish, ayrim o'yinchoqlarni kiritish, ko'rilgan o'yin haqida hikoya qilish, o'ynayotgan bolalar tasvirlangan rasmlarni ko'rish va shu kabilar) dan foydalanib, yangi o'yinni taklif qilishni rejalashtirishi mumkin. Yangi uiinni taklif etishning asosiy sharti bolalikda keng taassurotlarga ega bo'lisdier.

O'yin saxnalashtirishni rejalashtirishda bolalarga saxnalashtirish mo'ljallanayotgan badiiy asarni oldindan tanishtirish, so'ngra qayta o'qish, qahramon nomidan hikoya qilish va shu kabilar nazarda to'tiladi. Kiyim - libos dekoratsiyalarning murakkab bo'limgan tarkiblarini tayyorlash, so'ngra o'yinning o'zini o'tkazishni ham kechki soatlarga mo'ljallah maqsadga muvofiqdir. O'yin - saxnalashtirish ko'p karra takrorlanadi: u boshqa guruhlar bolalariga, ota-onalarga ko'rsatilishi, bayram dasturiga kiritilishi mumkin.

Kun davomida tarbiyachi xilma - xil hapakatli va didaktik o'yinlarni uyushtiradi, ularga raxbarlikni ham rejalashtiradi. Reja didaktik o'yinlardan ularning mazmuni, qoidalari va akliy vazifalari tabiatiga ko'ra foydalanish izchillagini nazarda tutishi kerak.

6.4. *Bolalarni mehnat faoliyatlarini rejalashtirish.*

Bolalarning mexnat faoliyatlarini tashkil etish shakllariga doir rejalashtirish ma'quldir.

Mehnatni tashkil etish shakli sifatida barcha guruhlarda topshiriqdan foydalaniladi. O'z mazmuniga ko'ra topshiriqlar turlicha bo'lisi mumkin. Tarbiyachining ish rejasida yangi topshiriq mazmunini qayd etish, so'ngra uni bajarishga jalb etiladigan bolalar ismlarini ko'rsatish maqsadga muvofiqdir. Bu tarbiyachiga mazkur topshiriq bilan barcha tarbiyalanuvchilarni qamrab olish va ularni kerakli mehnat topshiriqlarini bajarishga o'rgatish, barcha bolalarning

qo'lidan keladigan bo'lib borishiga ko'ra tarbiyachi o'zining alohida e'tiboriga muhtoj bo'lgan bolalarning ismlarinigina ko'rsatib beradi.

Bolalar navbatchiligiga raxbarlikni rejalashtirar ekan, tarbiyachi mexnat hajmi va mazmunini, o'zi bolalarga navbatchilarning vazifalarini tanishtirishda foydalanadigan jihoz, metod va usullarni ko'rsatadi.

Keyinchalik navbatchilik ishiga rahbarlik rejada mexnat mazmuni murakkablashgan, navbatchilikka jalb qilinayotgan bolalar tarbiyachining alox4ida e'tiboriga muhtoj bo'lgan hollarda ko'rsatiladi. Vaqtida - vaqtida navbatchilik bolalarning birlaridan ikkinchilariga topshirilayotgan vaqtida (katta guruhda) bolalar bilan suhbat rejalashtirnladi.

Rejada bolalarning jamoa shaklidagi mexnatlarini tashkil qilish mazmuni va tarkibi, o'tkazish vaqtida ko'rsatiladi. Zarur jihozlar belgilanadi va joylashtiriladi.

Navro'z va mustaqillik bayramlaridan avval uyushtiriladigan umumxalq xasharlari, bayramlari maktabgacha ta'lim muassasasisida bolalarda Vatanga muhabbat, baynalmilalchi xislatini tarbiyalash, ularga xalqning jangovor va mexnat an`analarini tanishtirish maqsadlarida nishonlanadi.

Bayramlar tarbiyaning muhim vositasi sifatida puxta rejalashtirilishi lozim. Rejada muassasaning butun jamoasi, shu jumladan bolalarning ham tayyorgarliklari aks ettiriladi.

Tarbiyachining joriy rejasida bolalarga u yoki bu bayram (yoki mashhur sana) ning ahamiyati haqida hikoya qilinadigan, bolalar katta yoshlilarning bayramga tayyorgarliklari bilan tanishish imkoniga ega bo'ladigan sayr - tomoshalar o'tkaziladigan turli mashg'ulotlar nazarda to'tiladi. Bolalarni bayram ertaliklarida qatnashishga tayyorlash: she`rlar, qo'shiqlar aytish, raqsga tushish, libos va boshqa atributlarni tikishi xam rejalashtiriladi. Pedagoglar kengashida bayram dasturi ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi, bolalarni bayramga tayyorlash jarayonida ham, bayramni o'tkazish kunida xam uyushtirish shakllari o'ylab chiqiladi va puxta rejalashtirnladi.

Umumxalq bayramlariga bag'ishlangan ertaliklardan tashqari tarbiyachi bolalar bilan maishiy bayramlar va turli ko'ngil ochishlar: yangi yil bayrami, bolalarni maktabga chiqarish, bir oyda tug'ilgan bolalarning tug'ilgan kunlarini bir kunda nishonlash, shuningdek, qo'g'irchoq, soya teatrini, ko'ngil ochadigan videofilm va kinofilmlar, oynai jahon ko'rsatuvarlarini ko'rsatish va shu kabilarni o'tkazishni rejalashtiradi.

Maktabgacha ta'lim muassasasi ota - onalar o'rtasida ishlashni rejalashtirish pedagoglik targ'ibotini amalga oshirish rejalashtiriladi. Ularni oila va bolalar muassasasining bolalarga ta'sir ko'rsatishda hamkorlikni yo'lga qo'yish maqsadlarida ta'lim - tarbiyaviy ish mazmuni bilan tanishtiradi, bolalarni oilada tarbiyalashning ilg'or tajribasini o'rganadi, umumlashtiradi va tarqatadi. Bu ish uzluksiz tarzida amalga oshiriladi va maktabgacha ta'lim muassasasi mudirasi tomonidan ham (yillik rejada), xar bir guruh tarbiyachisi tomonidan ham rejalashtiriladi. Ishni tashkil etish usullari va ularning mazmuni quyidagilarni: ota - onalar majlislarini, maslahatlarini o'tkazishni, bola oilasiga borishni, ochiq eshiklar kunini, mashg'ulotlar o'tkazishni, bolalar ishlari ko'rgazmalarini tashkil etishni, ota - onalar burchaklarini yangilash va shu kabilarni nazarda tutadi.

Nazorat savollari:

1. Maktabgacha ta`lim muassasasida ta`lim - tarbiyaviy ishlarning mazmuni va vazifalarini tushuntirib bering.
2. Bolalarda xulq-atvor malakalarini tavsiflab bering.
3. Guruxlarda bolalar o`yinlarini rejalashtirishga qo`yiladigan pedagogik talablarni qanday izohlash mumkin?
4. Dastur asosida bolalarni mehnat faoliyatlarini rejalashtirishning maqsadi va mohiyatini tushuntiring.

Adabiyotlar:

1. O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent 1992 y
2. Ta`lim to`g`risidagi qonun. Toshkent 1997 y.
3. Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi. Toshkent. 1997 y.
4. O.U.Xasanboeva, M.X. Tadjieva, Sh.K.Tashpulatova va boshqalar “Maktabgacha ta`lim pedagogikasi” “Ilm Ziyo”. T.: 2006 y.
5. B.Ziyomuhamedov, Sh.Abdullaeva “Pedagogika” “O`zbekiston Milliy entsiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti”. T.: 2000 y.
6. Maktabgacha ta`lim muassasasi to`g`risidagi Nizom. Toshkent 2007 y.
7. Maktabgacha yoshdagi bolalar ta`lim-tarbiyasiga qo`yiladigan davlat talablari. Toshkent 2008 y.
8. J.G.Yo`ldoshev. Ta`lim yangilanish yo`lida. Toshkent “O`qituvchi” 2000y.
9. R. Mavlonova “Pedagogik texnologiya” Toshkent “Fan” 2009 y.
- 10.R. Ishmuxamedov “Ta`limda innovatsion texnologiyalar”. Toshkent “Iste`dod”. 2008 y
- 11.A. I.Vasileva, L.A. Baxturina, I.I.Kobitina “Bolalar bog`chasing katta tarbiyachisi” T.: “O`qituvchi”1991 y.
- 12.Maktabgacha ta`lim kontseptsiyasi. Toshkent 2008 y.
- 13.“Uchinchi mingyillikning bolasi” Dasturi. Toshkent 1999 y.

VII BOB. Mashg'ulotlarda o'qitishni rejalashtirish (amaliy)

Reja:

1. Mashg'ulotlar maktabgacha ta'lim muassasasida o'qitishning asosiy va etakchi shakli sifatida.
2. Maktabgacha ta'lim muassasasi yosh guruxlarida ta`limning o'ziga hos hususiyatlari.
3. Ertalabki vaqt bo'lagi, sayr va kunning ikkinchi yarmini rejalashtirish.

Mavzuning maqsadi: O'quvchilarning mashg'ulotlarni, ertalabki vaqt bo'lagi, sayr va kunning ikkinchi qismini rejalashtirish bo'yicha bilimlarini mustahkamlash.

Mavzuning vazifalari: Materiallar asosida mashg'ulotlarni rejalashtirish bo'yicha amaliy ko'nikmalar hosil qilish. Mustaqil pedagogik jarayonlarni rejalashtirish.

7.1. Mashg'ulotlar maktabgacha ta'lim muassasasida o'qitishning asosiy va etakchi shakli sifatida.

O'qitish shakli deganda, ta'lim beruvchining (pedagog, tarbiyachi) va o'quvchilarning belgilangan tartibda hamda muayyan tartibda kechadigan maxsus uyushtirilgan faoliyati tushuniladi. O'qitish shakllari o'quvchilarning miqdoriy tarkibiga ko'ra, o'quvchilar va o'qituvchilar o'rtasidagi o'zaro harakatning tabiatiga ko'ra (faollik va mustaqillik darajasi), faoliyat usullariga ko'ra (qaysi metod va usullar bilan) o'tkazilish joyi, shuningdek, yaxlit o'quv jarayonida tutgan mavqeiga ko'ra farqlanadi. Bu mavqe ta'lim jarayonining u yoki bu shaklida tashkil etishda hal etiladigan ta'lim - tarbiyaviy vazifalarning tabiatiga ko'ra belgilanadi.

Maktabgacha ta'lim muassasasida ta'limni tashkil etishning yalpi guruhli va alohida shakllaridan foydalaniladi. Bundan tashqari bolalar bilan olib boriladigan ta`limiy ish ular hayoti va kundalik muloqotidagi rang - barang o'qishdan tashqari faoliyatini uyushtirish o'yinlarga rahbarlik qilish jarayoni bilan aloqadorlikda amalga oshiriladi.

O'qitishning tashkiliy shakli bo'lmish mashg'ulotlar uchun quyidagi qator xususiyatlar xos:

1. Bolalar mashg'ulotda «Uchinchi mingyillikning bolasi dasturi» da ko'zda tutilgan ta`limning u yokn bu bo'limiga oid ko'nikmalarni o'zlashtiradilar.
2. Mashg'ulotlar muayyan yosh guruhi bolalarning doimiy tarkibi bilan o'tkaziladi.
3. Mashg'ulotlar pedagoglar tomonidan tashkil etiladi va o'tkaziladi. Ular mashg'ulotlarning mazmuni va vazifasini belgilaydilar, metodlar va usullarni

tanlaydilar, bolalarning bilish faoliyatini bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishga yo'naltiradilar hamda tashkil etadilar (A. P. Usova).

Mashg'ulotlarda dastur mazmunining barcha bolalar tomonidan o'zlashtirilishi amalga oshiriladi, shuning uchun ham ular o'qitishning asosiy shakli hisoblanadi, Boshqa o'qitish shakllaridan bolalarning mashg'ulotlar mazmunini o'zlashtirishga oid tajriba va tayyorgarliklarini boyitish yoki bilimlarni o'zlashtirish jarayonini alohida - alohida o'zgartirish vositasi sifatida foydalaniadi. Sabab o'tilgan xususiyatlar mashg'ulotlarni o'qitish shakli sifatida maktabdag'i o'qitish shakli - darsga yaqinlashtiradi, bu bilan o'qitishdagi ketma - ketlik ta'minlanadi. Dars va mashg'ulot o'rtasidagi asosiy farqlar yuklamaning intensivlik darajasida o'qitish ishini olib borishda qo'llaniladigan tuzilish va metodlardadir.

Mashg'ulotlar - maktabgacha ta'lim muassasasisida olib boriladigan ta'lim - tarbiyaviy ish tizimida alohida o'rinni tutadi. Ular vaqt jihatdan chegaralangan bo'ladi. Sayrlarning mazmuni va tuzilishi (kuzatish, o'yin va mehnatni tanlash va navbatlashtirib turish, yalpi yoki guruhli faoliyatni mustaqil va alohida faoliyat bilan qo'shib olib borish) mashg'ulotdagi aqliy va jismoniy yuklamalarning tabiatini bilan muvofiqlashtiriladi. Mashg'ulotlar mazmuni bolalarning ertalabki vaqtining bir qismi hajmida tashkil etish ko'zda to'tiladi. Mashg'ulotlar miqdori va ularning davomiyligi guruhdan-guruhga o'tgan sayin tobora ortib boradi. Mashg'ulotlarni qo'shib olib borishda bolalarning bu mashg'ulotlarning har biridagi faoliyatning murakkablik darajasi va tabiatini hisobga olinadi.

Mashg'ulotlarning mazmuni va tuzilishki. Mashg'ulotlar o'qitishning quyidagi bo'limlari bo'yicha olib boriladi: atrof - muhit bilan tanishtirish va bolalar nutqini o'stirish, elementar matematik tasavvurlarni rivojlantirish, tasviriy faoliyat va qurish - yasash, jismoniy tarbiya musiqaviy tarbiya.

Mashg'ulotning aniq mazmuni «Uchinchi mingyillikning bolasi dasturi» dagi muayyan bo'limlar talablari asosida bolalarning o'quv bilish faoliyatining shakllanganlik va dasto'rning oldingi mavzularini o'zlashtirganlik darajasini, shuningdek, turli yosh guruxlariga mansub bolalarni tarbiyalash va rivojlantirishning umumiy vazifalarini hisobga olgan holda ishlab chiqiladi.

Mashg'ulot dasturi quyidagilarni ko'zda tutadi;

1) ob`ekt-larshing xususiyatlari va sifatlari (tasavvurlar va elementar tushunchalar), ularning tub o'zgarishlari, aloqalari, ha-rakat usullari va hokazolar haqidagi bilimlarning muayyan hajmini, ularni dastlab o'zlashtirish, kengaytirish, mustahkamlash, umumlashtirish va tizimlash;

2) faoliyatning mahsuldor turlarida qo'llaniladigan amaliy ko'nikma va malakalar hajmini (ularning shakllanish darajasini ko'rsatgan holda);

3) o'quv-bilish faoliyatining ko'nikma va malakalari hajmini, ularning dastlab shakllanishi yoki takomillashuvini, qo'llashga oid mashqlarini (vazifani qabul qila olish, rejallashtirish, faoliyat natijalarini nutqda qo'llay olish va boshqa umumiy hamda maxsus o'quv ko'nikmalari);

4) psixik va bilish jarayoni sifatlarini rivojlantirish vaznfalarini (diqqatning jamlanganligi va erkinligini, idrokning tabaqa lashtirilgan-ligini, solishtirish va tavsiflash malakalarini o'stirishni va hokazolar);

5) muayyan mashg'ulotda beriladigan (o'zlashtiriladigan) bilimlarga, voqealarga va hodisalarga bolalar munosabatini shakllantirish, o'z faoliyatiga munosabatni tarbiyalash, tengqurlari o'rtasida o'zaro munosabatlarni o'rnatish, shuningdek, o'qitish mashg'ulotlari sharoitida yurish - turish qoidalari va me'yorlarini o'zlashtirishni.

Shunday qilib, mashg'ulotlar mazmuni ham ta'limiy, ham tarbiyaviy vazifalarni ular birligida va o'zaro harakatida hal etishga yo'naltirilgandir.

Har bir mashg'ulotdagi o'quv mazmunining hajmi uncha katta bo'lmaydi. U turli yosh guruhlaridagi bolalarning xotira va diqqati hajmini, ularning aqliy ish qobiliyatlarini hisobga olgan holda belgilanadi. Masalan, kuzatish chog'ida yangi ob`ektlar bilan tanishtirishda kichik tarbiya yoshi guruhidagi bolalar 2 - 3 yorqin belgini eslab qolish (o'zlashtirish), o'rta tarbiya yoshi guruhiga mansub bolalar 3 - 4 tagacha, katta tarbiya yoshi guruhidagilar esa 5 - 6 tagacha belgini (rang, shakl, tuzilish, proportsiya, ko'lam, nimaga ishlatilishi) eslab qolishga qodirdirlar.

O'qitishning tashkiliy shakllaridan bo'l mish mashg'ulot uchun ko'proq ushbu jarayonning tugallanganligi xosdir: ya`ni, ta`limning asosiy bo'g'inlarining va bilimlar, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishning bosqichlarining mavjudligi. Yangi materialni o'zlashtirish unga bevosita birikadigan eski materialni qayta esga tushirish asosida kechadi. Yangi material «kichik» miqdorlarda beriladi. Bir mashg'ulot davomida yangi materialni dastlabki idrok etish ham, uni tushunib olish va mustahkamlash ham amalga oshiriladi, bu mashg'ulot tuzilishida ham aks etadi. Takroriy mashg'ulotlarda bilimlar, ko'nikma va malakalarni yanada kengaytirish, tushunib olish va o'zlashtirish yuz beradi. Bilimlarni rang - barang faoliyatda va turli sharoitlarda xuddi shunday ko'p martalab idrok etishgina tarkib toptiriladigan tasavvurlarning to'laqonli bo'lishini ta'minlaydi.

SHu bilan birga maktabgacha katta yoshdagagi bolalar guruhlarida asosiy mazmuni ko'nikma va malakalarni ishlab chiqishdan yoki bilimlarni tizimlashdan iborat bo'lgan mashg'ulotlarni tashkil etish mumkin. SHunga muvofnq bolalarning o'quv faoliyati uyushtiriladi, metodlar belgilanadi (birinchi holda mashqlar, ikkinchi holda suhbatlar). Bunday mashg'ulotlarning tuzilishi odatdagি namunaviy mashg'ulotlardagidan farq qiladi: unda o'quv jarayoniga tegishli vazifa asosiy o'rinni tutadi.

Maktabgacha ta'lim muassasalaridagi mashg'ulotlarning tuzilishida bilimlar, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishni tekshirish o'tkazilmaydi. Bu ish bolalarning mashg'ulotlardagi faoliyatini kuzatish jarayonida, bolalar faoliyati natijalarini tahlil qilishda, shuningdek, kundalik hayotda va bolalar yutuqlarini turli ilmiy metodikalar yordamida o'rganish chog'ida amalga oshiriladi.

Mashg'ulotlarni tashkil etish va bolalar faoliyatiga rahbarlik qilish. Mashg'ulotlar barcha bolalar bilan yalpisiga olib boriladi. Bu uni tashkil etilishi va bolalar faoliya-tiga rahbarlik qilinishiga alohida e'tiborni talab qiladi. Avvalo, bolalarning umumin yuqori ish qobiliyatini ta'minlaydigan g'igienik sharoitlar yaratilishi lozim. Mashg'ulotlar toza, yaxshi shamollatilgan, bolalar bo'yiga mos mebellar bi-lan jihozlangan xonada o'tkazilishi lozim.

Har bir aniq mashg'ulot uchun uyushtiriladigan vaziyat amalga oshiriladigan o'quv faoliyatining tabiatiga mos bo'lishi kerak. Bolalar xonada ularning faoliyat

ko'rsatishlari uchun imkoniyat juda yaxshi bo'ladigan tartibda loyixalashtirilishi zarur: bolalar stolda tarbiyachiga ro'para bo'lib yoki yarim doira yasab o'tirishlari, birlashtirilgan stollar atrofida o'tirib yoki tura olishlari kerak.

Maktabgacha yoshidagi bolalarni o'qitishda ko'rgazmali va amaliy metodlardan foydalanish buyumli, tasviriy, chizmali kabi xilma - xil ko'rgazmali materiallarni qo'llanish bilan bog'liqdir. Ulardan biri bolalarning birgalikdagi faoliyatida foydalaniladi, boshqalari tarqatma material sifatida ishlataladi. Mashg'ulotni tashkil etishda materialning oqilona joylashishi ko'zda to'tiladi, undan foydalanish izchilligi, tavsiya etish usuli u bilan ishslash tabiatini belgilab olinidi.

Mashg'ulotning ichki mantig'i va tuzilishi uning asosiy qismlari, ya'ni, mashg'ulotning boshlanishi, davom etishi, yakunida aks etgan.

M a sh g' u l o t n i n g b o sh l a n i sh i. Bolalarning o'yindan mashg'ulotga o'tishi odatda bola psixikasining bir faoliyatdan osongina ikkinchisiga o'tishi tufayli tezda amalgalashiriladi. Faoliyatni almashtirish ko'nikmasi kichik maktab yoshidayoq shakllanadi, buning uchup tarbiyachining og'zaki murojaati kifoya.

Mashg'ulotning boshida uni tashkil etishda tarbiyachi tomonidan qo'yiladigan va hal etiladigan asosiy didaktik vazifasining mohiyatini ochishdan iboratdir. Bu vazifalar turli yosh guruhalarda turlicha hal etiladi. Kichik guruhlarda bolalarning mashg'ulotlarga qiziqishi materialning - rasmlar, o'yinchoqlar, buyumlar va bolalar shug'ullanishi kerak bo'lgan ashyolarning bezakdorligi tufaylidir. Mashg'ulotda o'yin usullari va o'yin vaziyatlaridan foydalaniladi. Bo'larning barchasi kichkintoylarning ixtiyoriy diqqatini jalb qilishga qaratilgandir. Bilishga oid qiziqish etarlicha rivojlangan katta tarbiya yoshidagi bolalar guruhalarda mashg'ulot mavzui yoki uning asosiy maqsadini e'lon qilish kifoya. Katta tarbiya yoshidagi bolalar zarur vaziyatni tashkil qilishga jalb etiladilar, bu ham mashg'ulotga bo'lgan qiziqishning uyg'onishiga yordam beradi. Biroq katta tarbiya yoshidagi bolalarning mashg'ulotga diqqati va qiziqishini uyg'otishda o'quv vazifalarini qo'yishning mazmuni va tabiatini asosiy ahamiyatga ega bo'ladi.

Vazifani umuman (yoki faqat uning bir qismini) qo'yish mashg'ulot boshida uni bajarish usulini ko'rsatish yoki tushuntirish yo'li bilan olib boriladi. Masalan, tarbiyachi vazifani tushuntirayotib, shunday deydi: «Bugun siz bog'ning qishki ko'rinishini chizasiz. Har bir kishi avval nimani qanday izchillikda chizishni o'ylab olishi, so'ng chizishga kirishmog'i lozim». Ba'zan vazifani tushuntirish harakat usulini bolalar ishtirokida bajarib ko'rsatish bilan olib boriladi.

Bolalar asta-sekin mashg'ulotlardagi muayyan harakat qoidalariiga o'rgatiladi. Tarbiyachi bolalarga bu qoidalarni mashg'ulotni tashkil etish chog'ida ham, uning boshlanishida ham eslatadi.

M a sh g' u l o t n i n g b o r i sh i. Bolalar faoliyatiga rahbarlik qilish turli xil metodlar yordamida amalgalashiriladi. Ularni tanlashda mashg'ulotning maqsadi, ushbu bo'limga oid ish tizimidagi o'rni, bolalar yoshi hisobga olinadi.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar bilan olib boriladigan mashg'ulotlardagi o'qitishning asosiy bo'g'inlarining oilaviy zinchligi bir mashg'ulotda rang-barang metodlarning qo'llanishi bilan izohlanadi: chunonchi:

1) materialni dastlabki idrok etishga va o'zlashtirilganlar bilan aloqa o'rnatishga qaratilgan metodlar;

2) bilimlarni kengaytiradigan metodlar;

3) bo'limlar, ko'nikma va malakalarni umumlashtirishga, mustahkamlashga va qo'llanishga qaratilgan metodlar.

Mashg'ulot davomida metod va usullarining almashinib kelishi mashg'ulot chog'ida ilgari suriladigan aniq o'quv vazifalarning izchilligiga bog'liq. Mashg'ulot chog'ida shakllanadigan bilimning u yoki bu mazmuni alohida qismlarga bo'linadi.. Chunonchi, tayyorlov guruhlarida qishlovchi qushlarpi kuzatish chog'ida shakllanadigan bilimlarni quyidagicha bo'lish mumkin:

a) qushlarning katta-kichikligi, tuzilishi, qanotlari,. uchib-qo'nish tarzi va uning xususiyatlari haqidagi tasavvurlar;

b) ovqati va ovqatlanish tarzi;

v) tabiatda yilning turli fasllaridagi hayot tarzi;

g) tabiat burchagidagi hayoti.

Bunday izchillik xususan (bilish harakatining yakka tasavvurdan umumiya, umumlashmaga tomon borishi) yoki umumiylar (bolalarning mashg'ulot boshida olgan umumiylarini yoki elementar tushunchalarini aniqlashtirish) tabiatiga ega bo'lishi mumkin.

O'quv vazifalari ularni bilimlar, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish o'rniiga qarab guruhlanishi mumkin va shunga muvofiq vosita va metodlar tanlanadi.

Shunday qilib, mashg'ulot davomida bolalar faoliyatiga rahbarlik qilish o'quv vazifalarini bolalar oldiga izchil qo'yishdan (bunda xilma - xil usul —topshiriq, savol, takliflardan foydalanib) va bolalarning ularni hal etishga qaratilgan faoliyatini tashkil qilishdan iboratdir.

Mashg'ulotlarni tashkil etishda barcha bolalarping o'quv vazifalarini hal etishdagi faol ishtiroki, shuningdek, tarbiyachining bevosita ishtirokida kechadigan faoliyatning bolalarning mustaqil faoliyati bilan qo'shib olib borilish» juda muhimdir.

Bolalarning aqliy faolligini avvalo, ular bajaradigan vazifalarning murakkabligi, ularni qo'yishning izchilligi, elementar muammoli tabiatidagi vazifalardan foydalanish, bolalarda umumlashgan o'quv - bilish malakalar (kuzatish, taqqoslash, tavsiflash, umumlashtirish, isbotlash)ining shakllanishi tufayli yuzaga keladi. Aqliy faollilik bolalarning shaxsiy tajribasini jalb etish bilan ham bog'liqdir. Tekshiruv va izlanish harakatlaridan va savollardan, taqqoslashga oid turli topshiriqlardan foydalanish aqliy faoliyatni faollashtiradi.

Bolalarning mustaqil faoliyati bilimlarni mustahkamlash, ko'nikma va malakalarni hosil qilishga bag'ishlangan mashg'ulotlarda tashkil etiladi. Buning uchun eng yaxshi sharoit vazifalarni tarqatma materiallar asosida bajarish,, shuningdek, turli tabiatidagi mashqlarni bajarish chog'ida yaratiladi. Masalan, namoyish etilgan materialni idrok qilish chog'ida shakllantirilgan miqdor tarkibi haqidagi bilimlar tarqatma materiallar bilan ishlash paytida mustah-kamlanadi. Buning uchun ijodiy tabiatidagi turli topshiriqlardan (masalan, rasm asosida hikoya tuzish) ham foydalanish mumkin va hokazo.

Javobni to'ldirishni, uni aniqlashtirishni, baholashni talab qiladigan topshiriqlar aqliy faoliyatni faollashtirishga katta ta'sir ko'rsatadi.

Katta yoshli bolalar bilan olib boriladigan mashg'ulot so'ngida bilish faoliyatining umumiy yakuni chiqariladi. Bunda tarbiyachi yakuniy muhokamaning bolalarning o'z kuchlari bilan o'tishiga harakat qiladi, ularni mashg'ulotlarni ko'tarinki ruhda baholashga undaydi. Mashg'ulotni yakunlanyotganda bolalar olgan bilimarni keyingi bilimlar bilan bog'lash - shu asnoda bilishning yaqin istiqbollarini yoritish muhimdir.

Mashg'ulotning so'nggi qismida butun guruhning va ayrim bolalarning o'quv faoliyatiga, o'quv ko'nikmalariga bahr beriladi. Bolalar o'zgalar va o'z-zlarini baholashga jalb etiladilar.

Kichik guruhlardagi mashg'ulotning so'nggi qismi mashg'ulotning mazmuni, bolalarning faoliyati bilan bog'liq bo'lgan ijobiy his - hayajonlarni kuchaytirishga qaratilgandir. Ayrim bolalar faoliyatini baholashni bir qadar tabaqalashtirish faqat o'rta guruhlardagina asta - sekin joriy etiladi. Tarbiyachi so'nggi xulosa chiqarishga va baho berishga bolalarni ham vaqt - vaqt bilan jalb qiladi.

Katta va tayyorlov guruhlarining kun tartibida mashg'ulotlar vaqtin uzaytiriladi. 5 - 7 yoshli bolalarda bilish, ularning o'rni qiziqish ehtiyojlari kengayib, ular o'quv faoliyatining etakchi sabab (asos) laridan biriga aylanib boradi. Ularda boshlang'ich bilim, ko'nikma va malakalarni egallash imkoniyatlari, birgalikdagi mashg'ulotlarga intilish kuchayib boradi. Ular katta yoshlilar hikoyalarini bajonidil tinglaydilar, ko'pgina savollar beradilar, qiziquvchanlikni namoyon qiladilar. Ayrim bolalarda mashg'ulotlarning ayrnm turlari: rasm solish, loy va plastilindan narsalar yasash, qurish - yasashga alohida qiziqish paydo bo'ladi. Bu ishdagi bolalar tabiat hodisalari, ijtimoiy hayot haqidagi ma'lum bilimlar doirasini egallagan, o'quv faoliyatiga oid eng oddiy ko'nikma hamda malakalarni o'zlashtirgan bo'ladilar. Bo'larning hammasi kun davomida bolalar o'quv faoliyatining davomiyligini ko'paytirish im-konini beradi.

Katta guruh tarbiyachilari oldida quyidagi vazifalar turadi:

1) mashg'ulotni kun tartnbiga ko'ra boshlash va yakunlash, ularga ajratilgan vaqtidan samarali foydalanish;

2) «Uchinchi mingyllikning bolasi dasturi»ga amal qilib, barcha bo'limlarga doir mashg'ulotlarni ularning mazmun, usul va metodlarini rejalahtirib, hamma zarur jihoz va qo'llanmalar bilan ta'minlab o'tkazish.

Kuz-qish davrida katta guruhda har kuni ertalab uchta mashg'ulot (to'rt kun) va ikkita mashg'ulot (bir kun) o'tkaziladi. Mashg'ulotlarning davomiyligi 10 daqiqa tanaffus bilan 30 daqiqadir. Tayyorlov guruhida har kuni ertalab 10 daqiqa tanaffusi bilan 35 daqiqalik uchta mashg'ulot o'tkazi-ladi.

Nonushtadan so'pg mashg'ulotlarga tayyorlanishga qisqa vaqt ajratiladi. Tarbiyachi navbatchilar ko'magida stol va stullarni qo'yib chiqadi, so'ogra navbatchilar har bir stolga zarur materiallarni qo'yib chiqadilar. Tarbiyachi iavbatchilar ishini kuzatib, ularning tirishqoqliklarini qayd etadi. Hamma narsa joyida ekanlignga ishonch hosil qilgan tarbiyachi «Navbatchilar mashg'ulot uchun hamma narsani hozirlab bo'ldilar, endi mashg'ulotni boshlaymiz» deydi.

Ish ana shunday uyushtirilganda mashg'ulotga o'tish osoyishta va uyushgan holda bo'ladi.

Mo'ljallangan vazifalarni muvaffaqiyatlari uddalash uchun tarbiyachi mashg'ulot maqsadini aniqlashi va bolalar topshiriqni uddalab olishlariga ishonch hosil qilish kerak. Ishni bajarish jarayonida u bolalarnint faol va muvaffaqiyatlari faoliyatlari uchun sharoit yaratadi, zarur sur`atni qo'llab-quvvatlaydi, qiyinchilikni bartaraf etish va natijaga erishishda yordam beradi.

Mashg'ulotda tarbiyachining etakchilik roli rejalashtirish, mazmun va metodlarni to'g'ri tanlash, qo'llanma va mashg'ulotlarni puxta tayyorlash orqali ta'minlanadi. Mashg'ulotlarda bolalarni uyushtirishping xilma - xil shakllaridan foydalilaniladi. Bir holatlarda maktabgacha tarbiya yoshidagilar bir turli yakka - yakka topshiriqlarni bajaradilar, boshqa holatda - topshiriq bolalarning kichik guruhi yoki butun guruhi beriladi. Uyushtirishning har xil shakllari stollarping ma'lum tartibda qo'yilishi va bolalarni ularning bilish hamda ko'nikmalarini hisobga olib taqsimlanishinn nazarda tutadi.

Topshiriqni jamoa bo'lib bajarnshni tashkil etishda bolalarga, masalan, aplikatsiya ishiga doir hamkorlik, o'zaro yordam, o'zaro javobgarlik o'rgatiladi. Mashg'ulotlarda bolalarni uyushtirishning turli metodlaridan foydalilaniladi. Masalan, jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida yalpisiga, guruh yoki yakka - yakka metodlaridan foydalilaniladi. Mashqlarni bajarish tartibi bnr vaqtida yoki navbat bilan bajariladigan bo'lishi mumkin.

O'tkazilayotgan mashg'ulotlar bolalarda topshiriqni aniq, tarbiyachi bergen ko'rsatmalarga muvofiq bajarish, ish vaqtida foydalilaniladigan qo'llanma va materiallarga ehtiyyotkorona munosabatda bo'lish odatini shakllantiradi.

7.2. Maktabgacha ta'lim muassasasi yosh guruxlarida ta'limning o'ziga hos hususiyatlari.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning umumiyligi rivojlanishi, shu jumladan, aqliy rivojlanishining yukori sur`atlari ta'limni turli yosh guruhlarida tabaqaqalashtirilgan holda tashkil etishni taqozo etadi. Bunda ta'limning o'ziga xosligi o'quv jarayonining quyidagi asosiy tarkibiy qismlarida: uning mazmunida, tuzilishida, metodlari va tashkiliy shakllarida namoyon bo'ladi.

Ilk yoshdagi bolalarga hayotining deyarli birinchi onlaridanoq ta'lim berish boshlanadi.

Bola hayotining birinchi yilida bu ta'sirning asosiy vazifalari va mazmuni quyidagilardan:

- a) bola sensorikasining rivojlanishi sezgi va idrokning: ko'rish hamda eshitishning shakllanishidan;
- b) buyumli harakatlarning rivojlanishidan;
- v) harakatlar: avval emaklash, so'ng esa yurishning rivojlanishidan;
- g) bolalar nutqining rivoj-lanishidan iborat.

Bu vazifalarni hal etish chog'ida bolalarda kattalar ta'siri ostida buyumlarni tanish, kattalarning nutqini tushunish, ayrim tovush birikmalarini va dastlabki so'zlardan faol foydalana olish malakalarini shakllantirish zarur. Bolalar ayrim

buyumlarni ularning xususiyatlari ko'ra bilib olishni o'rganadilar, bunda murakkab bo'limgan harakatlarni egallaydilar (yopish, ochish, dumalatish, ovoz chiqarish).

Kattalarning bir yoshli bolalarga ta`limiy ta`siri avvalo, bola bilan yakkama - yakka muloqotda bo'lish va uning mustaqil faoliyatini o'yinchoqlar, didaktik material va qo'llanmalar bilan tashkil etish orqali amalga oshiriladi, Yakkama - yakka muloqot albatta erkalovchn, xotirjam nutq asosida olib borilishi kerak.

O'yinchoqlar bilan bo'ladigan mustaqil faoliyatni tashkil etish avvalo, ularni tanlash va bolalarning ular bilan bevosita muloqotda bo'la olish darajasida joylashtiriladi (ular manejda bolalarning bo'yi va qo'li etadigan masofaga osib yoki ilib qo'yiladi). Kattalar vaqtida - vaqtida bolalar bilan birqalikda harakat qiladilar va uning qo'lini yo'naltirib boradilar.

Bola hayotining biripchi yili ikkinchi yarmida bolalarning kattalarga taqlid qilishi qobiliyatining mukammallahib borishi va ular nutqini tushunishining oshib borishi asosida bolalarga buyumlar bilan bajariladigan u yoki bu harakatlarni ko'rsatish imkonini tug'iladi. Bunda ko'rsatish bolaning buyum bilan bajaradigan bevosita harakati asosida amalga oshiriladi. Bunday qisqa muddatli mashg'ulotlar kun bo'yi bir necha marta birvarakayiga 2 - 3 bola bilan o'tkaziladi.

Ikki yoshli bolalarga ta`lim berish jarayoni birmuncha maqsadga yo'nalganlik va rejalilik tabiatini kasb etib boradi. Ta`lim jarayonida birinchi yilda tavsiya etilgan vazifalar hal etiladi, bo'lar: sensorikani rivojlantirish, buyumli harakatlar va buyumli faoliyatni rivojlantirish. Biroq, bolalarning voqelikda harakat qilishi birmuncha ko'zga tashlanib boradi. Bolalar yaqip atrofdagi buyumlarni ayniqsa, yorqin ajralib turadigan buyumlarni (shakliga, rangiga, katta - kichikligiga qarab) farqlashga, ulardan foydalanishga o'rganadilar. Ular maishiy ahamiyatga molik buyumlar va narsalar bilan: mebel, kiyim – bosh, idish - tovoq, o'yinchoqlar bilan tanishadilar; ayrim hayvonlarni farqlab va uning nomini aytga oladilar, ularning asosiy qismlarii, harakat tabiatini (uchishini, yugurishi va hokazolar)ni farqlaydilar. Bolalarda o'simliklar haqidagi dastlabki tasavvurlar ham paydo bo'ladi: ular maysani, daraxtlarni, shamolni farqlaydilar, suv, qum haqida dastlabki tasavvurga ega bo'ladi. Bu tasavvurlar ularni idrok etish chog'idagi bilib olish darajasida hamda rasm va o'yinchoqlarni ko'rib chiqish paytida shakllanadi. Bolalar ta`lim jarayonida asta - sekin o'xshash belgilari bo'lgan buyumlarni bir so'z bilan atash - dastlabki umumlashmalar chiqarish malakasini ham egallaydilar.

Tasavvurlarni shakllantirishning butun jarayoni nutq egallash jarayoni bilan birqalikda kechadi.

Ta`limning mazmuniga buyumlar bilan bajariladigan xilma - xil harakatlarni shakllantirish ham kiritiladi: didaktik o'yinchoqlar bilan (taxlash, tizish va boshqalar) qurilish materiallari bilan (terish, qo'yish va boshqalar), turli xil buyumlar — «qurollar»: kosa, qoshiq, belko'rak, xokandoz va hokazo (sepish, qo'yish, botirib olish va boshqalar)lar bilan qilinadigan harakatlar. Shuningdek, uning mazmuniga syujetli o'yinchoqlar bilan qilinadigan harakatlarga o'rgatish ham kiradi: avtomobilni g'ildiratish, qo'g'irchoqni ovqatlantirish, uni uxlatish va hokazo.

Asosiy harakatlarni rivojlantirish (yurish, emaklash, tirmashish), shuningdek muzika tarbiyasi - muzika sadolarini farqlashning dastlabki malakalarini, qo'shiqni his etishning dastlabki belgilarini, ohangga tushish va hokazolar ta`limning muhim bo'limiga aylanadi.

Shunday qilib, ikki yoshli bolalarga beriladigan ta`limning mazmuni ko'p qirrali yo'naliш kasb etadi. U bolalarning atrof - muhitda dastlabki harakatini, nutqining rivojlanishi va dastlabki bilish va amaliy ko'nikma hamda malakalarining shakllanishini ta`minlaydi.

Ta`lim jarayoni tuzilishi ikki vazifani hal etishga qaratilgan qismlar aniq ajralib turadi, bo'lar:

1) bolalarni yangi buyumlar, ularning sifatlari va ular bilan bajarila-digan harakatlarga o'rgatish va

2) keyingi harakat va tasav-vurlarni o'zlashtirishga o'rgatish.

Birinchi vazifani hal etishda kattalar buyumlar, rasmlarni ko'rib chiqish (kuzatish) va harakatlarni o'yinchoqlar hamda buyumlar bilan ko'rsatishdan foydalanadi. Bunda ularning nomlarini aniq atab va tushuntirib boradi. Bolalar harakat namunasini kuzatish va idrok etish chog'ida so'zlarni faol qo'llanishga da`vat etiladilar. Bunday mashg'ulotlar bolalarning uncha katta bo'limgan guruhlari bilan kuniga 2—3 marta o'tkaziladi.

Ayni paytda bolalarning buyumlar va o'yinchoqlar, xilma - xil didaktik materiallar bilan bo'ladigan mustaqil faoliyatini uyushtirishda davom etiladi. Kattalar ta`limni davom ettiradilar — zarurat bo'lganda, «birgalikdagи» harakatdan foydalanadilar - buyumlarni ko'rsatib so'z bilan tushuntiradilar. Bunda bolalarning mustaqilligini qo'llab - quvvatlash va rag'batlantirish zarur. Buyumlar bilan bajariladigan harakatlarni namoyish etish bo'lingan holda o'tkaziladi. Biror - bir operatsiyani ko'rsatish bola harakatini uyushtirish bilan birga qo'shib olib boriladi. Bolalar ikkinchi yoshning ikkinchi yarmida kattalarning ko'rgazmali - harakat, so'ngroq esa, og'zaki ko'rsatmalari bo'yicha harakat qila oladigan bo'ladilar.

Natijada bolalar hayotining dastlabki uchinchi yilda ularda boshlang'ich o'quv ko'nikmalarining elementar asoslari shakllanadi: kattalar ko'rsatmalariga ko'ra harakat qilib, o'zlariga tavsiya etilgan mazmunni o'zlashtiradilar.

2 - 4 yoshli bolalarni o'qitish quyidagilarni ko'zda tutadi:

1) yaqin atrofdagi buyumlar va hodisalarini tushunishlarini, ularning xususiyatlari haqidagi aniq tasavvurlarning shakllanishini yanada rivojlantirish. Ob'ekt va voqelikdagи hodisalar o'rtasidagi murakkab bo'limgan aloqalar o'rnatish asosida bilimlarning dastlabki elementar tizimini o'zlashtirish;

2) sezgi va idrokni yanada takomillashtirish, sensor etalonlar tizimi haqidagi bilimlarni va ulardan ijodiy faoliyatning turli ko'rinishlarida foydalana olish ko'nikmalarini shakllantirish;

3) o'quv faoliyatining dastlabki malakalarni: vazifani qabul qila olish, kattalarni tinglay va eshita olish, qo'yilgan savollarga javob bera olish ko'nikmalarini shakllantirish;

4) bolalar nutqini rivojlantirish: lug'at boyligi va bog'lanishli nutqni yanada kengaytirish.

Bolalarni uch - besh yoshligida o'qitishning mazmuni ko'p qirrali bo'la boradi. Bu kattalar mehnatini uning asosiy tarkibiy qismlarida, shu jumladan, mehnat natijasi bo'lmish buyumlar haqidagi tasavvurlarda, jonsiz tabiat haqidagi, o'simlik va hayvonlar haqidagi tasavvurlarda va nihoyat, miqdor, fazo va vaqt haqidagi tasavvurlarni o'zlashtirishda namoyon bo'ladi. Ta`lim dasturiga bolalar tomonidan o'zlashtirish lozim bo'lgan murakkab bo'lмаган yo'llar va usullar, tasviriy - badiiy faoliyat malakalaripi shakllantirish kiritiladi. Bolalar tasviriy materiallar bilan (qalamlar, bo'yoqlar, loy bilan) tanishtiriladi, Ular buyumlarni, so'ng syujetni chizma orqali tasvirlashga oid dastlabki malakalarni egallaydilar, tasvirdagi obrazni anglash, keyin uni maqsadga muvofiq yaratish ko'nikmalarini o'rganadilar. Buyumlarda umumiy (etalonli) xususiyatlarni va shu bilan birga alohida o'ziga xoslikni ko'rish va tasvirlashni o'rganadilar; mazkur belgilarii chizmada va ranglarda bera oladigan bo'ladilar. Ifodali nutqqa, qo'shiq aytish va harakatlarga o'rgatish musiqa jo'rлигida kechadi. Mashg'ulotlarda o'qitish va kundalik hayotda faol harakat tajribasining to'rejashi yuz beradi. Bolalar harakatning assosiy turlariga oid malakalarni (yurish, yugurish, tirmashish, sakrash) va jismoniy mashqlarni o'zlashtiradilar. O'z - o'ziga xizmat ko'rsatishda, xo'jalik - maishiy mehnatda elementar mehnat ko'nikmalarini o'zlashtirish davom etadi.

O'qitish mazmunining o'ziga xosligi, bolalar bilish faoliyatining xususiyatlari (ko'rgazmali - harakat va ko'rgazmali - obrazli tafakkurning afzalliklari) undagi katta o'ziga xos alohida farqlarning mavjudligi ta`lim jarayonini tashkil etishning tabiatini, uning metodlarini belgilaydi.

Maktabgacha ta`lim muassasalaridagi birinchi kichik guruhlarda olib boriladigan o'qitish mashg'ulotlari ilk yoshdagilar guruhidagi kabi kichik guruhchalarda tashkil etiladi (kun davomida ikki mashg'ulot o'tkaziladi) va ular o'yin ko'rinishiga ega bo'ladi. Bolalarni ikki kichik guruxgacha bo'lish tarbiyachining mashg'ulotda har bir bola bilan bevosita muloqotda bo'lish zarurati bilan bog'liqdir.

Mashg'ulotlarning tuzilishi harakatlarni ko'rsatishni ularning bolalar tomonidan bajarilishi bilan tarbiyachi nutqini tinglashni bolalarning faol nutqiy faoliyati bilan navbatlashtirib turishni ko'zda tutadi. Mashg'ulot davomida bu tarzda navbatlanirish odatda, bir necha marta takrorlanadi.

Har bir mashg'ulotning mazmuni, o'zlashtiriladigan tasavvur va harakatlar hajmi uncha katta bo'lmaydi. Bolalarni buyumlar yoki harakatlar bilan tanishgirishda ikki - uch belgi, harakat bosqichidan (masalan, mo'yqalamni bo'eqqa botirib olishdan, to'lqinsimon chiziq tortishdan) foydalaniladi. Bilimlar, ko'nikma va malakalarni to'la o'zlashtirib olish qator mashg'ulotlarda takrorlanadi va bolalarnig mashg'ulotdan tashqari faoliyati mazmuniga kiritiladi. Bolalarning o'qitish mashg'ulotlarida ishtirok etishlarining sababi - foydalaniladigan materialning juda qiziqarliligidagi (buyumlar, o'yinchoqlarning), kattalar bilan birga harakat qilishga bo'lgan ehtiyojda, shuningdek, taqlidga moyillikdadir.

Kuzatyash (buyum va hodisalarini ko'rib chiqish), rasmlar va o'yinchoqlarni namoyish etish, kattalar ko'llanadigan asosiy metodlardandir. Harakat usulini (bu usullarga o'rgatishda), shuningdek, mashqlarni ko'rsatish metod sifatida qo'llaniladi. Tarbiyachi qiskacha hikoyadan ham foydalanadi, bolalarga u yoki bu

hodisani hikoya qilib beradi. O'yin metodi didaktik o'yinlar shaklida keng qo'llaniladi. Qundalik hayotdagи mashg'ulotdan tashqari o'qitishda aynan o'sha metod va usullar foydalaniladi, biroq ayni choqda ko'proq didaktik o'yinlar va boshqa xil o'yinlar qo'llaniladi. Tarbiyachi ularni ikki - uch yoki bir bolaning o'zi bilan tashkil etadi.

O'qitishning yuqorida sanab o'tilgan metodlari bolalarning ko'rgazmali-harakat va ko'rgazmali obrazli tafakkurnga tayanadi. Ko'rgazmali va amaliy metodlar so'z bilan birgalikda bolalarda tasavvurlarni shakllantirish imkonini beradi, oddiy amaliy harakatlar, shuningdek, dastlabki o'quv ko'nikmalarining o'zlashtirilishini ta'minlaydi, chunonchi: vazifani qabul qila olish, tarbiyachi nutqini eshitish va tinglay olish, uning namunasiga ko'ra harakat qilish, so'ng esa og'zaki ko'rsatmasiga ko'ra harakat qilish. Tasviriy va ko'rish faoliyatida bolalar ish natijalarini o'zlarining mashg'ulotlardagi harakatlarining maqsadi sifatida qabul qiladilar. Kuzatish va rasmlarni tomosha qilishda maqsad darrov anglanmaydi va qabul qilinmaydi, ya`ni bolalar tarbiyachining savolini, uning ko'rsatmalarini eshitmaydilar, ular faqat savollar hamda ob`ekt yoki harakatlar bir - biri bilan mos kelgandagina asta-sekin savolni eshitish malakasini hosil qiladilar. Keyinroq bolalarning o'zları avval o'zlashtirilgan tasavvur va harakatlar asosida uncha katta bo'lмаган maqsadlarni qo'ya boshlaydilar. Uchinchi yoshning so'ngida bolada tarbiyachining butun guruhga, o'ziga qaratilgan ko'rsatmalari, savollarini farqlash malakasi shakllanadi, Bu ko'nikmaning shakllanishiga umumiy ko'rsatmalarni alohida tarzdagi ko'rsatmalar bilan to'ldirish orqali erishiladi («Barcha bolalar yo'lkacha chizadilar, ham chizadi»).

Ko'pchilik bolalarda shakllangan ushbu malaka ikkinchi kichik guruh va o'rta guruhlarda mashg'ulotlarni butun guruh bilan bir vaqtida o'tkazishga, bolalar diqqatining barqarorlashuvi esa mashg'ulotlarning davomiyligini 10 - 15 daqiqadan 15 - 20 daqiqagacha oshirish imkonini beradi. Ikkinci kichik guruhda va o'rta guruhda kuniga ikki marta mashg'ulot o'tkaziladi.

Mashg'ulotlar mazmuni, hajmi ham ortadi. Masalan, kuzatish chog'ida o'rta yosh guruhidagi bolalarda o'zida asosiy jismoniy tabiatni, harakatlarning yoki rivojlanishning o'zgarishlarini, boshqa ob'ektlar o'rtasidagi o'zaro harakatni aks etgiruvchi buyumlar va hodisalar haqida etarlicha aniq va lo'nda tasavvurlar shakllanadi. Bunda mashg'ulotlar mazmunni o'zlashtirishda etakchi rol o'ynay boshlaydi. Shuning uchun qator mashg'ulotlarda bir xil mazmun takrorlanib qoladi (mazmun murakkablashgan holda). O'qitishdan esa kundalik hayotda o'qitishning turli bo'limgan bo'yicha oldindan tajriba yig'ish, bilimlar, ko'nikma va madakalarni qisman mustahkamlash uchun foydalaniladi. Bunday o'qitish ko'pincha yakka tarzda yoki uncha katta bo'lмаган guruhlar (2—3 kishi) bilan olib boriladi. Bu bolalar alohida harakatlarining sur'atini va bilish faoliyatining o'ziga xosligini hisobga olishni birmuncha to'laroq ta'minlash imkonini beradi.

Dastlab ta'lim sabablarn avvalgisicha qoladi. Biroq tarbiyachi ta'lim jarayonida o'quv vazifalarini qo'yar ekan, bolalarga ularning amaliy ahamiyatini, natijalarking turli faoliyatlarda qo'llanish ehtimoli borligini, masalan, («o'simlikning, barq urib o'sishi uchun uni yaxshilab sug'orishimiz», «she'rini to'qib chiqib uni bayramda oyimizga aytib berishimiz uchun uni yaxshilab yod

olishimiz» va hokazo) tushuntiradi. Bu bilan mashg'ulotning ahamiyati va his-hayajonga to'liq jihatini saqlab koladi. Endi bolalarda asta - sekin tarbiyachilar, ota - onalar, tengqurlarining olqishiga sazovor bo'lism uchun biror ni.mani o'rganish istagi paydo bo'la boradi. Bolalarning o'rta guruhdagi hayotining so'ngida ko'pchilik bolalarning mashg'ulotlarda faol ishtirok etishi shakllanayotgan bilishga qiziqishini belgilab beradi.

Kichik va o'rta maktabgacha tarbiya eshpdag'i bolalarga ta'lim berishning vazifasi o'quv - bilish faoliyatida ko'nikma va malakalarni yanada shakllantarishdan iboratdir, chunonchi, bunda vazifani qabul qilish va natijaga erishish, tarbiyachi ko'rsatmasi bo'yicha harajat qilish, faqat tarbiyachini emas, balki o'z o'rtoqlarini ham tinglay olish malakalari mustahkamlanadi, faoliyat natijalarini baholash va o'z - o'zini baholashning dastlabki malakalari shakllanadi. Bolalar maxsus o'quv ko'nikmalariga ham o'rgatiladi, masalan: taqqoslashga, ilk marta umumlashtirishga, qo'yilgan savollarga bog'lanishli so'zlar bilan javob bera olishga, murakkab bo'lмаган hikoyani so'zlab berish va hokazolarga o'rgatiladi.

Ta'limning metod va usullari bilimlar, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga ham, o'quv faoliyatining asooiy tarkibiy qismlarini rivojlantirishga ham yo'naltirilgandir.

Bolalarga ikkinchi kichik va o'rta guruhlarda ta'lim berishda birinchi kichik guruhda bo'lgani kabi ko'rgazmali va amaliy metodlardan: kuzatish, rasmlarni tomosha qilish va vidiofilmlarni namoyish qilish, o'yin metodlari va boshqalardan foydalaniladi. Ilk marta tajribalar bolalar tomonidan ayrim izlanish harakatlarini o'quv faoliyati metodlaridan biri sifatida egallanishi asosida o'rta yosh guruhlarida qo'llaniladi. Tarbiyachi ko'pincha hikoya qilib berish, bolalarbop kitoblarni o'qib berish kabi og'zaki metodlarga murojaat qiladi. Ilk marta suhbat o'tkazila boshlanadi.

Kuzatishning o'rta yosh guruhida fondalaniladigan asosiy turi - bu tanlab olish maqsadidagi kuzatishdir. Biroq vaqt - vaqt bilan uzoq muddatli kuzatish ham bo'lishi mumkin. Kuzatish chog'ida xilma - xil tekshiruv va izlanish harakatlaridan, bevosita idrok etish, tushuntirish asosidagi taqqoslashdan, shuningdek, topishmoq va xalq og'zaki ijodining boshqa janrlaridan foydalaniladi. O'rta guruhdagi kuzatishga rahbarlik qilishning asosiy usuli tarbiyachining savol berishidir. O'quv ko'nikmalarining etarlicha tarkib topmaganini, ixtiyoriy diqqatning beqarorligini hisobga olgan holda ayrim qiziqarli usullar (kutilmagandagi xushxabardan, topishmoqlar) dan foydalanish zarur.

Tajribalarni o'tkazish hodisalarining ayrim sabablarini aniqlash bilan ifodaladanidigan uncha katta bo'lмаган mazmun bilan cheklangandir (masalan, buyumning u yoki bu xususiyatining ayrim sifatlarning holatiga bog'liqligi: qumning yopishqoqligining uning namligiga bogliqligi va boshqalar).

Tarbiyachi mashg'ulotlarda xilma - xil metodlar tarkibida harakatlarni ko'rsatish usulidan ham foydalanadi. Biroq bu metod uncha tabaqalashmagan va pedagog uni ko'pincha og'zaki tushuntnrishlar bilan almashtiradi. Bunda bolalarga beriladigan savollar tabiatiga ko'ra rang - barang: ular faqat xususiyatlarni ajratib ko'rsatishga emas, balki umumlashmalar sabablarini aniqlashga ham yo'naltirilgandir.

Harakatlarii bahrash ham asta - sekin o'zgaradi: kichik guruhlarda qo'llaniladigan bolalar harakatlarini majburiy ma'qullashdan tarbiyachi topshiriqning bajarilish sifatini baholashga o'tadi (alohida imkoniyatlarni hisobga olgan holda). Bunda baholashning umumiy ijobiy tabiatи saqlanadi.

O'rta guruhdagi mashg'ulotlarda birinchi marta buyumlar yoki ayrim ob'ektlar va hodisalar xususiyatlari o'rtasidagi aloqalar ko'rgazmali tarzda aks etgan u yoki bu holat haqidagi tasavvurlarni tartibga solish maqsadida bilimlarni dastlabki tizimlash amalga oshiriladi. Kattalar mehnatining aniq turlari haqidagi tasavvurlar shu zaylda tizimlashtiriladi: u yoki bu buyumga bo'lган ehtiyoj va mehnatning maqsadi o'rtasidagi aloqa, mehnat harakatlarining izchilligi va ulzrning mehnat natijalari bilan aloqadorligi aniqlanadi va boshqalar. U yoki bu mavsum haqidagi bilimlar tizimlashtiriladi. Bunda jonsiz tabiat, o'simlik va hayvonlar hayotidagi u yoki bu mavsum uchun tegishli bo'lган yorqin hodisalarning vaqtida mos kelishi va boshqalar asos qilib olinadi. Bilimlarni tizimlashtirishda suhbatlardan (ko'rgazmali materiallarni qo'llangan holda), shuningdek, didaktik o'yinlardan foydalaniadi.

Ikkinchi kichik guruhda tabiat qo'yniga va maktabgacha ta`lim muassasasi binosi ichida maqsadli sayr va yurib tomosha qilishlar o'tkazila boshlaydi (maktabgacha ta`lim muassasasi xodimlari mehnati bilan tanishtirish maqsadida). O'rta yosh guruhlarida ekskursiya pedagog tomonidan mashg'ulotning bir turi sifatida muntazam tarzda qo'llaniladi.

Maktabgacha katta yoshdagи bolalarda bilish jarayonlarining ixtiyoriyligi ortgan bo'ladi (xotira, diqqat), asosiy aqliy ko'nikma va aqliy operatsiyalar (taqqoslash, tahlil, umumlashma, tafsiflash va boshqalar) tarkib topadi. Bo'larning barchasi ta`lim jarayonini ancha takomillashtirishga, uning vazifalarini kengaytirishga imkon beradi. Bu guruhda ham bolalarni kelgusida borliqni apglashtirishga o'rgatish, atrof - muhit, voqeа va narsalar haqidagi tasavvurlarni hosil qilish (tabiat, kishilar mehnati, ijtimoiy hodisalar haqidagi) ta`limning asosiy vazifalaridan biri bo'lib qoladi. Bu yoshda bilish jarayonlarining yanada takomillashtirish vazifalari hal etiladi: ya`ni, tahlilning, taqqoslashning maqsadga yo'nalanligi, birmuncha kengroq umumlashmalar qilish va hokazo. Bolalarda o'quv faoliyatining asosiy tarkibiy qismlari shakllanadi: vazifani qabul qila olish, zarurat bo'lganda esa uni qo'ya olish ko'nikmasi, harakat usulini tanlay olish va undan foydalana olish, mazmunan adekvat materiallar va vazifalar, harakatlar izchilligini elementar tarzda rejalashtirish. Topshiriqning bajarilish natijalarini baholash (o'zinng va boshqa bolalarning) hamda uning bajarilishining borishini baholash ko'nikmalari ham shakllantiriladi. Tarbiyachining nutqiga quloq solib tinglay olish, uning ko'rsatmalariga ko'ra harakat qila olish, nutqda o'z bilish faoliyatni natijalarini bog'lanishli ifodalay olish malakalari takomillashtiriladi. Umumiy ko'nikmalarni o'zlashtirish asosida o'quv faoliyatining elementar maxsus turlari ham shakllanadi: kuzatish, tinglash va nutqiy bayon qilish, hisob - kitob qilish (B. G. Ananев). Bilishga oid qiziqishni o'quv faoliyatining asosiy sababi sifatida tarbiyalash katta mak-tabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga beriladigan ta`limning eng muhim vazifasi hisoblanadi.

Maktabgacha ta`lim muassasalaridagi katta guruhlarda olib boriladigan mashg'ulotlardagi ta`lim o'qitish ishining asosiy vositasiga aylanadi va «Uchinchi mingyillikning bolasi dasturi» ning barcha bo'limlari bo'yicha amalga oshiriladi. Mashg'ulotlarning davomiyligi 25 - 30 daqiqagacha cho'ziladi. Tabiat qo'yniga qilinadigan maqsadli sayrlar keng qo'llaniladi. Ijtimoiy hodisalar, tabiat bilap tanishtiruvchi yurib tomosha qilish muntazam o'shaziladi.

Barcha yosh guruhlardagi ta`lim sur`atidan u yoki bu darajada ortda qolayotgan bolalar bilai muntazam ravishda alohida tarzda ta`limiy ish olib boriladi. SHu bilan birga bolalarning mustaqil o'quv - ijodiy faoliyati (tasviriy, nutqiy, mehnat faoliyati) uchun zarur sharoit yaratiladi.

Katta guruhlarda beriladigai ta`lim mazmuni murakkablashib boradi. Narsalar va borliqdagi hayot hodisalari haqidagi bilimlar umumlashganlikning turli hajmdagi elementar tizimi va turli darajasi sifatida shakllanadi. Bu tizimlarning asosini u yoki bu faoliyat sohasi uchun tegishli bo'lgan muhim aloqalar tashkil etadi.

Bolalarning matematik tasavvurlari mazmuni ham murakkablashib boradi. Nutqqa o'rgatish bilimlarni shakllantirish jarayoni bilan yaxlitlikda olib boriladi. Bog'lanishli nutq rivojlanadi, savod chiqarish uchun zamin bo'ladigan fonematik idrok o'zlashtiriladi, bolalar ona tilining ifodali vositalarini o'zlashtiradilar.

Turli ko'rinishlardagi badiiy faoliyatlarga o'rgatish borliqni obrazli tarzda ko'rish, uni badiiy faoliyatda bera olishga oid ko'nikma va malakalarni (rasm chizish, yopishtirish, ashula aytish, harakatlar qilish, ifodali nutq va boshqalar) rivojlantirishni ko'zda tutadi. Bolalar muayyan badiiy faoliyat vositalari ko'rinishi uchun tipik bo'lgan kompozitsiya asoslarini egallaydilar. Bo'larning barchasi bolalar ijodining rivojlanishini ta'minlaydi.

Harakatlarga o'rgatuvchi o'qitishning asosiy mazmuni harakat ko'nikmalari va (tezkorlik - kuch, muvofiqlashtiruvchi) qobiliyatlarini takomillashtirishga qaratilgandir.

Ta`lim mazmunining ko'p qirraliligi ko'rgazmali, amaliy va og'zaki metodlar tizimidan foydalanishni talab qiladi.

Bunda kuzatish asosiy ko'rgazmali metod sifatida o'z mavqeini saqlab qoladi. Lavha tarzida kuzatishlar qatorida uzoq muddatli kuzatishlardan ham foydalaniladi. Bolalarning kuzatish jarayonidagi mustaqilligi, rejalligi oshadi. Tarbiyachi ko'pincha bolalar oldiga savol - topshiriq ko'rinishidagi yaxlit kuzatish vazifasini qo'yadi. Turli ko'rinishdagi taqqoslash (xotiradan, rasmlı material yordamida va hokazo) lardan hamda izlanish harakatlaridan foydalaniladi.

Tasavvurlarni kengaytirish o'quv ekranini yordamida ham amalga oshiriladi. Bunda bolalarda bilishga oid idrok malakalari shakllanadi.

Aloqalarni o'zlashtirish modellashtirish va elementar tajribalarni talab qiladi. Bu metodlarga shu katta yoshdagi bolalarni o'qitishda ancha e'tibor berilgan.

Ko'rsatib o'tilgan metodlar yordamida tasavvurlarni to'plash va aloqalarni o'zlashtirish qatorida bilimlarni tizimga solish amalga oshiriladi (tasavvurlarni maqsadga muvofiq asosida). Biroq bu vazifa asosan suxbat jarayonida hal etiladi.

Umumlashtiruvchi suhbatning tuzilishi o'z tarkibiga buyumlar va hodisalar haqidagi qayta tiklashga qaratilga.n vazifalarni umumiylar tarzda qo'yishni, ushbu

hodisalarni birlashtirib turuvchi muhim aloqalarni izlash va aniqlashki, bu aloqalarning mavjud hodisalarda namoyon bo'lishini, umumlashtiruvchi mushohadani, so'ng esa aloqa va xususiyatlarni qo'shimcha tarzda ularga o'xshash hamda turdosh ob`ektlardan topish («tushuncha holiga olib kelish» yoki mushohada hajmini kengaytirish) ni oladi. Ushbu aniq vazifalarpi amalga oshirish quyidagi xilma - xil usullardan foydalanish bilan bog'liq: tasdiqlovchi va izlanish tabiatidagi savollar, taqqoslash, umumlashtirishga oid topshiriq va hokazo.

SHunday qilib, maktabgacha katta yoshdag'i bolalar ta`limi metodlarining o'ziga xos xususiyati ularda bolalarning yuksak aqliy faolligini va shu bilan birga o'quv faoliyatining asosiy tarkiblarining shakllanishini ta`minlovchi izlanish tabiatidagi usullarning mavjudligidadir.

Maktabgacha ta`lim muassasasisidagi katta maktabgacha tarbiya yoshlilar guruhida bolalarga beriladigan ta`lim mazmunining o'ziga xosligi mashg'ulotlar tizimidan foydalanishni talab qiladi. Unda har bir mashg'ulot bilim va ko'nikmalarni shakllantirishda muayyan mavqega ega bo'ladi.

Bolalarning bilimlarni o'zlashtirish jarayonidagi faol tutgan o'rni bilishga qiziqishni o'quv faoliyatining sababi sifatida shakllanishing shartidir. Bolalarning bu faol tutgan o'rni maktabgacha katta yoshdag'i bolalarni elementar izlanish faoliyatiga o'rgatish juda to'laqoyali darajada ta`minlanadi. U tabiatshunoslik bilimlari, ijtimoiy hodisalar haqidagi bilimlar kabi juda xilma - xil mazmunni o'zlashtirish jarayonida tashkil etiladi.

Izlanish faoliyati o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- a) tasavvurlarni oldindan to'plash (u yoki bu sohada);
- b) tasavvurlarni tahlil qilish, sabab va aloqalarni aniqlash maqsadida vazifalarни qo'yish (qabul qilish);
- v) muayyan hodisaning sabablari haqidagi taxminlarni ilgari surish va muhokama qilish;
- g) ilgari surilgan taxminlarni tekshirish;
- d) yakuniy muhokama.

Izlanish faoliyati bosqichlarining har biri tegishli metodni talab etadi.

Tasavvurlarni to'plash xilma - xil ko'rgazmali metodlardan foydalanish (kuzatish, o'quv ekrani, shuningdek, tarbiyachining hikoyasi, o'qib berishi, tahliliy suhbatlaridan) bilan amalga oshiriladi. Suhbat chog'ida esa taxminlar ham ilgari suriladi. Ularning bir qismi suhbat davomida tekshirib ko'rishi, qabul qilinishi yoki rad etilishi mumkin, boshqa taxminlarni tekshirish esa tajriba o'tkazish, modellashtirish yoki qo'shimcha qiyosiy kuzatish jarayonida amalga oshiriladi. YAKUNIY mulohaza yakuniy suhbat chog'ida chiqariladi.

Izlanish faoliyatshsh metodlar tizimidan foydalanish asosiga quriladi. Bolalarni tashkil etish shakli (butun guruhning yoki bolalarning kichik guruhining) bilimlar mazmuniga bog'liq bo'ladi.

Demak, maktabgacha ta`lim muassasasisidagi ta`lim bolalarning bilimlar, ko'nikma va malakalarni o'zlashtarishini, aqliy qobiliyatlarini rivojlanishini ta`minlash asnosida bola faoliyati barcha turlarining rivojlanishiga, shaxsning umuman tarkib topishiga ta'sir ko'rsatar ekan. O'qitish bolani maktabga tayyorlashning hal qiluvchi omili hisoblanadi.

7.3. Ertalabki vaqt bo'lagi va sayrni rejorashtirish

Sayr - tomoshaga mashg'ulotning o'ziga xos turi sifatida qarash mumkin. Mashg'ulotlarda bo'lgani kabi sayr - tomoshada ham dastur mazmunida aniqlashtiriladigan ta`limiy rivojlantiruvchi va tarbiyaviy vazifalar qo'yiladi hamda hal etiladi. Mashg'ulotlarda bo'lgani kabi sayr - tomoshada barcha yosh guruhidagi bolalar ishtirok etadilar. Biroq sayr - tomoshani tashkil etishning o'ziga xos xususiyati, bolalar faoliyatining mazmuni, shuningdek, uning ta`limiy ish tizimidagi o'rni, sayr - tomoshani maktabgacha ta`lim muassasasisida ta`limni tashkil etishning o'ziga xos yalpi shakli sifatida qarab chiqishga ehtiyoj uyg'otadi (E. I. Tixeeva).

Sayr - tomosha bolalar bilan olib boriladigan ta`limiy ishning tashkiliy shakli sifatida paydo bo'lgan va maktablarda tabiiy fanlarni o'rganishda (jug'rofiya, botanika, zoologiya, keyinroq tabiatshunoslikni) keng qo'llanilib kelingan. Biroq bolalarning sayr - tomoshadagi bilish faoliyati tabiat hayotiy hodisalarni bevosita idrok etishi, kuzatishi maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar uchun ham xosligi isbotlandi. Sayr - tomoshada turli umumlashganlik darajasidagi tasavvurlar shaklida shakllantiriladigan buyumlar maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar bilan olib boriladigan ta`limiy ishlar dasturi talablariga javob beradi. Bo'larning barchasi sayr - tomoshani bolalar maktabgacha ta`lim muassasasisidagi tashkil etiladigan ta`limning muhim shakliga aylangirgan. Sayr - tomoshadan bolalarni tabiat bilan tanishtirishda keng foydalaniladi. U yilning turli mavsumida o'rmonda istirohat bog'ida, o'tloqda, suv havzasida o'tkaziladi. Sayr - tomosha bolalarni kattalarning xilma - xil mehnati, ularning mehnat natijalari bnlan tanishtirish, arzirli ijtimoiy voqeя va hodisalar bilan tanishtirish uchun ham uyuştiriladi. Sayr-tomoshalarning muhim ahamiyati shundan iboratki, ular bolalarda atrof-muhitdagi hayot haqida aniq tasavvur va taassurotlarning shakllanishini ta`minlaydi. SHunga muvofiq sayr - tomoshada foydalaniladigan asosiy metod kuzatish hisoblanadi, sayr - tomosha davomida unga bir kecha marta ehtiyoj tug'iladi. YAlpi kuzatish sayr tomoshaning asosiy tuzilish qismini tashkil etadi. Sayr - tomosha maqsadi va aniq mazmunga qarab tabiiy narsalarni yig'ish va mustaqil kuzatishga vaqt ajratiladi. Unga kuzatiladigan ob`ektlarning sifati haqidagi tasavvurlarni aniqlashga yoki mustahkamlashga yordam beradigan o'yin mashqlari ham kiritiladi. Sayr - tomosha davomida tarbiyachn izohlar beradi, ba`zan esa, bolalarga kuzatilayotgan narsalar haqida hikoya qilib ham beradi. Bolalarni kattalar mehnati bilan tanishtirilayotganda ular bilan odatda, mehnati kuzatilayotgan xodim suhbatlashadi. Agar imkoniyat ko'tarsa, sayr-tomosha paytida bolalarni ozgina muddat bo'lsa ham kattalar mehnati bilan shug'ullantirish (mollarga ovqat berish, narsalarni tashish va hokazo) foydadan holi bo'lmaydi.

Sayr - tomoshaga bolalarga beriladigan xilma - xil topshiriqlarning kiritilishi, u yoki bu metodlardan foydalanish asosiy vazifa - kuzatiladigan ob`ektlar haqidagi yorqin ko'tarinki va tiniq tasavvurlarni ta`minlash talabiga javob berishi lozim.

Sayr - tomoshada asosiy ob`ektlarni idrok etish bolalardan diqqatlilikni, uyushgan xulk - atvorni talab qiladi. Zotan bolalar rang - barang ob`ekt va xodisalar, ba`zan tanishtirish uchun rejorashtirilmagan narsalarga duch keladilar.

Bo'larning barchasi sayr - tomosha o'tkazishda muayyan qiyinchiliklar tug'diradi va tarbiyachidan uni o'tkazishga puxta tayyorgarlik ko'rishni talab qiladi.

Sayr - tomoshani o'tkazish uchun odatdagi mashg'ulotdan keng ko'lamli ta`limiy vazifa tanlab olinadi, u kuzatuvchanlikni, qiziqishni, ijobiy munosabatni rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi mazmunga ega bo'lishi mumkin va hokazo.

Ta`limiy vazifalarning aniq mazmuniga qarab sayr - tomosha yo'nalishi, tuzilishi ishlab chiqiladi, metodlari belgilanadi. Sayr - tomosha o'rnini belgilayotganda uning bolalar muassasasida uzoq - yaqinligini ham hisobga olinishi kerak. Sayr - tomosha joyiga olib boradigan yo'l toliqtiradigan bo'lmasligi lozim.

Sayr - tomoshaga tayyorgarlik ko'rishda bolalar to'plashi mumkin bo'lgan narsalar belgilanadi, materialni tashib yurish uchun ham, uni keyin joylashtirish uchun ham tegishli anjomlar hozirlanadi.

Bolalarning sayr - tomoshaga qiziqishini uyg'otish maqsadida oldindan xabar qilinadi. Bolalar bilan suhbatlashish chog'ida bo'lajak sayr - tomoshaning maqsadi yoritiladi, uning taxminiy mazmuni («nimalarni ko'rishimiz mumkin») muhokama etiladi. Bolalar kerakli anjomlarni tayyorlashga jalb etiladi. Sayr - tomoshadan sal oldin qisqacha suhbat o'tkazilib, unda bolalarning kuzatilajak ob`ektlar haqidagi tasavvurlari jonlantiriladi, maqsad aniqlanadi, anjomlar taqsimlanadi. Bolalarga sayr - tomoshada o'zni tutish qoidalari aytildi yoki eslatiladi.

Sayr - tomoshaning borishiga aniq rahbarlik qilish uni o'tkazish jarayonida foydalilaniladigan metodlar bilan bog'liqdir. Bunda bolalarni uyushtirish alohida e'tiborni talab qidadi. Tarbiyachi har gal kuzatish o'tkazar ekan, kuzatish ob`ektni bolalarga barobar ko'rindigan qilib joylashtiradi. Tarbiyachi tomonidan xilma - xil usullarning qo'llanilishi aqliy faollik uyg'otadi va kuzatishga qiziqishni oshiradi. Bolalarga alohida - alohda topshiriqlar ham beriladi. Ob`ektlarni turli sharoitlarda ko'p martalab idrok qilish, topshiriqlarni uncha katta bo'limgai hajmdagi mazmunda almashlab turish sayr- tomoshaning muvaffaqiyatini ta`minlaydi.

Sayr - tomoshada olingan tasavvurlarni chuqurlashtirish va mustahkamlashga oid keyingi ishlar mashg'ulotlar tizimida va kundalik hayotda: tasviriy faoliyatda, qurish - yasashda, hikoya qilib berishda, bolalar mehnatida amalga oshiriladi. Mashg'ulot so'ngida yakuniy suhbat o'tkaziladi.

Sayr - tomosha o'qitishni tashkil etishning murakkab shakli sifatidagi tabiatni faqat o'rta va katta tarbiya yoshndagi guruhida qo'llanishni taqozo etadi. Kichik tarbiya yoshidagi bolalar bilan olib boriladigan o'ziga xos sayr- tomoshalar xona ichida va maktabgacha ta`lim muassasasi xududida o'tkaziladi. Ular tarbiyachi rahbarligida yalpi kuzatishdan iborat bo'ladi. Ularning davomiyligi va mazmuni juda qisqa bo'lishi lozim.

Tarbiyachi kun bo'yи o'qitishni bolalarni tashkil etishning xilma - xil shakllaridan foydalangan holda amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Sayr vaqtida tabiat hodisalarini, kattalar mehnatini bolalar bilan yalpi kuzatish o'tkaziladi. Vaqt - vaqt bnlan kunning ikkinchi yarmida tarbiyachi bolalarga ularga ma'lum, ular sevib qolgan adabiy asarlarni o'qib beradi. Kundalik hayotda bolalar bilan turli metodlardai foydalanim olib boriladigan ta`limiy ishlar barcha

hollarda uning asosiy shakli - mashg'ulot bilan uzviy bog'liqdir. Bunda ikki vazifa hal etiladi: keyinroq mashg'ulotlarda qo'llaniladigan tasavvurlar yoki harakat tajribasining oldindan to'plalishi yoki ko'nikma va malakalarni ishlab chiqish, mashg'ulotlarda oliigan tasavvurlarni mustahkamlash.

Shu maqsadlarda kundalik pedagogik jarayonda o'qitishning bolalarning uncha katta bo'lмаган miqdorini qamrab oluvchi guruhli shakli qo'llaniladi. Bunda avtodidaktik o'yinlardan ko'proq foydalaniladi (aqliy ko'nikma va malakalarni ishlab chiqish, bilimlarni mustahkamlash va aniqlashtirish uchun). O'qitishning guruhli shaklida o'sha bolalar yoki boshqalari bilan xilma - xil alohida - alohida mashqlar olib boriladi. O'qitishning alohida va guruhlash shakllaridan foydalanish uning tabaqalanishini bolalar o'quv - bilish faoliyati rivojlanishining darajasini birmuncha aniqroq hisobga olishni va ularning mashg'ulotlardagi o'qitish jarayoniga faol kirishishini ta'minlaydi.

Ta'lim shakllaridan biri didaktik o'yin hisoblanadi. U avvalo kundalik hayotda bilimlar, ko'nikma va malakalarni mustahkamlash uchun ham, yangi mazmunini o'zlashtirish chog'ida ham foydalaniladi. Biroq qator hollarda ayniqsa, maktabgacha ilk va maktabgacha kichik yoshdag'i guruhlarda mashg'ulotlar didaktik o'yin shaklini kasb etadi.

Muloqot 5 - 7 yoshli bolalar hayotida katta o'r'in egallaydi; bolaning kayfiyati, faolligi va faoliyati uning tengqurlari bilan muloqotdagi ehtiyojlari qanday qondirilishiga bog'liq bo'ladi. maktabgacha katta yoshdag'i bolalar uchun muloqotning kengligi, tashabbuskorlik, muloqotning ishga va shaxsga oid tabiat xosdir. Ammo shu bilan birga nizolar ham bo'lib turadi. Tarbiyachi har bir bola jamoani tarkib toptirish vositalaridan biri bo'lgan muloqot madaniyatini egallab olishi uchun bolalarning o'zaro munosabatlariga rahbarlik qilishi kerak.

Bolalarning guruhdagi faoliyatining jamoa shaklida faoliyatiga aloqador hayotlarini tashkil etish muloqotning har xil ko'rinishlari ish va shaxsga oid shakllarini rivojlantirishga yordam beradi. Bolalar suhabatga kirishadilar, taassurot va fikr almashadilar, rollarni taqsimlashni, o'yin mazmunini, ishlarini muhokama qiladilar va shu kabilar. Bolalarning katta yoshlilar bilan muloqotlari xilma - xildir.

Katta maktabgacha tarbiya yoshidagilarnnng tarbiyaviy vazifalari quyidagi xulq madaniyatini: katta yoshlilar va tengqurlar bilan osoyishta va xolisona muloqotda bo'lish, nizoli vaziyatlarda o'zini to'g'ri tutish madaniyatini shakllantirishni birinchi navbatda ilgari suradi. Tarbiyachi muloqot madaniyatini shakllantirishda etakchi o'rinni egallaydi. U bolalarni muloqot qoidalari va xushmuomala muloqot qilish usullari bilan tanishtiradi.

Ertalab va kechki paytlarda bolalarning muloqotda bo'lishi uchun eng qulay sharoitlar yaratiladi. Tarbiyachi avvalo yolg'iz o'ynayotgan bolalarga murojaat kiladi va ularga nima qilish va nima deyish kerakligini aytib, birlashishni taklif etadi: «Olyani oldiga borganda, uni o'zing bilan «maktab-maktab» o'ynashga taklif et, unga o'yinchoqlarni qaerdan olishni ayt».

Pedagog o'z guruhidagi bolalarning o'zaro munosabatlarini hisobga olib, muloqotga oson kirishadigan faol bolalar ham, uyatchan bolalar ham o'zlarini yaxshi his qiladigan bolalar jamoasini tashkil etadi. Masalan, u uyatchan va

tortinchoq bolalarga ularni tengqurlari va katta yoshlilarga ko'proq murojaat qilishga undab, so'rash, tushuntiring, o'z kuzatishlarini gapirib berish qabilidagi topshiriqlarni beradi. Muloqotga rahbarlik qilishda tarbiyachi bolalarning faqat ularni o'zlarigagina xos bo'lgan xususiyatlarini ham hisobga oladi. Muloqot madaniyatini tarbiyalashning muhim vositasi katta va kichik guruh bolalari faoliyatining jamoa shakllarini tashkil etilishidir.

Katta va tayyorlov guruh bolalarining turmushini tashkil etish barqaror tabiatga egadir. U turli bayram ertaliklari, sayr - tomoshalar va yozda turistik safarlarni o'tkazishda qismangina o'zgaradi.

Kunning ikkinchi yarmini rejalashtirish. Kechki mashg'ulotlar faqat ilk yosh guruxlar bilan o'tkaziladi. Ularni didaktik o'yinlar shaklida o'tkazishni ko'proq rejalashtirish kerak. Mazmun, odatda, bilim va ko'nikmalarni mustahkamlash maqsadida takror beriladi.

Kunning ikkinchi yarmidagi rejaning asosiy mazmuni turli o'yinlar, bolalar mehnati va mustaqil badiiy faoliyatlariga rahbarlikdir. Bu ish, odatda, kichik yosh guruhlari bilan yoki yakka tartibdagi ish tarzida rejalashtiriladi. Faoliyatga rahbarlik vazifalari, uyushtirish shakllari, ayrim usullar ko'rsatiladi.

Kunning ikkinchi yarmida vaqt - vaqt bilan ko'ngilochar o'yinlar, bolalarning tug'ilgan kunlari, o'yin - dramalashtirishlarni o'tkazish va qo'g'irchoq teatrini qo'yish va ko'rish, shuningdek, qo'l mehnati, kitoblarni elimlash, o'yinchoqlar yasash rejalashtiriladi.

Nazorat savollar:

1. Mashg'ulot jarayoni va unga qo'yiladigan talablarni siz qanday izohlaysiz?
2. Ta`limning o'ziga xos xususiyatlarini tushuntiring.
3. Guruxlar bo'yicha ertalabki vaqt bo'lagini rejalashtirishga qaysi jarayonlar asos qilib olinadi va ularni izohlab bering.
4. Sayrni rejalashtirishga qaysi jarayonlar asos qilib olinadi va bo'lar qaysila?

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent 1992 y
2. Ta`lim to'g'risidagi qonun. Toshkent 1997 y.
3. Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi. Toshkent. 1997 y.
4. O.U.Xasanboeva, M.X. Tadjieva, Sh.K.Tashpulatova va boshqalar "Maktabgacha ta`lim pedagogikasi" "Ilm Ziyo". T.: 2006 y.
5. B.Ziyomuhamedov, Sh.Abdullaeva "Pedagogika" "O'zbekiston Milliy entsiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti". T.: 2000 y.
6. Maktabgacha ta`lim muassasasi to'g'risidagi Nizom. Toshkent 2007 y.
7. Maktabgacha yoshdagи bolalar ta`lim-tarbiyasiga qo'yiladigan davlat talablari. Toshkent 2008 y.
8. J.G'. Yo'ldoshev. Ta`lim yangilanish yo'lida. Toshkent "O'qituvchi" 2000y.
9. R. Mavlonova "Pedagogik texnologiya" Toshkent "Fan" 2009 y.

- 10.R. Ishmuxamedov “Ta`limda innovatsion texnologiyalar”. Toshkent “Iste`dod”. 2008 y
- 11.A. I.Vasileva, L.A. Baxturina, I.I.Kobitina “Bolalar bog’chasining katta tarbiyachisi” T.: “O’qituvchi”1991 y.
- 12.Maktabgacha ta`lim kontseptsiyasi. Toshkent 2008 y.
- 13.“Uchinchi mingyillikning bolasi” Dasturi. Toshkent 1999 y.

VIII BOB. Maktabgacha ta`lim muassasasi tarbiyachilariga bir kunlik ish rejasini tuzish bo'yicha ko'rsatmalar (amaliy)

Reja:

1. Maktabgacha ta`lim muassasasining bir kunlik ish rejasini tuzish.
2. Maktabgacha ta`lim muassasasi mudiri, uslubchisi va gurux tarbiyachisining ish xujjatlarini o'rganish.

Mustaqil ish. Guruxning bir kunlik ta`lim - tarbiyaviy ish rejasini mustaqil tuzish.

Mavzuning maqsadi: YOsh guruxlar bo'yicha ta`lim - tarbiyaviy ish rejasini mustaqil tuzishga o'rgatish.

Mavzuning vazifalari: Maktabgacha ta`lim muassasasi mudiri, uslubchisi va gurux tarbiyachisining ish xujjatlarini o'rganish.

8.1. Maktabgacha ta`lim muassasasining bir kunlik ish rejasini tuzish.

Quyidagi talablar asosida gurux tarbiyachisining bir kunlik ish rejasini tuzing.

Turli yoshdagi bolalar guruxidagi ish rejasi umumiy talab va chizma bo'yicha tashkil qilinadi. Ammo uning turli yoshdagi bolalarni birgalikda tarbiyalash xususiyatlaridan kelib chiquvchi ayrim o'ziga xosliklari bor. Bolalar faoliyatining har xil turlarini tashkil etish alohida e'tiborni talab qiladi, chunki bolalarning yosh imkoniyatlari aynan faoliyatda yorqin namoyon bo'ladi: turli yoshdagi bolalar turli bilim hajmiga, zarur ko'nikma, malakalarga egadirlar, ularning mustaqillik va uyushganlik, ishlash qobiliyatları, chidamliliklari va shu kabilar turlichadir. Bolalarning bu xususiyatlari kundalik hayotini qaror toptirishda hisobga olinadi. Ular bolalar faoliyatining mazmuni, tashkil etish shakllari, bolalar bilan bo'ladigan barcha tarbiyaviy ishlarni tashkil etish shakllarini belgilaydi. Turli yosh guruhlarda ta`lim - tarbiyaviy ishning xil shakllari: yalpisiga kichik guruxlar bilan (yoshlarga oid) va yakka tartibdagi shakllardan foydalaniadi.

Ish yalpisiga tashkil etilganda faoliyatning barcha uchun yagona bo'lgan tur aniqlanadi, ammo uning aniq mazmuni, bolalarga tushadigan yuklama, raxbarlik usullari yosh guruxlariga tatbiqan tabaqlananadi. Bunda turli yoshdagi bolalarning o'zaro munosabatlariga katta e'tibor beriladi.

Ish kichik guruhlari bilan tashkil etilganda guruxlar turli yoshdagi yoki bir xil yoshdagi bolalardan tuzilishi mumkin. Birinchi holatda bolalar faoliyatiga ishni yalpisiga tashkil etishga qo'yiladigan talablar bilan bir xil talablar qo'yiladi. Ikkinci holatda bolalarning faoliyatları yagona mazmunda tashkil etiladi va unga rahbarlik umumiy talablardan kelib chiqadi.

Yakka tartibdagi ish yoshidan qat'iy nazar tashkil etiladi. Uning mazmuni, metodi va usullari bolalarning o'ziga xos xususiyatlari, ularning bilim, malaka va ko'nikmalarni egallash darajalaridan kelib chiqib aniqlanadi.

Bolalar faoliyatini tashkil etishning xilma - xil shakllaridan foydalanish tarbiyaviy ishda bolalarning yosh imkoniyatlari va xususiyatlarini to'liqroq xisobga olishni, ularni tarbiyalash va rivojlantirishni qulaylashtirishni ta`minlaydi.

Turli yosh guruxlaridagi ishning kalender rejasи bolalar bilan vaqtning asosiy bo'laklarida olib boriladigan ta`lim - tarbiyaviy ish mazmuni, shakl va metodlarini qamrab oladi.

Ertalab. Ertalabki gimnastika rejallashtiriladi (10 - 12 kunga bir marta). Muayyan sharoitlarga ko'ra u har bir yosh guruhiga yoki barcha bolalar bilan bir xil bo'lishi nazarda to'tiladi. Birinchi holatda har bir kichik yosh guruhi uchun alohida mashqlar majmui tuziladi. Ikkinci holatda mashqlar majmui umumiyl bo'lishi mumkin, ammo ayrim mashqlarni har bir yosh guruhida takrorlash miqdori aytib o'tiladi. Kichkintoylar uchun mashqlar ro'yxati ham qisqartirilishi mumkin. Bundan tashqari, katta bolalar uchun mashqlarni murakkablashtirish va yuklamani oshirish maqsadlarida gimnastika tayoqchalari, obruch, jismoniy tarbiya jihozlaridan foydalanish nazarda to'tiladi.

Ertalabki vaqt bo'lagida bolalar bilan yakka tartibda bo'ladigan, shuningdek bir yoshdagи kichik guruhdagi bolalar bilan ishslash (dasto'rning turli bo'limlari bo'yicha: nutqni o'stirish, matematik tasavvurlarni shakllantirish va boshqalar) rejallashtiriladi. Ertalab tabiat burchagida yashovchilarni yakka tartibda va kichik guruxlar bo'lib kuzatish o'tkaziladi. Navbatchilar ishiga (katta bolalar) rahbarligi rejallashtiriladi. Ayni shu bilan birga katta bolalarga yordam berish yoki ularning mexnatini kuzatishga kichkintoylardan qaysi birini jalb qilish ko'rsatiladi. Xo'jalik - turmush ishlari ham xuddi shunday tashkil etiladi.

Ertalab bolalarga didaktik o'yinlarni taklif etish mumkin. Tarbiyachi rejada bolalarni u yoki bu o'yinlarga jalb qilish usullarini, o'yinlarni boyitish usullarini ko'rsatadi (kichkintoylar uchun didaktik o'yinchoqlar bilan o'ynashning yangi usullarini ko'rsatish, katta yoshdagи bolalarni stol - bosma o'yinning yangi turi bilan tanishtirish va shu kabilar).

Mashg'ulotlarni rejallashtirish. Rejada mashg'ulotni o'tkazish shakli ko'rsatiladi. YAlpisiga shaklidan dasto'rning ayni bir bo'limidagi mashg'ulotlarni rejallashtirishda foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bunda dastur mazmuni yosh guruhlari asosida tabaqalashtiriladi. Agarda mashg'ulot boshi yoki yakunida kichik bolalar ishtirok etmasalar, bu rejada ko'rsatib o'tiladi (masalan, rasm tahliliga faqat katta bolalar jalb qilinadi). U yoki bu kichik guruhlarga nisbatan qo'llaniladigan asosiy metod va usullar ko'rsatib o'tiladi. Masalan, jonivorlarni kuzatishda tadqiqot-chilik harakatlariga ko'proq kichik bolalar jalb qilinadi, kattaroq bolalar uni ko'rib ancha tushunadigan bo'lib kolgan bo'ladilar. Kichkintoylarga idrokni aniqlashtirishga kattalariga qiyoslash va umumlashtirishga, yo'llangan savollar beriladi. Rejada mashg'ulotlarning turlicha davomiyligi nazarda to'tiladi; Katta yoshdagи bolalar uchun zaruriyat bo'lsa, beriladigan ish oldindan nazarda to'tiladi (masalan, suxbat oldidan kuzatish yoki tasviriy faoliyat oldidan).

Alovida kichik guruhlarga o'tkaziladigan mashg'ulotlar odatdagidek rejallashtiriladi. SHuningdek, topshiriqlar izchilligi va mashg'ulotlarni yakunlash ko'rsatib o'tilishi kerak.

Sayrlarni rejalashtirish. Odatda, sayrlarda tabiat va ijtimoiy hayot hodisalari kuzatiladi. Rejada ularning mazmuni va asosiy usullari qisqacha bayon kilinadi. Ko'pincha ular mazmuni tabaqalashtirilgan yalpi kuzatishlar tarzida rejalashtiriladi. Ayrim kichik yosh guruhlari bilan kuzatishlar qo'shimcha rejalashtirilishi mumkin. Bolalar mehnati ham shunday rejalashtiriladi. Masalan, uchastkani yig'ishtirib, tozalash, yalpisiga ko'chatlarni ekish, sug'orish, o'toq qilish esa kichik guruhlarning o'ziga mo'ljallanadi. Vaqtida tarbiyachi kichkintoylar bilan katta bolalar mehnatini kuzatishni rejalashtiradi.

Tarbiyachi harakatli o'yinlarni mavsumga, ob - havoga qarab, oldingi mashg'ulotlardan kelib chiqib tanlaydi va ish rejasiga kiritadi. Sayrlarning davomiyligi harakatli o'yinlarni turli yosh guruhlaridagi bolalar bilan alohida o'tkazish imkonini beradi, bu ularning harakatlarini rivojlantirishda muhimdir. Ammo ba'zan birgalikdagi harakatli o'yinlarni ham rejalashtirish kerak: ular bolalarmi birlashtirishga, do'stlik his - tuyg'ularini tarbiyalashga yordam beradi.

Rejada bolalarning mustaqil o'yinlari, ayniqsa tabiiy materiallar bilan o'ynaladigan o'yinlariga rahbarlik nazarda to'tiladi. Sayrlar vaqtida dasto'rning barcha bo'limlariga doir bolalar bilan yakka tartibda ishslash albatta rejalashtiriladi. Harakatlarni rivojlantirishga doir yakka tartibdagi ishga alohida e'tibor beriladi. Uni har kuni (turli bolalar bilan o'tkazish) nazarda to'tiladi.

Kunning ikkinchi yarmini rejalashtirish. Kechki mashg'ulotlar fakat kichkintoylar bilan o'tkaziladi. Ularni didaktik o'yynlar shaklida o'tkazishni ko'proq rejalashtirish kerak. Mazmun, odatda, bilim va ko'nikmalarni mustahkamlash maqsadida takror beriladi.

Kunning ikkinchi yarmidagi rejaning asosiy mazmuni turli o'yinlar, bolalar mehnati va mustaqil badiiy faoliyatlariga rahbarlikdir. Bu ish, odatda, kichik yosh guruhlari bilan yoki yakka tartibdagi ish tarzida rejalashtiriladi. Faoliyatga rahbarlik vazifalari, uyuştirish shakllari, ayrim usullar ko'rsatiladi.

Kunning ikkinchi yarmida vaqt - vaqt bilan ko'ngilochar o'yinlar, bolalarning tug'ilgan kunlari, o'yin - saxnalashtirishlarni o'tkazish va qo'g'irchoq teatrini qo'yish va ko'rish rejalashtiriladi.

8.2. Maktabgacha ta`lim muassasasi mudiri, uslubchisi va gurux tarbiyachisining ish xujjatlarini o'rganish.

Ta`lim to'g'risidagi qonun, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va maktabgacha ta`lim muassasalari to'g'risidagi qonun va maktabgacha soha bo'yicha qabul qilingan me'yoriy xujjatlarda maktabgacha ta`lim muassasalarida quyidagi asosiy ish xujjatlari bo'lishi lozim.

1. Maktabgacha ta`lim muassasasining yillik, oylik va xafthalik ish rejalarini.
2. Maktabgacha ta`lim muassasasining moliyaviy ish xujjati – smetasi.
3. Maktabgacha ta`lim muassasasining ustavi.
4. Kuzatish va tahlil daftari.
5. Tekshiruvchi shaxslar tomonidan tuzilgan AKT nusxasi.
6. Maktabgacha ta`lim muassasasining pedagogik va xizmat ko'rsatuvchi xodimlarining ish xujjatlari.

7. Bolalarning ish xujjatlari (tibbiy jildlar).
8. Mehnat shartnomasi.
9. Maktab, ota-onalar va jamoatchilik bilan xamkorlik ish rejalar.
10. Buyruqlar daftari.
11. Metodik ishlar va ularning bajarilganligini qayd etish daftari va boshqa ish xujjatlari.

O'qituvchi talabalarni maktabgacha ta`lim muassasasi mudirasi va uslubchisining ish xujjatlarini o'rgatish maqsadida eng namunali maktabgacha ta`lim muassasalarida laboratoriya mashg'ulotini o'tkazishi lozim.

Nazorat savollari:

1. Maktabgacha ta`lim muassasasi gurux tarbiyachisining bir kunlik ish rejasi nechta qismidan iborat.
2. Bir kunlik ish rejada qanday pedagogik jarayonlar o'rinni egallaydi?
3. Maktabgacha ta`lim muassasasining ish xujjatlarini izohlang.
4. Gurux tarbiyachisining ish xujjatlarini tushuntirib bering.

Adabiyotlar:

1. O.U.Xasanboeva, M.X. Tadjieva, Sh.K.Tashpulatova va boshqalar "Maktabgacha ta`lim pedagogikasi" "Ilm Ziyo". T.: 2006 y.
2. Sh.K.Tashpulatova "Maktabgacha ta`lim muassasalar ishini tashkil etish va boshqarish usullari" TDPU.T.: 2001 y.
3. Maktabgacha ta`lim muassasasi to'g'risidagi Nizom. Toshkent 2007 y.
4. Maktabgacha yoshdagi bolalar ta`lim-tarbiyasiga qo'yiladigan davlat talablari. Toshkent 2008 y.
5. A. I.Vasileva, L.A. Baxturina, I.I.Kobitina "Bolalar bog'chasingning katta tarbiyachisi" T.: "O'qituvchi" 1991 y.
6. Maktabgacha ta`lim kontseptsiyasi. Toshkent 2008 y.

IX BOB. Ta`lim - tarbiyaviy ishlarni uyuşdırish va nazorat qilish.

Reja:

1. Maktabgacha ta`lim muassasasi uslubchisining ta`lim - tarbiyaviy ishlarni tashkil etishga raxbarligi.
2. Pedagogik va ta`lim-tarbiya jarayonlarini rejalashtirishning maqsad va vazifalari.
3. Uslubchi tomonidan ta`lim - tarbiyaviy ishlarni nazorat qilish.
4. Ochiq mashg`ulot va tadbirlarni uyuşdırish.

Mavzuning maqsadi: Uslubchi tomonidan ta`lim - tarbiyaviy ishlarni nazorat qilish, ochiq tadbirlarni tashkil etish bo'yicha tushuncha berish.

Mavzuning maqsadi: Uslubchi tomonidan ta`lim - tarbiyaviy ishlarni nazorat qilish turlari, ochiq mashg`ulot va tadbirlarni amaliy tarzda tashkil etish bo'yicha ko'nikma va malakalarni shakllantirish.

9.1. Maktabgacha ta`lim muassasasi uslubchisining ta`lim - tarbiyaviy ishlarni tashkil etishga raxbarligi.

Respublikada ta`lim sohasida amalga oshirilayotgan o'zgarishlar, Ta`lim to'g'risidagi qonunva Kadrlar tayyorlash Milliy dasturining qabul qilinishi maktabgacha ta`lim muassasalar ishini tubdan yaxshilashni talab etadi. Ta`lim - tarbiyaviy ishni takomillashtirishning muhim yo'llaridan biri uslubchining ilg'or fan va amaliyot maktabgacha ta`lim muassasalar oldiga qo'yadigan dolzarb psixologik - pedagogik muammolarni bilishidir. Uslubchi yosh guruxlarida bolalarning hayoti va faoliyatları qanday uyuşdırılışını, ularni uyuşdırish xususiyatlari qandayligini bilishi zarur.

Bugungi davrda bolalarning mustahkam sog'lig'iga va bola shaxsining har tomonlama rivojlanganligiga asos solishi lozim bo'lgan maktabgacha ta`lim muassasa oldiga ko'yiladigan talablar ortib boradi. Keyingi yillarda maktabgacha ta`lim muassasaga qatnovchi bolalar salomatligining holati sezilarli. yaxshilandi. O'tkazilgan tadqiqotlar bolalarda kasallanishning yuqori bo'lishi ularning maktabgacha ta`lim muassasa sharoitlariga moslashish davrlariga to'g'ri kelishini ko'rsatdi. SHuning uchun uslubchining muhim vazifasi oila va maktabgacha ta`lim muassasining intilishlarini bolalarni, ayniqsa ilk yoshdagi bolalarni bolalar jamoasidagi hayot va faoliyat sharoitlariga moslashishlari uchun qulay sharoitni yaratishga yo'llashdan iborat bo'lishi kerak.

Uslubchi tarbiyachilarning guruxdagi bolalarning emotsional ijobiy tonusini yaratishga doir faoliyatlarini tahlil qiladi. Afsuski, bolaga iliqlik, e'tibor, muhabbat etishmaydigan oilalar uchrab turadi. Bunday bola bog'chada kamdan - kam quvonadi, ko'pincha ezilgan holatda bo'ladi. Ruhiy holatdagi bunday badastur emaslik to'rejab borar ekan, vaqt Kelib bola psixikasida va jismoniy sog'lig'idagi patologik o'zgarishlarga sabab bo'lishi mumkin. Bu guruxlarda bolalar hayoti va

faoliyatlarini ortiqcha chegaralash ham emotsional-ijobiy tonusning pasayishiga olib keladi. Bolalar jamoada, nisbatan guruxning kichik xonasida va uchastkada bo'lishdan charchaydilar. Bundan tashqari bolalarni ortiqcha chegaralash va ularga g'amxo'rlik qilish ham ularning mustaqilliklari, tashabbuslarining usishiga yordam bermaydi, bolalarda faol faoliyatga bo'lgan ehtiyojni pasaytiradi. Kun tartibida harakatli o'yinlar va jismoniy tarbiya mashg'ulotlari vaqtining anchagina oshirilishi bolalarning toliqishlarini sezilarli kamaytirib, ularning mehnat qobiliyatlarini oshirgan va shu orqali jismoniy rivojlannishlari uchun sharoitni yaxshilagan. Biroq buning o'zi kifoya qilmaydi, bolalar faollik, mustaqillik hamda tashabbusni ko'proq namoyon qiladigan, ularning erkin harakat qilishiga imkon beradigan xilma - xil faoliyatlarini uylab topish va ta`minlash zarur bo'ladi. Bu uning faol yaxshi kayfiyatini, quvnoqligini oshiradi, bolaning jismoniy va psixik salomatligida ijobji aks etadi.

Guruxlarda ta`lim - tarbiyaviy ishlarning tashkil etilishi va uni nazorat qilinishi bola shaxsini z;ar tomonlama va garmonik rivojlanishini ta`minlashga hamda tarbiyachilarga kasb mahoratlarini ta`lim - tarbiyaviy jarayonlarni pedagogik tahlil qilish asosida oshirishlariga aniq va amaliy yordam ko'rsatishga yo'l-langan.

Maktabgacha ta`lim muassasadagi metodik ish kompleks va ijodiy jarayon bo'lib, unda tarbiyachilarni bolalar bi-lan ishlashning aniq metod va usullariga amaliy o'rgatish amalga oshiriladi.

Maktabgacha ta`lim muassasadagi hamma tomonidan e'tiborga olingan an`anaviy ish shakli tarbiyachilarning guruxlardagi pedagogik faoliyatlarini kuzatish, tahlil qilish va baholashdir. Ishni tahlil qilishda uslubchi pedagoglar ishidagi kuchli va kuchsiz tomonlarni ko'rsatadi, mavjud kamchiliklarni bartaraf qilishning aniq tadbirlarini belgilaydi.

Guruxlardagi ta`lim - tarbiyaviy jarayonlarni kuzatishni uslubchi aniq belgilangan maqsadni ko'zlab amalga oshiradi. Masalan, bolalarda mustaqillikni tarbiyalash darajasini o'rganar ekan, kuzatishning taxminan quyidagi rejani belgilaydi: bolalarda mustaqillik malakalarini tarbiyalash uchun guruxdag'i sharoitlar qanday, ular nimalarda aniq ifodalanadi, ularning darajasi dastur talablariga muvofiq keladimi, bolalar pedagogga, enagaga qanday holatlarda, qanday yordam surab murojaat qiladilar, tarbiyachi va enaga bolalarning yordam haqidagi iltimoslariga qanday javob beradilar (yordam beradilar, bolaga ishni o'zi bajarishini taklif qiladilar, o'rtog'iga yordam so'rab murojaat kilishni tavsiya kiladilar), bolalar bir - birlariga yordam berish ishtiyoqini bildiradilarmi, tarbiyachi bolalarning individual xususiyatlarini, ularning temperamentlarini qanday hisobga oladi? Guruxdag'i mehnat faoliyatini o'rganish, kuzatish va tahlil qilish rejaga uslubchi quyidagi masalalarni kiritadi: mehnat turi va yoshlariga ko'ra bolalar qanday mehnat malakalarini egallaganlar, bu malakalarning darajasi va dastur talablariga muvofiqligi, mehnat topshiriqlarini bajarishda bolalar mustaqillik va tashabbuskorlikni namoyish qiladilarmi, bolalarning mehnat faoliyatiga munosabatlari qanday, salbiy munosabat sabablari, guruxda olib boriladigan tarbiyaviy ishda bolalarni kattalar mehnati bilan tanishtirish, ularda mehnatga, kattalar mehnati natijalariga hurmatni tarbiyalash qanday o'rirlarni egallaydi,

bolalar mehnati uchun zarur inventar bormi, ular qaerda va qanday saqlanadi, bolalar ulardan erkin foydalana oladilarmi? (Sayrlarni kuzatish va tahlil qilish uchun uslubchi quyidagi masalalarni nazarda tutishi mumkin: kun tartibiga ko'ra sayrga chiqish vaqt, uning davomiyligi, maydonchada bolalarning o'yin faoliyatiga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish uchun sharoitlar qanday, bolalar o'yinlarining tematikasi, syujeti va mazmuni, o'yinlarga rahbarlik qilish usullari, bolalarning maydonchadagi harakat faolliklarining yuqori darajasi ta`minlanganmi, ularning bilish faollikkari qondirilganmi, har bir bolaning mehnat faoliyati uchun sharoit yaratilganmi, sayr mazmuni yil fasli va ob - havo holatiga muvofiqmi?

Ko'pgina maktabgacha ta`lim muassasalarda metodik ishning eng yaxshi tarbiyachilarining o'z ishlari xaqidagi ijodiy hisobotlari kabi shaklidan muvaffaqiyatli foydalanilmoqda. Bunday hisobotlar tematikasi eng dolzarb hamda maktabgacha ta`lim muassasalar ish praktikasida hali etaricha hal etilmagan muammolar, masalan, ilk yoshdagi bolalarning maktabgacha ta`lim muassasasidagi hayot va tarbiyaning yangi sharoitlariga muvaffaqiyatli moslashuvlarini ta`minlash; bolalarni matabda o'qishga sotsial va maxsus tayyorlash; maktabgacha yoshdagi bolalarning axloqiy tarbiyalanganliklarini baholash mezoni va shu kabilarni qamrab oladi.

Tarbiyachi nazariy jihatdan qanchalik yaxshi tayyorlangan, shu sohadagi tadqiqotlar bilan tanish bo'lsa, u o'z ishini shunchalik chuqur tahlil qiladi, uning asosli xulosalar chiqarishi va tavsiyalar berish uchun etarli bo'lgan axboroti shunchalik ob`ektiv bo'ladi. Uslubchi tomonidan tajribasi o'rganilayotgan tarbiyachiga yordam tarzida pedagogik o'z ish tizimini pedagogika fani nuqtai nazaridan o'rganishga yo'llovchi xotiranomalar tuziladi, o'rganilishi shart bo'lgan asosiy adabiyotlar ruyxati tavsiya qilinadi. Amaliyot tarbiyachining o'z faoliyatini o'rganish unga aqliy hamda ma`naviy kamol topishda, pedagoglik faoliyatining sayqal topishiga yordam beradi. Bu o'rinda pedagogning bolalarga ta`lim va tarbiya berishning eng samarali shakllarini ularning psixologik - fiziologik xususiyatlarini hisobga olib tanlay bilishiga, bolalarning mustaqillik darajalariga, pedagogning ayrim bola, beradigan yordami xarakteriga alohida e'tibor qiladi.

Masala tayyor bo'lganiqan so'ng tarbiyachi, uslubchi yoki maktabgacha ta`lim muassasasining mudiri tajribaning mohiyati, tarbiyachi qo'llayotgan ish metod va usullarining pedagogik qimmati haqida og'zaki axborot beradi, ularning ishning boshqa metodlariga nisbatan afzalliklarini tushuntiradi, tarbiyachi o'z ishida duch keladigan, hal etilmagan masalalar, qiyinchiliklarni sanab o'tadi. Ilg'or pedagogik tajribani o'rganishning keyingi bosqichi uning afzalliklarini amalda ko'rsatishdir. SHundan so'ng amaliy tavsiyalar, xotiranomalarga ishlov beriladi. Joriy qilish faqat ilg'or tajribani bilishnigina emas, balki yangicha ishlay bilishni xam talab qiladi, bu esa o'zidan-o'zi bo'lmaydi, tarbiyachilarga pedagogik texnologiyani o'rgatish lozim. SHu maqsadda maktabgacha ta`lim muassasasida seminarlar, seminar - mashg'ulotlar, ko'rgazmalar, murabbiychilik tashkil qilinadi. Uslubchi pedagoglarni novatorlik tajribasidan ijodiy foydalanishga yo'llaydi va uni amaliy ruyogba chiqarishda yordam beradi.

Maktabgacha ta`lim muassasalari ishida metodik ishning pedagoglar jamoasa metodik o'quvining nazariy seminarlar va ayniqsa, turli eng dolzarb

muammolari bo'yicha seminar - mashg'ulotlar kabi shakllari keng tarqalgan. Masalan, «Ilk yoshdagi bolalarni o'stirish va tarbiyalashning dolzARB muammolari» seminarida tarbiyachilar bolalarning jismoniy va psixik rivojlanishlarini medik - pedagogik nazorat qilish tajribasi bilan o'rtoqlashadilar, ilk yoshdagi bolalar guruxlaridagi ishni rejalashtirish, mashg'ulotlarni tashkil qilish va o'tkazish metodikasi, madaniy - gigienik malakalarni tarkib toptirish malakalarini egallaydilar, zaif, rivojlanishda vaqtincha orqada qolgan bolalar bilan ishslash xususiyatlarini o'zlashtiradilar. Yoki «Maktabgacha ta`lim muassasasi kun tartibida bolalar harakat faolligi» seminar - mashg'uloti jarayonida tarbiyachilar asosiy harakatlarni qomatni yaxshilovchi gimnastika elementlaridan foydalaniB bajarishning malaka va ko'nikmalarini egallaydilar; sport element-lari kiritilgan o'yinlar texnikasini, xronometraj qilish, bolalarning sayr vaqtidagi harakat faoliyatlarini rejalashtirishni o'zlashtiradilar. Yoki «Maktabgacha ta`lim muassasasidagi mashg'ulotlarga maktab islohoti nuqtai nazaridan qo'yiladigan zamonaviy talablar» seminar - mashg'uloti. Metodik ishning bu shakli orqali uslubchi dasto'rning eng qiyin mavzularining ilgarilovchi ishlanmalarini sinab ko'radi.

Seminar - mashg'ulotlar ilg'or tarbiyachilarining ishlarini amaliy ko'rsatish bilan xarakterlanadi. Bo'lar ishning kerakli usul va metodlarini ko'rildigandan keyingi tahlili hamda muhokamasi bilan ishonarli va aniq ko'rsatish imkonini beradi. Metodik o'qishning bu shakli shuningdek bolalarning ishtirotkisiz ishning u yoki bu metodlariga ishlov berilishini ham nazarda tutadi. Uslubchi yoki tarbiyachi ishning bu usullarini tarbiyachilar seminar - mashg'ulot qatnashchilari xarakatlarini boshqarib ko'rsatadi.

«Yoz davrida tabiatdagi kuzatishlarni tashkil qilish va o'tkazish xususiyatlari» seminarida muammo muhokama qilinadigan savollar tarbiyachilarga oldindan beriladi. Masalan, mashg'ulotlar (ekskursiyalar), sayrlar, kundalik hayotda tabiat ob`ektlarini kuzatishni qanchalik ko'p o'tkazasiz? Kuzatishlarni uyushtirish va o'tkazish metodikasida nimani asosiy deb hisoblaysiz? Kuzatishlar metodikasida qanday qiyinchiliklarga duch kelasiz? Bolalarda tabiatga qiziqishni o'stirish va kuzatuvchanlikni tarbiyalash uchun qanday usullardan foydalanasisiz? Tabiatdagi qanday kuzatishlar bolalar tashabbusi bilan yuzaga keldi? Bolalarning sinchkovligini, qiziqvachanligini qanday qo'llab - quvvatlaysiz, uyg'otasiz? Tabiat bilan munosabatda bo'lishlari bolalarning xulq - atvorlariga qanday ta'sir ko'rsatadi? Bolalar bilan tabiatshunoslikka doir ishlarda ekologik tarbiya elementlaridan foydalanasisizmi?

Nazariy seminarlar va seminar - mashg'ulotlarning qarorlari aniq xamda real bajarilishi mumkin bo'lgan tavsiyalar tarzida rasmiylashtirilishi, ularni qo'llanish esa uslubchi va maktabgacha ta`lim muassasasi mudirining nazorati ostida bo'lishi muhimdir.

Ayrim pedagoglarga dasto'rning murakkab mavzulari bo'yicha mashg'ulotlar va bolalar faoliyati boshqa turlarining rejalarini ishlab chiqishni topshirish, ularni seminarlarda jamoa bo'lib muhokama qilishda eng kulay variantlarni tanlash lozim.

9.2. Pedagogik va ta`lim-tarbiya jarayonlarini rejalashtirishning maqsad va vazifalari.

Rejalashtirishning maqsadi - «Maktabgacha ta`lim muassasasi muassasasi ta`lim - tarbiya dasturi»ning bajarilishini ta`minlashdir.

Reja tarbiya va ta`limiy ishlar vazifalari, faoliyat va ularni tashkiliy usullarining asosiy turlarini, qo'yilgan masalalarni ma'lum vaqt orasida hal etish vositalarini belgilaydi. Unda ta`lim va tarbiyani turli vosita, shakl va metodlarining aloqasi va o'zaro ta`sir ko'rsatish tabiat, bolalarning tarbiyachi tomonidan uyushtiriladigan faoliyatini ularning mustaqil faoliyatlari, jamoa, hamkorlikdagi, yakka faoliyat bilan biriktirish va shu kabilarni nazarda to'tiladi. Shunday qilib, ***pedagogik jarayonni yagona bir butun sifatida tashkil etish vazifasi rejalashtirishda etakchi xisoblanadi.***

Rejalashtirishning ikkinchi vazifasi ***vaqt hisobida pedagogik jarayonni harakati va rivojlanishini ta`minlash***: bolalar bilan ishslash mazmuni, shakli va metodlarini murakkablashtirish, ta`lim - tarbiyaviy jarayonda bolalar va bolalar jamoasining rivojlanishiga ko'ra pedagogik jarayonning tarkibiy tuzilishini o'zgartirish bolalarni va ularning faoliyat turlarini uyushtirish shakllarini biriktirishdan iborat.

Rejalashtirishning bu vazifalarini amalga oshirilishi pedagogik jarayonda uyushganlik va rejlangan tabiatini kasb etadi, pedagoglarning ishlarini maksadga yo'llanganroq va natijaliroq qiladi, bolalarni har tomonlama tarbiyalanish va rivojlanishlarini ta`minlaydi.

Maktabgacha ta`lim muassasasisida pedagogik ishni rejalashtirishga qo'yiladigan talablar muassasalarining tarbiyaviy ishida umumiyligi maqsadga erishishda yordam beradigan bir qator talablarni bajarishi kerak.

1. Rejalashtirish bolalar bilan olib boriladigan ta`lim - tarbiyaviy ishning g'oyaviy yo'llanganligini ta`minlashi kerak. Bolalar turmushining mazmuni, bolalarni uyushtirish shakllari, o'qitish mazmuni, bolalarga ta`sir ko'rsatish metod va usullari o'sib kelayotgan avlodni tarbiyalash maqsadlariga ko'ra tanlanadi. Rejada birinchi navbatda har bir bola shaxsining ma`naviy yo'nalanligi, uning faolligi va mustaqilligini shakllantrish, vatanparvarlik va baynalmilalchilik, jamoatchilik, inson tabiatining insonparvarlik xususiyatlarini tarbiyalash, bolalar tomonidan xulq - atvorning ma`naviy me`yor, qoida va odatlarini egallanishi nazarda to'tiladi. Bu vazifalarni bajarish xalq hayoti bilan bog'langan holda yanada to'liq ro'yobga chikariladi. Bu aloqa bolalarga Vatanimiz ijtimoiy hayotidagi hodisa va vokealarni, njtnmoiy - siyosiy va mehnat bayramlarini, kishilar turmushi va mehnatini ularga tushunarli yo'sinda tanishtirish orqali amalga oshiriladi.

2. Rejalashtirish pedagogik jarayonni yaxlit tashkil etishga: bolalar jamoasi va ayrim bolalarni tarbiyalash vazifalarini aniqlashtirishga, bolalarning yoshlari va vazifalarga ko'ra pedagogik ta`sir mazmuni va usullarini tanlashga; bolalar hayoti, faoliyat turlari, rahbarlik metodlari va shu kabilarni tashkil etishning turli shakllaridan foydalanishga yo'llangan bo'lishi kerak.

Rejada bolalar bilan ishslashning jamoa (yalpi va guruh) va yakka tartibdagiligi shakllarini nazarda to'tiladi.

3. Tarbiyaviy ishni rejalashtirish ta`lim - tarbiyaning asosiy printsiplariga rioya qilinishini nazarda tutmog'i kerak. Rejada ta`lim mazmuni, bolalar faoliyatini uyushtirish shakllari, ularga rahbarlik usullari, ta`lim va tarbiya metodlarini asta - sekin murakkablashtirilishi aks ettiriladi. Bolalarning yantuqlarini hisobga olib, tarbiyachi ularni bilimlarining yangi mazmuni, harakat usullari, faoliyatni va ularning birikmalarini tashkil etishning yangi shakllarini egallashga asta - sekin olib o'tishni rejalashtiradi. Rejalashning muntazamligini - ishning ayrim tur va shakllari o'rtasida aloqa o'rnatishni ta`minlashi kerak. Masalan, mashg'ulotlar tarbiyachining bolalar bilan kundalik ishi o'rtasida hamda mashg'ulot, o'yin va bolalar mehnati o'rtasida aloqa o'rnatish muhimdir. Aloqalarning mavjudligi bilim, malaka va ko'nikmalar tizimini, xatti - harakat vositalari va atrof - muhitga munosabatini shakllantirishni ta`minlaydi.

4. Reja faoliyat uchun dastur bo'limi va asosli bo'lisi kerak. Rejaning asosliligiga bolalar jamoasi va ayrim bolalarning rivojlanish darajalarini hisobga olib qo'yilgan aniq vazifalar orqali erishiladi. Eng avvalo «Maktabgacha ta`lim muassasasi ta`lim - tarbiya dasturi talablari: oldingi ish davomida egallangan bilim, malaka va ko'nikmalar mazmuni va darajasi, bolalarning ma`naviy tarbiyalanganlik darajasi, bolalar faoliyati asosiy turlarining mazmuni va shu kabilarning bajarilish darajasi xisobga olinishi kerak. Bolalarning hamkorlikdagi faoliyat uchun uyusha olish ko'nikmalari rejalashtirishda alohida xisobga olsa, haqiqiy va asosli bo'ladi.

Rejaning asosliligida joriy ijtimoiy xodisalar, katta yoshlilar mehnati va turmushining xususiyatlari, tabiiy atrof - muhit va tabiatdagi mavsumiy o'zgarishlarning xisobga olinishi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

9.3. Uslubchi tomonidan ta`lim - tarbiyaviy ishlarni nazorat qilish.

Ta`lim - tarbiyaviy ish holatini nazorat qilishning asosiy maqsadi barcha yosh guruxlaridagi pedagogik jarayonni takomillashtirish va har bir tarbiyachiga mav-jud kamchiliklarni bartaraf qilishda aniq yordam ko'rsatishdan iboratdir. Uslubchi gurux hayotining barcha tomonlarini ko'rishi, tarbiyachi ishining, bolalar xulq - atvorining mohiyatini chuqur bilishi, asosiysini, muhimini farqlay olishi, faktlarni qayd etish bilan cheklanmay, ularning sabab va oqibatlarini aniqlashi lozim.

Nazorat agarda uslubchi pedagoglarning ishlarini chuqur tahlil qilsa, uning kuchli va zaif tomonlarini ko'rsatsa, mavjud kamchiliklarni yo'qotishning aniq yo'llarini aniqlashda yordam bergen hollardagina tarbiyaviy ishni yaxshilashning amaliy vositasi bo'lisi mumkin.

Uslubchi ta`lim - tarbiyaviy ishni nazorat qilishni tarbiyachi ishini bevosita kuzatish va tahlil qilish yo'li bilan amalga oshiradi. Eng yaxshi maktabgacha ta`lim muassasalar tajribasi nazorat qilishning tematik, frontal, ogohlantiruvchi va solishtirish turlari samaraliroq ekanligini ko'rsatdi.

Tematik nazorat nazoratning maktabgacha ta`lim muassasalarda eng keng tarqalgan turidir. Tematik nazorat tarbiyachining ish tizimini dasturda ko'rsatilgan ma'lum tema doirasida o'rganishni nazarda tutadi..

Masalan, uslubchi ma`lum bo`lim bo'yicha dastur qanday bajarilayotganligini; tarbiyachi mashg'ulotlar o'tkazish metodikasini egallagan-egallamaganligini bolalarda madaniy - gigienik va mehnat malakalarining darajasi qandayligini; bolalar o'zinida tarbiyachining roli qandayligini; sayrlardan jismoniy tarbiya va tevarak - atrof bilan tanishtirish maqsadlarida foydalilanlayotganligi yoki yo'qligini; bolalarni mактабда o'qishga psixologik tayyorlash sifati qandayligini va shu kabilarni tekshiradi.

Tajribali, pedagoglik mahorati yuqori bo`lgan tarbiyachilar ishlaydigan guruxlarda uslubchi tematik nazoratni bu tarbiyachilarning ish tizimlarini o'rganish va ilg'or tajribani yoyish maqsadlarida o'tkazadi.

Frontal – yalpi nazoratning maqsadi tarbiyachining ishi, u yoki bu guruxdag'i butun pedagogik jarayonning darajasi, mazkur tarbiyachining ish uslubi haqida umumiyl tasavvurga ega bo'lishdir. Nazoratning bu turi guruxga butun kun davomida yoki hatto bir necha kun davomi-da kirishni nazarda tutadi. Bunday tekshirish tarbiyachining butun gurux va alohida har bir bola bilan qanday ishlayotganligini, bolalarning uyushgan - uyushmaganligini, ularning nimalarga kiziqishini, dastur materialini qanday o'zlashtirayotganliklarini, ularning ko'nikma va malakalari qandayligini, tarbiyachi bolalarni qanday qabul qilishini, ota - onalar bilan qanday suhbathashishini, mashg'ulotlar, kun tartibi jarayonlarini qanday o'tkazishini, bolalar o'yini va mehnatiga qanday rahbarlik qilishini, bolalar hayoti va ko'ngil ochishlarni qanday uyushtirishini tekshirish imkonini beradi. Bu holatda u tarbiyachilar ishlaridagi qiyinchiliklarni qayd etadi va ularga tegishli yordamni ko'rsatadi. Nazoratning bu turi tarbiyachining hujjatlari, bolalarning ishlari, pedagogik jarayonning jihozlanishi bilan tanishishini nazarda tutadi. Uslubchi tarbiyachining mustaqil o'qish rejasi va uning borishini ham nazardan chetda qoldirmasligi kerak.

Frontal – yalpi tekshiruvlar yakunlari pedagoglar kengashi yoki ishlab chiqarish majlisi muhokamasiga quyiladi.

Yosh tarbiyachilar ishlaydigan guruxlarda ogohlantiruvchi nazorat amalga oshirilish mumkin. Bu nazorat pedagogik jarayonni kuzatish yoki tarbiyachi bilan suhbat o'tkazish shaklida o'tkaziladi. Ogohlantiruvchi nazorat tarkibiga pedagoglarning ish kuniga tayyorgarliklarini, ta`lim va tarbiya metodikasini qanchalik egallaganliklarini, ilg'or amaliy tajribani qanday joriy qilayotganliklarini aniqlash kiradi. Nazorat bu turining asosiy maqsadi tarbiyachi, ayniqsa, ishni endi boshlagan pedagog ishida sodir bo'lishi mumkin bo`lgan xatolarning oldini olish, uning faoliyatini yaxshilashga yordam berishdir.

Maktabgacha ta`lim muassasasi uslubchisining ishida qiyosiy nazorat muhim o'rinni egallaydi. Uning farqlovchi xususiyati bir tarbiyachining pedagogik jarayonini boshqasining ish tajribasi bilan solishtirib tahlil qilish va baholashdir. Parallel guruxlar tarbiyachilarining ishlarini solishtirish mumkin. Uslubchi, masalan, ayni bir dastur mazmunidagi mashg'ulotni ikkala tarbiyachida kuzatadi, foydalilanlayotgan o'qitish metodi va usullarini, mashg'ulotlarda bolalar mustaqil faoliyatlarining tashkil etilishini, olingan natijalarini, bolalarning aqliy va axloqiy rivojlanish darajalarini solishtiradi.

Qiyosiy nazoratni dasturning ayrim bo'limlarining bajarilishini tekshirishda, turli tarbiyachilar bolalaridagi bilim, ko'nikma va malakalar sifatini tahlil qilishda qo'llash maqsadga muvofividir. Solishtirish natijalari pedagoglar kengashida muhokama materiali bo'lishi mumkin.

Qiyosiy nazorat guruxlariga kirish va tarbiyachilar ishlarini kuzatish, rejalarini, bolalar ishlari va boshqa hujjatlarni tahlil qilish shaklida o'tkazilishi mumkin.

Uslubchi kun tartibi jarayonlari, o'yinlar, mashg'ulotlarni har xil darajada o'tkazilish sabablarini, bolalar bilimlarining sifatini tarbiyachilar bilan birga tahlil qiladi va birgalikda ishning samaraliroq shakllarini izlaydi.

Qiyosiy nazorat eng yaxshi tajribaning tarqalishiga, ta`lim - tarbiyaviy jarayonning yaxshilanishiga yordam beradi va barcha gurux tarbiyachilarining umumpedagogik darajalarining oshishiga yordam beradi.

Nazoratning istalgan turi agarda metodist unga jiddiy hamda puxta tayyorgarlik ko'rgan holdagina samarali bo'lishi mumkin.

Eng avvalo tekshirish maqsadini aniq belgilash lozim. Masalan, kichik guruxda bolalarning kun davomidagi xilma - xil faoliyatları uchun sharoitlarning yaratilishini kuzatish; katta guruxda bolalarning o'yin va mehnatidagi o'zaro munosabatlarini kuzatish (ular inoq uynay oladilarmi va hamjihatlik bilan mehnat kila oladilarmi); o'rta guruxda nutqni o'stirishga doir dasto'rning o'zlashtirilishini tekshirish. Maqsadni belgilab, uslubchi tarbiyachining reja bilan uni «Uchinchi mingyillikning bolasi dasturi» talablariga solishtirib tanishadi, oldingi tekshiruv natijalari tahlilining yozuvlari bilan tanishadi, bolalarning ishlarini o'rganadi, oldindan tarbiyachi va bolalar bilan suhbatlashadi, metodik adabiyot yangiliklari, ilg'or pedagogik tajribani umumlashtirish materiallari va ilmiy tadqiqotlar ma'lumotlari bilan tanishadi va nihoyat, tekshirish jarayonida javob olmoqchi bo'lgan savollarni mo'ljallab tekshirishning qisqa, ammo aniq rejani ishlab chiqadi.

Guruxga kirish mo'ljallanganligi haqida uslubchi pedagogik, agarda bu kirish ishda ilgari qayd etilgan kamchiliklarni bartaraf qilish maqsadida amalga oshirilayotgan bo'lsa, oldindan ogohlantiradi. Guruxga kuproq ogohlantirishsiz kirish yoki kirish haqida tekshirish kuni, ertalab ogohlantirish lozim. Bu tarbiyachilarda asta - sekin ishda ma'lum ritmni shakllantiradi.

Biror bo'lim bo'yicha dastur talablarining bajarilishini tekshirish haqida tarbiyachi oldindan (kvartal yoki yarim yil oldin) ogohlantiriladi. Bunday ogohlantirish pedagoglarni o'z ishlaridagi kamchiliklarni mustaqil aniqlashga, vdr bir bolaning rivojlanish va dasto'rni o'zlashtirishini ob`ektiv baholash-ga safarbar etadi. Uslubchi o'z mulohazalarini pedagogga mashg'ulotdan so'ng vaziyatda aytadi. Agarda mulohazalarni ish vaqtida aytish zaruriyati tug'ilsa, bu bolalarga bildirmay va o'ta xushfe'llik bilan qilinadi. Tarbiyachi olib borayotgan ishga aralashish mumkin emas, bola hayotiga biror xavf tahdid qilgan holatlar bundan mustasno, agarda metodist u yoki bu jarayonni qanday olib borish kerakligini tarbiyachiga ko'rsatish zarur deb bilsa, oldindan kelishib olinganligiga ko'ra u tarbiyachining o'rnini, tarbiyachi esa kuzatuvchi o'rnini egallaydi.

Shuni unutmaslik kerakki, guruxga bir marta, bir lahzaga kirish tarbiyachining ishi haqida xulosa chiqarish huquqini bermaydi. Agarda metodist bir faoliyat turini yoki kun tartibi jarayonini tahlil qilishni maqsad qilib qo'ygan bo'lsa, u holda faoliyatning bu to'rini boshdan oxirigacha tuliq kuzatib chikishi kerak bo'ladi.

Kuzatish vaqtida tarbiyachi va bolalar faoliyatidan faktlarni qo'yilgan maqsadga ko'ra yozib borish tavsiya qilinadi. Olingen faktik materiallardan uslubchi tekshiruv natijalari bo'yicha pedagog bilan bo'ladigan suhbatda foydalananadi. Har bir yozuvga sana qo'yiladi kuzatish, tahlil temasi va maqsadi, xulosa va takliflar qayd etiladi.

Pedagogning ishini kuzatish natijalari haqidagi yozuvlarni uslubchi maxsus nazorat daftarida taxminan quyidagi jadval bo'yicha yuritadi:

Nazorat maqsadi	Tarbiyachining xatti-xarakati	Bolalarning xatti-xarakati	Ijobiylik, kamchiliklar	Takomillashtirish uchun takliflar
-----------------	-------------------------------	----------------------------	-------------------------	-----------------------------------

Birinchi jadvalda nazoratning maqsadi ko'rsatiladi, ikkinchisida mashg'ulot, bolalar mehnati o'yini, kun tartibi jarayonining borishi, tarbiyachi foydalanyotgan vosita, ish metod va usullari qisqacha, izchil yoritiladi, uchinchisida - bolalarning xatti - harakati, bolalarning tarbiyachi savollariga javoblari, ularning topshiriqlarni bajarishlari va uning sifati, bolalarda shakllantirilayotgan ko'nikma va malakalarning darajasi qayd etiladi. To'rtinchi jadvalda foydalanyotgan metod va usullarning samarasi, muvaffaqiyatli pedagogik topilmalar, shuningdek kamchiliklar, ularning sabablari, beshinchisida - kamchiliklarni bartaraf kilish va tarbiyachining guruxdag'i ishini takomillashtirishga doir takliflar beriladi.

Barcha yozuvlar yakunida umumiy xulosa chiqariladi va mashg'ulot yoki kun tartibi jarayonini o'tkazish darajasi baholanadi hamda tarbiyachi ishini yaxshilash va takomillashtirishga yo'llangan aniq tavsiyalar beriladi, kamchiliklarni bartaraf qilish yo'llari ko'rsatib o'tiladi.

Uslubchining pedagog bilan suhbat nazorat qilishning muhim bosqichi hisoblanadi. Suhbat individual va boshqa tarbiyachilar ishtirokida bo'lishi mumkin. Suhbat tarbiyachi ish smenasining oxirida yoki ertasiga o'tkaziladi. Bunday suhbatlarni juda kechiktirib yubormaslik kerak.

Birinchi so'z o'z - o'zini tahlil qilishi uchun tarbiyachiga beriladi. Bu o'z ishini ob'ektiv baholash ko'nikmasini o'stiradi. So'ngra metodist ko'rilganni tekshirish oldiga qo'yilgan maqsadga ko'ra tahlil qiladi. Bunda u tarbiyachi ishidagi barcha qimmatli tomonlarni aytib o'tishni unutmaydi, muvaffaqiyatsizlik sabablarini tahlil qiladi, ularni bartaraf qilishning mumkin bo'lgan yo'llarini ko'rsatadi.

Tarbiyachi ishining bunday tahlili uslubchiga pedagoglar ishonchini qozonish, ular bilan ishga doir printsipial va ayni bir vaqtida iliq o'zaro munosabatlarni o'rnatishga yordam beradi. Suhbat vaqtida baxsli masala yuzaga keladigan va tarbiyachi metodistning fikriga qo'shilmaydigan hollar ham bo'ladi. Bunday holda masalaning tahlili va uning hal qilinishini jamoa muhokamasiga

ko'yish kerak. Tarbiyachining ishini siz uylagandek bajarishga oddiygina majbur qilish emas, balki uni ishontirish yoki agarda u haq bo'lsa, uning fikriga qo'shilish muhimdir.

Xar qanday nazorat agarda uslubchi qabul qilingan ko'rsatma, tavsiya, qarorlarning ijrosini tekshirib bormasa, ijobiy samara bermaydi. Ijroni muntazam nazorat qilib borish kishilarni intizomga odatlantiradi, ularning topshirilgan ish uchun mas`uliyatlarini oshiradi. Uslubchining ko'rsatma va tavsiyalar berish bilan cheklanib qolmasligini, ularning qanday bajarilganligini albatta tekshirishini bilar ekanlar, maktabgacha ta`lim muassasasining tarbiyachilari o'zlarining loqayd bo'lishlariga yo'l qo'ymaydilar.

Muntazam nazorat — bu faqat ilgari aytilgan ko'rsatma va takliflarning ijrosini tekshirishgina emas, balki guruxda ma'lum vaqt bo'lagida qilingan ishlarni solishtirib ko'rish hamdir. Masalan, o'quv yilining boshida bolalarning mashg'ulotlardagi tafakkur faoliyatlarining faolligini tekshirish tarbiyachilar muammoli xarakterdagи savol va vaziyatlardan kam foydalanishlarini, bolalarda mustaqillik hamda fikrlarning tanqidiyilagini etarlicha rivojlantirmasliklari va shu kabilarni ko'rsatdi. Bu kamchiliklar sabablarini pedagoglar jamoasida birgalikda muhokama qilib va ularni bartaraf qilish yo'llarini belgilab, uslubchi yarim yildan so'ng boshlang'ich ma'lumotlarni yangi ma'lumotlar bilan solishtirib yana tekshiradi.

Nazoratning yuqorida ko'rsatib o'tilgan tur va shakllarining amalga oshirilishi uslubchiga guruxlarda ta`lim - tarbiyaviy ishlarning yo'lga qo'yilganligini o'rganish, o'z intilishini tarbiyachilarga murakkab ishlarida yordam berishga aniqroq yo'llash imkonini beradi.

9.4. Ochiq mashg'ulot va tadbirdlarni uyushtirish.

Ochiq ta`lim - tarbiyaviy tadbirdlar, tarbiyachilarning bir - birlarining guruxlariga kirishlari eng yaxshi tarbiyachilar ish usullari va metodlari zaminidagi aniq dolzarb g'oyalarni ochib berish, asoslash va amalda joriy qilish maqsadida o'tkaziladi.

Ko'rilmaganlarni tahlil qilishda uslubchi tajribani mexanik qabul qilish mumkin emasligini va lozim emasligini, u izlanish va fikr yuritishni keltirib chiqarishi zarurligini, faqat ana shundagina ko'r - ko'rona taqlid emas, balki ijodiy, ongli o'zlashtirish mumkin bo'lishi ta'kidlab o'tiladi. Shu bilan birga tajribani zo'rma - zo'raki joriy qilib bo'lmaydi, g'oyani tushuntirish, propaganda qila bilish, yangilikka jalb eta bilish muhimdir. Tajribali metodistda vaqt kelib yaysi g'oyalarni sezuvchi kasb sezgisi va tarbiyachilarni izlanishlarga ilhomlantiruvchi qobiliyat yuzaga keladi. Tajriba almashish yuqori amaliy - praktik darajada olib borilishi muhimdir. Bu muammoni chuqur va har tomonlama o'rganish, uning g'oyalarini amaliyotga joriy qilishnigina emas, balki yangi bilim, ta`lim va tarbiyaning yangi metod va usullarining hosil bo'lishi ham demakdir.

Pedagogik tahlil metodi murakkab, shuning uchun ham uslubchi uni mukammal egallagan bo'lishi zarur va bu metodikani har bir tarbiyachiga o'rgatishga majbur.

Amaliyot ochiq tadbirlar va guruxlarga o'zaro kirishlar mактабгача та`лим muassasasida olib borilayotgan metodik ishning organik tarkibiy qismiga aylangan hollarda barcha tarbiyachilarining pedagoglik mahoratining ortishiga amaliy ta`sir ko'rsatishini, ijodiy ko'tarinkilik, izlanish va tizimli tarzda tajriba almashish muhitini yaratishini ko'rsatmoqda. Metodik topilma va muvaffaqiyatlarni tanlash hamda tekshirish — pedagoglar jamoaining kundalik eng muhim ishlaridan biridir. V. A. Suxomlinskiy mактабда pedagogik topilma, kichik kashfiyotlarning daftarini tutishni tavsiya qilgandi.

Amaliyotda metodik o'qishning mактабгача yoshdagi bolalarga ta`lim-tarbiya berish masalalari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar hamda ilg'or pedagogik tajribaning natijalarini aks ettiruvchi eng yangi psixologik - pedagogik adabiyotning obzori kabi shaklidan foydalaniladi.

Mактабгача та`лим muassasasida olib boriladigan metodik ishning barcha tur va shakllari tegishli hujjatlarni: metodik tavsiyalar, namuna ishlanmalari, ma'ruzalar, vitrina va ko'rgazmalarini tashkil qilish bilan yakunlanishi kerak. Masalan, «Rejalashtirishga doir maslahatlar», «Bolalar hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilishga doir eslatmalar» va shu kabilar.

Nazorat savollari:

1. Ta`lim – tarbiyaviy ishlarni tashkil etishning shakli va usullarini izohlang.
2. Pedagogik jarayonlarni rejalashtirishda uslubchining raxbarligi nimalarda deb bilasiz.
3. Uslubchi tomonidan nazorat turlari va nazorat qilish metodikasi.
4. Uslubchining ochiq mashg'ulotlarni tashkil etishdagi roli.

Testlar

1. Mактабгача та`лим bo'yicha nazorat ishlarini tashkil etishning ahamiyati

- A. Mактабгача та`лим muassasasining ta`lim - tarbiyaviy ishlarni samaradorligini oshiradi;
- B. Metodik, ta`lim - tarbiyaviy ishlarni sifatini oshirish;
- V. Mактабгача та`лим xodimlarining mutaxassislik malakasini o'stirish;
- G. Smeta bo'yicha xarajatlarni to'g'ri sarflash.

2. Mактабгача та`lim tizimida nazorat turlarini aniqlang

- A. Ogoxlantiruvchi, qayta-ikkilamchi, tematik, frontal-yalpi, qiyosiy
- B. Guruxlarga maqsadli kirish, ochiq mashg'ulotlar tashkil etish
- V. Kundalik nazorat, tematik nazorat, qiyosiy nazorat
- G. Qiyosiy nazorat, ikkilamchi nazorat, yalpi-frontal nazorat

3. Rahbar tomonidan ta`lim - tarbiyaviy ishlarni tashkil etishni nazorat qilish yo'llari bu...

- A. Ochiq mashg'ulotlar jamoa tarzda kuzatish va tahlil qilish, kundalik nazorat, ish rejalarini ko'rib, tahlil qilish, baholash

- B. Ochiq tadbirlar tashkil etish, metodik birlashma ishlariga qatnashish
- V. Guruxlarga maqsadli kirish, mashg'ulotlarni kuzatish va tahlil qilish
- G. Oghohlantirish, suxbatlashish, davra suxbati

4. Maktabgacha ta`limni tashkil etish va uni rahbarlik qilish sohasining metodologik asosi qaysi bandda to`g'ri ko'rsatilgan.

- A. Ta`lim sohasi bo'yicha qabul qilingan barcha qonun hujjatlari va prezident asarlarida ilgari surilgan ilg'or g'oyalar
- B. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, Ta`lim to`g'risidagi Qonun, Nizom, Kontseptsiya, Ustav
- V. Maktabgacha ta`lim muassasalari to`g'risidagi Nizom, Pedagogika va psixologiya fani yutuqlari, kontseptsiya
- G. Hamma javoblar to`g'ri

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent 1992 y
2. Ta`lim to`g'risidagi qonun. Toshkent 1997 y.
3. Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi. Toshkent. 1997 y.
4. O.U.Xasanboeva, M.X. Tadjieva, SH.K.Tashpulatova va boshqalar "Maktabgacha ta`lim pedagogikasi" "Ilm Ziyo". T.: 2006 y.
5. B.Ziyomuhamedov, Sh.Abdullaeva "Pedagogika" "O'zbekiston Milliy entsiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti". T.: 2000 y.
6. Maktabgacha ta`lim muassasasi to`g'risidagi Nizom. Toshkent 2007 y.
7. Maktabgacha yoshdagi bolalar ta`lim-tarbiyasiga qo'yiladigan davlat talablari. Toshkent 2008 y.
8. J.G'.Yo'ldoshev. Ta`lim yangilanish yo'lida. Toshkent "O'qituvchi" 2000y.
9. R. Mavlonova "Pedagogik texnologiya" Toshkent "Fan" 2009 y.
- 10.R. Ishmuxamedov "Ta`limda innovatsion texnologiyalar". Toshkent "Iste`dod". 2008 y
- 11.A. I.Vasileva, L.A. Baxturina, I.I.Kobitina "Bolalar bog'chasingning katta tarbiyachisi" T.: "O'qituvchi"1991 y.
- 12.Maktabgacha ta`lim kontseptsiyasi. Toshkent 2008 y.
- 13."Uchinchi mingyllikning bolasi" Dasturi. Toshkent 1999 y.

X BOB. Maktabgacha yoshdagи bolalarni hayotini tashkil qilish va ularni tarbiyalash.

Reja:

1. Maktabgacha ta`lim muassasasida bolalar hayoti va faoliyati tashkil etishning asosiy printsiplari.
2. Bolalarning maktabgacha ta`lim muassasalaridagi hayot sharoitiga va tarbiyaga moslashishi.
3. Turli yosh guruxlariga bolalarni hayotini tashkil etish va guruxga moslashishining o`ziga xos xususiyatlari.
4. Uslubchi tomonidan ilk yosh guruxlarida bolalar hayotini tashkil etishga raxbarligi.

Mavzuning maqsadi: Maktabgacha ta`lim muassasasida bolalar hayoti va faoliyatini tashkil etishning asosiy qonuniyatlarini to`g'risida tushuncha berish.

Mavzuning vazifalari: O'quvchilarni turli yosh guruxlarida bolalarni guruxlarga moslashish va bola shaxsini shakllantirish bo'yicha ko'nikmalar xosil qilish.

10.1. Maktabgacha ta`lim muassasasilarda bolalar hayotiki tashkil etishning asosiy printsiplari

Maktabgacha ta`lim muassasasida ta`lim tizimidagi boshqa o'quv tarbiyaviy muassasalaridan bolalar hayoti va tarbiyasini o`ziga xos tashkil etishi bilan ajralib turadi.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning tarbiyasi maqsad va vazifalarini amalga oshirish ular hayotini tashkil etishning asosiy xususiyatlarini belgilab beradi.

Yasli - maktabgacha ta`lim muassasasilarda bolalar hayotini tashkil etish har tomonlama tarbiyalash vazifalariga kompleks yondoshish asosida, ta`lim - tarbiya mazmuni, shakli va metodlari birligi asosida quriladi.

Hayotni tashkil etish bu hayot faoliyatining asosiy jarayonlarini turli yosh guruhlaridagi bolalarning yakka, kichik guruhlar va umumiylar shaklidagi faoliyati va ta`limini maqsadga muvofiq joriy etish, birga qo'shib olib borish, shuningdek, har bir bolani har tomonlama va garmonik tarbiyalash hamda rivojlantirish uchun zarur sharoit yaratishdir.

A. S. Makarenko bola hayotini to`g'ri tashkil etishning uning tarbiyasi va rivojlanishidagi rolini ta`kidlab shunday degan edi: «Tarbiyaviy ishning haqiqiy mohiyati umuman, sizning bola bilan qo'rgan suhbatlaringizda, bolaga ko'rsatadigan bevosita ta`sirda emas, balki oilangizning, shaxsiy va ijtimoiy hayotimizning va hamda bola hayotining tashkil etilganligidadir».

Hozirgi paytda maktabgacha ta`lim muassasilarida o'quv - tarbiya jarayoni sifatini oshirish va bolalar hayotini tashkil etish zarurati vujudga keldi.

Bolalar hayotini tashkil etish va sog'lomlashadirish ishining barcha bosqichlarida bolalarning yosh guruhalidagi hayotini tashkil etish takomillashib kelgan va bunga fiziologlar, psixologlar, pedagoglar, (E. I. Tixeeva, E. A. Flerina, A. P. Usova, N. M. Shelovanov, N. M. Aksarina va boshqalarning) tadqiqotlari asos bo'lgan. Maktabgacha ta`lim pedagogikasi bolalar hayoti va faoliyatini tashkil etishning quyidagi umumiy printsiplarini ishlab chiqqan:

Bolalarning har bir yosh guruhdagi birgalikdagi hayot tarzi. Bu printsip asosida guruhdagi barcha bolalarni har tomonlama rivojlantirish va ularni jamoachilik ruhida tarbiyalagani uchun bir xil sharoitni ta`minlash ko'zda to'tiladi.

Guruhlarni komplektlashning yosh printsipi bolalarning har bir guruhiba bir yoki ikki yoshning bo'lishini taqozo etadi va ularning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda ta`lim va tarbiya jarayonini ta`minlaydi.

Guruhning bolalarning har tomonlama faoliyati va muloqoti uchun zarur moddiy muhitini yaratish. Bu printsipga ko'ra guruhlarni xonalarini va maydonlarini pedagogik, gigienik va estetik talablarning yagona birligi asosida jihozlash va obodonlashtirish amalga oshiriladi. Turli maqsadlardagi keng - mo'l xonalar, yosh - o'sish me`yorlariga muvofiq yasalgan muayyan qolipdagi mebellar, ularni joylashtirish, o'yin va mashg'ulotlarga mo'ljallangan qurol va materiallarning rang - barangligi har bir yosh guruhi uchun bolalar imkoniyatlari va tarbiya vazifalarini hisobga olgan holda ko'zda tutiladi.

Kun tartibining doimiyligi va yosh xususiyatiga bog'liqligi, ilk va maktabgacha ta`lim yoshda asosiy hayotiy faoliyat ritmi bir xil emas. Bolalarning o'z - o'zlarini tashkil etishdagi va xulqlaridagi nmkoniyatlari ham bir xil emas. Ilk yoshdagи birinchi va ikkinchi guruh bolalarining o'z xatti-harakatini idora etishdagi ixtiyoriy qobiliyatining mutlaqo yo'qligi, nochorligi ular hayotini tashkil etishda x.ar bir bolaga parvarish uchun ko'p vaqt ajratish zaruratini keltirib chiqaradi. YOsh o'ta borishi bilan paydo bo'ladigan mustaqillik, o'z xatti - harakatini o'zlashtirilayotgan qoidalarga muvofiq idora eta olish qobiliyati asosiy hayot faoliyatiga ketadigan vaqtini qisqartiradi va bolalar faolligini rivojlantirishga yordam beradi. Kun tartibini bajarishda o'z - o'zini tashkil eta olish ko'inkmasi tufayli mashg'ulotga, o'yinga, mehnatga vaqt qoladi. Har bir yosh guruhidagn kun tartibining o'ziga xosligi umumiy jihatni ham, kun tartibi jarayonlarining izchilligidagi barqarorlikni ham ko'zda tutadi.

Bolalar hayoti - bu faqat kattalarning bo'lg'usi hayotiga taiyorgarlik emas, bolalik davri bolalarni qiziqtiradiga va uni zavqli qiladigan, ular tomonidan ijtimoiy tajribaning o'zlashtirilishini ta`minlaydigan rang-barang faoliyat bilan qiziqarlidir.

Turli faoliyat ko'rinishlarini (o'yin, mehnat, ta`lim) joriy etish: ularning kun tartibidagi o'mni, bolalarning rivojlanish darajasiga ko'ra bu faoliyat turlarini qo'shib va navbatlashtirib turish, bola shaxsining shakllanishidagi roli.

Kun mobaynida o'yinlar, mehnat va ta`lim uchun vaqt ajratiladi. Ularning maktabgacha ta`lim muassasasisidagi turli guruhlardagi o'rni bolalarning yosh imkoniyatlariga yakka tarzda yoki guruh bo'lib harakat qila olish ko'nikmasiga, bir-birlari bilan muloqotda bo'la olish malakasiga bog'liq. O'yin faoliyati va

boshqa faoliyat turlarining asta - sekin kuchaya borishi ham ahamiyatga ega bo'la boradi.

Yosh guruuhlarida bolalar hayotini ular hayoti va sog'lig'iii muhofaza etishga yo'naltirilgan holda tashkil etish. Mazkur printsip asosida yasli - maktabgacha ta`lim muassasalaridagi yosh guruhlari uchun xonalar ajratiladi, mebel va jihozlar tanlanadi, qo'llanma va meteriallar joylashtiriladi, ovqat tayyorlanadi, chiniqish tizimi va kundalik harakat faoliyati joriy etiladi. Tarbiyachilar, enagalar va bolalar, shuningdek, bolalar o'rtasidagi munosabatlarda vazminlik, oljanoblik, insonparvarlik ruhi hukm suradi. Ziddiyatlar oldi olinadi va odilona hal etiladi, bolalar asabiyligning payi qirqiladi.

Bolalar hayotini tashkil etishda estetik talablarga rioya qilish ulardan faqat xonalarni jihozlashda foydalanishni emas, balki pedagogik jarayonda foydalanishni ham ko'zda tutadi.

10.2. Bolalarning maktabgacha ta`lim muassasalaridagi hayot sharoitiga va tarbiyaga moslashishi

Bolalar muassasalariga borish bola uchun katta qiyinchiliklar tug'diradi. Bunda ko'pchilik bolalar betoqat, yig'loqi, odamovi bo'lib qoladilar. Tahlikali holat, hayajon tufayli zo'riqish bola ytrofida yaqin kishilarining bo'lmasligi, maishiy sharoitning, ko'nikilgan sharoit va hayot tarzining o'zgarishi tufaylidir.

Funktional norasidalik, ko'ngli noziklik bola organizmnning yangi sharoitga ko'nikishini qiyinlashadiradi.

Maktabgacha ta`lim muassasasisiga kelishi bilan bolaning ijtimoiy ahvoli ham o'zgaradi. U oilada cheklangan miqdordagi odamlar bilan muloqotda bo'lar, ko'proq oila a`zolari diqqat markazida bo'ladi. Maktabgacha ta`lim muassasasida esa u bolalar jamoasi a`zosiga, boshqa bolalar tengdoshiga aylanadi. SHu tufayli bolaga psixologik jihatdan o'zini qayta qurishga, o'z xulqini o'zgartirishga, notanish katta kishilar va tengdoshlari bilan aloqaga kirishga to'g'ri keladi. Bo'larning barchasi bola faoliyati va xulqida shakllangan odatlarning buzilishiga olib keladi, undan yangi sharoitlarga biologik va ijtimotsy jihatdan mosdashishni talab qiladi.

Biologik jihatdan moslashish deganda organizmning yangi hayot sharoitiga moslashishni ta`minlaydigan fiziologik tizimining qayta qurilishi tushuniladi. Ushbu qayta qurish tug'tsa mexanizmlar asosida amalga oshiriladi. YAngi tug'ilgan bola uning tug'ilishidan so'ng maxsus yaratilgan sharoitga tezda moslashadi.

Biologik qayta qurish bolaning maktabgacha tarbin muassasidagi dastlabki kunlarda ham kschadi. U kun tartibda belgilangan yangi havo va yorug'lik tartibiga, ovqatlanishdagi o'zgarishlarga ko'nikishi lozim.

Biologik moslashish qatorida ijtimoiy moslashish ham amalga oshiriladi, ya'ni o'z xulqini yangi ijtimoiy sharoitga ko'ra o'zgartirish, qobiliyati hosil qilinadi.

Bola oiladayoq kattalar, oila a`zolari bilan dastlabki muloqotga kirishadi. U atrof - muhit bilan muloqotga kirishishning dastlabki ko'nikmalarini o'zlashtiradi,

unda elementar mehnat harakatlari shakllanadi, o'yinlar paydo bo'ladi. Bola oila a`zolari o'rtasidagi munosabat me`yorlarini o'zgartira boshlaydi, ular assosida esa xulqning elementar ko'rinishlari shakllanadi. Bola maktabgacha ta`lim muassasasiga kelishi bilan shakllangan xulqiy odat va munosabatlar ancha o'zgaradi. U tengdoshlari bilan faol aloqaga kirisha boshlaydi. Uning hayoti oila a`zolari tomonidan emas, balki kattalar tomonidan yangi qoida va tartibga ko'ra tashkil etiladi, unga yangi talablar qo'yiladi. SHunday ekan, bola atrofdagi sharoit o'zgarishlariga tez moslashishi, yangi odatlarni singdirishn yoki mavjud odat va hulq shakllarini qayta qurishi lozim.

Biologik va ijtimoiy moslashishlar o'zaro bog'liq va ular bir - biriii taqozo etadi. Maktabgacha ta`lim yoshida, ayniqsa, ilk yoshda muhit va odatdagi hayot tarzining o'zgarishi ruhiy zo'riqishga olib keladi, bu ruhiy holatni o'zgartiradi, xatti - harakatda buzilishlariga olib keladi (jizzakilik, tengdoshlari bilan janjal boshlanadi, sustlik paydo bo'ladi va boshqalar), uyqu yomonlashadi va ishtaha yo'qoladi. Shu bilan birga boshqa funktional tizimlarda (vegetativ), faol SI sitemasida ham birmuncha siljishlar paydo bo'ladi, organizmshng himoya kuchi susayadi, bu esa ko'pincha kasalliklarga olib keladi. Bu holatlar bolalarda turli darajada ifodalanadi va moslashish mexanizmlarining etarlicha mashq qildirilmeggani bilan izohlanadi.

Bolalarning moslashish imkoniyatlari o'rtasida katta farq mavjud. Ular, ayniqsa bolalar maktabgacha ta`lim muassasasida bo'lishning dastlabki kunlarida yorqin namoyon bo'ladi. Juz'ii ijtimoiy muhitdagi o'zgarishlarni ko'proq 9 - 10 oylikdan 1,6 yoshgacha va 3 yoshdan 3,5 yoshgacha bo'lgan bolalar qiyinroq kechiradilar. Engil moslashishdan nutqiy faollikning susayishida, xatti - harakatdagi ba`zi buzilishlarda, uyquning va ishtahaning yomonlashuvida namoyon bo'ladigan qisqa muddatli salbiy ruhiy holat kuzatiladi. Odatda, bu holatlar maktabgacha ta`lim muassasasida bo'lishning dastlabki ikki haftasi davomida kechadi.

O'rta darajadagi moslashish xatti - harakatdagi birmuncha katta va uzoq davom etadigan siljishlarda ifodalanib, u faqat oyning oxirida normallashadi. Bola qisqa vaqt ichida ozadi, nutqi buziladi, asoratlarsiz tugaydigan engil 7 - 10 kun davom etadigan kasalliklar vujudga keladi.

Og'ir moslashishda bolaning ko'nikishi uzoq va murakkab kechadi, ba`zan bir necha oyga cho'ziladi. U tez - tez qaytalanib turadigan, asoratli kechadigan kasalliklar, xatti - harakatning barqaror buzilishi, qator hollarda asabiy holatlar birlgilikda voqe bo'ladi. Jismiy rivojlanishining susayishi, nutq va ruhiyatda o'sishning kechishi kuzatiladi.

Moslashish davrining qiyipchiliklari, moslashishga oid siljishlarning ifodalanganlik darjasini tarbiyaning ilgarigi sharoit bilan ham uzviy bog'liqliki, uning ta`siri ostida bolaning oliy nerv faoliyati tizimi shakllanadi. (R. V. Tonkova, Yampolskaya, A. I. Mishkis, G. V. Gridneva, L. G. Golubeva va boshq.) Shuning uchun ham bolaning bolalar muassasasida bo'lishining birinchi kunlaridanoq pedagogik jarayonni bu qiyinchiliklarni hisobga olgan holda to'g'ri tashkil etish muhimdir.

Bolani ijtimoiy tarbiya tizimiga olib kirish bosqichma - bosqich amalga oshiriladi. Tayyorlov bosqichda pediatriya xizmati, ota - onalar va mакtabgacha ta`lim muassasalarining kuch - g'ayrati bola organizmini yangi sharoitdagi hayotga, tayyorlashga uning biologik moslashishini engillashtirishga qaratilgan bo'ladi. Bung'a quyidagicha erishiladi:

- a) bola kun tartibini bolalar muassasasi kun tarbiga o'ta yaqinlashtirish bilan;
- b) uni kun tartibi jarayonlariga faol qatnashtirish bilan;
- v) chiniqtiruvchi usullardan keng ravishda kompleks foydalanish bilan;
- g) bola organizmi ish qobiliyatini o'stirish uchun zarur harakat faolligini oshirish bilan.

Ota - onalarning pedagogik savodxonligi va ularning tarbiyachilar bilan aloqa o'rnatishi ushbu talablarni amalga oshirishning shartidir. Ota - onalar yakka suhbatlar, eslatishlar orqali bola hayotining tayyorlov davrida tashkil etishga oid tavsiyalar oladilar. Ular ovqatlantirish, uxlatish metodikasi bilan tanishadilar, o'z - o'ziga xizmat ko'rsatishni shakllantirishga, buyumli va o'yin harakatlarini yo'lga qo'yishga oid tavsiyalar oladilar. O'z navbatida tarbiyachilar ham bolalarnnng uylariga boradilar, ularning hayoti bilan, kichkintoylarning qiliqlari, sevimli o'yinlari va o'yinchoqlari bilan tanishadilar, bola bilan u ko'nikkan sharoitda dastlabki ruhiy aloqa o'rnatadilar.

Bolani bolalar muassasasidagi yangi sharoitlar talablariga o'rgatish izchil tarzda amalga oshiriladi. Bir hafta davomida bola maktabgacha ta`lim muassasasisida 2 - 3 soatdan ko'p bo'lmaydi. Bu vaqt uning ruhiy holatiga qarab asta - sekin ko'paytirib boriladi.

Bolalarni qabul qilishda maktabgacha ta`lim muassasasi xodimlari bolalar hayotini ularning ahvoli, alohida o'ziga xos xususiyatlaripi hisobga olgan holda tashkil etishlari uchun uzoq vaqt talab etiladi.

Moslashish davrida (2 - 3 hafta) bola emlanmaydi, barcha mavjud odatlari, hatto salbiy odatlari ham saqlab qolinadi, uydagi o'yinchoqlaridan foydalanishga ruxsat etiladi. Ijtimoiy moslashishniig' ko'pchilik bolalarda murakkab kechishi va cho'zilib ketishining asosiy sababi bola qoshida yaqin kishilarining yo'qligi va odamlar bilan muomala tajribasining kamlidigidir (N. D. Vatutina). Shuning uchun bolaning maktabgacha ta`lim muassasasidagi dastlabki kunlarida uning yonida onasining ham bo'lismiga yo'l qo'yiladi, u notanish sharoitni o'zlashtirishga, tarbiyachi bilan aloqa o'rnatishga, so'ng u bilan hamkorlik qilishga yordam beradi. Bolaning vaqt - vaqt bilan qo'lda bo'lishi, unga e'tibor bilan suyib muomala qilish, tarbiyachi tomonidan maqtalish unga nisbatan ishonch va ijobjiy munosabat yaratadi, boshqa kattalar va tengdoshlar bilan aloqa o'rnatish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Ijobjiy his - tuyg'ular, bolani mikroiijtimoiy muhitga olib kirgan tarbiyachiga o'rganish tufayli unda tengdoshlari bilan muloqotga kirishishga istak va intilish shakllanadi. Bunda guruhda bolaga qo'yiladigan talablar birligini saqlaydigai doimiy tarbiyachilarining ishlashi muhimdir.

O'yin - mashg'ulotlar, tarbiyachilar bilan birgalikdagi o'yinlar, keyinroq esa, o'yinlarga boshqa bolalarii epizodik tarzda qo'shilishi harakatda aloqa

o'rnatishga, bolaning muomala doirasini kengaytirishga, uning mustaqilligini rivojlantirishga imkon beradi.

Harakatli o'yinlar, jismoniy tarbiya va musiqa mashg'ulotlarida birgalikdagi harakatlar his - hayajonli zo'riqishni kamaytiradi, quvonch va zavq baxsh etadi, muomalaga ehtiyojni oshiradi. SHunday qilib, ijtimoiy aloqalarning kengayishi, pedagogik ta'sirni to'g'ri tashkil etish, moslashish davrining kechishini osonlashtiradi, bolani boshqa bolalar bilan birgalikda hayot kechirishga tezroq ko'niktirishga imkon beradi.

10.3. Ilk yoshdagи birinchi guruh bolalari hayotini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari

Ilk yoshdagи birinchi guruh bolalari hayotini to'g'ri tashkil etish bolalarning fiziologik extiyojlarini qondirish, ularni har tomonlama tarbiyalash vazifalariga va bolalarning yosh xususiyatlariغا muvofiq faol harakatini yo'lga qo'yishga imkon beruvchi ilmiy asoslangan kun tartibini ko'zda tutadi.

Ilk yoshdagи birinchi guruxda 2 oylikdan bir yoshgacha bo'lgan bolalar bu yoshda bolalar yosh davri bo'yicha:

- 1) 2 oydan 5 - 6 oygacha;
- 2) 5 - 6 oydan 9 oygacha;
- 3) 9 oydan 12 oygacha bo'lgan bolalar tarbiyalananadilar.

Har bir yosh davridagi bolalar hayot faoliyati va xulq - atvoridagi ba`zi xususiyatlari bilan farqlanadilar. Birinchi yoshning o'zidayoq faqat organik ehtiyoj emas, balki sensomotor, harakat faolligi asosidagi kattalar bilan muloqotda bo'lism ehtiyoji ham namoyon bo'ladi. Bolalar kattalarning parvarishisiz va ular bilan muloqotsiz yashay olmaydilar hamda to'laqonli rivojlana olmaydilar.

Hayotining birinchi yildagi har bir yosh davrida o'ziga xos tarbiyaviy vazifalar hal etiladi, pedagogik ta'sirning muayyan metodlaridan foydalilaniladi. Bir yoshdagи barcha yosh davriga mansub bolalar guruhda birgalikdagi sharoitda tarbiyalananadilar. Bolalar hayotini tashkil etishga oid asosiy vazifa tarbiyachi va enagaga yuklatilgandir. Ular kelishgan holda harakat qilib, bolalar parvarishi va tarbiyasini aniq amalga oshiradilar. Tarbiyachi bolalar bilan o'yinlar, o'yin - mashg'ulotlar tashkil etadi va shu bilan birga bolalar parvarishiga oid barcha jarayonlarda ishtirok etadi. Enaga xonani tozalaydi va tarbiyachiga bolalar hayotini to'g'ri tashkil etishga yordam beradi.

Ilk yoshdagи birinchi guruh bolalarning moddiy sharoiti har bir bolani va barcha bolalarmi birgalikda o'z vaqtida va to'laqonli rivojlantirish hamda tarbiyalashni ta'minlashga vazifadordir. Guruhlar xoialari o'z o'rniga qarab aniq ishlataladi: ayvon - bolalarning ochiq havoda uxlashi uchun, yotoqxona-bolalarning noxush havoda uxlashi uchun, umumiy xona - ovqatlantirish, bedorlik paytida bolalar bilan o'yin - mashg'ulotlar o'tkazish va hokazolar uchun mo'ljallangandir.

Umumiy xonada to'siqli manej uchun joy ajratiladi. Bunda maktabgacha ta'lim muassasasi xodimi har bir bola bilan erkin muomala qilishi muhimdir. Manejda faol mo'ljal olish - tadqiqot va predmetli faoliyat uchun kerak bo'ladigan qurollar va o'yinchoqlar mustahkam o'rnatiladi va erkin joylashtiriladi. Bolalarni

rvqatlantirishga mo'ljallangan stollar shunday joylashtiriladiki, tarbiyachi biror - bir bolani ovqatlantirayotganda boshqalari bilan muomala qila oladi.

Kun tartibi ilk yoshdagi birinchi guruhga mansub bolalar hayotini to'g'ri tashkil etishning asosiy vositasidir. Uning o'ziga xos tomoni shundaki, kun tartibi yil davomida uch marta o'zgaradi. Oy o'tgan sari ovqatlantirish miqdori, uyqu va bedorlikning almashinuvi kamayadi, bedorlikda bo'lish davomiyligi uzayadi.

Uch yosh guruhiga mansub bolalarning bir guruhda birgalikdagi hayotini to'g'ri tashkil qilish, bu kun tartibini har bir yosh guruhidagi bolalar o'z kun tartiblari asosida yashasinlar va bir guruh bolalari ikkinchi guruhdagi bolalarga xalaqit bermasınlar deganiqir.

Yasli va yasli - maktabgacha ta`lim muassasasilarga bolalarni ilk yoshdagi birinchi guruhga qabul qilish ertalab soat 6.30 daqiqadan 7 - 8 gacha davom etadi.

Guruhda 9 - 12 soat bo'ladigan 2 oydan 5 - 6 oygacha bo'lgan bolalar 3 - 4 marta uxlaydilar (2 soatdan), uch marta ovqatlantiriladilar va ertalab, kunduzi, kechqurun 1,5 soatdan bedor bo'ladilar, 5 - 6 dan 9 - 10 oygacha bo'lgan bolalar guruhda 9 - 12 soat bo'lish mobaynida uch martadan ovqatlantiriladilar, 2 soatdan uch mahal uxlaydilar, ertalab, kupduzi va kechqurun 2 soatdan bedor bo'ladilar.

Guruhda kuniga 9 - 12 soat bo'ladigan 9 - 10 oylikdan 1 yoshgacha bo'lgan bolalar uch marta ovqatlantiriladilar, ertalab va kechqurun 2 marta uxlaydilar, ertalab, kunduzi va kechtsurun 2,5 soatdan bedor bo'ladilar.

Agar ertalabki qabuldan boshlab to bolalar otaonalari bilan qaytib ketgunlariga qadar e'tibor qilinsa, kun tartibi jarayonlarining kechishiga bir guruhdagi bolalarning uyqu payti boshqa guruhdagi bolalarning bedorlik paytiga, ba'zi bolalarning ovqatlanish payti esa boshqa guruhdagi bolalarning o'yin - mashg'ulotlari vaqtiga to'g'ri kelar ekan.

Uch yosh guruhidagi bolalarning kun tartibi quyidagicha tashkil etiladi. Bolalarni tarbiyachi qabul qiladi, bolalar sog'lig'ini aniqlaydi, bolaning qanday uxlaganini so'rab - surishtiradi, erkab, qo'liga o'yinchoqlar berib, uning ota - onasi bilan xotirjam xayrashib qolishiga harakat qiladi.

So'ng (soat 7.30 daqiqadan to 8 gacha) tarbiyachi umumiyligi xonada 5 - 6 oylikdan 9 - 10 oygacha bo'lgan bolalarni kiyintiradi, enaga esa, ularni ayvonga olib chiqib, to ular uxbab qolguncha shu erda bo'ladi. Bu guruhdagi bolalar 9,5 soat uxlaydilar.

Uyqudan oldin (to'shak to sovib ulgurmasdan) barcha derazalar ochilib ayvon bir shamollatib olinadi (shamol urib turadigan tomondagi derazalarni yopiqligicha qoldirish mumkin). Soat 7.30 daqiqadan boshlab 9 - 10 oydan 1 yoshgacha bo'lgan bolalarga nonushta qildiriladi, SHundan so'ng tarbiyachi ularning bedorligini tashkil etadi, ular bilan o'yin - mashg'ulotlar o'tkazadi, soat 9 dan boshlab birinchi uxlashga yotqizadi. So'ng bolalarning uyg'onishiga qarab birinchi kichik guruh bolalarini o'rnidan turg'azadi (5 - 6 oylikkacha bo'lgan bolalarni), ovqatlantiradi va ular bedorligini tashkil etadi. Undan so'ng soat 10 da ikkinchi guruh bolalarini ham uyqudai turg'azadi va ovqatlantiradi (5 oydan to 9 - 10 oylikkacha). Ovqatlantirishni tarbiyachi va enaga amalga oshiradi. Enaga ovqatlantirishni yakunlaydi, tarbiyachi esa birinchi kichik guruh bolalari bilan o'yin - mashg'ulotlar uyushtiradi. Soat 10 dan 11.30 daqiqagacha tarbiyachi

ikkinchi kichik guruhdagi har bir bola bilan (yakka tarzda) o'yin - mashg'uloti o'tkazadi. Soat 11 da birinchi kichik guruhdagi bolalarning bedorligi tugaydi. Ularni asta - sekin ayvonda uqlashga yotqiziladi. Bu vaqtga kelib uchinchi kichik guruhdagi bolalar uyg'onadilar, ular o'rnidan turg'azilib, yuvintiriladilar, tushlik qildiriladilar. Tarbiyachi biroz vaqt dan so'ng ular bilan ikkinchi o'yin-mashg'uloti o'tkazadilar (butun boshli kichik guruh yoki har bir bola bilan navbatma - navbat).

Soat 12 dan boshlab ikkinchi kichik guruh bolalarini (bedorlikdan so'ng) uqlashga yotqiziladi. Tarbiyachi va eiaga bolalarni kiyintirib ayvonga olib chiqadilar.

Kunduzi soat 13 dan boshlab uyqudan turish va yuvinish - taranishdan so'ng birinchi kichik guruh bolalari ovqatlantiriladi, shundan so'ng ular ayvonda bedor bo'ladilar. So'ng tarbiyachi uchinchi kichik guruh bolalari bilan o'yin-mashg'uloti o'tkazadi. Biroz vaqt o'tgach, 9 oydan 12 oylikkacha bo'lган bolalar uqlashga yotqiziladi.

Soat 14 dan boshlab ikkinchi kichik guruh bolalari turg'aziladi va ovqatlantiriladi, so'ng manejda ular bedorligi tashkil etiladi va ular bilan o'yin - mashg'ulotlari o'tkaziladi.

Kun davomida uchinchi marta 14.30 dan boshlab birinchi kichik guruh bolalarini ayvonda uqlashga yotqiziladi. Tarbiyachi ularni kiyintiradi, enaga esa ularni ayvonga olib chiqib yotqizadi.

Soat 15 dan 16 gacha ikkinchn kichik guruh bolalari bedor bo'ladilar. Soat 16 dan boshlab ular uqlashga yotqiziladi. Bu vaqtda esa uchinchi qichik guruh bolalari uyqudan turg'aziladi va ovqatlantiriladi.

Soat 16.30 dan boshlab birinchi kichik guruh bolalari asta - sekin uyqudan turg'aziladi, so'ng ota - onalar birinchi va uchinchi kichik guruh bolalarini uyg'a olib ketishlari mumkin.

Soat 18 da ikkinchi kichik guruh bolalarn asta - sekin turg'aziladi va ovqatlantiriladi hamda ular bilan o'yin - mashg'ulotlari o'tkaziladi. Soat 18.30 dan 19 gacha ota - onalar bolalarni uyg'a olib ketadilar.

Birinchi guruh kun tartibi uchun kun tartibi jarayonlarining tez - tez almashinib turishi xosdir. Kun tartibini aniq tashkil etish uyqu, ovqatlantirish, hojatga borish, bedorlikni o'tkazishdagi pedagoglik ta'siri bilan qo'shib olib boriladi.

Uyquni ochiq havoda tashkil etish uchun ayvon zarur. Bolalar harorat 10 - 15 darajadan past bo'lмаган havoda maxsus kiyimda uyquga yotqiziladi. Bolalar uqlaydigan xona osuda bo'lмog'i lozim. Bu ayniqsa kunduzgi uyqusi arzimagan narsaga ham buziladigan 8 - 9 oydan katta bolalar uchun zarur.

Uyqu oldidan bolalarni beeovta qilmaydigan tinch sharoit yaratiladi. Agar bola uqlamasa (bu ko'proq 9 - 12 oylik bolalarga tegishli), uning to'shami yonida bir oz o'tirib turiladi. Uyquga ajratilgan vaqtga rioya qilish lozim, uyqudan ertaroq uyg'onib ketish sabablarini bartaraf etish va uyqu muddatini cho'zishga harakat qilish kerak. Uyg'ongan bolani qayta yotqizishning imkonini bo'lмагanda uni guruhga olib ketilib, manejga joylashtiriladi.

Har bir bolani ovqatlantirish uyqudan turgach va hojatdan so'ng unga mo'ljallangai ovqat turi bilan o'tkaziladi. Juda ovqat egisi kelgan bolalarni birinchi

bo'lib ovqatlantiriladi, qolganlarini esa 10 - 15 daqiqa manejda qoldiriladi va keyinroq ovqatlantiriladi. Bolaga 4 - 5 oylikdan boshlab ovqat va yarim quchoq holda qoshiqii yarim - yarim qilib beriladi. Bola bu paytda ovqatlantiruvchi tizzasida yarim o'tirgan holda bo'ladi. Uni yangi turdag'i ovqatga asta - sekin o'rgatib boriladi: choy qoshiqda sila - sila qilib ovqat, so'ng ko'krak suti beriladi. Ovqatlantirish paytida xotirjam sharoit bo'lishi lozim, aks holda bola tez chalg'iydi va ovqat emay qo'yadi.

5 - 6 oylik bolalar ham kattalar qo'lida yarim o'tirgan holda ovqatlantiriladi. Bolalar ovqatpi ko'rganlarida mustaqil tarzda og'izlarini ochadilar. 7 - 8 oylik bolalarga chaynashga ko'nikishlari uchun non gardishini, qattiqroq pecheneni berish mumkin. Sakkizinch'i oyda bolalar yaxshi o'tiradigan bo'lgach, ikkitadan qilib maxsus stolga o'tkaziladi va tarbiyachi ularni navbatma-navbat ovqatlantiradi. Ovqatlantirish paytida bolalarni ozodalikka, saranjomlikka o'rgatish zarur. Buning uchun ular doimo toza stolda ovqatlaitiriladi, ovqat oz - ozdan sekin - sekin beriladi, bu bilan bolaga ovqatni chaynash imkon'i yaratiladi, og'zini artib turiladi. Xodimlar bolaning ishtaha bilan ovqatlanishini yoki unga atalgan ovqatni eyayotganini kuzatib boradi. 10 - 11 oylik bolalarni mustaqillikka o'rgatayotganda hali qoshiq tutishni bilmaganlari uchun qattiq non berib qo'yiladi. Ovqatlantirish jarayonida ovqatning nomini, harakatlarni ko'rsatib berish, bolani ovqatning hammasiii eyishga xotirjam va suyib rag'batlantirish lozim.

Tarbiyachi bir kichik guruh balalarni ovqatlantirayotganda ham manejdag'i bolalardan ko'zquloq bo'lib turadi.

Bolani ovqatlantirib bo'lgach, uni manejga qo'yiladi. Tarbiyachi uni erkalab, turli o'yinchoqlar bilan siylaydi va u harakatlarni bajarishga o'rgatiladi. So'ng, tarbiyachi boshqa bolalarni ovqatlantirishda davom etib, manejdagilar ahvoldidan xabardor bo'lib turadi.

Bolaning kiyimi almashtirilayotganda, yuvintirilayotganda u haroratning o'zgarishiga juda sezgir ekanligiga, kattalarning keskin harakatlari ham salbiy ta'sir ko'rsatishiga e'tibor berish zarur. Bolani yo'rgaklayotganda, yuvintirayotganda, ho'l kiyimini almashtirayotganda gapga solish, avaylab muomala qilish joiz.

Bolalar hayotnning birinchi yilida bolalarining ularda xilma - xil xulq shakllari tarkib topadi. Tarbiyachi yoki enaga bedorlik soatlarida kichik guruhdagi har bir bolani o'yinchoqlarni tomosha qilishga, narsalar bilan harakat qilishga, qichqirishga, harakatlanishga, tovushlarga kuloq tutishga, kattalar bilan muloqotga undaydi. Bu davrda eng muhimi - tadqiqot mo'ljal olish faoliyatini tashkil etishdan iboratdir.

Kun davomida birinchi kichik guruh bolalarining bedorligi uch davrda tashkil etiladi. Birinchi davr soat 9.30 daqiqadan to 11 gacha, ikkinchi davr soat 13 dan to 14.30 gacha, uchinchi davr soat 10.30 daqiqadan to bolaning uyg'ongandan so'ng o'rnidan turg'azishni, yuvinishni, massajni, qayta kiyintirishni, ovqatlantirishni (bolalar yasliga emizgani kelgan onalarga beriladi yoki bolalar guruhda ovqatlaitiriladi) o'z ichiga oladi. So'ng bedorlikning qolgan qisminn bolalar manejda o'tkazadilar. Bolalar manejga kiyiitirgan holda joylanadi: 3,5 oylik

bolalarning qo'li ochiq qoldiriladi, gavdasi va oyoqlari esa yo'rgaklanib, paxmoq adyolga o'raladi. 4 - 5 oylik bolalar kofta polzunkalarda bo'ladilar.

Bedorlik vaqtida bolalar bilan muloqot, bolalarning mustaqil faolligi va tarbiyachi tomonidan o'tkaziladigan o'yin - mashg'ulotlar uyuştiriladi. Tarbiyachi bolalarda mo'ljal olish - tadqiqot harakatlarini rivojlantirish uchun bolaga shaqaldoqlar beradi, ularni ushlashga undaydi, agar bola ushlay bilmasa, shaqaldoqni uning kaftiga qo'yadi, uni ushlashga, so'ngra tutib turishga da`vat etadi.

Tarbiyachi ba`zan bolaning harakatlarni rag'batlantirish uchun shaqaldoqni faqat uning qo'liga emas, balki og'ziga ham yaqinlatishi mumkin. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, bunda bilishga oid faollik ortar ekan. Tarbiyachi eshitishni rivojlantirish maqsadida uzoqdan nimadir taqillatadi, bolaning ovoz kelayotgan tomonga boshini burishini kuzatadi, jarangdor qo'shiq, metallofon, childirma ovozi bilan bolalar ko'nglani ochadi.

Guruh mutasaddilari taassurotlarni boyitish, ijobiy his - tuyg'ularni rag'batlantirish maqsadida bolalarni vaqtiga - vaqtiga bilan qo'lga olib ko'taradilar, ularni kuldiradilar, ularning guvranishlari va bijir-bijirlarini qo'llab - quvvatlaydilar.

Bedorlikning birinchi davrida 6 oylikkacha bo'lgan bolalarni massaj qiladilar va havo vannasida tutadilar.

Ovqatlantirilgandan so'ng 25 - 30 daqiqa o'tgach, bolalarning oldingi mustaqil harakatlarini hisobga olgan holda yakka tarzda o'yin - mashg'ulotlar o'tkaziladi. Masalan, tarbiyachi o'yin - mashg'uloti o'tkazmoqchi bo'lgan bola etarlicha harakatlar bajargan bo'lsa, u bilan nutq o'stirishga oid o'yin - mashg'uloti o'tkazishi lozim bo'ladi; agar bola harakatsiz qolib, o'ynichoqlarni tomosha qilgan va guv - guvlagan bo'lsa, harakatlarni rag'batlantiradigan, sudralishni o'stiradigan o'yin - mashg'ulotlarni o'tkazgani ma'qul.

Nutq, qo'llar harakatlari, umumiy harakatlarni rivojlantiruvchi o'yin-mashg'ulotlarni har bir bola bilan yakka tarzda o'tkaziladi. Ular 3 daqiqadan 6 daqiqagacha davom etadi. Odatda, bolalar bilan o'tkaziladigan o'yin-mashg'ulotlari manejda olib boriladi. U erda bolalar bedorlik tugaguncha bo'ladilar. 3 - 4 oylik bolaga chalqancha yotishdan qorni bilan yotishga o'tish uchun kattalarning yordami talab etiladi, 5 - 6 oylik bola esa o'zi erkin ag'darila oladi, qo'llariga tayanib tura oladi, tirsakdan bukilgan qo'llari bilan siljiy oladn. Siljishni rag'batlantirish maqsadida bolaning oyog'iga kaftni qo'yish, shuningdek, o'ynichoqqa jalb qilish mumkin.

Ikkinchi kichik guruh bolalari (5 - 6) dan 9 - 10 oygacha ertalab 7 dan 8 gacha, so'ng 10 dan 12 gacha, 14 dan 16 gacha va bedorligini tashkil etish soat 8 dap to ota - onalari ishdan qaytgunlarigacha bedor bo'ladilar. Bedorlikni tashkil etish chog'ida bolalarda ijobiy xulq, harakat va nutqiy faollik, narsalar bilan xilma - xil harakatlarni bajarish uchun sharoitlar yaratiladn.

Bedorlikni tashkil etish jarayoni bolalar uyg'ongandan so'ng boshlanadi. Tarbiyachi bolalarni asta - sekin kiyintiradi va ovqatlantiradi. So'ngra bolalarni (koftochka, to'pig'i yopiq ishtonchalar, kolgotkalar va jun paypoqlar kiygan) emaklash, ko'tarilish, turish, o'tirish uchun jihozlangan manej tepaga joylashtiradi.

U erda shuningdek, bir necha qopqoqli qutilar, bir necha qopqoqli tog'orachalar, ikki qavatli matreshkalar, koptok va hokazolar (bir vaqtning o'zida u juda ko'p o'yinchoqlarni qo'yish mumkin emas) qo'yiladi.

Bolalar ovqatlantirilgan zahoti biroz muddat mustaqil ravishda o'yinchoqlar bilan mashg'ul bo'ladilar, atrofdagi narsalarni ko'zdan kechiradilar, tinglaydilar. Tarbiyachi ovqatlantirishni tugatgach, ikkinchi kichik guruh bolalari bilan yakka tarzda o'yin - mashg'ulot o'tkazishga o'tadi, bola bungacha nima bilan shug'ullanganini hisobga olgan holda massaj va gimnastikaga kirishadi.

Bedorlik jarayonida xodimning har bir bola bilan muloqoti tarbiyaviy va ta`limiy jihatga ega bo'ladi. SHu maqsadda ob`ektiv - yo'naltirilgan muloqotdan foydalaniлади, bunda tarbiyachi bola diqqatini narsa yoki harakatga qaratadi va ilu zahoti uning nomini aytadi. Bolalarda yangi, to'satdan paydo bo'ladigan narsalarga nisbatan mo'ljal olish reaktsiyasi rivojlantiriladi, g'ayriixtiyoriy diqqati rag'batlantiriladi. Bu ayniqsa bola bilan muloqotga kirishish paytida, tarbiyachi qo'lida oldin choyshab tagiga yoki xalat cho'ntagiga yashirib qo'yilgan yangi o'yinchoq paydo bo'lganda yaqqol namoyon bo'ladi. SHu zahoti o'yinchoq bilan bir - ikki harakat qilib, uni yashirish, bu bilan unda o'yinchoqni yana ko'rishga istak uyg'otish, uni takror ko'rsatib, qidirishga undash lozim. Bolalarga yangi narsalarni ko'rishga qiziqishni yangi buyumlar, harakatlar, kattalar tashrifidan foydalangan holda bir necha marta uyg'otish kerak. Notanish odamlar, yangi o'yinchoqlar bolalarda ovoz reaktsiyalari uchun zarur bo'lgan bevosita jonlanish uyg'otadi, tarbiyachi esa bola talaffuz etgan bo'g'irlarni takrorlagan holda bolani yana takrorlashga undashi lozim. Tarbiyachi buning uchun bedorlik vaqtida «ha-ha-ha», «ma-ma-ma» qabilidagi bo'g'irlarni mashq qilishga undashi kerak. Tarbiyachi bolaning o'yinchoqlar bilan muomala qilishidan uni bir vaqtda ikki buyum bilan harakat qilishga o'rgatishda foydalaniadi, u bu harakatlarni dastlab bola qo'li bilan bajaradi yoki harakat usulini bir necha marta ko'rsatadi, Bedorlik chog'ida harakatlarni o'stirish katta o'rinni egallaydi. Bolalar 7 - 8 oylikdan boshlab emaklaydi. Tarbiyachi emaklashni takomillashtirish maqsadida bolalarni erkalagan holda ularga o'yinchoqlarni ko'rsatadi, ularni o'yinchoqmi emaklab kelib olishga undaydi. Bola shikastlanmasligi va yiqilmasligi uchun uning mustaqil harakatini kuzatib turish lozim, aks holda bola cho'chib qolishi va kerakli harakatni bajarmay qo'yishi mumkin.

Bedorlikning ikkinchi davrida tarbiyachi o'yin - mashg'ulotlari o'tkaza borib har bir bolaning faolligini uyuştiradi. Agar tarbiyachi bu vaqtida boshqa bolalar ham uni diqqat bilan kuzatib turishganini bilib qolsa, ularni ham mashg'ulotga jalb qiladi. SHunday qilib, birmuncha kichik guruh bilan o'yin-mashg'uloti o'tkazish mumkin bo'lib qoladi.

Bolalarning mustaqil faolligidan uyuştiriladigan o'yin - mashg'ulotiga o'tishi tabiiy va ixtiyoriy kechadi.

O'yin - mashg'ulotlarni bolalarni buyumlar bilan qilinadigan yangi harakatlarga, buyum va harakatlarning nomini anglatuvchi yangi so'zlarga o'rgatish uchun o'tkaziladi. Bedorlik soatlarida bolalarni ovutish maqsadida «Quvlashmachoq», bekinmachoq va hokazo tipidagi quvnoq o'yinlarni tashkil etish ma`qul.

9 - 10 oydan 1 yoshgacha bo'lgan bolalar ko'proq bedor bo'ladilar. SHu vaqtida massaj va gimnastika o'tkaziladi. Qabuldan so'ng ular 2 soat (soat 7 dan 9 gacha) bedor bo'ladilar. Kunduzi ular soat 11,5 dan 14 gacha, ya`ni 2,5 soat (bedorlikning bu davrida o'yin - mashg'ulotlari o'tkaziladi) va tushdan so'nt 16 dan 18 gacha bedor bo'ladilar. Bedorlik vaqtida go'dakmi har tomonlama rivojlantirishga, ayniqsa, unda asosiy harakatlarni, buyumlar bilan bajariladigan harakatlarni, nutqni o'stirishga qaratilgan yaxlit tarbiyaviy ishni o'tkazish lozim. Buning uchun to'siq ortidagi guruh xonasida divancha, quti, xoda, yoy va boshqa narsalar qo'yish kerak. Bu yoshdagi bolalar emaklay oladilar, suyanchiqqa tayangan holda erkin tura oladilar va oshib o'ta oladilar, mustaqil tarzda yura boshlaydilar. Dastlabki paytda bola ikki - uchta cho'chib - cho'chib qadam tashlaydi. Kattalar bolani diqqat bilan kuzatib borib, yiqilmasligi uchun ushlab boradilar. Baquvvat, sog'lom, ko'p vaqtini harakatda o'tkazadigan bolalar tarbiyachiping «Dilorom, kelaqol» degan undoviga bajonidnl ko'nib yura boshlaydilar. Bolalar yil oxiriga kelib, kattalar yordamida va mustaqil yura boshlaydilar, o'tira oladigan bo'ladilar, o'rindiqlarda o'tiradilar, u yoq - bu yoqqa o'girilib «o'ynaydilar». Bolalar bedorlik vaqtida turli buyum va o'yinchoqlar bilan maqsadga yo'nalgan harakatlar qiladilar. Yangi harakat usullari pi rivojlantirish maqsadida bolalarga rezinali, tselluloidli va plastmaesali sgojetli o'yinchoqlardan tashqari ular mayda buyumlarini soladigan paqirchalar, tovoqchalar, bitonchalar va hokazolar, shuningdek, qopqoqli qutichalar, matryoshkalar, kubiklar, turli kattalikdagi koptokchalar beriladi. Shuningdek, bolalarga ularni taqlidiy harakatlarga undagan holda syujetli o'yinchoqlar (qo'g'irchoq, kuchukcha va h. k) taklif etiladi: «qo'g'irchoqni allalash», «qo'g'irchoqni boqish» kabi harakatlar uchun.

Tarbiyachi mustaqil o'yinlardan so'ng shu erving o'zida bolalarning to'siq ortidagi doimiy o'yinlari o'rniga rejada ko'rsatilgap o'yin - mashg'ulotni 3 - 4 bola bilan bir vaqtida o'tkazadi. Bunda bolalarning nutqini o'stirishga oid mashg'ulotlar katta o'rin egallaydi.

Shunday qilib, bir yoshli bolalar hayotini tashkil etishda kun tartibi markaziy o'rinni egallaydi. Shu bilan birga to'g'ri tashkil etilgan kun tartibini bolalar faolligisiz tashkil etib bo'lmaydi. Bolalarni o'rab turgan va ular imkoniyatlariga hamda tarbiya vazifalariga muvofiq keluvchi moddiy muhit vaqt - vaqt bilan o'zgarib turadi.

Bedorlikni tashkil etishda bolalarning turli xulq shakllaridagi ehtiyojlarini qondirish, shuningdek, bolaning muomala, harakatlar, buyumli harakatlar, bilish jarayonlari, nutqni o'stirishga, har tomoilama tarbiyalash vazifalarini hal etishga yo'naltirilgan faol faoliyatini murakkablashtirish ko'zda tutiladi.

Birgalikdagi hayot tarzi sharoitlarida bolalar faoliyatining yakka tarzdagi shakllarini keng tashkil etish va ular bilan muomala qilish imkoniyati bo'lganda kichik guruqlar bolalari bilan kun tartibi jarayonlarini amalga oshirish ko'zda tutiladi. Yosh davrining oxirida alohida guruhiy o'yin - mashg'ulotlarga o'tish mumkin.

10.4. Uslubchi tomonidan ilk yosh guruxlarida bolalar hayotini tashkil etishga raxbarligi.

Birinchi guruhda ikki yosh guruhidagi: 1 yoshdan 1,5 yoshgacha va 1,5 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan kichik guruh bolalari tarbiyalanadi.

Ilk yoshdagi bolalarning ikkinchi guruhidagi hayotini to'g'ri tashkil etish kun tartibiga ikki kichik yosh guruhidagi bolalar kundalik hayotiga muvofiq tarzda aniq amal qilishni talab qiladi. Bu narsa tarbiya vazifalarini hal etishni, bolalarning faolligini muntazam tarzda almashtirib turilishini ta`minlaydi.

Bu yoshdagi bolalarning ko'pchiligi yasli - mактабгача та'лим muassasasiga endigina qatnayotgan bo'ladilar. Ular hali ilojsiz, kattalarga to'la qaram bo'ladilar, atrofdagi narsalarga katta qiziqish bilan qaraydilar. Hayot faoliyatining qaror topgan ritmi, bedorlikning uzayishi, mustaqil yura olish, maxsus tanlangan buyumlar bilan harakat qilish, murojaat qilib aytilgan so'zlarni tushunib olish va o'z xulqini kattalar ko'rsatmasi asosida boshqara olish malakasi guruhda bolalarning mazmunli hayotini tashkil etish va ularning har tomonlama tarbiyasini, shuningdek, keyingi birgalikdagi hayotini rivojlantirishning muhim asosidir.

Ikkinci yil davomida bolalarda yurish malakalari takomillashadi, ular maxsus va qurolli harakatlarni bajara boshlaydilar, ko'proq muloqotga kirishadilar, buyumli - tasviriy o'yinlarni o'ynay boshlaydilar. Shunga muvofiq asosiy binolarni guruh xonasi, yotoqxona, ayvon, qabulxona, hojatxonani jihozlash va bezashga yangi talablar qo'yish ikkinchi yildagi rivojlanishning asosiy yo'nalishlari hisoblanadi. Mebel guruh xonasida shunday qo'yilishi kerakki, xona o'rtasida yurish uchun ko'proq bo'sh joy bo'lsin. Bolalar yurish paytida tez charchab qoladilar, shuning uchun ayrim joylarga divancha, stullar qo'yib qo'yiladi. Devordagi tokchalarda katta - katta obruzli o'yinchoqlar: qo'g'irchoqlar, ayiqchalar, kuchukchalar joylashadi. Bolalar ularni oladilar va yurish chog'ida ko'tarib yuradilar. Bu yurish chog'ida qo'l va oyoqning vazifalarini takomillashtirishga va harakatlarni muvofiqlashtirishga yordam beradi. Harakat faolligini o'stirish uchun derazaga yaqin joyda sirg'aladigan qiya tepachalar o'rnatiladi. U ayni paytda tashqarida nima bo'layotganiii kuzatish imkonini ham beradi. Bolalarda funktsional va qurolli harakatlarni shakllantirish uchun burchak ajratiladi, unda katta mashinaladi (agar ota - onalar bolalarini guruhga kechroq olib keladigan bo'lsa, ular uyda engil nonushta qilib olgan bo'ladilar).

Bolalar 1 yil-u 2 oylik - 1 yil-u 3 oylikdan to'rt kishilik stol atrofida o'tirib, quyuq bo'tqani qoshiqda mustaqil tarzda tanavvul qiladilar. Agar bolalar eyishdan charchasalar, ular ovqatlantirib qo'yiladi. Buning uchun tarbiyachi yoki enaga bola yoniga o'tirib, unga yordamlashadi, ayni paytda ular boshqa bolalar harakatini ham boshqarib boradilar: «Botir qoshiq bilan egin, nondan tishla» kabi.

Bolalarda ovqatni xush ko'rish, berilgan taomning hammasini mustaqil eyish malakasini tarkib toptirish lozim. Tarbiyachi bolalarning ishtahasini kuzatib boradi, zo'r lab ovqat edirishdan o'zini tiyadi.

Kichik yoshdagi bolalar birinchi kunduzgi uyqudan uyg'ongach (1,5 yoshgacha bo'lgan bolalar), ovqatlantiriladi, chuiki ularni oxirigacha

ovqatlantirishga to'g'ri keladi, shunda ularni stol atrofiga 3 - 4 tadan qilib o'tqaziladi. Bu yoshdagi bolalar ovqat berilishini uzoq kutib tura olmaydilar, shuning uchun bolaning qo'li yuvdirilib, stolga o'tqizilgach, darhol birinchi ovqatni, ikkinchi ovqatni, uchinchisini berish lozim. Ovqatlanib bo'lgach, bola darhol o'ynagani ketadi, tarbiyachi esa qolganlarni ovqatlantiradi, shuningdek, bu vaqtida o'ynayotganlarni nazorat qilib boradi.

Ovqatlantirish asnosida bolalarda baholi qudrat mustaqillik malakalari hosil qilinadi. Ular yoshi 1 yil-u 4 oyga etgach, sho'rvani mustaqil ichishlari va ayni paytda non burdasini tishlashlari, qo'llarida piyolani ushlab, undan ichishlari mumkin. Buning uchun ovqatlanishga zarur bo'ladigan harakatlar bola bilan birgalikda bajariladi va ularning nomi aytildi. Ovqatlantirish chog'ida bolalar orastalikka o'rgatiladi. Tarbiyachi va enaga ovqatlanish chog'ida bolalarning qo'li va yuzining tozaligiga e`tibor berishadi, yuz - qo'li iflos bolalarni yuvib salfetka bilan artishadi, stoldagi ortiqcha narsalarni o'z vaqtida yig'ishtirib oladilar.

Katta yoshli bolalarning barchasini birga tushlik qildiriladi. 1,5 dan 2 yoshgacha bo'lgan bolalar ovqatlanish chog'ida katta mustaqillik ko'rsatadilar. Biroq ularda hali suzilgan ovqatni to'la eyishga oid barqaror malaka yo'q, shuning uchun tarbiyachi va enaga ular xatti - harakatini so'z bilan boshqarish imkonini hisobga olib, bolalarga qanday harakat qilishni aytib turadilar. Ovqatlanishni to'g'ri tashkil etish oxir - oqibatda bolalarni o'z vaqtida va to'laqonli rivojlantirishga hamda ularda baholi qudrat mustaqillikni tarbiyalashga qaratilgandir. Ovqatlanishdan so'ng bolalar o'yinga kirishadilar.

Uyqu ikki yoshli bolalar hayotida muhim o'rinni egallaydi. To'g'ri tashkil etilgan uyqu butun ta`lim - tarbiyaviy ishning muhim qismi hisoblanadi. Bolalar uyqusi doimo toza havo kirib turadigan ayvon yoki binoda tashkil etiladi. Uyqu ochiq havoda, +10 darajadan kam bo'limgan haroratda o'tkaziladi. Bolalarni uyquga yotqizish jarayoni xotirjam kechmog'i lozim. Tarbiyachi va enaga bolalarga yumshoq muomala qilib, bolalarpi echinishda ham baholi qudrat ishtirot etishga jalb qilishlari lozim (poychasi berk ishtonni echish, qo'lni chiqarish va hakazo).

Kattalar bolalar uxlayotgan paytda ularning yotish holatlari qulaymi-yo'qmi, biror nima bezovta qilyaptimi - yo'qmi kuzatib boradilar, oldinroq uyg'ongan bolalarga uplashga yordam beradilar.

Kattalar bolalarning tozaligiga, ularni orastalikka o'rgatishga ko'p e`tibor berishlari lozim. Buning uchun mazkur yoshdagi bolalarga mo'ljallangan maxsus bino va jihozlarga ega bo'lismish, to'g'ri usullarni qo'llanish kerak.

Bolalarning qo'li ovqatlanish oldidan yuvdiriladi, buning uchun yuvinish xonasiga bir vaqtning o'zida 2 - 3 bola kiritiladi. 1 yil-u 2 oylik - 1 yil-u 3 oylik bolalarni qo'lini suvg'a tutish va ishqalashga o'rgatiladi. Ikki yoshga etgan bolalar o'z sochig'ini topishga va uni joyiga olib borib ilishga o'rgatiladi. Kattalar bolalarning mustaqillikka intilishini rag'batlantiradilar: «Qo'lingni tut, Lola, hozir suv keladi» va hokazo

Tarbiyani to'g'ri olib borganda 1,5 yoshli bolalar tuvakka o'zlarini o'tirishlari kerak, biroq bu odad, hatto 2 yoshda ham barqaror bo'lmasligi mumkin. Bolalarni uyqudan so'ng, uyqudan oldin, sayrdan oldin va undan so'ng, albatta tuvakka

o'tkazish zarur. Bu yoshli bolalarda asta o'z fiziologik ehtiyojlarini nazorat qila olish malakalarini mustahkamlash lozim.

Bolalarning tashqi ko'rinishini diqqat bilan kuzatib borish, uning kiyimini o'z vaqtida tuzatib turish va unda toza va chiroyli kiyimdan quvonish hissini uyg'otish lozim.

1 - 2 yoshli bolalarda birinchi yarim yillikda qo'g'irchoq, mashina va shu kabilar bilan o'ynaladigan ayrim syujetli o'yinlar rivoqlanadi. Buyumlar bilan qilinadigan harakatlarni umumlashtirish asosida bolalar bir buyum harakatini ikkinchisiga ko'chiradilar.

Tarbiyachi o'yinchoqlarni tanlar ekan, bolalarni syujetli o'yinlarga jalb qiladi, harakat usullarini ko'rsatadi, so'ngra bolaning mumkin qadar so'zlarni, buyum va harakat nomlarini takrorlab natijaga erishishiga intilib, bolaga harakatni qayta takrorlashni (namunaga ko'ra kubiklardan kuchukcha uchun uycha, qo'g'irchoq uchun esa stol, stul yasashni) taklif qiladi.

Bolalarning syujetli - tasviriy o'yinlarini tashkil etishning xususiyati kattalarning doimiy ko'magi, ularning e'tiborini o'yinchoqlarga jalb etishi, o'yin mazmuiiga ko'ra masla-hatlar berishi, bolalarni bir harakat yo'lidan ikkinchisiga o'z vaqtida ko'chirishidir. Bolalar qator turib o'ynaydilar va bu o'rinda muhim ularning bir - birlariga xayrihohlik hissini bildirib, o'yinchoqlarni bemalol almashishlaridir. Tarbiyachi bolalarda muomalaning ijobiy shakllarini mustahkamlaydi va salbiy shakllarni yuzaga kelishining oldini oladi. Kichik bolalarni ular taqlid qilib, harakatlarni takrorlab olishlari uchun katta bolalar harakatlarini kuzatishga jalb etish mumkin.

Ilk yoshdagagi bolalar ikkinchi guruhining kun tartibida bolalarning buyumlar bilan bo'ladigan xilma - xil harakatlariga funksional va boshqariladigai harakatlar mutanosib nisbatini xisobga olib katta o'rinni berilishi kerak.

Ertalab, tarbiyachi bolalarni qabul qilish bilan band bo'lgan, enaga esa guruh xonasida bo'lgan vaqtida kichik va katta guruhlar bolalari diqqatini harakat usullari o'zlashtirilgan va mustaqil bajarilishi mumkin bo'lgan materiallardan qurilish materiallari, xalq didaktik o'yinchoqlari: piramidalar, matryoshkalar, bir - birining ustiga qo'yiladigan kub va shu kabilarga jalb qilish o'rnlidir. Bolalarga asbobi harakatlarni bajarish uchun qo'llanmalarni ham: yog'ochga mixlarni qoqish uchun bolg'acha, suvdan sharchalarni tutish uchun to'r va shu kabilarni tavsiya etish mumkin.

Ertalabki hamma guruhlar uyg'oq bo'lgan qisqa muddatda bolalarning to'rejab yonma-yon harakatda bo'lishlari muhim-dir. 1 - 1,5 yoshli bolalar yog'och qoziqqa hajmi bir xil yoki hajmi ikki - uch xil yoki ikki xil rangdagi halqalarni tizishlari, qutichalarni ochishlari va yopishlari, matryoshkalarni ikki qismdan yig'ishlari, kubiklardan minora yoki mashinalar uchun yo'lkalar qurishlari mumkin va shu kabilar.

Kichik guruhlarda kunduzgi uyqudan keyingi mustaqil o'yinlar tarbiyachi rahbarligi ostida o'tadi. Etarli vaqtga ega bo'lgan tarbiyachi bolaning harakatlarini to'g'ri bajarilishiga e'tibor beradi va har biriga ko'maklashadi.

Buyumlar bilan harakat katta yoshdagagi bolalar bilan muloqotni o'rnatilishiga yordam beradi. Shaxsan muloqot bolalar faolligini oshiradi va ularni kattalar

ko'rsatgan harakat usulini takrorlashga yo'llaydi. Agarda kattalar o'yinchoqlar bilan bo'ladiqai yangi harakatlarni bolalarga qarab turib ko'rsatsa va bolaga jilmayib murojaat qilsa, bu kichkiitoyning sodir bo'layotgan voqeaga diqqatini oshiradi hamda harakat usulini yaxshiroq egallanishiga olib keladi.

Nazorat savollari:

1. Bolalar hayotini tashkil etishning vazifalari va ahamiyati.
2. Maktabgacha ta`lim muassasasida pedagogik jarayonni tashkil etishning asosiy printsplarini tushuntiring.
3. Guruxga moslashishning o'ziga xos xususiyatlarini izohlab bering.
4. Guruxdagi pedagogik sharoitlarni tashkil etishda uslubchining raxbarligi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent 1992 y
2. Ta`lim to'g'risidagi qonun. Toshkent 1997 y.
3. Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi. Toshkent. 1997 y.
4. O.U.Xasanboeva, M.X. Tadjieva, SH.K.Tashpulatova va boshqalar "Maktabgacha ta`lim pedagogikasi" "Ilm Ziyo". T.: 2006 y.
5. B.Ziyomuhamedov, Sh.Abdullaeva "Pedagogika" "O'zbekiston Milliy entsiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti". T.: 2000 y.
6. Maktabgacha ta`lim muassasasi to'g'risidagi Nizom. Toshkent 2007 y.
7. Maktabgacha yoshdagi bolalar ta`lim-tarbiyasiga qo'yiladigan davlat talablari. Toshkent 2008 y.
8. J.G'. Yo'ldoshev. Ta`lim yangilanish yo'lida. Toshkent "O'qituvchi" 2000y.
9. R. Mavlonova "Pedagogik texnologiya" Toshkent "Fan" 2009 y.
- 10.R. Ishmuxamedov "Ta`limda innovatsion texnologiyalar". Toshkent "Iste`dod". 2008 y
- 11.A. I.Vasileva, L.A. Baxturina, I.I.Kobitina "Bolalar bog'chasining katta tarbiyachisi" T.: "O'qituvchi" 1991 y.
- 12.Maktabgacha ta`lim kontseptsiyasi. Toshkent 2008 y.
- 13."Uchinchi mingyillikning bolasi" Dasturi. Toshkent 1999 y.

XI BOB. Maktabgacha ta`lim muassasasi tarbiyalanuvchilarini madaniy – gigienik masalalarini rivojlantirish (amaliy)

Reja:

1. Maktabgacha yoshdagi bolalar guruxlarida madaniy-gigienik va mehnat malakalarini egallash darajalari.
2. Malakalar mazmunini murakkablashuv jadvalini tuzish.

Mustaqil ish. “Uchinchi ming yillikning bolası” dasturidan kattalar mehnati bo’limini guruxdan guruxga o’tkazishdagi mazmunini murakkablashib borish jadvalini tuzish.

Mavzuning maqsadi: Turli yosh guruxlarida bolalarni madaniy-gigienik malakalarini egallash bo'yicha o'quvchilar bilimini mustahkamlash.

Mavzuning vazifalari: Dastur asosida mazmunining murakkablashib borishi to'g'risidagi bilimlar bilan qurollantirish. Dastur bilan ishslash to'g'risida malakalar hosil qilish.

11.1. Maktabgacha yoshdagi bolalar guruxlarida madaniy-gigienik malakalarini egallash darajalari.

5 - 7 yoshli bolalar katta yoshlilar mehnatiga zo'r qiziqishni, biror mehnat jarayonini bajarishda kattalar bilan birga qatnashish yoki biror narsani mustaqil bajarish ishtiyoqini namoyon qiladilar. Ularning faoliyatları kichik muktab yoshdagilarga nisbatan anchagina maqsadga yo'naltirilgan, e'tiborlari ham maqsadga qaratilgandir. Bolalarda mehnat malakalari, mehnat qilish odatini shakllantirish, har bir ishni oxiriga etkazish ko'nikmasini tarbiyalash pedagogik jarayonni to'g'ri tashkil etib, quyidagi qoidalarga rioya qilingandagina:

Katta guruhlarda o'ziga - o'zi xizmat ko'rsatish mehnati, xo'jalik - turmush mehnati, tabiatdagi mehnat, shuningdek, qo'l mehnatini tashkil etish.

Kun tartib.iga ko'ra «Bolalar maktabgacha ta`lim muassasasi ta`lim - tarbiya dasturi» asosida mehnat uchun nazarda utilgan vaqtidan to'liq foydalanish. Bolalarni har xil sport turlariga muntazam jalb qilish.

Mehnatning har xil turlari tashkil etilar ekan, bolalar faoliyatining yakka va jamoa turlaridan foydalanish.

Bolalar mehnatiga rahbarlik metod va usullarini ta`lim - tarbiya vazifalariga muvofiq tanlash.

Xilma - xil mehnat turlarini tashkil etishda, ularni bolalar faoliyatining boshqa turlari bilan oqilona biriktirish orqaligina amalga oshirish mumkin.

Har kuni kun tartibida guruhdagi barcha bolalar uchun va har bir bola uchun yakka mehnatni nazarda tutish kerak. Bolalar to'g'ri tashkil etilgan mehnatdan katta quvonchni his qiladilar.

Maktabgacha katta tarbiya yoshidagi bolalarning kun tartibida o'ziga - o'zi xizmat ko'rsatish mehnati sezilarli o'rinni egallaydi. Tarbiyachilar mustaqil yuvinish, kiyinish ko'nikmasini shakllantirishni davom ettiradilar, ular bolalardan yuvinish, echinish, ovqatlanish tartibini aniq bilishni, ularni o'z vaqtida va aniq bajarishlarini talab qiladilar. Tarbiyachi bu shakllangan ko'nikmalardan bolalarning o'zaro yordamlarini tashkil etish va axloqiy me`yorlarni tarbiyalashda foydalanadi.

O'ziga - o'zi xizmatni yaxshi tashkil etish shartlaridan biri - kun tartibi jarayonlarini izchil va bosqichma - boskich o'tkazish va bunda barcha bolalarning ishtirok etishidir. Bolalar o'zlariga qo'yilayotgan talablarni tushunishlari va o'z burchlarini muntazam tarzda bajarishlari kerak. maktabgacha katta yoshdag'i bolalarning o'ziga - o'zi xizmatlarini tashkil etishda guruh tarbiyachisi bolalardagi malakalarni hisobga olib, shunga muvofiq harakat usulinigina eslatadi va shu orqali ularning e'tiborini jalg qiladi. Tarbiyachi shuningdek bolalarning o'ziga - o'zi xizmat ko'rsatishiga doir ish sifatlarini hisobga olib boradi, uni baholaydi, nima yaxshi chiqmayotgan bo'lsa, tahlil qiladi.

Katta va tayyorlov guruhidagi muhim vazifa nonushtagacha tayyorlanish, nonushtadan so'ng, shuningdek tushli va kech - tushki ovkatga tayyorlanish vaqtida navbatchilar ishini aniq tashkil etishdan iborat. Navbatchilik qilish ko'nikmasini shakllantirish ishi davom ettiriladi, chunki navbatchilarning vazifalari kengayib boradi. Navbatchilarni tayinlashda, bu ishda tajribaga ega bo'lganlar qatori yanti bolalarni tayinlash ham e'tibordan chetda qolmasligi kerak. Yil boshida tarbiyachi navbatchilarni o'z vazifalari bilan tanishtiradi, zaruriyat bo'lganda ayrim harakatlarni ko'rsatadi, topshirilgan ish uchun jamoa oldidagi mas`uliyatni ta'kidlaydi (o'z vaqtida kelish, harakatlar izchilligi, hamma narsani bolalar turishiga tayyorlash, asbob - anjomlardan to'g'ri foydalanish va shu kabilalar).

Navbatchilarning tabiat burchagidagi mehnati ham har kuni tashkil etiladi. Tabiat burchagida bo'ladigan navbatchilar ertalab baliqchalarni boqadilar, gullarga suv quyadilar, erlarni yumshatadilar, qushlar qafaslarini tozalashda yordam beradilar, vaqt - vaqtida ko'chat o'tqazishda ham yordam beradilar.

Tarbiyachi va bolalar navbatchilar ishini nazorat qiladilar hamda uni baholaydilar. Oshxona bo'yncha navbatchilar nonushtaga, so'ngra tushlik va kech-tushki ovqatga tayyorlanishda qatnashadilar. Mashg'ulotlarda navbatchi bo'lganlar material va qo'llanmalarini tayyorlaydilar, mashg'ulotdan so'ng ularni joy-joyiga olib qo'yadilar.

Maktabgacha katta yoshdag'i bolalar mehnati orasida alohida o'rinni guruh xonalarida doimo tozalik va tartibni saqlash ishi egallashi lozim. Tarbiyachi bolalardan qaysi biridir kiyimini shkafga tartibli qo'ymaganligini ko'rib, masalan, shapka qaerda turishi kerakligini yoki koftochkaning engi nima uchun chiqarilmaganligini so'raydi. Vaqt - vaqtida (odatda haftada bir) bolalar tarbiyachi topshirig'iga ko'ra qo'llanma va o'yinchoqlarni artadilar, yuvadilar, guruh xonasini umumiylig'i ishtirishda qatnashadilar, Xo'jalik - turmush mehnatini yaxshi tashkil etishda bolalarning yonma - yon ishlab, umumiylig'i natijani tasavvur qilishlari muhimdir. Ba'zan umumiylig'i ishni bajarish uchun tarbiyachi vazifani

bolalar o'rtasida xar bir bolaning tajribasiga ko'ra taqsimlaydi va u ishni oxirigacha bajaradi. Mehnat vazifalarini uyuşhtirishda tashabbus va mustaqillikni namoyon qilganylarni rag'batlantiradi. Tayyorlov guruhiga tarbiyachi bolalar mehnatini tashkil etishning yana bir ko'rinishi hamkorligidagi mehnatdan foydalanadi. Bu holatda bolalardan bittasi ishning oz qismini bajaradi, ikkinchisi uni davom ettiradi. Qo'l mehnati ko'pincha mashg'ulotlarga barcha bolalar uchun bir vaqtda ulashiladi: o'yinchoqlar, qog'oz, yog'och, tabiiy materiallardan narsalarni bolalar butun guruh, bo'lib yoki kichik guruhlarga bo'linib bajaradilar. Bu maqsadda alohida joy jihozlanib, u erga material va asboblar joylashtiriladi. Yilning issiq vaqtlaridagi sayrlarda erni chopish va yumshatish, o'toq qilish, hosilni yig'ishtirish bo'yicha birgalikdagi ish tashkil etiladi. Bu holatda mehnatni tashkil etishning asosiy shakli guruh (3 - 4 bola) yoki zveno bo'lib bajariladigan davomli topshiriqlar bo'ladi.

Shunday qilib, bolalar mehnatini to'g'ri tashkil etish har bir bolani har xil mehnat turlariga muntazam jalb qilishni nazarda tutadi, bunda ishning jamoa va yakka tartibdagi shakllaridan foydalaniladi, ish hajmi nazarda to'tiladi, uskunalar to'g'ri tanlanadi.

11.2. Malakalar mazmunini murakkablashuv jadvalini tuzish.

Quyidagi yo'naliш bo'yicha "Uchinchi ming yillikning bolasi" dasturidan foydalanish jadvali.

2 - 3 yosh davri

Bolalarda kattalar mehnatiga qiziqishni, hamkorlikdagi faoliyatga intilish ("Ko'ylak yuvish", "Ko'ylakni dazmollash", "O'yinchoqlarni tuzatish") ishtiyoqini tarbiyalash.

III.Kichik yosh (3 yoshdan 4 yoshgacha)

Milliy urf odatlarni singdirish maqsadida har doim qo'llarini yuvib, so'ogra dasturxonga o'tirishga, kattalardan oldin dasturxonga qo'l cho'zmaslikka, nonni ushatib berish va qoshiq-sochiqlarni olib berishni kattalardan so'rashga, ovqatlanayotgan paytda badan a`zolariga qo'l tekizmaslikka, qoshiqni o'ng qo'lda ushlab, to'kmasdan, shoshmasdan ovqatlanishga, og'izni yumib chaynashga, kattalardan oldin o'rindan turib ketmaslikka o'rgatish.

IV. O'rta yosh (4 yoshdan 5 yoshgacha)

Bolalar kattalar mehnatiga qiziqish va hurmat hissini shakllantirish. Kattalar mehnati haqida tushunchalarini kengaytirish. Uy ro'zg'or yumishlarini bajarishda kattalarga yordam berishga odatlantirish.

V. Katta yosh (5 yoshdan 6 yoshgacha)

Dasturxon atrofida odob saqlash. Kattalrn ni to'rda o'tirishga taklif etish, kichiklarni ularga nisbatan iltifotli bo'lishga o'rgatish. Ovqatga kattalardan oldin qo'l cho'zmaslik, sabrli bo'lish kabi odatlarni shakllantirish.

VI. Maktabgacha tayyorlov davri (6 yoshdan 7 yoshgacha)

Bolalarni hunarmandchilikka qiziqtirish. Duradgor, naqqosh, o'ymakor, sopolsoz, kashtachi, tikuvchi, do'ppido'z kabilarning mehnati bilan tanishtirish.

Nazorat savollari:

1. Madaniy – gigienik malakalar deganda qanday jarayonlar tushiniladi?
2. Guruxlarda bolalardagi madaniy – gigienik malakalarini tarbiyalashda tarbiyachining rolini nimada deb bilasiz?
3. Ilk yosh guruxlarida bolalarda shakllantiradigan madaniy – gigienik malakalarini izohlab bering.
4. Kattalar mehnatini tushuntiring.

Adabiyotlar:

1. O.U.Xasanboeva, M.X. Tadjieva, Sh.K.Tashpulatova va boshqalar "Maktabgacha ta`lim pedagogikasi" "Ilm Ziyo". T.: 2006 y.
2. Sh.K.Tashpulatova "Maktabgacha ta`lim muassasalar ishini tashkil etish va boshqarish usullari" TDPU.T.: 2001 y.
3. Maktabgacha ta`lim muassasasi to'g'risidagi Nizom. Toshkent 2007 y.
4. Maktabgacha yoshdagi bolalar ta`lim-tarbiyasiga qo'yiladigan davlat talablari. Toshkent 2008 y.
5. A. I.Vasileva, L.A. Baxturina, I.I.Kobitina "Bolalar bog'chasing katta tarbiyachisi" T.: "O'qituvchi" 1991 y.
6. Maktabgacha ta`lim kontseptsiyasi. Toshkent 2008 y.
7. "Uchinchi mingyillikning bolasi" Dasturi. Toshkent 1999 y.

XII BOB. Maktabgacha ta`lim yoshdagi bolalarning o`yin faoliyatiga raxbarlik (amaliy)

Reja:

1. Uslubchi tomonidan o`yin faoliyatini kuzatish va tahlil qilish.
2. O`yin jihozlari va o`yinchoqlarni turkumlash.

Mustaqil ish: Xar bir guruxda “Tayanch dastur” iga kiritilgan didaktik o`yinlarni guruxdan guruxga o`tishdagi mazmunini murakkablashtirish jadvalini tuzish.

Mavzuning maqsadi: O`quvchilarga o`yin faoliyatiga raxbarlik qilish, o`yin jarayonini jihozlash, o`yinchoqlarni turkumlash to`g`risidagi bilimlarini mustahkamlash.

Mavzuning vazifasi:

1. O`yin turlari, o`yinchoqlarga qo`yiladigan talablar jadval - jadvalsini tuzishga o`rgatish.
2. O`yin faoliyatini tashkil etish va unga raxbarlik qilish to`g`risidagi amaliy ko`nikmalar hosil qilish.

12.1. Uslubchi tomonidan o`yin faoliyatini kuzatish va tahlil qilish.

O`yinlarni tashkil etish va ularga rahbarlik qilishda tarbiyachi o`yin faoliyati sifatida maqsadga muvofiq pedagogik rahbarlik asosida shakllanishi lozimligiga asoslanadi. U bolalarda o`yinda qatnashishga faol ishtiyoyq uyg`otishga harakat qiladi, o`yin mazmunini boyitadi, bolalar o`ynar ekanlar, bir - birlariga xalaqit bermasliklariga, o`yinchoqlarni almashlab o`ynashlariga imkoniyat yaratadi. Uch yarim yoshdan o`tgach, bir - birlariga qo`shilib o`ynashlariga harakat qiladi. Ishtiyoyq bilan o`ynayotgan bolalarning faoliyatlarini yo`lga solib borish juda muhimdir.

Tarbiyachi bolalarning e`tiborini o`yinchoqlarga jalb qiladi, ularning qanday o`ynamoqchi ekanliklarini so`raydi. Syujetli - rolli o`yinlarni tashkil etishda tarbiyachi bolalarni oqibatda o`yinda mustaqil birlashishni istashlari va bilishlari uchun ularni yonma - yon o`ynashga undaydi.

Yil boshida bolalar bevosita tarbiyachi ishtirokida o`ynaydilar. Ularga oldindan tanish o`ynnchoqlar, qurish materiallari taklif etiladi. Yangi o`yinchoqlar, tarbiyachi ularni bolalar ishtirokida o`ynab, ulardan qanday foydalanishni ko`rsataniqan keyin beriladi.

Nonushtadan so`ng bolalar mazmunan mashg`ulotga mos keladigan o`yinlarni o`ynaydilar. Guruh maydonida mavsum sharoitlariga ko`ra butun guruh yoki kichik guruhlarga bo`linib tabiiy materiallар (qum, suv) bilan o`yinlar, harakatlari o`yinlar o`tkaziladi. Kunduzgi uyqudan so`ng didaktik, syujetli - rolli, harakatlari o`yinlar uyushtiriladi.

O'yin maktabgacha katta yoshdagi bolaning etakchi faoliyati xisoblanib, bola hayotini tashkil etishda katta o'rinni egallaydi. Tarbiyalanuvchilar o'yin g'oyasini aniqlash, syujetini tanlash va rollarni taqsimlash ko'nikmasini namoyon qilib, o'yinni o'zlarini tashkil etadilar. Ammo ba'zan mustaqil o'yinlar jamoatchilik sifatlarii rivojlantirishni ta'minlay olmaydi. Bolalar o'yinlariga rahbarlik qilishda asosiy o'rinni o'yinlarning tarbiyaviy ta'limiy samaradorligini kuchaytirish imkonini beradigan vosita hamda metodlarni rejalashtiradigan tarbiyachiga talluqlidir.

1) bolalarning o'yin faoliyatlarini uchun kun tartibiga ko'ra ajratilgan vaqtdan, o'yinni rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratib to'liq foydalanish;

2) o'yinga rahbarlik qilishda bolalarni har tomonlama rivojlantirishni va o'yinlarning har xil to'rini mustaqil tashkil etish ko'nikmasini shakllantirishni amalga oshirish;

3) o'yinlarni bolalarning imkoniyatlari va qiziqishlarining hisobga olib tashkil etish;

4) o'yindan bolalar hayotini tashkil etish shaklida foydalanib, bolalarning o'yindagi hayotlarni qiziqarli, mazmunli bo'lshiga, o'yinda xatti-harakatning jamoa shaklining mustahkamlanishiga erishish. Bolalarni o'yinda birlashtirishning xilma - xil ko'rinishlaridan foydalanib guruhrar, kichik guruhrar, hamkorlikdagi faoliyatni mustaqil rivojlantiruvchi o'yin jamoalarini yaratish;

5) o'yinlarning bolalarning jo'shqin faoliyatlarini hamda o'yin anjomlarini tayyorlab olish ko'nikmalarini rivojlantirishga erishishga harakat qilinadi.

Kun tartibida syujetli - rolli o'yinlar, qurilish materiallari bilan o'yinlar, harakatli va didaktik o'yinlar va sahnalashtirish o'yin uchun vaqt ajratiladi.

Ko'pchilik bolalar ertalab maktabgacha ta'lim muassasasiga kelar ekanlar, o'rtoqlari bilan o'ynashni afzal ko'radilar. Bunday choqda pedagog tarbiyalanuvchilarga o'zlarini qiziqtirgan o'yinlar bilan shug'ullanish imkonini yaratishga intiladi. U o'yinning yanada rivojlanishi uchun mohirlik bilan yo'l- yo'riq beradi. Nonushtadan so'ng mashg'ulotlar bilan birikib ketadigan o'yinlar tashkil etiladi. So'ngra bolalar mashg'ulotlar orasida 10 - 12 daqiqa o'ynaydilar. Bu vaqtida ular to'p bilan faol harakatlarni, xorovodli o'yinlarni afzal ko'rib bajaradilar.

Sayr vaqtida tanaffusi bilan bir yoki ikkita harakatli o'yin o'tkaziladi. Ularda barcha bolalar qatnashadilar. Avval tarbiyachi ular bilan birga o'ynaydi. Agar bolalar o'yin qoidasini bilsalar, ular mustaqil o'ynaydilar. Umumiy o'yinning davomiyligi 6 - 10 daqiqa. Yilning issiq kunlarida davomiyligi 10 - 30 daqiqadan iborat sport elementlari bo'lgan harakatli o'yinlar o'ynaladi. Sayrda shuningdek ertak, hikoyalar syujetlarida ijodiy o'yinlar o'ynaladi. Yilning iliq davrida ochiq havoda sahnalashtirish va qurilish o'yinlarini ham o'tkazish mumkin. Bunda tarbiyachi bolalarning o'yindagi mustaqilliklariga, o'zaro kelisha olish qobiliyatlarini va o'yin uchun guruhlarga birlashish ko'nikmalariga tayanadi.

Kunduzgi uyqudan keyingi vaqt xilma - xil o'yinlar yoki mustaqil faoliyatga: badiiy, qurish - yasash va shu kabilarga keng yo'l berish uchun juda qulaydir. Ba'zan 40 - 50 daqiqa davom etadigan rolli va qurilish o'yinlarida bir - biriga qiziqish bildiradigan o'yinda o'zlariga xos o'yin hayoti bilan yashay oladigan, o'z munosabatlarini uyushtira oladigan 5 - 6 yoki 12 - 15 bola birlashadi.

Tarbiyachini kishilarning mehnat faoliyatini aks ettiruvchi o'yinlar «qurilish», «kutubxonalar», «maktab» va shu kabi o'yinlarni tashkil etishdagi o'rni muhimdir. U bolalarga, «kelishuvda» yordam beradi, ular bilan birga har bir qatnashchining o'rnini nazarda tutib, o'yin mazmuni va rejasini muhokama qiladi, bolalari bilan birgalikda turli o'yin materialini tanlaydi, o'zaro munosabatlarda jamoatchilik sifatlarini qo'llab - quvvatlaydi, yuzaga kelgan bahslarni bolalar o'zлari haqgo'ylik bilan hal etishlarini kuzatadi. Hamkorlikdagi o'yinda bolalar jamoadagi hayot uchun zarur o'zaro munosabatlar tajribasini o'rganadilar, oddiy axloqiy me`yorlarni egallaydilar. Tarbiyachi o'yinlarda qatnashar ekan, rollarni, o'yin qoidasini bajarib, o'ynnchoqlar va narsalar o'rniga o'rinn bosuvchilardan foydalaniб, syujet tuzilishining namunasini ko'rsatadi. U bevosita o'yinda qatnashmasligi, balki qanday qilib yaxshiroq tuzish, qanday o'yinchoqlarni olish (yoki yangitdan yasash), qanday qilib inoq o'ynash xaqida maslahatlar berishi mumkin. Bolalarning birga o'ynovchi jamoalarini shakllantirishga yordam berar ekan, tarbiyachi bolalarni yuksak ijtimoiy xatti-harakat me`yorlarini namoyish qilishga, uchraydigan vaziyatlarni yaratishga yordam berishi kerak. Bunda syujetga doir bolalarning o'zaro munosabatlarinigina emas, balki o'yin jarayoniga ta'sir etadigan real munosabatlarni ham yaxshi bilish talab etiladi. Ko'pincha bolalar tajribalarining etishmasligi tufayli, ayniqsa o'yin boshida, rollarni taqsimlashda bir-birlariga nohaq munosabatda bo'ladilar. Ularga bahslarni haqgo'ylik bilan hal etishda yordam berib, tarbiyachi sodir bo'layotganlarni faqat jamaa manfaatlari nuqtai nazaridan baholash lozimligini ta'kidlab, ularga bu ko'nikmani o'rgatadi.

12.2. O'yin jihozlari va o'yinchoqlarni turkumlash

O'yinchoq - bola hayotining dastlabki davrlaridan boshlab ularga yo'ldosh quvonch manbaidir. O'yinchoq bolaning o'ynashi uchun mo'ljallangan va boshqa maqsadlarda foydalanimaydigan buyum hisoblanadi. Unda buyumlarning tipik xususiyatlari umumiylar tarzda aks etadi.

Pedagog A.S. Makarenko: «O'yinchoq o'yinning «material asosi», o'yinchoq o'yinni yaratishda ishtiroy etadi. bolaning o'ziga xos sherigi sifatida namoyon bo'ladi, uning shaxsiga ta'sir ko'rsatadi», - deb ta`kidlagan edi. Rus pedagoglari o'yinchoq bolalarga atrofdagi mavjud voqelikni o'rganishga yordam beradigan, ranglar, buyumlar ko'lamenti ularning materiallarini farqlash mala-kasini rivojlantiruvchi vosita deb ta'kidlab, bola dunyoqarashini kengaytirishdagi ahamiyatini ko'rsatib berdilar.

Xalq pedagogikasida o'yinchoqlarning butun bir tizimi ishlab chiqilgan bo'lib. Bular bolaning sensor qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan. O'yinchoqlar bolalarning nutqiy faolligini uyg'otadi. lug'at boyligini oshiradi. ularda tahlil qilish, yaxlit holatga keltirish, umumlashtirish, taqqoslash. tavsiflash, diqqatni jamlash kabi qobiliyatlarni rivojlantiradi. O'yinchoqlar bolalarda ma`naviy - axloqiy tuyg'ularni (mehribonlik, avaylash, e'tiborlilik) shakllantiradi. atrof-muhitga ijobiy munosabatni uyg'otadi. O'yinchoqlar tanlashda bolaning yosh va individual xususiyatlari, qiziqishlari. istaklari hisobga olinadi. Maqsadga qaratilgan

bunday yondoshuv o'yinchoq tanlashga bo'lgan talabni yanada oshiradi. Asosan, pedagogik, gigienik, badiiy talab orqali o'yinchoq tanlanadi.

Pedagogik talablar. O'yinchoq obrazi va mazmunining bola tarbiyasiga muvofiqligi jamiyatimiz g'oyasi nuqtayi nazariga mos kelishi, g'oyaviy jihatdan qimmatli bo'lishi pedagogik talabning muhim belgisi hisoblanadi. O'yinchoq bolada ollyjanob tuyg'ularni uyg'otishi, boshqa millat bolalari bilan do'stona munosabatlarni tarbiyalashi, vogelikka nisbatan ollyjanob tuyg'ular uyg'otishi. ijobiq axloqiy tajriba to'plashga yordam berishi lozim. Bolaning faollikka bo'lgan intilishini qoniqtirishi va uni uyg'otishi kerak. Obrazli o'yinchoq real haqiqatni ifoda etadi, buyum, uning xususiyatlari va hayotdagi ahamiyatini aks ettiradi.

O'yinchoqning dinamiklik xususiyati undan ko'p marotaba rejali tarzda foydalanish imkonini yaratadi. Bu xususiyatidan kelib chiqib, o'yinchoqqa quyidagi talablar qo'yiladi.

Gigienik talablar. O'yinchoq qanday materialdan va rangdan tayyorlanganligi, bolaning hayotiga hech qanday xavf solmasligi, yaxshi tozalanishi mumkinligi asosiy talablardan hisoblanadi.


Badiiy talablar. Shakl, bo'yoq va bezaklarning har tomonlama uyg'unlashuvi, bir-birini rang va shakl jihatdan to'ldirib, ta`kidlab, o'yinchoqning badiiy ifodalilagini oshiradi. O'yinchoqlarning tuzilishi va bezalishi bolalarning turli yosh bosqichlarida idrok etish xususiyatlariga to'la mos kelmog'i lozim.

To'g'ri tanlangan o'yinchoq bolaning jismoniy, axloqiy, aqliy va badiiy-estetik tarbiyasi rivojiga ijobiq ta`sir ko'rsatadi. Bolani aqliy jihatdan tarbiyalashda didaktik o'yinchoqlarning butun bir tizimi katta ahamiyat kasb etib, sensor va nutq rivojiga ta`sir etadi, fikrlash jarayonlari va diqqatini tarbiyalaydi. buyum va uning xususiyatlariga, qurilishiga bo'lgan qiziqish shakllanadi, bilimi, tushunchalari boyib boradi.

O'yinchoq bolani quvontiradi. atrofdagilarga nisbatan ijobiq munosabat hosil qiladi. birgalikda o'ynash tuyg'usini uyg'otadi va ijobiq his - tuyg'ularni tarkib toptiradi. Axloqiy his - tuyg'ularni shakllantirishda qo'g'irchoq muhim ahamiyatga ega. Milliy qo'g'irchoq bolalarni boshqa millatga mansub bo'lgan tengdoshlariga bo'lgan ijobiq munosabatini tarbiyalash manbalaridan hisoblanadi. San`atning birinchi yorqin obrazli va eng tushunarli buyumi bo'lgan o'yinchoq estetik hislar va kechinmalami uyg'otadi, estetik tarbiyani to'plashga yordam beradi va badiiy didni shakllantiradi. SHu o'rinda bolalarga yaqin va tushunarli bo'lgan xalq o'yinchoqlarining ahamiyatini alohida ta`kidlash lozim.

O'yinchoq bolalarni turli rang - barang harakatlarga undaydi va bolaning faol harakatga bo'lgan ehtiyojini qondiradi. Tezkor javob reaksiyasini, harakatlarning aniqligi va muvofiqlashtirishini rivojlantiradi.

Ilk yoshdagи bolalarga mo'ljallangan ko'p o'yinchoqlar (shaqildoqlar, rezina koptokchalar, shaklchalar va boshq.) bolada ko'rish.



Nazorat savollari:

1. O'yin faoliyatiga ta`rif bering.
2. O'yinlarning turlari va ularni turkumlang.
3. O'yinchoqqa qo'yiladigan asosiy talablarni ixohlab bering.
4. "Uchinchi mingyillikning bolasi" dasturida o'yinli murakkablashuvni izohlab bering.

Adabiyotlar:

1. O.U.Xasanboeva, M.X. Tadjieva, Sh.K.Tashpulatova va boshqalar "Maktabgacha ta`lim pedagogikasi" "Ilm Ziyo". T.: 2006 y.
2. Sh.K.Tashpulatova "Maktabgacha ta`lim muassasalar ishini tashkil etish va boshqarish usullari" TDPU.T.: 2001 y.
3. Maktabgacha ta`lim muassasasi to'g'risidagi Nizom. Toshkent 2007 y.
4. Maktabgacha yoshdagi bolalar ta`lim-tarbiyasiga qo'yiladigan davlat talablari. Toshkent 2008 y.
5. A. I.Vasileva, L.A. Baxturina, I.I.Kobitina "Bolalar bog'chasing katta tarbiyachisi" T.: "O'qituvchi" 1991 y.
6. Maktabgacha ta`lim kontseptsiyasi. Toshkent 2008 y.
7. "Uchinchi mingyillikning bolasi" Dasturi. Toshkent 1999 y.
8. M.Sh.Nurmatova, Sh.Xasanova, D.Azimova "Ustaxonada amaliy mashg'ulot" T., "Cho'lpon" 2010 y.
9. M.Sh.Nurmatova, Sh.Xasanova "Rasm, buyum yasash va tasviriy faoliyatga o'rnatish metodikasi. T., "Musiqa" 2010 y.

XIII BOB. Pedagogik jarayonda xarakatli – didaktik va musiqali – didaktik o’yinlarning bola shaxsini rivojlantirishda o’ziga xos ahamiyati. (amaliy)

Reja:

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlanishida – o’yinning tutgan o’rni va uning pedagogik talablarga javob berishi.
2. Turli yosh guruxlarda bolalar o’yinlariga raxbarlik qilishni tahlil qilish.

Mustaqil ish: Xarakatli, didaktik va musiqali didaktik o’yinlardan namunalar.

Mavzuning maqsadi: Bola shaxsini rivojlantirishda xarakatli didaktik o’yinlarning tutgan tutgan o’rni to’g’risidagi o’quvchilarining bilimlarini mustahkamlash.

Mavzuning vazifalari:

1. O’yinlar turlari va ularni amaliyatga qo’llashga o’rgatish.
2. Turli yosh guruxlarning o’yinlariga raxbarlik qilish bo’yicha amaliy ko’nikmalar hosil qilish.

13.1. Maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlanishida – o’yinning tutgan o’rni va uning pedagogik talablarga javob berishi

Ma`lumki, bolalarning asosiy vaqt o’yin bilan o’tadi. O’yin - maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlanishining muhim vositasi. ularning asosiy faoliyati bo’lib hisoblanadi. O’yin jarayonida bola shaxsi faoliyat sub`ekti sifatida shakllana boshlaydi. O’yin uzoq davrlardan beri mashhur olimlar, pedagog - psixologlar, faylasuflar, sotsiologlar, etnograllar va madaniyat arboblari diqqatini o’ziga qaratib kelgan.

O’rta Osiyo madaniyati tarixiga nazar solsak, oilada farzand tarbiyasiga juda katta e`tibor qaratilgan. Mashhur allomalardan Abu Nasr Forobi. Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Hos Hojib, Ahmad Yugnakiylar o’z asarlarida xalqimizga xos bo’lgan farzand tarbiyasi ustida fikr yuritganlar. Xalq pedagogikasini o’rganish davomida olimlarning farzand ta`lim - tarbiyasi va odob - axloqqa old asarlarida bolalarni tarbiyalashda tarbiyaviy ishning eng ta`sirchan uslubi - o’yin shaklidan juda keng foydalilanligini ko’ramiz.

O’tmisht pedagog olimlaridan P.P. Lestgaft, K.D. Ushinskiy tomonidan o’yin nazariyasi ishlab chiqilgan. O’yinning mehnat jarayoni asosida paydo bo’lganligi va tarbiyachining yosh avlodni mehnat faoliyatiga tayyorlashdagi roli, o’yin mazmunining bola shaxsinishakllantirishdagi ahamiyatini K.D.Ushinskiy asoslab berdi.

Rus olimlari san`atning kelib chiqishini tadqiq qilayotganlarida bolalar o’yinlariga e`tibor qiladilar. Ularning fikricha, kishilik tarixida o’yinlar san`at kabi, mehnat paydo bo’lgandan so’ng uning asosida vujudga kelgan.

Jamiyat hayotida mehnat jarayonida bolalar kattalar mehnatiga taqlid qilish orqali o'ynaydilar, xuddi shu o'yin keyinchalik lalarni mehnat faoliyatiga tayyorlashda muhim bosqich bo'lib isoblanadi.

P.F. Lesgaft «Bola dastlabki o'yinida tevarak - atrofdagi voqeа-odisalarga taqlid qiladi, o'yin ijtimoiy voqelikni aks ettiradi», — izohlagan edi.

Buyuk psixolog D.V. Elkonin o'yining kelib chiqishiga oid yangi g'oyani ilgari suradi. Jamiyatning dastlabki taraqqiyotidayoq bolalarning kattalar hayoti va mehnatida ishtirok etishlari, bolalarning mehnat qilishlari uchun qulay o'yinchoq — mehnat qo'llari ishlab chiqilgan. O'yinchoq - qurollar paydo bo'lishi natijasida rolli o'yinlar paydo bo'ladi. D.V. Elkonin kattalar mehnatida ishtirok etish orqali bolada mehnat qilishga intilish hissini uyg'otish zarurligi g'oyasini ilgari surgan.

Maktabgacha pedagogikada o'yin nazariyasi ijtimoiy faoliyat asoslanib, mehnatning tarixiy rivojlanish jarayonida paydo bo'ladi. O'yin doimo hayotni aks ettiradi. SHuning uchun uning mazmuni ijtimoiy voqelikda o'zgarib turadi. O'yin - maqsadga qaratilgan o'ylangan jarayondir. O'yin jarayoni asosida o'quv faoliyati rivojlanadi. Bola yoshligida qancha ko'p o'ynasa, bu maktabda yaxshi o'qishiga va keyinchalik mehnat faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

O'yin nazariyasining asosiy masalalari

O'yining mohiyati va o'ziga xos xususiyatlari. O'yin - buyumli predmetli va ijtimoiy voqelikda harakat qilish va uni anglashga -yo'naltirilgan jarayondir. U o'zining kelib chiqish, yo'nalish va mazmuniga ko'ra ijtimoiy voqelik hisoblanadi. O'yin bu - bola faoliyatining yorqin turi. Unda maqsadning mavjudligi, sabablar, amalga oshirish vositalarining rejali harakatlari, natijaning mavjudligi uning o'ziga xosligidir. Xususiyatlarning orasida sabablarning o'ziga xosligi asosiy hisoblanadi. O'yin jarayonida bolaning psixik ish jarayoni, irodasi, hissiyoti, ehtiyoji va qiziqishlari, ta'sirchanligi - uning butun shaxsiyati shakllanadi.

Bola o'yinda o'zining bevosita ehtiyoj va qiziqishlaridan kelib chiqadi. Bolalarning o'yinlari o'zining rang - barangligi bilan ajralib turadi. O'yin o'z mazmuni va tashkil etilishi, bolalarga ta'sir ko'rsatish darajasi, buyumlarning turlari hamda kelib chiqishiga ko'ra ijodiy va qoidali o'yinlarga bo'linadi.

Ijodiy o'yinlar - bolalarning mustaqil, ijodiy, o'zları o'ylab chiqqan o'yin majmuyidir. Bunda bolalar o'z taassurotlari, borliq hayotdagi tushunchalari va unga bo'lgan o'z munosabatlarini aks ettiradilar. Ijodiy o'yinlar quyidagi turkumlarga bo'linadi:

- syujetli - rolli;
- saxnalashtirilgan;
- qurilish;
- tabiat materiallari bilan o'ynaladigan o'yinlar.

Ijodiy o'yinlar va ularga rahbarlik. Ijodiy o'yinlar boshqa tur o'yinlardan quyidagi xususiyatlari bilan ajralib turadi:

1. O'yin mazmunining o'ziga xosligi.
2. Rollarning mavjudligi.
3. Xayoliy vaziyatning mavjudligi.

O'yin mazmunining o'ziga xosligi uning eng muhim xususiyatlaridan biridir. Pedagog va psixoglarning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, kattalarning

ijtimoiy hayoti o'zining rang - barang ko'rinishlari bilan syujetli-rolli o'yinlarning mazmuni bo'lib xizmat qilar ekan. Ular bolalar kattalar ijtimoiy hayotining namunasini oladigan faoliyat turi o'yin ekanligini asoslab berdilar.

Ijodiy o'yinlar syujetlari va mazmunining rang - barangligi, ularni tavsiflash zaruratin keltirib chiqaradi. Syujet o'yin faoliyati tizimida asosiy komponent sifatida o'z ichiga personajni, hayotiy vaziyatni, harakat va personajlar munosabatini oladi. Ijodiy o'yinlarda xayoliy vaziyatning mavjud bo'lishi bolaning tafakko'rini o'stirib, syujet va rollar o'yin mazmunini takomillashtiradi. Ijodiy syujetli - rolli o'yinlarning o'ziga xos sabablari mavjuddir. Buning eng asosiy sababi - bolalarning kattalar bilan birgalikda ijtimoiy hayot kechirishga intilishidir. Bu sabablar bolaning yoshiga qarab, o'yin mazmuniga qarab o'zgarib boradi. Kichik yoshdagি bolalarda asosiy sabab buyumlar bilan bajariladigan qiziqarli harakatlar bo'lsa, bola katta bo'lgan sari o'yindagi kattalar harakatlarini va munosabatlarini qayta aks ettirish asosiy sabab bo'lib xizmat qiladi. SHunga ko'ra, o'yinlarni syujeti, mazmuniga ko'ra 3 guruhga bo'lish mumkin:

1. Maishiy o'yinlar (oila, bolalar bog'chasi va boshqa voqelikni aks ettiradigan).
2. Mehnat mavzuyidagi o'yinlar (oila va kattalar mehnatida ishtiroy etish, o'z-o'ziga xizmat va boshq.).
3. Ijtimoiy mavzudagi o'yinlar.

Bolalar rollarni tanlab o'ynaydilar. Syujetli - rolli o'yinlarda xatti-harakatlarni, qoidalarni egallash asosida, rolda mujassamlashtirilgan axloqiy qoidalari ham o'zlashtiriladi. O'yinda kishilar tur mushiga, ishlariga, jamiyatdagi xulq - atvor me`yor va qoidalariiga ijobjiy munosabat shakllantiriladi. Xuddi shu jarayonda o'yin muomala madaniyatini shakllantirish vositasi sifatida ham yuzaga keladi. Aqliy tarbiyaning asosiy vositalaridan biri syujetli o'yin hisoblanib, unda bola atrof - muhitdagi voqeа va hodisalarni aks ettirib, xayolan ularni qayta tiklaydi. O'yinning xayoliy vaziyati bolaning aqliy faoliyatining rivojlanishiga doimo ta`sir ko'rsatadi.

D.B. Elkoni syujetli - rolli o'yinni birgalikda o'ynaladigan o'yinda tasvirlanayotgan voqealarga, harakatlarga, buyumlarga nisbatan o'z nuqtayi nazarini boshqalar nuqtayi nazari bilan jamlash masalasi shakllanishi natijasida yalpi tafakkur bosqichiga o'tishga imkon beruvchi bilishga oid jarayon yuz berishini ta`kidlab o'tgan.

O'yinning san`atga yaqinligi syujetli - rolli o'yinlardan estetik tarbiyada foydalanish imkonini yaratadi. Bola o'yinidagi ijodkorlik bilan bog'liq bo'lgan tuyg'ular estetik tuyg'ularga yaqin turadi. O'yinda bolaning katta harakat tajribasi shakllanadi. Turli harakatlarni rivojlantirish va takomillashtirish uchun qulay sharoit yaratiladi, bola rolga kiradi, o'z roliga oid xatti - harakatlarni amalga oshirish uchun tasvirlayotgan rollarning o'ziga xos xususiyatlarini ongli ravishda ifodalaydi.

Ikki yoshdagи bolalar hayotida syujetli o'yinchoqlar bilan juda oddiy o'yinlar o'tkaziladi. Bolalar bu o'yinchoqlarni qo'lda ushlab yuradilar, siqib ko'radilar, erga tashlab ko'radilar, o'yinchoqlarni g'ildiratadilar, o'yinchoqda nima tasvirlanganligiga e'tibor bermaydilar. Bu yoshda kundalik hayotda tevarak-atrofdagi katta kishilar va bolalar harakatini kuzatib borishni, bu harakatlarni o'z

o'yinlarida aks ettirishni o'rgatish lozim (masalan, qo'g'irchoqni ovqatlantirish, uyquga yotqizish va boshq.).

Bu yoshda buyumli o'yin bir necha bosqichda amalga oshiriladi:

- 1 - bosqichda bolalar o'yinchoqlar bilan kattalar harakatlariga taqlid qiladilar.
- 2 - bosqichda o'zlashtirgan harakatlarni mustaqil bajara boshlaydilar, so'ngra bu harakatlarni boshqa buyumlarga ko'chiradilar.
- 3 - bosqichda tasviriy o'yin vujudga keladi, uning mazmunini shartli quollar bilan bajariladigan harakatlar tashkil qiladi.

Bola kundalik hayotda kuzatgan buyumlar bilan bajariladigan harakatlarga taqlid qiladi (gazeta o'qiydi, er chopadi, kir yuvadi), bularning hammasi syujetli-rolli o'yin uchun sharoit yaratadi.

Uch yoshga qadam qo'ygan bolalar bilan suhbatlar, kuzatishlar o'tkazish, ularga hikoya va ertaklar o'qib berish, maslahat berish orqali o'yinlarga qiziqtirish kerak. O'yinda bolalarni katta ish - harakatning faqat tashqi tomonigagina taqlid qildirmay, balki ularni odamlarning, mehnatga bo'lgan munosabatlariga ham taqlid qildirish, bolalarda ahillik bilan o'ynay olish, rollarni taqsimlay bilish, ko'zlangan maqsadga erisha olish, ko'nikmalarini tarbiyalash. tortinchoq va uyatchan bolalarga loyiq rollarni taklif qilib, ularning o'yinga qo'shilishiga yordam berish kerak. Bolalarda xayol tasavvurlarini o'stirish ularda mustaqil biron yangi o'yinni ijod etish, bu o'yinga kerakli narsalarni tanlash, binolar qurish, ba'zi o'yinchoqlarni o'z qo'li bilan yasash, badiiy mashg'ulotlarda orttirgan malakalarini o'yinda qo'llash, qo'shiqlar aytish, she'r o'qish, chizgan rasmlaridan va yasagan narsalaridan foydalanish istagini uyg'otadi.

Jamoa o'yining paydo bo'lishi uning mavzysi va mazmunini ham, tuzilishini ham tez rivojlantirish va o'zlashtirish imkonini yaratadi. Bolalar o'yinlari mavzuyining o'zgarishida maishiy o'yinlardan mehnat, ishlab chiqarish syujetiga ega bo'lgan o'yinlarga, so'ng turli ijtimoiy voqealar aks ettiriladigan o'yinlarga o'tiladi. O'yining mazmuni ham rivojlanadi.

Katta yoshli bolalar hayotida harakatlar qatorida xilma - xil ijtimoiy munosabatlar, xatti - harakatlar ham aks eta boshlaydi. O'yinlar mavzysi doirasining kengayishi, ular mazmunining teranlashuvi, o'yin shakli va tuzilishining o'zgarishiga olib keladi.

O'yinning mazmuni, mohiyati va unga rahbarlik

Tayyorgarlik davri, o'yinga kirishish, o'yindagi harakatlarni muhokama qilish, asosiylarini belgilab olish jarayonlariga bo'linadi. Bu jarayonlar o'yin mazmunini to'laroq ifoda eta olishga, o'zaro iliq munosabatlarni o'rnatishda kelishib olishga yordam beradi. O'yinni rivojlantirish uchun o'yinga qo'yiladigan talablar mazmunini o'zgartirish kerak. O'yin vaziyatini tanlash o'yinga rahbarlik qilayotgan pedagogning mahoratiga, qiziqishiga bog'liq.

Syujetli - rolli o'yinlar mazmunining o'ziga xos tomonlarini mashhur pedagog va psixologlardan D.B.Elkonin, D.V. Mendjeritskiy, P.E.Samorukova va boshqalar o'z kuzatuvlarida chuqur o'rganganlar.

Syujet o'yin faoliyatida asosiy komponent bo'lib, u personajni, hayotiy vaziyatni, harakat va personajlar munosabatini o'z ichiga oladi. Syujetli - rolli o'yinlar o'z mazmun va mohiyatiga ko'ra jamoa o'yini bo'lib hisoblansa-da, yakka

holda o'ynalmaydi degan fikrni keltirib chiqarmasligi kerak. Syujetli - rolli o'yinlar bolaning aqliy, axloqiy, jismoniy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etib, bunda bola ehtiyoji va malakasi tarbiyalanib, shakllanib boradi.

Syujetli - rolli o'yinlarga rahbarlik qilish quyidagi asosiy bosqichlarda amalga oshiriladi.

1-bosqich. Bolalarning qiziqishlarini, ulardagи syujetli o'yinlar rivojlanishi darajasini o'rganishning asosiy vositasi quyidagilar:

- bolalar o'yinlarini kuzatish;
- o'yin rivojining asosiy yo'nalishlari, o'yin mavzusi, o'yin mazmuni, bola o'yin faoliyatining rivoji, o'yinda o'zaro munosabatlarning rivojlanishi bo'yicha tavsifnama tuzish;
- o'yinga rahbarlik maqsadini aniqlash.

2-bosqich. Kattalarning o'yin mavzysi va mazmuniga ta'sir etishi:

- o'yin mavzysi bo'yicha sayohat va maqsadli sayrlar uyushtirish;
- suhbatlar o'tkazish;
- badiiy asarlar va hikoyalar o'qib berish;
- illustrativ rasmlar ko'rsatish;
- mavzu bo'yicha turli mashg'ulotlar;
- tasviriy faoliyat mashg'ulotlari o'tkazish.

3-bosqich. O'yinga tayyorgarlik (o'yin o'ynash uchun maxsus joy, o'yinchoqlar va o'yin materiallari):

- tayyor o'yinchoqlarni tanlash;
- qo'lida yasalgan o'yinchoqlar. Bunda bolalarning mustaqil shug'ullanishlari uchun o'yin zonasini tashkil etish.

4-bosqich. Bolalarni o'ynashga o'rgatish (o'yin jarayoni va boshqa narsalarni o'yinda aks ettirish):

- o'yinchoq va uning o'rnnini bosuvchi buyumlar ta'sirini o'rganish;
- o'yinda xayoliy tasavvurlarni aks ettirishga o'rgatish;
- o'yinda so'zlardan foydalanishga o'rgatish;
- o'yinda harakatlarni hisobga olish malakalarini shakllantirish;
- so'z va harakat;
- harakat va o'yin materiali (so'z, harakat va o'yin materiali o'yinning tili hisoblanadi).

5-bosqich. O'yinda axloqiy munosabatlarga ta'sir etish, bolalar jamoasi, xulq-atvor, madaniyat, o'yin faoliyatida o'yin madaniyatini shakllantirish:

- ma'lum o'yin mavzuyiga nisbatan bolalarning his-tuyg'ularini uyg'otish;
- bolalarga o'yinni avvaldan rejalashtirish elementlarini o'rgatish;
- o'yinda rol va o'yinchoqlarni oqilona taqsimlashga o'rgatish;
- tengdoshlari bilan ahil o'ynay olish madaniyatini tarbiyalash;
- ahil jamoani shakllantirish: mustaqil o'ynash va o'yinni oxiriga etkazish, o'yin jarayonidagi kelishmovchilik, bahslarni oqilona hal eta olish malakalarini tarbiyalash;
- kattalarning o'yinga ta'sir etishi - maslahat berishi, tushunchalarini to'ldirish, o'yinga to'laqonli yordam berish;
- bolalarning o'yin faoliyatlarini, axloqiy munosabatlarni baholash.

Sahnalashtirish o'yinlarining o'ziga xos xususiyatlari. Saxmalashtirish o'yinlari, bu bolalarning mustaqil ijodiy o'yin turi bo'lib, unda badiiy asar va hikoyalar bolalar tomonidan rollarga bo'lib ijro etiladi. Bu o'yinlar bolalarda iroda, intizom va o'z xatti-harakatlarini boshqara olish, boshqalarning harakatlari bilan hisoblashish kabi ijobi ma`naviy xislatlarni shakllantiradi.

Sahnalashtirish o'yinlarida bolalar o'yin jarayoniga kirib boradilar, voqeа va ertak qahramonlarining ichki hayotiga bevosita aloqador bo'lган qahramonlik, jasurlik, mehribonlik, jonbozlik, jonkuyarlik kabi ijobi fazilatlarni o'zlarida yaqqol namoyon qiladilar. Bu jarayonda bolalarning nutq faolligi, lug'at boyligi, dunyoqarashi kengayib boradi.

Sahnalashtirish uchun badiiy asar, ertaklar tanlash katta yoshdagilardan bolalarning yosh xususiyatlari, qiziqishlari, istaklarini hisobga olishni talab etadi.

Adabiy asarlarni tanlashda quyidagi talablar qo'yiladi:

1. Mazmunining g'oyaviy - ma`naviy barkamolligi.
2. Badiiy jihatdan mazmundorligi.
3. Asardagi qatnashchi va rollarning soni (qancha ko'p bo'lsa, asar shuncha ahamiyatlidir).
4. Mazmuni yaxshi bo'lishi bilan birga, unda harakat turlarining ham ko'p bo'lishi.
5. Ifodali o'qishga mos bo'lishi.
6. Mazmuni qiziqarli, hayot bilan bog'langan bo'lmog'i. Bolalar xalq ertaklarini sahnalashtirishni yaxshi ko'radilar. Masalan, «Sholg'om», «Zumrad va Qimmat», «Bo'g'irsoq» va boshqalar. Bolalar boshqa xalq ertaklarini ham turli usullarda qo'g'irchoq, soya, stol teatri orqali sahnalashtirishga ehtiyoj sezadilar.

Badiiy asarni eslab qolishlari uchun uni qayta o'qib berish, sahna ko'rsatish, rasmlar namoyish etish, didaktik o'yinlardan foydalaniladi.

Sahnalashtirish o'yinlari qiziqarli o'tishi va uzoq vaqt davom etishi uchun kerakli jihozlar tayyorlanishi va unga to'g'ri rahbarlik qilinishi kerak. Kattalar o'yin rejissori rolini amalga oshira borib, bolalarning xatti-harakatlari, qobiliyatlarini, intilishlarini hisobga olib boradilar. O'yinda faol ishtirok etgan bolalarni alohida rag'batlantirilib, kelgusida qaysi asarlarni sahnalashtirish kerakligini aniqlaydilar.

Bolalarning ijodiy qobiliyatlarini yanada takomillashtirishda qurilish materiallari bilan o'ynaladigan o'yinlarning roli kattadir. Pedagoglardan Z.V. Lishtvan, V.G. Nechaeva o'z tadqiqotlarida qurish - yasash o'yinlarining o'ziga xos tomonlari va ahamiyatini yoritib bergenlar.

Qurish - yasash o'yinlari bolada buyum obrazini fazoviy ifodada tasvirlashni talab qiladi. O'yin jarayonida biror bir material yoki buyumning hajmi, katta - kichikligi, bir - biriga mosligi, fazoviy mo'ljallay olish ko'nikmasi shakllanadi, rivojlanadi. Qurish - yasash o'yinlari bolalarda kuzatuvchanlikni shakllantiradi, buyumlarni fazoviy joylashtira olishga o'rgatadi.

Bu o'yinlarni o'tkazish quyidagi bosqichlarda o'tkaziladi:

1-bosqich. Bolalarning qurish - yasash qobiliyatlarini ko'nikma - malakalarini, qiziqishlari darajasini o'rganish. Qurilish o'yinlariga rahbarlik maqsadini aniqlash.

2-bosqich. Qurilish inshoot va binolariga sayohat, ekskursiya, maqsadli sayrlar tashkil etish. Turli suratlar, rasmlar, badiiy asarlar, suhabat orqali katta shahar va poytaxtdagi binolar, quruvchilar mehnati bilan yaqindan tanishtirish.

3-bosqich. 1. Bolalar o'yinlari uchun sharoit yaratish. Qurilish materiallarini etarli tarzda tayyorlash (guruh va yakka-yakka shug'ullanishlari uchun).

2. Qurilish materiallari turli hajm va katta - kichiklikda bo'lishi mumkin.

3. Guruhda va er maydonchasida qurilish materiallari hamda ish qurollarining saqlanishi.

4. Qurilish materiallarining to'g'ri va qulay saqlanishi.

5. Qurilish burchagidagi o'yinchoqlar va materiallarning joylanishi.

6. Tashlandiq materiallardan qo'l bola o'yinchoqlarning mavjudligi.

7. O'lkamiz va uning poytaxti, turli transporter aks ettirilgan albomlar.

8. Bino va inshootlarning qurilishini bolalar bilan kuzatish.

4-bosqich. Bolalarni qurish - yasashga o'rgatish va malakalarini shakllantirish. Bunda quyidagi usullardan foydalaniadi:

1. Kattalarning tushuntirib, ko'rsatib berishi.

2. Kattalarning biror - bir qurilishni qurib ko'rsatishi, har bir qismni tahlil qilib berishi.

3. Namuna sifatida tayyor qurilish inshoatini ko'rsatish.

4. Qurilishning ayrim muhim qismlari va ularning xususiyatlari bilan tanishtirish.

5. Tugallanmagan qurilish ob`ektini davom ettirishga jalb etish.

6. Berilgan mavzu asosida binolami mustaqil qurish - yasashlari.

7. Bolalarning ijodiy - ixtiyoriy qurish - yasashlari.

8. Tayyor qurilishni tahlil qilish.

5-bosqich. Bolalarning ijodiy qurilish o'yinlarini tashkil etish. O'yin jarayonida o'zaro munosabatlarda axloqiy sifatlarni, o'ynay olish madaniyatini shakllantirish, shuningdek, yoz oyida qum, suv, qish oyida esa qor bilan o'ynashga rahbarlik qilish.

Qum bilan o'ynash. Qum bolalarning o'ynashlari uchun eng qulay o'yin vositasi bo'lib hisoblanadi. Qum maxsus yashiklarda nam holatda saqlanadi. Qumni saqlashga gigienik talablar qo'yiladi:

a) qum turli xil tosh, shishalardan tozalangan bo'lishi;

b) qum faqat namroq holda saqlanishi;

d) bolalarning salomatligiga xavf solmasligi kerak.

Kichik yoshdagи bolalarni qum bilan o'ynashlari uchun bayroqchalar, o'yinchoqlar tayyorlab qo'yilishi kerak.

Suv bilan o'ynaladigan o'yinlar. Bu o'yinlar bilan kichik yoshdan boshlab shug'ullanish mumkin. Suvda qo'g'irchoqni cho'miltirish, o'yinchoqlar bilan o'ynash, katta yoshdagи bolalar esa suvda cho'milishlari mumkin.

Qor bilan o'ynaladigan o'yinlar bolalarda quvnoq kayfiyatni uyg'otadi. Buning uchun yog'och belkurakcha, qorni tashish uchun quticha ortilgan chana bo'lishi shart. Kattalar yordamida qor uyumlaridan turli shakllar, qorbobo, qorqiz, hayvonlarning qiyofasini yasaydilar.

Didaktik o'yinlar

Didaktik o'yinlar ta`limiy o'yin sifatida bolalarning yosh xususiyatlariga mos keladigan o'yinlar sirasiga kiradi. Didaktik o'yinlarning muhim belgisi undagi qoidalarning mavjudligidir. O'yinda o'yin niyati, o'yin qoidalari, o'yin harakatlari o'rtasida uzviy aloqa mavjud. O'yin niyati o'yin harakatlarining tabiatini belgilaydi. O'yin qoidasi esa, o'yin harakatlarini, vazifasini hal etishga va o'yindagi harakatlarni amalga oshirishga yordam beradi.

Didaktik o'yinlar orqali bolalarga yangi bilimlar, tushunchalar berib boriladi. Bu o'yinlarda bolaning har tomonlama rivojlanishi, bilim jarayoni, sensor madaniyati, nutq faoliyati, aqliy qobiliyatları takomillashadi. O'yin qoidasiga rioya qilish, unga amal qilish o'yin mazmunini boyitadi.

Didaktik o'yinlarda tabiiy narsa va buyumlardan keng foydalaniladi. Bolaning kun tartibida didaktik o'yin uchun vaqt va joy ajratilishi kerak. Bunday o'yinlar mashg'ulot jarayonida va o'yindan tashqari vaqtarda guruh yoki yakka-yakka o'tkaziladi. Bunda o'yin mazmuni va natijasi puxta aniqlanadi. Didaktik o'yinlarda quyidagi qoidalarga amal qilinishi kerak:

1. Navbatma-navbat ta'sir etish.
2. So'ralganda javob berish.
3. O'rtoqlari fikrini eshita olish.
4. O'yin jarayonida boshqalarga xalaqit bermaslik.
5. O'yin qoidasini bajarish.
6. O'z xatosini tan olish.

Didaktik o'yinlarda bolalarning yosh, individual xususiyatlarini hisobga olish lozim. O'yinda o'yin tempi va ritmi katta rol o'ynaydi, juda sekin va bir tekisdagi temp bolani ko'p kuttiradi, juda tez temp esa bolalarni hayajonga soladi, turli bahs-munozaralarga olib keladi. Kattalar tomonidan o'yin ishtirokchilarini to'g'ri baholash muhim ahamiyatga ega.

Didaktik o'yinlarning quyidagi turlari mavjud:

- a) buyum va o'yinchoqlar bilan o'ynaladigan;
- b) stol-bosma;
- d) og'zaki so'z o'yinlari.

Buyum va o'yinchoqlar bilan o'ynaladigan o'yinlar bolaning ilk yoshidan boshlab, to maktab yoshiga etgunga qadar o'ynaladigan o'yin turi hisoblanadi. Bunda bolalarning tasavvurlari, diqqatlari o'yin asosini tashkil etadi. Ularda tevarak-atrofdagi narsa va buyumlar, ularning sifati, foydali tomonlari to'g'risida umumiy tushuncha hosil bo'ladi. O'yinda o'ynaladigan har bir buyum yoki o'yinchoq o'zining tashqi ko'rinishiga ega bo'lishi, narsaning asosiy belgisini ajrata bilish imkonini berishi lozim. Bunday o'yinlar bolalarning narsalarning shakli, hajmi, belgisi, sifati haqidagi bilimlarini kengaytiradi.

Stol - bosma o'yinlari bolalarning tevarak-atrof haqidagi tasavvurlarini aniqlash, bir tizimga solish, tafakkurini (tahlil qilish, sintez, umumlashtirish, tavsiflash) o'stirish imkonini beruvchi o'yin usulidir. Bu o'yin turiga a) lotto; b) juft rasmlar; d) domino; e) labirint kiradi.

Og'zaki so'z o'yinlari katta maktabgacha yoshdagagi bolalar bilan o'tkaziladi. Ular bolani eshita olish, zudlik bilan javob topa olish, o'z fikrlarini tez va aniq

ifoda eta olishga o'rgatadi. Tadqiqotchilarning fikricha, bunday o'yinlar bolaning aqliy rivojlanishida katta ahamiyatga ega. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan o'yin turlarida didaktik maqsad va o'yin materiallarining mavjudligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Qoidali-harakatli o'yinlar asosini bolaning jismoniy rivojlanishiga qaratilgan harakatlar tizimi egallaydi. Bunda asosan yurish, yugurish, sakrash, chirmashib chiqish, uloqtirish, emaklash kabi harakatlar o'yin mazmunini belgilaydi. Qoidali-harakatli o'yinlar kelib chiqishiga ko'ra: a) xalq milliy o'yinlari; b) mualliflik o'yin turlariga bo'linadi.

Har ikkala o'yin turida ham asosiy mezon o'yin qoidasi bo'lib hisoblanadi. Harakatli o'yinlar harakatlarning aniqligi, ifodaliligi, bolalarda tezkorlik, epchillik, qo'rmaslik, mardlik kabi oljanob fazilatlarni tarbiyalab boradi. Ko'pchilik harakatli o'yinlar jamoa bo'lib o'ynashga mos, bu jamoada uyushgan holatda harakat qilish qobiliyatini shakllantiradi. Qoidali harakatli o'yinlami o'tkazishda bolalarga rolni to'g'ri taqsimlash o'yin jarayonini kuzatib borish, unga rahbarlik qilish, o'z vaqtida yaxshi harakatlarni rag'batlantirish o'yin nufuzini oshiradi. O'yin jarayonida quvnoq kayfiyat, ijobiy his-tuyg'ular yuzaga keladi.

Kichik yoshdagি bolalar uchun o'yin syujeti ochiq xarakterga ega bo'ladi. Masalan, «To'pni quvla!», «To'pni ushlab ol!». Katta yoshdagи bolalar uchun o'yin maqsadi, qoidasi va o'yinni tashkil etish murakkablashadi. Qoidali-harakatli o'yinlar avval jismoniy tarbiya mashg'ulotida o'rganiladi. So'ngra boshqa jarayonlarda takroran o'ynatilishi lozim. «Uchinchi ming yillikning bolasi» dasturiga turli yosh guruhlari bo'yicha o'tkaziladigan harakatli milliy o'yinlar turkumlari kiritilgan.

O'zbek xalqining ermak va ovutmachoq o'yinlari bilan, asosan, bolaning ilk yosh davridan boshlab shug'ullanib boriladi. Bu o'yinlar asosan kattalarning bevosita rahbarligida harakat va so'zlarning uyg'unlashuvi bilan o'ynatiladi. Masalan, «Barmoqlar», «Sichqon-sichqon» o'yinlari orqali bolalarda xushchaqchaqlik kayfiyatları hosil qilinib tasavvurlari o'sib boradi. Xalqimizda «Bolaning ilonni changallaydigan davri» degan ibora bor. Bu hikmat bola xali qo'rqish hissini bilmaydigan davrida, ya`ni yaxshi-yomonni ajrata olmaydigan vaqtida qo'llaniladi. Xuddi shu davrda «Sichqon-sichqon» o'yini qo'l keladi.

Ilk yoshdagи bolalar dastro'moldan yasalgan «sichqon»ning harakatlanishidan qattiq zavqlanib, qiyqirib yayraydilar. «Sichqon»ni harakatlantiruvchi katta odam uning juda chaqqonligini namoyish etishi kerak. Bu ovutmachoq go'dakka sichqon shakli va uning juda yugurdakligi to'g'risida tasavvur hosil qilishga ko'maklashadi. Ermak o'yinlardan «Oymoma», «Boqqa kirsam maylimi», «Alla», «Aji-aji», «Boylandi», «Chapakka-xo-chapakka» orqali bolalarni muloqotga o'rgatib boriladi. Bu jarayonda bolalarning eshitish, ko'rish, sezish, his qila olish kabi sensor qobiliyatları faollashadi. Bolalarning nutq faolligini o'stirish maqsadida aytishma o'yinlaridan keng foydalaniladi. Bunday o'yinlarga «Boylandi», «Xolam keldi», «Mundi-mundi», «Bulbulim-bulbulim», «Ko'z boylog'ich», «Oq sholi, ko'k sholi», «Ada hormang»lar kiradi. Yana, xalqimizda azal-azaldan o'ynab kelinadigan so'z o'yinlaridan «Yarashtirgich»lar

hali-hanuzgacha bolalar orasida «tinchlik - yarashuv» timsoli sifatida qo'llaniladi. Bu o'yinlar bolalar tilidan ana shundayjaranglaydi:

Karimga berdim toychoq, U olavermadni har choq. Toychog'imni kim olsa, Men u bilan chin o'rtoq.

YAlinchoq - yalinmachoq. Pista po'choq.

Qilichmi, to'qmoq, qirq yilgacha o'rtoq, To'qmoq to'qson yilgacha o'rtoq.

Bolalarning matematik tasavvurlarini o'stirishga yordam beradigan o'yin turiga «Sanamalar» kiradi. Bu o'yin jarayonida bolalar she'riy satrlar orqali son-sanoqdan topishmoq tarzida foydalanib qatnashadilar. Bunda bolalarning tasavvurlari, fikrlash doiralari kengayib, she'riy ohangda to'g'ri javob qaytarishga o'rgatilib boriladi. Asosan bu o'yinlar quyidagicha jaranglaydi:

Dadam-u oyim, Bor ikkita singlim. Bahodir, Dildor. Bog'chaga ketar, Sanab ko'r chaqqon, Bizlar nechta jon.

O'zbek xalqi nihoyatda so'zga chechan, topqir bo'lib, o'zining alyor-u qo'shiqlariga boydir. Bu fikrimizning isboti sifatida xalq orasida mashhur bo'lgan «Qiqillamalar»ni misol sifatida keltirish mumkin. Bu so'z o'yinlarida sodir bo'layotgan voqeа-hodisalar, kechinmalar she'riy ohangda ijro etiladi. Masalan: Shov-shov etadi ariq, Karim ekadi tariq. Yoki:
Echki keladi ma'rab, O'z egasiga qarab.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan o'yinlami ertalab va kechki soatlarda o'ynash mumkin.

13.2. Turli yosh guruxlarda bolalar o'yinlariga raxbarlik qilishni tahlil qilish.

O'yin faoliyatini kuzatish va tahlil qilish juda murakkab ish. Bu o'yinning maktabgacha yoshdagи bola shaxsini rivojlantirishdagi alohida ahamiyati, bolalar muassasasida olib boriladigan ta`lim - tarbiya jarayonida olib boriladigan o'rni, o'yin turlarining xilma - xilligi va ularni rivojlantirish xususiyatlari bilan bog'liqligi tufaylidir.

Bu xususiyatlarni yaxshi bilish o'yin faoliyatini chuqur tahlil qilishni va uslubchi tomonidan tarbiyachilarga o'z vaqtida yordam ko'rsatishni ta'minlaydi. Bolalarning o'yinlari xilma - xilligi bilan farqlanadi. U maktabgacha bo'lgan butun bolalik davrida mazmuni, uyushtirilishi, o'yinda bolaning faolligini namoyon qilish xarakteriga ko'ra, ularning bolalarga ko'rsatadigan ta`siri va nihoyat kelib chiqishiga ko'ra katta o'zgarishlarni boshidan kechiradi.

Uslubchi ishni o'yin turlarini tanlashga qaratadi. Mashg'ulotdagi didiktik o'yinlar syujetli-rolli, qoidali, harakatli, musiqaviy didaktik o'yinlari, stol ustida o'ynaydigan o'yinlar, tinch o'yinlar va ijodiy o'yinlar tarbiyachi tomonidan rejallashtirishning maqfsadliligiga, ularga rahbarlik darajasini nazorat qilib borib, tajriba asosida tarbiyachiga metodik-amaliy maslahatlar berdi. Turli yosh guruhlardagi o'yin tizimini "Uchinchi mingyillikning bolasi" dastur asosida ishlab chiqadi va o'yin jarayonini kuzatish jadvalini tuzadi.

1. O'yin faoliyatining paydo bo'lishi va rivojlanishi uchun sharoitlarning ta'minlanganligi (o'yin uchun berilgan vaqtning etarliligi, o'yin faoliyatini kengaytirish uchun joyning, zarur o'yinchoq va qo'llanmalarning mavjudligi va

xonada ularni to'g'ri joylashtirilishi, bolalarni taassurotlar bilan boyitish va yaxshi kayfiyatlar;

2. O'yin faoliyatiga rahbarlik metodikasi-bolalarning emotsional ijobjiy holatlarini qo'llab-quvvatlash va yaxshilashga yo'llangan metod va usullar, o'ynovchilarning faolligini ta`minlash, faoliyatning bir turidan ikkinchisiga o'z vaqtida o'tish, bunga qanday metod va usullar bilan erishiladi? O'yin faoliyatini uzaytirish va murakkablashtirish, bolaning ilk yoshida o'yindan uning nutqini tushunishni rivojlantirish va faolligini tarkib toptirish maqsadlarida foydalanish, ijobjiy o'zaro munosabatlar va boshqa axloqiy sifatlarni tarbiyalash.

3. Uslubchi o'z oldiga quyidagi vazifalarni qo'yadi.

1. O'yinni faoliyat tarzida rivojlanirish;

2. O'yindan bolalarga ta`lim - tarbiya berishda foydalanish.

Guruhda to'laqonli o'yinlarning rivojlanishi uchun sharoitlar yaratilishiga:

a) tarbiyachining o'yin qobiliyatlariga rahbarlik qilishi;

b) o'yin muhitini yaratish;

v) kundalik hayotda o'yin uchun vaqtning etarliligiga alohida e'tibor berib bordi.

Tajriba shuni ko'rsatdiki, bolalarningt o'yin jarayonidagi hatti-harakatlari, ularning katta yoshlilarga taqlid qilish istagidan dalolat beradi. Bolaning o'yini odamlarning hatti-harakatlari, hulq-atvori, o'zaro munosabatlarini o'yin roli vositasida ijodiy aks ettirishdan iborat bo'ldi.

Nazorat savollari:

1. Qanday o'yin turlarini bilasiz?
2. Milliy xarakatli o'yinlardan misollar keltiring.
3. O'yinlarning bola shaxsini rivojlanishiga ta'sirini tushuntirib bering.
4. Musiqali – didaktik o'yinlardan misollar keltiring.

Adabiyotlar:

1. O.U.Xasanboeva, M.X. Tadjieva, Sh.K.Tashpulatova va boshqalar "Maktabgacha ta`lim pedagogikasi" "Ilm Ziyo". T.: 2006 y.
2. R. Mavlonova "Pedagogik texnologiya" Toshkent "Fan" 2009 y.
3. Sh.K.Tashpulatova "Maktabgacha ta`lim muassasalar ishini tashkil etish va boshqarish usullari" TDPU.T.: 2001 y.
4. A. I.Vasileva, L.A. Baxturina, I.I.Kobitina "Bolalar bog'chasining katta tarbiyachisi" T.: "O'qituvchi" 1991 y.
5. Maktabgacha ta`lim muassasasi to'g'risidagi Nizom. Toshkent 2007 y.
6. Maktabgacha yoshdagi bolalar ta`lim-tarbiyasiga qo'yiladigan davlat talablari. Toshkent 2008 y.
7. Maktabgacha ta`lim kontseptsiyasi. Toshkent 2008 y.
8. "Uchinchi mingyllikning bolasi" Dasturi. Toshkent 1999 y.

XIV BOB. Mehnat tarbiyasiga raxbarlik. (amaliy)

Reja:

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarning mehnat tarbiyasi vazifalari jadvalini tuzish. (Dastur asosida)
2. Mehnat turlari jadvalini tuzish (maishiy – xo’jalik, tabiatdagi, qo’l mehnati)

Mustaqil ish: Mehnat turlariga oid o’yin namunasini tuzing.

Mavzuning maqsadi: Maktabgacha yoshdagi bolalarni mehnat tarbiyasi to’g’risidagi bilimlarini mustahkamlash. O’quvchilarni dastur bilan ishlashga o’rgatish.

Mavzuning vazifalari:

1. Dasturda belgilab berilgan mehnat turlarini turkumlash.
2. Maktabgacha yoshdagi bolalarni xar tomonlama tarbiyalashda mehnatning axamiyati to’g’risida ilmiy bilimlarini kengaytirish.

14.1. Mehnat tarbiyasiga raxbarlik.

«Uchinchi mingyillikning bolasi dasturi» maktabgacha yoshdagi bolalar -mehnat tarbiyasining quyidagi vazifalarini belgilaydi:
-mehnat faoliyati zaminlarini tarbiyalash;
-mehnat malakalarini shakllantirish;
-bolalar mehnat faoliyati mazmunini asta-sekin kengaytira borib, ularni takomillashtirish;
-shaxsnинг muhum sifatlari; mehnatga intilish odatini, mas`uliyat, g’amxo’rlik, tejamkorlik, mehnatsevarlik, mehnatda qatnashishga tayyorlik, qat`iylikni, zaruriyat tug’ilganda mehnatga qo’shila bilishni tarbiyalash;
-topshiritsii bajarishning boshlanishi va pirovard natija o’rtasida borliklikni aniqlashni o’rgatish, mehnatning ahamiyatini tushuntirish, mehnat natijalariga tejamkorlik bilan yondoshishni tarbiyalash;
-topshiriklarga mas`uliyatli munosabat, ishni oxiriga etkazish ko’nikmasi va ishtiyoqi, uni sifatlari bajarishga intilish asoslarini shakllantirish;
-mehnat madaniyatini tarkib toptirish: o’zining ishini va umum ishini rejalashtirish va uyushtirishning elementar malakalarini, uning izchilligini muljallay olish, vazifalarni qatnashchilar o’rtasida taqsimlash, ish uchun kerakli hamma narsani hozirlash, jixozlardan to’g’ri foydalanish, mexnat jarayoni tugagach, xamma narsani joy-joyiga olib borib qo’yish malakalarini tarbiyalash;
-o’z harakatlarini o’rtoqlarining harakatlari bilan muvofiqlashtirish, yordam zarurligini ko’ra bilish, yordamni o’z tashabbusi bilan ko’rsatishni o’rgatish.

Bolalarning mexnat faoliyatları turli yosh guruxlarida tegishli shakllar yordamida amalga oshiriladi.

Kichik mактабгача yoshda mexnat faoliyati zaminlarini shakllantirish topshiriqlar berish shaklsida amalga oshiriladi. Topshiriqlar berishdan barcha yosh guruxlarida keng foydalaniladi, ammo ularning xaraktera va mazmuni murakkabligi, davomiyligi, xarakteri bolalarni uyushtirishiga ko'ra jiddiy o'zgaradi. Topshiriqlarning mazmuni «Uchinchi mingyillikning bolasi dastursi»da aniqlangan bo'lib, ular faoliyat va mehnatning asosiy turlari bilan bog'langandir.

O'yin. O'yinchodlarni qo'yib chiqish, qurilish materialini taxlash, qo'g'irchoq kiyimlarini yuvish, o'yinchoqlarni maydonchaga olib chiqish, qordan qurilmalar qurishda ishtirok etish, o'yinni uyushtirish, kichkintoylar bilan uynash va boshdalar.

O'qitish. Mashg'ulot uchun qalamlar, taxtalar va boshqa qo'llanmalarni qo'yib chiqish, ularni mashg'ulotdan so'ng yig'ishtirish; qalamlarning uchini ochish, qutichalardagi bo'yoqlar naborini tekshirish, qog'ozni qirqib qo'yish, bolalarning rasmlarini yig'ib olish.

14.2. Guruxlar bo'yicha bolalar mehnatining turlari va uni tashkil etish shakllari

Maishiy-xo'jalik mehnati. Stol va stullarni to'g'ri qo'yib chiqish, changni artish, stollarga idishlarni va priborlarni qo'yib chiqish, echinishdan so'ng shkafdag'i kiyimlarning qanday osilganligini tekshirish» to'kilgan suvni artib olish, axlatni yig'ib chelakka solish, oshpazdan nonushtaga nima tayyorlanganligini so'rash, o'rtog'iga tugmachalarinn qadashida yordamlashish,

Tabiatdag'i mehnat. Xona o'simliklariga suv qo'yish, baliqlarni boqish, dushlar suvdonini yuvish, o'simliklarning yirik barglarini artish, piyoz ekish, yirik egatdag'i o'simliklarga suv quyish. Qo'l mehnati. O'yinchokni tuzatish, kitobni elimlash, xatcho'p, sanoq materiali, kichkintoylar uchun o'yinchoqlar yasash va shu kabilar.

Bajariladigan topshiriqlarni hisobga olib borish maqsadga muvofiqdir. Bu bolalarni mehnatni uyushtirishning murakkabroq shakllalariga tayyorlashni, ularni ishda bir tekisda qatnashishlarini ta'minlaydi, bolalarning mehnat malakalarini egallash darajalarini, mehnatga munosabatni, qo'yilgan vazifani hal qilish yo'llarini mustaqil uylab topish klinikmalarini aniqlash va shunga ko'ra bolalar va ota-onalar bilan olib boradigan individual ish belgilashni ta'minlaydi.

Topshiriqlarning bajarilishini hisobga olish shakli boshqacha xam bo'lishi mumkin. Ammo katta tarbiyachining vazifasi ana shunday shaklni ishlab chiqish hamda ish praktikasiga joriy qilishdir.

Bolalarning topshiriqlarni bajarishlari hisobotining tahlili hamda guruxda ularni kuzatish uslubchiga topshiriqlarning samaradorligini baholash imkonini beradi.

Uslubchi navbatchilar ishini kuzatish va tahlil qilishda bolalarni juftlarga birlashtirish printsiplariga, ular o'z ishlarii qanday kelishib olishlariga, vazifalarni o'zaro qanday taqsimlashlari va unga qanday qarashlariga, yuzaga keladigan tushunmovchiliklarni qanday hal qilishlariga, bir-biriga qanday muomala qilishlariga, bolalar tomonidai navbatchilikning qanchalik muntazam

bajarilayotganligiga, har bir bolaga to'g'ri kelayotgan yuklamaning hisobga olish-olinmasligiga, tarbiyachi navbatchilar ishi ustidan nazoratni qanday amalga oshirayotganligiga, ish hajmini belgilashda bolalarning individual xususiyatlari xisobga olinish-olinmasligiga, navbatchilar ishini baholash metodikasiga e'tibor berishi kerak.

Bolalarning jamoa mehnatlarining tashkil etilishi hamda unga rahbarlik metodikasiga alohida e'tibor talab qilinadi. Bolalarning jamoa mehnatlari yonmayon ishslash, umuman va hamkorlikdagp mehnat tarzida tashkil etilishi lozim. Yonma-yon mehnat bolalar tomonidan murakkabligi va hajmi jihatidan bir xil topshiriqlarning bajarilishini nazarda tutadi. Mehnatning bu turidan kichik guruxlarda foydalanish mumkin (qo'g'irchoqlarning kiyimlarini yuvish, maydonchani barglardai tozalash, piyoz, nuxat ekish va shu kabilar). Tarbiyachining rahbarligi ishni bajarish usullarini, uning bajarilishizchilligini ko'rsatishga, bolalarning intilishlarini hamda ishni oxiriga etkazish ko'nikmalariga, ishning sifatiga; bolalarning bir-birlariga g'amxo'rlikni namoyon qilishlari va o'rtog'iga yordam berishiga qaratilishi lozim.

Umumiyl mexnat bolalarni bir zvenoga birlashtiradi. Ish natijalari umumlashtiriladi.

Bolalarni birlashtirishning eng murakkab shakli hamkorlikdagi mehnatdir. Hamkorlikdagi mehnatning o'ziga xos xususiyati unda bir qator izchil bosqichlarning mavjudligi va bolalarning mehnat jarayoniga ayni bir vaqtida qo'shilmasliklaridir.

Jamoa mehnatni uyuştirishda uchta bosqich ajratiladi: bajarilishi lozim bo'lgan ishni qatnashchilar o'rtasida taqsimlash, topshiriqlarning bolalar tomonidan bajarilish jarayoni va mehnat faoliyati natijalarini muhokama qilish. Bu bosqichlar tahlilida nimalar hisobga olinishi kerak?

I b o s q i c h

Vazifalarni bolalar yoki tarbiyachi taqsimlaydi; bolalar topshiriqni ayni bir vaqtida yakunlay olishlari uchun har xil ishlarning mehnat hajmi hisobga olinishi - olinmasligi; mehnat bolalar guruxi tomonidan bajarilayotgan mehnatning barcha operatsiyalarida mashq qila oladigan qilib uyuştiriladimi? bolalarni joy-joyiga qo'yish o'ylab chiqilganmi? bolalarning individual xususiyatlari, ularning ishi bajarish ishtiyoqlari hisobga olinadimi va shu kabilar; hamkorlikdagi mehnatning uyuştirilishi bolalar bilan muhokama qilinadimi; ishni bajarish zarurligi bolalapra asoslab beriladimi; bo'lajak mehnatning butun hajmi tarbiyachi tomonidan aytib o'tiladimi va u umumiyl topshiriq sifatida tavsiya etiladimi; bolalarning o'zaro munosabatlarini boshqaruvchi umumiyl qoidalar kiritiladimi; yuzaga keluvchi bahslar qanday hal qilinadi; pedagogning ta'sir ko'rsatish xarakteri (nazorat, eslatish, muhokama va shu kabilar).

II b o s q i c h

Mehnat jarayoniga rahbarlik xarakterning ahloqiy hususiyatlarini shakllantirishga yo'llanganmi; tarbiyachining ishni bir vaqtida bajarishga yo'llangan metodik usullari (maslahat, ko'rsatish, tushuntirish, bevosita yordam, izoh, qo'shimcha ish); bolalar tomonidan o'rtog'iga ta'sir ko'rsatish vositasi sifatida qo'llaniladigan usullar; Hamkorlikdagi faoliyatlarda bolalarning

muomalalarini boshqarishga yo'llangan tarbiyachining metodik usullari (vijdonan ishslash zarurligini tushuntirish, bajarilgan ishning sifati yomon bo'lgan hollarda bola xatti-harakatining namunalarini va unga ta'sir qilish usullarini ularga aytish, bolalar o'rtasidagi ijobiy o'zaro munosabatlar nuqtai nazaridan xatti-harakat namunalarii asoslovchi axloqiy qoidalarni bolalarga aytish).

III b o s q i c h

Tarbiyachi tomonidan jamoa mehnatning afzalliklarining ko'rsatilishi; ish sifatini baholash; bolalardagi ayrim ko'rinishlar (ijobiy va salbiy)ni baholash; bolalar ishini baholash xarakteri.

Shunday kilib, biz uslubchi uchun guruxlarda bolalarning mehnat faoliyatlarini tahlil qilishga doir taxminiy tavsiyalarni bayon qildik.

Bolalarning jamoa mehnatlarini uyuştirish va unga rahbarlik qilish tarbiyachida katta qiyinchiliklar tug'diradigan hollarda uslubchi unga ishlanma tuzishida, jamoa mehnat faoliyatini uyuştirishida yordam beradi.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalar tomonidan guruxi frontal yig'ishtirishning taxminiy ishlanmaini bayon qilamiz.

Dastur mazmuni: jamoa mehnat malakalarini mustahkamlab borishni davom ettirish: kelisha bilish, vazifalarni taqsimlash, buysunish, xona o'simliklarini parvarish qila bilish, o'yin burchaklari va butun xonada tartib va tozalikni saqlay bilishni mustahkamlash; mas'uliyat, mehnatsevarlik, umum manfaatiga mehnat qilish ishtiyoqini tarbiyalash; boshlangan ishni oxiriga etkazishni; bolalarni o'rtoqlariga maslahat bilan yordam berishga o'rgatish.

Nazorat savollari:

1. Maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyasida mehnat tarbiyasining tutgan o'rnini izohlab bering.
2. Bolalarda mehnat ko'nikmalarni shakllantirishda qanda yshakl va usullardan foydalanish mumukin deb o'ylaysiz va bo'lar qaysilar?
3. Ilk va kichik guruxlarda mehnat tarbiyasining o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
4. Qanday qo'l mehnat turlarini bilasiz? Misollar keltiring.

Adabiyotlar:

1. O.U.Xasanboeva, M.X. Tadjieva, Sh.K.Tashpulatova va boshqalar "Maktabgacha ta'lim pedagogikasi" "Ilm Ziyo". T.: 2006 y.
2. R. Mavlonova "Pedagogik texnologiya" Toshkent "Fan" 2009 y.
3. O.U.Xasanboeva, X.D.Djabborova, Z.Nodirova. "Bolalarni tabiat bilan tanishtirish metodikasi". T., "CHO'lpon" 2010 y.
4. Sh.K.Tashpulatova "Maktabgacha ta'lim muassasalar ishini tashkil etish va boshqarish usullari" TDPU.T.: 2001 y.
5. A. I.Vasileva, L.A. Baxturina, I.I.Kobitina "Bolalar bog'chasining katta tarbiyachisi" T.: "O'qituvchi" 1991 y.
6. Maktabgacha ta'lim muassasasi to'g'risidagi Nizom. Toshkent 2007 y.

7. Maktabgacha yoshdagi bolalar ta`lim-tarbiyasiga qo'yiladigan davlat talablari. Toshkent 2008 y.
8. Maktabgacha ta`lim kontseptsiyasi. Toshkent 2008 y.
9. "Uchinchi mingyillikning bolasi" Dasturi. Toshkent 1999 y.

XV BOB. O'quv faoliyatining tahlili (amaliy)

Reja:

1. Maktabgacha ta`lim muassasasida o'quv jarayonini nazorat qilishning maqsadi va unga qo'yiladigan talablar.
2. Uslubchi tomonidan o'quv faoliyatini nazorat qilish.

Mavzuning maqsadi: Maktabgacha ta`lim muassasasida ta`limiy jarayonlarni tashkil etish bo'yicha nazariy bilimlarini mustahkamlash.

Mavzuning vazifalari: Uslubchining o'quv faoliyatiga raxbarligi bo'yicha o'quvchilarda amaliy malakalar hosil qilish.

15.1. Maktabgacha ta`lim muassasasida o'quv jarayonini nazorat qilishning maqsadi va unga qo'yiladigan talablar.

O'quv jarayonini nazorat qilishning bosh maqsadi bolalarni mashg'ulotlarda to'la qonli, har tomonlama rivojlanishlari hamda tarbiyalanishlarini, bolalar tomonidan barcha dastur talablarining yosh va individual xususiyatlariga muvofiq tarzda egallanishini ta`minlashdir.

«Uchinchi mingyillikning bolasi dasturi»da mashg'ulotlarning bolani aqliy va har tomonlama rivojlantirish va tarbiyalashning muhim shakllaridan biri sifatidagi roli bir muncha ortganligi qayd etiladi. Bu to'g'ridir, chunki mashg'ulot tarbiyachining ko'pchilik bolalar faolligini ta`minlaydigan bolaga bevosita ta`limiy ta`sir ko'rsatishining asosiy shaklidir. Har bir bola tarbiyachini diqqat bilan tinglashni, o'z vazifasini tushunishni va shunga muvofiq tarzda faoliyat ko'rsatishni o'rganadi. Mashg'ulotda tarbiyachi yangi ma'lumotlar berib, mavjudlarini aniqlab va mustahkamlabgina qolmay, balki bolalarning fikr yuritish hamda amaliy faoliyatları usullarini tarkib toptiradi, ularda shaxsning muayyan sifatlarini shakllantiradi. Bu tabiiydir, chunki maktabgacha yosh inson shaxsini kelgusida rivojlantirishning zamini yaratiladigan genetik bosqich hisoblanadi.

Hozirgi zamon pedagogik va psixologik tadqiqotlar (Z.R.Qodirova, F.R.Qodirova, R.Sunnatova, R.M.Qodirova) maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual rivojlaiish darajasi bir joyda qotib qolmaganligidan, uning uzlusiz o'sayotganligidan, maktabgacha yoshdagi bolalarning yangi bilim va ko'nikmalarni egallah, aqliy qobiliyatlarni shakllantirish munosabatidagi yosh imkoniyatlari hozirgacha nazarda tutilgandan ko'ra ancha yuqori, asosiysi hozirgi bolalar bilimlarni oddiy tizimlashtirilgan ko'rinishda o'zlashtirishga qodir ekanliklaridan dalolat beradi.

Shu bilan birga kengash olimlari yoshning katta psixik-fiziologik imkoniyatlaridan oqilona foydalanish va ularni suiste`mol qilmaslik haqida gapirib, ular eng avvalo bolaga tafakkurning yosh shakllari va faoliyat usullarini

muddatidan oldin majburan kabul qildirmay, bola psixikasining «o'ziga xos mактабгача сифатларини» о'sтirishni tavsiya qiladilar.

Uslubchi dasturning turli bo'limlari bo'yicha har xil mashg'ulot turlarini kuzatadi va tahlil qiladi.

Maktabgacha ta`lim muassasasidagi mashg'ulot tarbiyachi va bolalarning o'zaro munosabatlarining birligidan kelib chiquvchi kompleks pedagogik hodisa bo'lib, bola shaxsini garmonik va har tomonlama rivojlantirish maqsadlariga xizmat qiladi. Uslubchi mashg'ulot tahlilini faqat ta`lim - tarbiya jarayonidagi holatni nazorat qilish vositasi sifatidagina emas, balki asosan pedagogga instruktsiya berish metodi sifatida o'tkazadi. Tahlil va o'z mashg'ulotini o'zi tahlil qilish malakalarini shakllashtirish tarbiyachining pedagoglik mahoratini takomillashtirishning samarali usulidir. Mashg'ulot tahlil qilinar ekan, umumdidaktik printsiplar: g'oyaviylik, tushunarilik, bolalarning yosh xususiyatlari va har bir bolaning bilim, ko'nikma, malakalarni egallashdagi imkoniyatlarini hisobga olish hamda boshda printsiplarni joriy qilishdan kelib chiqishi lozim.

Mashg'ulot tahlili quyidagi asosiy yo'nalishlar buyicha olib boriladi:

1. Tarbiyachining mashg'ulotdagi tashkiliy faoliyati. Bunga biz mashg'ulot reja (ishlanmasi) ning borligini, tarbiyachi tomonidan uni amalga oshirilishi darajasini, ko'rgazmali quollar bilan jihozlanganlik va mashg'ulotlarda ulardan foydalanish samaradorligini; mashg'ulotning uyushtirilishiga quyiladigan psixologik va gigieiik talablar (mashg'ulotda faoliyat turla-rining almashinuvi, davo, issiqlik va sanitariya tartibining optimalligi, bolalarning individual va psixologik xususiyatlarining hisobga olinishi) ning bajarilishini, tarbiyachining tayyorlanganlik darajasi, vaqtidan foydalanishning ratsionalligi; butun mashg'ulot, uning qism va bosqichlarining davomiyligini kiritamiz.

2. Tarbiyachining mashg'ulotdagi didaktik faoliyati uning faoliyatida didaktik printsiplar: ta`limning tushunarligi, tizimliliq va izchilligi, ko'rgazma-liligi, bilimlarning mustahkamligi va ongliligi, ilmiyligi, ta`limning hayot bilan boglanish printsipi, ta`lim jarayoni individuallashuvining hisobga olinishi va aks ettirilishi nudtai nazaridan tahlil qilinadi. Uslubchi maktabgacha yoshdagilarni o'qitishga juda bo'limganda bolalarning uch guruxini:

- a) bilimlarni bo'sh o'zlashtiradigan;
- b) bilimlarni egallashga yuqori qiziqish va ishtiyooq namoyon qiladigan;
- v) bolalarning asosiy ko'philagini hisobga olib alohida-alohida yondoshuvning amalga oshirilishiga alohida e'tibor beradi.

Dastur mazmunining bajarilish darajasi (didaktik maqsadga erishish); tarbiyachi mashg'ulotda foydalanayotgan o'qitish metodlarining optimalligi; ularning qo'shib olib borilishi, mashg'ulot mantiqining bolalar yoshi va rivojlanganligiga muvofiqligi, mashg'ulotlarda maktabgacha yoshdagilarning bilish va fikr yuritish faoliyatlarining faolligini oshiruvchi muammolilik elementlaridan foydalanish tahlil qilinadi.

3. Pedagogning mashg'ulotdagi tarbiyaviy faoliyati mashg'ulotning g'oyaviy yo'naganligini, bolalarni axloqiy tarbiyalash masalalari qay darajada hal etilganligini, mashg'ulotni maktabgacha yoshdagilarga estetik ta`sir darajasini,

boshda tarbiyaviy imkoniyatlardan foydalanish darajasini baholash asosida tahlil qilinadi.

4. Mashg'ulotlarda pedagogning shaxsga oid sifatlarining namoyon bo'lishi. Tarbiyachining nutqi (tempi, diktsiyasi, emotsiyonalligi, ifodaliligi), pedagogning madaniyati, odobi, bolalarga nisbatan tutgan pozitsiyasi, mashg'ulotlarda guruxga pedagogik rahbarlik uslubi (avtoritar, demokratik, liberal), pedagogning mashg'ulotlardagi tashqi ko'rinishi.

5. Bolalarning mashg'ulotdagi butun gurux xarakteristikasi fonidagi faoliyatları: bolalarning mashg'ulotdagi faollik va ishga layoqatilik darajalari; ularda mashg'ulotga qiziqish, mustaqil ishlash malakalarining mavjudligi, nutqning rivojlanganlik darjası, bolalarning faoliyat templari va mакtabgacha yoshdagi bolalarda oddiy o'quv faoliyati malakalarining shakllanganlik darjası (qulq solish va eshitish ko'nikmasi, tarbiyachining ko'rsatmalariga riya kila bilish, tashabbus, zehn, fikrning tanqidiyligi va shu kabilarni namoyon qilish). Uslubchi, shuningdek bolalarning bir-birlariga, tarbiyachiga munosabat uslublarini; bolalarning mashg'ulotdagi tashqi ko'rinishlarni ham hisobga oladi.

Bu yo'naliislarni besh ustunli jadval tarzida rasmiylashtirish mumkin. Mashg'ulotlar har xil turlarining tahliliga doir bunday jadvallarning rasmiylashtirilgan namunalari maktabgacha ta`lim muassasasining metodika kabiietida bo'lishi zarur. Mazkur jadvaldan har bir tarbiyachi o'z o'quv faoliyatini o'zi tahlil qilishda (uni tuzatish hamda o'qitishda samaradorlikka erishish maqsadlarida) foydalanishlari mumkin. Bunday tahlil uslubchiga tajribalarni o'rganish, umumlashtirish va yoyish maqsadida eng samarali ishlovchi tarbiyachilarni aniqlashida yordam beradi.

Ammo mashg'ulotlar tahliliga qo'yiladigan (yuqorida tilga olingan) talablar tabiiyki uzoq muddat davomida o'zgarishsiz qololmasligini, biroq boshlang'ich bosqichda ular tarbiyachilar ishini ob'ektiv baholashga asos bo'la oluvchi parametrlarni aks ettirishi hisobga olinishi kerak. Maktabgacha ta`lim muassasasining uslubchisi pedagogik jarayonni kuzatish va tahlil qilishga puxta tayyorgarlik ko'radi: maqsadni aniqlaydi kuzatish rejani belgilaydi. Kuzatish maqsadi har xil, masalan, o'quv materiali hajmining maktabgacha yoshdagi bolalarning yosh imkoniyatlariga muvofiqligini aniqlash, bolalar mashg'ulotlarda egallashlari shart bo'lgan ko'nikma va malakalarning optimal hajmini aniqlash, tarbiyachining bolalarga gapirib berishni o'rgatish metodikasini egallaganlik darjasini tekshirish, bolalarda nutqning rivojlanganlik darjasini, asosiy harakatlarni rivojlantirish darjasini aniqlash, bolaning mustaqil tafakkurini faollashtirish maqsadida tarbiyachi qo'llayotgan metod va usullarni, mashg'ulotlarda ko'rgazmalilikdan foydalanish metodikasini aniqlash va shu kabilar bo'lishi mumkin. Ammo uslubchi u yoki bu tarbiyachining mashg'ulotiga kirar ekan, o'z oldiga qanday maqsadni qo'yishidan qat'iy nazar birinchi galdeg'i vazifa - bu tarbiyachiga mashg'ulotlarni o'tkazish metodikasini takomillashtirishda, mashg'ulotlar tizimi hamda izchilligini, bola, shaxsini har tomonlama muvaffaqiyatli rivojlantirishning zaruriy sharti sifatida ularning aloqasini va murakkablashtirilishini ta'minlashda yordam berishdir. SHuning uchun metodist tarbiyachilar bilan rejalashtirilayotgan mashg'ulotlar tematikasini,

dqstur mazmuni va metodikasi haqida tez-tez suhbatlashishi, mashg'ulotlar uchun o'quv materialining to'g'ri tanlanishiga e`tibor berishi, bu bolalarga berilayotgan bilimlarni tartibga keltirish va aniq bir butun tizimga solish, shakllantirilayotgan tasavvur yoki tushuncha oldingisidan kelib chiqadigan bo'lishiga imkon yaratadi. Bola o'ziga tanish tushunchalarga tayanib o'ziga notanish fakt, hodisa, xususiyat, harakatlarning mohiyatini egallab oladi. Masalan, kichik guruxlarda bolalar hayvonlar: mushuk, kuchuk, olmaxon, bo'ri bilan tanishadilar, katta guruxlarda esa ular kuchuk va mushuk-uy hayvoni, olmaxon va bo'ri yovvoyi hayvon - ekanligini bilib oladilar. Dastur mazmunini tanlashga bunday yondoshish bolalarda tevarak-atrof haqida to'g'ri hamda tizimlashtirilgan bilim va tasavvurlarni shakllantirishni ta`minlaydi.

Uslubchi dastur maternalining navbatdagi «dozasini» aniqlashda va qadamba-qadam dasturni bajarish tomon borishida pedagogga yordam beradi. Har bir mashg'ulot tarkibida bolalar uchun yangi va ma'lum material bo'lishi kerak, chunki bolalar ilgari egallangai bilim va ko'nikmalari bilan oson bog'lanadiganlarni yaxshiroq o'zlashtiradilar. Bilimlarning bolalar tomonidan egallanishi jarayoni, ma'lumotlarni asta-sekin chuqurlashtirib, kengaytirib, aniqliklar kiritib takrorlashni talab qiladi, chunki bir marta idrok etilgan taassurot bolalardagi tushuncha va bilimlarning aniq hamda mustahkamligini ta`minlay olmaydi.

Takrorlanadigan bilimlar mazmuni bolalarning bilimlarini chuqurlashtirish yo'naliishida takomillashtiriladi, bu holatda hodisalarning yangi tomonlariga e`tibor beriladi, ularning aloqa va sabablari anglanadi. Takrorlash mashg'ulotlarida tarbiyachi bolalarning o'zlaridagi mavjud bilimlarni yangi vaziyatlarda qanday ishlata olishlarini, ulardan solishtirish va umumlashtirishni talab qiluvchi savollarga javob berishda qanday foydalanishlarini aniqlaydi. SHunday qilib, materialning miqdoriy ortishi bilan uning sifat jihatdan o'zgarishi birga boradi.

Maktabgacha ta`lim muassasasining uslubchisi tarbiyachilarga mashg'ulotlarda foydalanish maqsadlarida metod va usullarni to'g'ri tanlashni o'rgatadi. Metodlarni tanlash asossiz bo'la olmaydi, tarbiyachi bolalarni yaxshirod qiziqtirish, ularning diqqatini asosiya yo'llash, fikr yuritish, zehnlilik qobiliyatini uyg'otish uchun qanday metod hamda usullardan foydalanishi kerakligi ustida fikr yuritadi. O'qitishning murakkab jarayonida u yoki bu metod yo usulni boshqalari bilan birga qo'shib foydalaniladi.

Shunday qilib, mashg'ulotlarda egallangan bilimlar, bir tomonidan bolalarning rivojlanishlarida erishib bo'lingan darajaga muvofiq kelishi, boshda tomonidan, ularning yanada aqliy va axloqiy o'sishlariga har tomonlama yordam berishi kerak.

Tajriba ko'rsatishicha mashg'ulotlarda bilimlarning butun hajmini realizatsiya qilish mumkin emas. Bolalar mashg'ulotlarda bilimlarning ma'lum hajmini tizimlashtirilgan tarzda egallaydilar. Faoliyatning boshqa turlari (hayot, o'yin, mehnat)da bolalar bilimlarni mustahkamlaydilar hamda amaliy ko'nikma va malakalarni egallaydilar.

Maktabgacha yoshdagagi bolalarni o'qitishning bu xususiyatiga F.R.Qodirova o'z vaqtida e`tibor bergandi. F.R.Qodirovaning harakatlari tufayli bolalar

bog'chasiga ilk bor majburiy mashg'ulotlar kiritilgandi. U mактабгача yoshdagi bolalarda bilimlarning ikki toifasi: bolalar tomonidan o'zларining kundalik hayotlari jarayonida egallanadigan (tabiiy tajriba deb atalmish) bilimlar va mashg'ulotlarda uyushtirilgan o'qitish jarayonida egallanadigan bilimlar hosil bo'lishini ko'rsatib berdi. Ikkinchisi anchagina murakkab tizimlashtirilgan bilimlardir. Bilimlarning bu har ikkala toifasi o'zaro ta'sirda bo'lib, bolani har tomonlama rivojlantirishda muhim rol uynaydi.

Ikkinci tomondan, bola kundalik hayotda egallaydigan bilimlardan tarbiyachi mashg'ulotlardagi uyushtirilgan o'qitish jarayonida foydalanadi. Bu erda ular ichki ishlovdan o'tadi, reallik, aniqlik nuqtai nazaridan tuzatiladi, bolaning egallashi qulay bilimlarning ma'lum tizimida o'z o'rnini egallaydi.

Yosh tarbiyachilar ko'pincha boshqa qiyiqchiliklarga xam duch keladilar. Ular mashg'ulotlarni o'tkazishda o'qitishning og'zaki metodlari: hikoyaga, o'qishga, suhbatga berilib ketadilar. Bu bilimlarning yuzaki egallanishiga olib keladi. Etaricha ko'rgazmaliliksiz, so'zdan ko'proq foydalanish o'qitish jarayonini ikkinchi signal tizimi sohasiga o'tkazadi, bunda u tegishli hissiy tajribaga dahl ham qilmaydi va uni uyushtirmaydi ham, natijada bolalar mohiyati o'zlariga tushunarsiz bo'lgan tushunchani eslab qoladilar. SHu tufayli ular o'z nutqlarida ishlatajigan narsalar, tushunchalarning asosiy belgilarini aniqlay olmaydilar.

Mana shunday o'qitishning ko'proq birinchi signal tizimi markazlariga yo'llanadigan metod va usullarini izlashga oid amaliy talab kelib chiqadi. Bu bevosita kuzatish, namoyish qilish, ko'rib chiqish va shu kabilardir. U o'qitish jarayonida «mumkin qadar ko'proq sezgi organlari - ko'z, qulooq, ovoz, muskul harakatlar sezgisi va hatto, agarda imkonni bo'lsa, hid va ta'm bilish eslab qolish vaqtida ishtirok etishi kerak» deb yozgan edi. Matematika, jismoniy tarbiya, tasviri san`at, ob`ektlarni kuzatish, tabiat va ijtimoiy hayot bilan tanishtirishga doir ekskursiyalar bo'yicha va ko'pgina boshqa to'g'ri tuzilgan mashg'ulotlar mana shu rolni bajarishga qodirdir.

Tajribali tarbiyachilar odatda mashg'ulot o'zining noodatiyligi, yorqinligi bilan bolalarni chulg'ab olishi uchun emotsiyalishidan foydalanadilar. Maktebgacha yoshdagi bolaning aynan mashg'ulotga qiziqishi, uning emotsiyal javobi unda o'quv faoliyatiga, uning mazmuniga asta-sekin ijobiy munosabatni tarkib toptiradi va shu orqali uning ongida psixik jarayonlarning intensiv o'tishiga yordam beradi.

Tarbiyachi bolalarga qaysi ertak, hikoyani aytib berishlarini illyustratsiyalardan bilib olishlarini taklif qilganda ham mashg'ulotda mana shu metoddan foydalaniladi. Topishmoqlar aytish xuddi mana shu metoddan foydalanishdir(F.R.Qodirova tavsiyalari ostida).

Yangilik vaziyatini, o'yin usullari, fikrlar to'qnashuvini yaratish - bo'larning barchasi o'qitishga qiziqishni uyg'otadi.

Ajablanish effekti muhim rol uynaydi. Ko'rib chiqilayotgan hodisaning noodatiyligi bolalarda emotsiyal kechinmalarni keltirib chiqaradi va binobarin, mashg'ulot mazmuniga qiziqishni oshiradi.

Mashg'ulot davomida emotsiyal vaziyatlarni yaratishda tarbiyachining yorqin, obrazli nutqi katta ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga emotsiyonallikni

oddiygina qo'zg'ash emas, balki bolada o'qishning chin quvonchini yaratadigan o'z bilish tomonining albatta mavjud bo'lisi muhimdir. Mashg'ulotlardagi qiziqarlilik bolalarni ovutish uchun emas, balki bilish faoliyatini faollashtirish uchun zarurligini unutmaslik kerak.

O'qitishga qiziqishni rag'batlantiruvchi qimmatln metod bilish o'yinlari metodidir. O'qitishda o'yinlar allaqachondan beri o'qishga qiziqishni uyg'otuvchi vosita sifatida foydalanib kelinmoqda. Maktabgacha yoshdagilarni o'qitishda shakllizm va verbalizmning namoyon bo'lisi faktlari katta tarbiyachiga pedagog boshqa qiyinchiliklarga duch kelayotganligidan darak berishi kerak. Bu masalan, tarbkyachilarning bolalarni yosh va individual xususiyatlarini etarlicha hisobga olmayotganligi bo'lisi mumkin. Uslubchi yosh guruxlari bo'yicha o'quv faoliyatini nazorat qilishni amalga oshirar ekan, pedagoglar ishlaridagi bunday xatolarning oldini oladi. Bu maqsadda mashg'ulotlar tahlili, maslahatlar, pedagogik kengashlar va seminarlar vaqtida har bir guruxidagi bolalarning xarakterli xususiyatlarini o'rganishning turli shakllari tavsiya qilinadi.

Xar bir bolada o'zlashtirish sur'ati va ish qobiliyati darjasи, intellektual ko'nikmalarni egallashda o'z darjasи borligi ma'lum. Tarbiyachi o'qitishni har bir bolaning qiziqish va qobiliyatlarini maksimal hisobga oladigan, har bir bola faol ishlaydigan va har biri ijobiy natijaga erishadigan qilib olib boradi. Kiyinligi har xil darajadagi topshiriqlarni nazarda tutish — bu o'qitishga alohida-alohida yondoshishning amalga oshirilishidir.

Xar bir guruxda tortinchoq, sust bolalar va faol, tezkor, jasur bolalar bo'ladi. Ularning har biriga alohida-alohida yondoshish zarur.

Maktabgacha ta`lim muassasasining ish tajribasidada tarbiyachilar eng faol, tezkor va yaxshiroq tushunib oladigan bolalar bilan «ishlab», sust, tortinchoq bolalarni e'tiboridan chetda qoldiradigan hollar ba`zida uchrab turadi. Bu o'rinda u yoki bu sabablarga ko'ra qobiliyatsiz degan nomni olgan bolalar haqida alohida to'xtalish lozim (bunday bolalar haqida guruxdagi o'rtoqlari, ba'zan, afsuski tarbiyachi ham ular hech narsani uddalay olmaydilar, bilmaydilar deyishadi).

Bunday faktlarni o'rganish «qoloq», «sustkash» rubrikasiga asosan tortinchoq va erkin harakat qiladigan yoki pedagog e'tiboridan chetda qolgan bolalar kiritilishini ko'rsatdi. Bola topshiriqni uddalay olmay yoki uni oxiriga etkazshiga ulgurmay o'z kuchiga ishonchni yo'qotadi, o'zini qo'yilgan vazifani hal qilishga qobiliyatsiz deb hisoblaydi. U o'zini bari bir hech narsa chiqarolmasligini ishontirishga urinib, topshiriqni bajarishdan bosh torta boshlaydi, ana shunday qilib bolada bardaror salbiy pozitsiya-muvaffadiyatsizlik sindromi deb atalmish o'ziga xos kompleks shakllana boshlaydi. Bola noqulaylikni, ichki zo'riqishni, ezilish holatlarini, qiyinchiliklar oldida dahshatni his eta boshlaydi. Agarda biz uning diqqatini kamchiliklarga qaratadigan bo'lsak, ahvol yanada yomonlashadi. Bolaning o'quv faoliyatida orqada qolishi ko'pincha bolalarga individual yondoshishning yo'qligi oqibati ekanligini unutmaslik kerak. Xayot agarda tarbiyachi bolalarning hammasini «bir ko'rpa ostiga yotdizmoqchi» bo'lsa, unda eng epchil va ziyrak bolalar «issiq» joyni egallaydilar, fikri sustroqlari esa «sovuuqqa» qolaverishlarini ko'rsatib kelmoqda.

Shu bilan birga «o'rtacha bolami» ham nazarda tutib bo'lmaydi. Bolalarga mo'ljallangan topshiriqlar tiplari, ularning hajmi, ish sur`ati har xil bo'lishi kerak. Xar bir bola uchun optimal sur`atni topish kerakki, u barcha bolalarga mo'ljallangan topshiriqlarni osoyishta bajarishlariga imkon bersin.

Tabiiyki, bu o'rinda birlari tezroq fikr yuritadilar, ishlaydilar, boshqalari sekinroq, ammo shunday qilish kerakki, birinchilarda mashg'ulot oxirigacha bo'sh vaqt juda ko'p qolmasin, boshqalariga esa etishmay qolmasin. Bunda dasturni qiyinlik bilan o'zlashtiradigan bolalarga alohida e'tibor va g'amxo'rlik talab qilinadi. Eng avvalo tarbiyachi ularni topshiriqni mo'ljallangan vaqtida uddalashga va boshlangan ishni oxiriga etkazishga asta-sekin o'rgatib boradi. Ularga topshiriqni keyin bajarishlari haqida gapirmaslik kerak. Bu ularda ishni oxiriga etkazmaslikdek yomon odatni keltirib chiqaradi. Tarbiyachi bolalar ishning umumiy ritmiga o'z vaqtida kirishishlarini har bir mashg'ulotda kuzatib boradi, ba`zan mashg'ulot boshlanishidan oldin bolalarga bo'lajak topshiriqning vazifalarini tushuntiradi, ishning natijalariga qiziqtiradi, topshiriqni bajarish usullarini bayon qiladi. Kuchli bolalar bilan bo'ladigan ish tizimiga tarbiyachi anchagina qiyinroq topshiriqlarni, ma'lum aqliy va irodaviy zo'r berishlarni talab qiladigan ijodiy xarakterdagi topshiriqlarni kiritadi.

Tarbiyachilar tafakkurning maktabgacha yoshdagi bolalarga xos bo'lgan eng elementar shakli ko'rgazmali-amaliy tafakkur ekanligini aniq tasavvur qilishlari kerak. U bolaning amaliy faoliyatida predmetlar bilan o'ynash jarayonida yuzaga keladi. Bu harakatdagi tafakkur bo'lib, u bola faoliyatining barcha turlarida, shu jumladan oddiy o'quv faoliyatida yuzaga keladi va ularga xizmat qiladi. Bolaning aqliy rivojlanishida tafakkur ko'rgazmali-amaliy shaklining ahamiyati juda katta, chunki u tafakkurning boshda, murakkabroq shakllarining shakllanishida boshlang'ich punkt xizmatini o'taydi. Tafakkurning mazkur shaklini shakllantirishda yo'l qo'yilgan har qanday xatolar bolani aqliy rivojlanishining keyingi barcha bosqichlarida salbiy ta`sir ko'rsatadi. Buni tarbiyachi bilishi zarur. Ular ko'rgazmali-amaliy tafakkur zaminida yangi, murakkabroq shakl - ko'rgazmali-obrazli tafakkurning paydo bo'lishi uchun asos yaratilishini bilishlari kerak. Bu shakl bola bir qator vazifalarini hal qilishni obrazlar bilan ishslash rejadayoq, aniq predmetlarning ishtirokisiz, ular bilan amaliy harakatlar qilmasdan ham amalga oshira oladi. Ko'rgazmali-obrazli tafakkurning imkoniyatlari juda chala va uni doimo rivojlantirib borish zarur. Tafakkur bu shaklining yuzaga kelishi va takomillashtirilishi tafakkurning ko'rgazmali-amaliy va tushunchali shakllari o'rtasidagi bog'lovchi moment hisoblanadi.

Tarbiyachilar ko'pincha tafakkurning boshlang'ich ikki shaklini rivojlantirishga etarlicha e'tibor bermay, maktabgacha yoshdagi bolalarda tafakkurning tushunchali shaklini rivojlantirishga iitiladilar. Bu maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy va umumiy psixik rivojlanishlariga salbiy ta`sir ko'rsatuvchi xatodir. F.R.Qodirova, A. V. Zaporojets, N. N. Podyakov tadqiqotlari tafakkurning tushunchali shakli tafakkurning ko'rgazmali-amaliy hamda ko'rgazmali-obrazli shakllari yaxshi rivojlangan taqdirdagina muvaffaqiyatlari rivojlanishi mumkinligini ko'rsatdi. Tafakkurning ko'rgazmali-amaliy va ko'rgazmali-obrazli shakllari tafakkur tushunchali shaklining «binosi» quriladigan

poydevordir. Tafakkur har bir shaklining ichida deydi N. N. Podyakov, o'z bosqichlari mavjud va fan mактабгача yoshdagi bolaning aqliy qobiliyatlarini muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun bu bosqichlarni hali aniqlashi va o'rganishi lozim.

15.2. Uslubchi tomonidan o'quv faoliyatini nazorat qilish.

Uslubchi pedagoglarga mashg'ulotlarda bolalar bilan olib boriladigan ta`lim - tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishning samarali shakl va usullarini topishlarida, uning izchil hamda asta-sekin bajarilishiga erishishlarida yordam beradi, buning uchun esa uslubchining o'zi har bir yosh guruxidagi bolalar mashg'ulotda egallashlari lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar hajmi hamda sifatini belgilar ekan dasturi talablarini yaxshi bilishlari zarur. Uslubchi mashg'ulotlarga qo'yiladigan didaktik talablar:

maqsad va dastur materialini belgilashdagi aniqliq ta`lim - tarbiyaviy masalalarning kompleks amalga oshirilishi; mashg'ulotlar uchun optimal mazmunni bolalarning rivojlanish va tayyorgarlik darajalariga muvofiq tanlanganligi; o'qitishning eng ratsional metod va usullari bolalarning bilish faolligini, ular fikrining mustaqilligini ta`minlovchi mashg'ulotning didaktik maqsadlarga ko'ra tanlanganligi; o'rganilayotgan materialning oldingi va keyingi materiallar bilan bog'lanishi; mashg'ulotning tashkiliy aniqligi; mantiqiy uyg'unlik va tugallanganlik, mashg'ulot uchun ajratilgan vaqtadan maksimal foydalanish; bolalarning dastur materialini o'zlashtirishlariga rioya qilingan-qilinmaganligiga e'tibor berishi kerak.

Bu asosiy talablarning bajarilishi mashg'ulotlar samaradorligini ta`miilaydi.

Ma'lumki, bolalarning mashg'ulotlarda bilim egallashlari birdan-bir maqsad emas. Tarbiyachilar oldidagi murakkabroq vazifa - egallanayotgan bilimlardan aqliy qobiliyatlarni, bilish faoliyatiga ehtiyojni rivojlantirish vositasi sifatida foydalanishdir. Shuning uchun uslubchining tarbiyachilar xarakterga ko'ra turlicha mashg'ulotlarni o'tkazishlarini kuzatib borishi muhimdir.

1. Maqsadi bolalar oldiga bilish vazifalarini qo'yish, bolalarga predmetlar, ijtimoiy hayot va tabiat hodisalari haqidagi bilimlarni berish, ularni kengaytirish hamda aniqlashdan iborat bo'lgan yangi bilimlarni ma'lum qilish mashg'ulotlari. Bu yangi ob`ektlarni kuzatish, badiiy asarlarni o'qish, tarbiyachining hikoya qilishidir. Bunday mashg'ulotlar barcha yosh guruxlarida o'tkaziladi.

2. Bolalardagi jamg'arilgan (uyushgan va stixiyali) tajribalarni mustahkamlash hamda tizimga solish mashg'ulotlari. Bu mashg'ulotlarning asosiy maqsadi idrok etilganni anglash va ilk umumlashtirishlarni tarkib toptirishdir. Bu tanish ob`ektlarni kuzatish, ikkita bir turdag'i predmetlarni (xona o'simliklari, gulxona o'simliklari, daraxtlar, hayvonlarni) qiyosiy kuzatish, didaktik o'yinlar, suhbatlardir. Bunday mashg'ulotlarni rejalahtirar ekan, tarbiyachi bolalarning nimani yaxshi o'zlashtirgan, nimani etarlicha o'zlashtirmaganliklarini, nimani takrorlash kerakligini biladi. Tarbiyachi bolalarga ma'lum bilimlarni yangi detallar bilan to'ldiradi, bu esa ulardagi mavjud bilimlarni boyitadi, jonlantiradi hamda

yanada chuqurlashtiradi. Tarbiyachi bu mashg'ulotlarda bolalarning bilimlarii umumlashtiradi va tizimga soladi.

3. Nazorat, tekshiruv mashg'ulotlari. Bu mashg'ulotlarning maqsadi - bolalarda tegishli tasavvur, ko'nikma, malakalarning mavjudligini aniqlash va shu asosda dastur talablarining bajarilishi, keyin qilinadigan ishlar va metodlar haqida xulosa chiqarishdir.

4. Kompleks mashg'ulotlar — muktabgacha ta'lim muassasasi praktikasida eng ko'p tarqalgan mashg'ulotlar bo'lib, ularda bolalarga yangi materiallar ham beriladi, mavjud bilimlarni takrorlash, mustahkamlash va tizimlashtirish ham, bilim, ko'nikma va malakalarni qo'llash ham o'rinni oladi.

Yuqorida aytib o'tilgan mashg'ulot turlarining har birini tahlil qilish jadvalsi turlicha, o'ziga xos bo'ladi. Tahlil jadvalsi mashg'ulotning maqsadi va vazifasiga hamda muktabgacha ta'lim muassasasining uslubchisi muayyan tarbiyachining ishini tekshirishga tayyorlanishda oldiga qo'yadigan maqsadiga bog'liq bo'ladi.

Uslubchi ro'yxat - nazorat, tekshiruv mashg'ulotlarini tahlil qilish jadvalsini ishlab chidishga alohida e'tibor beradi. Bu jadval unga bolalarning Dasturni u yoki bu bo'limi bo'yicha materialni kvartal, yarim yil, yil davomida egallash sifatlarini tekshirishida yordam beradi.

Dasturning turli bo'limlari bo'yicha mashg'ulotlar tahlilining jadvalsi o'ziga xos bo'ladi. Masalan, uslubchi tevarak-atrof bilan tanishtirish va nutqni o'stirish mashg'ulotlarini kuzatar ekan, tahlil jadvalsiga quyidagi savollarni kiritadi: mashg'ulot bolalar lug'atining boyishi, aniqlanishi va mustahkamlanishiga yordam beradimi, bu maqsadda tarbiyachi qanday metod va usullardan foydalanadi (kuzatish, rasmlarni ko'rsatish, videofilmlarni namoyish qilish, badiiy adabiyotni o'qish va shu kabilar), bolalar lug'atini qanday faollashtiradi, bolalar nutqining grammatik va mantiqiy strukturasi ustida, nutqning intonatsion ifodaliligi ustida ishslash metodikasi qanday va boshqalar.

Bolalarda elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish mashg'ulotlarshsh tahlil qilish jadvalsi quyidagi asosiy masalalar: mashg'ulot bolalarda matematik tasavvurlar, zehnlilikni rivojlantirishga, bo'shliq va vaqtida muljal ola bilish, ko'z bilan chamlash malakalarini o'stirishga; oddiy matematik operatsiyalarni bajarish, shuningdek oddiy masalalarni echishgina emas, balki tuzish ko'nikmalarii rivojlantirishga yordam berish-bermasligi masalalarini qamrab oladi.

Tasviriy san`at mashg'ulotlarini tahlil qilishda kuzatishlar jadvalsiga bolalardagi rasm chizish, loy va plastilindan narsalar yasash, konstruktсиyalash, aplikatsiyaga doir texnik malakalar darajasini, bolalarda voqelik va san`atga estetik munosabatning rivojlanganligini, ijodiy qobiliyatlarning rivojlanganligini aniqlash va shu kabilar kiritilishi kerak.

Jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini tahlil qilishda uning asosiy qismlari: kirish, tayyorlov, asosiy va yakuniy qismlariga material tanlanishi; har bir bolaning harakat faolligini mashg'ulot boshidan to oxirigacha taqsimlanishi; bolalarning asosiy harakatlarni (yurish, yugurish, muvozanat saqlash, sakrash, tirmashib chiqish va shu kabilar) egallashdagi malakalari; ko'p, o'rta va kam harakat talab qilinadigan harakatli o'yinlarning to'g'ri tanlanishi, o'yin qoidalarining bajarilishi;

sport ko'ngil ochish o'yinlarining o'rni, mashg'ulotlarning gigienik sharoitlariga alohida e'tibor berish kerak.

Yuqorida aytilganlardan tashqari mashg'ulot bosqichlarining vaqtga ko'ra taqsimlanishiga (tarbiyachining tushuntirishi, topshiriqlarning bolalar tomonidan bajarilishi, bolalar ishlarining tahlili va boshqalar); mashg'ulotda foydalaniladigan metod hamda usullarning samaradorligi va o'qitish metodikasining takomillashtirilishiga; ko'rgazmalilikdan foydalanish va uning o'quv materialini bolalar tomonidan egallanish sifatiga ta'siriga; mashg'ulotda axloqiy va estetik tarbiya masalalari qanday hal etilayotganligiga; oldindan qanday ish o'tkazilganligi, izchillik va mashg'ulotlarning boshda turlari bilan boglanish bo'lган-bo'lмаганligiga; bolalarda uduv faoliyati elementlari-ning shakllantirilishiga; turli yosh guruxlarida uduv faoliyatining amalga oshirilishi hamda shakllantiri-lish xususiyatlariga e'tibor berish kerak. Keykngisini biroz mufassalrod kurib chidamiz.

Maktabgacha kichik yoshdagি bolalar tafakkurining ko'rgazmali-amaliy va ko'rgazmali-obrazli xarakterini hisobga olib, tarbiyachi atrofidagi o'ta xilma - xil murakkab taassurotlardan bolalarning o'zlashtirishlari uchun eng aniq va tushunarli o'quv materialni ajratib olishga harakat qiladi. Uslubchi bu murakkab masalani turli hal qilishda tarbiyachiga har tomonlama yordam beradi. Tarbiyachi kichkintoylar mashg'ulotlarining mazmuniga aylanib, bolada sensor tajribaning va atrof-muhitda amaliy yo'l topa bilishning shakllanishiga yordam beradigan eng yordin predmet va hodisalarni ajratib oladi. Bunday mashg'ulotlar tizimi tarbiyachi umumlashtiruvchi xarakterdagi ilk tushunchalarni o'yinchoqlar, kiyimlar, idishlar va shu kabilarni shakllantirishda tayanishi mumkin bo'lган kerakli hissiy asosni asta-sekin yaratadi. Kichik gurux mashg'ulotlarida o'qitishning xarakterli xususiyati uning o'yin, jonli va emotsiyal xarakterda bo'lishidir. O'qitish bolalarga sezdirmay olib boriladi. Bu o'rinda tarbiyachining nasihatomuz toni xech bir o'rinni emas. O'yin usullaridan, xilma - xil qiziqarli va ular uchun tushunarli didaktik materiallardan, o'yin harakatlardan foydalanish mana shunday o'qitish vazifalarini dal qiladi.

Bolalarni o'rta guruxda o'qitish dam deyarli shunday xarakterda bo'ladi.

Bu yoshdagи bolalarda dam dali etarli tajriba juda kam, abstrakt tafakkur qobiliyati hali zaif, u eng asosiyni doimo ham o'zlashtira olmaydi, shuning uchun bu gurux mashg'ulotlarida ham aniq bevosita idrok etiladigan materialdan foydalanish lozim.

Va nihoyat, tarbiyachi katta guruxdagi mashg'ulotlarda yil davomida bolalarga predmet yoki hodisalarning muhim bo'lмаган belgilardan abstraktsiyalash, asosiy, muhim belgilarni topa bilishni o'rgatadi. Bu guruxda mashg'ulotlarni ko'rgazmali materialdan foydalanib suhbat shaklida o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Izchil va muntazam tarzda o'qitilganda katta gurux bolalari egallanayotgan bilimlarni baholay boshlaydilar, ularning o'zları uchun ahamiyatini anglab eta boshlaydilar. Kechagina bolalar uchun qiyin tuyulgan narsa bugun egallanilgan va oddiy narsaga aylanadi. Mashg'ulotlarda katta gurux bolalari tabiat hodisalari, ijtimoiy hayot hodisalari o'rtasidagi oddiy sabab bog'lanishlarini aniqlash ko'nikmasini egallaydilar.

Katta gurux tarbiyachisi bolalar bilan ishlashning o'quv faoliyati malakalarining yuqoriqoq darajasi; tahlil va sintez qilish, umumlashtirish va xulosalar chiqarish, o'qishga qiziqish va ishtiyoqning paydo bo'lishini rivojlantirish, topshiriqlarni bajarishda o'zini - o'zi baholash va o'zini-o'zi nazorat qilishni rivojlantirish; tarbiyachining aytishi bilan mashg'ulotga, to'rejash, kerakli materialni tez tayyorlash va mashg'ulotda ulardan keragida shovqin - suronsiz foydalinish, uni tez almashish, mashg'ulot tugagandan so'ng o'z joyiga olib qo'ya bilish; mashg'ulotda jim o'tirish, diqqat-e'tiborli va faol bo'lish, o'rtoqlariga xalaqit bermaslik, ishni hamma birga, orqada qolmay bajarish shakllanadigan qilib yuushtirishni ta`minlaydi.

Shunday qilib, tarbiyachi katta gurux bolalarida ularning mактабда o'qish qobiliyatlarini ifodalovchi xususiyatlarini shakllantiradi. Keyinchalik o'qituvchi mana shu xususiyatlarga tayana oladi: o'qishga ongli yo'llanma va ishda zo'r berish odati; qiziquvchanlik va bolaning uni qoniqtirishga faol intilishi; tafakkurning faolligi va mustaqilligi, ongli harakat dila bilish. Tarbiyachi yangi bilimlarni beribgina qolmay, balki bolalarga ularni topishni, mustaqil holda kichik «kashfiyotlar» qilishni o'rgatadi; kuzatuvchanlik, zehnlilik, kuzatilayotgan hodisa ma`nosini tushuna bilish. Zehnlilikni rivojlantirish, atrofdagi voqelik oddiy hodisalarini tushuna bilish va uni o'z tasavvurlari, tushunchalari, nutqida to'g'ri aks ettira bilishga o'rgatish - tarbiyachining asosiy vazifasidir, Bo'larni hal qilishi bolalarga turli vaziyatlarda to'g'ri yo'l tutishlarida yordam beradi va mактабда muvaffaqiyatli o'qitishning poydevoriga aylanadi; og'zaki nutqni rivojlantirish; o'zini-o'zi nazorat qilish, katta yoshlilarning bergan ko'rsatmalari asosida o'zining va o'rtoqlarining ishini baholay bilish. Mashg'ulotlardagi o'qitish jarayonida bolalar faqat bilim, ko'nikma va malakalarining hajmini kengaytirish emas, balki shaxsning sifatlarini shakllantirish xam sodir bo'ladi, chunki o'qitish jarayoni tarbiya bilan uzviy bog'langandir. «Fan — deb yozgan edi. N. I. Pirogov — faqat ma'lumotlar olish uchungina kerak emas, unda ba`zan chuqur va shuning uchun dam yuzaki qaralganda sezilmaydigan boshda muxim element — tarbiyaviy element yashirinib yotadi. Kimki undan foydalana olmas ekan, u fanning barcha xususiyatlaridan hali bexabar bo'ladi va og'ir yuklarni osongina ko'tarishida yordam beradigan vositani qo'lidan chiqaradi.

O'qitishning butun jarayoni bolalarga tarbiyaviy ta`sir ko'rsatadi va bu ta`sirda hal qiluvchi rolni tarbiyachi uynaydi. O'qitish jarayonida bolalarda axloqiy sifatlar shakllantiriladi, aqliy, jismoniy va estetik tarbiya amalga oshiriladi. Maktebgacha ta`lim muassasasida o'tkaziladigan barcha mashg'ulotlarning mazmuni eng yaxshi axloqiy sifat va estetik tushunchalarni shakllantirish hamda rivojlantirishning barcha imkoniyatlarini qamrab oladi. Masalan, bolalarni hayvonlar, o'simliklar, odamlarning faoliyatları bilan tanishtiradigan mashg'ulotlar ularda jonli ob'ektlarga muhabbatni, ularga g'amxo'rona munosabatni, qiziqishni, odamlarga hurmat hamda muhabbatni tarbiyalaydi, SHu nuqtai nazardan etik temalardagi mashg'ulotlar: «Do'stlik va o'rtoqlik haqida», «Xushmuomala bo'l!», «Vijdonlilik va to'g'ri so'zlilik haqida» va boshqalar katta qimmatga egadir. Tabiatga ekskursiya, ijtimoiy hayot hodisalari bilan tanishtirish bolalarda xayrixohlik hissiyotlarini uyg'otadi, badiiy didni tarkib toptiradi.

Mashg'ulotlarda o'qitish bolalarda uyushqoqlikni, qat'iylikni, mustaqillikni, qiyinchiliklarni engish, jamoada ishslash ko'nikmasini, vijdonlilik va to'g'ri so'zlilikni, kamtarlik, muloyimlik, go'zallikni tushunish va baholay bilish malakasini tarkib toptiradi. To'g'ri uyushtirilgan o'qitish tabiat va jamiyatdagi hodisalarning tabiiy o'zaro aloqasi hamda o'zaro bog'langanligini ochib beradi, kuzatilayotgan hodisalarning bolalar uchun tushunarli ichki sabablarini aniqlaydi, shuning uchun xam maktabgacha yoshdagi bolalarda boshlang'ich materialistik dunyoqarashni shakllantirish asosi hisoblanadi. Bu esa shaxsning kelgusidagi e`tiqodi va dunyoqarashining dastlabki poydevoridir.

Uslubchining guruxlardagi o'quv faoliyatiga ob`ektiv, ishbilarmonlik munosabati, uning aniq takliflari, hayrixohligi tarbiyachilarga mashg'ulotlarga puxtaroq tayyorlanishlarida, uning guruxga kirishiga osoyishta munosabatda bo'lishlariga, olingan maslahat, tavsiyalarni keyingi ishlarida nazarda tutishlarida, kamchiliklarni tuzatishlarida yordam beradi.

Tarbiyachilar ishining tahliliga ularning individual xususiyatlari, tayyorgarlik darajalarini hisobga olib o'ta xushmuomalalik bilan yondoshish zarur. Bahsli vaziyatlarda qat'iy fikr bildirishga shoshmaslik, o'z fikrini majburan qabul qildirmaslik, balki maktabgacha ta`lim muassasasining mudiri, tajribali tarbiyachilar bilan maslaxatlashish, javobni maxsus adabiyotlardan izlash va ana shundan keyingina tarbiyachilar bilan birga umumiy to'g'ri xulosaga kelish zarur.

Kuzatilgan mashg'ulotlarni tahlil qilar ekan, uslubchi tarbiyachiga o'z mashg'ulotini: maqsadga erishish, foydalanilgan metodlar samaradorligi, olingan natijalar, qiyinchiliklarni baholash huquqini beradi. So'ngra mashg'ulotni o'zi tahlil qiladi. U qo'yilgan maqsadga ko'ra mufassal tahlil qiladi, tarbiyachi ishidagi barcha qimmatli tomonlarni, muvaffaqiyatli metod va usullarni qayd etadi, dastur materialining bolalar tomonidan o'zlashtirilishi sifatini, shuningdek aniqlangan kamchiliklarni tahlil qiladi, ularning sabablarini ularni bartaraf qilish yo'llarini ustalik va xayrixohlik bilan ko'rsatadi, ba`zan tarbiyachiga u yoki bu kamchilik ustida fikr yuritishni va uni o'zi to'g'rinishini taklif qiladi.

Uslubchi o'z kuzatishlarini tekshiruv daftariga yozib, unda sana, gurux, tarbiyachining familiyasini, mashg'ulot nomi, uning dastur mazmuni, mashg'ulotga kirishdan maqsadini so'ngra mashg'ulotning qisqacha tahlilii ijobjiy tomonlari va nuqsonlarini belgilab qayd etadi. Oxirida o'qitish jarayonini takomillashtirish va aniqlangan kamchiliklarni yo'qotish bo'yicha o'z maslahat va tavsiyalarini yozib qo'yadi.

Keyingi kirishlarda uslubchi guruxdagi ta`lim - tarbiyaviy jarayonni yaxshilash bo'yicha tarbiyachiga berilgan tavsiya va takliflarning bajarilishini tekshiradi, ijobjiy o'zgarishlarni rag'batlantiradi, zarur bo'lsa, yaxshi tajribani umumlashtirashi va jamoaga tarqatadi.

Nazorat savollari:

1. O'quv jarayonining turlarini yoritib bering.
2. Uslubchi tomonidan o'quv jarayonini nazorat qilishga qanday talablar qo'yiladi?

3. Mashg'ulotning turlarini qanday tamoyillar asosida almashinib turadi?
4. YOsh guruxi bo'yicha mashg'ulot ishlanmasi jadvalsini bayon eting.

Adabiyotlar:

1. O.U.Xasanboeva, M.X. Tadjieva, Sh.K.Tashpulatova va boshqalar "Maktabgacha ta`lim pedagogikasi" "Ilm Ziyo". T.: 2006 y.
2. SH.K.Tashpulatova "Maktabgacha ta`lim muassasalar ishini tashkil etish va boshqarish usullari" TDPU.T.: 2001 y.
3. Maktabgacha ta`lim muassasasi to'g'risidagi Nizom. Toshkent 2007 y.
4. Maktabgacha yoshdagi bolalar ta`lim-tarbiyasiga qo'yiladigan davlat talablari. Toshkent 2008 y.
5. A. I.Vasileva, L.A. Baxturina, I.I.Kobitina "Bolalar bog'chasing katta tarbiyachisi" T.: "O'qituvchi" 1991 y.
6. Maktabgacha ta`lim kontseptsiyasi. Toshkent 2008 y.
7. "Uchinchi mingyllikning bolasi" Dasturi. Toshkent 1999 y.
8. M.Sh.Nurmatova, Sh.Xasanova, D.Asimova "Ustaxonada amaliy mashg'ulot" T., "Cho'lpon" 2010 y.
9. M.Sh.Nurmatova, Sh.Xasanova "Rasm, buyum yasash va tasviriy faoliyatga o'rgatish metodikasi. T., "Musiqa" 2010 y.

XVI BOB. Pedagogik kengash.

Reja:

1. Pedagogik kengash – jamoa pedagoglar fikrini ifodalovchi metodik ish shakli.
2. Pedagogik kengash to’g’risidagi Nizomning maqsadi va vazifalari.
3. Pedagogik kengash o’tkazish metodikasi.
4. Pedagogik kengash bo’yicha ish xujjatlarini yuritish.

Mavzuning maqsadi: O’quvchilarni pedagogik kengashning mazmuni, vazifalari, uni o’tkazish metodikasi bo’yicha nazariy bilimlar bilan qrollantirish.

Mavzuning vazifasi: Pedagogik kengash to’g’risidagi Nizom va boshqa tegishli xujjatlarni o’rganish va ularni amaliyotga joriy eta olish kabi ko’nikma – malakalar hosil qilish.

Tayanch tushunchalar:

Metodist – maktabgacha ta`lim muassasasi uslubchisi, metodik ishlarga rahbalik qiladi.

Operativ masalalar – kechiktirib bo’lmaydigan masalalar.

Tahlil – tahlil qilish, ta`lim-tarbiyaviy, metodik va boshqa jarayonlarni kuzatish va muhokama qilish.

Qiyosiy nazorat – solishtirma nazorat.

16.1. Pedagogik kengash – jamoa pedagoglar fikrini ifodalovchi metodik ish shakli.

Pedagogik kengash - jamoa pedagoglari fikrini ifodalovchi, bolalar bilan olib boriladiga ta`lim - tarbiyaviy masalalarni kollegial ko’rib chiqadigan doimiy ishlovchi organ, metodik mahorat maktabi va ilg’or tajriba minbaridir.

Maktabgacha ta`lim muassasasi mudiri pedagogik kengash raisi hisoblanadi.

Pedagogik kengashga quyidagi masalalar: bolalar bilan olib boriladigan ta`lim - tarbiyaviy ishlar darajasini oshirish, ularni hal qilish yo’llarini izlash; muassasa ish praktikasiga pedagogika fanining yutuqlari va ilg’or pedagoglar tajribasini joriy qilish; tarbiyachilarining pedagoglik mahoratini oshirish, ularning ijodiy faolligini rivojlantirish kiritiladi.

Pedagogik kengash xalq ta`limi Vazirligi, Xalq ta`limi Davlat qo’mitasining maktabgacha ta`lim bo’yicha buyruq, instruktsiya, nizom va boshqa me`yor hujjatlarini; maktabgacha ta`lim muassasasining yillik ish rejasini; bolalar sog’ligini mustahkamlash tadbirlarini; har bir yosh guruhlari bo’yicha «Uchinchi ming yillikning bolasi» Davlat Dasturining sifatli bajarilishi jarayonini; ish praktikasiga joriy qilish maqsadida tarbiyachilarining ilg’or tajribalarini; maktabgacha yoshdagি bolalarga ta`lim va tarbiya berishning dolzarb masalalarini,

tarbiyachilarning nazariy va metodik tayorgarliklarini oshirish masalalarini va maktabgacha ta`lim muassasasi faoliyatining boshqa masalalarini muhokama qiladi.

Pedagogik kengashlar kun tartibini belgilashda barcha qatnashchilarni qiziqtiruvchi tematikaning kengligini, dolzarbligini ta`minlash zarur. Faqt shundagina pedagogik kengashda ish muhiti hukm suradi, masalalar muhokamasi sermaxsul va faol bo'ladi.

Pedagogik kengash tarkibiga: uslubchi, tarbiyachilar, musiqa rahbari, maktabgacha ta`lim muassasasiga xizmat ko'rsatuvchi vrach, katta hamshirasi, partiya tashkilotining sekretari, kasaba uyushma qo'mitasining raisi, ota-onalar qo'mitasining raisi kiradi. Pedagogik kengash yig'ilishiga jamoat tashkilotlarining vakillari, mакtablar o'qituvchilari, maktabgacha ta`lim muassasasi tarbiyalanuvchilarining ota-onalari taklif etilishi mumkin.

Pedagogik kengash maktabgacha ta`lim muassasaning yillik ish rejasiga kiritilgan va pedagoglar pedagogik kengashi tomonidan tasdiqlangan reja bo'yicha ishlaydilar.

Maktabgacha ta`lim muassasalarida kollegial organ hisoblangan pedagogik Kengashlar tashkil etilib, u pedagogik xodimlar, ota-onalar, homiyarlari birlashtirib, maktabgacha ta`lim Davlat talablari asosida muvofiqlashtirilgan ta`lim - tarbiya jarayonini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Pedagogik Kengash maktabgacha ta`lim muassasasidagi ta`lim - tarbiya jarayonidagi asosiy masalalarni hal etuvchi doimiy faoliyat ko'rsatadigan organ hisoblanadi.

16.2. Pedagogik kengash to'g'risidagi Nizomning maqsadi va vazifalari.

Pedagogik kengash maktabgacha ta`lim muassasaning yillik ish rejasiga kiritilgan va pedagoglar pedagogik kengashi tomonidan tasdiqlangan reja bo'yicha ishlaydilar.

Maktabgacha ta`lim muassasalarida kollegial organ hisoblangan pedagogik Kengashlar tashkil etilib, u pedagogik xodimlar, ota-onalar, homiyarlari birlashtirib, maktabgacha ta`lim Davlat talablari asosida muvofiqlashtirilgan ta`lim - tarbiya jarayonini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Pedagogik Kengash maktabgacha ta`lim muassasasidagi ta`lim - tarbiya jarayonidagi asosiy masalalarni hal etuvchi doimiy faoliyat ko'rsatadigan organ hisoblanadi.

Pedagogik Kengash o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, «Ta`lim to'g'risida»gi Qonuni, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007 yil 25 oktyabrdagi «Maktabgacha ta`lim sohasidagi me`yor-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida»gi 225-sonli qarori, muassasa Ustavi va mazkur Nizom asosida olib boradi.

Pedagogik Kengashning asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

– tarbiyalanuvchilarning egallashi lozim bo'lgan bilim, malaka, ko'nikmalarni ta`minlashda pedagogik jamoaning birlashuvini kuchaytirish, Davlat

talablarining bajarilishini ta`minlash, tarbiyalanuvchilarga bilim berish sifatini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar belgilash;

– ta`lim jarayoniga bilim berishning ilg'or shakllarini, yangi pedagogik texnologiyalarni va texnik-axborot qo'llanmalarni joriy qilish;

– tarbiyalanuvchilarga umuminsoniy va milliy qadriyatlarga asoslangan ma`naviy-axloqiy xislarni singdirish, bola shaxsini shakllantirish, uning Vatanga bo'lgan muhabbatini o'stirish;

– uzlusiz ravishda pedagogik kadrlarning nufuzini, mas`uliyatini va kasbiy mahoratini, ilmiy-metodik salohiyatini oshirish va ularning tashabbuskorligini rivojlantirish bo'yicha maqsadli yo'naltirilgan ishlarni tashkil etish;

– bolalarni samarali ta`lim - tarbiya olishidapsixologik-pedagogik yordamni ko'rsatish bo'yicha masalalarни ko'rib chiqish.

Pedagogik Kengash tarkibiga muassasa mudirasi, metodisti, pedagoglar, muassasa shifokori va tibbiy hamshira, kasaba uyushma raisi, ota-onalar qo'mitasi raisi, vasiylik kengashi raisi, mahalla fuqarolar yig'ini a`zolari kirishi mumkin.

Pedagogik Kengashning raisi muassasa rahbari hisoblanadi.

Pedagogik Kengash o'z tarkibidan bir o'quv yi li muddatiga kotibani saylaydi.

Pedagogik Kengashda muassasaning ish rejasi, tarbiyachilarining metod birlashmalardagi ish lari, malaka oshirish rejasining bajarilishi, nazorat turlari bo'yicha tekshiruv xulosalari, xodimlarning hisobotlari, tarbiyalanuvchilarining o'zlashtirishi, muassasaning sanitar-gigienik ahvoli va tarbiyalanuvchilarining sog'lig'i va muassasa faoliyatining boshqa masalalari ko'rib chiqiladi.

Pedagogik Kengash muassasada qo'shimcha ta`lim xizmatlarini joriy etish, ko'rik-tanlovlar tashkil etish, ota-onalar, mahalla, maktab bilan hamkorlik ish larini tashkil etish bo'yicha qarorlar qabul qiladi.

16.3. Pedagogik kengash o'tkazish metodikasi.

Pedagogik kengash kun tartibini belgilashda barcha qatnashchilarini qiziqtiruvchi mavzu tanlanishi, mavzuning dolzarbligi, muammoli xarakterga ega bo'lishi lozim. Shundagina pedagogik kengashda yaxshi ish muhiti hukm suradi, masalalar muhokamasi sermahsul va faol bo'ladi. Pedagogik kengash tarkibiga mudira uslubchi tarbiyachi va pedagoglar, psixolog, vrach, xamshira, kasaba uyushmasi raisi kiradi. Shuningdek jamoa tashkilotlarining vakillari, maktab o'qituvchilar, ota-onalarni taklif etish mumkin. Pedagogik kengash mактабгача ta`lim muassasaning yillik ish rejasiga kiritilgan va pedagoglar pedagogik kengash tomonidan tasdiqlangan reja bo'yicha ishlaydi. Pedagogik kengash ishining muvaffaqiyati ko'p jihatdan pedagoglar jamoasiga qo'yiladigan masalaning muhimligi savodli va jiddiy tayyorlanganligiga bog'liq bo'ladi. Pedagogik kengashga tayyorlanish shakllari xilma - xil bo'lishi mumkin. Masalan, tarbiyachilarining biriga o'z ish tajribasidan "Hulq-atvor madaniyati" xaqida axborot berish, boshqasiga shu masala bo'yicha "Psixologiya-pedagogika" fanining so'ngi yutuqlari haqida axborot tayyorlash topshirilsa, qolgan boshqa tarbiyachilarga tajriba almashinayotgan guruxda bo'lish topshiriladi. Uslubchi mazkur mavzuning chuqurligini mohiyatini ochib berishga yordam beradi. (bu

masalalar barcha tarbiyachilarga pedagogik kengash boshlanishidan ancha oldin ma`lum bo`lishi kerak). Savollar ro`o`yxatini tayyorlaydi. Nazariya, metodikaning eng qiyin masalalarini tarbiyachi navatorga topshiradi yoki o`yin tayyorlashni o`z zimmasiga oladi. Pedagogika universiteti “Maktabgacha ta`lim” kafedrasining professor - o`qituvchilarini, metodistlarini, instruktorlarini ma`ruza bilan chikish uchun taklif qilish kerak.

Ma`ruzada chuqur mazmun, aniq-mantiqiy bayon, masalaning nazariy asoslanishi, g`oyalarning ijodiy tushuntirilishi, asosan dalilllar bo`lishi shart. Ma`ruza uchun ajratilgan vaqt 20-30 daqiqadan oshmasligi kerak, aks xolda masalani muxokama qilish va karorlar qabul qilishga vaqt qolmaydi.

Pedagogik kengashning yig`ilishi, agarda u faol, ijodiy o`tkazilsa, tarbiya ishining g`oyaviy-siyosiy va kasb-xunar darajalarini oshirishga yordam beradi, pedagogik tafakkurni, metodik ishga qiziqishni rivojlantiradi. O`quv yili davomida deyarli xar bir tarbiyachi ma`ruzaga va qo`shimcha ma`ruzadagi rolida chiqish imkoniga ega bo`ladi. Bundan tashqari, tarbiyachilar pedagogik kengashga qo`yilgan masalalarni muxokama qilishda doimo faol qatnashishlari kerak. Pedagogik kengash yig`inlarida vaqtiga vaqtida tarbiyachilarning «Uchinchi ming yillikning bolasi» Dasturi talablarini bajarilishi bo`yicha ishlar xaqida xisobotlarini tinglash maqsadga muvofiqidir. O`z faoliyatlarini taxlil qilar ekanlar, tarbiyachilar fakat yutuqlargagina emas, balki xatolarini xam qayd qiladilar, o`z axborotlarini belgilangan maksadlariga erishishlarida yordam bergen muvaffaqiyatni metod va usullardan namunalar keltirib yoritadilar, xar bir bolaga xarakteristika-tavsiyanoma beradilar, ularga pedagogik ta`sir etishning samarali yo'llarini ko`rsatadilar. Xamkasblarining ishlarini muxokama qilishda ishtirok etayotgan barcha tarbiyachilar ishtirok etadilar. Pedagogik kengash yig`ilishi yakunida maktabgacha ta`lim muassasasining mudira yoki katta tarbiyachisi ishni mufassal va chuqur taxlil qiladi. Tarbiyachilarning bunday saboqlari ularning guruxlaridagi ta`lim - tarbiyaviy ishlar sifati uchun ma`suliyatni oshiradi. Ma`lumki, bolalar muassasi jamoasida tayyorgarlik, tajriba darajasi xar xil bo`lgan xodimlar ishlaydi. ularning xar birining imkoniyat va qobiliyati xar xil, bilimlarining darajasi va o`z oldilariga qo`yan vazifalarini tushunishlari turlicha, shuning uchun navbatdagi pedagogik kengash ishini tayyorlashda katta tarbiyachi yordamga muhtoj bo`lganlarga ko`proq yordam ko`rsatadi. Tarbiyachi, o`z ishining moxir ustasi tajribalarni umumlashtirish yuzasidan so`zga chiqishga qiyalsa, bunday tarbiyachiga o`z axborotlarining rejasini tuzishga yordam berish kerak. Mana shu (ma`ruza) reja asosida u ma`ruza uchun qoralama qo`lyozma tayyorlaydi, unga qiziqarli misollarni tanlashda, kerakli xulosalar chiqarishda, o`rganishni va xal qilishni talab qiladigan savollarni ajratib ko`rsatishda yordam berish kerak. Tajribali pedagoglarga faqat ayrim maslaxatlar va tavsiyalar beriladi.

Malaka oshirish kurslaridan qaytib kelgan yoki pedagogika Oliy ukuv yurtlarida o`qiydigan tarbiyachilarning maktabgacha yoshdagilarga ta`lim va tarbiya berishning dolzarb ilmiy-nazariy muammolari xamda ilg`or ish tajribanining metodik tomonlari xaqida ma`ruzalar bilan chiqishlari majburiy qoidaga aylanishi lozim. Bir yoki bir necha yosh guruxlardagi ta`lim - tarbiya ishlarining xolati taxlil qilinayotgan va bolalarning bilim, ko`nikma, malakalarining darajasi dastur

talablariga ko'ra baxolanadigan pedagogik kengashlar barcha tarbiyachilarda katta qiziqish uyg'otadi. Masalan: bolalarning mashg'ulot va kundalik xayotdagi tafakkur faolligi xamda mustaqilligining rivojlanish darajasini baxolash yoki bolalarini syujetli-rolli o'yinlarining xolatini va tarbiyachining ularga raxbarlik qilish metodlarini baxolash. Bunday masalalarni muxokama qilar ekan, pedagoglar e'tiborini bolalarning mustaqil tafakkurini faollashtirishning eng qimmatli usullariga, bolalar o'yinlariga raxbarlik usullariga, mavjud kamchiliklar bularni bartaraf qilish yo'llariga qaratadi. Faol muxokama natijapsida jamoa nuqsonlarni bartaraf qilishga doir xarakatlarining aniq dasturini, bolalarning bilish faoliyatlarini rivojlantirishga raxbarlik, ularda tafakkur mustaqilligi va moyillagini tarbiyalashga doir tavsiyalarni ishlab chikadi. Maktabgacha yoshdagি bolalar o'yinlariga raxbarlikning eng samarali usullarini tavsiya etadi.

Pedagogik kengashlarda tarbiyachilarni guruxlarga o'zaro kirishlarining natjalari muxokama qilinadi, bu jarayonda pedagoglar ishlaridagi kamchilik, muvaffakiyatsizlik va xatolarning amaliy tanqidini to'g'ri qabul qilishni o'rghanadilar. Bo'lajak kengashdan 2-3 xafka oldin e`lon osilib, unda sana, oy, kun tartibi, ma'ruzadagi va qo'shimcha ma'ruzachilarning ism-familiyalari, adabiyotlar ro'yxati, ba'zan muxokama qilinadigan mavzuga oid savollar ko'rsatiladi.

Pedagogik kengashlardagi ma'ruzalar, qo'shimcha ma'ruzalar, tarbiyachilarning axborotlari, xisobotlarining mavzularini taqsimlash o'quv yilining boshlanishidan oldin o'tkaziladi va rejalashtiriladi. Bu tarbiyachilarga kerakli adabiyotlarni oldindan tanlash va o'rghanish, olingen bilimlarini o'z shaxsiy tajribasida sinab ko'rish xamda narsani o'ylab chiqish, matnini yozish imkonini beradi. Pedagogik kengash ishining unumligi ko'p jixatdan raxbarlarning yig'ilishni olib bora bilishlariga bog'liq bo'ladi. Mudira yoki katta tarbiyachining qisqa kirish nutqi jamoa diqqatini muxokama qilayotgan muammoning muximligiga, dolzarbligiga jalb qiladi. Yig'ilish vaqtida xodisaning moxiyatini chuqurrok tushunish, sabablarini bilish uchun tarbiyachilarning fikrlarini yo'llab borish lozim. Yakun chiqarar ekan, muxokama qilinayotgan masalaning eng muxim tomonlarini-xolatlariga qisqa to'xtalishi, ma'ruzachilar va so'zga chiqqanlarning foydali takliflariga baxo berish zarur.

Pedagogik kengash muxokamasiga ko'pi bilan 2-3 masala qo'yiladi. Pedagogik kengash karorining loyixasini ma'ruzachi oldindan tayyorlaydi. Pedagogik kengash qatnashchilari o'z qo'shimchalarini, aniqliklarini, o'zgartirishlarini kiritadilar. Pedagogik kengash qarorida tekshirilishi mumkin bo'lган aniq muddat va ishlar bo'lishi kerak. Ijro uchun mas`ullar tayinlanadi. Pedagogik kengashning qarori bog'cha jamoasining barcha a`zolari uchun majburiydir. Pedagogik kengashning qarori kengash raisi va kotibi tomonidan imzolanadi va bolalar muassasasining ish xujjati sifatida saqlanadi. Xar bir pedagogik kengash oldingi kengash qarorlarining ijrosini tekshirish masalasi bo'lishi kerak, chunki masalalarni muxokama qilishni istalgan shaklining yakuniy bosqichi aynan qabul qilingan qarorlarning bajarilishini tekshirish xisoblanadi.

Xayotga tadbiq qilinmagan eng yaxshi qarorlar jamoa ish obro'siga putur etkazadi, ma'suliyatsizlik, rasmiyatchilikni keltirib chiqaradi. Pedagogik kengash muxokama qilingan xar bir masala bo'yicha ko'pchilik ovoz bilan qaror qabul

qiladi. Bunda kengash yig’ilishi a`zolarinish kamida 3/2 qismi qatnashishi kerak. Ovozlar teng bo’lgan xollarda kengash raisi-bolalar muassasasi mudirining ovozi xal qiluvchi ovoz xisoblanadi. Qarorlar tadbirlarini o’tkazish muddatilari va ularning bajarilishi uchun mas`ullar ko’rsatilgan aniq xarakter kasb etishi kerak. Pedagogik kengashlar qarorlarining ijrosi xaqidagi axborotni odatda, mактабгача та`lim muassasa mudiri yoki katta tarbiyachi beradi. Tarbiyachilarga xam bunday axborotni joriy etish kerak. Birinchi navbatda bo’lar ma’suliyatlari va vijdonan ishlaydigan xodimlar bo’lishi kerak.

Mактабгача та`lim muassasalarida pedagogik kengash ishini KVN usulida o’tkazish maksadga muvofikdir. Bu usuldan keng foydalaniadi:

- 1) Tabriklash: Tarbiyachi shaxsi va faoliyati bizning shiorimiz.
- 2) Kapitanlar tanlovi: «O’z guruxingiz bolalarini yaxshi bilasizmi?» Xar bir bolaning xulqi, qiliqlari, xarakteri.
- 3) Mutaxassislik tanlovi:
 - a) «Moxir qo’llar» tez, sifatli, chiroyli milliy o’yinchoqlar va atributlar tayyorlash.
 - b) siz bolalar adabiyoti va musiqasini bilasizmi? (shularni atroflicha va nomini eslash);
 - v) bolalar bilan ishslashda badiiy asarlarni qo’llash, she`r, tez aytish, maqollarni yoddan aytish. Qaysi jarayonlarda qo’llay olishni izoxlash?
 - g) sizning bilimdonligingiz bolalar tomonidan beriladigan turli savollarga javob berishda as qotadimi?
 - d) bolalar bilan ishslash va muloqotga kirishish ko’nikmalari. Fiz. daqiqalarni, qoidalari -xarakatli o’yinlarni bolalar ishlarini taxlil kilish.
3. «Tarbiyachi xamma narsani bilishi va qila olishi kerak»-tanlovi:
 - a) Siz dam olishni bilasizmi? Dam olish kunini o’tkazish stsenariysini, tematik bayramlar, ko’ngil ochishlarni tuza olish;
 - b) xar bir tarbiyachi - bu artist-xayvonlar ovoziga taqlid qilish, tez aytish, qo’shiqlar kuylash, raqsga tushish, birorta narsani o’xshatish va hakozo.
 - v) «Beka» tanlovi. Bunda tugma qadash,tikish yoki birorta ovqat, salat tayyorlash. Metodik ishlarning keng tarqalgan usullaridan biri-pedagogik jarayonlarni jamoa bo’lib ko’rish. Bu usulni kamchilik tomoni shuki, tarbiyachilar kuzatuvchi bo’lib qolaveradilar. Buning uchun tarbiyachilar tomonidan o’tkazilayotgan mashg’ulotlarning ishlanmasini tuzish va shu orqali taxlil kilinsa, mashg’ulot o’tkazgan tarbiyachilar faollashadilar, o’z ustida ko’proq ishslashga majbur bo’ladilar. Bu usul orqali yangi yo’nalishlar, metod-usul, bolalar bilan ishslashning yangi uslublari namoyon bo’ladi. Taxlil kilishda esa-jamoa pedagoglari faol ishtirok etishlarini ta`minlaydi.

Yuqorida ko’rsatib o’tilgan pedagogik jamoa bilan olib boriladigan ish shakl-usullari metodik ishlarning asosiy mag’zini tashkil etadi. U pedagoglarning ish stoji, pedagog xodimlarning tayyorgarlik darajasini takomillashtirishga yordam beruvchi bir vosita xisoblanadi. Pedagog xodimlarning imkoniyatlari va talablarini quyidagi diagnostika jadvali orqali aniqlash mumkin:

1. Qaysi ilg’or ish tajribalarni o’rganish, umumlashtirish va amaliyatga qo’llash mumkin?
2. Asosiy ish yo’nalishlari:

- a) ta`lim - tarbiyaviy ish jarayonida xar qanday to'siqlarni enga olish;
- b) an'anaviy va yangi yo'nalish, javobgarlikni o'z bo'yniga olish, tavakkal ish yuritish elementlarining soni;
- v) yangi g'oyalarni o'zlashtirish qobiliyati, uni boshqarishga nisbatan yangicha yo'nalish;
- g) umumiy va pedagogik madaniyatni egallash;
- d) yangi ish ob`ektini, ko'rinishlarini, pedagogik jarayonlarga bilim, ko'nikma, malakalarini olib kirish, ishlab muxokama qila olish.

3. Maktabgacha ta`lim muassasasidagi jamoaga qaysi muammo, ish metodlari bo'yicha yordam ko'rsatish kerak? Aloxida olingan tarbiyachilar uchun xam.

Asosiy ish yo'nalishlari:

- a) Tajribali va javobgarlikni xis qiladigan tarbiyachilarga ishonch bildirish;
- b) ilk ish boshlayotgan tarbiyachilarga amaliy ish shakllarini ochiq ko'rsatib berish;
- v) ustoz-shogird yo'nalishi;
- g) aloxida olingan tarbiyachilarning ishlarini nazorat kilish. Muassasadagi guruxlarni metodik jixatdan to'g'ri jizoxlanishi katta axamiyatga ega. Guruxlardagi burchaklarni metodik jixatdan to'g'ri jixozlash, metodik materiallarni, o'yinchoqlarni to'g'ri joylashtirish, maydonchalarni qanday bezashni mudira va uslubchi tomonidan tushuntirilib boriladi. Pedagogik jarayonni kerakli materiallar bilan jixozlash, ta`minlash, bu qo'llanma va ko'rgazma qurollarni tarbiyachilar tomonidan tayyorlab boriladi. Gurux va maydonchalarni bezashda estetik did va katta maxorat talab qilinadi.

Pedagog xodimlarning badiiy didi, madaniyat darajasi, pedagogik tayyorgarlik darajasi xuddi kuzgudek aks etadi. Maktabgacha ta`lim muassasalarining binolarini to'g'ri bezatilishi bolalarning badiiy didlarini tarbiyalashga, ularda madaniy-gigienik malakalarini shakllantirishga yordam beradi. Yaxshi kayfiyat, quvnoqlik xissini uyg'otadi, barcha kun tartibi jarayonlarini muvaffaqiyatli o'tkazishga yordam beradi.

Bezashning muxim printsipli-bu bolalar yosh xususiyatlarini xisobga olishdir. «Uchinchi ming yillikning bolasi» dasturi asosida gurux xonalarini metodik jixatdan to'g'ri jixozlash, kerakli qo'llanmalar bilan boyitish, zal, kiyinish xonalarini metodik talablari darajasida bezatilishi, mashg'ulotga kerakli bo'lган atributlar, mashg'ulotlar ishlanmalarini ishlab chiqish maktabgacha ta`lim muassasa oldida turgan muxim vazifalardan biridir.

Maktabgacha ta`lim muassasalarining guruxlarida ota-onalar majlisi bo'lib o'tadi. Shuning uchun, biz tarbiyachilarga metodik tavsiya sifatida «Ota-onalar majlisi» o'yinini tanladik.

Mavzu: «Biz va bizning bolalarimiz».

Maqsad: Bolalar bilan muloqot malakalarini shakllantirish, mustaxkamlash, bir-biri bilan o'zaro munosabat, umumiy til topisha olish kabi xususiyatlarni tarbiyalash, kelishmovchilik jarayonida ogoxlantirish qo'shimchalarini tarbiyalash.

Rollar: tarbiyachi, mudira, ota-onalar, buvi, katta ona, ota-onalar qo'mitasi a`zolari, pedagoglar.

Referent: ish kuzatib boruvchi va baxolovchilar. Bular bir necha bo'lishlari mumkin. Referent o'yinni kuzatib boradi va tegishli kuzatish xaritasiga qayd qiladi.

1. Tarbiyachining ota-onalar bilan suxbati, suxbat jarayonini taxlil kilish:
 - a) bir nechta tarbiyachilar savolning nazariy va amaliy jixatlarini egallagani;
 - b) ota-onalar majlisi mavzusidagi suxbat qay darajadaligi;
 - v) suxbat mavzusi guruxlardagi bolalarning xolati bilan bog'liqligi;
 - g) suxbatda ota-onalarning qiziqishlarini xisobga olish, ularning bu mavzu bo'yicha bilim saviyalari darajalari;
 - d) tarbiyachi tomonidan o'rganilayotgan muammoga qiziqish xislarini xosil qilish, savollar bera olish, so'zga chiqish, tarbiyachining mantiqiy, birin-ketin, astasekinlikda, asosli ravishda o'z fikri nuktai-nazarida bayon etish;
 - j) qo'shilmagan tarbiyachilarga nisbatan tarbiyachi tez, to'g'ri kirishib keta oladimi?

Referentning kuzatish xaritasi.

- ularni bartaraf etish choralarini, usullarini ishlab chiqish, izlash;
- pedagogika va psixologiya fanining yutuqlarini bolalar ta`lim - tarbiyasiga olib kirish;
- «Uchinchi ming yillikning bolasi» tayanch dasturi asosida bolalarni maktab ta`limiga tayyorlash masalalari;
- tarbiyachilarning pedagogik maxoratini oshirish, ularning ijodiy faolligini rivojlantirish;
- ilg'or ish tajribalarini joriy etish;
- bola tarbiyasiga oid eng dolzarb dolzarb muammolarni xal etish;
- muassasa ish amaliyatiga maktabgacha soxa bo'yicha qabul qilinayotgan yangiliklarni joriy etish kabi masalalar kiritiladi.

Pedagogik kengash-O'zbekiston Respublikasi Xalq Ta`limi Vazirligi, Xalq Ta`limi Davlat qo'mitasining maktabgacha ta`lim bo'yicha buyruq, instruktsiya, Nizom, Kontseptsiya, «Ta`lim to'g'risida»gi Qonun, Kadrlar tayyorlashning Milliy Dasturi va boshqa xujjat, me`yor-me`yoriy xujjatlarni:

- maktabgacha ta`lim muassasaning yillik ish rejasini, bolalar sog'lig'ini mustaxkamlash tadbirlarini, xar bir yosh gurux bo'yicha «Uchinchi ming yillikning bolasi» dasturining sifatli bajarilish jarayonini, ish jarayoniga-amaliyatga joriy qilish maqsadida tarbiyachilarning ilg'or ish tajribalarini, maktabgacha yoshdag'i bolalarga ta`lim va tarbiya berishning muxim masalalarini, tarbiyachilarning nazariy va metodik tayyorgarliklarini oshirish masalalarini va maktabgacha ta`lim muassasa faoliyatining boshqa masalalarini muhokama qiladi.

16.4. Pedagogik kengash bo'yicha ish xujjatlarini yuritish

Pedagogik Kengash Xalq ta`limi bo'limi tomonidan tasdiqlangan ish rejasи asosida faoliyat tashkil etadi.

Pedagogik Kengash yig'ilishi ikki oyda bir marta (o'quv yili davomida 6 marta) o'tkaziladi.

Zarur bo'lgan holatlarda, navbatdan tashqari pedagogik Kengash yig'ilishlari o'tkazilishi mumkin.

Qarori ishtirokchilarning uchdan ikki qismi ovozi bilan qabul qilinadi. Ovozlar teng bo'lgan taqdirda Kengash raisining qarori hal qiluvchi hisoblanadi.

Pedagogik Kengashning qarori va tavsiyalarini nazorat qilish muassasa rahbari zimmasiga yuklatiladi.

Pedagogik Kengash a`zolari yig'ilishida muassasa ishini yaxshilash bo'yicha takliflar kiritish huquqiga ega.

Pedagogik Kengash qarorlarini bajarish uning barcha a`zolari uchun majburiydir.

Pedagogik Kengashning kun tartibi va o'tkazish vaqtি hodimlarga ikki hafta avval ma'lum qilinadi.

Pedagogik Kengash qaroridan norozi bo'lgan Kengash a`zosi ushbu qarorni tuman (shahar) xalq ta`limi bo`limi muhokamasiga qo'yishi mumkin.

Pedagogik Kengashning moddiy-texnik ta`minotini muassasa rahbari ta`minlaydi.

Muassasaning pedagogik tarkibi 3 nafardan kam bo'lgan taqdirda, Pedagogik Kengash tashkil etilmaydi.

Pedagogik Kengashning bayonnomalar kitobi yuritiladi (XTVning 2005 yil 23 apreldagi «Maktabgacha ta`lim muassasalari ish hujjatlari to'g'risida»gi 96-sonli buyrug'i asosida). Har bir yig'ilishdan keyin uni kotiba va rais imzolaydi.

Bayonnomalar kitobi davlat maktabgacha ta`lim muassasalari uchun tuman (shahar) xalq ta`limi bo`limi tomonidan, nodavlat ta`lim muassasalari uchun ta`sische tomonidan tikilgan, raqamlangan va muhrlangan bo`lishi shart.

Pedagogik Kengash bayonnomasi har o'quv yili boshida yangidan raqamlanadi.

Pedagogik kengash ishining muvaffaqiyati ko'p jihatdan pedagoglar jamoasi muhokamasiga qo'yilgan masala qanchalik savodli va jiddiy tayyorlanganligiga bog'liq bo'ladi.

Pedagogik kengashning yig'ilishi ikki oyda bir marta chaqiriladi, zaruriyat tug'ilganda navbatdan tashqari yig'ilish chaqirilishi mumkin. Muhokamaga ko'pi bilan 3-4 ta masala qo'yiladi, pedagogik kengash ishdan tashqari vaqtida o'tkaziladi.

Pedagogik kengash qarorining loyihasini ma'ruzachi (MTMning mudiri yoki uslubchi) oldindan tayyorlaydi.

Nazorat savollari:

1. Pedagogik kengashning asosiy vazifalari nimalardan iborat va bu qaysi qonun xujjatida belgilab berilgan?
2. Pedagogik kengash o'tkazishda qanday pedagogik o'yin turlaridan foydalanish mumkin? Misollar keltiring.
3. Pedagogik kengashda qanday masalalar ko'rib chiqib, muhokama qilinadi? Misol keltiring.
4. Pedagogik kengash bayonnomalarini yuritish tartibini izohlang.

Testlar:

1. Pedagogik kengash kim tomonidan boshqariladi

- A. Xalq ta`limi uslubchisi tomonidan
- B. Mudira tomonidan
- V. Bog'cha uslubchisi tomonidan
- G. Ota-onalar qo'mitasi tomonidan

2. Maktabgacha ta`lim muassasasida pedagogik kengash o'tkazishda qanday pedagogik texnologiyalar qo'llanilmoqda

- A. Davra suhbati, pedagogik ring, KVN, dumaloq stol, aqliy hujum, fikrlar g'oyasi, innovatsion
- B. Dumaloq stol, klaster, bumerang
- V. KVN, fikrlar g'oyasi, banki, klaster
- G. Pedagogik ring, innovatsion

3. Maktabgacha ta`lim muassasasida qaysi hollarda Pedagogik kengash tashkil etilmaydi?

- A. Muassasa pedagogik tarkibi 3 nafardan kam bo'lganda.
- B. Muassasa raxbari ishtirok etmaganda.
- V. XTB tomonidan buyruqlar bekor qilinganda.
- G. Muassasadagi ta`lim-tarbiyaviy ish sifati darajasi talabga javob bermaganda.

4. Maktabgacha ta`lim muassasasida Oliy organ bu - ?

- A. Ishlab chiqarish majlislari.
- B. Ota-onalar majlislari.
- V. Pedagogik kengash.
- G. Metodik birlashmalar.

5. Pedagogik kengash tarkibi:

- A. Mudira, MTM jamoasi, mahalla, makkab, ota-onalar.
- B. Mudira, pedagoglar, shifokor, xamshira, makkab vakili, ota-onalar qo'mitasi raisi.
- V. Muassasa mudirasi, uslubchi, pedagoglar, shifokor, kasaba uyusha raisi, ota-onalar qo'mitasi raisi, vasiylik kengashi raisi, mahalla fuqorolar yig'ilishi a'zosi.
- G. Jamoa tashkiloti, makkab, mahalla, muassasa jamoasi, shifokor, xamshiri.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent 1992 y
2. Ta`lim to'g'risidagi qonun. Toshkent 1997 y.
3. Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi. Toshkent. 1997 y.
4. O.U.Xasanboeva, M.X. Tadjieva, Sh.K.Tashpulatova va boshqalar "Maktabgacha ta`lim pedagogikasi" "Ilm Ziyo". T.: 2006 y.

5. B.Ziyomuhamedov, Sh.Abdullaeva “Pedagogika” “O’zbekiston Milliy entsiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti”. T.: 2000 y.
6. Maktabgacha ta`lim muassasasi to’g’risidagi Nizom. Toshkent 2007 y.
7. Maktabgacha yoshdagi bolalar ta`lim-tarbiyasiga qo’yiladigan davlat talablari. Toshkent 2008 y.
8. J.G’. Yo’ldoshev. Ta`lim yangilanish yo’lida. Toshkent “O’qituvchi” 2000y.
9. R. Mavlonova “Pedagogik texnologiya” Toshkent “Fan” 2009 y.
- 10.R. Ishmuxamedov “Ta`limda innovatsion texnologiyalar”. Toshkent “Iste`dod”. 2008 y
- 11.A. I.Vasileva, L.A. Baxturina, I.I.Kobitina “Bolalar bog’chasing katta tarbiyachisi” T.: “O’qituvchi”1991 y.
- 12.Maktabgacha ta`lim kontseptsiyasi. Toshkent 2008 y.
- 13.“Uchinchi mingyllikning bolasi” Dasturi. Toshkent 1999 y.
- 14.Maktabgacha ta`lim tizimiga doir xuquqiy me`yoriy xujjatlar to’plami. “Lider Press” nashriyoti.T.: 2009 y.
- 15.Spravochnik “Rukovoditelya doshkolnogo orazovatelnogo uchrejdeniya” “Ilm Ziyo”. T.: 2006 y.

XVII BOB. Seminarlar va maslahatlar. (amaliy)

Reja:

1. Maktabgacha ta`lim muassasalarida o'tkaziladigan seminar metodik ish shakli ekanligi.
2. Seminar mashg'ulotlari va uni tashkil etish.

Mustaqil ish: Mustaqil ravishda mashg'uloti namunasini tuzib kelish.

Mavzuning maqsadi: O'quvchilarni maktabgacha ta`lim tizimidagi metodik ish shakllaridan seminar va seminar mashg'ulotlari to'g'risidagi nazariy bilimlarini amaliyotga qo'llay olish ko'nikmalarini hosil qilish, shakllantirish.

Mavzuning vazifasi: Nazariy seminarlarning taxminiy tematikasini tuzish. Seminar mashg'ulotlarini mustaqil tarzda o'tkazish.

Tayanch tushunchalar:

Metodik birlashma – maktabgacha ta`lim xodimlarining malaka oshirish shaklsi.
Ko'chirma-papka – yig'ma papka, ota-onalar va bolalar muassasalarda biror-bir mavzu bo'yicha jihozlangan ko'rgazmali vositadir.
Metodiko-pedagogik yig'ilish – bu maktabgacha ta`lim muassasalarning ilk yosh guruhlarida o'tkaziladigan tibbiy pedagogik kengash.
Ochiq tadbirlar – jamoa bo'lib pedagogik jarayonlarni kuzatish.
Metodik adabiyotlar obzori – bu yangi nashr qilingan o'quv pedagogik adabiyotlar tahlili.

17.1. Maktabgacha ta`lim muassasalarida o'tkaziladigan seminar metodik ish shakli ekanligi.

Tarbiyachilarining nazariy bilim darajalarini oshirishda va ularning pedagogik maxoratini takomillashtirishda seminarlar muxim rol uynaydi. Ular pedagogika va psixologianing nazariy masalalarini, shuningdek, ilg'or ish tajriba va amaliyotni chukurroq o'rGANISH maksadida o'tkaziladi.

Uslubchi ukuv yilining boshida tarbiyachilar jamoasi bilan kelishib seminar muammosini tanlaydi, ishning aniq rejasini ishlab chikadi va pedagogik kengashda tasdiklaydi.

Seminarlar ishini tashkil kilishda yildan-yilga aynan bir tematika-mavzusini o'rGANISHGA yo'l qo'yib bo'lmaydi. Bu ilgarilashga yordam bermaydi, balki katnashchilarining seminarga qiziqishlarini pasaytiradi. Xar seminarda o'rGANILAYOTGAN material mazmunini ko'rik nazariyalashtirishga yo'l qo'ymay, balki uni kasb bilan amaliyot bilan bog'lab olib borish kerak. Shuning uchun, seminar mashg'uloti pedagogik kengash, nazariyani o'rGANISH, ikkinchi rejaga

suriladigan materialni tushunish, egallash va undan o'z vaqtida amaliy faoliyatlarida foydalanish uchun uning moxiyatini anglab bilishlari kerak.

Seminarga tayyorlanish qo'shimcha adabiyotlarni o'qish, boshlang'ich manbalarni o'rganish bilan bog'lanadi. Tarbiyachilar o'qib chiqilganini tanqidiy baxolashni, o'zlari uchun kerakli ma'lumotni olishni, o'rganilayotgan materialni tushunish, egallash va undan o'z amaliy faoliyatlarida foydalanish uchun uning moxiyatini bilishlari kerak.

Pedagogik tajriba ko'pqirrali va bebahodir. Ilg'or ish tajribalarini o'rganish va har qanday ilg'orlikni chuqur o'rganish muhimdir.

Rejada ilg'or ish tajribalarni o'rganish, ommalashtirish, yangi tajribani ishlab chiqish va uni umumlashtirishni tashkil etishdan iborat.

Xalq ta`limi bo'limi tomonidan faol saylanadi. Ularning vazifasi kurslar, seminar-mashg'ulotlar, individual va guruhli maslahatlar, ma'ruzalar, seminar majlislarini tashkil etishdan iboratdir.

Maktabgacha ta`lim xodimlarining ishlash malakalarini oshirish shakllaridan biri bu seminarlardir.

Seminarlar - maktabgacha ta`limga doir eng muhim tomonlarini hal etadi. Seminar mavzusini shahap, tuman, viloyat tomonidan belgilanadi.

Seminar uchun mavzu tanlaganda uning maqsadi, vazifalari, mavzular tematikasi aniqlanadi va bibliografiya tuziladi.

Ma`ruza mavzulari seminar qatnashchilariga taqsimlanadi, har bir ma`ruzachi o'z mavzusini ilmiy asosda ochib beradi, o'z tajribalardan namunalar keltiradi.

Mudiralar uchun seminar mavzusini quyidagicha tanlash mumkin:

1. Mudiraning metodik-tarbiyaviy ishlarga rahbarligi.
2. O'yin faoliyatiga rahbarligi.

Musiqa rahbarlariga esa:

1. Maktabgacha yoshdag'i bolalarni qo'shiq bilishlarini tashkil etish va hokazo Maslahatlar – yakkama-yakka rejalashtirish usulida qayd qilib boriladi. Bu esa metodik ishda yo'llanma-maslahatlarni mavzular bo'yicha ishlab chiqishni, kamchiliklarni bir to'la bartaraf qilishni belgilaydi.

Guruh maslahatlari esa pedagogik kabinet rejasida rejalashtiriladi.

Maktabgacha ta`lim xodimlarini ishlash malakalarini oshirishda asosiy shakllardan biri metod birlashmalardir.

Metod birlashmalar muxokamalarida maktabgacha ta`limga oid eng dolzarb masalalar xal etiladi.

Metodik birlashmalar - pedagoglarning ijodiy faolligini va izlanishlarini shakllantiradi, o'z ishlarini tahlil qilishga va tanqidiy baho berishga o'rgatadi, berilgan topshiriqlarga javobgarlik xissini, ishlash malakalarini doimo o'stirib borishga intiltiradi.

Metodik birlashmalar - butun o'quv yili davomida sentyabrdan- maygacha o'z ishini olib boradi. U turli toifadagi pedagog-tarbiyachilar, musiqa rahbarlari, mudiralar uchun tashkil etiladi.

Katta tumanlarda buni («kurslar») - bo'limchalar bo'yicha tashkil etish maqsadga muvofikdir. Har bir bo'limda 18-20 bolalar muassasalari kiradi.

Birlashmaning ishslash muddati O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan tasdiqlanadi, 2-3 oyda bir marta o'tkaziladi.

Metodik birlashma tarkibini komplektlashda pedagoglarning ish stajlari - ish malakalari hisobga olinadi. Agar mudiralar uchun bo'lsa - tuman katta bo'lsa Oliy ma'lumotli, 5 yil va undan ortiq ish stajlari uchun:

- O'rta va maxsus ma'lumotlari va ish staji kam bo'lgan mudiralar uchun.

Metodist uchun ham shunday tartibda tashkil etiladi.

Tarbiyachilar uchun turli yosh guruhlari bo'yicha shu o'quv yilida qaysi guruhda ishlagani hisobga olinadi.

Metod birlashmalar ko'rgazmalar, ko'rgazmali qurollar va yangi metodik adabiyotlar ko'rgazmalarini tashkil etish muhimdir.

Metod birlashma ishini muvaffaqiyatli o'tishida xalq ta'limi bo'limi va pedagogik kabinetining rahbarligi beqiyosdir.

Respublika, o'lka, viloyat metod kabinetlari metod birlashma rahbarining malakalarini oshirish ishini tashkil etadi, ular uchun bir yilda 2-3 marta seminarlar tashkil etadi, bu seminar metod birlashma tashkil etish va rejalashtirish va unga rahbarlik qilish, eng ilg'or ishlarni o'rganish, ommalashtirish ishlari haqida bo'ladi.

Shahar, tuman xalq ta'limi bo'limlari metodika kabineti metod birlashmalar rahbarlariga yordam beradi (reja tuzishda, ma'ruzalar tayyorlashda, ochiq ko'riklarni tashkil etishda va ularni ta'lim - tarbiya ishlariga tatbiq etish ahamiyatlidir).

Metod birlashma ishida alohida diqqatni yangi materiallarni tanlash, mashg'ulotlar reja-ishlanmalarini ishlab chiqish, maqola va vistavkalar tashkil etishga ajratish kerak.

Maktabgacha ta'lim bo'yicha tayyorlangan barcha qo'llanmalar yoki tavsiyalar avvalambor O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirliklariga yuboriladi, uni ko'rib chiqib, tasdiqlangandan so'ng maktabgacha ta'lim muassasalariga tarqatiladi.

Pedagogik kabinet o'z oldidagi vazifalarni hal etishda, materialning mazmuniga, talablariga ahamiyat berishi kerak. Seminarlarda yangi metodik adabiyotlar muhokama qilinadi. «Maktabgacha ta'lim» jurnali maqolalari, maktabgacha ta'lim to'g'risidagi metodik ishlar ko'rildi, bayram ertaliklari dasturlari ko'rib chiqiladi, muhokama qilinadi, metodik ko'rgazmalar tayyorlanadi.

Tibbiy-pedagogik yig'ilishlar asosan ilk yosh guruhlari uchun o'tkaziladi. Bolalarni anatomik-fiziologik, nerv, psixik va aqliy jihatdan o'sishi muhokama qilinadi. 1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan guruhlarda har oyda, 2 yoshdan 3 yoshgacha bo'lgan bolalar guruhlarida kvartalda 1 marta o'tkaziladi. Bunda vrach, katta xamshira ham ishtirop etadi.

Ochiq tadbirlar pedagogik ishni o'stirishda hamda tarbiyachilarning ishslash malakalarini o'stirishda muhim tadbirdir.

Bunda kun tartibning turli jarayonlari jamoa asosida kuzatiladi va tahlil qilinadi.

Metodist metod birlashma ishiga nazoratni tizimli tashkil etadi.

Seminarlar

Pedagoglarning nazariy, metodik, mutaxasislik bilimlarini oshirishda keng tarqalgan shakldir. O'qituvchilar malakasini oshirish instituti va pedagogik kabinetlar tomonidan amalga oshiriladi.

Seminarlarning asosiy maqsadi - alohida metodika bo'yicha tarbiyachilarning bilimlarini chiqurlashtirish va tarbiya bo'yicha dolzarb masalarni hal etishdir.

Seminar o'quv tematika rejasi bir yilga mo'ljallangan bo'lib, shahar, tuman seminari oyda 1-2 marta ishdan ajralmagan holda, viloyat va respublikada esa 5-12 kunda ishdan ajralgan holda tashkil etiladi.

Ilk yosh pedagogikasining asosiy muammolari.

Seminarlar ish sifatini yaxshilash maqsadida Ilmiy tekshirish instituti tomonidan - o'quv-tematik rejalarini, seminar dasturi ishlab chiqiladi.

Seminarning o'quv-tematik rejasi bir yilga mo'ljallab tuziladi, shahar, tuman seminarlari oyda 1-2 marta ishdan ajralmagan holda, viloyat va respublika esa 5-12 kunda, maktabgacha ta'lim muassasalarda esa o'rganilayotgan materialning mazmuniga qarab seminar qatnashchilarini belgilaydilar.

O'quv tematikaning boshida katta tarbiyasi va mudira tarbiyachilar bilan birgalikda seminar mavzuni tanlaydi, pedagogik kengash uni tasdiqlaydi, bu yillik rejada aks etadi, so'ngra metodist tarbiyachilarning faol birgalikda seminar ishining aniq rejasini ishlab chiqadi.

Seminar ishida ayrim bir mavzu yildan yilga ko'tarilavermasligi kerak. Bu seminar qatnashchilarining qiziqishlarini pasaytiradi. Har bir mashg'ulotda quruq nazariyachilikka yo'l qo'ymay, o'rganilayotgan materialni amaliyot bilan bog'lash kerak.

Seminar rejasi metod kabinetga ilib qo'yiladi, seminar mavzulari tahminan shunday bo'lishi mumkin:

1. Ilk va kichik yoshdag'i bolalar psixofiziologik xususiyatlari (seminarni pediatr vrach yoki psixolog olib boradi);
2. Turli faoliyat turlarida bolalarga individual yondashish;
3. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni vatanparvarlik va baynalminalchilik ruhida tarbiyalash;
4. Tarbichining bolalar bilan o'zaro munosabatlari va hokazo.

17.2. Seminar mashg'ulotlari va uni tashkil etish.

Seminar mashg'ulotlar

Bu - tarbiyachining amaliy malakalarini o'stiruvchi ish shakli bo'lib, bunda bolalar loy, aplikatsiya, qurish-yasash, badiiy o'qish, ashula aytish, paqsra tushish va boshqa ishlar amalga oshiriladi.

Mutaxasis yordamida amaliy jihatdan saviyalarini o'stirib boradilar. Seminar mashg'ulotlar ishini mudira, uslubchi yoki tajribali tarbiyachi rahbarlik qiladi. Eng muhimmi seminar mashg'ulotlardan biror bir narsa o'rganishdir.

Seminar va seminar mashg'uloti o'sha maxsus daftarga qayd qilib boriladi, faol qatnashmaganlar muhokama etiladi

Metodik adabiyotlar obzori - yangi metodik va pedagogik adabiyotlar, maktabgacha ta'lim jurnalidagi maqolalar o'rganilib, muhokama qilinadi.

O'quv ekskursiyalari

Maktabgacha ta'lim xodimlarning dunyoqarashlarini kengaytirish maqsadida, shahar va tumanning diqqatga sazovor yodgorliklariga ekskursiya tashkil etiladi.

Bir yilda 3-4 o'quv-ekskursiyalari tashkil etiladi. Muzeylarga ekskursiya tashkil etilsa nur ustiga a'lo nur bo'ladi, chunki bundan olgan taassuratlarini asosida bo'lim, katta muassasalariga ekskursiyaga borish tavsiya etiladi. Bu bo'lim bilan ishslashda muhim ahamiyat kasb etadi. Maslahatlar yakkama yakka va jamoa bo'ladi. Shu maslahatlar - vaziyat tug'ilganda metodist tomonidan o'tkaziladi. Uzoq joylardagi xodimlarga yozma ravishda beriladi.

Jamoa maslahati 1 oyda 1 marta o'tkazilib, oylik rejada aks etadi. Tumandagi barcha tarbiyachilarni oldindan ogohlantiriladi, o'tkazish muddatini belgilab tuman shart sharoitidan kelib chiqilgan holda tuziladi.

Ma`ruzalar

Maktabgacha ta'lim muassasalari xodimlarning g'oyaviy-siyosiy, ma`naviy-mafkuraviy, madaniy va ishslash malakalarini o'stirish uchun turli mavzular bo'yicha o'tkaziladi. Bular - siyosiy yoki pedagogik mavzularda bo'lishi mumkin.

Bu xodimlar dunyoqarashlarini kengaytiradi va ularni yuksalishlariga imkoniyat beradi. Muhimi uning yuqori g'oyaviy-professional saviyada o'tkazilishidadir.

O'z ustida ishslash

Bu ish shakli - maktabgacha ta'lim xodimlarining o'z ustilarida ishslashlari, g'oyaviy-siyosiy saviyalarini oshirib borishdagi keng tarqalgan shakllar (jamoa). Metodik ishlarni jamoa bilan birgalikda olib borilsa bilim manbai boyib boradi.

Maktabgacha ta'lim muassasasi xodimlari uchun shu reja tizimlari unda maktabgacha ta'lim bo'yicha ayrim nazariy masalalarni, mifik ta'lim dasto'rini, metodik materiallarni o'rganish rejalashtiriladi.

Yillik rejada - ishdagi qiyinchiliklar keltirib chiqargan bir yoki ikkita mavzu rejalashtiriladi. O'z ustida ishslashda faqatgini o'rganiladigan mavzular emas, balki undagi asosiy savollarni, masalalarni o'rganiniladi, adabiyotlar ko'rsatiladi.

Mudira kasaba uyushma raisi bilan birgalikda o'z ustida ishslashni qanday tashkil etish mavzusida suhbatlashishi, yordam ko'rsatish shart.

Bu tadbirdarni tizimli, aniq reja asosida olib borilishi g'oyat muhimdir. Bunda tashkiliy-pedagogik vazifalarni amalga oshirishda jamoa uchun shart-sharoit, kerakli materiallar, bajaruvchi - javobgar shaxslar, ularni hisobga olib borish - o'quv yilining boshida belgilanadi, mudira doimo nazorat qilib boradi.

Kadrlar bilan ishslashda hamkorlik printsipida ish olib boriladi: bo'lar quyidagilar:

a) mutloq hamkorlik minimumi - jamoa a'zolari soniga va ishni to'g'ri olib borishga suyanadi;

b) bekorga vaqt o'tkazmaslik. doimo to'g'ri siyosatni izchillik bilan amalga oshirish;

v) tezkorlik va fikrlashish, uddaburonliq

g) fikrlashuv natijasini xabar qilish, yangi aniq amaliyatga asoslangan holda olib boriladi.

Umumiy ota-onalar majlisida bolalar muassasasining butun ishi muhokama qilinadi, tegishli chora-tadbirlar ko'riladi. Ota-onalar majlisiga rais qilib ota-onalar qo'mitasining raisi belgilanadi.

Bolalar muassasalarida tashkil etiladigan ochiq eshiklar kuni g'oyat ahamiyatlidir. Bunda maktabgacha ta`lim muassasasining butun faoliyati ota-onalar tomonidan kuzatiladi, yo'l quyilayotgan kamchiliklir joyida hal etiladi. Bolalar muassasasining barcha xodimlari bunga tayyorgarlik ko'radilar

Yakkama-yakka suhbatlar - bola tarbiyasida qiyngalgan ota-onalar uchun tashkil qilinadi, bunda guruh tarbiyachisi va maktabgacha ta`lim muassasasi mudirasi ilmiy asoslangan xolda masalalarini hal etmog'i lozim.

Maslahatlar - qisqa, aniq shaklda olib boriladi, ayniqsa guruhlarda «ko'chirma-papka»lardan foydalanish kuchaytiriladi.

Mudira aholi o'rtasida muhim masalalar bo'yicha davlatimiz ko'rsatmalari, qarorlari asosida tashkilot ishlarini olib borishda rahbarlik qiladi.

Maktabgacha ta`lim muassasalarida ota-onalarga yaqindan yordam berishda - kutubxona tashkil etish ahamiyatlidir.

Bola tarbiyasiga oid kitoblar ota-onalarga katta yordam beradi, bu kitoblarni maktabgacha ta`lim muassasasi mudirasi, metodist va tarbiyachilar tomonidan tanlanadi. Adabiyotlar ro'yxati hisobot tarzida olib boriladi.

Pedagogik tashviqot ishlaridan eng qulayi ota-onalar burchagidir. Bu ota-onalarga bola tarbiyasiga hamda muassasa ishiga ijodiy yondoshishga yordam beradi.

Nazorat savollari:

1. Metodik ish shakli Seminarga ta`rif bering.
2. Seminarlarni o'tkazish metodikasini tushintirib bering.
3. MTM da necha xil maslahat turi mavjud va bo'lar qaysilar?
4. Seminar mashg'ulotini o'tkazish printsiplarini tushuntiring va misollar keltiring.

Adabiyotlar:

1. O.U.Xasanboeva, M.X. Tadjieva, Sh.K.Tashpulatova va boshqalar "Maktabgacha ta`lim pedagogikasi" "Ilm Ziyo". T.: 2006 y.
2. Sh.K.Tashpulatova "Maktabgacha ta`lim muassasalar ishini tashkil etish va boshqarish usullari" TDPU.T.: 2001 y.
3. R. Mavlonova "Pedagogik texnologiya" Toshkent "Fan" 2009 y.
4. R. Ishmuxamedov "Ta`limda innovatsion texnologiyalar". Toshkent "Iste`dod". 2008 y
5. A. I.Vasileva, L.A. Baxturina, I.I.Kobitina "Bolalar bog'chasining katta tarbiyachisi" T.: "O'qituvchi" 1991 y.
6. Maktabgacha ta`lim kontseptsiyasi. Toshkent 2008 y.

XVIII BOB. Ilg'or pedagogik jarayonni umumlashtirish.

Reja:

1. Maktabgacha ta`lim muassasasida ilg'or ish tajriba ishlarni o'rganishni tashkil etish.
2. Uslubchi tomonidan nazorat qilishning ahamiyati.
3. Uslubchi tomonidan pedagogik jarayonni tashkil etish usul va ulublari.
4. Ta`lim – tarbiyaviy ishlarni nazorat qilish.

Mavzuning maqsadi: Maktabgacha ta`lim muassasasida uslubchi tomonidan ilg'or ish tajribalarini o'rganish, umumlashtirish, nazorat qilish bo'yicha o'quvchilarga nazariy bilimlar berish.

Mavzuning vazifalari: Maktabgacha ta`lim muassasidagi ilg'or ishlarni ko'ra olish, ta`lim - tarbiyaviy ishlarni tahlil qilishning shakl va usullarini amaliyatga qo'llay olish komponentlarini shakllantirish.

18.1. Maktabgacha ta`lim muassasasida ilg'or ish tajriba ishlarni o'rganishni tashkil etish.

Tarbiyachilarning eng yaxshi tajribalarini o'rganish, barcha ilg'or tajribalarini tahlil qilish va amaliyatga joriy etish maktabgacha ta`lim muassasasi metodik ishining asosi bo'lishi kerak.

Tajribani o'rganish va umumlashtirish guruhlardagi tarbiyaviy ishlarni holatini tizimli tarzda tahlil qilinishini nazarda tutadi. Tajribani o'rganishning asosiy yo'llaridan biri guruhlarga rejali tarzda kirish va pedagogik jarayon hamda kun tartibi momentlarining turli jihatlarini kuzatishdir. Ana shu kuzatishlar asosida tarbiyachining ishi, bolalarning xatti-harakatlari va xilma xil faoliyatlar haqida tasavvur tarkib topadi.

Uslubchining kuzatishlari maxsus daftarida fotooyozuv, tanlab yozish va shu kabilar tarzida qayd etiladi.

Ilg'or ish tajribalarini o'rganish, umumlashtirish, ommalashtirish bo'limida. Maktabgacha ta`lim soxasi bo'yicha fan yutuklari, amaliyotdagi yutuklar, yangiliklar, ukuv yilida muassasa tarbiyachilari tomonidan ilg'or ish tajribalarini tuman, shaxar, respublika mikyosidagi materiallar, gazeta va jurnallarda nashr etilgan yangiliklar kuyiladi. Pedagogik kabinetda «Bu qiziq», «Maktabgacha ta`lim soxasi ustalari», «Eng yaxshi ish tajribala-bog'cha xayotiga» kabi stendlar tashkil etilib, unda kimning ish tajribasi o'rganilayotgan bo'lsa, shu pedagogning foto surati, ish tajribasidan namunalar, yaratgan yangi metod, usuli yoritiladi.

Pedagoglarning mustaqil ta`lim olishlariga metodik yordam. Biz o'z ustida shug'ullanishning bir yo'li bo'lib, pedagoglarning g'oyaviy-siyosiy, pedagogik-psixologik ishslash rejalarini o'stirishda yordam beradi. Uslubchi va mudira tomonidan ish rejasini tuzish, referat yozish, ma`ruzalar tayyorlash, kalendar ish

rejalarini, mashg'ulotlar ishlanmalarini tuza olish, pedagogik ish jarayonlarini rejalashtirish kabi metodik ishlarni o'rghanish egallaydi.

Metodik adabiyotlar taxlili. Xar bir o'rGANILAYOTGAN adabiyotga qisqacha annotatsiya yozish, o'quv-tarbiyaviy jarayonlarda qo'llash yo'llarini aks ettirish maqsadga muvofiqdir.

Vaqti-vaqt bilan taniqli kunlar uchun ko'rgazmalar tashkil etish. Bunga aniq maslaxatlar, bayram ertaliklari stsenariylari, turli o'yinlar ro'yxati, guruxlarning badiiy jixatdan jixozlanishi bo'yicha yo'llanmalar, ko'rsatmalar, turli sovg'a-suvinerlar tayyorlash bo'yicha maslaxatlar, badiiy asarlar ruyxati, xalq og'zaki ijodi namunalari, turli manzarali kartinkalar, yosh tarbiyachilar uchun maslaxatlar burchagi, ta'lim - tarbiyaviy jarayonlarni tashkil etish usul-uslublari to'g'risida metodik tavsiyanomalar o'rIN egallaydi. Metodik ishlarni shunday tashkil etish kerakki, pedagogik kabinet xamma ishlarning markaziga aylansin. Tarbiyachilar metodik kabinetdagi bo'limlardan o'z ishida foydalana olein. Uslubchi kabinet ish soatini belgilaydi, kabinet ishini jonlantirish uchun navbatchilik tashkil etadi. Bu bogcha pedagogik jamoasi uchun o'z ustida ishlashda anik bir yo'ldir. Yosh mutaxassislar bilan ishlarni tashkil etishda mudira kuyidagi yo'llardan foydalanadi:

- yosh tarbiyachilarning ish tajribasi katta, ilg'or tarbiyachilarning mashg'ulotlari va boshqa kun tartibi jarayonlarini kuzatishlari;
- yosh pedagoglar uchun maslaxatlar, tanlangan mavzu bo'yicha seminarlar, ularni qiziqtirgan savollariga javob berish;
- qiyalgan jarayonlarda ularga metodik va amaliy yordam berish;
- shaxsiy namuna ko'rsatish-pedagogik jarayonlarni shaxsan bajarib ko'rsatish;
- seminar va maslaxatlar mavzusi tarbiyachilarning bilim saviyalari va ish faoliyatidan kelib chiqqan xolda tanlanadi. Masalan: turli pedagogik jarayonlarda texnika vositalaridan foydalanish bo'yicha seminar bo'lishi mumkin;
- ta'lim - tarbiyaviy ish rejasini yozish;
- diagnostika kartasini yuritish tartibi;
- monitoring tizimini joriy etish;
- guruxning va tarbiyachining ish xujjatlarini yuritish masalalari;
- guruxdagi burchaklarni metodika jixatdan to'g'ri jixozlash, xatolar bo'yicha maslaxatlar tashkil etish maksadga muvofiqdir.

Butun pedagoglar jamoai ishining muvaffaqiyati har bir tarbiyachining muvaffadiyati yoki muvaffaqiyatsizligiga bog'liq bo'ladi, shuning uchun maktabgacha ta'lim muassasa metodisti barcha guruxlardagi ishlar sifatini va xususiyatini yaxshi bilishi zarur. Eng yaxshi tarbiyachilar tajribasini barchaning mulkiga aylantirish kerak. «Inson yolg'iz holda ma'lum chegaragacha, juda arzimagan darajada rivojlanishi mumkin, keyin uning tajribasi boshqalar tajribasi hisobiga boyib borishi kerak».

Tajribani umumlashtirishda katta tajribaning roli juda katta, chunki tarbiyachilarning ko'zga ko'rINmas kundalik mehnatlaridagi bu ilg'or tajribani aynan u ko'ra bilishi, uni tushunib etishi, yaxshi natijalarga qanday vositalar bilan erishilganligini tahlil qilishi lozim. Tajribani o'rGANISH va umumlashtirish guruxlardagi tarbiyaviy ishlar holatini tizimli tarzda tahlil qilinishini nazarda tutadi. Tajribani o'rGANISHNING asosiy yo'llaridan biri guruxlarga rejali tarzda kirish

va pedagogik jarayon hamda kun tartibi momentlarining turli jihatlarini kuzatishdir. Ana shu kuzatishlar asosida tarbiyachining ishi, bolalarning xatti-harakatlari va xnlma-xil faoliyatlar haqida tasavvur tarkib topadi.

Uslubchining kuzatishlari maxsus daftarida fotoyozuv, tanlab yozish va shu kabilar tarzida qayd etiladi.

Bunda quyidagi jarayonlarga e`tibor berish tavsiya etiladi:

1. Tarbiyachi ishining rejaga ko`ra mazmuni.
2. Ishdagi ijobiy natijalarga qanday erishiladi (tadbirlarni o`tkazish uchun material tanlash, moddiy muxitni uyushtirish, mazkur masalaga doir metodik adabiyotni o`rganish, ishni rejalashtirishdagi aniqlik, bolalar imkoniyatlari va «ular rivojlanishining eng yaqin zonasini o`rganish»; bolalar bilan ishslashning eng samarali metod va usullarini tanlash; tarbiyaviy ish barcha jihatlarining o`zaro aloqasi; mazkur masala bo`yicha tarbiyachining ish tizimi; bolalar bilan ishni tashkil qilish shakllarining xilma - xilligi va hokazo).
3. Tarbiyachiga kuzatishlar yakunlari yuzasidan chiqarilgan xulosalar asosida ishni takomillashtirish bo`yicha tavsiyalar.

Tarbiyachilar ishining eng yaxshi tajribalarini o`rganish va umumlashtirishda tarbiyachilar bilan bolalar, ularni rivojlantirish jarayoni, ta`lim - tarbiya metodlari haqida suhbatlashish katta ahamiyat kasb etadi. Individual suhbatlar tarbiyachining metodik adabiyotni va undagi masalalardan xabardorligini, pedagogika va metodikaning biror bo`limiga qiziqishini aniqlash imkonini boradi, chunki aynan mana shu qiziqish ko`p jihatdan bolalar bilan olib borilayotgan, ishlar darajasini aniqlaydi va eng yaxshi tajribani umumlashtirish imkonini beradi. Suhbatlar ham tarbiyachilar ishidagi kamchiliklarni o`z vaqtida aniqlash va bartaraf etishda yordam beradi.

Bolalar bilan suhbatlashish qiziqrarli material beradi. Ular egallangan bilimlarni tushunish, ularni hayotda qo`llash ko`nikmasini, bolalarning axloqiy rivojlanganlik darajalarini, burch hissini, do`stlik, rostgo`ylik va haqqoniyligini tushunishni, bolalar xatti-xarakatlarini va qiziqishlari motivlarining axloqiy yunalganligi va dokazolarni aniqlash imkonini beradi.

Tarbiyachilar ish tajribasini o`rganishda pedagogik hujjatlar: rejalar, ishlanmalar, kundaliklarni tekshirish va o`rganishning ham ahamiyati kam emas. Bu quyidagilarni: mazkur bo`lim bo`yicha dastur butun o`rganish davrida o`tilgan - o`tilmaganligini, mashg`ulotlar turlarining qanchalik xilma - xilligini, ularning «Uchinchi mingyillikning bolasi dasturi» talablariga muvofiqligini, bolalarning mashg`ulotdan tashqari faoliyatlar mazmunliligi, mashg`ulotning faoliyatning boshqa turlari bilan o`zaro aloqasi kuzatiladi, ishlarni hisobga olish yangi vazifalarni belgilashda qanchalik yordam berishini aniqlash imkonini beradi.

Uslubchi tahlil qilinayotgan jarayonni bolalar bilan olib boriladigan ta`lim - tarbiyaviy ishdan ajratish mumkin emasligini unutmasligi kerak. SHuning uchun agarda nutqni o`stirish va tevarak-atrof bilan tanishtirish mashg`uloti tahlil qilinayotgan bo`lsa, ular faqat o`quv faoliyatining boshqa bo`limlari bilan (tasviriy san`at, konstruktsiyalash) qanday bog`langanligini emas, balki olingan taassurotlar o`yinlar va bolalarning badiiy mustaqil faoliyatlarida qanday aks etishini ham kuzatish muhimdir.

Tarbiyachining mahoratini to'liqroq baholash uchun faqat ma'lum bo'lim bo'yicha mashg'ulotlarni ko'rish yoki faoliyatning bir to'rini kuzatish bilan cheklanish kifoya qilmaydi. Ko'rishda tarbiyachi pedagogik faoliyatining turli jihatlarini qamrab olish o'rinnlidir. Bir kun davomida bir necha kun tartibi momentlarini kuzatish tarbiyachilarning ishini rivojlanishida, ishning turli shakl va metodlarini dialektik o'zaro aloqada hamda o'zaro bog'liqlikda ko'rish imkonini beradi.

Ammo bu uzoq vaqt bo'lagi davomida tarbiyachi ishining ayrim tomonlarini tahlil qilishni istisno etmaydi. Masalan, birinchi ko'ruv tarbiyachining ertalabki vaqt bo'lagidagi ishini kuzatishga bag'ishlanishi mumkin (bolalarni qabul qilish va o'yinlarni uyushtirish, ertalabki gimnastika, yuvinish va ovqatlanish jarayonlarining uyushtirilishi, bu vaqt bo'lagida navbatchilar ishini kuzatish). Ikkinci bor mashg'ulotlarning tashkil etilishini ko'rish mumkin. Uchinchi kirish tarbiyachining sayrlar vaqtidagi ishini o'rganishga bag'ishlanishi mumkin. Tarbiyachining kunning ikkinchi yarmidagi ishini maxsus o'rganishni tashkil etish mumkin.

Tarbiyachi va bolalar faoliyatining turli jihatlarini kuzatish yuzasidan yozuvning taxminiy jadval-jadvalsini keltiramiz. 1-jadvalda G .Lyalina mashg'ulotlari bo'yicha mashg'ulotlar strukturasining yozuvi keltirilgan.

Bolalar samarali faoliyatlarining tahlili ayniqsa boy material berishi mumkin. U tarbiyachi pedagoglik mahoratining darajasini, bolalarni o'qishdagi yutuqlarini, ta'lim - tarbiyaviy ishlar metod va usullarining samaradorligini, uning muntazamliligini aniqlashga yordam beradi.

Tematikaning xilma - xilligi va samarali faoliyatning mazmuni, uni ifodalash vositalari «Bolajon» dasturining bajarilishi (bolalarning texnik malaka va ko'nikmalarni egallaganliklari, ularda tasavvur, ijodiyot, mustaqillik, estetik didlarning rivojlanganligi va hokazo) haqida fikr yuritish imkonni beradi.

Bolalarning ishlari qat'iy tartibda turadi va batartib qilib rasmiylashtiriladi. Mashg'ulotlar mavzusi, dastur mazmuni, bolaning familiyasi va ismi, ish bajarilgan sana qayd etiladi.

SHunday qilib, eng yaxshi pedagogik tajribani umumlashtirish uni oldindan mufassal va har tomonlama o'rganishning yuqorida aytib o'tilgan barcha metodlarining majmuidan foydalanishgina uni ob`ektiv baholash va eng yaxshi tajriba sifatida tavsiya etish imkonini beradi.

Ilg'or pedagogik tajribani o'rganish va umumlashtirish predmeti ayrim tarbiyachilarning ish metod va usullari dam, bolalar muassasalari butun jamoalarining ish tajribasi ham bo'lishi mumkin.

Birorta kichik masala (masalan, syujetli-rolli o'yinlarni, bolalarning mehnat faoliyatlarini uyushtirish va boshqarish masalalari va shu kabi) lar bo'yicha bir qator maktabgacha ta'lim muassasalar misolida o'rganish mumkin.

18.2. Uslubchi tomonidan nazorat qilishning ahamiyati

Nazorat qilish deganda - Davlat nazorati, xalq ta'limi bo'limlari tomonidan rahbarlikning tekshirish shakllariga aytildi.

Bu - Mustaqil Davlatimizning qaror, xukumat, ko'rsatma, yo'l-yo'riqlarini, «Xalq ta`limi to'g'risidagi qonun» asoslarini bajarilishini, xalq ta`limi yoki tashkilotlar tomonidan, maktabgacha ta`lim ahvolini tekshirish, shuningdek, maktabgacha ta`lim bilan bog'liq bo'lgan ariza, imkoniyat, iltimoslarni tekshirishdir. Bu - «Maktabgacha ta`lim to'g'risidagi Nizom», «Maktabgacha ta`lim kontseptsiyasi», «Maktabgacha ta`lim dasturi», «Uchinchi ming yillikning bolasi» davlat dasturlarini bajarilishi ustidan nazoratdir.

Bu - har bir maktabgacha ta`lim muassasi ishidagi kamchiliklarni yo'qotish choralarini ko'ruvchi, pedagogik ta`lim-tarbiya, pedagogik ish sifatini o'stirishda aniq amaliy yordam ko'rsatuvchi tekshirish formasidir.

Nazorat qilish - nazorat qilishning metodologik asosini - O'zbekiston Respublikasining Konstituttsiyasi, «Maktabgacha ta`lim Kontseptsiya»sida ko'rsatib berilgan ilmiy jihatdan asoslangan g'oyalar egallaydi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat xokimiyatining tizimi - Xokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va uni nazorat qiluvchi printsiplariga asoslanadi. Davlat o'z faoliyatini iison va jamiyat farovonligini ko'zlab, ijtimoy adolat va qonuniylik printsiplari asosida amalga oshira borib, xalq ta`limi bo'limlarida nazorat ishlarini amalga oshirishda asosiy negiz bo'lib xizmat qiladi. «Davlat jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishiga g'amxo'rlik qiladi» deyiladi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 42 moddasida.

Nazorat qilishda - qonunlarning ustunligi shuni anglatadiki, bunda barcha joriy konunlar va me`yoriy-huquqiy hujjatlar Konstitutsiya asosida va unga muvofiq bo'lishi talab etiladi. Ulug' bobokalonimiz Amir Temur aytganlaridek: «Qasrda qonun hukmronlik qilsa, shu erda erkinlik bo'ladi». Xalq ta`limi bo'limlarida - nazorat - amalga oshiradi.

Nazoratchi - bu ma`lum sohaga tegishli qonun-qoidalarning to'g'ri bajarilishini nazorat qiluvchi shaxs.

Rahbar faoliyatini baholovchi bosh mezon – uning ishini tashkil qila bilish kobiliyatidir. Rahbar ishini shunday tashkil qilsinki, odamlar «Ha, bu xalq farovonligi yo'lida g'amho'rlik qiluvchi va uni hamma narsadan yuksak quyuvchi rahbar, deya olsin».

Nazorat qilishda - boshqarishni obdon puxta o'ylangan tizimini ishlab chiqish, o'tmishni ma`sulyat bilan tahlil etish - kelajak yo'lini talab borishini, o'tkir muammolarni tortinchoqlik bilan emas, balki ro'yi-rost ochib tashlash kerakligi uqtiriladi.

«Eskicha yondashish, eskicha fikr yuritish zamonini bizlar unutishimiz lozim».

«Bir haqiqatni hammamiz yaxshi anglab olishimiz zarur» - «Yakdillik, iymon va insof, so'z va ish birligi insonparvarlik - biz qurayotgan jamiyatimizning tamal toshlaridan biridir» - deb uqtiradi davlatimiz rahbari, hurmatli Prezidentimiz I.A.Karimov «O'zbekiston iqtisodiy siyosatining ustivor yo'naliishlari» asarida (1992 yil).

Bu vazifalarni to'g'ri, o'z vaqtida amalga oshirish maqsadida xalq ta`limi bo'limlari tomonidan maktabgacha ta`lim muassasalarini nazorat qilishning ahamiyati beqiyosdir.

Nazorat qilishning maqsadi, vazifalari va unga qo'yiladigan talablar.

Nazorat qilishning asosiy maqsadi - «Xalq ta'limi to'g'risida»gi qonun asoslarida, maktabgacha ta`lim ishlarini takomillashtirish, ilmiy fan yutuqlariga suyangan holda zamon talablari darajasidagi maktabgacha ta`lim tizimini tashkil etishdir».

Nazorat qilishning asosiy vazifalari quyidagicha:

- Maktabgacha ta`lim muassasalarini boshqarishda eng yaxshi shakllarini aniqlash va amaliyatga tatbiq etish;
- Maktabgacha ta`limni boshqarish darajasini o'stirish;
- Maktabgacha ta`lim dasturi talabalarini amalga oshirish asosida maktabgacha ta`lim yoshdagি bolalarni har tomonlama rivojlantirishni davlat nazoratidan o'tkazish;
- Maktabgacha ta`lim muassasalari ishini maqsadga muvofiq tekshirish;
- Ularning ishidagi kamchiliklarni yo'qotish choralarini ishlab chiqish va ularga amaliy yordam berish;
- Ishdagи ijobiy tomonlarni o'rghanish, umumlashtirish, ommalashtirish, rag'batlantirish;
- Rahbarning xodimlar bilan ishslash malakalarini o'stirishda nazorat ishlarini tashkil etish;
- Maktabgacha ta`lim xodimlariga ta`lim-tarbiya ishini yanada rivojlantirishda metodik yordam ko'rsatishdan iboratdir.

Xalq ta`limi Vazirligining Maktabgacha ta`lim boshqarmasi o'z qaramog'идаги avtonom, viloyat va ularning joylaridagi bo'limlarini, pedagogik bilim yurtlarini, maktabgacha ta`lim muassasalarini nazorat qilish huquqiga egadir.

Xalq ta`limi bo'limlari va maktabgacha ta`lim muassasalarini nazorat qilish ilmiylik, hayot bilan bog'liq printsiplari asosida amalga oshiriladi. Aniqlangan kamchiliklarni tuzatish bo'yicha amaliy yordam ko'rsatish hamda uning bajarilishini doimo tekshirib turish bilan yakunlanadi.

Nazorat qilishning samaradorligiga erishishning muhim talabalaridan:

- a) Tekshirishning rejali bo'lishi va sistemaliligi.
- b) Ish axvolini analiz qilishning har tomonlama va ilmiy-pedagogik chuqurliligi.
- v) Ishlarga baho berishning xolisligi va xulosalarning isbotlanganligi.
- g) Tekshirishni o'z vaqtida boshlash va tugatish.
- d) Takliflarning bajarilishini nazorat qilish.
- e) Nazoratni yordam berish bilan qo'shib olib borish.
- yo) Har qaysi masalaga alohida yondashish (farq qilmoq).
- j) Talabchanlik bilan pedagogik taktni qo'shib olib borish.

Tekshiruvchi shaxs shuni unutmasligi kerakki, tekshiruvchi - nazoratchiman deb mag'rurmasligi, tekshiruvchi - rahbar xodimlarga qo'pol, qattiqqa'l muomalada bo'lib, uning shaxsiyatiga tegmasligi; tekshirish natijasida topilgan kamchiliklarni hamkorlik printsipida hal etish; eng muhimi, mehnat kollektivlarida ish olib boradigan xalq nazoratchilarining keng tarmog'iga tayanadigan bunday

nazorat tizimi jamiyatining salbiy Hodisalaridan musaffo qiladigan chinakam qudratli kuch bo'lishini ta'minlaydi.

Nazorat qilishini tizimli o'tkazish uchun maktabgacha ta'lim muassasalari uchun nazoratchi tomonidan 5 yilga mo'ljallangan istiqbol reja tuzilib, shahar yoki tuman xalq ta`limi mudiri tomonidan tasdiqlanadi. Bunda tekshirish muddati aniq ko'rsatiladi.

Asosan, nazorat qilishda turli, maxsus ahamiyatga molik bo'lgan muassasalar (aqliy jihatdan, jismoniy jihatdan zaif, kamchiligi bo'lgan, nutqida kamchiligi bo'lgan, logopedik), sanatoriya tipidagi maktabgacha ta'lim muassasalarini tekshirilib, nazorat qilish maqsadi shu turiga qarab belgilanadi.

18.3. Uslubchi tomonidan nazorat qilishning usul va uslublari.

Uslubchi tomonidan ta`lim-tarbiyaviy va boshqa jarayonlarni nazorat qilishda quyidagi usul va uslublardan foydalananadi:

- Bolalar hayotini uyuştirish mashg'ulotlari, kun tartibining turli jarayonlarini kuzatish va tahlil;
- Tarbiyachining ish hujjatlarni o'rganish va tahlil qilish;
- Bolalar ishlarini o'rganish va tahlil qilish;
- Tarbiyachilar, bolalar bilan (ularning bilimi, dastur talablarini o'zlashtirish bo'yicha suhbatlar o'tkazish) suhbatlashish;
- Ota-onalar kengashlarida ishtiroy etish va tarbiyachi ishini tahlil qilish;
- Guruxning jihozlanishini nazoratdan o'tkazish.

Bu usul, uslublarni qo'llash - nazorat qilish turiga, qaysi guruhda tarbiyaviy jarayonning qaysi qismi yoki muassasa moliyaviy-xo'jalik ishlarining qaysi tomonlari tekshirishga, nazoratchining mutaxasisligi va ish tajribasiga bog'liqdir.

Bu ko'p qirrali usularni qo'llash - maktabgacha ta'lim ishini har tamonlama o'rganishda g'oyat ahamiyatlidir.

Kuzatish usuli - bu pedagogik jarayondagi yutuq va kamchiliklarni, ishdagi qiyinchiliklarni yo'qotish va ta`lim - tarbiyaviy ish sifatini o'stirishni ta'minlaydi.

Kuzatish - pedagogik jarayonini, metodik va moliyaviy-xo'jalik faoliyatining ahvoliga to'g'ri baho beradi va kerakli xulosalar chiqaradi.

Frontal - yangi tekshirish turida bu usul kun davomida tekshirilayotgan pedagogik jarayonni o'z ichiga oladi, bunda: rejali, ta`lim - tarbiya ish mazmunini va turli tarbiya ishini muvofiqlashganligi, maishiy hayotda bolalar hayotini va tarbiyasini tashkil etish, o'quv-tarbiya usul va uslublarini tashkil etish, bolalarning o'yini, mehnati faoliyatlarini kuzatiladi.

Tematic nazorat turida esa - kuzatish usuli tanlangan temaga va uning xarakteriga bog'liqdir. Agar ahvoli kuzatilayotgan bo'lsa, unda tekshiruvchi mashg'ulotlarini chuqur kuzatadi, uning dastur mazmuniga, tuzilishiga, metodikasiga chuqur ahamiyat beradi.

O'yin jarayonini kuzatayotganda - diqqatni o'yin turiga, o'yin uchun sharoit, bolalarning munosabatlari va tarbiyachining o'yinga rahbarligiga qaratadi.

Pedagogik ishlarni kuzatishdan aniq, yaqqol tushuncha hosil qilmasa qo'shimcha yoki takroriy kuzatish o'tkazish kerak.

Kuzatishda - kuzatilayotgan jarayonining, kun tartibi jarayonlardagi aniqlilik, kun tartibining buzilishi, bolalarning bilim darajasini, ularning axloq me`yorlari, tarbiyachining dastur talabalarini va metodikani egallaganligi na boshqalarga ahamiyat berish kerak.

Kuzatish - jarayonida shu narsa ayon bo'ladiki, tarbiyachining etarli darajadagi mutaxassisligi, bu kuzatilayotgan kunda tarbiyachining tayyorgarligi, uning ishdagi tajribasi sayozligi, bolalar jamoaini tashkil eta olmasligi, uning o'ta hayajonlanishi, tormozlanib qolish namoyon bo'ladi.

Moliyaviy xo'jalik ishdagi kamchiliklar mudiraning tartibsiz, pala-partish ish yuritishdan xam kelib chiqish mumkin.

Tahlil qilish - tarbiyachi va mudiraga qanday yordam berish va ulardan qanday qilib talab qilish kerakligini belgilab beradi.

Kuzatish turlicha harakterga ega bo'lib, uslubchi bu jarayonlarni amalga oshirish uchun tekshirish reja-jadvalini tuzadi.

R E J A :

Har bir, ayniqsa yosh uslubchilar uchun bunday kuzatish jadvalsini tuzib ishlash - bu jarayonni puxta, mazmunli, har tomonlama keng olib borishini ta'minlaydi. Bunday kuzatish jadvalsini yo'qligi tekshirishning yuzaki, mazmunsiz, ishlarga nisbatan baho berishda yuzakichilikka olib keladi. Oldindan o'ylangan rejali kuzatish - muassasadagi ilg'or ish tajribalarini o'rganadi, umumlashtiradi va boshqa muassasalarga tashviqot qqladi. Kuzatishda tarbiyachi yoki mudira tomonidan xato, kamchilik qilinayotgan bo'lsa nazoratchi alohida individual kuzatishdan so'ng, ularning shaxsiyatlariga tegmasdan, shoshilmasdan, tinch holatda kamchiliklarni oldini olish choralarini ko'rsatib, tushuntirib berishi, metodik yordam ko'rsatish kerak. Agar kuzatish jarayonida bolalar sog'ligi va hayotiga xavf soluvchi xato kamchiliklar bo'lsa, u vaqtida nazoratchi aralashuviga sabab bo'ladi. Kuzatish jarayonida kuzatish daftariga yozib boriladi (Jadvalga qarab tushuntirish).

Kuzatishni yana ham mukammalroq izoxlash maksadida quyidagi usullardan foydalaniladi:

1. Ish hujjatlarini o'rganish;
2. Bolalar sog'ligini izoxlovchi materiallar;
3. Ta`lim - tarbiyaviy ish rejalarini o'rganish;
4. Tarbiyachilarining kundalik daftarlarini (ilk yosh guruhlari);
5. Bolalar ishlarini tahlil qilish;
6. Pedagogik kengash, ishlab chiqarish, ota-onalar majlislarining qarorlarini o'rganish;

Bular muassasa haqida to'laroq tushuncha berish mumkin. Buning uchun nazoratchi - mudira, shifokor (meditsina tibbiyot xamshirasi) va tarbiyachilarga tegishli ish hujjatlarini tayyorlashlarini ogohlantiradi. Pedagogik ish hujjatlarini o'rganishda, tarbiyachi tomonidan "Maktabgacha ta`lim dasturi" talabalarini bajarilishi, didaktik printsiplardan foydalanishi, dasto'rning asta-sekinlik bilan murakkablashtirib olib borilishi namoyon bo'ladi.

Tarbiyachilarning kundalik daftarlardan bolalarning o'cish suratlari, ularning qiziqishlari, dastur talabalarini egallash jarayonlarini bilish mumkin.

Bolalar sog'ligini izoxlovchi materiallar - patronaj daftari, kundalik davomat, shakl № 63 ni tibbiyat xamshirasidan aniqlash mumkin. Shuningdek, kasallikni oldin olish ishlarini amalgaga oshiruvchi omillar to'g'risida nazorat ishlarini amalgaga oshiradi. Ta`lim - tarbiya ish rejalarini dasturiga asoslanib haftalik ish rejalarining sifatli tuzilganligini, mashg'ulotlar jadvali, kvartal, istiqbol, haftalik ish rejalarining sifati, dastur maqsadini sermazmunligini, kun tartibi jarayonlarda o'zbek xalq milliy o'yinlarini, urf-odatlarni, «Odobnama»ning mazmundorligi, bolalarning dunyoqarashlarni o'stiruvchi omillarni yoritilishi bolalarning nutq madaniyati o'sishda individual ishslash, ota-onalar bilan individual ishlarining mavzularining boyligi bolalarning ijodiy barkamollahuvida tarbiyachining roli alohida kuzatiladi, o'r ganiladi.

Pedagogik va ota-onalar kengashlarining qarorlarini o'rganish esa yillik rejadagi asosiy masalalarini, o'r ganilayotgan masalalarining dolzarbligi, ota-onalarining qiziqishlaridan habardor qiladi.

Suhbat usuli metodi - kuzatish jarayonidagi hujjatlarni o'rganishdagi tushunarsiz bo'lган jarayonlarni aniqlash maqsadida o'tkaziladi. Suhbat mazmuni va uning harakteri turlicha bo'lishi mumkin.

1. Guruhdagи bir kunlik pedagogik jarayonini kuzatish bo'yicha tarbiyachi bilan suhbat - muhokama o'tkazish;

2. Kuzatish natijalarini tahlil qilish (suhbat-tahlil).

Suhbatlar tarbiyachining tarbiya jarayonlarida qo'llagan usullari haqida ham bo'lishi mumkin. Kuzatish jarayoni tugagandan so'ng o'tkaziladigan suhbatda mudira yoki uslubchi ishtirokida tarbiyachi ishiga baho beriladi. Ishdagи yutuq va kamchiliklarga ob`ektivlik bilan yondoshish kerak, bunda nazoratchi avval - tarbiyachini o'z ishi haqida tushuncha berib, ishiga baho beradi, pedagogik ish jarayonidagi yangilik yarata olish yo'llarini ko'rsatib beradi. Mudira bilan suhbatda - muassasaning moliyaviy-xo'jalik, tashkiliy-pedagogik, metodik, xodimlar bilan ishslash masalalari bo'yicha o'tkaziladi.

Muassasa vrachi yoki tibbiyat xamshirasi bilan bo'ladigan suhbat orqali bolalar sog'ligi, kasalliklarni oldini olish ishlarini o'tkazilishi hahida, vrachning ish rejasi bo'yicha suhbat o'tkaziladi.

Ota-onalar va qo'mita raislari bilan suhbat chog'ida, ularning istak-takliflari, talablari, ularning muassasaga ko'rsatayotgan yordami, maktabgacha ta`lim muassasasining oilada bolalarni tarbiyalashga qo'shayotgan hissalari haqida bo'lishi mumkin.

Bolalar ishlarini tahlil qilish - guruhning va faol bolalarning har tomonlama o'z ishi, bolalarning bilim, ko'nikma va malakalarini etarligini aniqlovchi omildir.

Bolalar ishlarini saqlash, bolalarning ehtiyojkorligini aniqlash g'oyat katta ahamiyatga egadir. Bolalar ishlarini tahlil qilishda ishlarining soni, mazmuni, takrorlanmasligi, dastur talablariga javob berishi muhimdir.

Bu jarayonni o'tkazishda guruh tarbiyachisining ishtiroki darkor.

Uslubchi shaxs kuzatishda tarbiyachiga turli maslahatlar berib boradi. Masalan: qurish-yasash, qo'l mehnati, tasviriy faoliyat.

Yuqoridagi usullardan foydalanib uslubchi muassasa ishini atroflicha, chuqr o'rganib chiqishini ta'minlaydi.

Guruh tarbiyachisining ishini avval tarbiyachisining o'zi bilan muhokama qilinadi keyin pedagogik kengash ishiga olib chiqiladi. Yutuq va kamchiliklar, taklif va mulohazalar ochiqchasiga - oshkora holda tushuntiriladi. Kerakli yo'llanma, ko'rsatma va metodik yordam o'z vaqtida ko'rsatiladi.

Bolalarning bilim-saviyalarini, ko'nikma va malakalari bilish maqsadida guruhda savol-javob, anketa savollariga javob olish usulini ham o'tkazish muhim ahamiyatga egadir. Bu jarayon kvartallar orasidagi o'tgan vaqtida dastur talablarini bajarilganligi va tarbiyachining qay tarzda etkaza olganligi, bolalarning bilim doirasi, dunyoqarashi, ijodiy o'sishi, kabi bo'lган murakkab psixologik-ruxiy rivojlanishi uchun eng muxim omil bo'lib xizmat qiladi.

Anketa savollari turli mavzuda - masalan jonajon O'zbekistonimiz, undagi tarixiy joylari, shahar, viloyat, tumanlarning nomlari - tarixiy atamalarining mazmuni, o'rni, ulug' bobokolonlarimiz - Amir Temur, Mirzo Ulugbek, Bobur, Abdulla Qodiriyning bebaho durdona asarlari, ular bilan yaqindan tanishtirish maqsadida ham o'tkazishi mumkin.

Bu jarayonda guruh bolalariga va tarbiyachi ishiga baho berish mumkin.

Shu yo'sindagi anketa savollarini tarbiyachi, uslubchi va mudiraning bilim saviyasi, g'oyaviy-siyosiy etukligini, o'z mutaxassisligi bo'yicha bilim va malakasini aniqlash maqsadida ham o'tkazish mumkin.

Muassasada tarbiyachi bolalarni tarbiyalash va o'qitish bo'yicha qo'llanmalarni va metodikani erkin tanlash huquqiga ega (Maktabgacha ta'lim to'g'risidagi Nizom) deyiladi.

Maktabgacha ta'lim muassasasi o'z pedagogik faoliyatidagi printsiplarga og'ishmay amal qiladi:

- bola shaxsiga hurmat bilan munosabatda bo'lish asosiga quriladigan butun pedagogik jarayon insoniylik yo'nalichlari bilan sug'orilgan bo'lish;

- psixologik-pedagogik fikr va aralash fanlarning zamonaviy yutuqlariga mo'ljalangan o'z-o'zini rivojlantrishga zo'r berish.

Uslugchi - yuqorida bayon etilgan printsiplarni muassasada amalga oshirishini nazorat qilish va bajarishini tekshirish, qabul qilingan avvalgi qarorlarni ijrosini ko'rish maqsadida «Pedagogik kengash» ishiga qatnashadi. Maktabgacha ta'lim muassasasida bolalarning hayotiy, jismoniy va ruxiy sog'lomligi uchun, har bir bolaning yoshi va shaxsiy xususiyatlariga mos keluvchi emotSIONAL va to'laqonli rivojlanishi, bolalarni tarbiyalash va ta'lim berishning tanlangan tizimi samaradorligi uchun yaratilgan shart-sharoitlarni yaratishda, tarbiyaviy jarayonni psixologik ta'minlash ruxshinos yoki psixologik xizmatini yaratishni tashkil etish ishida metodik yordam ko'rsatadi.

Maktabgacha ta'lim muassasasida rahbar xodimlar va tarbiyachilarining pedagogik metodlar va usullarni mustaqil ishlab chiqishi va ulardan o'z pedagogik faoliyatida foydalanish imkoniyatlarini yaratib berish yo'li bilan ularning pedagogik ijodiyotiga bo'lgan huquqini ta'minlaydi.

Muassasada bo'ladigan ishlab chiqarish majlislariga qatnashib - muassasasining mehnat jamoasi xalqchillik asosida o'z-o'zini boshqarish

printsipliga muvofiq, uning faoliyati bilan bog'liq bo'lган barcha masalalar hal etilishi, bo'larning davlat va jamiyat manfaatlariga rioya qilingan holda bo'lishini nazora qiladi.

«Ijtimoiy maktabgacha ta`lim tizimi oilaviy tarbiyadan uzilib qolmasligi kerak, balki u bilan chambarchas bog'liq holdagini bolaga yordam berish mumkin». «Barcha ma`naviy qadriyatlar oilada tarkib topadi. Zero, oila doimo etnik xususiyatlarga taalluqli va etnopsixologik xususiyatlarga ega bo'ladi. Oila bola tarbiyasiga katta ta`sir ko`rsatadi» deyiladi. «Maktabgacha ta`lim kontseptsiyasi»da.

Uslubchi yuqorida bayon qilingan vazifalarin xal etish maqsadida, umumiy va guruh ota-onalar majlislariga qatnashib, bola tarbiyasi bo'yicha eng muammoli masalalarni hal etilishini kuzatadi va ilmiy asoslangan yordamni amalga oshiradi. Ota-onalarni muassasa ishiga ko'proq jalb etish maqsadida «Jamiyatimizda oilaning tutgan o'rni», O'zbekistan Respublikasi Konstitutsiyasi qonunlarida hamda oila va bola tarbiyasida davlatimiz tomonimizdan g'amxo'rlik asoslarini keng yoritib berish kerak. Bu esa muassasa ishini jonlashtirishda o'zining ijobiy tomonini ko`rsatadi.

Keng jamoatchilik bilan muassasa to'g'risida uning ishiga jamoatchilik tomonidan ko`rsatilayotgan amaliy yordam to'g'risida suhbat tashkil etadi.

Uslubchi yuqorida ko`rsatib o'tilgan usul va metodlardan foydalanib, muassasani frontal va tematik tekshirishni amalga oshiradi.

18.4. Ta`lim - tarbiyaviy ishlarni nazorat qilish.

Amalda nazorat qilishning asosiy turlari frontal va tematik tekshirish turlaridan foydalaniladi

Frontal tekshirishi - bu maktabgacha ta`lim muassasasi ishini hayotiy har tomonlama, atroficha tekshirish shaklsidir. Ya`ni, muassasaning kadrlar sostavi, maktabgacha ta`lim dastursi talablarini bajarilishi, mudira va uslubchining ta`lim - tarbiyavny va metodik, moliyaviy-xo'jalik ishlariga, ularning kadrlar bilan ishlashi, ota-onalar va jamoatchilik bilan ish faoliyati, ish shakllari, meditsina xizmati, muktab bilan aloqa, ilg'or ish tajribalarini o'rganish, umumlashtirish va ommalashtirish ishlarini amalga oshiruvchi tekshirish turidir.

Frontal tekshirishga barcha tipdag'i maktabgacha ta`lim muassasalari, ularning kuchli yoki kuchsizligidan qat'i nazar tekshiriladi. Kuchsiz muassasalarga ahamiyatni ko'proq jalb qilishi lozimdir.

Frontal tekshirish 4 yilda bir marta xalq talimi bo'limlari (viloyat XTB, shahar, tuman XTB) tomonidan o'tkaziladi.

Frontal tekshirish o'tkazishda avval to'la-to'kis tuzilgan, tasdiqlangan tekshirish reja, unda nazarotdag'i asosiy masalalar, savollar aniq yoziladi, tekshirish metodi, tekshiruvchilarining ish vazifalari, majburiyatları va tekshirish muddati ko`rsatiladi.

So'ngra nazoratchi yana bir bor maktabgacha ta`lim bo'yicha chiqarilgan qaror, ko`rsatma, buyruqlarni, pedagogik va metodik jurnallarini eng oxirgi yangi sonlarini ko'zdan kechirib, maktabgacha ta`lim dastursi talablarini yaxshilab uqib

oladi, shu muassasa hujjatlari bilan tanishadi. Bu ish uchun u bu muassasada xalq xo'jaligi rejasi, bolalarning muassasaga qatnash rejasingin bajarilishi tahlil qilinadi. Kadrlar, ularning tuman, shahar metodik ishlaridagi qatnashuvlari, malaka oshirish ishlarini qarab, o'rganib chiqadi.

Muassasani kuchli yoki kuchsiz tomonlarini bilishda avvalgi tekshirish materiallari yaxshi o'rganib chiqiladi, kamchiliklarni yo'qotish bo'yicha qabul qilingan qarorlarni qanday bajarilganligi aniqlanadi.

Yuqoridagi materiallar bilan tanishishda nazoratchi nimalarga ko'proq axamiyat berish kerakligini belgilab beradi.

Tumanlarni nazrot qilishda, albatta, shu tuman selkengash, partiya organlari bilan, korxona va tashkilotlarga qarashli bo'lgan maktabgacha ta'lim muassasalar bilan aloqa o'rnatiladi.

Nazorat qilishni albatta mudiraning ishtirok bilan o'tkazish kerak, tashkilotlarga qarashli maktabgacha ta'lim muassasalarda esa shu korxonaning vakili qatnashadi.

Frontal tekshirish olib borishning asosiy yo'llari. Frontal tekshirish nazoratchi va brigada a`zolarining mudiri bilan suhbatlashishidan boshlanib, tekshirish maqsadi, brigada ishi, tartibi, vaqt bilan tanishtiriladi. So'ngra mudira muassasa haqida, nechta guruhdan iboratligi, nechanchi yili ochilgan, bolalarning guruhlarga taqsimlanishi, bolalarning kundalik davomati, maktabgacha ta'lim muassasasining texnikaviy materiallar bilan jihozlanishi, uning bazasi, kadrlar sostavi (pedagogik va xizmat ko'rsatuvchi) xodimlar bilan, ularning ta'lim - tarbiyaviy ishlariga baho berib, xodimlarning g'oyaviy-siyosiy va ishslash malakalari, muassasada mehnat va ishlab chiqarish intizoming ahvoli, jamoaining yutuq va kamchiligi, kamchiliklar o'sishdan ko'rileyotgan tadbir-choralar xususida, tuman xalq ta'limi bo'limi va boshqa tashkilotlardan iltimoslar so'raydi.

Bu suhbat maktabgacha ta'lim muassasasi to'g'risidagi tekshirish ishiga dastlabki ta'sirot beradi. So'ngra nazoratchi turli bo'limlar bo'yicha tekshirishi, o'rganish ishlarini boshlaydi. Quyidagi tekshirishdagi asosiy savollarni keltiramiz.

I. Maktabgacha ta'lim muassasadagi ta'lim - tarbiyaviy ishlarining ahvoli va «Maktabgacha ta'lim muassasasisida ta'lim - tarbiya dastursi» talablarining bajarilishi, bolalarning ko'nikma va malakalari, bolalar bilimining sifati, tarbiyachining ishslash metodlari»;

II. Kadrlarni tanlash, joy-joyiga qo'yish, kadrlarni tarbiyalash, ishslash malakalarini oshirish omillari. Muassasadagi metodik ishlar, metod kabinet faoliyati;

III. Tashkiliy-pedagogik va moliyaviy-xo'jalik ishlarning ahvoli. Xalq xo'jalik rejalarining bajarilishi, yo'llanmalar soni, bolalarning davomati (bolalarning maktabgacha ta'lim muassasasiga qatnashi) ishslashning bajaralishi;

IV. Bolalarga meditsina tomonidap xizmat ko'rsatish sifati. Bolalar ovqatlanishining ratsional ravishda tashkil etishi;

V. Ota-onalarning pedagogik, ta'lim - tarbiya ishlari;

VI. Mudiraning maktabgacha ta'lim mussasiga rahbarligi, rahbarlik uslubi. Mudira va katta tarbiyachi tomonidan ta'lim - tarbiyaviy ishlarga, dastur talablarining bajarilishiga, ularning nazoratligi tekshirish;

VII. Muassasining moddiy-texnika bazasining axvoli, xo'jalik faoliyati, harajatlarni to'g'ri sarflash ishlari;

VIII. Ta`lim - tarbiyaviy ish rejalarining sifatliligi. Rejalarining bajarilishi, pedagogik kengash, ishlab chiqarish majlislarini, ota-onalar yig'ilishlarini, xalq ta`limi bo'limlari tomonidan chiqarilgan, instruktsiya va buyruqlarning bajarilishi o'sishdan nazoratni tashkil etishi;

IX. Muassasada ishlab chiqarish masalalarini yo'lga qo'yilishi, hujjatlar, ularning to'g'ri jihozlashishi va saqlanishi;

X. Nazoratchining tekshirish bo'yicha xulosalari va takliflari. Yakuniy pedagogik kengashni o'tkazilishi;

Frontal nazorat qilishning yakuni tekshirish maqsadiga va vazifasiga bog'liqdir.

Nazoratchi pedagogik yoki ishlab chiqarish majlislari o'tkazib, tekshirilgan masalalar, maktabgacha ta`lim muassasining ahvoli, ishlarni yanada yaxshilash uchun taklif va muloxazalar beriladi.

Nazoratlash natijasini akt bilan izohlanadi va ma'lumotnomaga tuzilib, unda aniq takliflar, mulohazalar, ko'rsatiladi. Akt 3 nusxada tuzilib, biri tuman, shahar xalq ta`limi bo'limiga, biri maktabgacha ta`lim muassasasiga beriladi, biri talabalarning ish hujjatlari hisoblanadi.

Tematic tekshirish - bu tarbiyaning biror qismi yoki ta`lim - tarbiya ishning bir qismi bo'linishi nazorat qilish shaklsidir.

Masalan: «Mehnat tarbiyasi», «Axloqiy tarbiya», «Maktab bilan aloqa», «O'yin» xodimlarning mehnati va hokazo.

Asosan bu tekshirish turi 1 yilda bir marotaba o'tkaziladi. Tekshirish yo'llari va savollari quyilagicha (mehnat tarbiyasi bo'yicha):

1. Guruh rejalarini uzoq muddatini hamrot olgan holda tekshirish (kvartal, yarim yillik). Maqsad: bajarilgan va bajariladigan ishlarni aniqlash;
2. Mashg'ulotlarni kuzatish va tahlil qilishi; bolalar mehnatning eng muhim tomonlarini ko'ra olish;
3. Kundalik hayotdagi mehnat billi ta`minlash va tahlil qilish;
4. Kattalar va bolalarning birgalikdagi mehnatlarini kuzatish;
5. Bolalarning kattalar mehnatiga munosabatlari, axloq malakalarini kuzatish;
6. Bolalar o'yinlarida mehnatni aks ettiruvchi jarayonlarni kuzatish;
7. Bolalar bilan individual suhbatlashish;
8. Bolalar ishlarini tahlili, tahlili;
9. Tarbiyachining kundalik yozuvlarini ko'rish;
10. Guruhdagi o'quv materiallari, tekshirishi.

Nazoratchi guruh rejalarini (3-6 oylik) tekshirib, unda ko'zda tutilgan tarbiya maqsadlarini amalga oshirish yo'llarini qidiradi, osondan murakablikka, oylik, perspektiv ish rejalarida tarbiyaning hamma qismlari rejalashtirilganligi, qaysi bo'lim rejadani tushurib qoldirilganligi, ularni yuzaga keltirgan sabablarini qidirib topishi kerak.

Rejani tahlil qilishdan maqsad - dastur talablarini bajarish yo'llari, haftalik rejadagi mashg'ulotlarning turlari, ishi, talab darajasida ekanligi,

mustahkamlovchi, yangi bilim beruvchi mashg'ulot turlarining oddiydan murakkablashib borishini ko'rish mumkin.

Aniqlangan kamchiliklar o'z vaqtida muhokama qilinishi kerak, aks holda bu kamchilik xatolar keyngi oylarda takrorlanmasin.

Mehnat bo'limini tekshirishda ko'rgazmalilik, kattalarining faoliyati, mehnat jarayonini kuzatishda bir qator mashg'ulotlarni kuzatish. Masalan: ekskursiya sifatida, kuzatishda, suratlarni ko'rishda katta ahamiyat berish mumkin.

Ekskursiya jarayonida - tarbiyachilik bolalarda qiziqish tuyg'ularini uyg'ota olishga, bolalarni asosiy narsani ko'ra olishga, kuzata olishga, tanish bo'lgan voqeя va xodisalarni solishtira olish malakalarini o'stirish, ko'rganlariga yakun yasay olish, fikrlash qobilatlarini o'stirishni tarbiyalash.

Uslubchi quyidagi nazorat turlaridan foydalanadi:

- 1) birlamchi;
- 2) ikkilamchi;
- 3) katta tekshiruv;
- 4) ogohlantiruvchi tekshiruv turlari mavjud.

Kuzatish jadvali quyidagicha:

1. Kuzatilgan jarayon.
2. Kuzatilayotgan kun, yil, oy.
3. Ish mazmuni.
4. Tayorgarlik.
5. Bolalarning bilim, ko'nikma va malakasi.
6. Tarbiyachining bilim, ko'nikma va malakasi.
7. Qo'llanilayotgan usul va usublar.
8. Yutug'i.
9. Kamchiligi.
10. Taklif va mulohazalar.

Nazorat savollari:

1. Ilg'or ish tajriba deganda qanday jarayon tushuniladi?
2. Guruxlarda ilg'or pedagogik va ta`lim – tarbiyaviy jarayonlarni aniqlashda uslubchining kasbiy pedagogik mahoratini qanday izohlash mumkin? Misollar keltiring.
3. Uslubchi tomonidan qanday nazorat turlari olib boriladi va bo'lar qaysilar?
4. MTM da ilg'or ish tajribalarni umumlashtirishdagi uslubchining roli va vazifalari.

Testlar:

- 1. Xalq ta`limi tomonidan tematik nazoratlar qaysi muddatda amalga oshiriladi**
- A. 4 yilda
B. 2 yilda

V. 5 yilda
G. 1 yilda

2. Maktabgacha ta`lim bo'yicha nazorat ishlarini tashkil etishning axamiyati

- A. Maktabgacha ta`lim muassasasining ta`lim-tarbiyaviy ishlarini samaradorligini oshiradi
- B. Metodik, ta`lim-tarbiyaviy ishlar sifatini oshirish
- V. Maktabgacha ta`lim xodimlarining mutaxassislik malakasini o'stirish
- G. Davlat talabalarini amalga oshirish

3. Maktabgacha ta`lim tizimida nazorat turlarini aniqlang

- A. Ogoxlantiruvchi, qayta-ikkilamchi, tematik, frontal-yalpi, qiyosiy
- B. Guruxlarga maqsadli kirish, ochiq mashg'ulotlar tashkil etish
- V. Kundalik nazorat, tematik nazorat, qiyosiy nazorat
- G. Qiyosiy nazorat, ikkilamchi nazorat, yalpi-frontal nazorat

4. Uslubchi tomonidan ta`lim-tarbiyaviy ishlarni tashkil etishni nazaroat qilish yo'llari bu...

- A. Ochiq mashg'ulotlar jamoa tarzda kuzatish va tahlil qilish, kundalik nazorat, ish rejalarini ko'rib, tahlil qilish, baholash
- B. Ochiq tadbirlar tashkil etish, metodik birlashma ishlariga qatnashish
- V. Guruxlarga maqsadli kirish, mashg'ulotlarni kuzatish va tahlil qilish
- G. Ogohlantirish, suxbatlashish, davra suxbati

5. Uslubchining boshqaruv faoliyatni izohlash

- A. Ishlarni muvofiqlashtirish qaramog'idagi M.T.M.larga metodik yordam ko'rsatish
- B. Reja asosida tekshiruv turlarni o'tkazish
- V. Tematik va frontal-yalpi tekshiruv faoliyati
- G. Axborotlarni to'plash, tahlil qilish

Adabiyotlar:

1. I.A. Karimov "Yuksak ma`naviyat engilmas kuch". Toshkent "Ma`naviyat" 2008 y.
2. Otamurodov S va boshqalar. "Ma`naviyat asoslari". Toshkent 2002 y.
3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent 1992 y
4. Ta`lim to'g'risidagi qonun. Toshkent 1997 y.
5. Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi. Toshkent. 1997 y.
6. B.Ziyomuhamedov, Sh.Abdullaeva "Pedagogika" "O'zbekiston Milliy entsiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti". T.: 2000 y.
7. O.U.Xasanboeva, M.X. Tadjieva, Sh.K.Tashpulatova va boshqalar "Maktabgacha ta`lim pedagogikasi" "Ilm Ziyo". T.: 2006 y.

8. Maktabgacha ta`lim tizimiga doir xuquqiy me`yoriy xujjalat to`plami. “Lider Press” nashriyoti.T.: 2009 y.
9. SH.K.Tashpulatova “Maktabgacha ta`lim muassasalar ishini tashkil etish va boshqarish usullari” TDPU.T.: 2001 y.
- 10.Spravochnik “Rukovoditelya doshkolnogo orazovatelnogo uchrejdeniya” “Ilm Ziyo”. T.: 2006 y.
- 11.Maktabgacha ta`lim muassasasi to`g’risidagi Nizom. Toshkent 2007 y.
- 12.Maktabgacha yoshdagi bolalar ta`lim-tarbiyasiga qo’yiladigan davlat talablari. Toshkent 2008 y.
- 13.A. I.Vasileva, L.A. Baxturina, I.I.Kobitina “Bolalar bog’chasing katta tarbiyachisi” T.: “O’qituvchi”1991 y.
- 14.Maktabgacha ta`lim kontseptsiyasi. Toshkent 2008 y.
- 15.“Uchinchi mingyllikning bolasi” Dasturi. Toshkent 1999 y.

XIX BOB. Maktabgacha ta`lim muassasasi, oila va jamoatchilik.

Reja:

1. Maktabgacha ta`lim muassasasining oila bilan hamkorlik ish shakllari.
2. Maktabgacha ta`lim muassasasining ota-onalar va jamoatchilik bilan ish shakllari.
3. Xalq ta`lim tizimidagi ta`lim muassasalari vasiylik kengashlari to'g'risida Nizomning maqsad va vazifalari.
4. Ota – onalar savodxonligini oshirishda oilaning vazifalari.

Mustaqil ish: Bolalardagi injiqlikni va qaysarlikni bartaraf qilish metodlari mavzusida ma`ruza tayyorlash.

Mavzuning maqsadi: Maktabgacha ta`lim muassasasining oila, jamoatchilik va maktab bilan hamkorlik ishlari to'g'risida tushuncha berish.

Mavzuning vazifalari: Maktabgacha ta`lim muassasasining oila, mакtab va jamoatchilik bilan ish usul va shakllari, ularni amaliyatga tadbiq etish bo'yicha ko'nikma va malakalarni shakllantirish.

19.1. Maktabgacha ta`lim muassasasining oila bilan hamkorlik ish shakllari.

Maktabgacha ta`lim muassasasining oila bilan ish-lash tizimida aniq maqsad, mazmun bo'lishi kerak. Ota-onalar bilan hamkorlik borasida avval erishilgan yutuq va tajribalarning natijalarini tahlil qilib, xilma - xil va o'zaro bog'liq bo'lgan shakl va usullar yordamida rejali va izchil ishlar olib borish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ota-onalar bolalarini birinchi marta maktabgacha ta`lim muassasisiga olib boradigan kun ko'pgina hissiy tuyg'ular bilan bog'liq, SHuning uchun ham har yili avgust oyi-ning ikkinchi yarmida ota-onalar uchun maktabgacha ta`lim muassasasi bo'yicha ekskursiya, uchrashuv hamda umumiy majlislar o'tkazish mumkin. Bunda maktabgacha ta`lim muassasasining kun tartibi, ish mazmuni, ta`lim - tarbiya jarayoni va hokazolar haqida so'zlab beriladi. Tarbiyachilar, enagalar, hamshiralar bilan tanishtiriladi. Maktabgacha ta`lim muassasisining mudirasi, tarbiyachilar va barcha xizmatchilar ota-ona larda yaxshi taassurotlar qoldirishga intiladilar, ota-onalar esa-ularning bolalari o'z kasbini, ishini sevuvchi tarbiyachilar qo'lida bo'lismeni ko'rib qanoat hosil qiladilar.

Bolalarni har kuni kuzatuvchi, ularning rivojlanishida ijobjiy va salbiy tomonlarini sezuvchi va ota-onalarga bolaga ta`sir qilishning eng samarali usullarini maslahat beruvchi tarbiyachilar oila bilan juda ko'p xilma - xil ishlarni olib boradilar. Ayrim tarbiyachilar oila bilan aloqani bolaning maktabgacha ta`lim muassasasidagi davridan boshlab, uning maktabga o'tganiqan keyin ham davom ettiradilar. Maktabgacha ta`lim muassasasining tibbiyot xodimlari esa bolalarning sog'lig'i va jismoniy o'sishining ahvolini muntazam nazorat qilib borishadi. Ota-

onalarga sanitariya va gigiena, bola hayoti, to'g'ri ovqatlanish va jismoniy tarbiyani tashkil etish masalalari bo'yicha maslahatlar berib boriladi.

Maktabgacha ta`lim muassasalarining ota-onalar bnlan ishlashining jamoa tarzida va yakkama-yakka holda ishlash shakllarini mohirlik bilan qo'shib olib borish, keng aholi ommasi orasida pedagogik tashviqot ishlarini tashkil qilish tufayli bolalarni tarbiyalashda ijobiy natijalarga erishish mumkin.

Maktabgacha ta`lim muassasasi xodimlarining ota-onalar va oila bilan hamkorlikdagi ishlarining eng keng tarqalgan shakl va usullaridan bir nechalarini keltiramiz:

a) Ota-onsa va oila bilan yakkama-yakka ishlash.

Ilg'or pedagogik tajribalarning ko'rsatishicha, ishning bu turi katta ahamiyatga ega va kutilgan samaralarni beradi. Bunda tarbiyachi oila va bolaning shaxsiy xususiyatlarini o'rganib, ularni o'zining tarbiyaviy ishida hisobga oladi. Buning natijasida tarbiyachi bi-lan oila o'rtaida do'stlik munosabatlari, o'zaro hurmat va ishonch tezroq o'rnatiladi. Maktabgacha ta`lim muassasalarimiz tajribasida ota-onalar va oila bilan yakkama-yakka olib boriladigan ishlarning turli xil shakllari aniqlangan, ya`ni oilaga tarbiyachining borishi, ota-onalar uchun suhbat o'tkazish, ularga maslahatlar berish, ota-onalarni bolaning maktabgacha ta`lim muassasasidagi hayoti bilan tanishtirish va shu kabilalar.¹

b) Ota-onalar bilan jamoa tarzida tashkil qilinadigan ishlar.

Bo'lar ota-onalarning guruhiy va umumiyligi majlisi, ota-onalar maktabi, anjumanlar, shanbaliklar (bolalar maktabgacha ta`lim muassasasi xodimlarining ota-onalar bilan birgalikdagi amaliy faoliyati), savol va javob kechalari.

v) Ko'rsatmali ishlar.

Ishning bu turi: ko'rgazmalar, fotomontajlar, bolalarning ishlarini namoyish qilish, ochiq eshiklar kuni, pedagogik axborot stendlari (ota-onalar burcha-gi), ota-onalar uchun kutubxona, oilaviy tarbiyaning turli masalalari bo'yicha materiallar solingan papka va shu kabilarni qamrab oladi.

Albatta bu shakllar boshqacha ham bo'lishi mumkin.

Bu ishga ijodiy yondashish maktabgacha ta`lim muassasasi mudirasi, tarbiyachilar hamda ota-onalarning o'zlariga (ayrim hollarda tajribali ota-onalar maslahat berishlari mumkin) ham bog'liqdir.

g) Bolaning oilasini borib ko'rish va oila a'zolari bilan yaqindan tanishish.

d) Ota-onalarga pedagogik ta`lim berish va boshqalarni ko'rsatish mumkin.

Bular orasida bolaning oilasiga borish va oila a'zolari bilan yaqindan tanishish hamma uchun ham oddiygina oson ish hisoblanmaydi.

Ota-onalar va oila bilan hamkorlikda olib boriladigan ish shakllarining ayrimlarini qanday tashkil qilish usullarini ko'rsatishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

1. Tarbiyachining oilani borib ko'rishi.

1. U.Otavalieva "Bola tarbiyasida bog'cha va oila hamkorligi" Toshkent "O'qituvchi" 1994 y. (34-35 betlar)

Bola yashab to'rgan oilani, o'rganish, ota-onalar bilan yaqin aloqa o'rnatish va ularga yordam, maslahatlar berishning samarali yo'llaridan biridir. Tarbiyachi oilaga tekshiruvchi sifatida emas, balki maslahatchi, do'st va bola tarbiyasiga yordam beruvchi shaxs sifatida boradi.

Tarbiyachining oilaga borishidan asosiy maqsadi bola tarbiyalanayotgan sharoitni ko'rish va zarur bo'lsa, ota-onalarga yordam ko'rsatishdir. Shuning uchun tarbiyachi ota-onalarga aytadigan takliflarini sinchiklab o'ylab ko'rishi kerak.

Bolalarni uylariga borib ko'rish ishi ma'lum maqsad asosida tashkil etilganda oilaviy tarbiya bilantanishish, bolaning oiladagi xulqining o'ziga xos xususiyatlarinigina aniqlashdan iborat bo'libgina qolmasdan, balki ota-onalar bilan yakkama-yakka va jamoa tarzida tashkil etiladigan ishlarning mazmunini, ularning turli shakllarini belgilab olishga ham imkoniyat tug'diradi.

Tarbiyachi bolaning oilasida ko'rganlarini qayd qilish bilan bir qatorda, ularni tahlil qiladi, ota-onalar majlislarida oilaviy tarbiyadagi ijobiy va salbiy tomonlar haqida gapiradi. Ularga o'zining qimmatli maslahatlarini beradi. Oila tarbiyasidagi ijobiy ishlarni ota-onalar uchun tashkil etilgan, stendlarda aks ettirish ham mumkin.

Oilani borib ko'rish va ota-onalar bilan suhbatlashish katta pedagogik odob bilan o'tkazilishi kerak. Ota-onalar bilan suhbatda bolaning eng yaxshi tomonlarini ochib berilsa, ota-onalarning tarbiyachiga bo'lgan hurmati va ishonchi ortadi. Ba`zan ota-onalarga ularning bola tarbiyasidagi kamchiliklarini ko'rsatishga to'g'ri keladi. Masalan, bolaga oilada o'rgatilmagani uchun u hamma narsani yoyib, to'zg'itib tashlaydi va o'zi yig'ishtirmasdan unga to'liq xizmat qilishni talab qiladi.

Tarbiyachi bolaning uyida biror mehnat topshirig'i bo'lishini, xo'jalik ishlarida kattalarga yordamlashishini, mustaqillikka o'rgatilishini tavsiya etishi kerak. Ba`zi ota-onalar bola baribir ishni yaxshi bajarmaydi yoki u hali kichkina, oldinda maktabga borganda tashvishi ko'p deb bunga ko'nishmaydi. Bunday ota-onalar bilan yakka holda, alohida ishlarni chidam bilan olib borish maqsadga muvofiq bo'ladi. Eng avvalo ularga bolalar tarbiyasi haqidagi kitobchalarni tavsiya qilish, ko'chma papka materiallari bilan tanishish, guruxda bolaning navbatchilik qilishini ko'rishga, qanday mehnat topshiriqlarini bajarishi, mashq qilishlari, o'yinlarini ko'rishga taklif etish kerak.

Ayrim vaqtida bunday hodisani ham kuzatish mumkin: oilada bolaga ko'p e'tibor beriladi va g'amxo'rlik qilinadi, oilada tartib to'g'ri o'rnatilgan, bolaning ovqatlanishi yaxshi, bolaga hech qanday topshiriq berilmagan. Bola o'z joyini va o'yinchoqlarini o'zi yig'ishtirmaydi, uning bu ishini ota-onasi yoki oilaning katta a'zolari bajaradilar. Tarbiyachi bu holda ota-onalar uyida bolaga alohida joy, burchak ajratishlari kerakligini maslahat beradi, bu tadbir oilada bola hayotining to'g'ri tashkil etilishiga imkon beradn. O'z burchagida bola yashaydi, o'ynaydi, rasmlar chizadi, o'yinchoqlar yasaydi va hokazo.

Oilani birinchi bor borib ko'rish, ayniqsa mas'uliyatlidir. Maktabgacha ta'lim muassasasi bilan oila orasidagi tarbiya bir-birini tushunish, ishonch va ijobiy aloqani o'rnatilishida bu ishning qanday o'tishiga bog'liqdir. Oilaga tashrif buyurishdan avval uning a'zolari, ota-onalarning kasblarini, ularning ish joylarini va hokazolarni ifodalovchi ma'lumotlarni o'zлari aniqlashlari zarur. Agar

tarbiyachi oilaii borib ko'rishdan avval o'zi uchun bolaning rivojlanish va tarbiyalanganlik darajasi xarakteristikasini tuzib olsa, oilani borib ko'rish yanada samarali bo'ladi. Bu holda, ota-onalar bilan aniqlash va muhokama qilishni talab qiluvchi jihatlarini ajratib olish kerak. Birinchi bor borib ko'rish tarbiyachiga oilaning hayot tarzi haqida, oilaviy «vaziyat», bolaning oiladagi tarbiyasi haqida umumiy tasavvur berishi kerak. Keyingi tashriflar tarbiyachiga bola tarbiyasining aniq masalalarini mufassal fahmlab olishga imkon beradi. Oilani takror borib ko'rishda tarbiyachi uning maslahat va takliflari bajarilgan yoki bajarilmagani bilan qiziqadi.

Tarbiyachi do'stlik vaziyatida o'tayotgan suhbat davomida shaxsiy kuzatishlar, ota-onalarga, oilaning boshqa a`zolariga va bolaga berilgan savollar orqali bolani, uning oilasini yana ham yaxshiroq bilib olishga imkon beruvchi o'ziga zarur ma'lumotlarni oladi. Bularning hammasi bola tarbiyasiga ancha samarali ta'sir ko'rsatadi. Bunday tashriflarning natijasi tarbiyachiga bola bilan yakkama-yakka ish olib borish rejasini tuzishga imkon beradi.

Oilalarni borib ko'rib, ularda bola hayoti bilan tanishishda tarbiyachilar ma'lum qoidalarga rioya qilsalar foydadan xoli bo'lmaydi.

Tashrif buyurish haqida ota-onalarni oldindan ogohlantirish kerak, bunda o'zi uchun va oila uchun qulay kun tanlanadi; aytilgan kunda kelysh, oila a`zolarini kutishga majbur qilmaslik va oila rejalarini buzmaslik zarur; suhbat vaqtida hech qanday yozuv olib bormaslik keraq ota-onalar bilan keskin, nasihatgo'ylik ohangida gapirishmaslik zarur, faqat maslahat, tilak, taklif kiritish mumkin; oilani borib ko'rishda olnngan taassurotlarni kalendar rejaning «Tarbiyaviy ishlarni hisobga olish» ustuniga yozib qo'yish lozim.

Tarbiyachi biror bolaning oilasiga borib tanishgani haqida guruhdagi hamma bolalarga gapirib berishi (bordi-yu tarbiyachining rejasidagi shunday bo'lsa), bunday hikoyalarga, masalan, «Qiziqrarli hikoyalalar» deb nom berishi ham mumkin. Bolalar bunday hikoyalarni tinglashni va uning «qahramonlarini» bilib olishni yaxshi ko'rishadi. Bu hikoyalalar bolalarga yaxshi narsani aniqlashga va o'z tengdoshlarining kamchiligiga tanqidiy qarash va o'z-o'ziga tanbeh berish imkoniyatini yaratadi.

Oiladagi suhbatlarning mazmuni bolalarning yoshiga bog'liq. Bolalarning ota-onalari bilan suhbatlashganda mustaqillikni, gigienik ko'nikmalarni tarbiyalash, nutqni o'stirish va hokazolar haqida gap boradi; muktabgacha katta tarbiya yoshidagi bolalarning ota-onalari bilan o'yinni, mehnatni boshqarish, kitoblardan foydalanish, ma`naviy-iroda sifatlarini shakllantirish haqida suhbat o'tkaziladi.

Oilani borib ko'rishning maqsadi va mazmuni tarbiyachining rejasida, hisobida va maxsus kundaligida aks ettirilishi kerak. Oilani yiliga kamida ikki marta borib ko'rish tavsiya etiladi. Oilaga tashrif buyurishlar, anketa ma'lumotlarini tahlil qilish, ijobiy tajribaning umumiy manzarasini va oilaviy tarbiyadagi o'ziga xos qiyinchiliklarni ochib beradi. Bu esa mudiraga va tarbiyachiga turli yoshdagagi guruh ota-onalarining pedagogik madaniyatini oshirishga, tarbiyachilarning ota-onalar bilan olib boradigan ishini ma'lum tizimda yo'naltirishga yordam beradi.

2. Ota-onalar bilan shaxsiy suhbatlar

Oila bilan shaxsan ishlashning eng keng tarqalgan usuli sifatida qo'llanadigan suhbat - bolalarni ertalab qabul qilish va kechqurun jo'natish vaqtida o'tkazilishi mumkin. Ular tarbiyachilar va ota-onalartsing bir-biri bilan yaqinroq tanishishlariga, bir-birlarini bolaning hayoti haqidagi ma'lumotlar bilan xabardor qilishlariga, uning muvaffaqiyatlari va kamchiliklari, hulqi va sog'lig'idagi o'zgarishlarni kuzatishga yordam bsradi.

Ota-onalar bilan shaxsan ishlashning bu shaklini tarbiyachilar ayrim bolalar bilan ishlashda keng foydalanishlari kerak. Chunki bir oila uchun muhim va qiziqarli bo'lgan narsa, boshqa oila uchun umuman kerak bo'lmasligi mumkin. SHuning uchun oilaviy tarbiya shartlarini bilish individual ish mazmunini aniqlashga yordam beradi. Tarbiyachi shu suhbatlarning tashkilotchisi bo'ladi.

Shaxsny suhbatlarni shoshilmasdan, tashqaridan tinglovchilarni jalgilmasdan olib borish hamda unga faqat suhbatdoshnigina jalgilish kerak.

Tarbiyachining ota-onalar bilan ertalab o'tkazadigan suhbatlari qisqa muddatli bo'ladi, lekin bolaning kayfiyatini aniqlab olishda, shuningdek, uning yaqinlarida yaxshi kayfiyat, tarbiyachiga ishonch hissi paydo bo'lishida katta ahamiyatga ega. Ota-onalardan bola kechqurun yoki kechasi qanday kayfiyatda bo'lganini, qanday uxlaganligi, bola o'zini qanday sezishini so'rash foydali. Tarbiyachi ota-onalarga bolalarni bugun guruhda nimalar kutishi haqida qisqacha axborot beradi (biror ekskursiya uyushtirilishi, musiqiy mashg'ulot o'tkazilishi, qo'g'irchoq teatri kelishi va hokazo). Bu narsa bolaning kayfiyatini ko'taradi, ota-onalarni xotirjam qiladi.

Ota-onalar bilan kechki suhbatlar ham vaqt jihatidan cheklangan. Tarbiyachi ulardan ba`zilariga bolaning guruhda kuni qanday o'tgani, u nima bilan mashg'ul bo'lgani, o'zini qanday tutgani, nimaga e'tibor berish kerakligi haqida axborot beradi. Masalan, ota-onalarga ularning bolasi bugun navbatchilikni yaxshi bajargani, unga bayramga she'r yodlab kelish topshirilganligi va shu boisdan unga yordam berish kerakligi xaqida gapiradi. Ota-onalarga bolasi haqida ko'p shikoyat qilaverish ham yaxshi natija bermaydi. Chunki ularning aks ta'siri pedagogik jihatdan asossiz bo'lishi mumkin. Ko'p shikoyat qilish tarbiyachining pedagogik ojizligini anglatadi.

Ota-onalar bilan kechki suhbat vaqtida tarbiyachi bolaning tashqi ko'rinishiga taalluqli kamchiliklar (mavsumga mos kiyim, tor oyoq kiyim, sochi olinmaganligi va hokazo) ayttilishi mumkin. Buni odob bilan, o'z maslahatlarini kichkintoy haqidagi g'amxo'rlik sifatida asoslash kerak.

Bir-birini tushunish sharoitini yaratish uchun suhbat vaqtida ota-onalarga faqat u yoki bu talablarni qo'ymasdan, balki ularni nima tashvishga solishini yoki aksincha, nima xursand qilishini diqqat bilan tinglash kerak. Onda-sonda suhbat o'tkazish mavzui bolaning uydagi va maktabgacha ta'lim muassasasidagi hayoti bilan taqozo qilinadi. Oilaga yanada maqsadga muvofiq ravishda ta'sir ko'rsatish uchun tarbiyachi muntazam suhbatlar o'tkazish rejasini tuzishi mumkin. Bu suhbatlarning mavzui bolalarning xususiyati, xulqiga qarab belgilanadi. Bunday suhbatlar savol-javob, mulohaza va eslatma shaklida do'stona vaziyatda o'tkaziladi. Buning natijasida bolani oilada tarbiyalashni yaxshilashga qaratilgan takliflar va talablar ifodalanishi kerak.

Shaxsiy maslahatlar suhbatga ancha yaqin keladi.

Ota-onalarning bola tarbiyasida yo'l qo'yan biror kamchilik va xatosini tahlil qilish uchun ular bilan yanada mufassal suhbat o'tkazish zarurati tug'ilganda va ularga vaziyatni tuzatish uchun malakali maslahat hamda tavsiya berish kerak bo'lgapda maslahatlar o'tkaziladi.

Maslahatlar ancha tor masalalarni chuqur yoritishga imkon beradi. Ular uchun mavzu tanlash bolalarni kuzatish natijalaryga yoki tarbiya muammolariga qarab belgilanadi. («Bolalarga nimani o'qish va nimapp aytib berish kerak», «Bolalarning savoliga qarab qanday javob berish kerak», «Bayramni qaerda va qay tarzda o'tkazish kerak», «Teleko'rsatuvlarning foyda va zarari» va hokazo.)

Masalan, tarbiyachi bolaning injiqliklari sabab uning oilada noto'g'ri tarbiyalanishi ekaniga ishonch hosil qilib, bolaning otasi yoki onasini «Injiqlik va o'jarliklar, ularning sabablari va engish yo'llari» mavzusidagi maslahatga taklif etadi.

Pedagog maslahatni o'tkazishga oldindan tayyorgarlik ko'radi, zarur adabiyot va ko'rsatmali material tanlaydi, e'lon osib qo'yadi (guruhiy maslahat).

Ota-onalar uchun maslahatlarni tarbiyachi, shifokor, muassasa mudiri, logoped o'tkazadi. Bunda osoyishta, ishchan vaziyatni tashkil etish lozim, shunda ota-onalar maslahat beruvchini diqqat bilan tinglashadi, savollar berishadi, ba`zi maslahatlarni yozib olishadi.

Maslahat o'tkazishda tarbiyachi ham, ota-onsa ham tashabbus ko'rsatishi mumkin. Uning ijobiy natija berishi pedagogning mazkur oilada bola tarbiyasi tizimini bilishiga, maslahat va tavsiyalar qanchalik malakali bo'lishiga bog'liq. Maslahat o'tkazilgandan biroz vaqt o'tgach, tarbiyachi ota-onalar olgan bilimlaridan bolalarini tarbiyalashda qanday foydalanayotganlari bilan qiziqadi.

Ota-onalar bilan ishslash shakliga ota-onalar bilan bo'ladicidan yozishmalarni ham kiritish mumkin. Bu usuldan ba'zp sabablarga ko'ra ota-onsa bilan bevosita muloqot qiyinlashganda (bolalar dala hovliga yoki sanatoriya ketganda, ota-onalar dam olishga yoki xizmat safariga ketganda va hokazo) amalga oshiriladi. Tarbiyachi o'z xatlarida ota-onalarga bolaning sog'lig'i, uning o'sishi va xulqi, tarbiyadagi yutuq va kamchiliklar haqida yozadi, ota-onalarni qiziqtirgan savollarga javob beradi. Oila bilan aloqa qilishning bu shakli bolalar bilan tarbiyaviy ishni engillashtiradi, ularga ota-onalar orqali ijobiy ta'sir ko'rsatishga, ularning bo'sh vaqtini to'g'ri tashkil etishga, ular kim bilan do'stlashganini, uy ishida ishtirok etish-etmasligini bilishga yordam beradi va hokazo. Xat yozishib turish maktabgacha ta'lim muassasasi xodimlari bilan ota-onalar o'rtaida yanada yaqin, do'stona o'zaro munosabatlar o'rnatilishiga imkon beradi.

Ota-onalar bilan shaxsan ish bajarishdan tashqari, tarbiyachi o'z guruhidagi ota-onalar jamoasi bilan ham ish tashkil etadi.

3. Guruhiy maslahatlar va majlislar

Agar tarbiyachiga aynan bir masala bir nechta ota-onani qiziqtirayotgani ma'lum bo'lsa, ular uchun umumiy maslahat tashkil etadi.

Guruhiy maslahatlar ota-onalarga mavjud ma'lumotlarpi ma'lum qilishnigina nazarda tutmay, balki oilaviy tarbiya tajriba almashinuvini ham ko'zda tutadi. Ota-onalar bilan oilaviy sharoit haqida bevosita muloqot qilish ham ota-onalarga jamoa

bo'lib, guruh bo'lib maslahatlar uyushtirishning mazmunini aniqlashga yordam beradi.

Pedagog maslahatga oldindan tayyorlanadi: zarur adabiyotni va ko'rsatmali materialni tanlaydi, maslahat o'tkaziladigan aniq vaqt haqida e'lon qiladi, u haqda ota-onalarni ogohlantiradi. Bunday maslahatlar onda-sonda va muntazam o'tkazilishi mumkin. Muntazam maslahatlar ota-onalarning butun bir guruhi uchun o'tkaziladi, uning tarkibi muhokama qilinayotgan mavzuga qarab o'zgarib turadi.

Albatta, guruhiy maslahatlarning mavzui turli-tuman bo'lishi mumkin. Ota-onalar bilan ishslashning bu yo'lini amalga oshirishda pedagog ota-onalarning talablariga ijodiy yondoshadi. Ularni rejalashtirishda ota-onalarning tarkibini, ma'lumotini, pedagogik tayyorgarligini hisobga olish kerak. Maslahatlar tarbiyaviy ishni, bolalar ijodini, amaliy usullarni (o'yinchoq, bayramga kostyum, kiyim tikishni yoki bolalar ovqatini tayyorlash va hokazo yaqqol ko'rsatish bilan birga o'tkazilishi mumkin.

Mudir, shifokor, logoped, musiqa rahbari ham ota-onalarning o'zlariga taalluqli masalalar bo'yicha maslahatlar berishadi.

Ota-onalar jamoasi bilan ishslash guruhiy va umumiylar majlislar shaklida o'tkaziladi.

Guruhiy va umumiylar majlislar ota-onalar o'z vazifalarini chuqurroq tushunishlariga va bolalar tarbiyasida rilaning ahamiyatini anglashlariga, pedagogik bilimlarni egallahlariga qaratiladi.

Bu majlislar bolalarning jamoa tarbiyasi ahamiyatini ta'kidlash, tarbiyachilarining obro'sini mustahkamlash va ota-onalarda ularning ko'rsatmalarini bajarishga tayyor bo'lish hissini uyg'otishi lozim.

Ota-onalarning guruhiy majlislari zaruriyatiga qarab yil choragida bir marta o'tkaziladi.

Bupday majlislardan maqsad ota-onalarni aniq pedagogik masalalar bilan tanishtirishdir. Ularda mazkur guruhdagi bolalarni tarbiyalash masalalari muhokama qilinadi, guruh ishi bilan bog'liq tashkiliy masalalar qarab chiqiladi, ota-onalarning bayramda ishtirok etishlari haqida, ekskursiyalar haqida gapiriladi va hokazo.

Majlisning mavzusini belgilashda va unga tayyorgarlik ko'rishda ota-onalari taklif etilayotgan bolalarning yoshini hisobga olish zarur. Shu munosabat bilan o'yin, o'quv yoki mehnat faoliyatlari haqida masalalar ko'proq o'rinni egallashi mumkin.

Majlis vaqtida hammaning oldida ba`zi bolalar va ularning ota-onalari haqida salbiy fikr bildirish kerak emas; bunday gaplarni ota-ona bilan begona tinglovchilar ishtirokisiz do'stona shaklda olib borish o'rinni.

Pedagogik ta`limni tashkil etishdan tashqari «Yosh ota-onalar maktabi» kabi ish shaklidan ham foydalaniladi. Bu «maktabga» bolalari birinchi marta maktabgacha ta`lim muassasasiga kelgan onalar va otalar taklif etiladi.

Ko'pchilik ota-onalar maktabgacha ta`lim muassasasida kichkintoylar uchun qanday sharoitlar yaratilganini, u erda bolalar qanday tartib bo'yicha yashashi bilan tanishadilar, ammo bolani oiladan «ajratish» davri bolalar uchun ham, ota-onalar uchun ham murakkab ekanini hamma ham tushunavermaydi. Bu davrni qanday

qilib engil o'tkazishni tashkil qilish, «Yosh ota-onalar maktabi»ning vazifalaridan biri hisoblanadi.

Bunday maktabni tashkil etib, ota-onalarning istaklarini e'tiborga olgan holda o'quv yiliga oid ish rejasini tuzish, bolalarning maktabgacha ta'lim muassasasiga ko'nikish davrida maktabgacha ta'lim muassasasisida va uydagi hayotini tashkil etish haqida hikoya qiladigan adabiyotni tanlash, pedagogik jarayonni bevosita kuzatish uchun ota va onalarni taklif qilish zarur.

Ota-onalarning hayajonlanishlari asta-sekin bosiladi, chunki bolalari maktabgacha ta'lim muassasasida o'zini yaxshi sezishlarini ko'rishadi. Ular pedagoglarning maslahatlariga qulq solishadi, birlgilidagi faoliyatga bajonidil kirishishadi, zarur o'yinchoq va qo'llanmalar tayyorlashga yordamlashishadi, maydonni ko'kalamzorlashtirishda ishtirok etishadi va hokazo.

«Maktabning» mashg'ulotlarida ona ham, ota ham katnashsa, maqsadga muvofiq bo'ladi, chunki bolaga ota-onaning va tarbiyachilarning muvofiqlashtirilgan ta'siri natijasidagina maqsadga erishish mumkin.

19.2. Maktabgacha ta'lim muassasasining ota-onalar va jamoatchilik bilan ish shakllari.

II. Ota-onalar qo'mitasi va jamoatchilik bilan ishlash maktabgacha ta'lim muassasasida ota-onalar jamoatchiliga, jumladan, oila bilan olib boriladigan ishga katta o'rin ajratilgan. Har bir maktabgacha ta'lim muassasasida ota-onalar qo'mitasi bo'lib, u «Maktabgacha ta'lim muassasasi nizomi» bo'yicha tashkil etiladi.

Ota-onalar qo'mitasi ishining vazifalari va mazmuni, uning huquqlari, hisoboti va ish yuritishi ham «Ota-onalar qo'mitasi haqidagi nizom»da aks ettirilgan.

Bu qo'mita ota-onalarning umumiyligi majlisida bir yil muddatga saylanadi. Uning tarkibiga har bir guruhdan 1-2 vakil kiradi, ular orasidan rais va kotib saylanadi.

Qo'mitani saylashda saylanayotgan ota-onalarning ma'naviy qiyofasi, bo'sh vaqtli bor-yo'qligi, ishbilarmonligi, obro'si, bola tarbiyasiga qiziqishi va hokazolarni hisobga olish kerak.

Maktabgacha ta'lim muassasasi rahbari va pedagogik jamoa ota-onalar qo'mitasiga faol, harakatchan, tarbiya masalalaridan uzoq bo'limgan kishilar saylanishi tarafdiridir. Tarbiyachilar u yoki bu oila qanday, ota-onalar qo'mitasiga a'zo bo'lgandan so'ng maktabgacha ta'lim muassasasisiga ota yoki ona qanday yordam berishi mumkin, ular jamoat tarbiyasi hayoti bilan qiziishadimi, maktabgacha ta'lim muassasasida bo'lish keraqligi haqidagi, mashg'ulotlarni, tartibni kuzatish, sayr qilishda ishtirok etish haqidagi taklifga labbay deb javob berishadimi? degan savollarga javob berishlari kerak.

Ota-onalar qo'mitasini unda ishlashni xohlovchi ota-onalardan ham saylash mumkin. Bunday ota-onalar odatda, qiziqib va samarali ishlaydilar.

Ota-onalar qo'mitasining faoliyati samarali bo'lishi uchun uning a'zolarining pedagogik madaniyatini oshirish doimo diqqat-e'tiborda bo'lishi zarur. SHu maqsadda shahar va nohiyalarda rejali o'qyashning turli xil shakllari o'tkaziladi.

Ota-onalarning bola tarbiyasi sohasidagi ilg'or tajribalarini almashinishga bag'ishlangan kechalarni tashkil etish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu erda uch avlod vakillari - katta, o'rtacha va kichik avlod vakillari uchrashadi va fikr almashinadi. Ularni bolalar tarbiyasining ko'pgina masalalari qiziqtirganligi uchun bunday bevosita aloqa juda ham foydalidir.

Ota-onalar qo'mitasining faoliyati maktabgacha ta'lim muassasasining yillik rejasiga mos holda rejali ravishda olib borilishi kerak. Qo'mitaning ishini mudira boshqarib boradi. Uning majlislari ikki oyda kamida bir marta o'tkazilishi kerak. Har bir yoshdagi guruhda ota-onalarning faollari bo'lib, ular tarbiyachilarga imkonlari boricha yordam beradilar. Qo'mita ota-onalar majlislari, kechalarni tayyorlashga yordamlashadi, ota-onalarni ayrim vazifa va topshiriqlarni bajarishga jalb qiladi.

Ota-onalar qo'mitasining har bir a'zosi o'z tashabbusi bilan yoki ota-onalar iltimosiga ko'ra ota-onalar qo'mitasi qarab chiqishi uchun maktabgacha tarbiya muassasasining ishini yaxshilash bilan bog'liq masalalarni kiritish huquqiga ega.

Ota-onalar qo'mitasi o'z yig'ilishlarida mudirani maktabgacha ta'lim muassasasining istiqbollari va ishining ahvoli haqida shuningdek, ota-onalarni qiziqtiruvchi ayrim masalalar bo'yicha ma'ruzasini eshitishga haqlidir.

Ota-onalar qo'mitasining a'zolari va maktabgacha ta'lim muassasasi notinch oilalarga alohida e'tibor beradi, ularni borib ko'radi, o'z bolalarining tarbiyasiga etarli mas'uliyat bilan qaramaydigan, maktabgacha ta'lim muassasasining talablarini bajarmaydigan ota-onalarga ta'sir ko'rsatadi. Ota-onalar qo'mitasi a'zolari tarbiyachilar bilan birga oilaviy tarbiyaning eng yaxshi tajribasini o'rganada va uni tarqatishda ishtirok etadi.

Ota-onalar qo'mitasi ota-onalarning umumiyligi majlisiga hisob beradi (bo'ysunadi), unga avval qabul qilingan qarorlarning bajarilishi haqida hisobot beradi.

Ota-onalar qo'mitasi ishida faol qatnashmaydigan a'zolari, ota-onalar qo'mitasining taklifi (qarori) bilan qo'mitani qayta saylash muddatlari kelgunga qadar chaqirib olinishlari mumkin. Uning o'rniga boshqalar saylanadi.

Ota-onalar qo'mitasi ishiking rejalari va uni hisobga oladi, a'zolarining navbatchilik grafiklari, yig'ilish bayonnomalari va boshqa hujjatlar maktabgacha ta'lim muassasasida saqlanadi va qo'mita tarkibi almashinganda ishlarni qabul qilish va topshirish vaqtida dalolatnoma bo'yicha topshiriladi.

Ota-onalar guruhlardagi mashg'ulotlarda qatnashib, dastur bilan, u qanday amalga oshirilishi bilai tanishadilar, tarbiyachi butun guruh bilan va ayrim bolalar bilan qanday ishlashini kuzatadilar. Har bir mashg'ulot va sayr qilingandan so'ng uslubchi yoki mudira ota-onalarga tarbiyachi o'z oldiga qanday maqsad qo'yanini, uning uddasidan chiqqan-chiqmaganinig uning yutug'i va xatolari nimada ekanini tushundiradi.

Ota-onalar qo'mitasi a'zolarining bolalar maktabgacha ta'lim muassasasisi bilan aloqasi pedagoglardan o'ziga va ishiga nisbatan yanada talabchan bo'lishni

talab qiladi. Dastlabki vaqtarda tarbiyachilar ota-onalar oldida tortinishadi, biroq ularga o'rganib ketgandan so'ng o'z ishlarini ko'rsatishni shart deb tushunmay, balki bunga xursand ham bo'lishadi. Ota-onalar oldida tarbiyachining obro'si ko'tariladi, unga hurmat ortadi, undan yordam, maslahat so'rab murojaat qiladigan bo'lishadi.

Oila bilan ishlashning yaqqol vositalar kompleksi eng katta ishonchga va ishchanlikka ega bo'ladi. Tarbiyachining bolalar bilan ishlashini ko'rsatish (yoki «Ochiq eshiklar kuni»), ko'rgazmalar, fotomontajlar bolalarning ishlarini ko'rsatish, pedagogik axborot stendlari, ko'rgazmalarni bezash, ota-onalar uchun kutubxona, oilaviy tarbiyaning turli masalalari bo'yicha materiallari bo'lgan ko'chma papaklar shular jumlasidan. Ko'rsatmali materialni ota-onalar faol qabul qilishlari uchun ular diqqatini unga qaratish va u bolalar tarbiyasida qanday foydalanimishiga qiziqtirish kerak.

Ularning ba'zilari to'g'risida to'xtalib o'tamiz.

Ota-onalar burchagi

Ota-onalar burchagi ularga joriy axborot berish va pedagogik masalalar bilan tanishtirish maqsadida tashkil etiladi.

Burchakda bir nschta bo'lim bo'lishi tavsiya etiladi.

«Biz bugun nima bilan shug'ullandik». Guruh shu kuni nima bilan shug'ullangani ko'rsatiladi va aytib beriladi. Rasmlar osiladi, hamma bolalarning ishlarn alohida joyga qo'yiladi. Bola tarbiyasi haqidagi bilimlarni o'zlashtirish uchun mashg'ulot mavzuining muhimligi haqida tarbiyachi izoh berishi mumkin. Bu bo'lim materiali har kuni yangilanib turiladi.

«Bu oy biz nima bilan shug'ullanamiz». Ota-onalarga shu oy davomida qanday tarbiyaviy ishlar va aniq tadbirlar amalga oshirilishi haqida axborot beriladi: sayr qilish, ekskursiya, bayramlar ota-onalardan qilinadigan iltimoslar nimani va qaysi muddatga tayyorlash (kastyum, qo'lda yasash uchun material, o'yinchoqlar, sovg'alar, buyumlar yasash va hokazo). Bolaning tug'ilgan kunini jamoada o'tkazish muddati haqida ota-onalarga xabar beriladi. Bu bo'lim materiallari oyiga bir marta yangilanadi.

«Maslahat va tavsiyalar». Turli xil tavsiyalar, ya'ni dam olish kunini qaytarzda yaxshiroq o'tkazish mumkin, kinoteatrda, televizorda bolalar qanday kino-filmni ko'rishi mumkin, radiodan qanday eshittirishni tinglash mumkin, bolalarni chiniqtirishni qanday tashkil etish kerak, ularni mehnatga qanday o'rgatish kerak va hrkazolar bu bo'limga joylashtiriladi.

Shu erda chizmalar, rasmlar, bolalar uchun kiyim andozalari, soch amunalarini joylashtirish mumkin. Maslahatlar qisqa, dastur materialiga mos kelishi kerak. Bu dastur bir oy davomida o'rganiladi. Shu bo'limning o'zida oilaviy tarbiyaning eng yaxshi tajribasi haqidagi material joylashtiriladi. Material 2—3 oyda bir marta yangilanadi.

«Bolalarimiz haqida». Bolalar nimani bilib olganlari, nimani o'rganganlari haqida qisqa axborot beriladi: 5 gacha sanash, yangi ashula o'rganish, qo'g'irchoqlarning kiyimlarini yuvishni o'rganishadi, ekskursiyaga borishadi, yangi qushlarni bilib olishadi va hokazo, o'g'il bolalar va qizlarning

xulqidagi alohida ijobiy o'zgarishlar aniqlanadi. Materiallar kerak bo'lganda yangilanadi.

«Savobli ishlar kartotekasi». Bu erda ota-onalar jamoatchiligining ishi haqidagi materiallar, ota-onalar qo'mitasi a'zolarining qilingan ish haqidagi hisoboti, ota-onalarga tashakkurnomalar joylashtiriladi.

«Bolaning bolalar maktabgacha ta`lim muassasasisidagi va uyidagi tartibi». Har kungi taomnoma, do'xtirning, mudiraning, hisob-kitob bo'limi xodimlarining qabul vaqt, muassasaning telefoni, manzilgohi, turli, e'lonlar joylashtiriladi. Material zarur bo'lganda almashtiriladi.

Material stendga joylashtiriladi va echinadigan xonaga osiladi. Bezash rangli bo'lishi, hamma ma'lumotlar mashinkada bosilgan bo'lishi yoki chiroyli qilib qo'lida yozilishi ham mumkin.

Ota-onalar uchun ko'rgazmalar

«Ota-onalar uchun ko'rgazmalar» pedagogik bilimlarni targ'ibot qilish maqsadida tashkil etiladi. Ular ota-onalar majlislari, anjumanlar vaqtiga qarab tayyorlanadi. Ko'rgazma uchun materiallar oldindan tanlab olinadi va unga respublikamiz xalq ta`limi sohasidagi hujjatlari, maktabgacha ta`lim muassasalar tarmoqlarining o'sishi haqidagi raqamli ma'lumotlar, bolalar bilan shilashni aks ettiruvchi fotosuratlar, kitoblar va o'yinchoqlar, bolalarning ishlari kiritiladi.

Bolalar ishlarining ko'rgazmasidan maqsad bolalarni mashg'ulotlarda o'qitish natijalariga ota-onalar diqqatini qaratishdir. Ular har bir yoshdagi gurux uchun alohida tashkil etiladi.

O'quv yilidagi ota-onalarning birinchi majlisida tarbiyachilar ko'rgazmaning vazifasi haqida ma'lumot berishlari kerak. Ota-onalarga bolalar mehnati natijalarini baholash qanchalik muhim zkann tushuntiriladi. Masalan, o'z bolasi chizgan rasmni tengdoshlarining rasmlari bilan taqqoslab, bola qaysi borada orqada qolib ketganiga, unga uyda qanday yordam berish kerakligiga yaqqol ishonish mumkin. Ota-onalarnnng bolalar ishiga to'g'ri, jiddiy munosabatda bo'lishi ta`lim berishda va tarbiyalashda yanada yuqori natjalarga erishishga yordam beradi.

Ota-onalar uchun kutubxona ko'rgazmasi

Bolalar psixologiyasi va pedagogikasi bo'yicha ota-onalarnivg o'sib borayotgai diqqat-e'tiborini qoniqtirish uchun maktabgacha ta`lim muassasasida pedagogik va uslubiy adabiyotlar kutubxonasi bo'lishi kerak, martabgacha tarbiya muassasasidagi uslubiy xonalarda maxsus ajratilgan «Ota-onalar uchun adabiyot» deb nomlangan bo'lim yoki vestibyulda ota-onalaruchun umumiyl stendda qo'yilgan materialarga mos holda tanlab olib qo'yilgan kitoblar tokchasida bo'ladi. Masalan, «Bolalarning injiqqliklari», «Birinchi sinfga birinchi marta», «Mustaqildik haqida», «Ahloq-odobga oid Hadis namunalari», «Maktabgacha yoshdagi bolalar-g'a ta`lim tarbiya berish», «Abu Ali ibi Sino bola tarbiyasi haqida» va hakozolarni qo'yish mumkin.

Pedagogik bilimlarni targ'ibot qilish ishiga maktabgacha ta`lim muassasal arida tashkil etilgan pedagogik adabiyotlar kutubxonalari katta yordam ko'rsatadi. Tarbiyachilar ota-onalar bilan birga o'qib chiqilgan kitoblar, bo'yicha suhbatlar va disputlar o'tkazishadi.

Mavzuiy ko'rgazmalar

Mavzuiy ko'rgazmalar yakqol targ'ibotning alohida shakli va qimmatli vositasi hisoblanadi.

Bu shakl aniq va yaqqolligi bilan yaxshidir. Ko'rgazma har bir mavzuiy bolalar tarbiyasining muhim masalalaridan biriga bag'ishlanadi. Ular turli xil sarlavhalar ostida tashkil etilishi mumkin masalan, «Bolalar - bizning kelajagimiz», «Birgalikda tarbiyalaymiz», «Ota-onalar - bolalarga» kabilarni tavsiya etish mumkin.

Istagan mavzuiy ko'rgazmaning maqsadi - ota-onalar uchun beriladigan so'zli axborotni rasmlar, fotosuratlar bilan, tarbiyaning u yoki bu masalalari bo'yicha pedagog yoki psixologlarning fikrlari bilan to'ldirish mumkin. Masalan, «Oilada bolalarning mehnat tarbiyasi», «Bolalar kitobining oiladagi hayoti», «Tabiat va bolalar», milliy urf-odatlarimiz kabi va hakozo mavzularda tashkil etiladi.

Ko'rgazmalarning mavzusi turli-tuman bo'lishi mumkin. U kalendardagi bayram kunlari, jamoat hayotidagi voqealar, yil fasllari, Navro'z, Ro'za hayiti, respublikamizning mustaqillik kuni kabi bolalarni maktabgacha ta'lim muassasasida va oilada tarbiyalashning muhim vositalari bilan aniqlanishi mumkin.

Ba'zida ko'rgazmalarning mavzunini oilavny tarbiyadagi kamchiliklar bilan belgilash mumkin. Masalan, tarbiyachi oilani borib ko'rib, ko'pchilik bolalarning uyida o'yinchoqlari juda ko'pligini, ko'pchiligi buzilganini va birortasi ham bolaga foyda bermasligini ko'radi. Bu erda «O'yin - bolalar tarbiyasidagi vositadir» degan mavzuda ko'rgazma tashkil etish o'rinnlidir.

Qo'pincha ko'rgazma mavzusi maktabgacha tarbiya muassasasining yillik rejasi bilan belgilanadi. Masalan, maktabgacha ta'lim muassasasining asosiy vazifalaridan bir) jismoniy tarbiya mavzusini tanlab olinsa, u holda «Uydagi kun tartibi», «Quyosh, havo va suv bizning eng yaxshi do'stlarimiz», «Yakshanba kuni otam kun bo'yi bizlar, bilan» va hokazo mavzulardagi ko'rgazmalarnn tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Mavzuiy ko'rgazmalarni ota-onalar majlisini o'tkazish kunlariga mo'ljallab, unga hamma ota-onalarning diqqatini jalb qilish va olingan bilimlarik ma'lum darajada mustahkamlash imkonni bo'lganda tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Ko'rgazmalar ota-onalarni maktabgacha ta'lim muassasasining tarbiyaviy ishini tanishtirish maqsadida tashkil etilishi mumkin. Bu holda ko'rgazma ularning maktabgacha ta'lim muassasasida ko'rganlarini tushunishga yordam beradi.

Ota-onalar maktabgacha ta'lim muassasasining oila bilan birgalikda ishlashi bo'yicha bir qator aniq maslahatlar olishlari mumkin. Agar keltirilgan material asosida ota-onalar bilan bundan keyin ish davom ettirilsa, tashkil etilgan ko'rgazmaning foydasi juda katta bo'ladi: suhbatlar o'tkazish, bolalarni tarbiyalash bo'yicha kitoblar tavsiya qilish, kinofilmlar yoki diapozitivlar ko'rsatish.

Bularning hammasi ota-onalarni maslahatlar ustida o'ylab ko'rishga, o'z tajribasini tahlil qilishga, bolalar tarbiyasidagi xatolarni topishga majbur qiladi.

Ko'rgazmalar turli xil bezalishi mumkin. Bu butun material joylashtirilgan stend bo'lishi mumkin. Shirmalardagi bezaklar ham o'zini oqlaydi. Shirmaga ota-onalarga mo'ljallangan qisqa maslahatlarin va aniq masalalar bo'yicha tavsiyalarni

joylashtirish mumkin: o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish ko'nikmalarini, bolalar o'yinlarini, mehnatini, yilning turli fasllarida bolalarni tabnat bilan tanishtirish bo'yicha mashg'ulotlarini boshqarish usullari va yo'llarini shakllantirish uchun zarur sharoitlarning tavsifi va hokazo. Shirma uchun materila hajmi uncha katta bo'lmasligi, matn, suratlar, fotosuratlar bilan to'ldirilgan bo'lishi kerak. Shirmani bolalarning echinish - kiyinish xonasidagi shkafchalari ustiga yoki ota-onalar burchagidagi stolga qo'yish mumkin. Bunday usul ko'chirib yurish va saqlash uchun ixcham, qulay bo'lib, istagan xonada foydalanishi mumkin va ko'p joyni egallamaydi.

Ko'rgazmalar va ota-onalarga maslahatlar umumiy bo'lishi ham mumkin.

Guruhlarda biror yoshdagি bolalarni tarbiyalash bo'yicha ko'rgazmalar tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Bu ota-onalarga maslahatlarni bolalarning yoshini va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olib tavsiya qilishga imokoniyat beradi, har bir yoshdagи bolalar uchun o'yin va o'yinchoq turlari, mazmuni haqida ota-onaga maslahat beradi.

Ko'rgazmalarni tashkil etish uchun turdi xil materialdan foydalanish: bolalar hayotidan fotosurat, jurnallardan olingan rasmlar, plakatlar, bolalarning ishlari, o'yinchoqlari, kitoblar va hokazo.

Mavzuiy ko'rgazmalar ota-onalarni o'z bolalarlning xulqi va o'sishiga ko'proq qiziqishlariga da'vat qiladi, ota-onalar, tarbiyachi bilan doimiy aloqa o'rnatishlari zarurligini tushuna boshlashadi.

Ko'rgazmalarni bezashga ko'pchilik aholini, fabrika, zavod, klublar, uy boshqarmalarini jalb etish zarur.

Mavzuiy ko'rgazmaga materiallar badiiy, pedagogik, uslubiy manbalar asosida tayyorlanadi. Ulardan asosiy qisqacha nazariy qoidalar tanlab olinadi. Ishonchli misollarni tarbiyachining o'zi tanlab oladi. Shu material asosida ota-onalarga bolalarni tarbiyalash bo'yicha aniq ta'sirchan maslahatlarni berish nazarda tutiladi. Matnning materiali qisqa, ammo mazmundor bo'lishi kerak.

Ish tajribasining ko'rsatishicha, tarbiyalashga oid katta stendlarni ota-onalar har doim ham istak bilan o'qishmaydi.

Ko'rgazmalarni tayyorlashga ota-onalarning o'zlarini jalb qilish mumkin: ularga ma'lum mavzuga oid adabiyotni tanlash, gazeta va jurnallardan maqolalarni, rasmlarni tailab qirqib olnsh, yasama o'yinchoqlarning andozasini tayyorlash va hakozolarni topshirish mumkin.

Materialning rang-barangligi, badiyligi ota-onalarda ko'rgazmaga qiziqish uyg'otadn va materialli yanada chuqurroq o'rganib chiqishga yordam beradi.

Ko'chma papkalar

Tarbiyaning biror masalasi bilan ota-onalarni yanada chuqurroq tanishtirishga ko'chma papkalar yordam beradi. Odadta, ularga rasmi va amaliy tavsiyalar berilgan mavzuiy material tanlanadi. U muntazam ravishda to'ldirib boriladi, rasmlar yangisi bilan almashtiriladi.

Ko'chma papkalarni mavzuiy o'rganish bo'yicha shakllantirish mumkin: masalan, «Bolaning uyidagi va bolalar muktabgacha ta'lim muassasasisidagi tartibi», «Bolalar bilan uyda mashg'ulot o'tkazish», «Itoat qilishdan ongli intizomga» va boshqalar.

Biror yoshdagi bolalarni tarbiyalashning turli muammodari bo'yicha shunday papka tayyorlash mumkin, masalan, «Maktabgacha tarbiya yoshidagilarning imkoniyatlari», «Bolalarda gigienik ko'nikma va odatiy tarbiyalang», «Bolalarni qanday kiyintirish kerak», «To'liq uyqu», «Tabiatga sayohat», «Ehtiyyot bo'ling - ko'cha!», «Har bir xonadonda musiqa va ashula yangrasin!» va hokazo. Papkalarda amaliy material ham joylashtiriladi: she'rlar, qo'lda yoztishga o'rgatuvchi topshiriq-mashqlar, o'qish uchun tavsiya qilinadigan badiiy asarlar ro'yxati, bolalarning ishlari namunalari va hokazo.

Bu ish turlarining har biri o'z afzalliklariga ega na ota-onalarning pedagogik madaniyatii oshirishga xizmat qilishi mumkin.

Ko'chma papkalar ayrim oilalarga bir-ikki hafta muddatga vaqtincha foydalanish uchun berib yuboriladi. Ko'chma papkadagi material bilan tanishgandan so'ng ota-onalar shu erdag'i daftarga o'z taassurotlarini, shuningdek, shaxsiy tajribasini o'rtoqlashib yozib qo'yishi mumkin.

Tarbiyachidar esa o'z navbatidagi ota-onalar bilan o'qib chiqilganlar haqida suhbat o'tkazishadi, tavsiya etilgan material bolalar tarbiyasida qanday yordam bsргани aniqlanadi, ularning fikricha uning mazmuniga nimani qo'shish kerakligi aniqlanadi.

Ko'chma papkadagi materialni vaqtি-vaqtি bilan yangilab turish, eskirgan materiallarni, rasmlarni yangisiga almashtirish kerak. Papkaning o'zi chiroyli yasatilishi undagi matn yo mashinkada bosilishi, yoki qo'lда aniq, tushunarli qilib yozilishi kerak. Ko'chma papkalar odatda tarbiyachilarda saqlanadi.

Ko'rgazmalar jamoatchilik diqqatini bolalar tarbiyasi masalalariga qaratadi va jumhuriyatimizda maktabacha tarbiya muassasalari erishgan muvaffaqiyatlarga iftixorlik hissini uyg'otadi, shuning uchun ham ular katta ahamiyatga ega.

Ota-onalarning bolalar pedagogikasi va ruhiyati masalalariga nisbatan ortib borayotgan e'tiborini qanoatlantirish uchun har bir maktabgacha ta`lim muassasasida pedagogik va uslubiy adabiyotlar kutubxonasi bo'lishi kerak.

Yaqqol targ'ibotning hamma shakllarini qo'shib olib borish ota-onalarning pedagogik bilimlarini orttirishga, tarbiya ishiga qiziqishning o'sishiga imkon beradi, ularni oilada tarbiyalash usullari va uslublarini qayta ko'rib chiqishga undaydi.

Maktabgacha ta`lim muassasasi va maktab ishidagi izchillikni amaliy ro'yogha chiqarishning muhim shartlaridan biri tayyorlov guruxlari tarbiyachilari hamda birinchi sinflar o'qituvchilari o'rtasida ishga oid hamkorlikning o'rnatalishidir.

Bu aloqalarning ahamiyati ayniqsa keyingi yillarda maktabda bolalarni 6 yoshdan o'qitishi va ijtimoiy maktabgacha ta`lim tizimining faol rivojlanishi munosabati bilan ortdi. Xozirgi davrning o'ziga xos xususiyati – maktabgacha ta`lim muassasasining maktab bilan ommaviy yaqinlashuvi – maktabgacha ta`lim muassasasi va maktab o'rtasidagi izchillikni amalgalash hamda maktabgacha ta`lim muassasa va maktablar pedagogik jamoalarning samarali hamkorliklarining qaror topishi uchun mavjud ijtimoiy asosini yaratadi.

O'qituvchilar va maktabgacha ta`lim muassasa tarbiyachilari hamkorligining asosiy vazifasi bolalarni maktabga tayyorlashda yakdillikka erishish, bolalarning

maktabga tayyorliklarining yuqori darajasini ta`minlash bo`lib, bu keyinchalik maktabda muvafaqqiyatli o`qishga olib keldi.

Maktabgacha ta`lim muassasa va matab hamkorligining mazmuni hamda shakllari mana shu vazifalardan kelib chiqib aniqlanadi. Maktabgacha ta`lim muassasa va matab bolalari bilan aloqalarda o`zaro bog`langan uchta jihat: axborot – oqartuv, metodik va amaliy jihatlar farqlanadi.

Bu o`qituvchi va tarbiyachilarga bolalarni maktabga tayyorlashning asosiy masalalarini chuqurroq farqlashlariga, bolani aqliy va ijtimoiy rivojlanishining psixologik tabiatini maktabgacha yoshdagi bolalarning yosh xususiyatlarini tushunishda birlikka erishishlariga yordam beradi. Bu maqsadda maktabgacha ta`lim muassasa va matab o`rtasidagi aloqalarning quyidagi aniq shakllari: o`qituvchi va tarbiyachilarining izchillik va bolalarni maktabga tayyorgarliklari muammolariga oid xamkolikdagi pedagoglar kengashida qatnashishlari, dasturlarni “to`qnashtirish” ni muhokamasiga doir seminar – praktikumlarda qatnashish, shuningdek tarbiyachi va o`qituvchilar tomonidan tayyorlangan bolalarning yosh hususiyatlari maktabgacha ta`lim muassasasidan maktabga o`tishlarining psixologik qiyinchiliklari, bolalarni matab sharoitlariga muvafaqqiyatliroq moslashuvlariga yordam beruvchi omillar va shu kabilardagi ma`ruzalarni o`zaro almashishlari qaror toptiriladi.

Maktabgacha ta`lim muassasasi va matab aloqasining metodik jihatni katta hamda tayyorlov guruxlari va maktabning 1 – sinfida ta`lim – tarbiyaviy ishni amalga oshirish metod va shakllari bilan tanishish, bollar bilan matematika, ona tili, jismoniy tarbiya, mehnat va axloqiy tarbiyaga doir ishslash metod va shakllarida izchillikni qaror toptirishni nazarda tutadi. Bu jihat aloqaning maktabgacha ta`lim muassasa va maktablar pedagoglarining dars hamda mashg`ulotlarga o`zaro kiri, so`ngra uni birgalikda muhokama qilishlari, ochiq dars va mashqlar ko`rivuni uyuştirish, ayrim metodikalarga doir seminar – praktikumlarda qatnashish, ilg`or tajriba almashishga oid birgalikdagi pedagoglar kengshlarini o`tkazish, tarbiyachilarining maktabdagi yoki o`qituvchilarining maktabgacha ta`lim muassasasidagi bolalarni maktabga tayyorlash yoki maktabgacha ta`lim muassasasi tarbiyalanuvchilarini 1 – sinfda o`qitishning holati muammolariga bag`ishlangan o`zlarini qiziqtirgan seminar – praktikumlarda ishtirok etishlari kabi shakllari orqali amalga oshiriladi. Bu uchrashuvlarning asosiy mazmuni ko`ndalang qo`yilgan masalalarni har tomonlama tahlil qilish, ularni hal etishdagi nuqsonlarni aniqlash, maktabgacha ta`lim muassasa va maktabdagi ta`lim – tarbiyaviy ishni yanada takomillashtirishning aniq tavsiyalarini ishlab chiqishdan iborat.

19.3.Xalq ta`limi tizimidagi ta`lim muassasalari vasiylik kengashlari to`g`risida Nizomning maqsad va vazifalari

1. Xalq ta`limi tizimi ta`lim muassasalaridagi Vasiylik kengashlari (keyingi matnda “Kengash” deb yuritiladi) jamoatchilik kengashlari bo`lib, ta`lim muassasalarini boshqarishda jamoatchilikning faol ishtirokini ta`minlashni ko`zda

tutgan holda, ota-onalar, o'qituvchilar, mahalla faollari, homiyalar va boshqa jamoatchilik vakillari tashabbusi bilan ta`lim muassasida tuziladi.

2. Kengash ta`lim muassasalarining o'z - o'zini boshdarish shakllaridan biri bo'lib, uning maqsadi:

- ta`lim muassasalarida o'quvchilarning tulaqonli ta`lim - tarbiya olishlari xamda pedagogik jamoa va boshqa xodimlarning ishlashi uchun qulay, sog'lom va do'stona muhit sharoitini yaratish, ushbu ta`lim muassasaning moddiy-texnika bazasini mustaxkamlash hamda xududini obodonlashtirishda ko'maklashish;
- ta`lim muassasalaridagi ta`lim - tarbiya, sinfdan va mакtabdan tashkari jarayonlarini tashkil etish va uni takomillashtirishda ko'maklashish, mакtab faoliyatida jamoatchilikning ishtirokini ta`minlash uchun sharoitlar yaratish maqsadida tuziladi.

3. Kengashning asosiy vazifalari:

- ta`lim muassasalarida soglom, do'stona munosabatlar muhitini yaratishni qo'llab-quvvatlash va ko'maklashish;
- ta`lim jarayoni natijalariga ta`sir etuvchi omillarni aniqlashda ta`lim muassasalariga zarur yordam berish;
- 2004-2009 yillarda mакtab ta`limini rivojlantirish Davlat umummilliyl dasturi doirasida muassasaning infrastrukturasini rivojlantirishda ta`lim muassasi rahbariyati va pedagogik jamoasiga zarur yordam berish;
- mакtab ehiyojidan kelib chiqib, byudjetdan tashqari tushgan mablag'larning samarali xamda ta`lim jarayonining barcha ishtirokchilariga foydali bo'lisliga ko'maklashish;
- mahalliy, xorijiy yuridik va jismoniy shaxslardan tushgan kreditlar, grantlar hamda homiylik yordamlarini, mакtab ehiyojidan kelib chiqib, samarali va qat'iy maqsadli foydalanishini nazorat qilish;
- harajatlar smetasini oldindan kurib chiqish, ta`lim muassasalarining moliyaviy kirim va chikimlari bo'yicha xisobotlarini qabul kilish, natijasi bo'yicha xulosalar tayyorlash;
- pedagogik jamoaga o'quv-tarbiya ishlarini takomillashtirishda ko'maklashish;
- muassasada bolalar bilan turli ommaviy tadbirlar, sayohatlar, uchrashuvlar, sog'lomlashtiruvchi va rivojlantiruvchi tadbirlarni tashkil etish va o'tkazishga ta`lim muassasi ma'muriyatiga ko'maklashish;

Vasiylik kengashining maqsadi:

Vasiylik kengashining vazifalari: - ota-onalar, xomiylar, otalik tashkilotlari xamda boshqa yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatilayotgan mexr-muruvvat yordamlari, byudjetdan tashqari mablag'lar topishning shakllarini takomillashtirish va joriy etish yuzasidan muassasa raxbariyatiga takliflar berish;

- muassasada ishlab chikarishni tashkil etish, ta`lim xizmatlari ko'rsatish orkali byudjetdan tashkari mablaglar jamgarmasini barpo etish, uning muntazam boyib borishini ta`minlash, moliyaviy, moddiy-texnikaviy rivojlanishning boshqa yo'nalishlarini belgilashda jamoaga ko'maklashish;
- muassasaning byudjetdan tashqari mablag'lari xisobidan ijtimoiy ximoyaga. muxtoj oilalarga mansub o'quvchi va tarbiyalanuvchilarini moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash;

- fan xonalarini zamonaviy ko'rgazmali va texnik vositalar bilan jihozlash, kutubxona jamg'armasini boyitish, ta`mirlash va boshqa xo'jalik extiyojlarini qondirishda ko'maklashish;
- ichki imkoniyatlardan kelib chiqqan holda fan olimpiadalar, sport musobaqalari, turli ko'rik-tanlovlardan g'oliblarini, a`lochi o'quvchi va tarbiyalanuvchilarni, namunali xulqqa ega o'quvchilarga moddiy rag'batlantirish xamda stipendiyalar berish yuzasidan ta`lim muassasi ma`muriyatiga tavsiyalar kiritish;
- ichki imkoniyatlardan kelib chiqqan holda ta`lim - tarbiya oluvchilarga bilim berishda muntazam yuqori natijalarni qo'lga kiritib kelayotgan pedagoglarni moddiy rag'batlantirish yuzasidan muassasa ma`muriyatiga va ota-onalar qo'mitasiga takliflar berish va hokazo.
- byudjetdan tashkari tushgan mablag'lar (pul, jihozlar, darslik va boshqa moddiy boyliklar) ni o'z vaqtida hisobga olish, maqsadli taqsimlash va ishlatalishini yo'lga qo'yilishi ustidan izchil nazorat o'rnatish.

4. Kengash quyidagilarga majbur:

- ta`lim - tarbiya oluvchilarning to'laqonli bilim olishlari uchun tegishli sharoit yaratishda, usib kelayotgan avlod o'rtasida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish davlat siyosati va dasturlarini amalga oshirishda faol qatnashish;
- muassasaning byudjetdan tashkari tushumlardan foydalanish yuzasida faoliyat dasturini ishlab chiqishda har tomonlama ko'maklashish va uning ishlarini o'z vaqtida nazorat qilish va muvofiqlashtirish;
- ta`lim muassasasi tomonidan byudjetdan tashqari tushgan moliyaviy va moddiy mablag'lardan qat`iy maqsadli foydalanilishini amaldagi qonun hujjatlari asosida ta`minlash.

5. Kengash faoliyati talim muassasasi Ustavi, "Umumiy o'rta ta`lim maktablari ota-onalar qo'mitasi to'g'risida"gi Nizom va mazkur Nizom hamda boshqa qonunchilik hujjatlari asosida olib boriladi.

III. Kengashning boshqaruvi tuzilmasi va faoliyati

6. Kengashning umumiy majlisi - Kengash boshqaruving oliy organi bo'lib, u kengash faoliyatining barcha sohalarini takomillashtirishga doir qarorlar qabul qiladi. Kengashning umumiy majlisi bir yilda kamida ikki marta chaqiriladi.

7. Kengash tarkibi 9-11 kishidan iborat bo'lib, ota-onalar, pedagogik jamoa, maxalla faollari, jamoatchilik vakillari, xomiylardan saylanadi.

8. Umumiy majlis vakolatlariga quyidagilar kiradi:

- Kengash boshqaruvi tarkibini va uning raisini tasdiqlaydi (Kengash raisligiga muassasa ma`muriyati va ota-onalar qo'mitasi raisi saylanishi mumkin emas);
- Kengash faoliyatining asosiy yo'nalishlarini aniqlaydi;
- Kengash faoliyatining yarim va bir yillik ish rejasini tasdiqlaydi;
- muassasaning byudjetdan tashqari mablag'lari bo'yicha tuzilayotgan xarajatlar smetasini va unga kiritilayotgan o'zgarishlarni kelishuvdan o'tkazadi;
- Kengash raisining yil davomidagi faoliyati yuzasidan xisobotini eshitadi va tasdiqlaydi;
- Kengash faoliyatini o'zgartirish, qayta tuzish yoki tugatish masalalarini xal qiladi.

- 9.** Kengash raisi va uning a`zolari har yil sentyabr oyida bir yil muddatga ota-onalar umumiy yig'ilishida saylanadi. Kengash raisi ta`lim muassasasi pedagogika kengashi a`zosi bo'ladi.
- 10.** Kengash a`zolari tarkibiga barcha sinf ota-onalari nomidan vakil kilingan o'qituvchi va tarbiyachilar, xomiy xamda jamoat tashkilotlarining vakillari kiritilishi mumkin.
- 11.** Kengash bilan maktab raxbariyati o'rtasida baxs va kelishmovchiliklar yuzaga kelsa, uni tuman (shahar) xalq ta`limi bo'limlari xal etib beradilar.
- 12.** Ta`lim muassasasi o'z xisob raqamidagi byudjetdan tashqari mablag'laridan fakat Kengash yig'ilishi qarori asosida foydalanishi mumkin. Muassasaning xisob raqami mavjud bo'lмаган holatlarda byudjetdan tashqari mablag'laridan foydalanish tuman (shaxar) xalq ta`limi bo'limlari xisob raqami orqali amalga oshiriladi. Bu holda xam xarajatlar albatta Kengash qarori ruxsati bilan amalga oshiriladi.
- 13.** Sinfdan va maktabdan tashqari o'tkaziladigan tadbirlar uchun, zarur xollarda, harajatlar ota-onalarning roziligi bilangina amalga oshiriladi va bu haqida Kengashning qarori chiqarilishi shart.
- 14.** Kengash ta`lim muassasasining moddiy-texnika negizini yaxshilashga ko'maklashish yuzasidan barcha shakldagi homiylik hamda muruvvat yordamlari, pul mablag'lari, turli jihozlar, anjomlar va boshqalarning, shuningdek, ta`lim xizmatlari ko'rsatish, ishlab chiqarishni tashkil etish orqali topilgan mablag'larning tegishli tartibda ta`lim muassasasiga kirim qilinishini nazorat qiladi, muassasa extiyojidan kelib chiqqan holda va faqat Kengash yig'ilishi qarori asosida sarflashga ruxsat beradi. SHu bilan birga Kengash raisi ta`lim muassasa direktoridan ta`lim muassasa hisobiga tushgan byudjetdan tashqari mablag'larning miqdori, ularning qay maqsadlarda ishlatalgani haqida Kengash umumiy yig'ilishida hisobot berishini talab qilishga xaqli.
- 15.** Muassasa ma`muriyati Kengash samarali ishlashi uchun muassasa sharoitidan kelib chiqqan holda alohida xona ajratib berishi mumkin.
- 16.** Kengashni qayta tuzish va uni tugatish Kengashning umumiy yig'ilishida amalga oshiriladi.

MAKTABGACHA TA`LIM MUASSASALARIDA BOLALARNING HAYOTI VA SOG'LIGINI MUHOFAZA QILISHNI TASHKIL ETISH TARTIBI TO'G'ISIDA NIZOM

Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2007 yil 25 oktyabrdagi 225-son qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasida davlat maktabgacha ta`lim muassasasi to'g'risidagi nizomga (O'zbekiston Respublikasi qonun xujjalari to'plami, 2007 y., 43-son, 431-modda) muvofiq O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta`lim muassasalarda (bundan keyingi o'rirlarda maktabgacha ta`lim muassasasi deb yuritiladi) bolalarning xayoti va sog'lig'ini muhofaza qilishni tashkil etish tartibini belgilaydi.

I. Umumiy qoidalar

1. Maktabgacha ta`lim muassasasida bolalarning hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilish maktabgacha ta`lim muassasasi hamda shtatdagi tibbiyot xodimlari, shuningdek, maktabgacha ta`lim muassasasiga biriktirilgan sog'likni saqlash organlarining tibbiyot xodimlari tomonidan amalga oshiriladi.

Maktabgacha ta`lim muassasasi ma`muriyati tomonidan bolalarning hayoti, sog'lig'i va jismoniy rivojlanishi, davolash-profilaktika tadbirlari o'tkazilishi, sanitariya-gigiena me`yorlariga, ovqatlanish tartibi va sifatiga rioya etilishi doimiy ravishda nazorat qilib borilishi lozim.

2. Ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar ular bilan maktabgacha ta`lim muassasasi o'rtasida o'zaro munosabatlar bo'yicha shartnomaga tuzilayotgan vaqtda ushbu Nizom talablari bilan tanishtirilishi lozim.

II. Maktabgacha ta`lim muassasasida bolalarning hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilishni tashkil etish tartibi va qoidalari

3. Maktabgacha ta`lim muassasasida bolalarning hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilishda quyidagilar:

- barcha telefon - apparatlari oldida hamda maktabgacha ta`lim muassasasining markazida yongin xavfsizligi, favqulodda vaziyatlar, tez yordam xizmatlari, ichki ishlar idoralarining telefon raqamlari va ularga bog'lanish tartibi ko'rsatilgan peshlavhalar mavjud bo'lishi;

- maktabgacha ta`lim muassasasining barcha xodimlarida muassasa mudiri hamda o'z guruxidagi tarbiyalanuvchilarning yashash manzili, ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslarning telefon raqamlari mavjud bo'lishi shart.

4. Maktabgacha ta`lim muassasasi xodimlari bola to'satdan kasal bo'lib qolsa yoki noxush holat yuzaga kelgan taqdirda, birinchi tibbiy yordam ko'rsatishga tayyor turishi lozim. Xar bir guruxda bolalar tomonidan olishning imkoniyati bo'limgan joyda kerakli dori-darmonlari bo'lган aptechka bo'lishi shart.

5. Maktabgacha ta`lim muassasasida pedagogik kengashlar kasaba uyushmasi yig'ilishlari va boshqa tadbirlarni bolalarning uyqu soatlarida tashkil etish lozim. Bunda albatta guruxda tarbiyachi yordamchisi qolishi shart.

6. Maktabgacha ta`lim muassasasida ovqatlanishni tashkil etish, oziq-ovqat mahsulotlarining saqlanishi va taomlarni tayyorlanishi O'zbekistan Respublikasida tasdiklangan sanitariya qoidalari va me`yorlariga muvofiq amalga oshirilishi lozim.

7. Bolalar sayr va ekskursiyaga olib chiqilganda tarbiyachi tomonidan ularning xech qanday meva va o'simliklarni iste'mol qilmasliklari nazorat qilinishi lozim.

8. Maktabgacha ta`lim muassasasi xududidan uzoqroqqa sayr yoki ekskursiyaga chiqayotgan gurux kamida ikki nafar xodim bilam ta`minlangan bo'lishi lozim. Bunda xodimlarning biri safning oldida, ikkinchisi safning orqasida xarakatlanib borishi lozim.

9. Bolalarni tartibli ravishda sayr yoki ekskursiyaga olib chiqilishi ichki ishlar idoralari bilan kelishilgan xolda o'rnatilgan tartibda yo'l-patrul xizmati xodimlari kuzatuvida amalga oshirilishi kerak.

10. Yayov holda sayr yoki ekskursiyaga chiqishdan oldin tarbiyachi:

- o'tkaziladigan tadbir haqida maktabgacha ta`lim muassasasi ma`muriyatini oldindan ogohlantirishi;
- o'zi bilan olib ketadigan bolalarning sonini bilishi;
- bolalar olib boriladigan joyni avvaldan rejalashtirib olishi va harakatlanish yo'naliшiga aniqliк kiritishi lozim.

11. Kunning issiq paytlarida bolalarga issiqlab ketmasligi uchun engil bosh kiyimlari kiydirishi lozim. Bolalarning quyosh vannalarini qabul qilishi xamda maktabgacha ta`lim muassasasi hududidagi suv havzalarida cho'milishlari tibbiyot xodimlari va tarbiyachining nazorati ostida olib borilishi zarur.

12. Maktabgacha ta`lim muassasasining tarbiyachilarini va boshqa mutaxassislari tomonidan ish vaqt davomida bolalarni qarovsiz qoldirish ta`qiqlanadi. Tarbiyachi yoki boshqa mutaxassislar bo'limganda tegishli guruga mudira tomonidan boshqa javobgar shaxs tayinlanishi lozim.

13. Maktabgacha ta`lim muassasasi xududiga shaxsini tasdiqlovchi hujjati bo'limgan kishilarning kiritilishi ta`qiqlanadi.

III. Maktabgacha ta`lim muassasasiga bolalarni olib kelish va olib ketish qoidalari

14. Ota-onalar yoki ularning o'rnnini bosuvchi shaxslar o'z bolalarini maktabgacha ta`lim muassasasiga olib kelganda tarbiyachining shaxsan o'ziga topshirishi, shuningdek bolani maktabgacha ta`lim muassasasidan olib ketish vaqtida tarbiyachilar bolani shaxsan ota-onalarga yoki ularning o'rnnini bosuvchi shaxslarga topshirishi shart.

15. Bolalarni maktabgacha ta`lim muassasasidan yakin karindoshlari tomonidan olib ketilishiga yo'l ko'yiladi. Bunda bolalarni olib ketuvchi shaxsning shaxsini tasdiqlovchi xujjatlari ko'rsatilishi lozim.

Maktabgacha ta`lim muassasasidan bolalarni boshlang'ich matab yoshidagi (1-4 sinflar) hamda mast xolatdagi shaxslar tomonidan olib ketilishi ma'n etiladi.

16. Ota-onalar yoki ularning o'rnnini bosuvchi shaxslar o'z bolasini maktabgacha ta`lim muassasasidan olib ketishga kelmay qolganda, tarbiyachi ish vaqtidan so'ng bolani uyiga kuzatib qo'yishi lozim.

Bunday vaqtida tarbiyachi tomonidan bolani bir o'zini guruxda yolg'iz qoldirish yoki boshqa xodimlarga tashlab ketishi qat'ian taqiqlanadi.

17. Tarbiyachi tomonidan bolani uyiga kuzatib borish bilan bog'liq bo'lgan harajatlar bolaning ota-onasi yoki ularning o'rnnini bosuvchi shaxslari tomonidan sarflanadi.

19.4. Ota – onalar savodxonligini oshirishda oilaning vazifalari.

XXI asr o'zbek oilasida dunyoga kelib, shakllanadigan shaxslarning erkin fikrlaydigan, oilada, atrof-muxitda bo'layotgan voke-a-xodisalarni xaqponiy baxolaydigan va ularga erkin munosabatlarini bildira oladigan, o'zining ilg'or fikrlari, namunasi bilan oila a`zolari, safdoshlari, jamoasiga ta`sir qila oladigan, ularni ezgu maqsadlar yo'lida birlashtirish kuchiga ega, jamiyat, davlat, xalk manfaatlarini o'z manfaatlaridan ustun qo'yadigan, fidokor, tashabbuskor,

tadbirkor, ijodkor bo'lmog'i nazarda tutiladi. Bunga esa ota-onal ibrati, momolar va bobolar o'gitlari, ma`nan sog'lom oila muxitidagina erishish mumkin.

Oilada farzandlar dunyoga kelishi bilan ularning taqdiriga jonsaraklik bilan karash orkali ota-onalar surriyodlarining qobil va aqli, imon e'tiqodli, sog'-salomat voyaga etishi ustida jon koyitadilar. O'zbek oilasida avlodlardan meros shunday tarbiya mezonzlari va an`analari mavjudki, ularning xayotiyligi va bardavomligi bois millatimiz ma`naviyati yuksak pog'onalarga kutarildi. Lekin shuni e'tirof etmoq lozimki, bugungi kunda fuqarolarning xuquqiy, tibbiy, iqtisodiy, ma`naviy madaniyati darajasini davr talabiga to'la javob beradi, deb bo'lmaydi. Ba`zi yoshlarning nikoxdan o'tmasdan oila qurishlari, meros taqsimotida aka-uka, opa-singillar o'rtasida paydo bo'ladigan noxushliklar, erxotin nikoxini bekor qilish jarayonidagi noroziliklar, ovsinlar, kaynona - kelin o'rtasidagi uy-joy taqsimotidagi janjallar xuquqiy savodxonlik va ma`naviy madaniyat darajasining pastligi tufayli sodir bo'ladi. Oilada bo'ladigan bunday noxush xolatlarning oldini olishning asosiy yo'li, avvalo, ota-onalarning xukuiy, ma`naviy-axlokiy bilim va madaniyatini shakllantirishdir. Buning uchun korxona va tashkilotlarda, maxalla va turar joylarda muntazam faoliyat ko'rsatadigan o'quv kurslari, jamoatchi xukukshunoslar maslaxatxonalari, «Ota-onalar universitetlari»ni tashkil etish maksadga muvofikdir. CHunki xukuiy madaniyatli, yuksak ma`rifatli ota-onalargina farzandlarini xar tomonlama etuk kishilar kilib tarbiyalashi mumkin.

Maktabgacha ta`lim muassasalari, umumiy o'rta ta`lim maktablari, o'rta maxsus va oliy ta`lim mazmuniga yoshlarni oilaviy xayotga tayyorlovchi maxsus ukuv kurslari va o'quvchi-yoshlar uchun mo'ljallangan nazariy xamda amaliy xukuiy bilim beruvchi kizikarli metodik qo'llanmalar yaratish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri bo'lib kolmokda. Shuningdek, barcha bosqichlardagi FXDYO lar koshida nikoxga kirayotgan yoshlar uchun «Oila dorilfununi» maxsus kursini joriy etish o'z echimini kutayotgan muammolardandir.

Oilada xukm suradigan sog'lom turmush tarzi yoshlar o'rtasida paydo bo'ladigan ichkilikbozlik, kashandalik, giyohvandlik, jinoyatchilikning oldini olish xamda ularni diniy ekstremistlarning ta`siriga tushib qolishdan saklaydi. SHuning uchun oiladagi sog'lom muxitni mo'tadil saqlash, avvalo, ota-onadan so'ng oilaning xar bir a`zosidan o'ta sergaklik va ogox bo'lishni talab etadi.

Oilada amalga oshiriladigan tarbiya farzandlarda o'z ota-onasi, oilasi, avlod-ajdodlari tarixidan, o'zi tug'ilib o'sgan o'lkasi, Vatani, millati, tili, dini va an`analardan gurlanish xissini shakllantirmogi kerak.

Yurtboshimiz ta`biri bilan aytganda, moddiy etishmov-chilikni mexnat, sabr-tokat, bardosh bilan engsa bo'ladi, lekin ma`naviy inkirozni, ma`naviy kashshokdikni fakat ma`rifat bilan, akdiy kamolot, soglom fikr bilan engish mumkin. Bu o'rinda oilada amalga oshiriladigan barcha ta`lim - tarbiyaviy ishlarning maksadli, rejali bo'lishiga alovida axamiyat bermok kuzlangan maksadga erishish garovidir.

Oiladagi va atrof-muxitdagagi sanitariya-epidemiologiya xolatlarini talab darajasida tashkil etish, shaxsiy gigiena va ovkatlanish koidalariga rioya etish ko'nikma va malakalariiii shakllantirish, salomatlikni saklashda xalk tabobatidan

keng foydalanish, oilada jismoniy tarbiyani keng yo'lga kuyish-turli kasalliklarning oldini oluvchi muxim muolaja xisoblanadi.

Ba`zan oilada er-xotin, qaynona-kelin va boshqalar o`rtasida uchraydigan bir-biriga nisbatan xurmatsizlik, o`zaro nizo, urish-janjallar, xomilador ayolni avaylab-asrash o`rniga ogir mexnat kilishga majburlash, xurlash, bolaning nogiron, jizzaki bo`lib tugilishiga sabab bo`ladi. Ota-onadagi jamiki xislatlar irsiy yo`l bilan xam bolaga utishi tabiiydir. Xatto tugilmagan bolada ona kornidayok ota-onaga nisbatan mexr xissi shakllanishi meditsinada o`z isbotini topgan.

Shaxsning kelajagi tarbiya maskani bo`lgan oilada tarbiyaning kanday amalga oshirilishi xamda ota-onaning o`z burch va vazifalariga kanday munosabatda bo`lishiga boglikdir. Umuman olganda, oiladagi xar bir kishining o`z burch va vazifasiga mas`uliyat bilan yondashishi oila mustaxkamligi va jamiyat farovonligiga erishishning muxim omilidir.

Oila tarbiyasida oila, maktab, maxalla va jamoatchilik xamkor-ligini ta`minlash, oila an`analari, kadriyatları, ota-ona va keksa avlodning shaxsiy namunasidan samarali foydalanish komil insonni shakllantirishda muxim axdmiyat kasb etadi.

Buning uchun, avvalo, ota-onalarning o`zlari xayotni yaxshi bilishlari, O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Oila Kodeksi va boshqa me`yoriy xujjatlarda ko`rsatilgan fukarolar xukuki, erkinliklari va burchlari, oila va nikox munosabat-larining tartibga solinishini o`rganib, ularni xayotga to`g`ri tatbik eta olishlari, konunlarda ko`rsatilgan, xamma uchun majburiy bo`lgan xukukiy kridalarni o`z farzandlariga asta-sekin tushuntirib borishlari lozim. SHuningdek, milliy urf-odatlar, an`ana va kadriyatlarni tulakonli anglay olishlari, ularni bugungi davr talabi bilan uygun tarzda oila tarbiyasida farzandlarga asl moxiyati va ma`nosini etkaza bilishlari zarur. Bo`larni amalga oshirish uchun ota-onalarga, ayniksa, yosh ota-onalarga tegishli tarzda pedagogik bilim berish, oilaviy tarbiya bo`yicha tajriba almashish (integratsiya), ularning pedagogik, ma`naviy-ma`rifiy, xukukiy bilim va madaniyatlarini oshirish, «Oila-maktab-maxalla xamkorligi»ni muvofikdashtirish zamon talabi bo`lib kelmokda. Respublika «Oila» ilmiy-amaliy markazi xodimlari bilan xamkorlikda maxallalardagi oilalarda ota-onalarning ma`naviy-axlokiy, tibbiy-demografik, ijtimoiy-xukukiy savodxonligi darajasini tadkik etish maksadida uch yil mobaynida aniq sotsiologik izlanish olib borildi. Tadkikot o`tkazilgan xududlarda tajriba-sinov tarikasida bir nechta «Ota-onalar universitet» tashkil etildi.

«Ota-onalar universiteta» - ota-onalarni bola tarbiyasi ilmidan vokif kiluvchi, soglon turmush tarzi madaniyatini shakllantiruvchi, axolining ma`naviy-axlokiy, tibbiy-demografik, ijtimoiy-xukukiy savodxonligi va malakasini oshiruvchi jamoatchilik maktabi xisoblanadi.

Mazkur universitetlar mashg`ulotlari uchun ishlab chikilgan dastur 36 soatga muljallandi. Mashg`ulotlar maxallada istikomat kilayotgan ota-onalar, yosh kelin-kuyovlar, oila kurish busagasida to`rgan usmirlardan iborat tinglovchilarning yoshi, jinsi, ma`lumoti xisobga olinib tashkil kilingan xar biri 20-30 kishilik guruxlarda olib borildi.

Maxallalarda tashkil etilgan «Ota-onalar universiteti» maktablar koshida tashkil etilgan «Ota-onalar universiteti»dan o'zining mazmun-moxiyati, tinglovchilar tarkibi va belgilangan vazifalari bilan keskin fark kiladigan targibot mexanizmi bo'lishi bilan fark kiladi. Uning voizlari maxallada istikomat kiladigan xukukshunos, tibbiyot xodimi, psixolog, pedagog va iktisodchilar yoki tashkaridan taklif etilgan mutaxassislar bo'lishi mumkin. Universitetga raxbarlik maxalla oksokoli va diniy-ma'rifiy va ma`naviy-axlokiy tarbiya masalalari bo'yicha maxalla maslaxatchisi, tashkiliy ishlar xotin-kizlar ishlari bo'yicha komissiya raisi, profilaktika noziri zimmasida bo'ladi.

Universitet mashg'ulotlari kuyidagi yo'naliishlarda olib borildi:

- oila xukuki;
- oila demografiyasi;
- oilaning tibbiy-biologik asoslari;
- oila ma`naviyati;
- oila psixologiyasi.

Universitet tinglovchilari yukorida keltirilgan mavzular yo'naliishi bo'yicha mutaxassislarning suxbatlaridan baxramand bo'lishdan tashkari, psixologik testlar, treninglar vositasida interfaol usullarda o'z fikr-muloxazalarini bemalol bayon etish imkoniyatiga ega buldilar. Mashg'ulotlarning mavzulariga karab Respublika «Oila» markazi xodimlari tomonidan tayyorlangan bukletlar, risolalar, tavsiyalar tarkatma materiallar sifatida takdim etildi.

Chunki ularning mashg'ulotlardan zerikmasligi, xar bir mashg'ulotning kizikarli utishini ta'minlash kup jixatdan universitet raxbarining tashkilotchilik kobiliyatiga boglik. Universitetning jamoatchilik makrmidagi raxbari maxalla faollaridan biri bo'lib, uni erkin, demokratak asosda tinglovchilarning o'zлари birinchi uchrashuvdayok saylab oladilar.

Universitetdagi mashg'ulotlarning izchilligi tinglovchilarning kizikishini anik maksad sari yunaltiradi, kuzda tutilgan tajribaviy ishlar samaradorligini ta`minlaydi.

Ma'ruzachilarning o'z suxbatida olib borilgan tadkikot materiallaridan, statistik ma`lumotlardan, gazeta-jurnal materiallaridan, xayotiy misollardan foydalanishi tinglovchilarning kizikishini oshirishi kuzatildi.

Mashg'ulotlarni dolzarb xayotiy masalalar yuzasidan nazariy bilim berish bilan birgalikda baxs-munozara, erkin fikrlash, savol-javob, situativ xolatlarni baxolash kabi amaliyot bilan uygunlashgan xolda o'tkazish maksadlidir. Kurs yakunida ota-onalar bilimi test mezonlari asosida baxolanadi. Universitetni muvaffakiyatli tamomlagan tinglovchilarga «Oila» markazining sertifikata tantanali tarzda takdim etildi. Sertifikat, o'z navbatida, universitet bitkazuvchisining nafakat o'z oilasi mustaxkamligi, balki kuni-kushni, maxalla yoshlari uchun mas`ul ekanligining belgisi sifatida oilalarda saklanadigan buldi. Maxallada tashkil etilgan «Ota-onalar universiteti»ning ijobiy sifatlaridan biri tinglovchilarning ma`naviy-axlokiy masalalarga doir bilimi, dunyokarashi va mafko'rasini shakllan-tirish orkali komil insonni tarbiyalashda foydali bo'libgina kolmay, oila mustaxkamligining tayanchi sifatida xizmat kilishidir.

Nazariy vazifa oila pedagogikasi bilimlarni tuplab jamiyatda o'rganayotgan jarayon va xodisalarning tulik tasvirini tuzishga intilishida namoyon bo'ladi.

Oilaning ijtimoiy vazifasiga oilada farzandlarni tarbiyalash, inson sifatida kamolga etkazish, ularning tabiatga, jamiyatga va o'zaro muxabbatini shakllantirish, dam olish va salomatligini tiklash kabilar kiradi.

Oilaning ma`naviy vazifasi oila ma`naviyatini yuksaltirishdan iborat bo'lib, bundan xar bir davlat manfaatdordir. CHunki ma`naviyati yuksak shaxslar axolining aksariyat ko'pchilagini tashkil kilgan sharoitdagina tinchlik, mexr-muxabbat, fukarolar va millatlar o'rtasida xamkorlik, jipslik mustaxkam bo'ladi va davlat barkaror rivojpanib boradi. Ana shu ikkala xayotiy vazifa shaxe ma`naviyatini rivojlantirishning omil va vositalaridan samarali foydalanishni takozo etadi. Kattalarga izzat-ikrom, kichiklarga mexr-shafkat, ota-onalarga e`zoz, farzandlarga mexr-muxabbat kabi insonni inson sifatida uluglaydigan, axlokiy, ma`naviy jixatdan go'zal va barkamol kiladigan kadriyatlarimiz xar bir fukaro, ayniksa, yoshlar kalbidan mustaxkam o'rinni olishi lozim.

Oilaning tibbiy-biologik vazifasi. Turmush tarzi madaniyati bevosita salomatligimizga ta'sir etar ekan, buni biz bevosita soglom turmush tarzi deb atab, tibbiy nuktai nazardan yondashamiz va uni kanday amalga oshirish lozimligi xamda farzanlarimiz tarbiyasida kanday o'rinni tutishi xakida fikr yuritamiz.

Oilaning inson shaxsiga oid vazifasi. Inson moxiyatini falsafiy-ma`naviy jixatdan taxlil kilishda shaxe, individ, fukaro tushunchalarining moxiyatini bilib olish muxim axamiyatga ega. Shundan kelib chikib, kuyidagi vazifalar belgilanadi:

- o'z xaqq-xukukini tanish, buning uchun kurashish;
- o'z kuchiga tayanishi, imkoniyatlarini ishga solish, samarasini kurish;
- atrofida sodir bo'layotgan vokea-xodisalarga mustaqil munosabat bildira olish;
- shaxsiy manfaatini mamlakat va xalk manfaati bilan uygun xolda kurib, faoliyat yuritish.

Oilaning iktisodiy vazifasiga oilani iktisodiy ta'minlash, oila xujaligini yuritish, oilaparvar ota va onani tarbiyalash, oilaviy tadbirkorlik, fermer, kasanachilikka oid bilimlarni egallash ishlari kiradi.

Oilaning xuquqiy vazifasiga oila va nikoxning mukaddasligini anglash, oilani xukuiy asosda kurish, ajrimga oid muammolarni bartaraf etish, xar xil yot g'oyalarga berilib turli okimlarga kirib ketmaslikdan ogox bo'lish, ota-onaning bolalar oldidagi, farzandlarning ota-ona oldidagi burch va vazifalarini anglash, xukuiy savodxonlikka erishish kiradi.

Oilaning demografik vazifasi oilada farzandlar tugili-shi, yangi oilalar paydo bo'lishi, oila davomiyligini ta'minlashga karatiladi. Demak, oila ijtimoiy institut sifatida, eng avvalo, tugilish orkali axolining ma'lum mikdorda muttasil usib borishini ta'minlash, migratsiya yoki ulim okibatidagi kamayi-shining oldini olish vazifasini bajaradi. CHunki ijtimoiy xamda iktisodiy rivojlanish uchun mexnat resurslari va ishchi kuchining yangilanib borishidan jamiyat xam, odamlar xam manfaatdordir.

Oilaning amaliy vazifalari oilaviy ta'limning ijtimoiy pedagogika yo'nalishida tashkiliy-pedagogik va psixologik ta'sirini samarali takomillashtirish

bilan boglik tadkikotlarni amalga oshirishdan iborat bo'lib, unga kuyidagilar kiradi:

- 1) oila a`zolari ongida yaxshilik, xamjixatlik, axillik, mexrvafo va adolat tuygularini tarbiyalash;
- 2) inqirozdan mustaqil chikib ketish yo'llarini anikdash, atrofdagilar bilan muomala kilishni o'rganish, xayot mazmuni va maksadini anglab etish;
- 3) atrof-muxit, inson, uning jismoniy va ma`naviy xususiyatlari, jamiyatdagi xukuk va majburiyatlarni bilishga intilishni rivojlantirish;
- 4) g'urur, mustaqillik, o'z - o'ziga ishonch xissini uyg'otish;
- 5) oila a`zolari, ayniksa, bolalarga oila, maktab, maxalla, jamoatchilik o'rtasida, tengdoshlari davrasida muomala kilishni o'rgatish.

Bunda tarbiyalanuvchilarning yosh xususiyatlarini xisobga olgan ijtimoiy munosabatlarning axlok va xukuk me`yorlariga suyangan xolda oila a`zolari, shaxe va jamiyat o'rtasidagi nizolarni echishga o'rgatish kuzda to'tiladi. Bu vazifalar oilaviy xayotga tayyorlash, o'z xayotini tashkil kilishga o'rgatish, iktidorini rivojlantirishda o'z aksini topadi. SHunga ko'ra oilaviy ta`lim faoliyatiga yunaltirishning tizimi ishlab chikildi.

Tarbiyaviy vazifa bolani atrof-muxitga kushilish, kasb-xunar orttirishga yunaltirish, ukuv-tarbiya jarayoniga kuniktirishni ko'zda tutadi.

Ijtimoiy reabilitatsiey vazifa - jismoniy va ru\ny nogiron bolalar bilan tarbiyaviy va ukuv ishlarini olib borishdir. Bunda asosiy ijtimoiy vazifalarni pedagog va ota-onalar bajaradi.

- SHu bilan birga, u vazifalarning yanada kengrok tavsiflarini xam beradi::
- 1) kam ta`minlangan, yordamga muxtoj oilalarga yordam ko'rsatish. Inkirozdan chikish yo'llarini topish, kiyin vaktda kullab-kuvvatlash;
 - 2) farzandlarning oila va maktabdagagi munosabatlarini o'rganish;
 - 3) oilaga ta`sir kiluvchi turli omillarning xolatini o'rganish;
 - 4) soxa mutaxassislar diqqatini ijobiy tajribalarni taxdil kilish va targib kilishga karatish;
 - 5) oila muxitida farzandlarning o'z - o'zini tarbiyalash, xayotini mustaqil tashkil kilishga o'rgatish;

Oilaviy ta`limning vazifalaridan yana biri oilaviy tarbiyaning turli muammolarini o'rganish, barkaror va mustaxkam oilalarning ijobiy tajribalarini taxdil kilishdir.

Oilaviy tarbiya metodologiyasi. Boshqa yo'naliishlar singari oilaning xam ta`lim - tarbiyaga bo'lган extiyoji etakchi o'rinni egallaydi. Undan jamiyat va davlat manfaatdordir. Chunki muayyan davlatning ma`naviy, iktisodiy va madaniy tarakkiyoti oilaning ijtimoiy moxiyatini tashkil etuvchi bilim darjasini va bu bilimlarni ma`naviyatga aylantirib ulgo'rganlik xolatidan kelib chikib belgilanadi.

Oila a`zolarining bilim darajasi ularga berilgan ta`lim - tarbiyaning sifati bilan chambarchas boglik. Demak, bizning vazifamiz oila a`zolarining bilimlarini ma`lum bir kadriyat-larga moe ravishda oshirish va ma`naviyatini yuksaltirishdir.¹

Umumiy muassasalar orkali ta`lim - tarbiya davlat va jamiyatning shu kundagi va istikboldagi tarakkiyotiga javob beruvchi ukuv reja va dasturlar asosida ukuvchi va talabalar orasida maksadga yunaltirilgan ta`limni amalga oshiradi. Buni rasmiylashtirilgan ta`lim - tarbiya deyiladi.

Undan tashkari, jamiyatda yashaydigan xar bir oila a`zosi o`zini shu oilaning xakikiy a`zosi deb anglab, shu jamoa a`zosi sifatida xis kilib, jamiyatga moslashib borishi zarur. Muayyan jamiyatga karshi fikrda bo`lgan va gayri ijtimoiy xarakatlar kiladigan odamni jamiyat uzidan ajratib, chetlatib kuyadi.

Ta`lim - tarbiyani davlat tomonidan rasmiy ravishdami, ota-onada va jamoatchilik tomonidanmi amalga oshirish jarayonida butun dunyoda sinovlardan utgan muayyan tamoyillarga amal kilish shart bo`ladi. Tamoyillar sifatida amal kilish lozim bo`lgan konuniyatlar va konun-koidalar majmuiga metodologiya deyiladi.

Ta`lim - tarbiya jarayonining umumiy metodologiyasiga muayyan xududda xamma uchun eng umumiy maksad deb kabul kilingan jamiyatning eng umumiyo ko`rsatkichlari kiradi. Bizning ishimizdagি misollarda bu biz ko`rayotgan fukarolik jamiyatining ko`rsatkichlaridir. Bu ko`rsatkichlarga: jamoat tashkilotlarining davlat siyosatining ustuvorligi, ya`ni jamiyatda mavjud ijtimoiy, iktisodiy, tibbiy, ma`naviy-axlokiy munosabatlар me`yorlarini davlat emas, jamiyatning o`zi, o`z tashkilotlari orkali belgilashi kiradi. Oilaviy ta`lim uchun **metodologik manba** Prezidentimiz Islom Karimov asarlarida jamiyatning siyosiy, iktisodiy va ma`naviy soxalarida isloxtlarni erkinlashtirish va chukurlashtirish, mamlakat xavfsizligini ta`minlash bo`yicha bayon etilgan fikrlari, «Milliy istiklol g`oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar»da oilaga taallukdi g`oyalar, milliy falsafaning ustuvor tushunchalari asos kilib olindi. SHu ma`noda oilaviy ta`limdagi asosiy tarbiyaviy g`oyalar xam kuyida-gilarga xizmat kiladi:

- Vatan ravnaki;
- Yurt tinchligi;
- Xalk farovonligi;
- Komil inson tarbiyasi;
- Ijtimoiy xamkorliq
- Millatlararo totuvliq
- Dinlararo bagrikenglik (tolerantlik).

Oilaviy ta`lim kontseptsiyasi O`zbekiston Respublikasida amalda mavjud bo`lgan krnuniy xujjalarga:

- a)O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi;
- b) Oila Kodeksi;
- v) Fukarolik Kodeksi;
- g) Mexnat Kodeksi;

1. D.R.Xoliqov “Oilaviy ta`lim: nazariya va amaliyot” (Monografiya) Toshkent “Fan va texnologiya” 2010 y. (152-156 betlar)

d) «Fukarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari to'g'risidagi» O'zbekiston Respublikasi Konuni;

e) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining oila, ona va bolalikni ijtimoiy muxofaza kilishga doir farmon farmoyishlari;

j) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining karorlari va farmoyishlari;

z) Vazirlar Maxkamasi tomonidan Respublika Prezidentining tashabbusi bilan oila, onalik va bolalikni ijtimoiy muxofaza qilish maksadida kabul kilinayotgan Davlat dasturlari to'g'risidagi karorlar kiradi.

Kontseptsianing asosiy g'oyalari va ulardan kelib chikadigan vazifalarni bajarish va xayotga tadbik etish ma'lum tashkiliy masalalarni xal kilish orkali amalga oshiriladi. Xususan, oila va nikox borasidagi konunlarning keng mexnatkashlar ommasi, xususan, yoshlар ongiga etkazish maksadida:

- oliy va o'rta maxsus ukuv yurtlarining gumanitar yo'nalishi fakultetlarida «Oilashunoslik», «Oila pedagogikasi» kurs-larining ukitilishini yo'lga kuyish;
- mavjud konunlarni maxallalarda targib etish va tushuntirish ishlarini takomillashtirish;
- oila va nikox borasidagi xujjatlarning sharxdarini o'zida ifoda etgan ommabop risola va bukletlarni nashr etish;
- yosh oilalarning iktisodiy-ijtimoiy makomini kuchaytirish borasida amaldagi mavjud konunlarga ayrim o'zgartirishlar kiritish;
- maxalla faollari va xotin-kizlarning konunlar ijrosini nazorat kilish borasidagi ishtioklarini faollashtirish.

Yoshlarni oilaviy xayotga tayyorlash borasidagi ishlarni takomillashtirish, Kontseptsiya ruxiga monand ma`naviy-ma`rifiy ishlarni yaxshilash maksadida:

- barcha turdag'i ta`lim muassasalarida yoshlarni oilaviy xayotga tayyorlash yo'nalishida uzuksiz ta`lim - tarbiya dasturlari ni ishlab chikib, xayotga joriy etilishini ta`minlash;
- oila masalalarini chukur va anik o'rganish, ilmiy-amaliy ishlar samaradorligini oshirish maksadida pedagogik ta`lim yo'nalishlaridagi oliygoxdarda oilashunoslik ixtisosligida malakali mutaxasislar - bakalavr va magistlar tayyorlashni yo'lga kuyish;
- oilashunoslik masalalari bilan shugullanuvchi amaliyotchilar uchun reja asosida maksadli ukuv seminarlari va malaka oshirish kurslari tashkil etish;
- «Oila dorulfununlari» ishlarini takomillashtirish uchun malakali voizlar va mutaxassislarni joylardagi maxalla faollari zaxirasi xisobidan kupaytirishga erishish;
- FXDYO koshida yoshlar maslaxatxonalari ishining muntazam olib borlishini nazorat kilish;
- oilashunoslik masalalari bilan shugullanuvchi ilmiy guruxlarga mablag ajratgan turli jamgarmalar, xorijiy kompaniyalarning davlat soliklarini tulashda imtiyozlardan foydalanishiga imkon berish;

- oila manfaatlarini ximoya kiluvchi davlat muassasalarini zaruriy ish kurollari - kompyuterlar, nusxa kuchirish dastgoxlari, kabinet jixozlari, ashayolari, «Internet» bilan ta`minlashda xokimliklarning yordamini kuchaytirish.

Oilaviy ta`lim kontseptsiyasi umumjaxon tajribalariga asoslangan xolda yoshlarda umuminsoniy kadriyatlarini karor toptirish, oilaviy xayotga tayyorlash orkali ularga katta xayotiy yo'llanma berish, oila mustaxkamligi va barkarorligini ta`minlash xamda ularni oila va nikoxning mukaddasligi xakidagi bilimlar bilan kurollantirishda kuyidagi vosita va usullardan foydalanishni tavsiya etadi:

- yoshlarning ijtimoiy-siyosiy mavkeini, akliy-ma`rifiy saviyasi ko'rsatkichlarini dunyoning eng tarakkiy etgan mamlakat-laridagi darajasiga etkazish yo'llarini aniklash xamda xayotga tatbik kilishni ta`minlash;
- yoshlarning ijtimoiy ximoyalanishini yaxshilash;
- yoshlar salomatligini muxofaza kilish yo'llarini takomillashtirish;
- jamiyatimiz tarakkiyoti yo'lida yoshlarning mexnati, akd-zakovati va bilimidan samarali foydalanish tizimini yaratish;
- yoshlarni xayotga tayyorlash masalasida milliy urf-odat va kadriyatlar xisobga olingan milliy dastur namunasini ishlab chikish;
- umuminsoniy va milliy kadriyatlar asosida yosh oilalarning mustaxkamligini ta`minlash tizimini barpo etish;
- oila va nikox to'g'risidagi konun xujjalarni yoshlar ongiga singdirishning yangi tizimini ishlab chikish;
- yoshlarni xayotga tayyorlash masalalarida joylardagi F\TSr. bo'limlari ishini takomillashtirish;
- yoshlarga milliy istiklol g'oyasini singdirishda joylardagi oila markazlari ishini jonlantirish;
- fukarolarda oila va nikox institutlariga nisbatan xurmat xissining ustuvor bo'lishida ilg'or tajribalardan, ajdodlar merosidan keksa avlod vakillarining tarbiyaviy maktablaridan xamda amaliyotda samara bergen barcha pedagogik va psixologik vositalardan o'rinali foydalanish;
- ta`sirchan uslub va vositalarning doimiy monitoringini olib borish.

Oilaning mustaxkamligi oila ko'rayotgan yoshlarning xayotga kay darajada tayyor ekanligiga, ota-onalarning o'z farzandlarini oila va nikox masalalariga bilimdonlarcha yondashuviga boglik ekan, bu borada maxallalar xamda ta`lim muassasalarida olib borila-digan targibot va tashvikot ishlarning samaradorligiga aloxida e'tibor karatilmogi lozim. Bu ishlarda targibotchi xamda tashvikotchilar uchun adolat va tenglik karor topgan demokratik jamiyatda oilaviy munosabat yuksak ideallar: muxabbat, dustlik, birodarlik, o'zaro xurmat-izzat tamoyillari asosida tuzilishi tushunchasini yoshlar ongiga singdirish.

Bugungi kunda demokratik jamiyat zaminida tarkib topgan axlokiy me`yorlar xar bir fukaroning o'z oilasiga, bolalari va yakin karindoshlariga to'g'ri va samimiyl munosabatda bo'lishi, lozim xollarda ularga ma`naviy va moddiy yordam berish yuzasidan kuyidagi tavsiyalarni belgilaydi:

- maxallalarda, ta`lim muassasalari va tashkilotlarda, axoli va yoshlar o'rtasida «Oila Kodeksi»da belgilab utilgan xukukiy va axlokiy me`yorlar tushunchasini

ilmiy-amaliy seminarlar, anjumanlar, teleko'rsatuvarlar va uchrashuvlar orkali keng xal k ommasiga etkazish;

- yoshlarga «Oila. Kodeksi»da nazarda tutilgan nikox va oila masalalarida davra suxbatlari, konunlar yaratuvchi tashkilotlar vakillari bilan uchrashuvlar tashkil etish va tushuntirish ishlarini olib borish;
- ta`lim muassasalarida, maxallalarda yoshlarga nikox va oila masalalarida kiska muddatli ukuv seminarlari tashkil etish;
- maxdllalar va ota-onalar uchun nikox, va oilaning xukuk va majburiyatlarini to'g'risida metodik tavsiyanomalar ishlab chikish;
- joylardagi uchrashuvlarda oila borasida xam konun ustuvorligi, oilaviy shartnomalarning oila a`zolari manfaatlarini ximoya kilishini, tibbiy kurikdan utishning ma`naviy va tibbiy-biologik axamiyatini tushuntirishga urgu berish;
- yoshlar va ota-onalar bilan mulokotlarda fikrlarini demokratik mulokotning barcha tamoyillariga amal kilgan xolda samimiyl, sodda, tushunarli va lunda tilda bayon etishga erishish;
- targibot va tashvikot ishlarida keng mexnatkashlar ommasi orasidan faol ziyyolilar, tajribali insonlar, oksokollar, xotin-kizlar, maxalla faollari xamda kobiliyatli, saloxiyatli odamlar bilan ishlash malakasidan okilona foydalanish.

Oilaviy ta`lim kontseptsiyasi doirasida kuyidagi tamoyillar tizimi yaratildi:

- 1.Oilaning mustaxkamligini ta`minlashga karatilgan xukumat karorlarining ustuvorligi tamoyili.
2. Oilaning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon kila olish tamoyili.
- 3.Oila a`zosining erkin faoliyat yurita olish tamoyili.
4. Oila a`zosi yuridik shaxs makomida istagan jamoat tashkilotiga a`zo bo'la olishi tamoyili.
- 5.Oilaning ichki ishlariga davlat aralashuvining konun orkali takiklanishi tamoyili.

Ushbu tamoyillar ta`lim - tarbiyani amalga oshiruvchilar uchun eng umumiy metodologiyaning birinchi kismini tashkil kiladi, ularning amaliyoti uchun muxim vazifani utaydi. Oilaviy ta`lim - tarbiyani amalga oshiruvchilarning umumiy metodologik asosining ikkinchi kismini xar bir narsa va xodisaga umumiyl yondashuv tamoyili tashkil kiladi.

Bolaning matabda olgan ta`lim - tarbiyasi va ota-onalar tarbiyasi jarayoni umumiy tamoyillarning birinchi kismini tashkil kiladi. Bu esa aklli, odobli, bilimli, mexnatsevar, soglom, milliy gururi yukori, vatanparvar, baynalminal, insonparvar, jasur, shiddatli, sabr-kanoatli va saxovatli bo'lishni takogo kiladi.

Oilaviy ta`limning ikkinchi kismi didaktikaning 9 printsipini tashkil kiladi. Bo'lar: bilim berishda ilmiylik, ta`lim oluvchilar imkoniyati va yosh xususiyatlaridai kelib chiqib, ko'rgazmalilik, muntazamlilik va davomiylik, xayot bilim boglish, ta`lim va amaliyot birligi, onglilik xamda ta`lim - tarbiyanshp birligi tamoyillaridir.

Oilaviy ta`limda yukorida ko'rsatib utgan uch turdpgi metodologik asosning ikkala kismiga xam birday amal kilishi shart, aks xolda kerakli natijaga erishib bulmaydi.

Oilada tibbiy madaniyatni oshirish tizimi xaligacha mavjud emas edi. SHuning uchun xam oilada tibbiy madaniyatni shakllantirish jarayonini islox kilish dolzarb axamiyat kasb etadi. Bu muammolarni mamlakatimiz mikyosida echilmay kelishi kuyidagilarga sabab bulmokda:

1. Malakasiz mexnatning bajarilishi (buning natijasida onalar o'z xududlaridagi tibbiy muassasaga borib, o'z vaktini sarflamokda).
2. Onalik va bolalik vazifasini tula xis etmaslik.
3. Bolalarning salomatligini ximoya kilish fakat tibbiy xodimlarning ishi deb karash.
4. Ota-onalarning, ayniksa, onalarning oiladan tanshari mexnat bilan band bo'lishi.
5. Ota-onalarning dastlabki yordam ko'rsatish malakasiga karatilgan bilimlarni egallamasliklari.
6. Ota-onalarni tibbiy madaniyatni oshirishga karatilgan **ilmiy metodik** adabiyotlar bilan etaricha ta`minlamaganligi.

7. Maxallalarda ota-onalarning tibbiy savodxonlikni oshirishga karatilgan jamoat institutlariga to'la jalb qilmayotganligi.

Ota-onalarda tibbiy madaniyatni shakllantirishning kontsep-tual asoslari kuyidagilardan iborat:

1. Oila-nikox mukaddasligini teran anglaydigan, oila a`zolari salomatligi ijtimoiy-turmush madaniyatining muxim yo`nalishi deb karaydigan, yuksak axloksi, o'zi va boshqalar salomatligini uylaydigan, yuksak ma`naviyatli bo'lajak ota-onalarni tarbiyalash.
2. O'zi, oila a`zolari va boshqalar sog'lig'ini birinchi o'ringa qo'yib, sog'лом turmush tarzi axamiyatini anglatish.
3. Imkoniyati cheklangan farzandlar dunyoga kelishining oldini olish bo'yicha oila a`zolarining dunyokarashini shakllantirish.

Oilada shaxsiy salomatlikni muxofaza kilish modeli Kuyidagilarda namoyon bo'ladi:

1. Birinchi model - zararli odatlarning oldini olish: chekish, ichish, giyoxvandlik, foxishabozlik kabi illatlarning ularga etkazadigan ziyonidan xabardor kilishga muljallanadi. Bu model kam samara beradigan ta`sir vositasi xisoblanadi.
2. Ikkinci modelda inson ongiga ijobiy ta`sir o'tkazadigan ob`ektiv statistik ma`lumotlar oila a`zolari, jamoatchilik kabilalar orkali etkaziladi.
3. Uchinchi model zamonaviy targibot-tashvikot jarayonida «Oilaning tibbiy-biologik asoslari» va maxallalarda tashkil etilgan kurelar orkali salomatlikni muxofaza kilishga karatilgan malakalarni shakllantirishga karatiladi.

Bunday tushunchalar o'zida jismoniy madaniyat, ovkatlanish madaniyati, mulokot madaniyati, axlokiy madaniyat, ekologik madaniyat kabilarni mujassamlashtiradi.

Nazorat savollari:

1. Oila bilan qanday xamkorlik ishlari tashkil etiladi va bo'lar qaysilar?

2. Mahalla qva jamoatchilik bilan ish shakllari nimalardan iborat va bunda uslubchining roli qanday?
3. Ota – onalar uchun beriladigan maslahatlardan namuna – misolar keltiring.
4. Bolani maktab ta`limiga tayyorlashda tarbiyachining asosiy vazifalarini ko’rsating.

1. Oilaning vujudga kelishi

- A. Oila dastlab xususiy mulk paydo bo’lgan davrda vujudga kelgan
- B. Oilaviy nikox kabilar orasida vujudga kelgan
- V. YAKKA oila paydo bo’lishi natijasida
- G. Oilaning nikoxga asoslanishi

2. Oilada ota-onalarning o’rnini, ularning burch va vazifalari

- A. Ota-onalarning burchi, farzandni dunyoga keltirish, ijtimoiy muhit yaratish, o’qitish, ta`lim-tarbiya berish
- B. YAshash uchun sharoit yaratish
- V. Bilim berish
- G. Farzandlari oldidagi burchlarini xis qilish

3. Oilada paydo bo’lgan ruhiy tanglik, uning kelib chiqishi va oldini olish.

- A. Oilada ota-onanining ilk munosabati, hamisha bir-birini tushunishi, konfliktlari kelib chiqishiga yo’l qilmaslik
- B. Bir-birini kam ko’rmaslik
- V. Hamkor, fikrdosh bo’lish
- G. Ota-onanining sog’lom turmush tarzini tashkil etishi

4. MTM ning oila bilan ish shakli qaysi bandda to’g’ri ko’rsatilgan?

- A. Oilaga borib ko’rish, ko’rsatmali ishlar, shaxsiy suxbatlar, maslahatlardan, ota-onalar majlislari.
- B. Ota-onalar majlislari, ko’rsatmalar, suxbatlar, ochiq eshiklar
- V. Ochiq tadbirlar, ochiq mashg’ulotlar, kechalar
- G. Davra suxbatlari, kinoqilmalar namoyish etish, ochiq tadbirlar

5. Oiladagi bolalarni maktabgacha ta`limiga jalb etish yo’llarini aniqlang.

- A. Oila sharoitida mustaqil, maxsus tayyorlangan repititorlar, tarbiyachilarni jalb etish, turli MTMlarga mavsumiy qatnash yo’li bilan
- B. YAKshanbalik, shanbalik maktablari
- V. Mavsumiy maktabgacha muassasalarga qatnash
- G. Ota-onalar tomonidan bolalarni tayyorlash

Adabiyotlar:

1. I.A. Karimov “YUksak ma`naviyat engilmas kuch”. Toshkent “Ma`naviyat” 2008 y.
2. S.Otamurodov va boshqalar. “Ma`naviyat asoslari”. Toshkent 2002 y.

3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent 1992 y
4. O.U.Xasanboeva va boshqalar. "Oila pedagogikasi" Toshkent "Aloqachi" 2007 y.
5. O.U.Xasanboeva "Oilada barkamol avlod tarbiyasi". T., «Fan va texnologiyalar» 2010 y.
6. U.Otavalieva "Bola tarbiyasida bog'cha va oila hamkorligi" Toshkent "O'qituvchi" 1994 y.
7. M.Inomova. Oilada bolalarni ma`naviy axloqiy tarbiyasi. T.: "O'qituvchi", 1999 y.
8. R.To'raqulova Oilada sog'lom muhit va reproduktiv madaniyat. T.: "O'qituvchi" 2005 y.
9. A.K.Munavvarov Oila pedagogikasi. T.: "O'qituvchi", 1994 y.
- 10.D.R.Xoliqov "Oilaviy ta`lim: nazariya va amaliyot" (Monografiya) Toshkent "Fan va texnologiya" 2010 y.

XX BOB. Ota-onalar uchun kechalar va to'garaklar uyushtirish (amaliy)

Reja:

1. Maktabgacha ta`lim muassasasida ochiq eshiklar kunini tashkil etish, yosh ota-onalar maktabi.
2. Aholi o'rtaida pedagogik tashviqot va pedagogik bilimlar universiteti.

Mustaqil ish: Ota-onalarga bola tarbiyasiga oid maslahatlar yozib kelish.

Mavzunig maqsadi: Maktabgacha ta`lim muassasasining ota-onalar bilan hamkorlikda olib boradigan ish shakllari to'g'risida tushunchalarini mustahkamlash.

Mavzuning vazifalari: Ota-oanlar uchun ochiq eshiklar kuni, ota-onalar maktabi, pedagog bilimlar universiteti to'g'risidagi bilimlarni takomillashtirish.

20.1. Maktabgacha ta`lim muassasasida ochiq eshiklar kunini tashkil etish, yosh ota-onalar maktabi.

Ota-onalar bilan ishlashning eng samarali shakllaridan biri ochiq eshiklar kundir. Maktabgacha ta`lim muassasasi ishining butun murakkabligi, ko'p qirralilagini va uning bolalar tarbiyasidagi ahamiyatini tushunish uchun hamma ota-onalar maktabgacha ta`lim muassasasisida bo'lib turishlari kerak.

Ochiq eshiklar kuni jamoaning o'z kalendar yillik rejasi bo'yicha, har bir yoshdagi guruhning ma'lum kun tartibi bo'yicha odatdagi mehnat kundir. Bunday kunlarni yiliga 1-2 marta o'tkazish tavsiya qilinadi.

Ochiq eshiklar kunini o'tkazish mo'ljallanganda avval tayyorgarlik ishini o'tkazish zarur, ya'ni ota-onalarga bolalarni jismoniy chnniqtirish, ovqatlantirish, mashg'ulotlarning borishi, sayr qilish va boshqa ko'pgina narsalarni ko'rish imkoniyatiga ega bo'lishlari haqida ma'lum qilinadi. Ota-onalarga esa quyidagnlarni eslatiladi: bolalar bilan oddiy munosabatda bo'lish, ularning faoliyatida imkonи boricha ishtirok etish, tarbiyachi mashg'ulot o'tkazayotgan bolalar diqqatini chetga tortmaslik, o'zining farzandiga hatto u diqqat qilmayotgan yoki biror narsani noto'g'ri qilayotgan bo'lsa ham tanbeh bermaslik, o'z taassurotlarini, fikrlarini ko'rik tugagandan so'ng bolalar ishtirokisiz aytish mumkinligi kabi odob qoidalariga rioya qilishni iltimos qilinadi.

Ochiq eshiklar kunini o'tkazishga tayyorlanayotganda fotosuratchini taklif etish, keyinchalik esa «Ota-onalar bizning mehmonimiz» yoki «Bizda ochiq eshiklar kuni» mavzuida fotoko'rgazma tashkil etish mum-kin. Bu ko'rgazma maktabgacha ta`lim muassasasisiga shu kun tashrif buyurmagan ota va onalarda ancha qiziqnsh uyg'otadi.

«Mohir qo'llar zerikmaydi»— eng yaxshi o'yinchoqlar tanlovini o'tkazish

Bolalarni tarbiyalash san`ati haqida ma`ruza va suhbatlar tsiklini tashkil etish mumkin. Masalan, respublikamiz, viloyatlar, tumanlar va mahalladagi namunali

oilalardan tanlab olib, oilalarda ota-onalar qarashidagi birlik, o'zaro munosabatda rostgo'y-lik, samimiylilik va mehnatsevarlik yuqori ahloqiy g'oyalarni shakllantiradi mazmunidagi suhbat va ma`ruzalarni o'tkazib turish samara beradi.

Bu uchrashuvlardan asosiy maqsad, bolalarga jonli, tushunarli suhbatlar orqali Vatanga, xalqiga, uningeng yaxshi namoyandalariga, hamma oddiy mehnatsevar odamlarga hurmat ruhini singdirish, ularda mustaqil mehnat faolnyatiga intilish va istaklarni shakllantirishdan iboratdir.

Ota-onalar va maktabgacha ta`lim muassasalari xodimlarining birligida faoliyati

Ota-onalar bilan maktabgacha ta`lim muassasasi xodimlarining bnrgalikdagi faoliyatini tashkil etish va uning mazmuni maktabgacha ta`lim muassasasi ishlayotgan sharoitlarga bog'liqdir. Birligida faoliyat kerakli dara-jada amalga oshiriladigan joyda o'zaro yordam, bir-birini tushunish, topshnrligan ishga javobgarlik holati vujudga keladi.

Ota-onalar maktabgacha ta`lim muassasasi maydonini ko'kalamzorlashtirish, uchastkadagi jihozlarni va qo'llanmalarni ta'mirlash, xonalarni qishga tayyorlash, sog'lomlashtirish ishlarini o'tkazishda yordam ko'rsatishlari, yangi o'quv yiliga tayyorgarlik vaqtida sanitariya oylarida, bolalarning bayram kostyumlarini tayyorlashda, bolalarni sayohatlarga kuzatib borishda ishtirok etishlari mumkin.

Agar ota-onalar orasida fotosuratchilar, tikuvchilar, rassomlar bor bo'lsa, ular maktabgacha ta`lim muassasasiga bevosita yordam ko'rsatishlari kerak.

Shuni ta`kidlab o'tish kerakki, ota-onalarning ishi ijtimoiy xarakterga ega va ixtiyorilikka asoslangan bo'lisi kerak. SHuning uchun bu faoliyatga jalb qilishning asosiy yo'li - iltimos, ishontirish, maslahat berishdir.

Birligida ishni to'g'ri tashkil etish uchun yillik reja tuziladi va uni ko'rindigan joyga ilib qo'yiladi. Bu reja sinchiklab, o'ylab tuzilishi kerak. Masalan, agar maktabgacha ta`lim muassasasi hududida mevali daraxtlar va ko'katror bor bo'lsin, bunda, har bir guruhda ota-onalarning ko'kat ekinlarni parvarish qilish grafigini ilib qo'yiladi, lekin oldin ota-onalardan qaysi kunlari maktabgacha ta`lim muassasasiga kelib yordam berishlari mumkinligi so'ralishi zarur.

Ishlashning bunday shaklini amalga oshirish uchun faoliyat birligda bo'lisi kerak: tarbiyachi bolalar bilan birga kuchi etgancha ishtirok etadi ya'ni, gul ekishadi, ota-onalar esa shohlarni kesishadi, erni yumshatishadi va hokazo.

Ota-onalar uchun kechalar va to'garaklar uyushtirish

Maktabgacha ta`lim muassasalarida ota-onalar va boshqa oila a`zolari uchun o'tkaziladigan kechalar mavzuli xarakterga ega bo'lib. «Musiqa va hayot», «Bola hayotida kitob», «Bola va tabiat» kabi mavzularni tanlash mumkin. Hamkorlikning bu shaklining o'ziga xosligi shundaki, unda qisqacha axborotdan so'ng yig'ilganlarga bolalarning, maktabgacha ta`lim muassasasi xodimlarining, ota-onalarning badiiy chiqishlarini ko'rish tavsiya qilinadi. Masalan, musiqiy

rahbarning chiqishidan so'ng bolalar o'zlari o'rgangan ashula, o'yinlarni bajarishadi, sahnalar ko'rsatishadi yoki biror ertak sahnalashtiriladi.

Bunday kechalar uchun «Bolani qanday sevish kerak?», «Bolalar tarbiyasida otaning roli», «Biz o'z bolalarimizni bilamizmi?», «Savol va javoblar kechasi» va hokazo mavzularni tanlash mumkin.

Ota-onalarning bolalar yozuvchilari, shoirlarn, bastakorlari bilan uchrashuvlari foydalidir. Oila bilan ishslashning og'zaki jurnal, yumaloq stol atrofida uchrashuv kabi shakllari yaxshi natija beradi, bunda pedagog, do'xtir, huquqshunos va hokazolar ishtirok etadilar.

Bolalar tarbiyasida zarur bo'lgan amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirishda ota-onalarga yordam berish maqsadida ular uchun qisqa muddatli to'garaklar tashkil etilib, undagi mashg'ulotlarda bolalar kiyimini bichish va tikishni, to'qishni, turli xil ovqatlar tayyorlashni o'rganishadi. Ular bilan bolalar ashulalari o'rganiladi, yasama o'yinchoqlar tayyorlash san'ati o'rgatiladi va hokazo.

Ota-onalar bilan o'tkaziladigan savol va javob kechalari, ochiq eshiklar kunlari diqqatga sazovordir. Ota-onalarni tanlov xarakteridagi tashkiliy-pedagogik ishlarga jalb qilish, masalan, yumshoq o'yinchoq tayyorlash, suv va qum bilan o'ynash uchun o'yinchoq-lar yasash, syujetli-rolli o'yinlar, maydonchalarни ko'kalamzorlashtirish uchun jihozlar tayyorlash muhim tadbirdir.

Bunday tanlovlар yillik rejada o'z ifodasini topgan bo'lishi kerak. Tanlov shartlarini umumiylar ota-onalar majlisida muhokama qilish va ma`qullatib olish kerak.

Faol ishtirokchi ota-onalarga tashakkurnoma e`lon qilib, ish joylariga ma`lum qilish kerak, bundan ular ma`naviy qoniqish oladilar.

Bunday ishlarni o'tkazishda katta yoshdagilarni ham yoddan chiqarmaslik kerak. Buvi va buvalarning amaliy maslahatlari, ularning boy hayotiy tajribalari yosh ota-onalar uchun ham, tarbiyachilar uchun ham qimmatlidir.

20.2. Aholi o'rtaida pedagogik tashviqot va pedagogik bilimlar universiteti

Hozirgi zamon bosqichida keng aholi orasida pedagogik bilimlarni tashviqot qilish muhim papkaga kirib bormoqda.

Oilaviy tarbiyami yaxshilash uchun ota-onalarshshg umumiylar pedagogik ta`limi tizimini takomillashtirish zarur. Hamma katta yoshdagi aholi, dastavval ota-onalar, bolalarni va yoshlarni tarbiyalashga tayyorlangan bo'lislari kerak.

Bu odad ishlarini radio va televiedenie orqali chiqishlarva ma`ruzalar qilish pedagogik tashviqot vositalaridan biri hisoblanadi.

Pedagogik tashviqotni yanada tor doirada bevosita maktabgacha ta`lim muassasasilari amalga oshirishlari ham mumkin.

Pedagogik bilimlarni tashviqot qilishda kichik mintaqasi doirasida tashkil etiluvchi ota-onalar anjumanlari amalda sinalgan usullardandir.

Bu ishni ma'lum tizim asosida tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Anjumanlarni o'tkazishdan avval oilaviy tarbiya tajribasini, maktabgacha ta`lim muassasasilari bilan ota-onalar orasidagi o'zaro ta'sirni o'rganish bo'yicha har tomonlama tayyorgarlik ishlari olib borilishi kerak. Bunda jamoatchilik,

maktabgacha ta`lim muassasalari pedagoglarining yo`naltiruvchi ishtirokida ota-onalarning o`zлari faol ishtirok etishlari kerak.

Anjuman mavzusi xalq ta`limi bo`limlari bilan hamkorlikda tanlanishiga e`tibor beriladi. Anjumanlarning mazmunini, ko`pincha, hayotning o`zi belgilaydi va eng dolzarb masalalar aks ettiriladi.

Anjumanni tayyorlashda, ayniqsa, maktabgacha ta`lim muassasalarining tibbiy xodimlari faol ishtirok etadilar, ular tibbiybyulleten, tibbiyot mavzusiga oid savol va javoblar taxtalari tashkil etishlari, bolalarni chiniqtirishning usul va uslublarini amaliy ko`rsatishni hamda bolalarning sog`lig`iga taalluqli masalalar bo`yicha ota-onalarga «maslahatlar burchaklari»ni tashkil etishadi. Bunday burchaklarga «Biz chiniqamiz», «Uyda dam olish kunlari badantarbiyasi», «Otam, onam va men - sportchilar oilasi» va hokazo mavzularni tanlash mumkin.

Tuman anjumanlarini tayyorlashda va tashknl etishda xalq ta`limi bo`limlariga ota-onalar faollari, tuman pedagogika jamiyati, maktabgacha ta`lim bo`limlari katta yordam beradi. Bu anjumanlarda shaharning eng yaxshi tarbiyachilari, mudiralarn, olimlar, metodist va hokazolar so`zga chiqishlari mumkin. Bo`lar maktabgacha yoshidagi bolalarni tarbiyalash, ularni maktabga tayyorlashning turli masalalari bo`yncha chiqishlar va ma`ruzalar bilan ishtirok etadilar.

Ota-onalar anjumanlarining materiallari rasmiylashtiriladi va tuman maktabgacha ta`lim uslubiy kabinetlariga topshirilib, keyinchalik ular amaliy ishga tadbiq etiladi.

Ota-onalar pedagogik ta`limotining shakl va usullarini kengaytirish, oilaga u orqali va u bilan birga bolaga ta`sir ko`rsatishning yanada natijali usullarini izlash - bularning hammasi tarbiyachilarni o`zining nazariy saviyasini oshirishga, jamoat tashkilotlari, maktablar bilan aloqa izlash va topishga majbur qiladi. Pedagogik targ`ibotda lektoriylar va pedagogik bilimlar universitetlari katta o`rin egallaydi.

Ota-onalar universitetlarining o`quv dasturlari hamda rejalariga pedagogika va psixologiya, bolalar anatomshyasi va fiziologiyasi, oilaviy tarbiya nazariyasi va amaliyoti, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni yoshi bo`yicha davrga ajratish, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning individual psixologik xususiyatlari, bolalarni maktabgacha ta`lim muassasasida va oilada tarbiyalash bo`yicha ma`ruzalar tsikli va hokazo masalalar kiradi. Unga, shuningdek, xalqaro vaziyat, adabiyot va san`at, fan va texnikani rivojlantirish, gigiena va tibbiyot haqidagi ma`ruzalar, O`zbekiston Respublikasi hukumatining onalarga va bolalarga g`amxo`rliги haqidagi qarorlarini ham kiritish mumkin. Ma`ruzalar bilan birga seminar mashg`ulotlari o`tkaziladi, kinofilm, hayotga bag`ishlangan spektakllarni ko`rish tashkil etiladi. Universitetlarning ishi 1-2 yilga mo`ljallanadi. Mashg`ulotlar oyiga 1-2 marta o`tkaziladi. Tinglovchilar turli mutaxassislikdagi va kasbdagi ota-onalardan iborat bo`ladi. Mashg`ulotlarni bilimlarning turli sohalari bo`yicha yuqori malakali ma`ruzachilar va mutaxassislar olib borishadi. Ota-onalar universiteti sirtqi ham bo`lishk mumkin.

Sirtqi universitet tinglovchilari uchun radio va televiedenie orqali «Ota-onalar, sizlar uchun», «Onalar maktabi», «Kattalar uchun nazorat ish» sarlavhasi bilan

eshittirishlar, shuningdek, ota-onalarga mo'ljallangan adabiyotlardan foydalanish ko'zda tutiladi.

Ota-onalar universitetlari dasturiga bolalarni respublikamiz milliy xususiyatlari, milliy qadriyatlarimiz, milliy urf-odatlarimiz ruhida tarbiyalash vazifalarini ochib beruvchi ma'ruzalar, amalny seminar mashg'ulotlari, «Oilaning axloqiy asoslari», «Oila - kichik jamoa», «Milliy urf-odatlarimiz», «Buyuk o'zbek va sharq mutafakkirlari bola tarbiyasi to'g'risida», «Maktabgacha ta'lim muassasasi va oilaning bolalarni tarbiyalash maqsadlari hamda vazifalariga yagopa talab», «Ota-onalarning pedagogik odobi», «Bolalarni axloqshy tarbiya vositasi sifatida ota-onalar mehnati bilan tanishtirish», «Bolalarni tarbiyalash bu-tun jamoatchilikning va har birimizning ishimizdir», «Milliy axloq nima?» va hokazo mavzudagi ma'ruzalar tinglovchilarga yoqadi.

Ma'rutzachilar ro'yxati shahar, tuman hokimiyatlari yoki xalq ta'limi bo'limlari tasdiqlashi zarur.

Oilada o'zaro munosabatlardi aniqlab olish uchun «Bolalarni tushunish uchun kattalarga nima xalaqit beradi», «Siz har doim ham bolaga xushmuomala, e'tiborli va sabr-toqatlimisiz?», «Siz bolalaringizga o'z ishingiz haqida va mehnatingizning foydasi haqida gapirib berasizmi?», «Uyingizda bolangizingning o'rtoqlari bo'lishadimi?», «Siz ularning vaqtini qanday tashkil etasiz?» kabi savollarni taklif etish mumkin.

Univrsitet tinglovchilarinikg asosiy qismi maktabgacha ta'lim muassasasiga qatnovchi bolalarning ota-onalari bo'ladi. Ular pedagogik bilimlarni o'zlashtirib, bu bilimlarini ommaga eltishadi, ota-onalar majlislarida, anjumanlarda faol qatnashib, ota-onalar qo'mitasida va ota-onalar orasida maslahatchilar bo'lishadi.

Bolani tarbiyalash uchun uni juda yaxshi bilish kerak. Buning uchun biz bola xulqidagi endi paydo bo'layotgan hislatlarga ta'sir ko'rsatuvchi mayda narsalarni sezishimiz, fikrndagi o'zgarishlarni sezib, ilib olishimiz, bola kayfiyatidagi nozik o'zgarishlarni tushunishimiz kerak. Ota-onalarga esa bolani gumonsirab kuzatishni emas, balki pedagogik kuzatuvchanlikni o'rgatish kerak. Agar ota-onalar bolalardan o'zları qilmagan narsalarni talab qilishsa, ularning talabi o'g'il yoki qizining yuragiga joylashmaydi. Va, aksincha, agar otaning yoki onaning xulqi axloqiy namunaga yaqin bo'lsa, u holda ularning har bir so'zi, maqtovi yoki tanbehi bolalari uchun alohida ahamiyatga ega bo'ladi, ularning har bir talabi ota-onalarga muhabbat va hurmat yuzasidan darhol bajariladi.

Ma'ruzalar tushunarli bo'lishi uchun universitetlarning rahbarlari ma'ruzalarning mavzui bo'yicha ko'rgazmalar tashkil etadilar.

Ma'ruzalarni kinofilmlar ko'rish bilan qo'shib olib borish mumkin, buni tinglovchilar katta qiziqish bilan qabul qilishadi. Tomoshadan so'ng ota-onalar o'z oilalaridagi tarbiya haqida bosh qotiradilar va ko'pgnna savollar berishadi. Ba'zan film ustida tortishuvlar, munozaralar vujudga keladi.

Mashg'ulotlarga birinchi marta kelgan ota-onalar shaxsning shakllanishi muammolari bilan emas, balki bolaning jismoniy rivojlanishi bilan qiziqadilar, shuning uchun ma'ruzalarda bolaning har tomonlama rivojlanishida oilaning ahamiyatiga asosiy e'tibor berilmoqda, bolaga jismoniy qarovgina, jismoniy

rivojlanishgina emas, balki aqliy va axloqiy rivojlanish hamda estetik tarbiya ham kerakligi ko'rsatiladi.

Pedagogik bilimlar universitetining ishi ota-onalar orasida pedagogik tashviqotni yaxshilashga katta ta'sir ko'rsatadi. Bunday universitetlar asosan nohiya xalq ta'limi bo'limlari qoshida, ba'zan esa korxonalarining madaniyat saroylari qoshida tashkil etiladi. Ular bir idoraga tegishli bir necha maktabgacha ta`lim muassasalarining ota-onalarini birlashtirshshi mumkin.

Universitet rahbari ma'ruzachilarini tanlaydi, o'quv rejasini tuzadi. (Ota-onalar dorilfununi rejalarini tuzish namunasi ushbu qo'llanmaning ilova qismida keltirilgan.)

Universitetdagi hamma ish jamoatchilik asosida olib boriladi. Pedagogika institutlari o'qituvchilari, viloyatlardagi universitet olimlari, shahar yoki tumandagi eng yaxshi mudirlar, uslubchilar, vrachlar, pedagoglar, psixologlar ma'ruzachi bo'lishi mumkin 3 soat ma'ruzadan 1 soati tinglovchilarning savollariga javob berish va munozaralar uchun ajratiladi.

«Bolalar taqdiri uchun hamma javobgar» degan jurnal chiqarishni amalga oshirish mumkin. Bu jurnalda oilaviy tarbiyaning eng yaxshi tajribasi bayon qilinadi, vrach, psixolog, pedagogning maslahatlari yoritiladi. Jurnalga, ota-onalar va bolalar uchun uncha murakkab bo'limgan boshqotirmalar, topishmoqlar, psixolo-pedagogik masalalar, bolalar hayotidan olingan fotosuratlar joylashtirish mumkin. Jurnal chiqarishda pedagoglar, tibbiyot xodimlari, ota-onalar ishtiroy etishadi. Jurnalga ota-onalar qiziqib qarashadi, jurnal ularni tarbiya muammolari haqida o'ylashga majbur qiladi.

Nazorat savollari:

1. Ota – onadarni MTM ishiga jalb qilish usul va yo'llari qaysilar. Misollar keltiring.
2. Ochiq eshiklar kunini tashkil etish metodikasini tushuntiring.
3. Bolalarni MTM ga jalb etish yo'llari namalarda deb bilasiz va bo'lar qaysilar?
4. Nima uchun ayrim bolalar MTM ga o'z xoxishi bilan kelmaydi? Buning sababini namada deb o'ylaysiz?

Adabiyotlar:

- 11.I.A. Karimov “YUksak ma`naviyat engilmas kuch”. Toshkent “Ma`naviyat” 2008 y.
12. Otamurodov S va boshqalar. “Ma`naviyat asoslari”. Toshkent 2002 y.
- 13.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent 1992 y
- 14.O.U.Xasanboeva va boshqalar. “Oila pedagogikasi” Toshkent “Aloqachi” 2007 y.
- 15.O.U.Xasanboeva “Oilada barkamol avlod tarbiyasi”. T., «Fan va texnologiyalar» 2010 y.

- 16.U.Otavalieva “Bola tarbiyasida bog’cha va oila hamkorligi” Toshkent “O’qituvchi” 1994 y.
- 17.M.Inomova. Oilada bolalarni ma`naviy axloqiy tarbiyasi. T.: “O’qituvchi”, 1999 y.
- 18.R.To’raqulova Oilada sog’lom muhit va reproduktiv madaniyat. T.: “O’qituvchi” 2005 y.
- 19.A.K.Munavvarov Oila pedagogikasi. T.: “O’qituvchi”, 1994 y.

XXI BOB. Pedagogik kabinetning ishi va pedagogik jarayonni jihozlash

Reja:

1. Maktabgacha ta`limga metodik raxbarlik ishining tashkiliy tuzilishi va vazifalari
2. Pedagogik kabinetning ishi va vazifalari.
3. Metodik ishlarni tashkil etishning shakl va usullari.
4. Metodik ishlarni pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish.

Darsning maqsadi: Maktabgacha ta`limga metodik jihatdan raxbarlik qilish bo'yicha nazariy bilim berish.

Darsning vazifalari: Metodik kabinet ishi, vazifalari uni jihozlash, pedagogik texnologiya asosida metodik ishlarni tashkil etishning shakl va usullari haqida ma'lumotga ega qilish.

Tayanch tushunchalar:

XTB – Xalq ta`limi bo'limi.

Metodik birlashma – maktabgacha ta`lim xodimlarining malaka oshirish shaklsi.

Ko'chirma-papka – yig'ma papka, ota-onalar va bolalar muassasalarda biror-bir mavzu bo'yicha jihozlangan ko'rgazmali vositadir.

Metodiko-pedagogik yig'ilish – bu maktabgacha ta`lim muassasalarning ilk yosh guruhlarida o'tkaziladigan tibbiy pedagogik kengash.


Ochiq tadbirlar – jamoa bo'lib pedagogik jarayonlarni kuzatish.

Metodik adabiyotlar obzori – bu yangi nashr qilingan o'quv pedagogik adabiyotlar tahlili.

21.1. Maktabgacha ta`limga metodik rahbarlik ishining tashkiliy tuzilishi va vazifalari

Respublikada maktabgacha ta`limga metodik rahbarlik O'zbekiston Respublikasi Xalq ta`limi Vazirligi qoshida tashkil etilgan markaziy maktabgacha metodika kabineti orqali amalga oshiriladi.

Metodika kabinet xalq ta`limi Vazirligi tomondan tuzilgan reja asosida ish yuritadi. Uning tashkiliy tuzilishi quyidagicha:



Markaziy metodika kabineti - viloyat, shahar, o'lka Qoraqalpog'iston respublika metodika kabineti ishini nazorat qiladi.

Metodika kabinetining asosiy vazifalari tegishli xalq ta'lifi bo'limlari - metodika kabineti ishini nazorat qilish, tarbiyachilar va xalq ta'lifi xodimlarining ixtisosini oshirish, eng yaxshi, ilg'or ish tajribalarini o'rGANISH, umumlashtirish va yoyishdan iboratdir.

Respublika maktabgacha metodika kabineti.

Respublika maktabgacha metodika kabineti O'zbekiston Xalq ta'lifi Vazirligi qoshida tuziladi va metodik baza bo'lib hisoblanadi hamda rahbarlik qilib boriladi.

Respublika metodika kabineti o'z ishida O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'lifi Vazirligi tomonidan chiqarilgan qonunlarga, qaror, instruktiv-metodik hujjatlarga asoslanib ish ko'radi.

Metodik kabinet Respublika ilmiy tekshirish instituti, o'qituvchilar malakasini oshirish instituti na boshqa ilmiy-tekshirish institutlari va o'quv yurtlari bilan mustahkam aloqada bo'ladi.

Respublika metodika kabinetining asosiy vazifalari:

1. Respublika, viloyat, shahar, tumanlarda maktabgacha ta'lif kabinetlariga metodik yordam ko'rsatish xamda pedagogik jarayonlarni yaxshilash va ta'lif-tarbiya sifatini yuksaltirish ishlarini Xalq ta'lif Vazirligi tomonidan taqdirlangan «Bolajon» dasturini to'liq bajarilishini ta'minlaydi.

- ilg'or ish tajribalarni o'rGANADI, ommalashtiridi va umumlashtiradi (maktabgacha ta'lif xodimlari, maktabgacha ta'lif metod kabineti, uslubchi, mudira, metodist va tarbiyachilar, murabbiylar ishi asosida).

- maktabgacha ta'lif yoshidagi bolalarni ta'lif bo'yicha tarbiyalash va ta'lif berish masalasidagi ilg'or pedagogik tajribalarni, yutuqlarni, ilmiy

pedagogika asoslariga asoslanib ularini (qayta ishlaydi) ishlab chiqadi.

Pedagogik kabinet ishining mazmuni va asosiy shakllari

2. Metodika kabineti o'z zimmasiga yuklangan vazifalarga ko'ra:

– Qorakalpog'iston, viloyat, o'lka, shahar, tuman mактабгача та'lim metodika kabineti ish faoliyatiga yo'llanma berib turadi.

– Mактабгача та'lim muassasalari ta'lim - tarbiyaviy ishlar ahvolini va bajarilishini o'r ganadi.

«Bolajon» dasturi - ta'lim - tarbiyaning sifatini oshirish maqsadida tadbirlarga yo'llanmalar beradi.

Mактабгача muassasa xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish Respublika o'quv metodika Markazida ma'ruzalar o'qishga, seminar - mashg'ulotlar ishini olib borishda belgilangan xujjatlar asosida olib borish huquqiga egadirlar.

3. Respublika maktabgacha ta'lim metod kabinet ishida yangiliklarni targ'ibot qilish bo'limi uslubiy Kengashdir. Kengash tarkibiga metodistlar, o'qituvchilar malakasini oshirish instituti rahbari va xodimlari, mudiralar, tarbiyachilar, musiqa rahbarlari, oliy va o'rta o'quv yurtlarining etakchi professor-o'qituvchiari kiradilar.

Uslubiy Kengashda - kabinetning rejasi va bajarilgan ishlar yakuni ko'rildi va bir qancha tashkiliy ishlar rejalahtiriladi, bunda pedagogik jarayonni takomillashtirish va maktabgacha ta'lim metod kabinetlar amaliy ishida ijodiy-ilg'or pedagogik tajribalarni to'plash, maktabgacha ta'lim bo'yicha uslubiy qo'llanmalarini muhokama qilish, tasdiqlash masalalari hal qilinadi.

4. Respublika metod kabinetida xodimlarning qulay ishlashlari uchun sharoit yaratiladi, (seminarlap ma'ruzalar, maslahatlar, ko'rgazmalar tashkil etiladi).

5. Respublika metod kabinetida ilmiy pedagogik va metodik adabiyotlar uchun kutubxona tashkil qilinadi.

Pedagogik kabinet xodimlari va rahbarlar

6. Respublika metod kabinetiga malaka oshirish markazi direktori rahbarlik qiladi, oliy pedagogik bilimga va ilg'or tashkil-metodik ishlarni tashkil etish xususiyatiga ega bo'lgan shaxsdir, Direktor - kabinetning metodik, moliyaviy-xo'jalik faoliyatiga rahbarlik qiladi va kadrlar tanlash va ularni ishlarini tashkil qilish va joylashtirish ishlari, mehnat qonunlariga asoslanib xodimlari vazifalarini tushuntiradi, belgilangan qoidaga asoslanib ishga qabul qiladi va ishdan bo'shatadi.

7. Metodik ishlarni malakali metodistlar olib boradilar, ularni O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan direktor tavsiyasi bilan, oliy pedagogik ma'lumotga ega bo'lib, kamida 5 yillik pedagogik ish stajiga ega bo'lgan xodimlardan belgilanadi.

8. Respublika metod kabinetining shtatlarini O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan belgilanadi.

9. Respublika metod kabineti davlat byudjeti mablag'lari hisobiga faoliyat ko'rsatadi, o'zining bankda mablag'i bo'ladi va O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan tasdiqlangan harajatlar tizimiga muvofiq mablag' ajratadi,

10. Metodika kabineti O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi oldida o'z ishlaridan hisobot berib turadi.

11. Pecpublika metod kabineti o'zining gerbli muhriga ega bo'lib, to'liq yuridik huquqga ega.

12. Respublika metod kabineti belgilangan shaklga asoslangan holda ish yuritish tartibida olib boriladi.

Metodika kabinetining asosiy vazifalari tuman, shahar metodika ishlarini o'qituvchilar, tarbiyachilar va xalq ta'limi boshqa xodimlarining ixtisosini oshirish, eng yaxshi pedagogik tajribalarni o'rganish, umumlashtirish na yoyishdir.

Metodika kabinet o'qituvchilar malakasini oshirish instituti bilan kelishib olingen va O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan tasdiqlangan reja asosida ishlaydi.

O'zbekistonda 1934 yilda Toshkent shahrida birinchi mактабгача ta'lim metod kabineti tashkil ztildi.

Direktor qilib ilg'or pedagog Mo'rtazina Marg'uba Safievna tayinlandi.

1940 yilga borib bunday kabinetlar soni 23taga etadi. Maktabgacha ta'limga doir ishlarni o'rganish, tizimlilikka amal qilish, ilg'or ish tajribalarini umumlashtirish ishlari olib borildi, keng ko'lamda pedagog xodimlarni tayyorlash ishlari tashkil etiladi.

Tuman (shahar) metodik kabineti ishini rejorashtirish

Metodik kabinet 5 yilga mo'jallangan istiqbol rejasini tuzadi. Unda: davlatimizning qaror va topshiriqlari, Xalq ta'limi Vazirligi va ittifoqdosh respublikalarning, shuningdek, xalq ta'limi bo'limlari tomonidan maktabgacha ta'limga oid qarorlari nazarda to'tiladi.

Yillik rejada metodik kabineti har o'quv yiliga mos faoliyati aks etadi.

Kvartal-oylik rejalarida - yillik rejadan vazifalar vaqt bo'yicha taqsimlanadi.

Yillik reja - tumandagi metodik ishlarni bir tekis, mazmunli tashkil etilishini ta'minlash kerak. Bunda ko'p e'tiborni o'quv, ta'lim - tarbiyaviy ishlarni o'rganish, maktabgacha ta'lim muassasasida metodik ishlarni tashkil etish va nazariy asoslab borish, mudira, uslubchi, tarbiyachilarga o'quv faoliyati, mehnat, estetik, musiqa tarbiyasi bo'yicha yordam, maktabgacha ta'lim muassasalarida kasallikni oldini olish va kamaytirishni, yasli guruhlarda, aralash guruhlarda, kam komplektni muassasalar ishini metodik jihatdan to'g'ri tashkil etish vazifalarni bajaradi.

Rejada alohida o'rini maqsadli, birlamchi yoki tizimli tekshiruv egallaydi. Tekshiruv shaklini tanlash, tekshiruv maqsadi va mazmuniga bog'liqdir. Bu maktabgacha ta'lim muassasalari ishi bilan tanishishga yordam beradi.

Rejada maktabgacha ta'lim muassalari soni va nomerlari ko'rsatiladi. Hamma muassalar nazorat qilinishi kerak.

Metodika kabinetining vazifasi shu bilan yakunlanadiki, bu nazariy asoslangan holda yordam berish. Metod kabinetda pedagogik tajribalarni ommalashtirishdan ilgari uni har tomonlama tahlil qilib chiqi, tanlab olish kerak.

Qimmatli tajriba faqatgina yakkama-yakka holda emas, balki jamoa asosda yaratilishi mumkin.

21.2. Pedagogik kabinetning ishi va vazifalari.

Maktabgacha ta`lim muassasalaridagi butun metodik ishning markazi-metodika kabinetasi xisoblanadi. Pedagogik jarayonni uyuştirish, ota-onalar bilan ishlash, pedagogik maxoratni oshirish va mustaqil o'qishlarni tashkil kilishda tarbiyachilarga amaliy yordam berishdagi etakchi rol metodika kabinetini zimmasidadir. Metodika kabinetini bolalar muassasasi an`analari jamg'ariladigan joydir.

Metod istning vazifasi-jamgarilgan tajribaga «jon ato etib» tushunarli kilish, tarbiyachilarni bolalar bilan ishlashda ularning ijodiy kullashga o'rgatishdir. Metodika kabinetida to'g'ri yo'lga kuyilgan ish barcha xodimlarning amaliy-metodik tayyorgarligini oshirishga, xususan, bolalarni xar tomonlama rivojlantirish vazifalarini xal etishga yordam beradi. Metodika kabinetining asosiy vazifasi:
- bolalar muassasasi pedagog xodimlariga metodik yordam ko'rsatish, ularning g'oyaviy-siyosiy, ilmiy-metodik saviyalarining, pedagogik maxoratlarining usishi uchun sharoit yaratishdir.

Bolalar muassasasi metodik kabinetni ilg'or ish tajribalari turejaadigan, umumlashtiriladigan va tarkatadigan boshlang'ich markaz xam xisoblanadi. Metodik kabinetning muxim vazifalaridan biri- tarbiyachilarga o'z mexnatlarini ilmiy asosda tashkil kilishlariga yordam ko'rsatishdir. Bu vazifalarni xal etishda metodist kabinetdagi meaterialarni mazmuniga oshirilgan talablar kuyishi, uni bir tizimga tushirishi va puxta uylab chikishi kerak. Metodik kabinetda aloxida o'rinni kutubxonaga ajratiladi. Bolalar muassasasining kitob fondini shartli tarzda tarbiyaga va bolalarga muljallangan kitoblarga ajratiladi. Bunda, albatta davlatimiz tomonidan kabul kilingan ta`lim soxasidagi Karor, Konunlar, prezident I.A.Karimov asarlariga keng diqqat karatiladi. Milliy istiklol g'oyasini shakllantirish masalalariga bag'ishlangan asarlar, qo'llanmalar, buyuk siymolar, shark mutafakkirlarini o'rganish, urf-odatlarimiz, an`analarmizni tarannum etuvchi ilmiy-falsafiy-metodik adabiyotlarga xam keng o'rinni ajratiladi. Xar bir kabinetda maktabgacha ta`lim soxasiga doir instruktiv-metodik materiallar bo'lishi zarur.

Vaktli matbuot oqimida adashmaslik, barcha kerakli ishlarni ajrata bilish va undan foydalanish muximdir, ni o'rganish, ularga tegishli ishlov berish uslubchining vazifasidir. Metodika kabinetida tarbiyachilarni xonada mavjud bo'lgan materiallar bilan tanishtirish, yaxshi ish tajribalarini tashviqot kilishga yoyish maksadida «axborot xizmati» uyuştiriladi. Axborot xizmati xilma - xil axborot byulletenlari, bolalar ta`lim - tarbiyasiga doir ayrim masalalar bo'yicha «axborot kunlari», yangi kitoblar annotatsiyasi xavolasi bilan metodik adabiyotlar yangiliklari, tajriba, amaliyat, «metodik burchak» devoriy stendlari va boshqalar bo'lishi mumkin. Bolalar muassasasi xodimlarining nutk madaniyatini doimo takomillashtirib borish masalalari xam puxta uylanadi. Xalk og'zaki ijodining maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashdagi kata rolini nazarda tutib, bolalar muassasasida xalk makol, matallari tuplamlarining bo'lishi xamda ishda ulardan foydalanish yo'llarini ishlab chikish zarurdir.

Metodika kabinetining kamol topishi mактабгача ўoshдаги болаларни тарбиялаш масаласига доир методик адабиёт ташкіл этади, чунки унинг енг мұхим vazifasi бол ал ар bogchasi tarbiyachilariga mактабгача ўoshдагиларга та`lim - tarbiya berish soxasidagi yangi tadkikotlar xakida ishonuvchan va operativ axborot berilishini ta`minlaydi. Metodik adabiyotlar bo`limi bo'yicha «Fiziologiya va psixologiya», «Jismonyi tarbiya», «Axlokiy tarbiya», «Musika tarbiyasi», o'yin, «Nutk ustirish va tevarak-atrof bilan tanishtirish», «Ma`naviy tarbiya» kабилар bo'yicha joylashtirish maksadga muvofikdir. Agar kabinetda adabiyotlar ko'p bo'lsa, uni qo'shimcha tarzda yosh printsipi bo'yicha joylashtirish mumkin.

Bolalar badiiy adabiyoti - avvalo, «Uchinchi ming yillikning bolasi» dasturi asosida guruxlar bo'yicha, tavsiya etilgan asarlar, ertak, xalk kushiklari, ovunmachoklari, topishmoklar tuplami, rus va boshqa millat yozuvchilarining asarlari kiradi. Kabinetdagi kutubxonadagi adabiyotlarning kartotekasini joriy etish kerak. Metodika kabinetining kitob fondi katiy xisobda olib boriladi. Xisobga olishning eng asosiy shakli kitoblarni maxsus jurnalga yozishdir. Agar kataloglar yuritilsa maksadga muvofik bo'ladi. Gazeta va jurnallarning, makolalarning tizimli katalogini yuritish ayniksa muximdir. Bu metodika kabinetida adabiyot bilan ishlashni ancha engillashtiradi. Metodik kabinetda tarbiyachi va musika raxbarining eng yaxshi istikbol va xafthalik ish rejalar, pedagogik kengash, seminar, metodik birlashma, pedagogik o'qish, anjumanlarda ukilgan ma'ruzalar, ishning eng yaxshi tomonlarini aks ettiruvchi mashg'ulot ishlanmalari, bayram ertaliklari, kungil ochish kechalari dasturlari, lenta yozuvlar o'rinn egallaydi. Bundan tashkari bu erga tarbiyachilarining mudira va uslubchi tomonidan taxlil kilingan xamda umumlashtirilgan ishlarini kuyish mumkin.

Metodika kabinetda barcha yosh guruxlardagi turli mashg'ulotlarda foydalananadigan ko'rgazmali materiallar va didaktik kullanmalar: tevarak-atrof bilan nutk ustirishga doir rasmlar, elementar matematik tasavvurlarni rivojlantirish bo'yicha materiallar, bolalarning badiiy kobiliyatlarini rivojlantirish uchun kullanmalar, didaktik o'yinlar-o'yinchoklar, mayda musika asboblari va musikal o'yinchoklar, xarakatlarni rivojlantirish mashg'ulotlarida foydalananadigan mayda kullanmalar saklanadi. Agarda kerakli kullanmalar va didaktik materiallar tayyor xolda xarid kilishning im koni bulmasa, uslubchi ularni barcha tarbiyachilarining faol ishtirokida tayyorlaydi (kugirchoklar uchun milliy kiyimlar, ijodiy o'yinlar uchun ayrim atributlar, mayda tarkatma materiallari va boshqalar). Kullanmalardan uzok vakt davomida foydalanylarda (ayniksa kogoz yoki karton) o'zining dastlabki ko'rinishini tez yukotadi va buzilishi tufayli uslubchi ularni tez tiklashga yordam beradigan materiallari i, chizmalar, ulchovlarni, ko'rsatilgan andozalarni, foto suratlarni tuplab borishi kerak. Bu materiallarni albomlarda bo'limlar bo'yicha joylagan ma'kul.

Ta`lim - tarbiya jarayonini takomillashtirish texnika vositalaridan keng foydalinish bilan uzviy boglangan. Metodika kabinetida texnika vositalarining burchagi jixozlanib, u erda endoskop, filmoskop, magnitafon, diafilm, kinofilm lentalari, badiiy va musika asarlarining plastinkalari komplekti, ovoz yozuvlari saklanadi. Bu materiallar xam katiy tizimda va tartibli saklanishi kerak. Metodik kabinetda mashg'ulotlar uchun kerakli didaktik kullanmalardan tashkari o'yin va

kungil ochishlarda foydalanadigan kullanma va o'yinchoklar, kugirchoklar, stol, soya teatri, stol bosma o'yinlari, kizikarli ermak-o'yinchoklar bo'lishi kerak.

Metodika kabinetda ota-onalar uchun ishlashga muljallangan materiallar, tematik ko'rgazmalar materialari, kuchma-papkalar namunalari, bolalar tarbiyasiga doir masalalar bo'yicha ota-onalarga muljallangan pedagogik adabiyotlar ruyxati, suxbat va maslaxatlarning taxminiy tematikasi saklanadi. Ayrim utilgan materialarning xammasi maxsus ajratilgan joylarda saklanadi. Pedagogik adabiyotlar yangiliklari va turli yubiley sanalarga bagishlangan adabiyot uchun aloxida bo'lim bo'ladi. Metodik adabiyotning yana bir stendi tarbiyachiga bo'lajak pedagogik kengash ishiga tayyorlanishda yordam berishga bagishlanadi (bu erda tematika, kerakli adabiyot, muxokama uchun savollar beriladi). Oldingi pedagogik kengashda kabul kilingan karorlar, ularning ijrosi xakida ma'lumotlar ma'lum kilinadi. Metodika kabinetning butun ishi u mакtabgacha ta`lim muassasasi metodik ishining markaziga aylanadigan kilib tuzilishi kerak. Tarbiyachilarga kabinet xizmatidan foydalanishi, unda saklanayotgan materialarni asrab-avaylashlari, ulardan okilona foydalanish darkor. Bu sezilarli darajada bolalar muassasasi metodistining maxoratiga, tashkilotchilik kobiliyatiga boglikdir. Uslubchi kabinet ishi soatini aniklashi, tarbiyachilarga o'z vaktida yordam ko'rsatish maksadida navbatchilikni uyuştirishi kerak. Bu masalani xal etishda mudira faol ishtirok etadi. Metodika kabineta ishining eng muxim tomonlaridan biri-bolalar muassasasi xodimlariga mustaqil o'qishlarini tashkil etishda yordam ko'rsatishdir. Metodika kabineta ishida katta o'rinni tarbiyachilar bilan ishlashni tashkil etish egallashi kerak.

Pedagogik kabinetning ishi

Maktabgacha ta`lim muassasasidagi butun metodik ishning markazi pedagogika kabinetidir. Pedagogik jarayonni uyuştirish, ota-onalar bilan ishslash, pedagogik mahoratlarini oshirish va mustaqil o'qishlarini tashkil qilishda tarbiyachilarga amaliy yordam ko'rsatishdagi etakchi rol pedagogika kabineti zimmasidadir.

Pedagogika kabineti bolalar muassasasi an`analari jamg'ariladigan joydir. Uslubchining vazifasi jamg'arilgan tajribaga «jon ato qilib» tushunarli qilish, tarbiyachilarni bolalar bilan ishlashda ularni ijodiy qo'llashga o'rgatishdir.

Pedagogika kabinetida to'g'ri yo'lga qo'yilgan ish barcha xodimlarning metodik tayorgarligini oshirishga, xususan, bolalarmi har tomonlama rivojlantirish vazifalarini hal qilishga yordam beradi.

Pedagogik kabinetining asosiy vazifasi maktabgacha ta`lim muassasasisi tarbiyalariga metodik yordam ko'rsatish, ularning g'oyaviy-siyosiy va ilmiy-metodik saviyalarining, pedagogik mahoratlarining o'sishi uchun sharoit yaratishdir. MTMdagi pedagogika kabineti, shuningdek, ilg'or pedagogik tajriba to'rejaadigan, umumlashtiriladigan va tarqatadigan boshlang'ich markaz hamdir. Kabinetning muhim vazifalaridan biri tarbiyachilarga o'z mehnatlarini ilmiy asosda tashkil qilishlarida yordam ko'rsatishdir.

Pedagogika kabineti bu vazifalarni hal etishi uchun uslubchi kabinetdagi materiallar mazmuniga oshirilgan talablar qo'yishi, uni tizimlashtirish va puxta o'ylab chiqishi kerak.

Pedagogika kabinetida tarbiyachilarni kabinetda mavjud materiallar bilan tanishtirish, yaxshi tajribani tashviqot qilish va yoyish maqsadida «axborot xizmati» uyushtiriladi. Axborot xizmati xilma - xil axborot byulletenlari, bolalar ta`limi va tarbiyasiga doir ayrim masalalar bo'yicha «axborot kunlari», yangi kitoblar annotatsiyasi havolasi bilan «Metodik adabiyotlar yangiliklari», «Tajriba, muammo, amaliyot», «Metodik burchak» stendlari va hokazolar bo'lishi mumkin.

21.3. Metodik ishlarni tashkil etishning shakl va usullari.

Maktabgacha ta`lim muassasasidagi pedagogik xodimlar jamoasida olib boriladigan metodik ishlarning funktsiyasi nazoratni-yordam berish bilan olib borilishi uzviyidir. Endilikda, maktabgacha ta`lim muassasalarda metodik ishlarni tashkil etishning yangi shakllari ishlab chikilmokda. Avvalgi metodik ish shakllari o'zining kiymatini yukotib bormokda. Tarbiyachilarning ijodiy kobiliyatlarini ustiruvchi yangi ish usullari tobora keng tarkalmokda.

- 1) turli xil ish o'yinlari;
- 2) akliy xujum (g'oyalalar banki);
- 3) baxs-munozara;
- 4) KVN-shaklidagi baxs o'yinlari;
- 5) pedagogik ring;
- 6) pel agogik klub va boshqalar.

Bu o'yinlarning foydali jixatlari shundaki, ular ochik muloqot, fikrlar almashinuvini, o'rganilayotgan yoki dolzarb muammoni ochikchasiga-atroflicha xal etish, taxlil kilish, kerakli karorlarni kabul kilish kabi mantikiy firklash kobiliyatlarini oshiruvchi-ish shaklidir. Bunda o'zin turlarida muassasa jamoasi jipslashadi, baxs-munozara vaktida o'zini puxta bilish, baxslashish madaniyati bilan kurorllantiradi, xodimlarning o'zaro munosabatlarini, bilim-saviyalarini ustirish vositasidir.

Progressiv metodik ishlarning negizi-bu jamoa muxokamasidir. O'zin katnashchilari o'zlarining xulosalari bilan baxs-munozaraga kirishadilar, bunda xar bir ishtirokchining akli, talanti, tafakkur darajalari yakkol namoyon bo'ladi. Psixologiya faniqa xar bir pedagogik jamoa o'zining dunyokarashi, xususiyatlariga ega bo'lishi bilan farklanadi-deyiladi. Bu kuvvatdan ancha vaktgacha kam foydalanim kelindi. Demak, maktabgacha ta`lim muassasalarida o'tkaziladigan turli metodik ish shakllarida asosiy o'rinn-jamoa fikri egallaydi.

1. Ishbop o'yinlari- bu o'zin jamoani va o'zin ishtirokchilarini xayotiy sharoitga tobora yakinlashtiradi, u pedagogik karorlarni to'g'ri, tez, okilona kabul kilish kabi malakalarini shakllantiradi. Yo'l kuyilgan kamchiliklarni ko'ra olish va xatolarni turgilash kabi kobiliyatlarini o'stiradi. Ishbop o'yinlarni ilmiy asosda ishlab chikkan olimlardan - Lisin B., N.Verbitskiy, S.Galayda va boshqalar bu o'yinlarni musobaqali, rolli tuzilganlar.

Tayyoragarlik boskichi: bunda o'zin maksadi, vazifalari, tashkiliy koidalar, o'zin boshlanishidagi reglament vakti, ijro etuvchi ishtirokchilarini tanlab olish, o'zin uchun kerakli jixozlarni, materiallarni tayyorlash; o'zin yakuni, o'yinni taxlil kili shva natijasini anklab baxolash.

Maktabgacha ta`lim muassasalarining guruxlarida 2oyda 1 marta ota-onalar majlisi bo`lib utadi. SHuning uchun, biz tarbiyachilarga metodik tavsiya sifatida «Ota-onalar majlisi» o`yinini tanladik.

Mavzu: «Biz va bizning bolalarimiz».

Maksad: Bolalar bilan mulokat malakalarini shakllantirish, mustaxkamlash, bir-biri bilan o`zaro munosabat, umumiy til topisha olish kabi xususiyatlarni tarbiyalash, kelishmovchilik jarayonida ogoxlantirish kushimchalarini tarbiyalash.

Rollar: tarbiyachi, mudira, ota-onalar, buvi, katta ona, ota-onalar kumitasi a`zolari, pedagoglar.

Referent: ish kuzatib boruvchi va baxolovchilar. Bo`lar bir necha bo`lishlari mumkin. Referent o`yinni kuzatib boradi va tegishli kuzatish xaritasiga qayd kiladi.

1. Tarbiyachining ota-onalar bilan suxbati, suxbat jarayonini taxlil kilish:
- a) bir nechta tarbiyachilar savolning nazariy va amaliy jixatlarini egallagani;
- b) ota-onalar majlisi mavzusidagi suxbat kay darajadaligi;
- v) suxbat mavzusi guruxlardagi bolalarning xolati bilan boglikligi;
- g) suxbatda ota-onalarning kizikishlarini xisobga olish, ularning bu mavzu bo`yicha bilim saviyalari darajalari;
- d) tarbiyachi tomonidan o`rganilayotgan muammoga kizikish xislarini xosil kilish, savollar bera olish, so`zga chikish, tarbiyachining mantikiy, birin-ketin, astasekinlikda, asosli ravishda o`z fikri nuktai-nazarida bayon etish;
- j) kushilmagan tarbiyachilarga nisbatan tarbiyachi tez, to`g`ri kirishib keta oladimi?

21.4. Maktabgacha ta`lim muassasalarida pedagogik texnologiyalardan foydalanishning nazariy asoslari

Ta`lim texnologiyasi tushunchasi ta`lim maqsadiga erishish quroli, ya`ni oldindan loyihalashtirilgan ta`lim jarayonini yaxlit tizim asosida bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish va shu maqsadga erishishning metod, usul va vositalari tizimini, ta`lim jarayonini boshqarishni ifodalaydi.

Pedagogik texnologiyaning markaziy muammosi bola shaxsini rivojlantirish orqali ta`lim maqsadiga erishishni taminlashdan iborat. Pedagogik texnologiyaning tamoyillari quyidagilardir: kafolatlangan yakuniy natija, ta`limning samaradorligi, qaytuvchan aloqaning mavjudligi, ta`lim maqsadining aniq shakllanganligi.

O`yin texnologiyasi ham o`yin metodidan o`zining aniq maqsadi, amalga oshirish kerak bo`lgan jarayonlarning mantiqiy ketma-ketligi va o`zaro bog`liqligi, oldindan belgilangan natijalarga erishish kafolati bilan farq qiladi.

L.S. Vigodskiy o`yinni bolaning ichki ijtimoiy dunyosi, ijtimoiy buyurtmalarni o`zlashtirish vositasi sifatida ta`riflaydi.

Har qanday o`yin muayyan vazifalarni bajaradi:

- maftunkorliq
- kommunikativliq
- o`z imkoniyatlarini amalga oshirish;
- tashxis;

- o'yin ishtirokchilari o'rtasidagi muloqot;
- ijtimoiylashuvlik.

S.A. Shmakovning ta`kidlashicha, o'yinlar quyidagi to'rtta asosiy xususiyatga ega:

- erkin rivojlantiruvchi faoliyat. ya`ni bola o'yinni o'zi tanlaydi, unda faol ishtirok etadi. Bunda birinchi navbatda yakuniy natija emas, balki o'yin jarayoni muhim ahamiyatga ega;
- ijodiy xarakter, ya`ni o'yin jarayonida bolalar uchun ijod qilishga katta imkoniyatlar mavjud;
- emotsiyal ta`sir — bola o'yinda markaziy o'rinni egallashni xohlaydi, g'olib bo'lishga intiladi, bu bolaning faolligini oshirishga yordam beradi;
- asosiy va qo'shimcha qoidalar o'yin mazmuni, uning mantiqiy ketma-ketligini belgilaydi.

O'yin tuzilishiga maqsad, rejalashtirish, maqsadga erishish, natijalarni tahlil qilish kabi komponentlar kiradi. O'yining eng asosiy xususiyati uning ijodiyligidadir. U o'zaro kurash, musoba-qalashish, raqobat shaklida namoyon bo'ladi.

Nazariy jihatdan o'yinga faoliyat, jarayon va o'qitish metodi sifatida qarash mumkin.

O'yin faoliyat sifatida maqsadni belgilab olish, rejalashtirish va amalga oshirish, natijalarni tahlil qilishni qamrab oladi va bunda shaxs subekt sifatida o'z imkoniyatlarini to'la amalga oshiradi.

O'vinli faoliyatni motivatsiyalash o'yin xarakterining muso-baqlashish shartlari, shaxsning o'zini namoyon qila olishi, o'z imkoniyatlarini amalga oshirish ehtiyojlarini qondirishdan kelib chiqadi.

Jarayon sifatida o'yin tuzilmasi (G.K. Selevko ta`biricha) quyidagilarni qamrab oladi:

- o'ynash uchun olingan rollar;
- bu rollarni ijro etish vositasi bo'lgan o'yin harakatlari;
- haqiqiy narsalarni shartlilarga almashtirish;
- o'yinda ishtirok etuvchilarining real o'zaro munosabatlari;
- o'yinda shartli ravishda yaratilgan syujet (mazmun).

Har qanday texnologiyada, jumladan, o'yin texnologiyalarida ham, o'quv maqsadi aniq belgilanishi zarur. Bu texnologiyaning asosiy negizidir. Maqsad to'g'ri qo'yilishi uchun tarbiyachi bolaga nimani o'rgatmoqchi bo'lganligini bilishi kerak. Bitta mashg'u-lotda bitta maqsad qo'yilishi maqsadga muvofiq. Masalan, bolalarni 3 raqami bilan tanishtirish yoki yil fasllari haqida tushuncha berish va h.k.

O'yin texnologiyalari (ayniqsa, bog'cha bolalari uchun) rivojlantiruvchi maqsadlarni (bolaning idrok, xotira, diqqat, tafak-ko'rini rivojlantirish) amalga oshirishi ham mumkin. Bunda o'yin jarayonida yakuniy natija muhimroq bo'ladi.

Maktabgacha ta`lim tizimida pedagogik o'yinlarning shakl-lari va amalga oshirish metodlari. Pedagogik ijrochilik o'yinlari ni bola uch yoshdan boshlab o'zlashtira boshlaydi. Shu yoshga kelib bola odamlar o'rtasidagi munosabatlar

bilan tanisha boshlaydi. hodisalarning ichki va tashqi tomonlarini ajrata boshlaydi, o'zida ichki kechinmalarni sezaga boshlaydi. Ularga munosabat bildiradi.

Maktabgacha yoshda bolalar o'yin faoliyatini o'zlashtira borib ijtimoiy qadrli va ijtimoiy baholanuvchi faoliyatga tayyorlana boshlaydilar. Maktabgacha ta`lim tizimida qo'llaniladigan pedagogik o'yinlarning quyidagi turlari mavjud:

1. Bolalar kayfiyatini ko'taruvchi.
2. Hamkorlikka chorlovchi.
3. Bolalarni o'zligini namoyon etishga chorlovchi.
4. Bolalarda o'ziga ishonch hissini shakllantiruvchi, jismoniy va intellektual muammolarni yo'qotishga qaratilgan.
5. Maktabgacha bolalar xatti-harakatidagi cheklanishlarni tav-siflovchi (diagnostika).
6. Bolalar shaxsi strukturasiga ijobiy korreksiyalar beruvchi.
7. Millatlararo bag'rikenglikni shakllantiruvchi.
8. Bolalarda ijtimoiy, jamoaviy munosabatlarni shakllantiruvchi o'yinlar.

Pedagogik o'yinlami quyidagicha tasniflash mumkin.

Faoliyat turlariga qarab: ijtimoiy intellektual, mehnat, ijtimoiy va psixologik o'yinlar.

Pedagogik jarayonlarning xarakteriga qarab: ta`lim-tarbiyaviy, rivojlantiruvchi, mahsulotli, ijodiy, psixotexnik o'yinlar.

O'yinlar metodlariga qarab: predmetli, syujetli, badiiy rolli, hodisalami tasavvur etuvchi va dramalashtiruvchi o'yinlar.

Predmetlar asosidagi o'yinlar: matematik, biologik, ekologik, musiqali, texnikaviy, jismoniy tarbiyalovchi, iqtisodiy tejamkorlik va ishbilarmonlik, tadbirkorlikni rivojlantiruvchi o'yinlar.

O'yin vositalari bo'yicha: o'yin vositalari (koptok, piramida, kub va boshq.) bilan amalga oshiriladigan o'yinlar va o'yin vosi-talarisiz amalga oshiriladigan o'yinlar xontaxta ustida, xonada va dalada o'ynaladigan o'yinlar, kompyuter va televizor o'yinlari kabi texnik vositalar.

Maktabgacha ta`limda yoshi kattalarning to'plagan tajribasini kichik yoshdagilarga singdirish jarayonida o'yinlar ta`lim metodi sifatida namoyon bo'ladi. O'yin metodlariga qarab maktabgacha ta`lim vazifalaridan kelib chiqib, predmetli, syujetli-ishchan, dra-malashtirilgan o'yinlardan keng foydalaniadi.

Maktabgacha ta`limda rivojlantiruvchi pedagogik o'yinlami o'quv tarbiya jarayonida qo'llash quyidagi o'ziga xos xarakterga ega bo'ladi. Birinchidan, rivojlantiruvchi pedagogik o'yinlar maxsus topshiriqlar majmuasidan iborat bo'ladi. Ikkinchidan, o'yin fao-liyatidagi topshiriqlar rangli kublar, g'ishtchalar, kvadratlar, plas-tilin, karton qog'ozlar, konstruktor-mexanik majmularida turli ornament, rasm va jimjimador predmetlar vositasida amalga oshi-riladi. Uchinchidan, topshiriqlar mustaqil bajarilishini ta'minlash maqsadida ulami osondan qiyinda tomon, aniq vaqt oralig'ida sifatli bajarilishini ta'minlash darkor.

Maktabgacha ta`lim muassasalarida interfaol o'yinlardan foydalanish ijobiy natijalarga olib keladi. Bu o'yinlar jarayonida bola passiv obektdan faol subektga aylanadi. Tarbiyachining asosiy vazifasi esa o'yinni tashkil etish, bolalar ijodiga sharoit yaratishdan iborat.

Interfaol o'yinlar jarayonida bola mustaqil fikrini to'g'ri bayon etishga, boshqalarni tinglashga o'rganadi, boshqacha qilib ayt-ganda interfaol o'yinlar orqali kelajakda har bir bola uchun zarur bo'lgan ijobiy sifatlar shakllantiriladi. Interfaol o'yinlami samarali o'tkazish uchun quyidagi qoidalarga e'tibor berish lozim:

1. Mashg'ulot oldidan bolalar o'yin qoidalari va mazmunini qay darajada tushunganliklarini aniqlash.
2. Bolalarning yosh xususiyatlari va bir-birlariga bo'lgan munosabatlarini hisobga olish.
3. Har bir bolaning qobiliyati va psixologik xususiyatlarini e`ti-borga olish.
4. O'yin jarayonida bolalarga qiziq bo'lgan materiallardan foydalanish.
5. Diqqat va e`tiborni jalb etadigan uslublarni izlab topish.
6. Bolalarga rollarni to'g'ri taqsimlash.
7. O'yindan qanday maqsadda foydalanish mumkinligini bilish.
8. O'yinning asosiy bosqichlari haqida tasavvurga ega bo'lish va natijalarini prognoz qilish.

Pedagogik nuqtayi nazardan to'g'ri tashkil etilgan o'yin bolaning axloqiy, irodaviy xususiyatlarini shakllantirish bilan birga unda bilim olishga, atrofdagi olam sirlarini ochishga qiziqish uyg'otadi. SHuning uchun maktabgacha ta`lim muassasalarida o'yin texnologiyalaridan keng foydalanish kerak.

O'yinlar texnologiyasi tushunchasi pedagogik texnologiyaning tarkibiy qismidir. O'yin texnologiyasi an'anaviy ta`limdagi o'yin metodidan o'zining aniq maqsadi, amalga oshirish kerak bo'lgan jarayonlarning mantiqiy ketma-ketligi va o'zaro bog'liqligi, oldindan belgilangan natijalarga erishish kafolati bilan farq qiladi.

Xulosa qilib shuni ta`kidlash kerakki, yuqoridaq nazariy asoslardan foydalanish maktabgacha ta`lim-tarbiya jarayoni samara-dorligmi oshirishga xizmat qiladi.

Nazorat savollar:

1. O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta`limga metodik raxbarlikning tashkiliy tuzilishini tushuntiring.
2. Pedagogik kabinet ishining maqsad va vazifalarini izohlang.
3. Metodik ishlar qanday shakl va usullarda tashkil etiladi?
4. Pedagogik texnologiyani metodik ishlarga qo'llash jarayonini tushuntiring.

Testlar:

1. Boshqaruvda – pedagogik texnologiyalarning shakllarini aniqlang

- A) Pedagogik innovatsion, axborot texnologiyalari
V) Innovatsion M.Montessori, axborot texnologiyalari
S) Axborot, Triz, Innovatsion
D) Triz, interfaol, axborot texnologiyalari.

2. Pedagogik kabinetning asosiy vazifalari bu –

- A. Maktabgacha ta`lim muassasalariga metodik jihatdan yordam ko`rsatish
- B. Ta`lim-tarbiya jarayonini o'stirishda nazariy va amaliy yordam ko`rsatish
- V. Pedagogik xodimlarning kasb mahoratlarini o'stirishda yordam ko`rsatish
- G. Barcha javoblar to'g'ri

3. Maktabgacha ta`limda yangicha yondashuvni aniqlang

- A. Pedagogik, innovatsion texnologiyalar asosida
- B. Metodik ishlarni takomillashtirish
- V. Metodik birlashmalar samaradorligini oshirish
- G. Pedagogik tashviqot ishlarni yo'lga qo'yish

4. Maktabgacha ta`limda bolalar bilan o'tkaziladigan pedagogik texnologiyalar bu -

- A. Pedagogik ring, innavatsion, KVN
- B. TRIZ-IMEN, M.Montessori, interfaol
- V. Bumerang, FSMU, Veer
- G. Davra suxbati, fikrlar g'oyasi Klaster

5. Metodik ishlarni tashkil etishning asoslarini yoritib bering

- A. Metodika xonada ishslash, pedagogik kengash, seminar, seminar mashg'ulotlar
- B. Yakkama-yakka suhbat, pedagogik kengash, seminar
- V. Pedagogik kengash, seminar mashg'ulot, seminar tibbiy-pedagogik kengash
- G. Umumiy va guruh ota-onalar kengashi, ochiq mashg'ulotlar, maslaxatlar

Adabiyotlar:

1. I.A.Karimov. Yuksak ma`naviyat – engilmas kuch. –T.: Ma`naviyat, 2008 y.
2. I.A.Karimov. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. –T.: O'zbekiston, 2000 y.
3. «Barkamol avlod yili» Davlat dasturi. –T.: O'zbekiston, 2010 y.
4. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: O'zbekiston, 1992 y.
5. O'zbekiston Respublikasining «Ta`lim to'g'risida»gi Qonuni. –T.: Sharq, 1997 y.
6. O.U.Xasanboeva, M.X. Tadjieva, SH.K.Tashpulatova va boshqalar “Maktabgacha ta`lim pedagogikasi” “Ilm Ziyo”. T.: 2006 y.
7. O.U.Xasanboeva “Oilada barkamol avlod tarbiyasi”. T., «Fan va texnologiyalar» 2010 y.
8. Sh.K.Tashpulatova “Maktabgacha ta`lim muassasalar ishini tashkil etish va boshqarish usullari” TDPU.T.: 2001 y.
9. B.Ziyomuhamedov, Sh.Abdullaeva “Pedagogika” “O'zbekiston Milliy entsiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti”. T.: 2000 y.
- 10.R. Mavlonova “Pedagogik texnologiya” Toshkent “Fan” 2009 y.

- 11.R. Ishmuxamedov “Ta`limda innovatsion texnologiyalar”. Toshkent “Iste`dod”. 2008 y
- 12.A. I.Vasileva, L.A. Baxturina, I.I.Kobitina “Bolalar bog’chasingning katta tarbiyachisi” T.: “O’qituvchi”1991 y.
- 13.Kadrlar bilan ishlash yo’riqnomasi. “Xalq ta’limi xodimlari asosiy mavzularini malaka tavsiflari”. Toshkent 2007 y.
- 14.Spravochnik “Rukovoditelya doshkolnogo orazovatelnogo uchrezdeniya” “Ilm Ziyo”. T.: 2006 y.
- 15.Maktabgacha ta`lim kontseptsiyasi. Toshkent 2008 y.

MUNDARIJA

KIRISH.....4

I bob. Maktabgacha ta`lim muassasasi uslubchisining pedagogik jamoa faoliyatidagi o'rni.

1.1. Maktabgacha ta`limning Davlat xarakteri, uning xalq ta`limi tizimida tutgan o'rni.....6
1.2. Maktabgacha ta`lim muassasasi uslubchisi, uning huquqi, vazifalari va unga qo'yiladigan talablar.....9
1.3. Uslubchining liderlik va boshqaruv jihatlari.....12
1.4. Liderlikka oid nazariyalar.....16

II bob. Maktabgacha ta`lim muassasasi yosh tarbiyachilariga metodik yordam.

2.1. Maktabgacha ta`lim muassasasi uslubchisining g'ayaviy-ma`naviy etukligi, umumiyl madaniyati.....19
2.2. Uslubchi tomonidan boshqaruv tamoyillari.....24
2.3. Jamoada yosh tarbiyachilar ishlarni tashkil etishda – uslubchining pedagogik mahorati.....26
2.4. Yosh mutaxassislar bilan yakka tartibda ishlarni tashkil qilishning usul va uslublari.....27

III bob. Pedagogik jamoaga muvaffaqiyatli uslubchilik qilish borasida maslahatlar.

3.1. Uslubchining g'oyaviy-ma`naviy etukligi, umumiyl madaniyat va ishbilarmonlik jadvalini tuzish.....31
3.2. Maktabgacha ta`lim muassasasi uslubchisiga metodik maslahatlar.....35

IV bob. Maktabgacha ta`lim muassasasi ishini rejalashtirish va ma`yoriy hujjatlar.

4.1. Maktabgacha ta`lim muassasasi ishini rejalashtirishning nazariy asoslari.....39
4.2. Ta`lim-tarbiyaviy ishlarni istiqbolli rejalashtirish vazifalari va unga qo'yiladigan talablar.....41
4.3. Guruhning haftalik kalendar ish rejasi va unga qo'yiladiga talablar.....43
4.4. Maktabgacha ta`lim muassasasining yillik ish rejasi, uning mazmuni va mohiyati.....45

V bob. Maktabgacha ta`lim muassasasining yillik ish rejasi.

5.1. Maktabgacha ta`lim muassasasi yillik ish rejasini tuzish.....49

VI bob. Maktabgacha ta`lim muassasasi yosh guruhlarida ta`lim-tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish mazmuni.

6.1. Ta`lim-tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish mazmuni.....	56
6.2. YOsh guruhlari bo'yicha bolalarda hulq-atvor va madaniy-gigienik malakalarni tarbiyalash ishini rejalashtirish.....	58
6.3. Bolalar o'yinlarini rejalashtirish.....	61
6.4. Bolalarning mehnat faoliyatini rejalashtirish.....	62

VII bob. Mashg'ulotlarda o'qitishni rejalashtirish (amaliy)

7.1. Mashg'ulotlar maktabgacha ta`lim muassasasida o'qitishning asosiy va etakchi shakli sifatida.....	65
7.2. Maktabgacha ta`lim muassasasi yosh guruhlarida ta`limning o'ziga xos xususiyatlari.....	71
7.3. Ertalabki vaqt bo'lagi, sayr va kunning ikkinchi yarmini rejalashtirish.....	80

VIII bob. Maktabgacha ta`lim muassasasi tarbiyachilariga bir kunlik ish rejasini tuzish bo'yicha tavsiyalar (amaliy)

8.1. Maktabgacha ta`lim muassasasining bir kunlik ish rejasini tuzish.....	85
8.2. Maktabgacha ta`lim muassasasi mudiri, uslubchisi va tarbiyachisining ish hujjatlarini o'rganish.....	87

IX bob. Ta`lim –tarbiyaviy ishlarni tashkil etish va nazorat qilish.

9.1. Maktabgacha ta`lim muassasasi uslubchisining ta`lim-tarbiyaviy ishlarni tashkil etishga rahbarligi.....	89
9.2. Dastur asosida pedagogik jarayonni rejalashtirishning maqsad va vazifalari.....	93
9.3. Uslubchining ta`lim-tarbiyaviy ishlarni nazorat qilishi.....	94
9.4. Ochiq mashg'ulot va tadbirlarni tashkil etish.....	98

X bob. Maktabgacha yoshdagi bolalar hayotini tashkil qilish va ularni tarbiyalash.

10.1. Maktabgacha ta`lim muassasasida bolalar hayoti va faoliyatini tashkil etishning asosiy printsiplari.....	101
10.2. Bolalarning maktabgacha tarbiya muassasalaridagi hayot sharoitiga va tarbiyaga moslashishi.....	103
10.3. Turli yosh guruhlarida bolalar hayotini tashkil etish va guruhga moslashtirishning o'ziga xos xususiyatlari.....	106
10.4. Uslubchining ilk yosh guruhlarida bolalar hayotini tashkil etishga raxbarligi.....	113

XI bob. Maktabgacha ta`lim muassasasi tarbiyalanuvchilarining madaniy – gigienik malakalarini rivojlantirish (amaliy).

11.1. Maktabgacha yoshdagи bolalar guruhlarida madaniy-gigienik va mehnat malakalarini egallash darajalari.....	117
11.2. Malakalar mazmuni murakkablashuv jadvalini tuzish.....	119

XII bob. Maktabgacha ta`lim yoshdagи bolalarning o`yin faoliyatiga raxbarlik (amaliy)

12.1. Uslubchining o`yin faoliyatini kuzatishi va tahlil qilishi.....	121
12.2. O`yin jihozlari va o`yinchoqlarni turkumlash.....	123

XIII Bob. Pedagogik jarayonda harakatli-didaktik va musiqali-didaktik o`yinlarning bola shaxsini rivojlantirishdagi o`xziga xos ahamiyati (amaliy).

13.1. Maktabgacha yoshdagи bolalarning rivojlanishida o`yinning tutgan o`rni va uning pedagogik talablarga javob berishi.....	127
13.2. Turli yosh guruhlarida bolalar o`yinlariga rahbarlikni tahlil qilish.....	136

XIV bob. Mehnat tarbiyasiga rahbarlik (amaliy).

14.1. Maktabgacha yoshdagи bolalarning mehnat tarbiyasi vazifalari jadvalini tuzish (Dasturi asosida).....	138
14.2. Mehnat turlari jadvalini tuzish (maishiy - xo`jalik, tabiatdagi, qo`l mehnati).....	139

XV Bob. O`quv faoliyati tahlili (amaliy)

15.1. Maktabgacha ta`lim muassasasida o`quv jarayonini nazorat qilishdan maqsad va unga qo`yiladigan talablar.....	143
15.2. Uslubchining o`quv faoliyatini nazorat qilishi.....	150

XVI Bob. Pedagogik kengash.

16.1. Pedagogik kengash –pedagoglar jamoasi fikrini ifodalovchi metodik ish shakli.....	156
16.2. Pedagogik kengash to`g`risidagi Nizomning maqsad va vazifalari.....	157
16.3. Pedagogik kengash yig`ilishini o`tkazish metodikasi.....	158
16.4. Pedagogik kengash ish hujjatlarini yuritish.....	163

XVII Bob. Seminarlar va maslahatlar (amaliy).

17.1. Maktabgacha ta`lim muassasalarida o`tkaziladigan seminar metodik ish shakli ekanligi.....	167
17.2. Seminar mashg`ulotlari va ularni tashkil etish.....	170

XVIII Bob. Ilg'or pedagogik jarayonni umumlashtirish.

18.1. Maktabgacha ta`lim muassasasida ilg'or ish tajriba ishlarni o'rganishni tashkil etish.....	173
18.2. Uslubchi tomonidan nazorat qilishning ahamiyati.....	176
18.3. Uslubchi tomonidan pedagogik jarayonni tashkil etishning usul va uslublari.....	179
18.4. Ta`lim - tarbiyaviy ishlarni nazorat qilish.....	183

XIX Bob. Maktabgacha ta`lim muassasasi, oila va jamoatchilik (nazariy).

19.1. Maktabgacha ta`lim muassasasining oila bilan hamkorlik ish shakllari.....	189
19.2. Maktabgacha ta`lim muassasasining ota-onalar va jamoatchilik bilan ish shakllari.....	196
19.3. Xalq ta`limi tizimidagi ta`lim muassasalari vasiylik kengashlari to'g'risida Nizomning maqsad va vazifalari.....	203
19.4. Ota-onalar savodxonligini oshirishda oilaning vazifalari.....	208

XX Bob. Ota-onalar uchun kechalar va to'garaklar uyushtirish (amaliy).

20.1. Maktabgacha ta`lim muassasasida ochiq eshiklar kuni, yosh ota-onalar maktabi.....	221
20.2. Aholi o'rtaida pedagogik tashviqot va pedagogik bilimlar universiteti.....	223

XXI Bob. Pedagogik kabinetning ishi va pedagogik jarayonni jihozlash.

21.1. Maktabgacha ta`limga metodik rahbarlikning tashkiliy tuzilishi va vazifalari.....	228
21.2. Pedagogik kabinetning ishi va vazifalari.....	232
21.3. Metodik ishlarni tashkil etishning shakl va usullari.....	235
21.4. Metodik ishlarni pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish.....	236